

D.Urakov, R.Tursunov,
A.Biykuziyev, B.Xaynazarov.

JAHON TARIXI

(Qadimgi Sharq, Qadimgi
Yunoniston va Rim tarixi)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

**D. J. URAKOV, R. N. TURSUNOV
A. A. BIYKUZIYEV, B. B. XAYNAZAROV**

JAHON TARIXI

*Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va
Rim tarixi*

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma

**Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2020**

UDK: 373.6
BBK: 74.200.526

095-j - 18

D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov
Jahon tarixi /o'quv qo'llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020,
292 bet.

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan ushbu “Jahon tarixi” o'quv qo'llanmasi jahon tarixining Qadimgi Sharqda ilk sivilizatsiya o'choqlarining vujudga kelishi davridan boshlab, Yevropada G'arbiy Rim imperiyasining qulashigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Mazkur o'quv qo'llanma jahon tarixshunosligida so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgarigi o'quv adabiyotlaridan farq qiladi. Ushbu o'quv qo'llanma bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, undan magistrlar, yosh tadqiqotchilar, tarixchi-olimlar ham keng foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

A. G. Xolliyev — tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

F. Ismatullayev — tarix fanlari nomzodi

S. I. Gabrielyan — tarix fanlari nomzodi

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6793-2-2

©D.J. Urakov, R.N. Tursunov, A.A. Biykuziyev, B.B. Xaynazarov 2020.
© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

SO‘Z BOSHI

Mustaqillik yillarida Oliy ta'lim tizimida tub islohatlar amalga oshirildi. Jahon andozalariga mos ravishda Davlat Ta'lim Standartlari va Malaka talablari ishlab chiqildi. Shu jihatdan Oliy ta'limda ilmiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish hozirga qadar dolzarb sanalib, bu borada Vatanimiz olimlari ham qator ilmiy tadqiqotlarni olib borayotganligi tahsinga sazovordir. Shunga qaramay, "Jahon tarixi" fanidan jahon tarixshunosligida erishilgan yutuqlarni ilmiy muomalaga kiritish borasida qator vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda. Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Milliy universiteti "Jahon tarixi" kafedrası jamoasi tomonidan tayyorlangan bo'lib, unda jahon tarixshunosligida so'nggi vaqtda erishilgan yutuqlar va ilmiy bilimlardan keng foydalanildi. Xususan, "Anglo-sakson maktabi", fransuz "Annallar maktabi" va "Berlin akademiyasi" ilmiy maktablari tomonidan tayyorlangan ilmiy materiallar tanqidiy tahlil etildi. Ushbu o'quv qo'llanmaning "Qadimgi Sharq tarixi" bo'limi t. f. n D. J. Urakov va katta o'qituvchi A. A. Biykuziyev, "Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi" qismlari t. f. n. R. N. Tursunov hamda katta o'qituvchi B. B. Xaynazarov tomonidan yozilgan. Mualliflar jamoasi qo'llanma yuzasidan berilgan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiradi.

QADIMGI SHARQ

Mavzu: Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi

Reja:

1. Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligiga kirish.
2. Qadimgi Mesopotamiya tarixi manbashunosligi.
3. Qadimgi Eron va Xitoy tarixi manbashunosligi.

Qadimgi sharq tarixi manbashunosligiga kirish. Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi tushunchasi XIX asrda fan tariqasida Yevropada yuzaga kelgan. Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi hujjatlar bilan ishlash tizimi ikki xil turga (asosiy manbalar va ikkilamchi) bo'linib o'rganiladi. Fransiya arxeolog olimlari hamda London akademiyasi mutaxassislari rahbarligida ushbu yo'nalish ilk bor o'rganila boshlandi. Manba turlari va uni o'rganish metodikasi ishlab chiqilib, yil sayin mukammallashib borgan. Qadimgi yozma manbalar sfragistika va numizmatikasiga ham ahamiyat berilib, Qadimgi Misr tarixini yozish usullari doimiy taraqqiy etib borgan. Ierogliflarni o'qish markazlari Yevropaning qator yirik shaharlarida yuzaga kelgan. Bu yo'lda nainki Misr, balki, Mesopotamiya, Xettlar, Finikiya, Eron, Xitoy, Hindiston sivilizatsiyalarini o'rganish dolzarb masala bo'lib qoldi. Arxeologik manbalarni tahlil qilish va yozma manbalar bilan solishtirib xronologiyasini belgilash Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligini o'rganishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Qadimgi Misr me'moriy yodgorliklarida bitik toshlar tarzida yozilgan manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Misr tarixshunosligi va manbashunosligi ilk bor S.Sassi, J.F. Shampalyon va boshqalarning asarlarida tilga olingan. Shu bilan birgalikda G.Karterning arxeologik izlanishlari va Tutanxamon maqbarasining ochilishi olamshumul ahamiyatga ega. Qadimgi Misr yozuvi J.Shampalyon tomonidan ilk bor o'qilganda aynan Manefon yozib qoldirgan ma'lumotlar bilan taqqoslangan.

Qadimgi Misr arxeologiyasi, tarixshunosligi va manbashunosligini o'rganish maktablari orasida AQSH olimlarining faoliyatini ham alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bularga R. Michel, J. Assman, I. Edvars, B. Braen (Xopkins universiteti), A. Vallis, D.

Rosalie, V. Devis (Kaliforniya universiteti), K. Bart. (Boston universiteti) va boshqalar misol bo'la oladi.

Ingliz misrshunosligi maktabi vakillariga hozirda Y. Shou (Liverpool universiteti), J. Teylor (Britaniya muzeyi), L. Edmund (Buyuk Britaniya va Irlandiya Anropologiya instituti), A. Rudolf, A. Dodson, D. Xilton, N. Revis va boshqa olimlarni ta'kidlab o'tish mumkin. Ularga qadar yirik misrshunos olimlar N. Devis, X. Farmer, V. Simpson. kabilar faoliyat olib borganlar.

Germaniya misrshunosligi maktabi olimlaridan dastlab L. Klebs, M. Burxard, X. Buxxols va hozirgi kunda S. Xendriks va S. Saydlmayer kabilarning mehnati kattadir.

Qadimgi Misr adabiyotida Ipuser yozma bitiklari Misrda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar haqida ma'lumot beradi. "Aka-uka haqida ertak", "Marhumlar kitobi", "Ajal shahzodasi" kabilarda Qadimgi Misr dini va adabiyotiga oid ma'lumotlar uchraydi.

Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) manbashunosligi va tarixshunosligi ham XIX asr ikkinchi yarmida ilk bor o'rganila boshlandi. Yozma manbalar asosan sopol taxtachalarda bitilgan bo'lib, mixxat yozuvining yorqin xususiyatlarini o'zida aks etgan. Shu bilan birgalikda "Shulgi qonunlari" va "Xammurapi qonunlari" yozib qoldirilgan bo'lib, ularning aksariyati bazalt toshga mixxat yozuvida bitilgan. Shumer-Akkad hukmdorlar ro'yxati e'tiborga sazovordir. Limmu Berrouz ma'lumotlari Qadimgi Mesopotamiya tarixshunosligida muhim ahamiyatga ega.

Kichik Osiyo tarixi manbashunosligi XIX asr ikkinchi yarmida o'rganilib, 1870-yildan boshlab e'tibor qozona boshladi. Arxeologik izlanishlarda olimlar Xett sivilizatsiyasi bilan ilk bor tanishishgan. Chatal Guyuk, Troya kabi mashhur manzilgohlar G. Shliman, D. Mellard, B. Grozniylar tomonidan o'rganilgan.

Mil. avv. XIII asr oxiridan "dengiz xalqlari" hujumidan so'ng inqirozga uchragan Xett davlati haqida tarixiy ma'lumotlar XX asr boshlarigacha juda kam bo'lgan. To'g'ri ushbu davrgacha Kichik Osiyo va Suriyaning shimolidan qadimiy mixxat yozuvlar va tasvirlar topilgan edi. Ammo ularni davrlashtirish va xronologiyasini belgilash o'sha davr uchun muammoli bo'lgan. 1887-yilda tarixchi arxeologlar Tell-Amarna arxividagi diplomatik yozishmalarni tarjima qilganlarida Xett podshosining Misr bilan diplomatik aloqalar olib borganini aytib

boriladi. Bu esa Kichik Osiyoda qadimda yana bir ulkan davlat bo'lganini ta'kidlar edi.

1906-yilga kelib mashhur Germaniyalik olim Y. G. Vinkler Bugozgoy degan joyda (hozirgi Turkiya Respublikasi) Xett davlati poytaxti Xattusani arxeologik izlanishlar natijasida topishga muvaffaq bo'ladi. Natijada Yaqin Sharq tillarida (akkad, xuritt, arsava va boshqa) yozilgan o'n minglab loy taxtachalardan iborat mixxat yozuvlar va hatto Xett davlati Misr podsholigi o'rtasida tuzilgan tinchlik shartnomasining mixxat shakli topildi. Chexiyalik olim B. Grozniy (keyinchalik yirik xettolog) 1915-yilda chuqur lingvistik tadqiqotlardan so'ng qadimgi xett tili hind-yevropa tillar oilasiga mansubligini isbotlaydi. Taniqli tadqiqotchi olim A. Getse 1933-yilga kelib Xett davlati tarixini dastlab umumiy o'rganishga urinadi. Shu bilan birga A. Getse 1933-yilda Kichik Osiyo tarixini ilmiy asosda yozishga harakat qiladi. Olim Xett davlati harbiy ishi va sulolalari tarixiga asosiy e'tiborini qaratadi. U Qadimgi Xett jamiyatining ijtimoiy-siyosiy muassasalari o'xshashligiga (yer-mulk, majburiyatli yer egaligi) asoslanib xettlarning ijtimoiy tizimini chuqur o'rganadi. Taniqli lingvist va arxeologlar xett madaniyati asoslarini yaratishda xattilarga(protoxettlarni) xurrit qabilalarining ta'sirini tadqiq etdilar.

Qadimgi Xett podsholigi tarixini o'rganishda rus xettshunoslik maktabi vakillaridan taniqli sobiq sovet olimlaridan B. Y. Aleksandrov, V. G. Ardzinba, A. V. Volkov, N. N. Nepomnyashiy, G. G. Giorgadze, G. I. Dovgyalo, V. V. Ivanov, A. Y. Nagovitsin va boshqalarning mehnati katta hisoblanadi.

Qadimgi Suriya, Falastin, Finikiya manbashunosligi va tarixshunosligi bevosita Misr tarixi bilan bog'liqdir. Yozma manbalardan Tavrot va Bibliya (Injil) asosiy muhim manbalardan biri hisoblanadi. Chunki Yevropa olimlari XIX asr 2-yarmida Mesopotamiyadagi manzilgohlarni aynan diniy-mafkuraviy omillar asosida izlanishlar olib borgan holda arxeologik manzilgohlarni topishga intilishgan. Ammo bu har doim ham ijobiy natijalarni bermagan.

Qadimgi Eron manbashunosligiga oid qator ma'lumotlar Naqshi Rustam, Behistun qoyatosh bitiklari va Persopol saroyidan topilgan yozma manbalar muhim hisoblanadi. Shuningdek, o'troq dehqonchilikka oid sivilizatsiya asosida paydo bo'lgan arxeologik manzilgohlar: Joytun, Jarmo, Suza, Shahtepa, Marlik, Ekbatan,

Persopollarni misol keltirish mumkin. Qadimgi Eron tarixiga oid yunon manbalar Gerodot, Arrian, Aristobul, Strabon va boshqa olimlarning asarlarida ko'rsatib o'tilgani ta'kidlab o'tiladi. Qadimgi Hindiston manbashunosligi Moxendjadaro, Xarappa, Lotxal, Kalibangan, Pataliputra, Taksilladan topilgan arxeologik yozma va moddiy manbalar muhimdir. Manu qonunlari, Artxashastrada Braxmanlar jamiyati borasida mulohazalar berilgan.

Qadimgi Xitoy manbashunosligini o'rganish XIX asrdan boshlandi. Yozma manbalar Shidszi, Xanshu, Xouxanshu, Veyshuda qadimgi Xitoy manbashunosligi o'z aksini topgan. Anyan, Loyan, Sin Shi Shuandi maqbarasidan moddiy manbalar topilib o'rganilgan. Anyan yozma manbalari asosan ijtimoiy hayotga oid ma'lumotlarda keltirilgan. Sima Szyan solnomasi ayniqsa muhimdir.

Yozma manbalarda ta'kidlanishicha mil. avv. 2000-1775 -yillarda XII sulola fir'avnlari mamlakatni barqaror holatga keltirdilar. Fir'avn Mentuxotep III davrida, Misr arxitekturasida (Madinat Xabu) sezilarli o'zgarishlar yuzaga keldi. Shohlar vodiysida qurilishida ham qator yutuqlarga erishiladi.

Qadimgi Mesopotamiya tarixi manbashunosligi. Shimoliy Mesopotamiya va Suriyaning tarixiy taraqqiyoti bevosita bir-biriga bog'liq. Akkad va keyinchalik Ossuriya tarixining ko'hna mixxat yozuvlarida yoritilishi e'tiborga loyiqdir. XX asr boshlarida Mesopotamiyada arxeologik ekspeditsiyalarning amalga oshirish ko'lamiga kengaydi. Fransiyalik arxeolog Anri de Jenuyak 1912-1914-yillar oralig'ida Kish shahar-davlati qoldiqlarida ilk qazilma ishlarini olib borgan edi. So'ngra 1923-1933-yillarda Oksford muzeyi homiyligida Stiven Lengdon boshchiligida ingliz-amerika ekspeditsiyasi ham qazilma ishlarini davom ettirilganlar. Aynan Kishdan Mesopotamiya shaharlari orasida gegemonlikka erishish jarayoni kuchaygan edi.

Hozirda Qadimgi Mesopotamiya tarixi va manbashunosligi bilan AQSH va Buyuk Britaniya universitetlari olimlaridan Y. Bottero, J. Kuper, S. Dalli, S. Bauer, V. Lambert kabilar faoliyati muhim hisoblanmoqda. Chunki ushbu olimlar tomonidan Qadimgi Mesopotamiya tarixi xronologiyasiga oid muhim o'zgarishlar kiritildi.

Qadimgi Elam markazi Suza shahrida arxeologlar qora bazalt toshga bitilgan qonunlar to'plamini topdilar. Toshbitik elamliklarning Shummerga yurishlari vaqtida o'lja sifatida Suzaga olib kelingan.

Mazkur qonunlarni Bobil hukmdori Xammurappi adolat homiysi va quyosh xudosi Shamashdan olayotgan vaqti tasvirlangan. Mutaxassislar ushbu qonunlarni ikki yuzdan ortiq moddalarga bo'lganlar. Ulardan faqatgina 247 ta moddasi bizga qadar saqlanib qolgan. Garchand qonunlar juda shafqatsiz bo'lsa-da o'sha zamon quldorlik jamiyati ruhiga mos edi.

Mil. avv. XXI asrda Shumer va Akkad markazlashgan davlati yerlariga chorvador amariy qabilalari hujumlari boshlanadi. Natijada qadimgi Mesopotamiyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Markazlashgan davlat parchalanib ketadi va siyosiy inqiroz yuzaga keladi. Elam davlati kuchayib Mesopotamiyaning janubidagi shahar-davlatlarini o'z ta'sir doirasiga oladi.

Qadimgi Mesopotamiya tarixida mil. avv. XX-XVI asr boshlari Bobil podsholigi tarixi bilan bevosita bog'liq. Bobil hukmdori Xammurapi (mil. avv. 1792-1750) Elamga qarshi chiqadi va mil. avv. 1755-yilda ularni shumerdan siqib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Keyingi mixxat yozuvlarida bu haqida qator ma'lumotlar keltirilgan.

Chikago instituti arxeolog olimlari R. Beydvud, L. S. Breydvud, B. Xaular Mesopotamiya tarixiga oid qator ma'lumotlar keltirdilar. Al-Ubayda keramikasi Ur va Eredu madaniyatidan nisbatan farq qiladi. Ya'ni, qushlar va hayvonlar tasviriga boyroq.

Qadimgi Bobil podshosi Xammurapi qonunlari Bobil va qadimgi Sharq huquqshunosligi haqidagi eng muhim manbalardandir. Mil. avv. II ming yilliklardagi Bobil ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida eng to'liq ma'lumotlar aks etgan qonunlar davlat rolini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ularni o'rganish orqali qadimgi Bobilning xo'jaligi, (qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo va sudxo'rlik), ijtimoiy tuzumi (yerga egalik shakllari, qulchilik, jamoa, oila, huquq va boshqalar) haqida nihoyatda boy va ahamiyatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Qadimgi Eron va Xitoy tarixi manbashunosligi. Ahamoniylar davlati haqida muhim manba sifatida qadimgi Eronning podshosi Doro I ning Behistun bitiklari, Gerodotning 9 muzadan iborat "Tarix" kitobida keltirilgan ma'lumotlar ahamiyatlidir. Behistun qoya toshiga podsho Doro I ning buyrug'i bilan mixxat yozuvida Kir II ning o'g'li Kambiz II ni taxtga kelishi vaqtinchalik taxtni kohin Gaumata egallagani, Doro I ning uni hokimiyatdan chetlashtirilgani haqida so'z boradi. U 23 satraplikni qayta birlashtirganligi haqidagi ma'lumotlarni

yozib qoldirgan. Bu yoʻlda bir necha oʻnlab ichki nizolarga chek qoʻygani va qoʻzgʻolonlarni bostirganligi haqida Behistunda keltirib oʻtgan. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning kitobida Ahamoniylar imperiyasi, yunon-fors urushlari haqida maʼlumotlarda aytib oʻtiladi. Ayniqsa, Gerodot Doro I ning oʻz imperiyasini 20 ta satraplikka boʻlgani, ularning har biriga soliq belgilaganligi haqidagi maʼlumotlar muhimdir. Taniqli antik davr tarixchisi Ksenofontning “Iqtisodiyot” asarida ahamoniylar davridagi harbiy islohotlar hamda Suza shahrida saroy qurilishi haqidagi maʼlumotlar qoldirilgan. Shu bilan birga Eron hukmdorining Ioniya hokimi Gadatga yozgan xatida ham qimmatli maʼlumotlar keltirilgan. Qadimgi Eron manbashunosligiga oid tarixiy maʼlumotlar, mixxatda bitilgan yozuvlar va antik davr olimlarining obyektiv hamda subyektiv fikrlariga asoslanadi.

Shuningdek, qadimgi davr olimlaridan Strabon, Aristotel, Esxil, Mark Porsiy Katon, Arrian, Pliniy, Chjan Szyan, Sima Szyan, Ban Gu va boshqalarning asarlari muhim manba hisoblanadi.

Qadimgi Xitoy tarixi haqidagi maʼlumotlarni Ban Chyao, Ban Chjao, Sima Szyan va Fan E asarlarida, Xan imperiyasi tarixiga oid solnomalardan topishimiz mumkin. Ushbu asarlarda Sya, Shan-In, Chjou, “Chunsu” davri (Koʻp podsholiklar), “Chjango” davri (Kurashayotgan podsholiklar) va Sin davlatlari tarixi haqidagi qimmatli maʼlumotlar keltiriladi. Shu bilan birga “Shi Szi”, “Xan Shu”, “Xou Xan Shu” tarixiy solnomalarining ahamiyati borasida soʻz boradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misr manbashunosligi qaysi yozma manbalarga tayanadi?

2. Qadimgi Mesopotamiya tarixshunosligi va manbashunosligining asosini tashkil etuvchi omillarni koʻrsating?

3. Qadimgi Kichik Osiyo tarixshunosligi va manbalari haqida maʼlumot bering?

Glossariy

Tarixshunoslik - Tarixiy tadqiqotlarni oʻrganilishi

Manbashunoslik - Tarixiy yozma manbalarning oʻrganish

Paleografiya - Qadimgi yozuvlarni oʻrganuvchi fan

Sfragistika -	Qadimgi muhr va tamg'alarni o'rganuvchi fa
Numizmatika -	Tangashunoslik
Litografiya -	Tosh bitiklarni o'rganuvchi fan
Ieroglif -	Rasmi yozuv (yunoncha-toshga bitilgan muqaddas yozuv)

Mavzu: Qadimgi Misr

Reja:

1. Qadimgi Misrning tabiiy geografik o'rni va iqlimi.
2. Ilk podsholikni yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari.
3. Qadimgi podsholik davrida Misr.
4. Qadimgi Misr podsholigining inqirozi.

Qadimgi Misrning tabiiy geografik o'rni va iqlimi. Qadimgi Misr hududi Afrikaning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, iqlimi nisbatan issiq, sug'orma dehqonchilikka qulay, Nil daryosi uni kesib o'tadi. Mazkur daryoning uzunligi 6671 km. ni tashkil etadi. Daryo qirg'oqlari turli joylarda o'rtaacha 10-20 kilometrga yaqin vodiylarni tashkil qilgan. To'yingan unumdor tuproq Afrikaning ekvatorial qismidan shiddatli Nil to'lqinlari orqali shimolga oqizib chiqariladi. So'ngra Misr hududida mavsumiy toshqin (odatda iyundan noyabr oyigacha) oqibatida daryo qirg'oqlarida tinib hosildor vodiylarni tashkil qilgan. Shimolda Nil irmoqlarga bo'linib, Deltani (uchburchak) tashkil qilgan va O'rtayer dengiziga quyilgan. Ushbu dengizni qadimgi misrliklar "Uadj-Ur" (buyuk yashillik) deb ataganlar. Qadimda Nil deltasida botqoqliklar ko'p bo'lgan. G'arbda Misr, Liviya cho'llari, shimoli-sharqda Yaqin Sharq hududi va janubda Nubiya (Shimoliy Sudan) bilan o'ralgan. Sharqiy qirg'oqlari Qizil dengizga tutashgan, uni qadimda misrliklar "She-laru"(Iaru ko'li) deb nomlaganlar. Qizil dengiz qirg'oqlarini "Ta-Nuter" sifatida tilga olganlar.

Misr zamini mis, oltin, qo'rg'oshin va yarim qimmatbaho ma'danlariga boy maskan hisoblangan. Misni asosan Sinay yarim orolidan qazib olganlar va tosh bilan birga ziroatchilik va

chorvachilikda keng qo'llashgan. Ohaktosh, granit va kvars Misrda ko'p uchragan. Ma'danga boy rudalar Barka tog'idan qazib olingan.

Misr iqlimi nisbatan mo'tadil bo'lganligi va Yaqin Sharq iqlimiga yaqin ekanligini olimlar (L. S. Berg va K. V. Butser) ta'kidlab o'tganlar. Nil qirg'oqlari qamish, papirus va boshqa o't-o'lanlar bilan qoplangan edi. Daryoda ko'plab baliq turlari mavjud bo'lib, baliqchilikka qulay hisoblangan. Barakali daryo bo'ylarida o'rdak, g'oz, ibis va boshqa qushlar ko'p uchragan. Unumdor tuproqda bug'doy, arpa, tarvuz, qovun, va turli xil sabzavotlar (piyoz, bodring, sarimsoq, sabzi va boshqalar) yaxshi o'sgan. Bularning barchasi Misrni inson yashashi uchun qulay maskan bo'lganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, moddiy va yozma manbalarning umumiy tahlili hamda tarix fani sohasidagi so'nggi ilmiy yutuqlar qadimgi Misr davlatchiligini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

Misrning qadimgi tarixi besh davrga, ya'ni, Ilk podsholik (mil. avv. 3100-2648-yy), Qadimgi podsholik (mil. avv. 2648-2250-yy), O'rta podsholik (mil. avv. 2040-1783-yy), Yangi podsholik (mil. avv. 1550-1069-yy), So'nggi podsholik (mil. avv. 664-332-yy) ga bo'lib o'rganiladi. Bu orada Misr 3 ta o'tish davrini ham boshdan kechiradi. Ammo uning xronologik chegaralari borasida hozirga qadar misrshunoslar orasida munozarali fikrlar mavjud.

Ilk podsholikni yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari. Qadimgi Misr tarixida ilk bor sinfiy tabaqalanish mil. avv. V ming yillikda, Nil vohasini o'zlashtirilishi natijasida yuzaga keladi. "Sulolagacha bo'lgan davr" deb, yuritiluvchi mazkur davr Misr tarixida ikkiga bo'linib, ya'ni "Amrat" (Negada I) va "Gerzey" (Negada II) madaniyatlari sifatida o'rganiladi. Ushbu madaniyatlar qadimgi Misrda irrigatsiyaning o'sishi va chorvachilikni ovchilikdan ustun kela boshlashi haqida ma'lumot beradi. Hunarmandchilik o'z navbatida dehqonchilikdan alohida xo'jalik sifatida ajralib chiqdi va natijada qadimgi Misr jamiyatida mulkiy tabaqalanish jarayoni yanada o'sib boradi. Aynan mana shu davrda Nil daryosi qirg'oqlarida ilk davlatchalar ("sepat" yoki "nom") paydo bo'ladi. Shu tariqa ilk davlatchilik paydo bo'lishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy zamin yaratildi.

Nomliklar soni Nil bo'yi aholisining o'sishi bilan bevosita bog'liq edi. Ularning hududiy chegaralari doimiy tusga ega bo'lmagan. Har

bir nom dastlab mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizgan. Nil bo'yi davlatchalari "nomarx"lar tomonidan boshqarilgan. Nomlik o'z gerbi, diniy va siyosiy markaziga hamda harbiy qismlariga ham ega edi.

Natijada ichki urushlar (misrshunoslikda "nol sulolasi") davrida har bir nomarx oliy hukmronlikka intildi. Umumiy 42 ta nomlik ikkiga ya'ni, Yuqori Misr va Quyi Misr davlatiga birlashadi. Madaniy jihatdan ushbu davlatlar bir-biridan farq qilgan deb bo'lmaydi. Ammo diniy va siyosiy mafkurasida sezilarli tafovut bo'lgan. Qadimda ierogliflarda misrliklar mamlakatini "Ta-kemet" yoki "Ta-ui" deb ataganlar. Shu tariqa, harbiy, siyosiy va iqtisodiy omillar mazkur hududda davlatchilik tizimini shakllanishiga imkon yaratdi.

Ilk podsholikni Misrning Tinis nomligi (Abidosdan uncha uzoqda bo'lmagan hudud)dan chiqqan Menes (Axa yoki Mina) tuzadi va birlashtiradi. Ayrim manbalarda uni Narmer deb ham atashadi. Poytaxt sifatida Nil bo'yidagi yangi shahar Memfis tan olinadi. Dastlabki 1-sulolaga asos solinadi, shunday bo'lsa-da Quyi Misr nomliklari o'ziga xos muxtoriyatni saqlab turgan. Ilk podsholik davrida misrliklar hayotida urug'chilikni ta'siri hali kuchli bo'lgan va ular asosan tosh, mis mehnat qurollaridan ko'proq foydalanishgan, bronza esa kam edi. Nomliklar orasidagi separatizm fir'avnning siyosiy mavqei muvozanatda ushlab turgan.

Ilk podsholik fir'avnlari Jer (mil. avv. 2970-2923-yy), Uadji (mil. avv. 2922-2915-yy), Den (mil. avv. 2915-2910-yy), Adjib (mil. avv. 2910-2900-yy), Semerxet (mil. avv. 2900-2890-yy)lar davrida Misr davlatchiligi asoslari mustahkamlandi. Misr fir'avnlari Den va Adjiblarni yuzlab qullari narigi dunyoga "kuzatib" qo'yish uchun ular bilan birga dafn etilganlar. Oddiy misrlik aholi vakillari esa, odatda cho'lda yuzi Sharqqa qaratib qumga ko'milgan. Hukmdor Adjib o'ziga "Nesu-bit" podsholik unvonini qabul qiladi. "Nesu" tushunchasi yuqoridan, hokimiyatni otadan o'g'ilga o'tishi va "bit" fir'avn o'limidan so'ng ham boshqaruvni tutib turuvchi ma'nolarini anglatar edi. Ya'ni bunda, hukmdor o'z o'g'lida qayta gavgdalanishiga ishora qilingan.

1-sulolaning so'nggi podshosi Kaa (mil. avv. 2890-2864-yy.) Abidos yaqinida Umm al-Kaab nekropoli yonida o'ziga mahobatli mastaba qurdirgan.

Fir'avn Kaa o'limidan so'ng 2-sulolaga Xotepsexemui asos soladi. Davlat boshqaruv tizimi din bilan ajralmas tusga ega bo'lgani

uchun, ijtimoiy tabaqalanishning qonuniylashuvi rivojlanib bordi. Xotepsexemuidan so'ng Raneb, Ninecher, Veneg, Sened, Nubnefer, Paransin va boshqa fir'avnlr Misrni boshqardilar. Ularning hukmronligi xronologiyasi borasida hozir ham misrshunoslar orasida qarama-qarshi fikrlar mavjud.

2-sulolaning so'nggi fir'avni Xasexem (taxminan. mil. avv. 2686-2648-yy) o'z podsholigini Deltadagi (Quyi Misr) qo'zg'olonni bostirishdan boshladi. Natijada 48205 nafar kishi o'ldirildi va 47209 tasi asir olinadi. So'ngra Yuqori va Quyi Misr yagona davlatga yana birlashtirildi. Birlashish jarayonida Misr davlati ilk bor fuqarolar urushini boshdan kechiradi. Endi markaziy hokimiyatning o'rni avvalgiga qaraganda ancha oshdi. Nubiyaga harbiy yurishlar qilindi va boy o'ljalr olib kelindi. Butun mamlakat bo'ylab ichki va tashqi savdo-sotiq (ayniqsa Yaqin Sharqdagi Bibl shahri bilan)qayta tiklandi. Natijada Misrning iqtisodiy qudrati oshadi. U quyi Misr malikasi Nematapni xotinlikka oladi va separatizmga chek qo'yishga harakat qiladi. So'ngra fir'avn o'z ismini Xasexemui (Ikki hokimiyatni mujassamlashtiruvchi) deb o'zgartiradi. Xasexemuining Abidosdagi mahobatli maqbarasi oldida avvalgidek xizmatkor va qullar qatl etilmagan. Chunki uning davrida bo'lib o'tgan fuqarolar urushi, fir'avn boqiy va o'lmas degan tushunchani vaqtinchalik yo'qqa chiqargan edi. Insonlarni inson uchun qurbon qilish odati tugatiladi. Shu tariqa Qadimgi Misr tarixida ilk podsholik davri o'z nihoyasiga etadi.

Qadimgi podsholik davrida Misr. Mil. avv. XXVII-XXIII asrlar, ya'ni qadimgi podsholik davrida Misr kuchli unitar davlat bo'lib, unga mis konlariga boy bo'lgan Sinay yarimoroli qo'shib olinadi. Fir'avn Joser u yerga harbiy ekspeditsiya uyushtiradi. Ko'p o'tmay Falastinnning ayrim hududlari va Shimoliy Nubiyani (Sudan) o'z ta'sir doirasiga oladi. Misrliklarning fikricha, mamlakat taraqqiyotining eng yuqori o'sish davri qadimgi podsholik asoschisi Joser davriga to'g'ri keladi. Podsho mamlakatda tinchlik va osoyishtalik timsoliga aylangan edi. Joserning "xeb-sed" deb atalgan marosimda yugurayotgan holdagi tasviri yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Joser 2-sulola vakillari kabi xom g'ishtdan qurilgan mastabalarda dafn etilishni istamadi. Fir'avn o'z maqbarasini birinchi marotaba zinapoyali ehrom shaklida toshdan qurdiradi. G'arb olimlarining fikricha (S. Bauer) podshoning zinapoya shaklidagi

ehromi loyihasini vazir Imxotep yaratgan bo'lishi mumkin. Aynan Imxotep ishtirokida yangi taqvim joriy etilgan. Unga muvofiq mavsumiy hosil yig'im-terimi astronomik izlanishlar bilan bevosita bog'landi. Natijada hosildorlik oshib, Misr aholisi soni o'sdi va bu yerga qo'shni davlatlardan savdogarlar (tamkarlar) ko'p kela boshladi. Imxotep haykali ostida fir'avn unga taqdim etgan unvonlar birin-ketin sanab o'tiladi. Jumladan, u "podshoning Quyi Misrdagi g'aznachisi", "Yuqori Misrda podshodan keyin birinchi", "Saroy boshqaruvchisi" va "Geliopolisning oliy kohini" sifatida tilga olinadi. Ko'p o'tmay uni tabobat xudosi sifatida ilohiylashtiradilar. G'arb olimlarining fikricha 3-sulolaning so'nggi fir'avni Xuni davrida Meydum ehromi qurila boshlaydi. Ammo, sakkiz zinapoyali qilib qurilishi kerak bo'lgan ehrom, oxirigacha bitmay qoladi. Uni yangi fir'avn Snefru yoki Snofru (tahminan. mil. avv. 2613-2589-yy) bitirishga muvaffaq bo'ladi hamda 4-sulolaga asos soladi.

Qadimgi podsholik davrida qo'shinda yollanma askarlarni xizmat qilishi nisbatan o'sdi. Ya'ni, liviyalik va nubiyaliklar harbiy xizmatga olinib boshladi. Keyingi fir'avnlarda ulkan ehromlar qurilishi davlatning diniy mafkurasi miqyosidagi ishga aylandi. Xeops (tahminan mil. avv. 2589-2566-yy) podsholigi davrida balandligi 147 metrga teng bo'lgan ulkan ehrom qurildi. Qadimgi misrliklar tilida fir'avnning to'liq ismi Xnum-Xufu (Xeops) yani "Xnum meni himoya qilmoqda" degan ma'noni anglatgan. Ma'lumki, misrliklar tasavvurida Xnum xudosi Nil homiysi va insonlarni kulolchilik charxida loydan yaratadi degan tasavur mavjud bo'lgan. Xeops davrida Nil daryosi qirg'oqlarida ko'plab qishloqlar quriladi va mamlakatda hosildorlik oshadi. U bunyod ettirgan ehromlar 2, 5 tonnaga yaqin ohaktoshdan qurilib, granit toshli plitalar bilan qoplangan. Ushbu mahobatli qurilish inshoatini bunyod etilishi uchun yuz minglab odamlar mehnat qilishga majbur edilar. Tarixchi Gerodot Xeopsni shafqatsiz hukmdor sifatida tilga oladi. Shunday bo'lsa-da, Xeops Misr aholisini doimiy ish bilan band qiladi. Ustalar va ishchilar qurilish yaqinidagi shaharchada istiqomat qilganlar. Ularga ovqat, non, pishloq, baliq, pivo va boshqa taomlar doimiy yetkazilgan. Ehromlar yonidan tandirlar, oziq-ovqat omborlari va o'choqlar qoldiqlari topilgan. Ehrom qurilishi jarayonida oddiy quruvchidan usta darajasigacha yetishish mumkin edi.

Fir'avn Xafra ("Turin papirusi"ga muvofiq tahminan mil. avv. 2558-2532-yy) davrida Misr ibodatxonalarini yopganlar hamda yangi umumdavlat Quyosh xudosi Raga sig'inishni joriy qiladilar. Misrda qadimgi podsholikning yuksalgan davrida fir'avn hokimiyati qudrati oshib boradi. Fir'avnning qo'lida ulkan yer zahirasi, dehqonlar (ishchi kuchi) to'plangan edi. Fir'avnlr "Quyosh o'g'li" unvonini qabul qiladilar. Misr davlatining qonuniy podshosi (Quyosh xudosi)ni yerdagi ayol bilan yaqinligidan dunyoga kelgan degan fikr mavjud edi. Hech kimga fir'avn ismini aytish mumkin emas edi. Zero, misrliklar e'tiqodiga ko'ra, uni nomini aytish podshoga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan. Shuning uchun, uning ismini boshqacha "ulug' xonadon", "katta uy" deb atashgan. Odamlar orasida fir'avn tirik iloh deb tasavvur qilingan. U tog'lar xudosi Gorning qiyofasi, quyosh xudosi Raning o'g'li, hamda o'limidan keyin xudo Osiris sifatida ulug'langan va unga sig'inish uchun ehromlar yonida ibodatxonalar bunyod etilgan. Fir'avn bosh kohin sifatida ham gavdalangan. Qadimgi podsholik fir'avnlari o'zlarini ilohiy "Ra" bilan qondoshligi ekanligiga ishonganlar va o'zlarini samoviy hukmdor deb e'tirof etganlar. U dunyoviy va diniy hokimiyat timsoli bo'lib hisoblangan.

Qadimgi podsholik davrida 42 ta nomliklarning mustaqilligi deyarli tugatildi. Nomarxlar markaziy hokimiyatga qaram bo'lib, bir nom(yoki sepat)dan ikkinchisiga almashtirib turiladigan davlat amaldorlariga aylantirildilar. Separatizmga yo'l qo'ymaslik uchun nomliklar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar ham davlat nazoratida bo'lgan.

Keyingi fir'avnlr ulkan qurilishlarni to'xtatadilar, quyosh xudosi (Ra) ga sig'inish markazi sifatida Geliopol (hozirgi Baolbek) shahri ulug'landi. Kohinlar davlatdan yangi ekin maydonlarini oladilar. Ularning ta'siri yanada ortib bordi. Yozma manbalarga ko'ra, (Gerodot) fir'avn Menkauraning o'g'il farzandi bo'lmaganligi tufayli taxtga Menkauraning jiyani Userkaf (mil. avv. 2494-2487 yy)keladi va 5-sulolaga asos soladi. Undan so'ng fir'avnlr Saxura (mil. avv. 2487-2475-yy), Neferirkara Kakai (mil. avv. 2475-2465-yy), Shepseskara (mil. avv. 2465-2460-yy), Neferefra (mil. avv. 2460-2458-yy), Niusera (mil. avv. 2458-2422-yy), Menkauxor (mil. avv. 2422-2414-yy), Djedkara Isesi (mil. avv. 2414-2375-yy) va boshqalar ketma-ket hukmronlik qiladi. Ushbu sulola davrida misrliklar Sinay va

Nubiyada o'z ta'sirini yo'qotmadilar. Liviyada urushni davom ettirdilar va savdo-sotiq uchun imkoniyat kengaydi. Fir'avn Isesi davrida misrlik savdogarlar uzoq Punt (Somali) o'lkasiga sayohat qiladilar. Mil. avv. XXIV-XXII asrlarda Misrda tashqi siyosat yanada faollashdi. Uning podsholari Falastinga yurish qildilar. Finikiyaning Bibl shahri misr qo'shinining tayanch punktiga aylanadi. Misr chegarachilari bu yerda doimiy yashar edilar. Ularning madaniyatiga Misr madaniyati chuqur ta'sir qiladi. Nubiyadan misrliklar oltin va fil suyagini olib kelishadi. Garchi Misrning iqtisodiy qudrati o'sganligiga qaramay, beshinchi sulolaning so'nggi fir'avni Unis kichik ehromga dafn etilgan. Maqbarasida "O. Ra, bu podsho Unis seni o'g'ling, yoningga bormoqda" degan so'zlar bitilgan.

Qadimgi Misrda hududlardagi davlat boshqaruv tizimi uch bo'g'indan iborat bo'lib: markaziy, nom, qishloq-jamoalariga bo'lingan. Nomlar (sepat) boshqaruvi markaziy boshqaruvni kichikroq ko'rinishidagi shakli bo'lgan. Ko'p hollarda nomarxlar separatizmi mavjud bo'lgan. "Jad-jad", "Kanbet" atamaları jamoa kengashlari nomini bildirib, ular mahalliy sug'orish tizimini kuzatish bilan birga, jamoada ichki sud ishlarini ham amalga oshirar edilar. Oilalar jamoa kengashlariga, ular esa o'z navbatida yuqori hokimiyatga bo'ysundirilgan. Ammo mansabdor odamlar tizimi markaziy hokimiyatga bog'liq edi. Qadimgi podsholik davlat boshqaruvi tizimi fir'avnning yagona va cheklanmagan hukmronligiga asoslangan. Misr fir'avnlarning yaqin maslahatchisi va yordamchisi "chati" (bosh vazir) bo'lgan. U hukumat amaldorlariga boshliqlik qilganligi borasida tarixiy manbalarda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga chati mamlakatdagi sun'iy sug'orish ishlarini va hosil yig'imini ham nazorat qilar edi. Mamlakatdagi chorvachilik ishlarini nazorat qilish, hunarmandlar, harbiy tayyorgarlik, soliqlarni yig'ish, diniy miqyosdagi qurilishni nazorat qilish ham bosh vazirning zimmasida edi. O'z navbatida hatto kichik lavozimdagi saroy amaldori ham bir vaqtning o'zida qo'shin qo'mondoni, saroy oqsoqoli, Yuqori Misrni boshqaruvchisi, biror-bir ibodatxonaning bosh kohini vazifalarini ham bajarganligi tarixdan ma'lum. Fir'avn o'zini oddiy xudo emas, balki "ulug' iloh" deb ulug'latgan.


Oltinchi sulolaning birinchi fir'avni Teti davrida Misrda markaziy hokimiyatga bo'ysunish kuchsizlanadi. Ayrim nomlar podshoni nomigagina yoki marosimiy shaklda tan olganlar xolos.

6- sulola fir'avnlari davrida podsho hokimiyati zaiflashgan vaqtda ham Misr podshosi barcha xudolardan ko'ra ulug'roq deb tan olingan. Uning o'zi mamlakat boshqaruvining qonuniylik timsoli edi. Yuqori va kichik amaldor zodagonlar yuksak lavozimlarni egallagan bo'lsalarda, hunarlarni egallashdan uyalmaganlar. Ular hatto ustaxonalarga, qurilish ishlariga boshchilik qilganliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Qadimgi podsholik davrida Misrda harbiy ishlar rivojlanadi. Qo'shinning asosiy quroli o'q-yoy bo'lgan. Qurol- aslaha va o'q-yoy zaxirasi yaratilib, maxsus joylarda saqlangan. Sinay yarim oroli va Efiopiya (Nubiya) chegaralarida chegara harbiy qismlari mavjud bo'lgan. Ko'ngilli qo'shinga alohida harbiy boshliqlar boshchilik qilgan. Davlat qo'shini asosan erkin ziroatkor va chorvador misrliklardan tashkil etilgan bo'lib, o'q-yoy, nayza, kalta bronza chopqi bilan qurollangan piyodalardan iborat bo'lgan. Shimoliy va janubiy chegaralarda garnizonlar turgan. Qo'shin asosan ko'ngillilardan iborat piyodalar bo'lib, fir'avnning vakolatli odami va harbiy bo'lmagan mansabdor shaxslar boshchiligida yurishga chiqqan. Kambag'al jangchilar oddiy kamon va o'qlar bilan qurollanganlar. Jang aravalari va otliqlardan foydalanilmagan.

Misr aholisining yashash joylari ham oddiy va sodda bo'lgan. Qadimgi podsholik davrida uylar tor bo'lib, papirus novdalari, xom g'isht va loydan qurilgan edi. Yetishtirilgan hosildan soliq sifatida undirilgan g'alla, maxsus davlat omborlarida saqlangan. Bu davrda misrliklarning uylarini poli somonli loy bilan suvalganligi arxeologik ma'lumotlarda keltiriladi. Dehqonlar o'z uylarida don mahsulotlarini asosan xumlarda saqlaganlar. Qadimgi devoriy tasvirlarda kambag'al ziroatkorlar bellarini bir parcha mato bilan o'rab yurganliklari tasvirlanadi. O'sha davrda oddiylik misrliklarga xos xususiyat edi. Misrlik ovchi va baliqchilar gavdani beldan yuqori qismini yopganlar, chunki ularning mashg'ulotlari shunga bog'liq edi. Tez oqar Nil daryosi mamlakat uchun muhim savdo va strategik kommunikatsiya bo'g'ini hisoblangan.

Ayniqsa, bu davrda (Qadimgi podsholik) Quyi Misrda bog'dorchilikka, poliz ekinlarini yetishtirishga, uzumchilikka katta e'tibor qaratilgan. Yuqori Misrda asosan bug'doy va arpa yetishtirilib, Nil daryosi bo'ylab shimolga Quyi Misrga olib borilganligi tarixdan



ma'lum. Ammo soliqlar tizimini mukammal deb, bo'lmas edi. Keyinchalik misrliklar asalarichilik bilan ham shug'ullanib kelganlar.

Qadimgi podsholik davrida podsho xo'jaligi, ibodatxona (kohinlar) xo'jaligi va xususiy xo'jalik, qishloq-jamoa xo'jaliklari mavjud bo'lgan. Zodagonlarning katta yerlari serunum joylarda joylashgan. Misrning ko'pchilik aholisi zodagonlarning katta-katta ekinzorlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlaydigan yollanma va qaram ishchilar edi. Ularni o'z xo'jaligi bo'lmay, o'z mehnatlari uchun oziq-ovqat ulushi olganlar va o'z ixtiyorlari bilan ish joyini tashlab keta olmas edilar. Oddiy ziroatkorlarda qaram qullar kam bo'lgan. Amaldorlarning aksariyat xizmatlari uchun ish xaqini maxsulotlar bilan olar edilar. Qadimgi podsholik davrining so'nggida yirik mansabdorlarga davlat hisobidan katta yerlar uzoq muddatga berilgan. Bunday mulklar ko'pincha yuvon bilan birga, otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tib turgan. Davlat yerlari hukumatning doimiy nazorati ostida bo'lganligi manbalarda keltirilgan. Aholi davlat tomonidan majburiy hashar tarzida irrigatsiya inshootlari, qurilish va boshqa ishlarga safarbar etilishi mumkin edi.

Shu bilan bir qatorda Misrda qishloq-jamoa yerlari ham saqlanib qolgan edi. Qishloq-jamoa a'zolari fir'avn odamlari hisoblanib, turli soliq va majburiyatlarni to'lab kelganlar. Bunday kishilar va hunarmandlar "nesu" yoki "xentiushi"; fir'avn, zodagonlar va ibodatxona ishchilari "meret" yoki "xemu" deb atalar edi. Erkak qullar "bak", cho'rilar esa "baka" deyilgan. Buning tarjimai "tirik murdalar" deb atalgan. Aksariyat qullarni urushlarda asirlikka tushganlar yoki qarzini to'lay olmagan kambag'al aholi tashkil qilgan edi. Ular mulk sifatida bozorlarda sotilgan va sotib olingan hamda garovga qo'yilgan. Ammo, qadimgi podsholik davrida qullar hali kam sonli bo'lganligi arxeologlar tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda.

Yirik misrlik aslzodalar, nomlarning noiblari (nomarxlar) fir'avn hokimiyatini kuchayishidan norozi bo'lib, ko'p hollarda markaziy hokimiyat, fir'avn siyosatiga qarshi chiqar edilar. Shu sababli, ularni qarshiligini sindirish uchun fir'avnlar tomonidan markaziy boshqaruvga mahalliy va xizmat zodagonlari jalb qilinib, diniy siyosat ham o'zgardi. Din mafkuraning asoslaridan biri hisoblanib kelingan. Masalan, quyosh xudosi Raga bag'ishlab ibodatxonalar qurish kuchayib bordi. Bu esa mamlakat hayotida Yuqori Misr ilohlarining o'rmini o'sishi bilan bevosita bog'liq edi Endi fir'avnning ilohiyligi

uni xudo Radan bevosita kelib chiqqanligi g'oyasi bilan uqtirildi. Bu jihat Quyi Misr nomliklarida norozilikning o'sishiga olib kelishi mumkin edi. Afsuski, Yuqori Misr dini va madaniyati keyinchalik Quyi Misrning diniy mafkuraviy g'oyasiga zid kela boshladi.

Fir'avn Teti hukmdorligi davrida o'zini "Sexeteptavu"(yani ikki yerni tinchlantiruvchi) deb atashi, mamlakatni yana Yuqori va Quyi Misrga bo'linib ketganligidan dalolat berar edi. Tetining o'g'li Piopi I (mil. avv. 2310-2260-yy) saroy a'yonlari ta'siriga tushib qoladi. Markaziy hokimiyat esa sezilarli darajada kuchsizlanib qoladi. Piopiy II davriga kelib, Misr nomliklarga bo'linib keta boshlaydi. Darhaqiqat, aynan Piopiy II Qadimgi podsholikning so'nggi fir'avni sifatida aksariyat g'arb mutaxassislari tomonidan e'tirof etiladi. Garchand Memfis shahri poytaxt maqomini saqlab tursada uning siyosiy mavqeyi yo'qolgan edi.

Qadimgi Misr podsholigining inqirozi. Mil. avv. XXIII asrda nom (yoki sepat) va davlat xizmatidagi zodagonlarning mavqeyi oshib bordi. Aksariyat amaldorlarning ko'pchiligi soliq majburiyatlardan ozod bo'lganlar. Davlat qudrati kuchsizlandi (6-7 sulolalar davridan), lekin mahalliy hokimlar-nomarxlar katta moddiy boyliklarga ega bo'ldilar. Memfisdagi fir'avnlarning hokimiyati joylarda nomigagina tan olinar edi. Misr zaiflashib, mamlakatda siyosiy anarxiya hukm surar, davlat esa bir-biriga dushman nomlarga bo'linib ketdi. Qaroqchilik va ehromlarni talon-taroj qilish oddiy hol bo'lib qoldi. Qadimgi podsholik davrida yagona davlatning emirilishi bilan Misr tarixidagi I O'tish davri mil. avv. 2250-2050 -yillarning oxiridan boshlanadi. Davlatning zaiflashuvi keskin tabiiy o'zgarishlar cho'llarni kengayishi bilan bevosita bog'liq edi. Nil daryosining suvi keskin pasayib bordi. Mutaxassislarning fikricha, hosilning kamayishi, ochlik va ijtimoiy norozilikning kuchayishi pirovardda davlat tizimining yemirilishiga sabab bo'ldi.

Mil. avv. XXII asr boshlarida Yuqori Misrning markazi bo'lgan Memfisda 8-sulola bilan bir vaqtning o'zida Nil vodiysinig o'rta qismida yangi 9-sulola hukmronlik qila boshladi. Unga Fir'avn Axtoy mil. avv. 2120-yilda asos soladi. Fir'avnning misrcha to'liq ismi Uaxkara Xeti (yoki Xeti I) bo'lib, Gerakleopol shahri atrofida mamlakatni birlashtirishga unib ko'radi. Yangi hukmdor deyarli butun Misr ustidan o'z nazoratlarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan

birga, Gerakleopol fir'avnlari Germopol, Fiva va bir necha nomlarning avtonomiyasini yo'qota olmadilar.

Ayniqsa, Yuqori Misrning muqaddas shahri Abidosni Gerakleopol fir'avnlari tomonidan talon-taroj etilishi natijasida, Siut va Germopol nomlari ularni qo'llab-quvvatlamay qo'ydilar. Bunga javoban ular nomlarni to'la o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi. Axtoy Osiyo ko'chmanchilariga qarshi urush olib bordi. Mil. avv. III ming yillik oxirida Misrning xo'jalik ahvoli mamlakatni birlashtirishni talab etardi. Irrigatsiya tizimi tushkunlikka uchradi, aholi orasida ochlik oddiy hol bo'lib qoldi. Asrning oxirida Fiva nomining hokimlari mamlakatni janubini o'z hokimiyatlari ostida birlashtirib, fir'avn unvonini (11-sulola) oldilar va shimol podsholarining jiddiy raqibiga aylandilar. Gerakleopollik (10-sulola) fir'avnlardan Xeti III (mil. avv. XXI asr o'rtalari) Siut nomarxi Tefeb bilan ittifoqda Fivaga qarshi uzoq urush olib boradi va ulardan Abidosni tortib oladi. Ittifoqchilarning Nil daryosidagi floti, ularga strategik ustunlikni berdi. Ammo Fiva nomarxi Iniotef II (mil. avv 2118-2069-yy)ni to'liq engib bo'lmadi. Natijada ikki o'rtada sulh tuzildi. Fir'avn Xeti III o'z o'g'li Merikaraga, Fiva nomligiga nisbatan hurmatda bo'lishni nasihat qilgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misrda ilk podsholik davri necha asr davom etgan?
2. Qadimgi Misr tarixida qaysi fir'avn 1-sulolaga asos solgan?
3. Qadimgi Misr irigatsiyasining mohiyati nimada?
4. Fayum madaniyati haqida nimalarni bilasiz?

Glossariy

Fir'avn -	“Katta uy” Qadimgi Misrda podsholik unvoni
Kanbet -	Jamoa kengashlari nomini
Nubiya -	Misrning janubidagi hudud, hozirgi Sudan shimoliga to'g'ri keladi
Ra -	Quyosh xudosi
Ta-kemet -	Misrning qadimiy nomi
Nomarx -	Qadimgi Misrda viloyat hokimi (knyaz)
Mut -	Onalik ilohi

Mavzu: O'rta podsholik davrida Misr

Reja:

1. Gerakleopol va Fiva o'rtasidagi raqobat.
2. O'rta podsholik davrida Misrning ichki va tashqi siyosati.
3. O'rta podsholikning inqirozi sabablari.

Gerakleopol va Fiva o'rtasidagi raqobat. Birinchi o'tish davrida (mil. avv. 2250-2055-yy) Misr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz iskanjasida edi. Mamlakat siyosiy anarxiya natijasida parchalanib, har bir nomarx o'z yerida hukmronlik qilar va Gerakleopoldagi markaziy hokimiyatni deyarli tan olmas edi. Mil. avv. XXII asr Gerakleopol va Fiva nomliklari o'rtasida doimiy raqobat va kurash davri sifatida tarixda qolgan. Yuqori Misrning qudratli nomlaridan biri Ineotef Kattaning o'g'li Mentuxotep I (mil. avv. 2133-2117-yy) Fivada 11-sulolaga asos soladi. Garchand u fir'avn unvonini qabul qilmagan bo'lsa-da, Fiva nomligining Yuqori Misrda gegemonligiga yo'l ochdi.

Gerakleopol hukmdorlari Quyi Misrga ham ta'sir o'tkazib, mamlakat shimolini tashqi dushmandan muhofaza qila oldilar. Ammo, Fivani bo'sundira olmadilar. Chunki, "Turin papirusi" ma'lumotlariga ko'ra podsholar ro'yxati ichida Gerakleopol hukmdorlari bilan bir qatorda Fiva nomarxlarining ham ismlari keltiriladi.

Ichki urushlar Fiva nomarxi Nextnebtpepnefer Intef III (mil. avv. 2063-2055-yy)ning vorisi Nebxepetra Mentuxotep II (mil. avv. 2055-2004-yy) va Gerakleopol hukmdori Merikara o'rtasida kurash bilan tarixda qolgan. Hukmronligining 39 yili Mentuxotep II Yuqori va Quyi Misrni birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Misr yana yagona davlatga aylandi. U Deyr-Al-Baxridagi ibodatxonada dafn etilgan. Fir'avn Mentuxotep III o'z otasining siyosatini davom ettirdi, Amon va Montu(Fiva shahri ilohi) xudolariga atab ibodatxonalar bunyod qiladi. Mil. avv. 1992-yil fir'avn Mentuxotep III vafot etadi va orada yetti yil Mentuxotep IV (hukmron sulolaga umuman aloqasi yo'q kishi) mamlakatni boshqaradi.

Mentuxotep III ning saroyida chati (vazir) lavozimida ishlagan Amenemxet I ham podsho naslidan emas edi. Shunday bo'lsa-da fir'avn vafotidan so'ng aynan u podsholik taxtiga chiqdi. Amenemxet I (taxminan mil. avv. 1976-1956-yy) fir'avn bo'lgach, 12-sulolaga

asos soladi. Afsonaviy Narmerga ixlos qilib, poytaxtni Memfisdan taxminan 20 mil (30-32 km) janubda joylashgan Iti-Taui (Ikkala yerni birlashtiruvchi) shahriga ko'chiradi. Yangi poytaxt Yuqori va Quyi Misrni muvozanatda ushlagan holda boshqarish uchun tanlangan edi.

Amenemxet I xattotlariga o'zi haqida bashorat (Neferti bashorati) shaklidagi afsona yozishni ham buyurdi. Shuningdek, qo'shinlarni Nil deltasiga yuborib, qal'a va mudofaa devorlarini (hukmdor devori) qurdirdi. Osiyolik ko'chmanchilarning Misrga kirib kelish to'liqini nazoratga olindi. Iti-Taui shahri yaqinida o'zi uchun kichik ehrom ham bunyod ettirdi. Afsuski, Amenemxet I fitna natijasida o'z soqchilari tomonidan o'ldiriladi. Bu hodisa haqida keyinchalik uning o'g'li Senusert I yozma ma'lumot qoldirgan.

Senusert I (mil. avv. 1956-1911-yy) hokimiyatga kelishdan oldin otasining buyrug'i bilan Nubiya va Liviyaga harbiy yurishlar qiladi va katta o'ljalar olib kelgan. Fir'avn Amenemxet I o'ldirilgan paytda, shahzoda Liviyada harbiy yurishda bo'lgan. Poytaxtga qaytgach, otasining qotillarini jazolaydi va taxtni qo'lga kiritadi. So'ngra saroyda unvonlar tizimini tartibga soladi. Mamlakat iqtisodiyotini tiklaydi hamda Fayum vohasini o'zlashtirishni kengaytirgan. Uning davrida vazirlik(chat) lavozimlarida Antefoker, Sobekxotep va Mentuxotep kabi amaldorlar faoliyat ko'rsatishgan.

Tashqi siyosatda Senusert I ko'proq e'tiborni qo'shni Nubiyani zabt etishga qaratadi. Uning harbiy unvonlari orasida "Iuntiuni mahv etuvchi" va "Nubiyaliklar chegarasiga chiquvchi" kabilar e'tiborga molik. G'arb olimlarining fikricha, "Iuntiu" atamasi o'sha vaqtda aynan Nubiya qabilalariga nisbatan ishlatilgan.

Nubiyaga uyushtirilgan yurishlar dastlab talonchilik uchun qilingan bo'lsa, keyinchalik bosib olish xususiyatini o'zida aks ettirdi. Mil. avv. 1929-yilda fir'avn Senusert I Nubiyaga yana bir katta harbiy yurishni amalga oshiradi. Bu safar misrliklar Nil daryosining 2-pog'onasidan o'tib, Kush mamlakatiga kirib keladilar. Ammo Senusert I ning asosiy maqsadi Nubiyaning harbiy salohiyatini o'rganib chiqish edi.

Misrliklar Finikiyaning Bibl va Ugarit shaharlari bilan savdo aloqalarini o'rnatishga muvaffaq bo'ldilar. Nil daryosi Nubiya bilan savdo vositasiga aylandi. Shu bilan bir qatorda Egey dengizi orollari xalqlari bilan ham savdo iqtisodiy aloqalar o'rnatildi.

O'rta podsholik davrida Misrning ichki va tashqi siyosati.

Ichki siyosatda mahalliy nomliklar o'z mustaqilligini nisbatan saqlab qoldilar. Nomlik hududi ichida nomarxlar cheklangan qo'shinlariga ham ega bo'lishgan. Mahalliy ilohlar va kohinlar, markaziy hokimiyat tomonidan tan olingan. Nomarxlik otadan bolaga meros tariqasida o'tgan, fir'avn uni faqatgina tasdiqlagan.

Fir'avn Senusert I davrida Misrni konfederativ shakldagina markazlashgan davlat sifatida ko'rish mumkin. Hayotining so'nggida Senusert I o'z hokimiyatini o'g'li Nabkori Amenemxet II (mil. avv. 1911-1877-yy) bilan bo'lishib boshqardi. Bu esa hokimiyatni tinch yo'l bilan meros qilib berish hamda ichki urushlarni oldini olish demak edi. Amenemxet II otasidan qudratli iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli davlatni qabul qilib olgan edi. Uning hukmronlik yillarida deyarli 30 yil yirik urushlar bo'lmadi. Misr bilan chegaradosh barcha davlatlar savdo-sotiq aloqalarini o'rnatgan edilar. Krit, Suriya, Kichik Osiyo va Mesopotamiyadan tamkarlar (savdogarlar) mamlakatga kelishgan. Natijada Misrga osiyoliklarning ko'chib o'tishi kuchaygan. Mil. avv. 1877-yilda taxtni Amenemxet II ning o'g'li Senusert II (mil. avv. 1877-1870-yy) egallaydi. Uning hukmronligi yillarida Fayum vohasi irrigatsiyasi tartibga solinib, qishloq xo'jaligida katta qurilish ishlari amalga oshiriladi. Shu yerda fir'avn o'z ehromi(xom g'ishtdan qurilgan) va Xotep-Senusert (Senusert mamnun)shahrini ham qurdirgan. Shaharning zodogonlar yashaydigan qismi va podsho saroyi alohida mustahkam devor bilan o'rab olingan. Butun shahar alohida mudofaa istehkomiga ega edi. Yangi yerlar o'zlashtirildi va dehqonchilikka katta e'tibor qaratildi.

Senusert II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Senusert III (mil. avv. 1870-1831-yy) keladi. Hukmronligining 6, 8, 10, 16-yillarida Nubiyaga qator harbiy yurishlar uyushtiradi. Misrliklar mamlakatni talab vayron qiladilar va mahalliy aholini shafqatsiz qirg'in qilib, quduqlarini zaharlab ayollar hamda bolalarni qullikka olib ketadilar. O'sha davrda Misr chegaralari janubga, ya'ni Nil daryosining 2-pog'onasidan ham o'tib ketgan edi. Fir'avn buyrug'i bilan chegara qal'alari qurilib, bojxona tartibga solindi. Endi Misrga maxsus ruxsatsiz kirib kelish (savdodan tashqari) cheklab qo'yildi. Daxshurda Senusert III ning buyrug'i bilan 12-sulolaning eng katta ehromi bunyod etiladi. Uning vorisi Amenemxet III (mil. avv. 1831-1786-yy.) davrida O'rta podsholik madaniyati yuqori cho'qqisiga yetdi.

Memfisdagi Ptax ibodatxonasi kengaytirildi va Biaxmuda (shimoli-g'arbiy Fayum atroflari) ibodatxona qurildi.

12-sulola fir'avnlari mamlakatni barqaror holatga keltirdilar. Ular faol ichki va tashqi siyosat yuritib, Misrni kuchli davlatga aylantirdilar. Fayum vohasini o'zlashtirish davom etdi. Nubiyadagi boy oltin konlari ishlatila boshlandi. Nubiyada yangi qal'alar qurilib, bu yerga Misrdan aholi ko'chirilib keltirildi. Nilning har ikki qirg'og'ida, ikkinchi pog'onasida Semna va Kumna nomli mustahkam qal'alar qurildi. Nubiyaning katta qismi amalda Misrning viloyati bo'lib qoldi. Sharqiy O'rta yer dengizi hududlaridan kumush, qurilish yog'ochi (asosan kedr yog'ochi) olib kelinadi. Finikiyaning bir necha shaharlari Misrga qaram bo'ldi.

O'rta podsholik davrida katta suv ombori qurilib, kanal bilan Nil daryosiga qo'shildi. Fayum vohasida tarmoqlangan sug'orish tizimi barpo qilindi. Janubiy delta, Fayum va uni atroflarini obod qilinishi 12-sulola fir'avnlarning poytaxtni Fivadan yangi qurilgan shahar Ittaun («Ikkala yerni birlashtiruvchi») shahriga ko'chirishlariga sabab bo'ldi. Mehnat qurollari takomillashdi. Sinayda mis xomashyosi qazib olish ko'paydi. Shimoliy Nubiyada oltin va mis xomashyosini qazish yo'lga qo'yildi. Qishloq xo'jaligi yuksalib, yangi qulay omoch paydo bo'ldi. Ilk bronza qurollar keng o'zlashtirildi. Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Sharqiy O'rta yer dengizi qirg'oqlari bronza qurollarni bundan ancha oldinroq qo'llay boshlagan edilar. Misrning bu sohada qoloqligining sababi, Nil va uning atrofida mazkur xomashyoning kam uchraganligida edi. Boshqa yutuqlardan biri shishaning kashf etilishi bo'lgan. Iqtisodiyotning jonlanishi metallarga, kumush, qurilish yog'ochiga ehtiyojni kuchaytirdi. Bu chet mamlakatlar bilan savdo aloqalarini faollashuviga olib keldi. Misr savdo karvonlari Nil, Suvaysh orqali Kichik Osiyo va Bobilga chiqdilar. Bu vaqtda janubiy Nubiya va Punt dan oltin olib kelindi.

O'rta podsholik davrida yirik xo'jaliklar o'rniga o'rta xo'jaliklar yetakchi o'rin egalladi. Ular foyda keltiradigan barqaror xo'jalik edi. Bozor bilan bog'lanish va qo'l mehnatidan foydalanish kuchaydi. Kichik xo'jaliklarning soni oshdi. Moddiy boylikning asosiy yaratuvchilari ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollaridan mahrum bo'lgan "xemuu-nesut" – "podsho odamlari" deb atalgan ishchilar bo'lgan. Ular podsho, ibodatxona, zodagonlar yerida ishlab, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana olganlar. "Podsho odamlari"

yoshlik paytidan aholi ro'yxatidan o'tkazilib, ma'lum hunarlarga taqsimlanar edilar. Misrda o'sha zamonga mos qat'iy huquqiy tartib o'rnatildi.

12-sulola vakillari kuchli qo'shinga tayanib, bosqinchilik siyosatini olib bordi. Ayniqsa, Nubiya va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'iga nisbatan istilochilik hujumlari kuchaydi. Mamlakatga ko'plab qullar keltirila boshlandi. Oqibatda Misrda boshqa millat va etnoslarni ko'rish mumkin edi.

O'rta podsholikning inqirozi sabablari. Fir'avn Amenemxet IV vafoti bilan mamlakatda 12-sulolaning erkak vakillari qolmadi. Garchand uning o'gay singlisi Nefrusebek fir'avn sifatida taxtga ko'tarilsada, Misrda ichki nizolar ortib bordi. Mil. avv. 1786-yilda 12-sulola o'miga 13-sulola vakillari keldi. Ushbu sulola vakillaridan Sebekxotep II va Amenemxet V davrlarida siyosiy inqiroz avj ola boshladi. O'rta podsholik yana nomliklarga bo'linib ketdi.

"Turin papirusi" ma'lumotlariga ko'ra mil. avv. 1675-yilda Quyi Misrga Osiyodan ko'chmanchi giksos qabilalari kirib keladilar va Deltani egallaydilar. Giksoslar, Misrga Shimoliy Arabiston, Falastin va Suriya yerlaridan kirib kelganlar. Giksoslar sardori Xian fir'avn maqomini qabul qilib, 15-sulolaga asos soladi. Ular Quyi Misrni 100 yildan ko'proq (ayrim manbalarda 108 yil) boshqardilar. Ammo, Yuqori Misr nomligi Fiva shahri boshchiligida mustaqillikni saqlab qoldi. Giksoslar Avarisni poytaxt qilib, u yerdan Deltani boshqardilar. Ko'chmanchilarni g'alabasini jangovar aravalar ta'minlab berdi. Misr qo'shini piyoda jang qilishga ko'nikkan edi. Yuqori Misrning ayrim nomliklari giksoslarga o'lpon to'laydigan bo'ldilar. Giksos fir'avnlaridan Xian va Apepilar (hukmronlik yillari munozarali) davrida Quyi Misr kuchaydi, ammo butun Yuqori Misr hududini butunlay egallay olmadilar. Ular Abidosga qadar o'z ta'sir doiralarini saqlab tura olishlari mumkin edi. Natijada bir oz vaqt o'tib, Yuqori Misrliklar Fivada 17-sulolaga asos soldilar. Fiva nomligi tez orada Yuqori Misr nomliklarini Kamos boshchiligida birlashtira oldi. Nil daryosida harbiy flot tuzildi, qo'shin tartibga solindi. Avaris hukumati giksos fir'avni Apopi boshchiligida Kush podshosiga maktub yozadi va Fiva nomligini bo'lib olishni taklif qilgan. Fiva nomarxi Kamosning 1-2 tosh bitiklarida keltirilishicha, elchi yo'lda qo'lga tushib qoladi va Kamos giksoslarga qarshi urushni boshlaydi.

Keyinchalik urushda to'liq g'alabaga Kamosning ukasi Yaxmos erisha oladi va giksoslarni Misrdan quvib yuborishga muvaffaq bo'lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misrda O'rta podsholik necha asr hukmronlik qilgan?
2. Fir'avn Senusert I tashqi siyosati haqida ma'lumot bering?
3. Qaysi Misr fir'avni Krakadilopol shahrini qurdirdi?
4. Ko'chmanchi giksoslar etnik jihatdan kimlar edi?
5. Giksos hukumdorlari haqida ma'lumot bering?
6. O'rta podsholik davrida Fayum irigatsiyasi haqida ma'lumot bering?

Glossariy

Xemuunesut	Qadimgi Misrda podsho xizmatidagi alohida ishchilar sinfi
Shnau	Davlat va ibodatxona yerlarida ishlovchi va oziq-oqat bilan ta'minlovchi ishchi
Semdet	Qadimgi Misrda biror-bir kasb ustalariga ishlatilgan umumiy ibora.
Delta	Yunoncha "uch burchak" Nil daryosining quyi qismi (Quyi Misr)yerlari.
Fayum	Nil vohasidagi ko'lining nomi
Iti-taui	(Ikkala yerni birlashtiruvchi) O'rta podsholikning poytaxtlaridan biri
Finikiya	O'rtayer dengiz(hozirgi Suriya va Livanning qirg'oq bo'yi hududi)

Mavzu: Yangi va So'nggi podsholik davrida Misr

Reja:

1. Yangi podsholikni yuzaga kelishi shart-sharoitlari.
2. Misr saltanatining ichki va tashqi siyosati.
3. III-o'tish davrida Misr va So'nggi podsholik.
4. Qadimgi Misr madaniyati.

Yangi podsholikni yuzaga kelishi shart-sharoitlari. Fiva fir'avni Kamos(mil. avv. 1554-1549-yy) otasi Taa II Sekenenraning siyosatini davom ettirib giksoslar bilan urushni davom ettirdi. Kamosga Nil daryosining 1-pog'onasidan 14-nomlikning Kus shahrigacha bo'lgan yerlar bo'ysunar edi. Hukmronligining 3-yilida Kamos kengash chaqirib, giksoslar va kushliklar bilan hokimiyatni boshqa bo'lishib olmasligini ta'kidlab o'tdi. Uning qo'shinlari Nil daryosiga tushirilgan kemalarda, shimolga giksoslar nazoratidagi hududlarga kirib bordilar. Kamos (yoki Kamesu) o'zining yirik g'alabalari haqida mashhur tosh bitigida (1-2 "Kamos stellasi") ma'lumot berilgan. Ammo ko'p o'tmay Kamos halok bo'ladi va Fivada uning xotini Yaxxotep (regent) taxtga keladi. Shunday bo'lsa-da, Giksoslar bilan urush davom etadi. Bir oz vaqt o'tib (taxminan 8 yil) hokimiyatga Yaxmos I chiqadi hamda Misr tarixida 18-sulolaga asos soladi.

Yaxmos I (asli kelib chiqishi Fiva nomligidan bo'lmagan) giksoslarni poytaxti Xat-uarit(Avaris)ni egallashga muvaffaq bo'ladi va Misrdan ularni haydab chiqarib, Finikiyada mamlakat ta'sirini qayta tikladi. U hozirgi G'azo yaqinidagi Sharuxen qal'asini olti yil qamal qiladi va egallaydi. Misrliklar kamonchilar, piyodalar va jangovar aravalardan(giksoslardan o'rganganlar) unumli foydalanib, imperiya tuzishga kirishadilar. Yaxmos I davlatni boshqarishda xotini Yaxmos-Nefertari bilan birga idora qiladi. Yaxmos-Nefertari turmush o'rtog'idan keyin o'g'li Amenxotep I va fir'avn Tutmos I davrida ham hayot bo'lganligi tarixdan ma'lum. Shu tariqa Yangi podsholik (mil. avv. 1570-1075-yy) davri boshlanadi.

Arxeologik va yozma ma'lumotlarga ko'ra, Yaxmos Ining o'g'li Amenxotep I (mil. avv. 1525-1504-yy) Osiyoda hech qanday urush olib bormadi. U faqat Nubiyani qayta bo'ysundirib, otasining g'alabalarini mustahkamlaydi. Amenxotep I dan keyingi fir'avn Tutmos I (mil. avv. 1504-1492-yy.) Yaxmos I ning qizi Yaxmesga uylangan edi. Tutmos I asli kim bo'lganligi borasida hozirga qadar olimlar munozarali fikr bildiradilar. Uning otasi haqida ma'lumotlar yo'q, lekin onasini ismi Reniseneb deb ta'kidlangan. Fir'avnning Misrcha ismi Dxauti-masi yani "Tot xudosidan tug'ilgan" –degan ma'noni bildiradi.

Taxtga kelib, Tutmos I Nubiyadagi qo'zg'olonni bostiradi, isyonchilar sardorini o'ldirib, tanasini Nil bo'ylab suzuvchi kemaga

osib qo'yadi. So'ngra Nilning 3-pog'onasiga qadar o'z kemalarida kirib boradi va Dongola viloyatigacha bo'lgan yerlarni Misrga bo'ysundiradi. Nubiyada bir-necha o'nlab qabilalar qulga aylantiriladi. Janubdagi g'alabalaridan so'ng, Tutmos I Falastin va Suriyaga talonchilik yurishlarini uyushtiradi. Misr qo'shinlari Frot daryosigacha chiqib, u yerda Naxarina(Mitanni)liklarni mag'lub etadilar. Suriya knyazliklari katta qarshilik qilmadilar. Misr askarlari o'ljalar bilan yurtlariga qaytadilar. Tutmos I davrida Misr Yaqin Sharqning eng katta davlatlaridan biriga aylandi. Misr Mitannidan shimoliy Suriyani tortib olib, o'z nazorati ostiga oldi. Nubiyada misrliklar Nilning uchinchi log'onasida ilgari mustaqil bo'lgan Kush davlatining poytaxti Kermani egalladilar.

Tutmos I ning vorisi, uning kichik xotinidan bo'lgan o'g'li Tutmos II (mil. avv. 1492-1479-yy atrofida) bo'lajak mashhur malika Xatshepsutga uylandi. Taxtda uzoq o'tirmasada, ammo Nubiya va Falastindagi qo'zg'olonlarni bostirishga muvaffaq bo'ladi. Misr qo'shinlari Nubiyadan isyonchilar sardorining o'g'lini garovga olib qaytadilar.

Tutmos II vafot etgach, malika Xatshepsut o'z o'gay o'g'li Tutmos III ni davlat ishlaridan chetlashtirishga harakat qildi. Vaqt o'tishi bilan malika yodgorliklarda o'zini mustaqil fir'avn sifatida tasvirlay boshladi. Malika erkak fir'avn kabi o'z hokimiyatining to'laqonligini ta'kidlash uchun gavda tuzilishini erkakiarga o'xshatib, soqol qo'yilgan holda tasvirladi. Malika Xatshepsut fir'avn-jangchi unvoniga da'vo qila olmas edi. Shunga qaramasdan u Puntga (Eritreya) katta ekspeditsiya tashkil qildi. Malika davrida Karnakda Xed-sed bayrami sharafiga katta ibodatxona va Dayr-al-Bahrda o'zi va otasi Tutmos I ga atab ibodatxona barpo qiladi. Bu inshootlarning yaqinida Xatshepsut davrida oliy kohin, me'mor Senemutning sag'anasi qad ko'tardi. Senemut fir'avn Xatshepsut davrida uning eng yaqin kishisi sifatida davlatni boshqarishda qatnashadi.

Ammo Xatshepsut vafotidan so'ng Tutmos II ning Isida ismli kanizagidan tug'ilgan o'g'li Tutmos III taxtga keladi va o'gay onasidan qolgan barcha yodgorliklardan uning ismini o'chirtirib tashlaydi. Ayol fir'avn Xatshepsut davlatni boshqargan bo'lsa-da, ammo rasman taxtda Tutmos III o'tirar edi. Lekin u 20 yilga yaqin qo'g'irchoq podsho hisoblangan. Keyinchalik tabiatan lashkarboshilik

qobiliyatiga ega bo'lgan fir'avn qo'shinni qayta tuzib, harbiy yurishlarga tayorgarlik ko'radi.

Tutmos III (mil. avv. 1479-1438-yy) istilochilik urushlari olib bordi. G'ayratli sarkarda Tutmos III Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ini Misr ta'siri ostiga o'tishi uchun uzoq harbiy tayyorgarlik ko'rdi. Tutmos III Falastinga ko'p sonli qo'shin tortdi. Megiddo shahri yonida Suriya va Falastinning shahar-davlatlari Kadesh shahri boshchiligidagi birlashgan qo'shinlari Tutmos III armiyasi bilan uchrashdi. Qonli jang misrliklar g'alabasi bilan tugadi. Dushman askarlarining qoldiqlari Megiddo devorlari ortiga berkindilar. Shahar yetti oy qamal qilinadi va Kadesh shahri hukmdori o'z ittifoqchilari bilan birga misrliklarga taslim bo'ladi. Natijada Misr Suriya va Falastinning katta qismini egallab oldi. Mitanni o'z qo'shinlarini Frot ortidan chaqirib oldi va Misrga Suriya, Finikiya va Falastin hududlarini yon berishga majbur bo'ldi. Misr askarlari Frot daryosidan o'tib mitanniliklarni ta'qib qilganliklari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Fir'avn Tutmos III ning yurishlari Suriya knyazliklari (Kadesh va keyinchalik Tunip)ga qarshi qaratilgan edi. Sakkizinchi yurish paytida esa Mitanni chegarasini (Frot daryosi) ham buzib o'tishga muvaffaq bo'ladi. Tutmos III umuman hayoti davomida o'n besh marta harbiy yurish qilib, Frot daryosigacha bo'lgan hududlarni bosib oldi. Frot daryosi bo'yidagi Karxemish shahrini ham egallaydi. Bu esa o'z navbatida Misr qo'shinini Kichik Osiyo chegarasigacha chiqishiga olib keladi. Janubda Misr Nilning to'rtinchi ostonalarigacha bo'lgan yerlarni o'z tasarrufiga oldi.

Misr saltanatining ichki va tashqi siyosati. Tutmos III ning istilochilik urushlari natijasida Misr mil. avv. XV asrda Old Osiyodagi eng qudratli davlatga aylandi. Old Osiyoning Mitanni, Xett va Bobil kabi kuchli davlatlari Misrning kuch-qudrati bilan hisoblashishga majbur bo'ldilar. Ular Misr bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qildilar. Bu to'grisida o'sha davrdagi ko'pgina yozma manbalar ma'lumot beradi.

Mil. avv. 1386-yilda taxtga Tutmos IV ning o'g'li Amenxotep III davrida Misrda tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Garchand Nubiyaga yurish uyushtirilgan bo'lsa-da, bu harbiy kompaniya ikkinchi darajali xarakterga ega bo'lgan. Mamlakat iqtisodiyoti izga tusha boshlaydi. Mitanni davlati bilan do'stlik aloqalarini tiklaydi. Mitanni podshosi Shutarna II fir'avnga xotinlikka malika va 317 ta

xizmatkorni yuboradi. Zero, Amenxotep III ona tomondan Mitanni podshosi Artadamning nevarasi edi. O'z navbatida qo'shnisini kuchsizlantirish maqsadida, Mitanni vassali Ashshur podshosi Ashshurnadinaxxe II bilan yashirin aloqalar olib boradi.

Mashhur Amenxotep IV Exnaton (mil. avv. 1375-1336-yy) davrida Misrning tashqi siyosiy axvoli yomonlashadi. Uning diniy islohati (Aton xudosini ulug'lash) mamlakat mafkurasini ikkiga bo'lib yubordi. Eski din kohinlari quvg'in qilindi va ibodatxona boyliklari davlat hisobiga musodara qilindi. Exnaton ajdodlari kabi Nil daryosi qirg'oqlaridagi irrigatsiyani rivojlantiradi. Savdo hajmi oshib boradi, ammo Mitanni janubiy Suriyaning katta qismini bosib oladi. Osiyoda yana bir raqib Xett davlati urushga tayyorlana boshladi. Exnatonning o'g'li Tutanxamon (mil. avv. 1336-1327-yy) davrida ahvol o'zgarmadi. Tutanxamon 10 yoshidan fir'avn taxtiga o'tiradi va bir yil o'tmay otasi qurgan shahar Axetatondan chiqib ketadi. Fiva yana diniy markazga aylanadi. U eski xudolar (Amon, Ptah, Tot, Gor, Osiris va Anubis) larga sig'inishni qayta tikladi. Quvg'inga uchragan kohinlar uni qo'llab-quvvatladilar. Tutanxamon vafotidan so'ng Eye hokimiyatga keladi, ammo ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o'zgarmaydi. Taxtga Tutanxamonning qarindoshi lashkarboshi Xoremxeb (mil. avv. 1323-1295-yy) kelgach 19-sulolaga asos soladi. Asli kelib chiqishi Yuqori Misrning 18-nomligidan (Xanislik) bo'lib, qobiliyatli siyosatchi va sarkarda edi. U Misr armiyasini ikkiga ajratib (shimoliy va janubiy), Nubiyaning nazorat qilish maqsadida janubiy va Osiyodagi mulklarni nazorati uchun shimoliy qo'shinlarni javobgar qilib qo'ydi.

Mil. avv. 1295-yilda Xoremxeb farzandsiz olamdan o'tadi va fir'avnlik taxtiga Ramzes I (ayrim olimlarning fikricha u 19-sulola asoschisi hisoblanadi) keladi. Yangi hukmdor Misr qo'shini tarkibidagi yollanma askarlar sonini oshiradi hamda fir'avnni qo'riqlash uchun maxsus qismlarni joriy etadi. Biroq, xettlar bilan Suriya masalasida kelishmovchiliklar keskinlashadi. Ramzes I bir yil hokimiyatda o'tiradi. So'ngra kelib chiqishi otasi Ramzes I kabi Quyi Misrdan bo'lgan Seti I ("Set xudosiga tegishli") fir'avn bo'ladi. Uning davrida Falastin va Suriyaga harbiy yurish qilinadi.

Seti I ning o'g'li Ramzes II (mil. avv. 1279-1213-yy) davrida xettlar bilan Suriyani nazorat qilish uchun urush olib borildi. Ramzes II ibodatxonalar boyliklarini ham urushga sarfladi. Kadesh yonidagi jangda Xett podshosi Muvatalis bilan to'qnashdi. Fir'avn g'alabaga

erishdi, ammo jangda halok bo'lishiga oz qolgan edi. Misrliklar halok bo'lgan xettlarning qo'llarini chopib olib, o'z fir'avnlariга keltirdilar.

Mil. avv. 1279 yoki 1270-yillar atrofida Xett podshosi Xattusili III tashabbusi bilan Misr va Xett podsholigi o'rtasida tinchlik shartnomasi tuziladi. Shartnomalarda davlatlar o'rtasidagi chegaralar kelishib olingan, ularni buzmaslik, birovning hududida yangi shaharlarga asos solmaslik va biror tomonning shunga o'xshash urinishlariga yo'l qo'ymaslik kabi majburiyatlar belgilangan. Har ikki tomon uchun qaram bo'lgan podsholar bilan uchinchi tomon ittifoq tuzishi man etilgan. Agarda Xett podshosi urushga kirgan paytda, u bilan shartnoma tuzgan tomon o'z "betarafligi"ni e'lon qilsa, Misr xettlar dushmani bilan maxfiy aloqalarda bo'lgan deb hisoblangan. Tuzilgan tinchlik bitimining moddalarida ichki va tashqi dushmanlarning har qanday hujumiga qarshi birgalikda chiqish ta'kidlanadi. Birinchi da'vatning o'zida kontragent (shartnoma tuzgan har ikki tomonning biri) o'zining qo'shinlari bilan yordamga kelishi lozim edi. Ushbu bitimning ayrim bandlari faqat bir tomon uchun taalluqli bo'lishi mumkin edi. Kelishuvda aytib o'tilgan shartlarning to'liq bajarilishi nazorati har ikki tomondan mingta yaqin guvoh - xudolar haykalchalari bilan belgilandi.

Xett mamlakatining tashqi siyosatida sulolaviy nikohlar muhim o'rin egallagan. Shu jihatdan Xett podsholarining qizlariga bosh xotin, ya'ni mamlakat malikasi maqomini kafolatlovchi shartlar ilgari surildi. Misr qo'l ostida Falastin, Finikiyaning katta hududi va janubiy Suriyaning bir qismi qoldi. Bu mamlakatlar shimolidagi barcha hududlar xettlarning mulki hisoblandi. Tinchlik shartnomasi bilan birga, o'zaro yordam berish majburiyatiga asoslangan ittifoq shartnomasi ham tuzilgan. Shunga ko'ra nikoh diplomatiyasi qo'llanilib, Ramzes II Xattusilining qizlaridan biriga uylanadi.

Keyingi fir'avnlr Merneptax (mil. avv. 1212-1202-yy), Amenmes (mil. avv. 1200-1194-yy), Saptax (mil. avv. 1194-1188-yy) davrlarida Misr o'z qudratini saqlab qoldi.

Yangi podsholik davrida sun'iy sug'orish inshootlarini bunyod etish, ta'mirlash va tartibga solish, yangi o'zlashtirilgan yerlarga suv chiqarish fir'avnlarning nazoratida turgan. Serunum Fayum vohasida yangi yerlar o'zlashtirilib, voha asta-sekin Misrning bug'doy omboriga aylangan. Eski irrigatsiya inshootlari tozalanib borilgan. Nil daryosining suvlarini chiqishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilgan.

Nil vodiysida uzumchilik, bog'dorchilik va asalarichilik rivojlanib borgan. Yangi podsholik davrida Misr iqtisodiyotida ziroatchilik va chorvachilik yetakchi soha sifatida hisoblanib, mahsulotlarni hatto chetga ko'plab yetkazib bergan.

Mil. avv. 1140-yili Misr o'zining chegaralarini tashqi dushmandan himoya qila olmay qoldi. Mamlakatga Liviya yerlaridan ko'chmanchilarning kirib kelishi kuchaydi. Ularni Misr qo'shiniga yollash kengaydi.

Yangi podsholik davrida yagona davlatning yemirilishi bilan Misrda III O'tish davri (mil. avv. 1075-656-yy) boshlandi. Bu davrda Misrda rasman yagona podsho hokimiyati mavjud bo'lsa-da, siyosiy tarqoqlik o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Nomlar o'rtasida kuchli ziddiyatlar mavjud edi. Dastlab mil. avv. 943 yili asli meshauashi (liviyalik)lardan bo'lgan Sheshonk (mil. avv. 943-922-yy) 21-sulolaning so'nggi vakili Psusennes II o'limidan so'ng hokimiyatga keladi va 22-sulolaga asos soladi. Poytaxtni Nil deltasining Sharqidagi Per-Bastet (yunoncha Bubastis) shahriga ko'chiradi. O'z o'g'li Osorkonni sobiq podshoning qizi Maatkaraga uylantirib, taxt vorisligi tizimini o'z foydasiga hal qilishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa Misr tarixida Bubastislar, ya'ni liviyalik fir'avnlarining boshqaruv davri boshlanadi. Fir'avnlr Osorkon (mil. avv. 922-887-yy), Sheshonk II (mil. avv. 887-885-yy), Takelot(mil. avv. 885-872-yy), Osorkon II (mil. avv. 872-837-yy), Sheshonk III (mil. avv. 837-798-yy), Sheshonk IV (mil. avv. 798-785-yy), Pami(mil. avv. 785-778-yy) va boshqalar davrida Misr taraqqiyoti avvalgidek emas edi. Mil. avv. 760-yilda Yuqori Misrga Nubiyaning Napata shahridan Kashta(mil. avv. 760-752-yy) ismli podsho qo'shin tortib keladi. Shu tariqa efioplar taxtga o'tirib, 25-sulolaga asos soladilar. Misr tarixida mil. avv. 760-656 yillar efiopiyalik fir'avnlr davri hisoblanadi. Mamlakat yana ichki nizolar oqibatida kuchsizlanadi. Ushbu sulolaning yirik namoyondalaridan Pianxi va Shabakalar davrida Yuqori va Quyi Misr efioplar sulolasiga (mil. avv. 715-y) bo'ysundirildi. Ammo mil. avv. 674 yili Misrga Ossuriya podshosi Asarxaddon bostirib keladi. Mamlakat 10 yildan ziyod ossurlarga qaram bo'lib qoladi.

III o'tish davrida Misr va So'nggi podsholik. Mil. avv. VII asrning o'rtalarida Sais nomarxlari (Quyi Misr) hukmdorlari Misrni birlashtirishga kirishdilar. Sais shahri Nil deltasining yirik nomlaridan biri edi. Dastlab, Psammetix I (misrcha Psamtik) efioplar sulolasiga

qarshi kurashda ossuriyaliklardan foydalanadi. Hatto, Ossuriya podshosi Asarxaddonga ham xizmat qilganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Sais nomligida taxminan 665 yildan boshlab Psammetix I hokimlik qiladi. Psammetix I (mil. avv. 655-610-yy) asli liviyalik zodagonlardan edi. U dastlab efioplarga qarshi Ossuriyaning yordamiga tayanadi. Chunki, yangi podsho Ossuriya podshosi Ashshurbanipalning tarafdorlaridan biri edi. Aynan u Misr tarixida 26-sulolaga asos soladi va mamlakatni qaramlikdan olib chiqadi. Mil. avv. 653-yilga kelib, Lidiya podshosining yordamida Misr suverenitetini qayta tiklaydi va Sais shahrini mamlakat poytaxtiga aylantiradi.

Sais sulolasining yorqin vakili fir'avn Nexo II (misrcha Nexao) skiflar hujumidan xavfsirab, parchalanib borayotgan Ossuriyani qutqarib qolishga intildi. Ossur podshosi Ashshur-ubalit II bilan Karxemish shahri yonida birlashishga kelishib oladi. Quddus (Ierusalim) shahridan Yahudiy podshosi Iosiya unga qarshi chiqadi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab halok bo'ladi. Fir'avn yaxudiylar dushmanlari hisoblangan ossurlarga yordamga ketayotgan edi. Nexo II g'alaba nashidasini surishga ham vaqti yo'qligini yaxshi tushungan. Misr-ossur qo'shini Xarran qal'asini qamal qiladi. So'ngra u yerdagi Bobil garnizonini qilichdan o'tkazadilar. Bu orada Nexo II sobiq isyonchi Quddus shahrini qayta egallaydi hamda podsho Iosiyaning o'g'li Ioaxazni Misrga asirlikka olib ketadi.

Misrliklar Yangi Bobil podsholigi bilan raqobatlashib Falastin va Suriyani Misr ta'siriga olishga harakat qiladi. Mil. avv. 605-yilda Bobil podshosi Navoxudonosor II Misrdan Suriya va Falastinni tortib oladi. Endi Yahudiya yangi bosqichilarga qaram bo'lib qoldi. O'z navbatida Misr Yahudiyaning Bobilga qarshi kurashda qo'llab turdi. Aslida Misr kuchayib borayotgan Bobilga nisbatan Yahudiyadan qalqon hudud (bufer zona) sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Keyingi fir'avn Apriy Sidon shahri (Finikiya) flotini jangda yengadi. Misr yahudiylarni Bobilga gij-gijlash maqsadida (mil. avv. 586-yilda) Quddus tomon o'z qo'shinini yuboradi. Ammo Bobil tomonidan qat'iy choralar ko'rilgach, o'z askarlarini qaytarib chaqirib oladi. Misr kuchayib ketgan Bobilga qarshi chiqa olmaydi.

Ushbu sulola davrida Misr, o'z qudratini nisbatan oxirgi marta tiklashga muvaffaq bo'ladi. Ichki urushlar va ossurlarning talochiligidan charchagan Misr o'z sarhadlarini qo'shni davlatlardan

himoya qilish uchun kerak bo'lgan katta qo'shinni doimiy ta'minlay olmaydigan davlatga aylandi. Shuning uchun misrliklar yunonlardan askarlar yollay boshladilar. Psammetix I davridayoq yunonlar Misrga (asosan Nil deltasiga) kirib kela boshlagan edi. Hatto mashhur tarixchi Gerodot yunon savdogarlari, yollanma askarlarining Misrga kirib borganligi to'g'risida fikr bildirgan. Nil deltasida yunonlarning Navkratis savdo koloniyalari tuzilib, tez sur'atlarda o'sib borgan. Natijada yunon madaniyati ta'siri kuchayadi.

Sais sulolasi fir'avnlari ichki siyosat sohasida liviyalik harbiy aslzodalar, Misr kohinlari va yunon savdogarlari bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yadilar. Ular Misrning nufuzli kohinlariga qarshi, shuningdek, mustaqillikka ega bo'lishni da'vo qilib kelayotgan ko'p hokimlarga qarshi kurash olib bordilar.

Fir'avnlr Uaxibra va Yaxmos II (yunoncha Amasis) lar asosan Misrning ichki iqtisodiy qudratini oshirishga intildilar. Misrliklar yunonlarga madaniyatning ayrim sohalarida taqlid qilganligi tarixdan ma'lum. O'z navbatida Misr aholisi o'rtasida norozilik kuchayib bordi.

Fir'avn Yaxmos II yunonlar bilan do'stona munosabatda bo'lib, ulardan ko'mak ola boshladi. Bu ma'lumot Bobil mixxat yozuvlarining birida o'z aksi topgan. Ammo bu davr Misr davlati erkinligining oxiri edi. Bu vaqtda yangi tashkil topgan Eron saltanati chegaralari Misrga qadar yetib kelgan edi. Fir'avn Amasis podsholigi yillarida (mil. avv. 570-526-yy) Misrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat og'ir holatda edi. Ahamoniylar shohi Kambiz II mil. avv. 525-yilda Misrga bostirib keladi va Pelusiya yonidagi jangda Misr qo'shinini (asosan yunon yollanma askarlari) mag'lubiyatga uchratadi. So'ngra misrliklar Memfis shahri tomon chekinadilar va tez orada qamalda qolib, yengiladilar. Fir'avn Psammetix III hokimiyatdan chetlatilib, Kambiz II Misr fir'avni sifatida taxtga keladi. Gerodotning ta'kidlashicha, fors elchisini o'ldirilishi evaziga fir'avnni o'g'li va 2000 ga yaqin misrlik yosh zodagonlar qatl etiladi. Kambiz II 27-sulolaga asos soladi. Shu tariqa, Misr, Ahamoniylarning satrapliklaridan biriga aylanadi.

Qadimgi Misr madaniyati. Mil. avv. IV Qadimgi Misr aholisi Nil qirg'olarini o'zlashtirish paytida qaysi tilda so'zlashganliklari hozirga qadar olimlar orasida munozarali fikrlarga sababchi bo'lmoqda. G'arb mutaxassislarini fikricha qadimgi misrliklarning ilk

so'zlashgan tillari afro-osiyo tiliga (yoki chad xalqlari tiliga) yaqinligi ta'kidlanib o'tadi. Keyinchalik boshqa etnoslarning Misrga kirib kelishi natijasida mahalliy til yanada boyib va sayqallanib bo'lgan. Ilk podsholik davriga qadar misrliklar ieroglif yozuvini ixtiro qilganlar. Har doimgidek ilk ieroglif yozuvlar diniy timsol va mulkiy tabaqalanishni belgilovchi omil bo'lib xizmat qilgan. Har bir ieroglif ma'lum bir so'z yoki ma'noni anglatar edi. Ierogliflar soni masalasida hozirga qadar taniqli olimlar munozarali fikrlar bildirmoqdalar, lekin doimiy ishlatiladigan yozuvlar va belgilarning soni 750 taga yaqinligi ta'kidlanadi. Qadimgi Misrda maktablar (mirzolar maktabi) bo'lib, u yerda tarbiyaviy va ta'lim intizomiga katta e'tibor berilgan. Tartibni buzgan, yalqov o'quvchilar hatto tan jazosi bilan ham jazolanar edi. Maktablarda o'quvchilar asosan ierogliflarni sopol sathiga va papirusga yozib o'rganishgan. Misrda o'rta va oliy maktablar bo'lib, bunday ta'lim maskanlarida fir'avnlr, zodagonlar, kohinlar va moliyaviy imkoniyati bor barcha kishilarning farzandlari tahsil olganlar. Ilk bor qadimgi Misr ierogliflarini fransuz olimi J. F. SHampalyon 1822 yil o'qishga muvaffaq bo'ladi. Ierogliflarda xo'jalik ishlari qaydnomalari, savdo-sotiq bitimlari, mamlakat tarixi, siyosiy kelishuvlarda keng foydalanilgan. Misrliklar yozuvida 1 sonidan tortib, millionni bildiruvchi alohida belgilar ham bor edi. Bu esa o'z navbatida matematik bilimlar yuqori darajada o'qitilganini bildirgan. O'lchov birligi sifatida podsho "barmoqi", "kafti" va "tirsaki" umum davlat standarti vazifasini bajargan.

Shu bilan birga qadimgi Misr adabiyotida ham ierogliflarning ahamiyati katta edi. Bunda turli xil janrdagi tasviriy san'at usullari keng qo'llanilgan. Qadimgi podsholik davrida dafn marosimlarida va diniy madhiyalarni yozib qoldirilganligi yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. xattotlar katta mahorat bilan bo'lib o'tgan marosimlarni tasvirlashga harakat qilganlar. Ammo qadimgi misrliklarning 1% gina savodli bo'lib, qolganlari dehqonlar, hunarmandlar va doimo xattotlar xizmatiga muhtoj bo'lgan savdogarlardan iborat edi. Shuning uchun xattotlik kasbini egallash muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xattotlar asosan qamishdan yasalgan qalam bilan papirusga ierogliflarni yozishganlar. Ular asosan kohinlar tomonidan ibodatxonalarda o'qishga va yozishga o'rgatilgan. Shu bilan birga mohir xattotlar fir'avnlarning harbiy yurishlarini saroy va ibodatxonalar tosh devorlarida tasvirlab chizishganlar. Qadimgi Misr adabiyotining

yorqin namunalaridan “Podsho Xeops saroyi haqida ertak”, “Gapga chechan dehqon”, “Aka-uka haqida ertak”, “Unu-Amonning sayohati”, “Ajali etgan shahzoda haqida ertak” va boshqalar misol bo‘la oladi.

Qadimgi Misrda ibodatxonalarda dastlabki teatr ko‘rinishidagi diniy dramalar qo‘yilgan. Misrliklar musiqa va raqs sa‘atidan xabardor xalq hisoblanadi. Qadimiy devoriy suratlarida torli musiqa asboblariidan tashqari nay, urib chalinadigan do‘mbira va boshqalar tasvirlangan.

Qadimgi Misr arxitekturasini Gizadagi mahobatli ehromlarsiz tasavur qilish qiyin. Shu bilan birga Karnak va Luksordagi ulkan ibodatxonalar kishilarni e‘tiborini tortadi. Amarnadagi saroylar xarobalari qadimda Misr fir‘avnlarning qudratidan dalolat beradi. Misr fir‘avnlari ko‘kka bo‘y cho‘zgan baland monolit (yaxlit tosh) obelisklarni ham toshdan yasatganlar. Misr arxitektorlari oddiy mehnat qurollar yordamida toshdan ulug‘vor binolarni qurganlar.

Haykaltaroshlik qadimgi Misrda san‘at darajasiga ko‘tarilib, haykallar asosan ohaktosh va granitdan yasalgan. Ilohlar va fir‘avnlarni tasviriga alohida e‘tibor berilgan. Qadimgi Misr xudolari va fir‘avnlarning ulkan tosh haykallar aholi ko‘rishi uchun tashqariga joylashtirilgan. Misol uchun fir‘avnlarni Amenemxet III, Tutmos III, Amenxotep IV, Tutanxamon, Ramzes II va boshqalarning ulug‘vor haykallari ayniqsa e‘tiborga loyiq.

Qadimgi misrliklar turli xil ilohlarga sig‘inganlar. Ularning dinida ko‘p xudolik alohida ahamiyatga ega edi. Masalan: Ptax ilohi yaratuvchi timsolida gavdalangan, unga Yuqori va Quyi Misrda ham ibodat qilganlar. Ra – quyosh xudosi, Osiris-hosildorlik va marhumlar dunyosida sudyalik qiluvchi xudo, Isida-onalik ilohasi, Set-urush va o‘lim xudosi, Anubis-marhumlar xudosi, Tot-donolik va oy xudosi, Xor-tog‘lar va osmon xudosi, Bastet-go‘zallik va xursandchilik ilohasi, Maat-adolat va haqiqat ilohasi, Montu-urush xudosi, Sebek-daryolar va ko‘llar xudosi, Seshat-yozuv, hisob-kitib va xotira ilohasi, Xapi-Nil xudosi va boshqalar. Umumiy hisob bilan qadimgi Misr tarixida mingga yaqin xudolari bo‘lgan. Qadimgi Misrda o‘z xudolarini yarim inson va yarim hayvon qiyofasida tasvirlaganlar va inson o‘limidan keyin uning boqiy ruhi mavjud deb hisoblaganlar. Fir‘avnlarni ko‘mishdan oldin uning tanasi koinlar tomonidan mumiyolangan. Bu jarayoni 70 kun davom etgan. Mumiyolash orqali fir‘avn tanasini saqlab, tosh tobut “sarkofag” ga qo‘yishgan. Qadimgi

misrliklarning tasavvurida har-bir inson “Ka” deb nomlangan ilohiy quvvatga ega bo‘lib, o‘limidan keyin ushbu quvvat yashashni davom ettirishiga ishonganlar.

Qadimgi Misrda ilm fan taraqqiy etgan bo‘lib, ayniqsa geografiya, geometriya, matematika, astronomiya, tibbiyot va boshqalar. Masalan: Geliopolis va keyinchalik Sais shaharlarida kohin tabiblarni tayyorlaydigan ta’lim dargohlari bor edi. Ular bemorlarni davolashda hatto jarrohlik amaliyotidan ham foydalanishni bilganlar. Chunki misrlik kohin tabiblar mo‘miyolash jarayonini yaxshi bilgani uchun, inson a’zolarining ichki tuzilishidan xabarlar bo‘lgan. Shu bilan birga shifobaxsh o‘simliklar yordamida odamlarni davolay olganlar.

Qadimgi misrliklar quyosh kalendariga ham ega edilar. Unga ko‘ra bir yil 365 kunga teng bo‘lgan, bir oy esa 30 kunni tashkil qilgan. Qolgan besh kun bayram sifatida nishonlangan. Astronomiya bilan asosan kohinlar shug‘ullanganlar. Kunduzi quyoshni soyasiga qarab soatni aniqlashgan. Tunda esa vaqtni aniqlash uchun suv soatlardan foydalanaganlar. Umuman qadimgi Misr madaniyati, insoniyat sivilizatsiyasini rivojlanishida ijobiy rol o‘ynagan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misrda Yangi podsholik davri ne asr davom etgan?
2. Qaysi fir’avni Kadesh jangida xetlar bilan to‘qnashgan?
3. Exnaton islohatlarining mohiyati nimada?
4. Giksoslar haqida nimalarni bilasiz?

Glossariy

Giksos	Sahro hokimlari yoki II-o‘tish davrida Quyi Misrni zabt etgan ko‘chmanchi xalqlar.
Tot	Donishmandlik va oy xudosi
Kush	Nubiyaning shimolidagi davlat
Kadesh	Suriyadagi shahar
Xat-uarit	Giksoslar poytaxti Avarisning misrcha nomi
Jexutimassu	Fir’avn Tutmos I ning misrcha ismi
Mut	Onalik ilohi

Mavzu: Qadimgi Mesopotamiya

Reja:

1. Qadimgi Mesopotamiya sivilizatsiyasining yuzaga kelishi.
2. Shumer shahar davlatlari.
3. Akkad davlatining yuksalishi.

Qadimgi Mesopotamiya sivilizatsiyasining yuzaga kelishi.

Mesopotamiya (qadimda yunoncha “Ikki daryo oralig‘i”) Geografik jihatdan janubda Fors qo‘ltig‘i, g‘arbda Arabiston, shimolda Suriya va Armaniston hamda Sharqda Zagros tog‘lari bilan chegaralangan. Iqlimi sug‘orma dehqonchilikka qulay hisoblanadi. Bu yerda unumdor tekisliklar ko‘p bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda bog‘dorchilikka ham qulay hudud bo‘lganligi tarixdan ma‘lum.

Mil. avv VI ming yilliklarda Dajla va Frot daryolarining vodiylariga aholi ko‘chib kela boshlaydi. Tell-al-Ubeyd madaniyatini yaratgan xalq aynan ushbu davrda, janubiy Mesopotamiyada istiqomat qilgan. G‘arb olimlarni fikricha bu yerning odamlari (subareylar) qadimda protodajla tilida (yoki “banan tilida”) so‘zlashganlar. Tog‘li hududlarda termachilik, chorvachilik va keyinchalik ziroatchilik unsurlari paydo bo‘la boshladi.

Mil. avv VI ming yillik o‘rtalariga kelib, Mesopotamiyada qadimiy Tel-Xassuna madaniyati taraqqiy etadi. Bu yerdan o‘roqlar, tosh boltalar, tosh tegirmonlar, keramika qoldiqlari va xonakilashtirilgan hayvonlar suyaklari topib o‘rganilgan. Shu bilan birga sig‘inish tumori hisoblangan ayollar haykalchalari arxeologlar tomonidan topilgan. Qabrlarda mayit oldiga sopol idishlarda ovqat qo‘yib dafn etish odatini mavjudligi, qadimda Tel-Xassuna aholisi orasida diniy tasavvurlar bo‘lganligidan dalolat beradi.

Mil. avv IV ming yillik oxirida Jamdat-Nasr (yoki Uruk III) madaniyati davrida toshdan tashqari mis va bronza mehnat qurollari ishlatila boshlandi. Jamdat-Nasr janubiy Mesopotamiyaning ilk bronza davriga oid manzilgohi hisoblanadi. Dastlab ushbu manzilgoh 1926- va 1928-yillarda mashhur olimlar Stiven Lengdon hamda Genri Fildlar tomonidan o‘rganilgan(Henry Field, The Field Museum-Oxford University Expedition to Kish — Mesopotamia 1923—1929, Anthropology Leaflet 28, Field Museum of Natural History, 1929). 1988-1989-yillarda esa Rodjer Metyus (Roger Matthews, Excavations

at Jemdet Nasr 1988, Iraq 51, pp 225—248, 1989) tomonidan qayta tadqiq etiladi. Jamdat-Nasr, Qadimgi Shumerda ilk sulolaviy davrga o'tishning so'ngi bosqichi hisoblanadi.

Mill. avv. III ming yillikda Mesopotamiya janubida shumerlar, Dajla va Frot (qadimda akkadcha "pu-rat-tu") daryolarining o'rta oqimida akkad qabilalari, shimolda asosan xurritlar istiqomat qilganlar. Mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmida Mesopotamiya janubida mulkiy tabaqalanishni o'sishi bilan qator shahar-davlatlar: Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Kish, Nippur, Umma, Shuruppak, Adab, Girsu va boshqalar paydo bo'ladi. Shimolda esa yirik shahar-davlatlar Ashshur, Mari, Nineviya, Eshnunna, Tutub, Sippar va boshqalar yuzaga keladi. Sug'orma dehqonchilikka mos hududlarda hunarmandchilik yuqori darajada rivojlanadi. Mis va bronzadan mehnat qurollarini quyishning yangi usullari o'zlashtiriladi. Qimmatbaho metallardan chiroyli zargarlik buyumlari ham yasalgan. Savdo-sotiqning o'sib borishi, uni hunarmandchilikdan ajralib chiqish jarayonini tezlashtiradi. Qadimgi Mesopotamiyada maxsus savdogarlar-tamkarlar tabaqasi paydo bo'ladi. Bu esa Shumer shahar-davlatlarining o'sish tezligini oshiradi.

Frot va Dajlaning janubiy qirg'oqlaridagi irrigatsiya tizimini kengayishi, aholi orasida mulkiy tabaqalanishning o'sib borayotganligidan dalolat berar edi. Tez orada yerni sotish va sotib olish tushunchasi yuzaga keladi. Qulchilik munosabatlari paydo bo'lib, rivojlanib bordi. O'zaro urushlar qulchilikning asosiy omili edi. Qadimgi Mesopotamiyada qullardan xo'jalikda, chorvachilik va hunarmadchilikda keng foydalanilgan. Asosan qo'l mehnati uy xo'jaligida ishlatilganligi manbalarda ta'kidlanadi.

Qadimgi Shumerning ilk sulolaviy tarixi xronologik jihatdan uch davrga (garchi munozarali bo'lsa-da) bo'lib o'rganiladi:

- 1) I-ilk sulolaviy davr (mil. avv. 2750-2615-yy)
- 2) II-ilk sulolaviy davr (mil. avv 2615-2500-yy)
- 3) III-ilk sulolaviy davr (mil. avv 2500-2315-yy)

Yuqorida ta'kidlanganidek, Shumer sivilizatsiyasiga aloqador jamiyatda xo'jalikning turli xil shakllari o'sha davr uchun mos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanib borgan. Iqtisodiyoti sug'orma dehqonchilikka asoslangan patriarxal jamiyatda, qulchilik tizimini qaror topishi uchun barcha sharoitlar mavjud edi. Qadimda shumer jamiyatida, yeri bo'lmagan yoki yeridan mahrum bo'lgan, boshqa

joylardan kelgan, kambag'al oilalar, ibodatxonalarga qaram bo'lgan odamlar ham bor edi. Qaram kishilar ibodatxonalarga tegishli yerda va alohida xususiy xo'jaliklarda ishlaganlar. Qadimgi Shumer shahar-davlatlarining hukmron qatlami quldorlar bo'lgan. Ularga urug' zodagonlari, kohinlar, davlat amaldorlari kirgan. Ziroatkorlar qatlamini unchalik katta bo'lmagan yer ulushiga ega oilalar va katta patriarxal oilalarga birlashgan jamoachilar tashkil qilganligi tarixdan ma'lum. Asosan ziroatkorlik va chorvachilik uchun ajratilgan yer egaligi esa ikki qismga bo'lingan: jamoa va ibodatxonaga tegishli mulklardan iborat bo'lgan.

Qadimgi Shumerda, shahar-davlatlarning hokimlari "ensi" ibodatxona kohinlaridan bo'lgan. Ibodatxonalar, shumerliklar ilohlarining mulki hisoblangan. Faqatgina kohinlar unga tegishli yerlarni idora qilganlar. Ayrim yerlari ijaraga berilgan bo'lsa, qolgani qaram kishilarga, ibodatxonadagi xizmatchilar va bu yerga tegishli savdogar-hunarmandlarga foydalanishi uchun bo'lib berilgan. Ibodatxonalar o'z mulklarini himoya qilish niyatida harbiy bo'linmalar ham tuzganlar. Bunday yerlardan tushadigan yirik mablag'lar, diniy marosimlar va bayramlarni tashkil qilishga, boshqa Shumer shahar-davlatlari bilan mahsulot ayirboshlashga yo'naltirilgan. Hosilning ma'lum bir qismi zahira qilib olib qo'yilgan. Ibodatxona yerlaridan tushadigan daromad, doimiy hisoblab borilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek shahar ustidan nazorat "En" (janob) oliy kohin tomonidan amalga oshirilgan. Uning hokimiyati oqsoqollar kengashi yoki xalq yig'ini bilan cheklangan. Ayrim hollarda shahar-davlatning qo'shiniga ham boshchilik qilgan. Shahar "Eni"ning asosiy vakolati kohinlik, ibodatxona yerlari va ma'muriyatini idora qilish, ibodatxona va shaharda yirik qurilishlarni tashkil etishdan iborat bo'lgan. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi uchun irrigatsiya tizimini bunyod qilish va shahar iqtisodiyotini tartibga solib boshqargan edi. So'ngra mil avv. III ming yillik o'rtalarida "En" unvoni o'rninga "Ensi" ("kohin-quruvchi" shahar boshqaruvchisi) paydo bo'ladi. Shahar-davlat "ensi"si jamoa va ibodatxona mulklarini boshqargan, soliqlar yig'imini nazorat qilgan. Ayrim hollarda ibodatxonalarga tegishli askarlarga boshchilik qilgan.

Bundan tashqari "Lugal"("ulug' odam", yoki "katta odam", akkadcha "sharru") lavozimi ham mavjud edi. Dastlab xalq yig'ini tomonidan, Shumer shahar-davlatlarida saylab qo'yiladigan harbiy

sardorlik lavozimi bo'lgan. Uni faqatgina favqulodda hollarda vaqtinchalik saylab qo'yishgan. Keyinchalik "Lugal"lik umrbod, so'ngra meros tarzida o'ta boshlagan. Aholi orasida tabaqalanishni o'sishi oqibatida shahar-davlatlarida, xalq yig'inining mavqeyi sezilarli darajada tusha boshlaydi. Hukmdorning iqtisodiy-siyosiy obro'yi esa o'sib boradi. Armiya lugallarga xizmat qiladi.

Shumer shahar davlatlari. Qadimgi Shumer shahar-davlatlari daryo bo'yidagi unchalik katta bo'lmagan irrigatsion hududlarda joylashgan edi. Uning atrofida shaharga tegishli qishloqlar bo'lgan. Shahar-davlatlar bir-biridan uzoq joylashmagan bo'lib, ular orasida doimiy savdo va madaniy aloqalar mavjud edi. G'arb olimlarining fikricha qadimgi Shumerning eng qadimgi shahri Eredu hisoblangan.

Shunday bo'lsa-da "buyuk to'fondan keyin" Kish shahri Shumerda gegemonlikni qo'lga kiritadi. Ikki daryo oralig'ida Kishning ilk podshosi sifatida afsonaviy Gaur ismli shaxs tilga olinadi. So'ngra taxtga Gulla-Nidaba-Annapad kelishi manbalarda ta'kidlanadi. Ularning hukmronligi davri borasida hozirga qadar olimlar orasida munozarali fikrlar mavjud. Ayniqsa I-Kish sulolasining o'n uchinchi podshosi Etana davrida Kish shahri yuksaladi. Shumerda siyosiy barqarorlik yuzaga keladi. Rivoyatlarga ko'ra hukmdor Etana, xudolar oldiga "tug'ilish maysasi"ni olish va merosxo'r voris tilab osmonga ko'tarilganligi ta'kidlanadi. Qadimgi Mesopotamiyada "Kish lugali" unvoni uzoq vaqt katta obro'ga ega bo'lgan. Keyinchalik bu maqom, Shumer shahar-davlatlarida taxtga da'vogar podshoning hokimiyatni qonuniylashtirish timsoliga aylanib qolgan.

Kishning zaiflashuvi Urukning yuksalishi bilan boshlangan. Mil. avv. 2675- yillar atrofida Kish shahrini lugali Aggi (yoki Agga) Uruk shahrining eni Gilgameshga urukliklar bilan irrigatsiya ishlarida qatnashishni talab qiladi. Gilgamesh esa, Kish lugaliga rad javobini beradi. Shundan so'ng Aggi Urukni o'z qo'shini bilan qamal qiladi. Ammo tez orada mag'lubiyatga uchraydi. Gilgamesh Kish ustidan g'alabaga erishadi. So'ngra Shumer yerlarini birlashtiradi va uning shaxsi ilohiylashtiriladi. Urukning I-sulolasi vakillari Urungal, Utulkalama, Labashum, Ennuntaraxana (hukmronlik yillari hozirga qadar munozarali) va boshqa podsholar davrida Uruk, Shumerda gegemonlikni saqlab turdi.

Keyinchalik Ur shahar-davlati Janubiy Mesopotamiyada ustunlikni qoʻlga kiritdi va Urning I- sulolasi podsholari gegemonligi boshlanadi. Mil. avv. 2563-yili Ur shahrida taxtga lugal Mesanepada chiqadi. U “Kish lugali” unvoniga ham ega boʻlib, butun Shumerda oʻz hokimiyatini oʻrnatdi. Ur shahar-davlati oʻz rivojlanishining yuqori choʻqqisiga yetadi. Bu yerda lugallar uchun hashamatli binolar quriladi. Keyinchalik siyosiy qarama-qarshiliklar kuchayishi natijasida Ur shahar-davlati zaiflashib, Lagash shahri ustunlikka erishadi.

Lagashning Shumerda gegemonlik uchun kurashida, asosiy dushmani Umma shahri edi. Mil. avv. 2450-yil Eanatum, Lagash shahrining lugali unvoniga sazovor boʻladi. Soʻngra Umma shahar-davlati uni Ushni jangda yengadi. Ummaliklar, Lagashda ehtiromli hisoblangan Ningisu va Nanshe (baliqchilik ilohasi) xudolari ibodatxonasi foydasiga, bugʻdoy bilan oʻlpon toʻlaydigan boʻldilar. U deyarli barcha Shumer shaharlarini (Nippurdan tashqari) boʻysundirib, mamlakatni elamliklar bosqinidan asrab qoladi. Vaqt oʻtib Lagash podsholari Enannatum I, Entemena, Enannatum II, Enentarzi, Lugaland va boshqalar davrida Lagash shahar-davlati Shumerda ustunlikni saqlab turadi. Mil. avv. 2319-yilda Lagashda Urukagina (yoki Uruinimgina) hokimiyatga keladi.

Yangi hukmdor ijtimoiy qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun islohotlar yoʻlini tanlaydi. Ibodatxonalarning oliy koinlari soliqlardan ozod qilinadi. Lugal Urukagina (mashhur tarixchi I. M. Dyakonovning fikricha) zodagonlar va koinlar tabaqasi vakili sifatida, davlat amaldorlarining ibodatxona yerlarini nazorat qilishiga qarshi kurashadi. Ibodatxonalarning qaram kishilarga natural mahsulot toʻlovi miqdori oshirilib, ularning huquqlari kafolatlanadi. Soliqlar tartibga solinib, bevalar va yetimlar davlat himoyasiga olindi. Soliq yigʻuvchilar va mansabdor shaxslar sonini kamaytiradi. Jamoalarning oʻz-oʻzini boshqarish tizimi tiklandi. Lekin ichki nizolar Lagashni kuchsizlantiradi.

Bu orada podsho Lugalzagesi (mil. avv. 2336-2311-yy) boshchiligida Umma va Uruk shahar-davlatlari birlashadi. Soʻngra Lugalzagesi Lagashni bosib olib, Shumerda uzoq vaqt gegemonlik qildi. Umma shahar-davlati nazoratidagi hudud Oʻrtayer dengizidan Fors qoʻltigʻiga qadar kengaydi.

Akkad davlatining yuksalishi. Sargon I (mill. avv. 2316-2261 yy) oʻzini Akkada “Sharrum-ken” (asl podsho) deb eʼlon qiladi.

Podsho bo'lguniga qadar oddiy suv tashuvchining tutingan o'g'li (asl otasi haqida ma'lumot yo'q), o'zi esa bog'bon bo'lgan edi. So'ngra Kish lugali Ur-Zababaning xizmatkori (sharob quyuvchisi) bo'lgan. Lugalzagessi Kishni egallagach shimolroqda Akkadi shahriga ketadi va kichik shahar-davlatni qudratini oshiradi. Tarixda birinchi marta Sargon I taxminan 5400 askardan iborat yahshi qurollangan muntazam qo'shin tuzadi. Askarlari podsho hisobidan ta'minlanar edi. U Shummer shimolidagi Akkad davlatiga asos soldi. Umma hokimi Lugalzagisi u bilan uzoq urush olib bordi. Ammo Sargon I kuchli qo'shin bilan Shumer shaharlarini birin-ketin istilo qiladi. Lugalzagisi esa qatl etiladi va Uruk mudofaa devorlari buziladi. Keyinchalik podsho Sargon I shaxsi afsonalarda ilohiylashtirish darajasiga ulug'langan edi.

Yangi hukmdor "Kish lugali" maqomiga ham sazovor bo'ldi. Sargon I podsholigi davrida butun Mesopotamiyani o'z davlati qo'l ostiga birlashtiradi. Bundan tashqari, u Kichik Osiyo, Kipr, Suriya, Elam va hatto uzoq Janubiy Erongacha harbiy yurishlar qildi. Akkad qadimgi dunyoning eng kuchli davlatlaridan biriga aylanadi.

Sargon I davlati Mesopotamiyadagi shahar-davlatlardan farq qilgan holda markazlashgan hududiy davlat edi. Sargon I va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, savdo-sotiq, sun'iy sug'orishga asoslangan ziroatchilik rivojlanadi. Uning yakka hokimlikka (yoki tiraniyaga) asoslangan hokimiyati zodagonlar va oqsoqollar kengashining qarshiligiga olib keldi. U o'z hokimiyatini kuchaytirish uchun xizmatidagi zodagonlar, amaldorlar va ayrim hollarda kohinlarga tayanib ish ko'rdi. Sargon I, Akkadi shahri homiy xudosi Aba va Kish shahri ilohi Zababalarni ulug'ladi. Shu bilan birga Nippurdagi Shumerning umumiy xudosi Enlilga ham xurmat bajo keltirdi. Ayrim shaharlarning hokimlarini o'zi tayinlar edi. Sargon I tashkil etilgan muntazam qo'shinga g'amxo'rlik qiladi. Jangchilarga harbiy xizmatiga yer ajratib beradi. Podsho Sargon I tashkil qilgan davlatda hokimiyat to'la monarxga tegishli bo'lib, keyin uning merosxo'rlariga o'tishi kerak edi.

Shumer shahar-davlatlarining hududi Sargon I davlatining viloyatlari bo'lib qoldi. Ularning tepasida turgan ensi yoki lugal podsho noiblari hisoblanar edi. Ibodatxona xo'jaligi va mulklari esa, podsho davlat xo'jaligining bir qismi edi. Sargonning qo'lida katta miqdorda iqtisodiy kuch to'planib, uning yordamida ichki isyonlar va

faol tashqi siyosat yuritish uchun harbiy qismlarni saqlab turish mumkin bo'ldi.

Podsholar markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun merosiy «ensi»larni o'z o'g'illari bilan almashtirdilar. Merosiy hokimlar oddiy amaldorlar darajasiga tushirildi. Podsho ichki siyosatda kohinlarga suvandi. Kohinlarga ko'plab imtiyozlar berildi. Podsho va uning o'g'illari ibodatxona kohinlari lavozimini bajarganlar. Sargon davrida yangi kanallar qurildi. Sug'orish inshootlari umumdavlat miqyosida rivojlantirildi. Yagona o'lchov va og'irlik o'lchov birliklari joriy qilindi. Akkad Hindiston va Sharqiy Arabiston bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Sargon I hukmronligining so'nggi yillarida mamlakatda boshlangan ochlik katta g'alayonlarga olib keldi.

Podsho Sargon I ning vorisi Rimush (mil. avv. 2261-2252-yy) hokimiyatga keladi. Hukmronligining dastlabki yillarida otasidan meros bo'lib qolgan deyarli barcha davlatlar unga qarshi isyon ko'taradi. Qo'zg'olonning boshida Ur hokimi Kaku turadi. Shu bilan birga Umma shahri ham isyonchi Kaku tomoniga o'tib ketadi. Ammo Rimush ularga qarshi qo'shin tortib boradi va jangda g'alaba qozonadi. Minglab qo'zg'olonchilar asir olinadi. So'ngra podsho Rimush Fors qo'ltig'iga harbiy yurishni amalga oshiradi. U yerda ham isyonlar bostiriladi. Qo'zg'olonlarga chek qo'yish yo'lidagi Rimushning keyingi yurishlarida, isyonchi shaharlar Umma va Darning 13 mingga yaqin aholisini qirib tashladi.

Rimush ichki siyosatda kohinlarga tayanishga harakat qilib, ularga ko'p hadyalar qildi. Elamga bir-necha talonchilik yurishlarni amalga oshiradi. Ammo Rimush o'z yaqinlarining fitnasi (podsho oldiga qurol bilan kirib bo'lmasligi tufayli uni zodagonlar, tosh muhrlari bilan urib o'ldirganlar) qurboni bo'ldi.

Uning ukasi yangi podsho Manishtusu (mil. avv. 2252-2237-yy) bir nechta isyon va qo'zg'olonlarni bostirishga majbur bo'ladi. U Elamga ikki marta bostirib kirdi va u yerni talon-taroj qiladi. Fors qo'ltig'ining Sharqiy qirg'og'i tomon dengiz orqali yurish ham uyushtiradi. U podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun jamoa yerlarini sotib olib ola boshlaydi, natijada davlat hisobidagi yerlarini kengaytira oldi. Podsho Manishtushu ham yangi saroy fitnasi natijasida o'ldiriladi.

Textga uning o'g'li, Sargon I ning nabirasi Naram-Suen (mil. avv. 2237-2200 yy) o'tirdi. Hukmronligining dastlabki yillarida quyi

Mesopotamiyaga qo'zg'olonlarni bostirish uchun yurish qilishga majbur bo'ladi. Naram-Suen ham podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun isyonchi shaharlar, ayirmachi "ensi"lari, urug' zodagonlariga qarshi muntazam kurash olib boradi. Akkadning yuksalishidan norozi bo'lgan janubdagi shahar-davlatlar qo'zg'olon ko'taradi. Shunday bo'lsa-da isyonlar shavqatsizlik va katta qiyinchilik bilan botiriladi.

Podsho Naram-Suen davrida Akkadning yuksalishi kuzatildi. Mesopotamiya shaharlari to'la Sargon I sulolasi hukmi ostiga o'tgach, Naram-Suen o'zini "Akkadning qudratli xudosi" deb ulug'lab, o'zini toshga o'yib yozilgan tasvirlarida(hozirda "Naram-Suen g'alaba stelli" Parijning Luvr muzeyida) ilohiylik ramzi bo'lgan shohli bosh kiyim bilan tasvirladi. Aholi unga iloh sifatida sajda qilishi kerak bo'lgan. Uni yana "to'rt iqlim podshosi" va "Olam podshosi"-deb ham yuksaklarga ko'tarishgan. Shunday bo'lsa-da Akkad davlati, Elamni butunlay o'z nazoratida tutib tura olmadi. Naram-Suen hukmronligini so'nngi yillarida Zagros tog'lari tomonidan, Akkad yerlariga ko'chmanchi gutiy qabilalarining dastlabki to'liqini kirib keladi.

Naram-Suendan so'ng taxtga Sharkalisharri (mil. avv. 2200-2176-yy) o'tirdi. Uning davrida Mesopotamiyaga g'arbdan, kelib chiqishi semitlardan bo'lgan amoriylar va shimoli-Sharqdan esa gutiylar xavf sola boshladi. Shu tariqa Akkad saltanati oxirgi marta yuksaladi va mamlakat chegaralari o'sishiga olib keldi. Ammo bu hududlarni nazorat qilish muammo edi. So'ngra doimiy bosqinchilik yurishlari va ichki nizolar, mamlakat iqtisodiyotini inqiroz yoqasiga olib keldi. Akkad davlati kuchsizlanadi va tashqi dushmanga qarshilik qila olmay qoladi.

Keyinchalik Mesopotamiyadagi Akkad davlati qudratiga Zagros tog'laridan bostirib kirgan tog'li qabilalardan bo'lgan gutiylar chek qo'yadi. Mamlakat gutiylar tomonidan talon-taroj qilindi. Shumer shahar-davlatlari aristokratiyasi ularga o'lpon to'ladilar. Lagash hokimlari gutiylar yordamiga tayanib, boshqa shaharlar ustidan ma'lum darajada hukmronlik qildilar. Janubiy Mesopotamiyada Lagashning zo'ravonligi boshqa shahar-davlatlarning noroziligiga uchradi va gutiylardan ozod bo'lish vaqtida qo'shni shahar-davlatlar tomonidan Lagash vayron qilindi.

Gutiylar davrida Lagash hokimi bo'lgan Gudea (mil. avv. 2137-2117-yy) o'zining yozuvlari va haykallari bilan ma'lum. Uning

davrida Ningirsu xudosi ibodatxonasi atrofida yagona ibodatxona xo'jaligi tashkil etilgan edi. Gudea bu xudo uchun olinadigan maxsus soliq joriy qildi va qurilish majburiyatini kiritdi. Podsho Gudea, Hind daryosi havzasi viloyatlari bilan savdo qildi va elamlklar bilan urush olib bordi.

Gutiylar Mesopotamiyada taxminan yuz yilga yaqin hukmronlik qilganlar. Mil. avv. 2109-yilda gutiylar Ur podshosi Utuxengal tomonidan tor-mor qilinadi. Gutiylar hukmdori Tirikan mag'lub etilganidan so'ng, Mesopotamiya Utuxengal boshchiligida birlashtiriladi. Shu bilan birga u "to'rt iqlim podshosi" unvonini ham qabul qiladi. Shumer va Akkad yerlari yana birlashtiriladi. Ammo Utuxengal irrigatsiya ishlarini nazorat qilayotganda baxtsiz hodisa tufayli vafot etadi. So'ngra Utuxengalning tarafdori Ur-Nammu (mil. avv. 2112-2094-yy) taxtga chiqadi va III-Ur sulolasi hukmronligi boshlanadi. Ur poytaxtga aylanadi hamda gutiylar davrida vayron qilingan mudofaa devorlari qayta tiklanadi. Ur-Nammu islohatlar o'tkazib, 57 ta moddadan iborat qonunlarni tuzadi. Ur shahrida ulkan zikkurat qurishni boshlaydi, lekin bitkazishga ulgurmaydi. Keyinchalik gutiylar bilan jangda halok bo'ladi. Uning o'g'li Shulgi (mil. avv. 2094-2046-yy) davrida balandligi 10 metrga teng Urdagi zikkurat qurulishi bitkazilib, yangi qonunlar kiritidi. Hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan podsho ustaxonalari ishi yo'lga qo'yildi. Iqtisodiyotda davlatning o'rni oshadi. Yirik chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklari tashkil qilindi. Mesopotamiyada ishdan chiqqan sun'iy irrigatsiya tizimi to'liq qayta tiklanib, yangi to'g'on va kanallar quriladi. Mamlakatdagi asosiy yer zahirasi podshoniki hisoblangan. Armiyada ham islohatlar o'tkazishga muvaffaq bo'ladi. Shulgi ibodatxonalar va davlat xo'jaliklariga tegishli yerlarni markazlashtiradi. So'ngra ular ustidan davlat nazoratini o'rnatadi. Podsho Shulgi davrida Shumerda cho'ri ayollarning xo'jalikdagi mehnatidan unumli foydalanishgan. Ularni "Ngeme" deb atashgan bo'lsa, qullardan farq qilmaydigan "gurushi" kabi aholi qatlami ham mavjud edi. Podsho Shulgi, jamoa yerlarida ishlaydigan aholini qashshoqlashuv jarayonini sekinlashtirish uchun bunday yerlarni sotish va sotib olishni bekor qiladi. Ammo oddiy xalqning yersiz qolishi kuchayib boradi. Kambag'al aholini o'z bolalarini qul qilib sotishi, qarz uchun bir oz vaqt o'z ozodligini yo'qotib qulga aylanishi kabi holatlar ko'p uchraydigan bo'lib qoladi. Mamlakatda qullar soni

oshib boradi. Ijtimoiy tabaqalanish kuchayib ketadi. Tashqi siyosatda Shulgi, Elamning katta qismini bosib, u yerga shumerliklarni noib qilib tayinlaydi. Shimolda Ashshur shahrini o'ziga bo'ysundiradi. Lulubey qabilalari bilan ham urush olib boradi. Shu payt Mesopotamiyaga g'arbdan somiy tilli "amorey" qabilalari kirib kela boshlaydi. Ular shimolda Frot daryosi bo'yidagi Mari shahrini bosib oladilar. Mil. avv. 2046-yilda podsho Shulgining vafotidan so'ng, taxtga uning o'g'li Amar-Suen (yoki Amar-Sin) keladi. Mamlakat armiyasiga elamlklar va amoreylardan iborat yollanma askarlar olina boshlaydi. O'ziga qaram shaharlardagi isyonlarni bostiradi. Ammo keyingi podsho Shu-Suen davrida amoreylar hujumi kuchayadi va podsho o'z shaharlarini himoya qilish uchun ularni mudofaa devorlari bilan o'ray boshlaydi. III-Ur sulolasining so'ngi vakili Ibbi-Suen mamlakatni ko'chmanchi amoreylardan va elamlklardan mudofaa qila olmaydi. Natijada mil. avv. 2004-yilda Ur, Elam qo'shini tomonidan egallanib, talon-taroj qilinadi va III-Ur sulolasi tugatiladi. Oradan 6 yil o'tib, elamlklar Ur shahridan qo'shinlarini olib chiqib ketadi. Ichki nizolar va tashqi hujumlardan kuchsizlangan Mesopotamiyada hukmronlik I-Issin sulolasi qo'liga o'tadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Mesopotamiyada ilk sivilizatsiya manzilgohlari haqida ma'lumot bering?
2. Akkad davlati xo'jaligi haqida nimalarni bilasiz?
3. Shumer-Akkad davlati ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyati nimada?
4. Ko'chmanchi lulubeylar etnik jihatdan kimlar edi?
5. Aramey hukumdorlari haqida ma'lumot bering?
6. Ko'chmanchi gutiylar asli kimlar edi?

Glossariy

En	Mesopotamiyada shaxar davlat hokimi
Lugai	Shumer shahar davlatlaridagi harbiy unvon
Sharrum	Akkadda "Ulug' odam" podsho
Gutiylar	Shumerni bosib olgan ko'chmanchi qabilalar

Mifat	Mesopotamiyadagi neolit davriga oid manzilgoh
Lulubey	Zagros tog'laridan kirib kelgan ko'chmanchi halqlar
Shulgi qonunlari	Shumerdagi ilk yozma (mixxat)qonunlardan biri

Mavzu: Bobil podsholigi

Reja:

1. Amoriy qabilalarining Mesopotamiyagi kirib kelishi
2. Xamurappi boshchiligidagi Bobil podsholigining yuksalishi
3. Yangi Bobil podsholigi
4. Mesopotamiya madaniyati

Amoriy qabilalarining Mesopotamiyaga kirib kelishi. Mil. avv. II ming yillik boshlarida Mesopotamiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz, amoriy qabilalarini shimoldan jadal kirib kelishi uchun sharoit yaratdi. Mil. avv. XVIII asrlar boshida Mesopotamiyani Larsa, Bobil, Eshnunna, Ashshur, Mari, Issin shahar-davlatlari o'zaro bo'lib olgan edilar. Ularning aksariyatida amoriy qabilalaridan chiqqan podshohlar hukmronlik qilar edi. Mil. avv. 1895-yilda amoriylarning yaxrurum qabilasi sardori Sumuabum (mil. avv. 1895-1881-yy), Bobil taxtini qo'lga kiritadi va I-Bobil sulolasiga asos soladi. Uning davrida Bobil mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Shahar aholisi ehtiyoji uchun kanallar qaziladi. Kish shahri bilan do'stona munosabatlar o'rnatiladi. Sumuabumdan keyin uning jiyani Sumulael (mil. avv. 1881-1845-yy) Bobil taxtiga chiqadi. Bobil o'sha zamonda hali uncha yirik shahar davlat bo'lmaganligi manbalarda keltiriladi. U janubiy Mesopotamiyadagi Marada va Kazallu shahri hokimi Alumbiumu bilan urushlar olib boradi. Ammo muvaffaqiyatsizlikka uchragach, himoyalani uchun, u ham Bobilni mudofaa devorlari bilan o'rashga majbur bo'ladi. Mil. avv. 1869 yilda Bobil podsholigi Kish shahrini bosib oladi. So'ngra Sippar va Uruk shahar-davlatlari bilan ittifoq tuziladi. Hukmronligining so'ngida Sumulael, Larsaliklardan mag'lub bo'ladi. Bobil davlati Mesopotamiyada gemon bo'lishga intilishni vaqtincha qo'ldan chiqaradi.

Podsho Sumulaelning o'g'li Sabium (mil. avv. 1845-1831-yy) davrida Bobil, Yuqori Mesopotamiyani eng kuchli shahar-davlatlari Issin va Larsadan qolishmaydigan harbiy kuchga ega bo'ladi. Shu bilan birga Bobilda, Marduk ilohi uchun E-sagilu ("Baland uy") ibodatxonasini qurdiradi. Keyinchalik Bobil podsholari Apil-Sin (mil. avv. 1831-1813-yy) va Sinmuballit (mil. avv. 1813-1792-yy)lar Bobil hududlarini kengaytiradilar. Mesopotamiyada gegemonlik uchun kurashda yirik nomzodlardan biriga aylanadi. Sinmuballit Bobil podsholaridan birinchi bo'lib janubga yurish uyushtiradi. Bobilliklar Uruk, Isin, Rapikum shaharlari va sutiy qabilalari bilan ittifoqda Larsa podshosi Rimsinga (mil. avv. 1822-1763-yy) qarshi chiqadilar. Ammo mil. avv. 1810-yilda Rimsin ushbu kaolitsiyani tor-mor keltiradi. Bobil podsholigi Rimsinga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Natijada Larsaning siyosiy mavqeyi oshib ketadi.

Xamurappi boshchiligida Bobil podsholigining yuksalishi. Qadimgi Mesopotamiyada amoriylar o'troqlashib bo'lgach, Shumerning ichki nizolarida faollik bilan qatnashadilar. Bularning orasida Bobil shahar-davlatini alohida ta'kidlab o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'hna Bobil shahar-davlatining yuksalishi podsho Xammurapi (mil. avv. 1792-1750-yy) davriga to'g'ri keladi. U Bobil shahrini mudofaa devori bilan o'ragan arameylar podshosi Sumu-abumning chevarasi bo'lgan. Bobil podsholigi shimoldan Shamshi-Adad I (Ossuriya podshosi), janubda Rimsin (Larsa podshosi) davlatlari bilan chegaradosh edi. Podsho Xammurapi aqlli davlat arbobi, diplomat va mohir sarkarda bo'lgan. Xammurapi har qanday diplomatik kelishuvlarni Bobil manfaatlari bilan mos ravishda o'zgartirib borgan. Hukmronligining beshinchi yili (mil. avv. 1787-yilda) Isin shahrini zabt etib, u yerdan Larsa garnizonini haydab yuboradi. So'ngra Dajla daryosidan kechib o'tib, elamliklarga qarashli Malgium shahrini ham bosib oladi. Hukmronligining to'qqizinchi yili Ossuriya podshosi Shamshi-Adad I bilan shartnoma imzolaydi.

O'z navbatida Xammurapi, Larsa podshosi Rimsin bilan to'qnashuvga hali tayyor emasligini yaxshi tushungan. Larsa podshosi Rimsin Markaziy Mesopotamiyada Bobilning kuchayotganidan xavfsirab, Elam podshosi Malgiumaga elchilar yuborgan. Xammurapi esa bu payt Mari shahri bilan ittifoq tuzib, Eshnunna shahrini bosib oladi. Unga xavfli raqib bo'lgan Elamni 10 yillik urushdan so'ng, Mari podshosi Zimrilim qo'shinlari bilan birlashib, mil. avv. 1764-

yilda ularni ham yengadi. Xammurapi, mil. avv. 1759-yilda Mari shahrini ham bosib oladi. Ko'p o'tmay olti oylik qamaldan so'ng Larsa egallanadi. Xammurapi, Larsa podshosi Rimsin vafotidan so'ng "amoriylar otasi" unvonini meros qilib oladi.

Endi Shamshi-Adad I vafotidan keyin zaiflashib qolgan Ossuriya davlati qolgan edi. Tez orada uning yirik shaharlari Ashshur va Nineviya Bobil hokimiyatini tan oladilar. Natijada butun Mesopotamiya Bobil davlati boshchiligida birlashtiriladi.

Xammurapining uzoq hukmronligi davrida Bobil butun Mesopotamiyani birlashtirgan kuchli davlatning poytaxti, yirik siyosiy-iqtisodiy va madaniy markazga aylangan edi.

Xammurapining o'g'li Samsuilin (mil. avv. 1749-1712-yy) davrida Bobil podsholigida qarama-qarshiliklar kuchayib, xalqning ahvoli og'irlashib boradi. Mil. avv. 1742-yilga kelib, Mesopotamiyaga shimoliy-sharqdan kassitlar etnonimidagi hind-yevropa qabilalari (akkadcha Kassu, zamonaviy fanda kassitlarni kaspe-kaspiy deb atagan) Gandash nomli yo'lboshchilari bilan bostirib kiradilar. Shu bilan birga elamliliklar janubda Shumer shaharlariga hujum qiladilar. Gandash, Samsuilin bilan urush olib boradi va Mesopotamiyada kassitlar sulolasiga asos soladi. Undan so'ng mil. avv. 1726-yilda hokimiyatga Gandashning o'g'li Agum I keladi. Agum I ni aynan Bobilni boshqarganligi masalasi munozarali hisoblanadi. Ammo kassitlar Mesopotamiya yerlarini tez orada o'zlariga butunlay bo'ysundirganlar. Kassitlar davrida Bobilning siyosiy qudrati kuchsizlanadi. Buning ustiga mil. avv. 1595-yilda xettlar podshosi Mursiliy I, Bobilga bostirib kirib, 1-Bobil sulolasining oxirgi vakili Samsu-ditanani taxtdan ag'darib, shaharni talon-taroj qiladi.

Elam davlati bir necha urushlardan so'ng, mil. avv. 1150-yillar atrofida Bobilda kassitlar sulolasi hukmronligini tugatdi. Lekin bir oz vaqt o'tib, Ninurta-nadin-shumining o'g'li Navuxodonosor I (mil. avv. 1124-1104-yy) II-Issin sulolasi davrida Ossuriya bilan urush olib boradi. Ammo ossur podshosi Ashshur-resh-ishi I uni mag'lub etadi.

Navuxodonosor I Elamliklarni Bobildan haydab yuborishga erishadi, so'ngra Elamga shunday zarba berildiki, u haqida uch asr yozma manbalarda ma'lumotlar deyarli keltirilmaydi.

Keyinchalik Janubiy Mesopotamiyaning shaharlari oralg'ida joylashgan oromiy tilida so'zlashuvchi semitlardan bo'lgan xaldey qabilalari kuchayadilar. Ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil. avv.

878-yilda Ossuriya podshosi Ashshurnazirpal II annallarida tilga olinadi. Xaldeylar yarim ko'chmanchi chorvadorlik, ziroatkorlik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Mil. avv IX asrda xaldehy qabilalari Bobilning janubiy qismini bosib oldilar va Bobilning yuksak madaniyatini o'zlashtiradilar. Mahalliy ilohlardan eng mashhuri Mardukka sajda qiladilar. Xaldehy aristokratiyasi bobilliklar urf odatlariga asosan hayot kechira boshlaydi.

Mil. avv. 851-yilda Ossuriya podshosi Salmanasar III, xaldeylar Bobilini o'lpon to'lashga majbur qiladi. Xaldehy knyazlari Bit-Dakuri, Bit-Amukani va Bit-Yakinlar ossurlar hukmronligini tan oldilar. Ammo Bobil ma'lum bir suverenitetni saqlab qolgan edi.

Ossuriya Bobilni mil. avv. 729-yilda bosib olishga muvaffaq bo'ladi. Mil. avv. 689-yilda (ayrim manbalarda mil. avv. 681-yil) Ossuriya podshosi Sinaxxerib, elamliklarga tayangan isyonkor Bobilni butunlay vayron qilib, so'ngra suvga bostiradi.

Mil. avv. 627-yilda Ossuriya podshosi Ashshurbanapal vafotidan so'ng Mesopotamiyada kuchlar muvozanati o'zgaradi. Mil. avv. 627-yil xaldeylar lashkarboshisi Nabopalar isyon ko'tarib, Urukni egallaydi va Nippurni qamal qiladi. Ammo ossurlarning qarshi hujumidan so'ng chekinadi. Mil. avv. 626-yilga kelib podsho unvoniga sazovor bo'ladi. Mil. avv. 614-yil Ossuriyaning qadimiy shahri Ashshurni midiyaliklar vayron qiladilar. Nabopalar, Midiya podshosi Kiaksar bilan ittifoq tuzadi va Ossuriliklarga qarshi uzoq urush olib boradi.

Mil. avv. 612-yili midiyaliklar bilan ittifoqda Nineviya shahrini egallaydilar. Shahar suvga bostirilib butunlay vayron qilinadi, aholisi qisman qirib tashlanib, qolganlari qulga aylantiriladi. Mil. avv. 611-yilda Nabopalar armiyasi ossurlarning tayanch qal'alaridan biri Xarran yerlarida harbiy harakatlarni boshlaydi. Mil. avv. 610-yil ossurlar va ularning ittifoqchilari bo'lgan misrliklar Xarranni tashlab qochadilar. Natijada Bobil va Midiya qo'shinlari yana bir g'alabaga erishadi. Mil. avv. 605-yili ossurlar Misr fir'avni Nexo II bilan ittifoqda Karkemish shahri yonidagi jangda bobilliklardan yengiladilar. Shu tariqa Ossuriya davlati tarix sahnasidan o'chib ketadi. Nabopalasardan so'ng taxtga uning o'g'li Navuxodonosor II (mil. avv. 605-562-yy) chiqadi. U misrliklarni Yaqin Sharqdan siqib chiqaradi, hatto mil. avv. 601-yilda Misr chegaralariga chiqishga ham muvaffaq bo'lgan. Ammo misrliklar o'z vatanlarini mudofaa qila

oldilar. Mil. avv. 597-yili Navuxudonosor II Yahudiyani bosib olib, ularning podshosi Ioakimni qatl ettiradi. Mil. avv. 591-yildan boshlab misrliklar bilan Yaqin Sharq masalasida qarama-qarshilik bolanadi. Misr fir'avni Psammetix II yaxudiylarni Bobilga qarshi isyon ko'tarishga undaydi. Mil. avv. 586-yilda Quddus (Ierusalim) bobilliklar tomonidan vayron qilinadi.

Navuxudonosor II davrida Yangi Bobil podsholigining gullab-yashnaydi. Qadimgi Bobil shahrining aholisi 200 mingga yaqinlashadi. Ulug'vor ibodatxonalar va saroylar bunyod etiladi. Mesopotamiyada irrigatsiya tizimi qayta tiklanadi. Bobil shahri yirik savdo-sotiq markazlaridan biriga aylanadi.

Mil. avv. 562-yilda podsho Navuxodonosor II vafotidan keyin, Bobil zodagonlar va kohinlarning obro'yi oshib, mamlakatda ichki nizolar boshlanadi. Zodagonlar podsholar tayinlanishida muhim rol o'ynay boshlaydi. Oqibatda Bobil davlatida siyosiy barqarorlikka putur etadi. Mil. avv. 556-yilda kelib chiqishi xaldey bo'lmagan yirik zodagon Nabu-balatsu-ikbining o'g'li Nabonid Bobil taxtni egallaydi. U Yangi Bobil podsholigining so'ngi hukmdori bo'ldi. Mil. avv. 539-yil oktabr oyida forslar podshosi Kir II tomonidan bosib olinadi va mustaqilligini yo'qotib, Ahamoniylar davlati tarkibiga kiritiladi. Mil. avv. 331-yilgacha Aleksandr Makedonskiy davlatiga, so'ngra Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi.

Qadimgi Mesopotamiya madaniyati. Qadimgi Mesopotamiya madaniyatining dastlabki asoslari mil. avv. IV ming yillikda paydo bo'lgan. Bunda o'troq ziroatkor shumerlarning o'rni kattadir. Aynan ular ushbu hudud madaniyatini bizga yetib kelishi uchun imkon bergan mixxat yozuvining asolarini yaratganlar.

Yuqorida ta'kidlangan arxaik yozuv asoslari taxminan mil. avv. IV ming yilliklarda janubiy Mesopotamiyada yuzaga kelgan bo'lib, uning dastlabki asosiy vazifasi aholi orasida mulkiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan. Ilk shumerda yaratilgan yozuv piktografik shaklda ekanligi bilan kishilarni e'tiborini tortadi. Mixxatga aylanish jarayoni evolyutsion tarzda amalga oshganligi tarixdan ma'lum. Asrlar davomida sayqallashib, keyinchalik mil. avv. III ming yillikda siyosiy, yuridik va xo'jalik ishlarini olib borishda keng foydalaniladigan bo'ldi.

Akkad tili, mixxat yozuvi yordamida diplomatiya tiliga aylana boshladi. Keyinchalik butun Old Osiyo xalqlari ushbu yozuvni

o'zlashtirib oldilar. Yozuvni bitish uchun loy taxtachadan foydalandilar. Mixxat yozuvida 600 ga yaqin belgilar ishlatilganligini arxeologik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Bunday loy taxtachali hujjatlar ko'p hollarda unchalik katta bo'lmagani bizga ma'lum. Keyinchalik mixxatni kichraytirilgan tarzda zich holda(ko'proq so'zlar sig'ishi uchun) loy taxtatachalarga yozishgan. Ba'zi muhim hujjatlar metall (mis va kumush) taxtachalarga bitilgan. Ayrim hollarda toshga mixxat yozuvini yozish ham ko'p kuzatilgan. Ayniqsa qora bazalt toshga bitilgan mashhur Bobil podshosi Xamurappi qonunlari yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Bunday yozuvni o'rganish qiyin bo'lganligi tufayli mixxatni o'qish uchun maxsus ta'lim dargohlari, qadimgi Shumerda paydo bo'la boshladi. O'qishga o'rgatish asosan kohinlar tomonidan amalga oshirilgani uchun dastlabki xattotlar maktablari ibodatxonalar oldida tashkil qilingan edi. Qadimgi Shumerda maktablar "taxtachalar xonadoni" (yoki "edubba") shaklida tilga olingan. Manbalarda ta'kidlanishicha bunday maktablarda o'g'il bolalar o'qitilgan va davlat xizmatiga tayyorlangan. Maktablar o'quvchilar ota-onalari hisobidan ta'minlangan. Savdo-sotiq va hunarmandchilik munosabatlarining o'sishi va davlat xizmati uchun kadrlar aynan mana shu o'quv maskanlarida tayyorlangan. Bu yerda o'qishdan tashqari hisob-kitob, adabiyot, grammatika, falakiyot ilmi o'qitilgan. Bundan tashqari ilm yo'lini tanlaganlarga tibbiyot, huquq va boshqa sohalaridan dars berilgan. Qadimgi Mesopotamiyada "buyuk to'fon" haqida afsonalar bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa "Gilgamesh haqidagi afsona" qadimgi Mesopotamiya adabiyotining yorqin na'munasi hisoblanadi. Dostonni ilk she'riy namunalari mil. avv. III ming yillikning birinchi yarmida yaratilgani hozirda olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bizgacha yetib kelgan doston mil. avv. XVIII-XVII asrlarda akkad tilida mixxatda yozilgan. Ushbu epos bir yarim ming yil davomida sayqallanib kelinganligi bilan kishilarni e'tiborini tortadi.

So'ngra ossuriyaliklar asta sekin yozuv uchun teri va papirusni ishlata boshlaganlar. Mil. avv. VII asrdan boshlab oromiy tili diplomatiyada ishlatilishi mixxat yozuvining inqirozini keltirib chiqardi. Oromiy harfli bo'lib, o'qish uchun qulay edi. Uni o'qish uchun kohin bo'lish kerak emasdi.

Qadimgi Mesopotamiya aholisining hayotida diniy e'tiqod asosiy o'ringa ega edi. Qadimgi Shumer shahar-davlatining o'z xudo homiysi

bor edi. Ammo barcha uchun umumiy ilohlar ham mavjud bo'lgan. Bularga osmon, suv xudosi Ea, ilohi Anu, zamin ilohi Enlil, kabilar kirgan.

Bundan tashqari qadimgi Bobilda (Babel "Ilohlar darvozasi") quyosh ilohi Shamash, oy ilohi Sin, Yupiter sayorasi ilohi Marduk, Venera sayorasi ilohasi Balit, urush, va o'lim ilohasi Ishtarga ham ibodat qilganlar. Shu bilan birga turli xil ezgulik jinlari va devlarga sig'inishgan. Davlat ichki va tashqi siyosati din yordamida qonuniylashtirilib tartibga solingan. Qadimgi Mesopotamiyada yashagan falakiyotchilar quyosh va oy tutilishini oldindan hisob-kitob yordamida bilganlar, kometa va meteorlarning harakatlarini kuzatishgan. O'z kalendarlariga ham ega edilar unga ko'ra har bir oy 29 yoki 30 kunga bo'linib, 1 yil 12 oy, ya'ni 354 kundan iborat bo'lgan.

Arxitekturaning rivojlanishida qadimgi Mesopotamiya shaharlar hukmdorlari, quruvchi usta va hunarmadlarining o'rni katta hisoblanadi. Qadimgi Ur shahrida podsho Shulgi bunyod ettirgan zikkurat yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Mashhur qadimgi Bobildagi Ishtar darvozasi chiroyli va go'zal qilib bezatilganligi so'zimizga dalil bo'la oladi. Bobil arxitekturasini Yangi podsholik davrida o'z yuksalishining yuqori cho'qqisiga chiqdi.

Shu bilan birga malika Semiramida osma bog'lari ham Bobilda qurilgan edi. Olimlarning fikricha osma bog'lar suv ko'tarish chig'iri va qullar mehnati bilan doimiy sug'orilib borilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qadimgi Bobil podsholigi davri necha asr davom etgan?
2. Qaysi Bobil podshosi jangida xetlar bilan to'qnashgan?
3. Xamurappi islohatlarining mohiyati nimada?
4. Kassitlar haqida nimalarni bilasiz?

Glossariy

Babel	Iloh darvozasi.
Edubba	"taxtachalar uyi" Shumer va keyinchalik Bobildagi maktab
Enlil	Shumerning homiy xudosi

Shara	Umma shahriga homiylik qilgan xudo
Anu	Osmon xudosi
Elam	Eronning g'arbidagi qadimgi davlatlardan biri
Shamash	Quyosh xudosi

Mavzu: Qadimgi Ossuriya

Reja

1. Qadimgi Ossuriya davlatini yuzaga kelishi
2. O'rta Ossuriya podshohliklarining ichki va tashqi siyosati.
3. Yangi Ossuriya podshohligining yuksalishi.

Qadimgi Ossuriya davlatini yuzaga kelishi. Qadimgi Ossuriya davlatchiligi mil. avv. II ming yillikda Ashshur shahri asosida Mesopotamiyaning shimoli ya'ni yuqori Dajla qirg'oqlarida paydo bo'ladi. Dastlab shahar-davlatga nisbatan "alum Ashshur" ya'ni Ashshur jamoasi (yoki Ashshur xalqi) sifatida tilga olinadi. Ossuriyada ziroatchilik va savdo-sotiq yetakchi o'rin egallagan. Bu yerga qadimda semit xalqlari Arabiston yarim orolidan ko'chib kelganlar va mahalliy etnoslar bilan aralashib ketadilar. Ossuriyaliklar Akkad tilining shimoliy lahjasida so'zlashganligi manbalarda keltiriladi. Ossuriya orqali savdogarlar Kavkazortidan Dajla daryosi bo'ylab, Janubiy Mesopotamiga va Elamga, so'ngra O'rtayer dengizi qirg'oqlariga chiqqanlar.

Qadimgi Ossuriya jamiyatida evolyutsion ravishda mulkiy tabaqalanish jarayoni quldorlikni yuzaga kelishiga olib keldi. Podsho va ibodatxona yerlarida jamoachi va qullar mehnat qilgan. Ossuriyada yerning asosiy qismini jamoa yer egaligi tashkil qilgan. Xo'jalikda qullarning asosiy qismi mulkiy tabaqalanish natijasida ozod jamoachilarning qarzi uchun qul qilish va urushlar natijasida chetdan mamlakatga keltirilgan.

Boshqaruvda hokimiyatning yuqori organi yirik quldorlardan tuzilgan oqsoqollar kengashi bo'lgan. Kengash a'zolari ichidan bir yil muddatga alohida lavozimli shaxs "limmu" tayinlangan, aynan u shahar xazinasini nazorat qilgan. Yangi yil hisobi uning ismi bilan yuritilgan. Ashshur shahar-davlatda ma'muriy ishlar va sud bilan oqsoqollar kengashi shug'ullanadigan, mansabdor amaldor "ukulluma"ni aynan ular tayinlagan. Ashshurda yana en

("Ishshiakkum") lavozimi ham bor edi. Uning asosiy vazifasi diniy marosimlarini o'tkazish bo'lgan. Davlat xavf ostida qolganda (harbiy bosqin paytida) u harbiy qo'mondon hisoblangan.

Mil. avv. XIX asr oxirlarida Mesopotamiyaning shimolida muhim savdo markazlaridan biri bo'lgan Mari shahar-davlatiga egalik qilishga Terka shahri hokimi Belkabi urinib ko'radi. Ammo mag'lubiyatga uchrab, o'z mulklariga qaytadi, so'ngra Mari podshosi Yaggid-Lim, Terka shahrini egallaydi. Belkabini o'g'li Shamshi-Adad dastlab Ekallatum shahriga qochib ketishga majbur bo'ladi. Bu yerda u 3 yilga yaqin hukmronlik qiladi. Mil. avv. 1807-yil Ashshur shahri hokimi Erishum II ni taxtdan qulatadi. O'zini esa Ashshur podshosi deb e'lon qiladi. Ko'p o'tmay Nineviya ham zab etiladi va Shamshi-Adad I davlati tarkibiga kiritiladi. O'z bitiklarida unga Ossuriya ustidan hukmronlikni Enlil xudosi taqdim etganligini alohida ta'kidlaydi.

Ko'p o'tmay Mari yerlariga ham yurish uyushtiradi va shaharni egallaydi. Mari podshosi Yaxdun-Limni o'g'li Zimrilim, Yamxad davlatiga qochishga muvaffaq bo'ladi. Marini shahrini bo'ysundirib, u yerga kichik o'g'li Yasma-Adadni hokim qilib qo'yadi. Karxemish shahri bilan o'zaro ittifoq tuzadi. Natijada Shamshi-Adad I, Yamxad podshosi Sumuepux bilan doimiy urush holatiga tushib qoladi. Shunday bo'lsa-da Shamshi-Adad I, Yamxad davlatini O'rtayer dengiziga chiqish yo'lidan biroz vaqt bo'lsa-da mahrum qilishga muvaffaq bo'ladi.

So'ngra xurritlardan bo'lgan turrukku (Zagros tog'lari aholisi)larga qarshi yurishlar uyushtiradi. Unga qadar shahzoda Ishme-Dagan turrukkular bilan uzoq urush olib borgan edi. Shamshi-Adad I turrukkular sardorlari Bin-Adad, Vilanum, Liday va Zaziylarni mag'lub qilsada, lekin turrukkularni butunlay yenga olmadi.

Shamshi-Adad I Ashshur shahrini o'zining Yuqori Mesopotamiyadagi davlati markaziga aylantiradi. Ashshur, Ikki daryo oralig'ining shimolidagi shaharlarni bosib oladi. Shamshi-Adad I ko'proq katta farzandi Ishme-Daganni taxt vorisi sifatida tarbiyalab boradi. Aksariyat Suriya shaharlarini zabt etishga erishadi. Ashshur g'arb savdosida vositachilikni o'z qo'lga oladi. Davlat boshqaruvida podshoning mavqeyi kuchayadi. Shamshi-Adad I davlat boshqaruvini bevosita o'z qo'lga olib, mutloq hukmdor sifatida davlat boshlig'i, oliy harbiy boshliq va sudya vazifasini o'taydi. Boshqaruvni

takomillashtirishga zaruriyat tugʻiladi. Mamlakat hududi, aholisi tumanlarga boʻlinib, ularni boshqarish uchun podsho hokimlari yuboriladi. Shamshi-Adad mil. avv. 1774-yilda vafot etishi bilan 6 yildan soʻng, Mari shahri shahzodasi Zimri-Lim qaynotasi Yamxad podshosidan koʻmak olib, Yasma-Adaddan taxtini qaytarib oladi. Ashshur podshosi Ishme-Dagan ukasiga yordam koʻrsatmaydi. Mil. avv. 1757-yilda kuchsizlanib qolgan Ossuriya podsholigi Ishme-Dagan davrida Bobilning qudratiga bas kela olmadi. Ashshur Xamurappi tomonidan zabt etildi.

Mil. avv. 1740-yil atrofida koʻchmanchi kassit qabilalarining Mesopotamiyaga hujumi davrida Shamshi-Adad I ning avlodlari hokimiyatni yana oʻz qoʻllariga oladilar. Ammo tez orada taxminan mil. avv. 1700-yillarda hokimiyatni Adasilar sulolasi egallaydi. Soʻngra Ossuriya, Bobilga keyin Mitanniga qaram davlatga aylanib boradi.

Mil. avv. XVI asrda Bobilda amoriylar sulolasi quladi va bu hududda kassitlar hukmronligi boshlandi. Mil. avv. 1500-yillar atrofida Mitanni davlati Shimoliy Suriya viloyatlarini bosib oldi va oʻz qudratining yuqori choʻqqisiga chiqdi. Zaiflashib qolgan Ossuriya Mitannining hokimiyatini tan olishga majbur boʻldi. Ossuriya qudratli Mitannining tazyiqiga qarshi Misr bilan diplomatik aloqa oʻrnatdi. Ammo mil. avv. XIV asr oʻrtalarida Mitanni podshosi Shaushtatar Ashshurni bosib olib, uni Mitanniga qaram qiladi. Mitanni Ashshurni gʻarbga chiqadigan savdo yoʻlidan butunlay mahrum qiladi. Ashshur posholari Puzur-Ashshur III (mil. avv. 1521-1497-yy), Ellil-natsir I (mil. avv. 1497-1484-yy)lar davrida Ashshur shahri Mitanni qoʻshinlari tomonidan talon-taroj qilinadi. Natijada Bobil bilan doʻstona munosabat oʻrnatishga majbur boʻladi. Shunday boʻlsa-da podsho Eriba-Adad I (mil. avv. 1392-1366-yy) Mitanni davlatining vassallaridan biri boʻlgan. Hatto Mitanni hukmdori Shuttarna II ga amakisiga qarshi kurashda yordam bergan. Mitanniga qaramlik davrida Ashshur hukumdorlari "ishshiyakum" unvonida qolaverganlar. Keyinchalik Ossuriya oʻz mustaqilligini tiklash uchun Bobil podsholigi bilan yaqinlashib, Mitanniga qarshi urush olib bordi.

Oʻrta Ossuriya podsholiklarining ichki va tashqi siyosati. Ashshur ishshiyakumasi Ashshurubalit I (mil. avv. 1365-1330-yy) xetlar podshosi Suppiluliuma I qoʻshinlari Mitanni poytaxti Vashukannani egallaganidan foydalanib qoldi. U shimoliy

Mesopotamiya yerlarini o'z mulklariga qo'shib olib, Ossuriyani Mitanni ta'sir doirasidan chiqaradi. Shu tariqa Ossuriya mustaqil podsholikka aylanadi. Ashshurubalit I endi o'zini buyuk podsho deb nomlar edi. Bu esa kassitlardan bo'lgan Bobil podshosi Burnaburiash I ga yoqmad. Chunki Bobil davlati Ossuriyani erkin mamlakat sifatida ko'rishni istamas edi. Misr esa yangi tuzilgan Ossuriyani davlat sifatida tan oladi. Ossur savdogarlari va elchilari Misrga hech qanday to'siqsiz kirib boraverar edi. Oxir oqibat Burnaburiash I, Ossuriya mustaqilligini tan oladi va o'z o'g'li Karaindashga, Ashshurubalit I ning qizini nikohlab ikki davlat o'rtasida tinchlikni o'rnatadi. Ammo ko'p o'tmay ikki davlat o'rtasida harbiy harakatlar boshlanib ketadi. Unda Ashshurubalit I ning qo'li baland keladi. Bobil davlati vaqtincha kuchsizlantiriladi.

Tez orada ossurlar xetlarni Yuqori Mesopotamiyadan siqib chiqarib, Frot daryosi qirg'oqlariga qadar hududlarini kengaytiradilar. Natijada oldin Mitanniga qaram bo'lgan Nineviya shahrini bosib oladilar. Janglarda Ossuriya askarlari o'zlarini o'ta beshafqatligi bilan shuhrat qozongan edilar.

O'rta Ossuriya podsholigining yuksalishi podsho Arik-den-ilining o'g'li Adad-Nerari I (mil. avv. 1295-1264-yy) davrida kuchayadi. Ashshur shahri oqsoqollar kengashining podsho hokimiyatiga ta'siri kamayadi. Hukmdor endi ishshiyakumma unvoni o'mniga o'ziga podsho unvonini berib, hatto "Buyuk podsho" unvoniga da'vo ham qiladi. Shu bilan birga kassitlardan bo'lgan Bobil podshosi Nazimarut-tashni jangda yengib, Ossuriyaning janubiy chegaralarini mustahkamlaydi. Turrukku va Nigimxi (Zagros tog'lari etaklari) mamlakatlarini bosib olishga erishadi. So'ngra Mitannini kuchsizlanib qolganidan foydalanib, Tayda, Amasak, Kaxat, Shuri, Nabulu, Shaduxu va Vashukkanna shaharlarini bosib oladi. Mitanni taxtiga o'zing tarafdori Shattuar II ni o'tqazadi. Mitanni davlati o'lpon to'lashga majbur bo'ladi.

Adad-Nerari I dan keyin Ossuriya taxtiga Salmanasar I (Shulmanu-asharedu I) keladi. Uning davrida Mitanni yeri ossurlar tomonidan bosib olinadi. Mitanniliklar tomonida xetlar ham jang qilganligi manbalarda ta'kidlanadi. Natijada 14400 ga yaqin dushman askarlari asir olinib, Salmanasar I ning buyrug'i bilan ko'zlari ko'rqilinadi. Bu orada Xett davlati Misr bilan sulh tuzib, Bobil bilan

ittifoqni qayta tiklashga erishadi. Oqibatta Old Osiyo mintaqasida kuchlar muvozanati tiklanadi.

Ossuriya podshosi Tukulti-Ninurta I (mil. avv. 1233-1197-yy) Bobilga va Kavkazortiga g'olibona harbiy yurishlar uyushtirdi. Xett davlati podshosi Tudxali IV Sharqdagi mulklarini himoya qilish uchun Tukulti-Ninurta I ga qarshi qo'shin tortdi. Ammo yozma manbalarda Tudxali IV o'z qo'shiniga ishonmaganligi ta'kidlanadi. Oqibatda Ossuriya podshosi Tukulti-Ninurta I Erbil shahri yonida g'alaba qozonadi. Yozma manbalarda Tukulti-Ninurta I jangdan so'ng xettlardan 28 800 kishini asir olgani ta'kidlanadi. Xetlar davlati kuchsizlana boshlaydi.

Bu orada janubda Bobil davlati urushga tayyorlana boshlaydi. Bobil va Ossuriya harbiy kuch jihatdan teng edi. Mil. avv. 1223-yilda Tukulti-Ninurta I, Bobilga yurish qilib, podsho Kashtiliash IV ni asir oladi va uni kiyimsiz kishanlangan holda Ashshurga olib ketadi. Bobildan yana Marduk ilohi haykalini ham Ossuriyaga olib ketishga muvaffaq bo'ladi. Podsho Ashshurdan 3 km shimoli-Sharqda o'zi uchun yangi poytaxt Kar-Tukulti-Ninurta ("Tukulti-Ninurta savdo qo'nalg'asi") shahrini qurdirdi. Ashshurda Ishtar xudosi ibodatxonasini qayta tiklaydi. Ammo Ossuriya zodagonlari podshoning Bobil ilohlariga qarshi qilgan shakkokligini bahona qilib, unga qarshi fitna uyushtiradilar. Oqibatda Tukulti-Ninurta I aqldan ozgan deb e'lon qilinadi va uy qamog'iga olinib o'ldiriladi. Taxtga fitna ishtirokchisi podshoning o'g'li Ashshur-nadin-apal o'tqaziladi. U otasidan farqli o'laroq Marduk xudosi haykalini Bobilga qaytarib yuboradi. Ammo bu bobilliklarni tinchlantira olmaydi. Ko'p o'tmay Bobilda qo'zg'olon boshlanib, ossuriyalik noib shaharni tark etadi. Kassitlardan bo'lgan zodagonlardan biri shaharni ossurlardan ozod bo'lganini e'lon qiladi.

Keyinchalik Bobil davlati kuchayib, Ossuriyani bosib olgan hududlarning katta qismini egalab oladi. Mamlakat uzoq tashqi urushlar natijasida zaiflashib, ichki nizolar bo'lib o'tadi. Ossuriya davlati siyosiy tushkunlikka uchraydi.

Podsho Tiglatpalasar I (taxminan mil. avv. 1115-1076-yy) hukmronligi davrida Ossuriya yana kuchayadi. Bu davrda Xett podsholigi frigiyaaliklar (dengiz xalqlaridan biri) hujumidan halokatga uchrab, Misr kuchsizlangan edi. Yirik qo'shni davlatlar Ossuriyaga xavf solmas, Tiglatpalasar I esa vaziyatdan foydalanib, Shimoliy

Suriya va Shimoliy Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy-Sharqiy qismlariga harbiy yurishlar uyushtiradi. Mamlakat 38 yil davomida qo'shni xalqlar bilan urush olib bordi. Tiglatpalasar I o'z jang aravalarini Kichik Osiyoning tog'li o'lkalariga ham boshlab bordi. Bir kun ichida Karkemish shahri Ossuriyaliklar tomonidan zabt etildi. Hatto Misr fir'avni Tiglatpalasar I ga sovg'a sifatida timsohni yuboradi.

Tiglatpalasar I44 Bobil podshosi Marduk-nadin-axxega qarshi ikki marotaba harbiy yurish qilib, vaqtincha uni kuchsizlantirishga erishadi. Lekin bobilliklar o'z mustaqilligini saqlab qoladi. So'ngra aramey qabilalariga qarshi 28 ta yurish uyushtiradi. Ammo arameylarni shimoliy Mesopotamiya yaylovlariga kirib borishiga butunlay to'sqinlik qila olmadi. Tiglatpalasar I vafotidan keyin uning vorislari davrida Ossuriya siyosiy tushkunlikni boshdan kechiradi. Ossuriyaning gullab-yashnashiga mil. avv. XI asrlarda Arabistondan ko'chib kelgan chorvador aramey qabilalari chek qo'yadi. Shu tariqa O'rta Ossuriya podsholigi siyosiy mavqeyidan ajrala boshlaydi.

O'rta Ossuriya podsholigining so'nggi hukmdori Ashshur-dan II (mil. avv. 934-911-yy) davrida irrigatsiya ishlari tartibga solinadi. Podsho Ashshur-dan II shaharlarni qayta quradi va dehqonlarga mehnat qurollari yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Ossuriya qo'shini podsholar Salmanasar II va Ashshur-rabi II davridagi chegaralarga chiqadi. Ammo arameylar bilan siyosiy munosabatlar o'zgaruvchan bo'lgan. Shimoldagi qolgan yerlar hanuz oromiylar nazoratida qolgan edi.

Yangi Ossuriya podsholigining yuksalishi. Mil. avv. X asr oxirlarida tarixda "Ossuriya renessansi" deb nom olgan davr boshlandi. Yuqorida ta'kidlanganidek podsho Ashshurdan II mamlakat taraqqiyotini qayta yo'lga qo'yadi. Natijada ossuriyaliklar Shimoliy Mesopotamiyada o'z hukmronliklarini qayta tikladilar va faol istilochilik yurishlarini boshlash uchun zamin yaratadilar. Bu vaqtda Ossuriya armiyasi o'zining soni, yuqori darajada tashkilashtirilganligi, qurollanish darajasi va jangovor qobiliyati bilan Old Osiyodagi birinchi o'ringa chiqib oladi. Ossuriya podshosi Tukulti-Ninurta II ning o'g'li Ashshurnatsirpal II (mil. avv. 884-859-yy) davrida dastlab shimoli-g'arbga Dajla qirg'oqlariga yurish qiladi. Mil. avv. 882-yilda Xulay boshchiligidagi qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. O'rtayer dengizi qirg'oqlariga yurish qiladi. O'zining

qarorgohini yangi poytaxti Kalxu(Kalax)ga ko'chiradi. Mil. avv. 886-yilda Bit-Zamani o'lkasi podshosi Ilanu boshchiligidagi qo'zg'olonni bostiradi.

Ashshurnatsirpal II podsholigi darida Ossuriya yana imperiyaga aylanadi. U Nineviya shahrini davlatining shimolidagi tayanch nuqtasiga aylantirdi. Dajla daryosi qirg'oqlarida Kalxu shahrini qayta tiklab, poytaxtga aylantirdi. Ashshur shahridan mohir ustalar va bog'bonlar olib kelinib shahar obodonlashtirildi. Hukumatni ham shu yerga ko'chiradi. Mil. avv. 876-yilda Ossuriya qo'shinlari Finikiya qirg'og'iga chiqdilar. Salmanasar III (mil. avv. 859-824-yy) Suriyaga yangi yurish uyushtirdi. Bu hududda Ossuriyaning ekspansiyasiga qarshi bir necha shahar-davlatlarning Damashq podsholigi boshchiligida ittifoqi tashkil topdi. Suriya, Falastin, Finikiya, Kilikiya va Damashqning birlashgan qo'shinlari ossur qo'shinlarini jangda mag'lubiyatga uchratdilar (mil. avv. 853-yildagi Oront daryosi yonidagi jang). mil. avv. 845-yilda Salmanasar III 120 ming kishilik qo'shin bilan Suriyada yana jang harakatlarini boshladi. Lekin bu harbiy harakatlar ham muvaffaqiyatli chiqmadi. Ossuriyaliklar vaqtinchalik Suriyadan chekinishga majbur bo'ldilar. Ammo tez orada ittifoqchi shahar-davlatlar o'rtasida kelishmovchiliklar boshlanib, ossurlar bundan juda yaxshi foydalandilar hamda mil. avv. 841-yilda harbiy harakatlarni boshlab, Suriyada o'z hukmronliklarini o'rnatishga erishdilar. Mil. avv. 840 yildagina Frot daryosi ortida 16 yurishdan so'ng, Damashq podsholigi bo'ysundiriladi. G'olibona yurishlar boy o'ljalarni qo'lga kiritish imkoniyatini tug'dirdi. Ossuriya hukmdorlari Ashshur va Kalxu shaharlarida ulug'vor saroy va ibodatxonalar bunyod qildilar.

Mil. avv. 824 yili Salmanasar III ga qarshi o'g'li Ashshur-dan boshchiligida Ossuriyaning 27 shahari birlashib, isyon ko'targan payti olamdan o'tadi. Taxt vorisi etib boshqa farzandi Shamshi-Adad V (Bobil malikasining eri) ni tayinlab ketadi. Ammo tez orada Ashshur-dan ukasini quvib yuborib taxtni egallaydi. Shamshi-Adad V Bobil podsholigiga qochib ketadi. Bobil poshosi Marduk-zakir-shumi (qaynotasi) bilan kelishuv imzolab, Ashshurni zabt etdi. Ammo Bobil rahnamoligida podsho unvonidan pastroq darajadagi unvonga sazovor bo'ladi. Shunday bo'lsa-da Ossuriya ichki va tashqi siyosatni mustaqil amalga oshirar edi.

Ossuriya o'zining iqtisodiy, harbiy qudratini qayta tiklab, siyosiy markazlashuv va barqarorlikka erishdi. Istilochilik urushlari natijasida Ossuriya iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan xomashyo (metall va yog'och)ga boy bo'lgan hududlar egallandi. Natijada qullar mehnatiga ehtiyoj tez o'sa boshlaydi. Ossuriyaning istilochilik urushlari olib borishining yana bir sababi, mamlakat quruqlik va dengiz savdo yo'llari kesishgan hududda joylashgani uchun yetakchi o'rinni egallashga harakat qildi.

Ossuriya Kichik Osiyo va asosan O'rtayer dengizining sharqiga o'z ta'sirini kuchaytirishga urindi. Bu hududlarda savdo-hunarmandchilik, dengiz savdosi keng yo'lga qo'yilgan, tabiiy boyliklarga boy edi. Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'oqlaridan muhim xalqaro savdo yo'llari o'tgan bo'lib, bu yerda boy savdo – hunarmandchilik markazlari Tir, Sidon, Arvad, Bibl, Damashq va Karxemish kabi shaharlar mavjud edi.

Mil. avv. 783-yili Ossuriya podsho taxtiga Salmanasar IV o'tirib to'qqiz yil hukmronlik qiladi. Uning boshqaruvi davrida Ossuriya armiyasi avvalgi g'alabalarga erisha olmaydi. Aksincha tashqi dushmanlardan himoyalanişga majbur bo'ladi. Damashq shahri aramey davlatining poytaxtiga aylangan bo'lib, kuch qudrati oshgan edi. Bu davlat hatto Ossuriyaga ham tazyiq o'tkazganligi manbalarda ta'kidlanadi. Ushbu urushlardan birida Ossuriya hukmdori Salmanasar IV, Isroil hukmdori Ieroam II bilan ittifoq tuzib, arameylarga qarshi harakat olib boradi. Ossuriya davlatining shimoliga xurritlar va urartlar ham xavf tug'dira boshlashdi. Podsho Salmanasar IV ni vorislari davrida urartuliklar Ossuriyaning katta hududlarini egallashga muvaffaq bo'lishgan. Mil. avv. VIII asrda Ossuriya vaqtincha iqtisodiy tushkunlikka yuz tutadi. Ichki ziddiyatlar, qo'zg'olon va isyonlar boshlanadi. Ossuriya uzoq vaqt olib borilgan urushlar natijasida zaiflashib qoldi.

Ossuriyaning qayta yuksalishi mil. avv. 746-727-yillarda hokimiyatni to'ntarish yo'li bilan olgan Kalxu hokimi harbiy boshliq Pul (taxtdagi ismi podsho Tiglatpalasar III) davrida boshlandi. Kuchli sarkarda, Tiglatpalasar III podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun qator islohotlar o'tkazadi. U Ossuriya tarkibidagi o'lkalarni kichik-kichik noibliklarga bo'lib yuboradi. Noiblar ustidan markaziy hokimiyatning nazorati o'rnatilib, noiblarning vazifalari cheklandi.

Podsho Tiglatpalasar III davlatdan maosh oladigan kuchli muntazam qo'shin tuzadi va ko'ngillilarni harbiy xizmatga chaqirmay qo'yadi. Ossuriya armiyasiga aholining o'rta va past tabaqalari xizmatga tortiladi. Qo'shinlar bir necha qismlarga bo'lingan edi. Ya'ni, piyodalar qo'shinda aksariyatni tashkil qilib, yengil va og'ir qurolli qismlarga bo'lingan. Qo'shinda avalgidek jang aravalaridan foydalanib kelingan. Keyinchalik otliqlar qismlaridan keng foydalanila boshlandi.

Undan keyin taxtga o'g'li Salmanasar V (mil. avv. 727-722-yy) voris etib tayinlanadi, uning hukmdorlik davri haqida ma'lumotlar kam keltirilgan. Ichki siyosatda Salmanasar V poytaxt Ashshur aholisiga, boshqa shaharlar qatori turli soliqlar va majburiyatlarni yuklaydi, bu esa poytaxt aholisi tomonidan o'z huquqlariga nisbatan xurmatini yo'qotadi. Tashqi siyosatda esa podsho Salmanasar V besh yil davomida Finikiya shahri Tirni qamal qilgani, shu yillar arafasida o'lpon to'lashdan bosh tortgan Isroil davlatini yo'q qilishga qaror qiladi, lekin hukmdor bu urushda halok bo'ladi.

So'ngra Ossuriya taxtiga mashhur Sargon II (mil. avv. 722-705-yy) chiqadi. Hukmronligining dastlabki yillarida Bobil va Elam ittifoqiga qarshi yurish qiladi. Ammo muvaffaqiyatsizlikka uchrasada chegaradagi Der shahri Ossuriya tarkibida qoladi. So'ngra Sargon II mil. avv. 721-yilda Isroilga yurish qiladi bu mamlakatni talon-taroj qilib aholisini Ossuriyaga asir qilib olib ketadi. Yaqin Sharq yerlari ossurlar tomonidan birin ketin xonavayron qilindi.

Shundan keyin Sargon II Suriyaning Xamat shahri hukmdorini asir olgach, uni Ashshurga olib keladi. So'ngra Karkar shahrini ishg'ol qilib, talon-tarojdan keyin shaharga o't qo'yiladi. O'rtayer dengizidagi Kipr orolidagi ioniyalik yunonlarni o'lpon to'lashga majbur qiladi. Nineviya shahri yaqinida o'ziga yangi poytaxt Dur-Sharrun (Sargon shahrini)ni qurdiradi. Mil. avv. 714-yilda Urartuga qarshi boshlaydi. U bu harbiy yurishga puxta tayyorlanib, Urartuga Sharq tomondan kirib boradi va ularning podshosi Rusa I ni yengadi. Ushbu harbiy yurish olti oy davom etib Sargon II ning g'alabasi bilan tugaydi. Ushbu g'alaba uning buyukligini yuqori shohsupaga olib chiqadi. Ossuriya hukmdori qarorgohiga Misr, Efiopiya, hatto Arabistondan elchilar tabriklar bilan kelishadi.

Keyinchalik Sargon II mil. avv. 710-yili Bobilga yurish boshlaydi. Bu yurishda Sargon II deyarli jangsiz ikki hukmdor

xaldeylar podshosi Merodax-baladan va Elam podshosi Shutruk-Naxxunte II ni bo'ysundiradi. Bu voqealardan keyin Sargon II yirik Ossuriya imperiyasini tuzgan ikkinchi Sargon sifatida tarixga kiradi. Bobilni ishg'ol etib besh yil o'tgach Sargon II vafot etadi.

Sargon II dan so'ng taxtga uning o'g'li Sinaxxerib (mil. avv. 704-681-yy) keladi. Ossuriyaga qaram yerlar ozod bo'lishni istar edilar. Birinchi bo'lib Bobilda, zodagon Merodax-baladan rahbarligida qo'zg'olon boshlanib ketadi. Bobilliklar xaldeylar, arameylar va elamliliklar bilan ittifoq tuzadilar. Birlashgan qo'shin Ossurlarga qarshi Kish shahri tomon yurish qiladi. Ammo Sinaxxerib ularning birlashgan qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi. Merodax-baladan esa qochishga majbur bo'ladi. Ossur qo'shini Bobilga kirib keladi. Podshoning buyrug'i bilan isyonda qatnashgan odamlarga tegishli ekinzorlar yo'q qilinadi. Ko'plab asirlar Ossuriyaga olib ketiladi. U poytaxtni Nineviyaga ko'chirdi.

Ko'p o'tmay Falastinda, Ekron shahri isyon ko'taradi, uning ortidan Finikiyaning Tir va Sidon shahar-davlatlari Ossuriyaga bo'ysunmay qo'yadi. Bu orada Misr yordamiga ishongan Yahudiya podshosi Xizikiya ham Ossuriyaga qarshi chiqadi. Sinaxxerib esa tezlik bilan isyonlarni bostirishga kirishadi. Yahudiya poytaxti Quddus (Ierusalim) shahri qamal qilingach, Xizikiya ossurlarga 11 tonna kumush va 1 tonnaga yaqin oltin miqdorida o'lpon to'laydi. Sinaxxerib o'z qo'shinlarini misrliklarga qarshi yo'naltiradi, ikki armiya Eltekey yonida uchrashadi. Afsuski jang natijalari bizga ma'lum emas. Shunday bo'lsa-da Misr qo'shini ortga qaytib ketadi. So'ngra podsho Sinaxxerib isyon ko'targan Ekron shahrini egallaydi va Quddusni uzoq qamal qiladi. Yahudiya yerlari talon-taroj qilinadi. Ammo ossur qo'shini orasida vabo kasalligi tarqaladi, natijada Quddus zabt etilmay qoladi. Yangi Ossuriya podsholigining hukmdorlari semit qabilalaridan, arameylardan bo'lgani uchun butun davlatda va Mesopotamiyada aramey yozuvi va tili keng tarqaladi.

Ossuriyaliklarning tayanchi ularning kuchli harbiy qo'shini bo'lgan. Agar avvalari har bir harbiy askar, davlat tomonidan ajratib berilgan yerda dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, endilikda Yangi Ossuriya podsholigida harbiylar mamlakat xazinasidan maosh olar edi. Ular asosan temirdan yasalgan qurollar bilan ta'minlanganlar. Shaharlarni qamal qiladigan, qal'a devorlarini buzadigan moslamalar bilan ham qurollanganlar. Ossuriya hukmdorlari harbiy siyosati o'ta

beshafqatlik bilan ajralib turgan, qarshilik qilgan shaharlar aholisi qilichdan o'tkazilgan. Isyon rahbarlari esa asirga olinib, qiynoqqa solinib, qatl qilingan. Bundan ko'zlangan maqsad bo'ysundirilgan xalqlarni qo'rquvda saqlab turishdan iborat edi. Shuning uchun Ossuriya poytaxti Nineviyani "Qonga botgan shahar" deb ta'riflashgan. Agar avvalgi Ossuriya hukmdorlari zabt etgan shahar va xalqlarni bosh xudolarini xurmat yuzasidan ular sharafiga qurbonliklar keltirishsa, Yangi Ossuriya hukmdorlari aksincha zabt etgan xalqlarni ibodatxonalarini butunlay vayron qilib tashlashgan, aholisi boshqa o'lkalarga surgun qilinar edi. Bunga Sinaxxeribning Bobil va Elamga qarshi urushi yorqin misol bo'la oladi. Masalan Sinaxxerib uzoq qarshilik qilgan Bobilni egallab uni vayron qiladi va shahar suvga bostiriladi. Ossuriya Kichik Osiyoning janubi-sharqiy qismlari ustidan hukmronlikni qo'ldan chiqaradi. Mil. avv. 681 yili Nineviyada, Nabu (xattotlar homiysi) xudosa qurbonlik keltirish marosimi paytida ikki kichik o'g'li tomonidan o'ldiriladi. Podsho Asarxaddon (mil. avv. 680-669 yy) davrida vayron qilingan Bobil qayta tiklanadi. Bobil garchand qaram bo'lsa-da, Ossuriya bilan ittifoqda bo'lgan alohida podsholik sifatida tan olinadi. Asarxaddon Eron yerlarining shimoliy-g'arbida yashagan skiflar bilan mil. avv. 672-yilda ittifoq tuzdi. Suriya hududi qayta zabt etiladi. So'ngra Nil bo'ylariga harbiy yurish uyushtiriladi va ichki urushlardan charchagan Misr vaqtincha bo'ysundiriladi. Ossuriya ulkan ko'p millatli imperiyaga aylanadi.

Ma'muriy jihatdan Yangi Ossuriya hukmdorlari bosib olingan hududlarni mayda ma'muriy birliklarga bo'lib tashlashganlar. Ossuriyaliklarning asosiy maqsadi kelajakda bu hududlarni imperiya tarkibidan ajralib chiqishini oldini olish bo'lgan. Bundan tashqari ma'muriy birliklarga noib qilib, farzand qoldirish qobiliyatiga ega bo'lmagan saroy og'alaridan hukmdorlar qo'yilgan edi. Bundan maqsad keyinchalik yangi kichik hukmdorlar sulolasi paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik bo'lgan.

Asarxaddonning vorisi Ashshurbanipal (mil. avv. 669-629-yy) bosqinchilik yurishlari natijasida tashkil topgan ulkan imperiyani saqlab qoladi. U hatto Elamga ham g'olibonona yurish uyushtiradi. Ammo podsho Ashshurbanipal hukmronligining so'nggi yillarida imperiyaning yemirilishi boshlandi. Ashshurbanipal mil. avv. 627-yilda vafot etdi. Janubda Nabopalasar boshchiligida xaldeylar isyon ko'taradi.

Bobil va Midiya podsholiklari birgalikda Ossuriyaga qarshi ittifoqda, mil. avv. 614-yilda Ashshurni, mil. avv. 612-yilda Nineviyani zabt etib vayron qildilar. Mil. avv. 605-yilda Ossuriya davlati bunlay tugatiladi. Uning yerlari Bobil va Midiya tomonidan bo'lib olinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qadimgi Yuqori Mesopotamiyadagi ilk manzilgohlari haqida ma'lumot bering?
2. Ashshur shahar davlati xo'jaligi haqida nimalarni bilasiz?
3. Qadimgi Ossuriya davlati ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyati nimada?
4. Ko'chmanchi oromeylar etnik jihatdan kimlar edi?
5. O'rta Ossuriya shodsholari hukmronligi haqida nimalarni bilasiz?
6. "Dengiz xalqlari" asli kimlar edi?

Glossariy

Ishyakuma -	Yuqori Mesopotamiyada shahar davlat hokimi
Semitlar -	Mesopotamiyaga bostirib kelgan xalqlardan biri
Urartu -	Kavkaz ortidagi davlat
Oromeylar -	Yaqin Sharqni bosib olgan ko'chmanchi qabilalar
Dur-	Sargon II qurdirgan saroy
Karkemish-	Shimoliy Suriyadagi qadimiy chegara shahar

Mavzu: Qadimgi Kichik Osiyo

Xett davlati

1. Qadimgi Kichik Osiyoda Xett davlati asoslarining paydo bo'lishi.
2. Yangi Xett podsholigi.
3. Xett madaniyati.

Qadimgi Kichik Osiyoda Xett davlati asoslarining paydo bo'lishi. Mil. avv. III mingyillikda Kichik Osiyoga shimoldan hind-

yevropa tilida so'zlashuvchi (B. Grozniyning fikricha yevropoid) xett qabilalari kirib keladi. Taniqli olim S. U. Bauerning ta'kidlashicha, taxminan mil. avv. 2300-yillarda ular Galis daryosigacha bo'lgan yerlarni egallaydilar. Aynan ular temirdan birinchilardan (mil. avv. II ming yillik) bo'lib foydalanishni yaxshi bilganlar. Bu davrda Sharqiy Kichik Osiyoda xett qabilalari boshqa mahalliy tub joy aholini assimilyatsiya qiladilar.

Xammurapi Mesopotamiyani egallab, uni kuch bilan birlashtirayotgan bir paytda Kichik Osiyodagi hind yevropaliklar qishloqlari mahalliy harbiy boshliqlar boshqaruvidagi uncha katta bo'lmagan podsholikka birlashadilar. Ularni kim bo'lganini aytish qiyin. Shu boisdan bu jarayonni to'liq tasvirlashni iloji yo'q. Faqatgina misrliklar bu podsholik haqida eshitgani va ularning aholisini yagona xalq deb hisoblashganini bilish mumkin. Misrliklar ularni xett so'zi bilan atashgan, hamda mazkur xalqning yashash makoni bilan birga - xatti, ya'ni xettlar deb nomlashgan.

Xettlar yozuvni yaqin hududda yashagan Ashshur savdogarlaridan o'rganganlar. Mil. avv. 1790-yilga kelib xettlar markaziy shahri Kussarda o'z yozuvini yaratganlar. Shu tariqa xettlar tarixga kiradilar.

Kichik Osiyodagi Nesa(Kanes), Purusxanda, Kussar va Xattusa kabi shaharlarni o'z ichiga olgan shahar-davlatlar paydo bo'la boshlaydi. Kichik Osiyoning bu siyosiy birlashmalarining ilk birlashuvi mil. avv. XVIII asrning birinchi yarmida yuz beradi. Kussar hokimi Pitxana Nesa shahrini zabt etishi bilan ilk bor xettlarni siyosiy maydonga olib chiqadi. Kussar va Nesa aholisining huquqlari tenglashtiriladi. Keyinchalik Pitxananing o'g'li Anitta (mil. avv. 1790-1750-yy) Nesa shahrini markaz qilib, Qora dengizdan Kichik Osiyodagi Tuz ko'ligacha bo'lgan hududlarni bosib oladi. Anitta dastlab otasining davrida rasman kuzatuv minorasining boshlig'i sifatida xizmat qilgan. Bu ish undan kichik podsholik chegaralarini qo'riqlaydigan barcha qo'riqchilarning hisobotini eshitishni talab qilar edi, xolos. Otasining vafotidan so'ng o'zini shunchaki "Kussar shahzodasi" deb atagan.

Ammo, kelib chiqishi Kussarlik Pitxana va Anitta podsholigi davrida mamlakat Xett deb atalganligi munozarali hisoblanadi. Anitta mahalliy Xatti davlati bilan urush olib borib, ularning podshosi Piyustini jangda yengib, Ullamma va Xarkiuun shaharlarini zabt

etishga muvaffaq bo'ladi. So'ngra Salpuva (Qora dengiz qirg'oqlariga yaqin shahar-davlat) ga yurish qilib, podshosi Xutsiyani asir olgach, u yerdan Siusumma ilohining haykalini Nesaga qaytarib olib keladi. Kussar shahrining ahamiyati Nesa bilan birga oshib boradi. Anitta uzoq vaqt Xattusa shahar-davlati bilan qonli urush olib borib, hatto uni vayron ham qilgan edi. Ko'p o'tmay xetlar Salativaru shahrini ham egallaydilar, Purusxanda podshosi o'zini Anittaning vassali deb tan olib, unga temirdan yasalgan taxtini (temir hali qimmatbaho hisoblangan) yuborishga majbur bo'ladi. Podsho Anitta o'z davri uchun zamonaviy armiya (1400 kishilik doimiy qo'shin) tuzib, unda 40 ta jang aravalari bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Biroq, xett hukmdori Anittaga otasidan Nesa shahri bilan birgalikdagi ikkita shahardan iborat juda kichik podsholik meros qolgan edi.

O'z vaqtida Dajla va Frot yerlarida kurashgan zamondoshi Xamurappi kabi Anitta yangi xalqqa asos soldi. U "Men quyosh chiqadigan barcha yerlarni bosib oldim", deb ta'kidlaydi va o'zini "knyaz" emas, balki "buyuk podsho" deb atay boshlaydi. Anitta o'z davlatida to'liq qirq yildan ko'proq hukmronlik qildi.

Xattusa shahri qayta tiklangunga qadar Anitta tomonidan asos solingan podsholik yana ikki avlod tomonidan Kussar shahri markaz sifatida saqlandi. Xattusa yaqinida yettita kichik daryo bo'lib, uning bo'yidagi yerlar hosildor edi va u yerda qoya bo'lib, oson himoyalananadigan saroy qurish mumkin bo'lgan.

Podsho Anita vafotidan keyin, mil. avv. XVII asr oxirida boshqa Xett sulolasi hokimiyat tepasiga keladi. Xett davlati asoslarini birlashtiruvchi siyosatni saroy a'yonlaridan chiqqan Papaxdilmaning o'g'li podsho Labarna (yoki Tabarna mil. avv. 1680-1650-yy) nihoyasiga yetkazdi. U istilochilik yurishlarini davom ettirib, Xupisna, Tuvanuva, Nenassa, Landa, Sallara, Purusxanda va Lusna shahar-davlatlarini egallab, joylarga o'z o'g'illarini hokim etib tayinlaydi. Bu vaqtda Xett davlati o'z chegaralarini "dengizdan-dengizgacha" kengaytirdi. Uning ichki va tashqi siyosatidan kuchli ta'sirlangan va tan bergan keyingi vorislari (masalan Xattusili va Telepinus va boshqalar) Labarna va uning rafiqasi Tavanna nomlarini o'zlariga unvon sifatida qabul qildilar. Xett davlati davriga oid arxiv hujjatlari mil. avv. 1650-yildan boshlab mamlakat tarixini yoritib boshlagan.

Keyinchalik qadimgi Xett podsholigi hukmdorlaridan biri Telepinus yozdirib qoldirgan ma'lumotlar o'z aniqligi bilan ajralib turadi.

Yangi hukmdor poytaxtni Kussardan Xattusaga ko'chirganidan so'ng, u "Xattusalik sifatida" Xattusuli I nomini oldi. Labarna Kichik Osiyodan O'rtayer dengizi shimoliy-sharqiy sohillaridagi g'arbiy somiy podsholigiga harbiy yurishlar boshlaydi va bir nechta kichik shaharlarni egallaydi. Anitta xett xalqiga asos solgan bo'lsa, Xattusili I bir necha xalqlarni birlashtirgan imperiyani barpo qildi.

Xattusuli I Xett podsholigining eng ko'zga ko'ringan hukmdorlaridan biri bo'lgan. U hukmdorligining birinchi yilidayoq Sanvittaga yurish uyushtiradi. Xetlar bu shahar atrofini talaydilar, ammo shaharga zarar yetkazmaydi. Hududda o'zining garnizon qo'shinlarini qoldirib, Xattusulissalpa (bu Kichik Osiyoning markaziy qismida joylashgan Salpa emas, balki, shimoliy Suriya yo'lidagi boshqa Salpa) shahriga qarab harakatlanadi, shaharni egallab uni to'liq vayron qiladi.

So'ngra Xattusuli I shimoliy Suriyaga bostirib kiradi. O'zining annallariga ko'ra Xattusuli I Alalax (xet. Alalxa) shahrini egallaydi va uni vayron qiladi. So'ngra Karxemishdan shimolroqda Frot daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan, yaxshi himoyalangan Urshu (xettcha Varsuva) shahrini qamal qiladi. Xetlar Urshuni egallay olmaydilar, ular yaqin atrofdagi hududlarni vayron qilish bilan cheklangan. Ko'p o'tmay xetlar Igakalish (xettcha Ikakali), Tasxiniya shaharlarini egallaydilar, shuningdek, Urshu, Luxutsanti shahrini ham bo'ysundirganlar. Shimoliy Suriya mil. avv. XVII asr oxirida Kichik Osiyo shaharlariga qaraganda boyroq edi va bu yerda Xattusili I ko'plab boylik hamda boshqa hunarmandchilik buyumlarini qo'lga kiritib, o'zi tomonidan qurilayotgan ibodatxona va saroylarni ular bilan bezatadi.

Xattusuli I o'z hukmdorligining 3-yilida Kichik Osiyoning g'arbida joylashgan Arsava mamlakatiga hujum uyushtiradi. Lekin xetlarning qo'shinlari Arsavada urush olib borayotgan bir paytda Xanigalbat (Mitanni) xetlar davlatiga kutilmaganda hujum qiladi. Natijada ko'p joylar xetlar ta'siridan chiqib ketadilar. Xattusili I annallari faqatgina Xattusa shahri unga sodiq qolganini ko'rsatadi.

Xattusuli I ularning bosqinini bartaraf qiladi va ularning hujumi davrida qo'zg'olon ko'targan qaram hududlarni qayta bo'sundirishga kirishadi. Podsholigining 4-yilidayoq ixtiyoriy ravishda dushmanga

darvozalarini ochib bergan Nenassa shahrini bo'ysundirishga erishadi. Shundan so'ng xetlar Ulma shahar-davlati tomon harakatlana boshlaydilar, janglarda qo'zg'olonchilarni yengib, mamlakatni talon-taroj qilib, shaharni vayron qiladilar. Xattusili I Ulma yo'lidan qaytayotib Salaxsuvu shahrini yoqib yuboradi va uning aholisini qulga aylantiradi.

Hukmronligining 5-yilida Xattusili 6 oylik qamaldan so'ng Sanaxvitta shahrini vayron qiladi. Keyin xetlar Appay va Ummay shaharlarini bosib oladilar, ayniqsa, Ummay to'liq vayronaga giriftor bo'ladi. So'ngra xetlarga qarshi ittifoqni boshqargan Parmann shahri podshosiga yurish qiladi, lekin qo'zg'olonchilar jangsiz taslim bo'lib, Xattusili I ga shahar darvozalarini ochib beradilar. So'ngra Xattusili I Alaxxa shahrini egallab, Xattusaga qaytadi.

U o'z mamlakatining sharqiy va janubiy-sharqiy hududlaridagi qo'zg'olonlarni bostirib, shimoliy Suriyadagi shahar davlatlarga qarshi harbiy harakatlarni qayta boshlaydi. Bu yerda mahalliy gegemoniyani o'rnatgan Yamxad (poytaxti Xalap yoki Xalpa) podsholigi bilan to'qnashishiga to'g'ri keladi. Xattusili I hukmronligining 6-yilida Zarunti (xettcha Saruna) shahrini bosib oladi va uni vayron qiladi. Shundan so'ng xett jangchilari yirik shahar Xashshuga (xettcha Xassuva) yurish boshlaydilar. Xashshuga yordam berish uchun Xalpa podshosi Yarimlim III ikki lashkاربoshisi: Zugrashi (xettcha Sukrasi) — «Ukush» otryadi boshlig'i va Zaludi (xettcha Saluti) — «Manda qo'shinlari» boshlig'i bilan shoshiladi. Adalur tog'larida (Karxemishdan shimolda) Yarimlim tor-mor qilinadi va chamasi u yerda halok bo'ladi. Bu haqda Alalax arxivida, Xalap «Ukush» otryadi yo'lboshchisi Zugrashi xabar beradi. Xett qo'shinlari raqibni izma-iz ta'qib qiladi, bir necha kundan so'ng Purun daryosidan o'tishadi so'ngra ularni o'z hududida yengadilar. Xashshu shahri vayron qilinadi va o't qo'yiladi. Xattusili I bo'lsa, shaxsan o'zi bu shahar hukmdori o'g'lini boshini tanasidan judo qiladi. Shundan so'ng xetlar Sippasna shahrini egallaydilar va Xaxxa shahriga (xettcha Xaxxum, zamonaviy Samsat yaqinida) yaqinlashadilar, bu shaharga hujum jarayonida uchta jangda g'alaba qozonib, uni egallaydilar. Xattusili I o'zining annallarida Xaxxaga, hattoki akkadlik Sargon ham o't qo'ya olmaganini xabar beradi. Shu bilan birga, Xattusili I Xaxxani yoqibgina qolmay, Xaxxa va Xashshu shohlarini o'zining aravalariga ho'kiz sifatida qo'shib, tahqirlaydi.

Xattusuli I annalari faqat hukmronligining dastlabki yillari, aniqrog'i, uning hukmronligining 10 yilini tasvirlaydi, unga ko'ra, xetlar shu yillar ichida Yamxadga sezilarli zarbalar bergan. Yamxadga qarshi yirik harbiy ekspeditsiyalar keyingi yillarda Xalapning shimoliy ittifoqchilari — Karxemish, Zaruar, Xurpana, Ashtatalar tor-mor etilganda ham bo'lgan. Yamxadga qarshi kurash juda beshafqat ko'rinish olgan. Aftidan o'zining harbiy yurishlaridan birida Xattusuli I og'ir yaralanadi, uning vorisi Mursili I o'zining yozuvlarida "Xalapdan otasining qoni uchun o'ch olganini" ta'kidlaydi. Oxir oqibat aftidan Xalap bilan tinchlik sulhini tuzadi.

Xattusuli I davlati qabilalar konfederatsiyasi shaklida edi. Davlat tashqi jihatdan kuchli ko'rinsada, ma'muriy boshqaruv tizimi kuchsiz bo'lgan. U hattoki eng muhim davlat amaldorlari va lashkarboshilarga ham har doim tayana olmasdi.

Erishgan ko'plab muvaffaqiyatlarga qaramasdan Xattusuli I Xattusada emas, Kussarda vafot etadi. "Vasiyatnoma" nomli Xett hujjatida uning o'limidan oldin nevarasi Mursili I ga murojaatlari qayd qilingan.

So'ngra taxtga Mursili I (taxminan mil. avv. 1620-1594-yy) o'tirgan. Unga yoshligida Xett knyazi Pimpira ustozlik qiladi. U o'z shogirdini shunchaki hukmdor emas, balki adolatli va shafqatli podsho bo'lishini xohlagan. Shu jihatdan xett yilnomalarida uning "Kim och bo'lsa non ber, kim yalang'och bo'lsa kiyim, kim sovuqdan qiynalayotgan bo'lsa iliqlik" degan so'zlari-bejiz keltirilmagan.

Mursili I eng janubiy hududlar bo'lgan Kitssuvadnani (zamonaviy Tarsusa, Mersina va Adana) egallaydi, buni arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi. Tars (zamonaviy Tarsus) shahri vayron qilinadi. Shuningdek, u tomonidan Xarruma va Xassuva shaharlari bosib olinadi.

Shu tariqa qator Kichik Osiyo hududlarini egallab, Mursili I Xattusuli I davrida bergan sodiqlik qasamini buzgan Xalapga qarshi yurish boshlaydi. Xalap Mursili I tomonidan egallanadi va u bu podsholikni butunlay tugatadi (biroq, u keyinroq qayta tiklanadi). Keyin Alalax shahrini ham vayron qiladilar (arxeologik qazishmalar buni tasdiqlaydi). Muvaffaqiyatli yurishlarni davom ettirib, Mursili I shimoliy Mesopotamiyada Frotning chap qirg'og'ida yashaydigan xurritlar ustidan g'alaba qozonadi va Bobilni egallash maqsadida o'ziga ittifoqchilar yig'adi.

Xammurapi sulolasining so'nggi shohlari davrida jiddiy kuchsizlangan Bobil xett bosqiniga qarshilik qila olmaydi. Mursili I taxminan 1595 yilda shaharni egallaydi va shoh Samsuditanni taxtdan qulatadi. Xammurapining avlodlaridan bo'lgan hukmdor qarshilik ko'rsatolmaydi. Mursili I ning shaxsiy qaydlariga ko'ra, u shaharni talon-taroj qiladi, odamlarini asir olib, podshosini zanjirband qiladi. Xammurapining so'nggi avlodini yakuniy taqdiri ma'lum emas.

Mursili I Bobilni o'z imperiyasiga qo'shib olish niyatida bo'lmagan. U bobosi kabi dunyodagi eng qudratli bosqinchi ekanligini isbotlashga harakat qilgan, xolos. Sababi, Bobil uzoqda joylashgan bo'lib, Xattusadan uni samarali boshqarish ancha mushkul edi. Buning o'rniga Mursili I shaharni vayrona holatida qoldirdi va poytaxtga g'alaba bilan qaytadi. U yetarli darajada uzoqlashganidan so'ng tevarak-atrofdagi kassit sardorlari xarobalarni egallab oladilar. Shu tariqa amoriylarning Bobildagi hukmronligi nihoyasiga yetadi.

Mursili I Xattusaga o'zi bilan asirlar va boylik bilan kirib keldi. Lekin poytaxtda unga qarshi fitna tayyorlanayotgan edi. Fitnani ishonchli kishilardan biri bo'lgan qaynisi, soqiy Xantili uyushtirgan bo'lib chiqadi. Mursili I yo'qligida Xantili podsho nomidan boshqarishga o'rganib qolgan edi; u to'satdan o'zining hukmdorligini cheklanib qolishiga toqat qila olmas edi. Mursili I Bobildan qaytganidan so'ng tez orada Xantili saroy amaldori bilan birga podshoni o'ldirib, taxtni egallab oladi. "Ular iblisiiy qilmishni sodir etdi.", deyiladi xettlar yilnomasida.

Podsho Xantili I (mil. avv. 1594-1560-yy) shimoliy Suriyada xettlar hukmronligini mustahkamlashga harakat qiladi va u yerga muvaffaqiyatli yurish uyushtiradi. Ashtat, Xurpan va Karxemish podsholiklarini bo'ysundiriladi. Xantili I ning Tegaram (Toxma daryosi havzasidagi zamonaviy Gyuryun) shahriga yurishi xurrit qabilalarining Kichik Osiyoga yangi bosqiniga sabab bo'ladi. Yaxshi saqlanmagan mixxat matnlarda bu haqda to'xtalib o'tilgan.

Xantili I davrida Kichik Osiyoning shimolida yashovchi kask qabilalari harakatga keladi va Xett podsholigiga hujum boshlaydilar. Ular aynan shu davrda xettlarni Qora dengizdan butunlay uzib qo'yadilar va avvalgi qadimgi Xett podsholari davridagi "dengizdan-dengizgacha" hukmronligi haqidagi fikrlar endi yangi xett matnlarida takrorlanmaydi. Xantili I darhol Xett shaharlarini, shu jumladan, Xattusani mudofaa devorlari bilan mustahkamlashga majbur bo'ladi.

Xantili I vafot etgach, ichki kurashlar natijasida taxtga Telepin keladi. Telepin yoki Telepinu- Xett podsholigini taxminan mil. avv. 1525-1500-yillarda boshqargan. U malika – tavanna huquqiga ega bo'lgan Xuttisi I ning singlisi Istapariyaning eri bo'lgan.

Fitnalar tufayli xotini Istapariya, keyinchalik o'g'li Ammuna halok bo'lganligi uchun, Telepin "podsho hokimiyati vorisligi haqida" yangi qonun chiqaradi. Bu qonunga ko'ra endilikda faqat podshoning o'g'illari yoshiga qarab taxtga chiqish huquqiga ega edi. Agar bunday bo'lmasa, qizining eri taxtga chiqishi mumkin bo'lib qoldi. Qolgan barcha hukmdor qarindoshlari taxtga da'vogarlik qilishi mumkin emas, deb belgilandi. Xalq yig'ini (panku) esa bu qonunga rioya qilinishini kuzatib borishi shart edi.

Podsho hokimiyatini kuchli mustahkamlagan bu vorislik tartibi, keyingi Xett podsholigi mavjud bo'lgunga qadar amal qildi. Telepin panku (xalq yig'ini) hokimiyatini cheklab, unga faqatgina podsho bilan sulola a'zolaridan biri o'rtasida bahs kelib chiqqanda kelishtirish va sud qilish uchun kengash (tuliya) chaqirish huquqini beradi. Panku qolgan davlat ishlariga aralashishi mumkin emas edi.

Telepin Labarna I dan boshlab, Xett podsholigi uyida bo'lgan barcha voqealarni qisqacha tavsifini qoldirgan. Taxminan Telepin davriga kelib xett qonunlarining dastlabki varianti tuzilganini aytish mumkin. Telepin Kitsuvadna hukmdori Ishputaxshu bilan do'stona shartnoma imzolab, Kitssuvadnani Xett podsholigidan mustaqilligini tan oladi. Shunga qaramay shimoliy Suriyaga boradigan yo'lni o'z qo'lida tutib turishga harakat qildi. Xashshu va Lavatsantiyaga yurishlar uyushtiradi. Manda, Sala, Tamalkiya, Xatra, Salpa shaharlari imtiyozlarini bekor qiladi.

Yangi Xett podsholigi. Tutxaliy III (Tutxaliy III yoki Tashmi-Sharri) Xett podshosi bo'lib, mil. avv. 1400-1380-yillarda hukmronlik qilgan. Uning davrida Xett podsholigi o'zining eng chuqur inqiroz davriga yetib keladi. Tutxaliy III ning uquvsiz siyosati "Xattilar mamlakati"ning dushmanlar halqasiga tushib qolishiga olib keldi va hattoki dushmanlar tomonidan vayron qilingan edi. Shimoldan kask qabilalari Nenassa shahriga yetib keladilar, g'arbda Arsava podsholigi qo'shinlari, shimoliy Sharqdan Atssi mamlakati qo'shinlari bostirib kiradi va xayaslar mamlakat yuqorisini talashadi va Kelkit daryosidagi Samuxa shahrigacha harakatlanishadi. Sharqda Isuva (Ishuva) podsholigi qo'shinlari Tegaramni talon-taroj qilishadi, Armatana

davlati qo'shinlari bo'lsa Kitssuvadna podsholigi chegaralarigacha yetib kelishadi. Shu tariqa Xett davlati hududlarining katta qismini boy beradi. Bundan tashqari kasklar Tarikarimma tog'ini egallab oldilar va davlat poytaxti Xattusa shahrini buzib tashlaydilar (unda faqatgina bitta butun bino – xett oqsoqollaridan birining maqbarasigina saqlanib qoladi).

Tutxaliy III davlatining samarali mudofaasini tashkil qila olmaydi. U asosan o'z shaharlarini qo'shnilardan himoya qilish bilan cheklanadi, hattoki biror- bir joyda tashabbusni qo'lga olishga intilmaydi. Shahzoda Suppiluliuma alohida armiyani o'z qo'mondonligiga olganidan keyin mamlakatdagi axvol birmuncha o'nglana boshlaydi. U Samuxa shahrini xettlar ta'siriga qaytaradi hamda uni kask qabilalari, Atssi va Xayaslar qo'shinlariga qarshi kurashish bazasiga aylantiradi. Suppiluliuma bir necha yil davomida kasklarning yirik armiyasini yengishni va Xayas qo'shinlarini quvib chiqarishni uddalaydi.

Suppiluliuma Sharqda kurashayotgan bir paytda Tutxaliy III janubiy g'arbda hujumga o'tishga harakat qiladi. Biroq, uning Masa (yunoncha Misiya), Xulan daryosi va Kasiy yerlaridagi hujumi kasklar va xayaslarning yangi bosqini tufayli barbod bo'ladi. Tutxaliy III harbiy harakatlarni xayaslar hududida davom ettirishga harakat qiladi, lekin xayaslar podshosi Karanni tomonidan tor-mor qilinadi.

Tutxaliy III hukmronligining oxirlarida Suppiluliuma Arsava qo'shinlarining navbatdagi bosqinini bartaraf qiladi. U vafoti arafasida tojni iste'dodli, o'zini ajoyib ko'rsata olgan Suppiluliumaga emas, balki hech qanday e'tiborga loyiq bo'lmagan Tutxaliy IV kichikka topshiradi.

Tutxaliy III ning o'g'li (boshqa manbalarda nevarasi yoki jiyani) bir necha oy hukmronlik qiladi. Mamlakatga barcha taraflardan bostirib kelayotgan dushmanlarga qarshi mudofaani tashkil qila olmaganligi uchun Tutxaliy III ning o'g'li Suppiluliuma va uning lashkarboshilari tomonidan o'ldiriladi. Suiqasd natijasida Tutxaliy III ning oila a'zolari bo'lgan erkaklarning ko'pchiligi halok bo'ldi yoki qamoqqa olindi va surgun qilindi. Shunday qilib, ichki ziddiyatlar hamda tashqi bosqinlar natijasida Xett podsholigi tanazzulga yuz tutadi. Mamlakatda kelib chiqishi xurritlardan bo'lgan zodagonlarning ta'siri oshib boradi. Suppiluliuma I Xett podsholigining yangi hukmdori sifatida, taxminan mil. avv. 1380-1334-yillarda boshqargan.

Suppiluliuma I mohir diplomat, qobiliyatli qo'mondon, uzoqni ko'ra biluvchi siyosatchi bo'lgani uchun qudratli Misr podsholigi, kassitlar Bobili, va Mitanni davlatlarining kuchsizlanishi natijasida Old Osiyoda yuzaga kelgan qulay xalqaro vaziyatdan foydalanib, Xett davlati harbiy qudratini kuchaytiradi. Suppiluliuma I hukmronligining eng muhim voqealaridan biri sifatida xettlarning Mitanniga qarshi urushlari bo'ldi. Mitannida hokimiyat tepasiga o'ldirilgan shohning ukasi yosh Tushratta keladi. Tushratta yaqinlari orasida Xett podsholigi bilan yaqinlashish tarafdorlari (xususan katta amaldor Tuxi) yetarlicha bo'lsa ham orada tinchlik shartnomasi tuzilmadi. Keyinchalik Tuxi qatl qilinadi va Tushratta Misr bilan ittifoqni qayta tiklaydi. Suppiluliuma I esa Mitanni bilan kurash uchun hali kuchlar kamligini tushunib etadi. Nevarasi Xattusili III tomonidan tuzilgan Suppiluliuma I solnomalarida hikoya qilinishicha, Suppiluliuma I hukmronligining dastlabki 20 yilida mamlakatning qayta tiklash va mustahkamlash bilan shug'ullanadi. U otasiga qarshi bosh ko'targan Kurtalissa, Aravanna, Zazsa (Zazzisa), Kalasma, Timna (Timmina), Xaliva va boshqa qator shahar davlatlarni bo'ysundirishga erishadi.

Suppiluliuma I yangi fir'avn Amenxotep IV (Exnaton) bilan do'stona aloqalar o'rnatishga harakat qiladi. Fir'avnga yozgan maktubida davlatlar o'rtasida do'stlikni tiklashni taklif qilib, o'zi bilan Amenxotep III o'rtasidagi do'stona aloqalarni eslatar edi.

Karxemish shahri Suppiluliuma I tomonidan egallanishi bilan Frotan O'rta yer dengizigacha bo'lgan butun Suriya Xett podsholigi ta'sir doirasiga kiradi. Karxemishni hukmdori etib Suppiluliuma I o'g'li Piyassilini (Sharri-Kushux) tayinlanadi. Boshqa o'g'li Telepin Xalap taxtiga o'tkaziladi. Suriyani bo'ysundirib Suppiluliuma I o'zining poytaxti Xattusaga qaytadi. Uning davrida Xett podsholigi shimoldan Araks, janubdan Falastingacha va g'arbda Galis daryosi qirg'oqlaridan Ossuriyagacha, Sharqda esa Bobilgacha cho'zilgan qudratli mamlakatga aylanadi. Xett davlatida yer egaligi podsho yerlari, ibodatxona yerlari, jamoa yerlariga bo'lingan. Davlat yerlariga egalik qilish va foydalanish natural (saxan) va mehnat (lussi) majburiyatlarini o'tash bilan bog'langan. Odatda Saxan va lussidan ibodatxona yerlari ozod qilingan. Xett podshosi xizmatida bo'lgan shaxsiy yoki xususiy kishilarning yerlari hamda hukmdordan sovg'aga olingan yerlar ham saxan va lussi bilan bog'langan majburiyatlardan ozod qilinishi mumkin bo'lgan. So'nggi Xett podsholari Tutxaliy IV

va uning ikki o'g'li davrida mamlakatni axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaaliklar, Kichik Osiyoni g'arbidan kelgan qabilalar hujumini zo'rg'a qaytaradilar. Axey qabilalari tor-mor qilinganidan keyin, Kichik Osiyo g'arbidagi Ilion shahri zabt etiladi. So'nggi Xett podshosi Suppiliuma II Kipr orolini yana qayta bosib oladi. Mil. avv. XII asr oxirida Egey dengizi qirg'oqlari va orollarining etnik jihatdan aralash "dengiz xalqlari" Xett davlatini tor-mor qildilar (mil. avv. 1190-yilda). Tarixda bu davr "Bronza kalapsi" deb ham ataladi. Chunki, temirdan foydalanish monopoliyasiga chek qo'yilgan edi. Ushbu rudani eritish sirlari Yaqin Sharq davlatlari orasida keng tarqaladi. Dengiz xalqlari xaqida Misr hierogliflarida ham ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Shunday qilib, Yangi Xett davlati tarixda tilga olinmay qo'yiladi. Markazlari Karxemish va Melida shaharlari bo'lgan so'nggi Xett podsholiklari qoldiqlari mil. avv. VIII asr oxirlariga qadar parchalangan holda mavjud bo'lib turadi. So'ngra Ossuriya tomonidan tugatildi.

Xett madaniyati. Qadimgi Xett jamiyatining yuksak madaniy taraqqiyotini arxeologik topilmalarga asoslanib tadqiq etilsa, unda qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyatlari ta'siri bo'lganini ko'rish mumkin. Xett madaniyatida, ayniqsa, xurrit xalqlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Qadimda boshqa dinlarda bo'lgani kabi xetlar e'tiqodi ham o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan. Ularda mingga yaqin ma'bud va ma'budalar afsona va yozma manbalarda keltiriladi. Ammo, ko'pincha aholining aksariyati oz miqdordagi ilohlarga sig'inishganligi ta'kidlanadi. Mamlakat poytaxti Xattusaning oliy homiysi chaqmoq xudosi edi. Xurrit xalqlarining chaqmoq xudosi Tesubga (yoki Teshub) ham e'tiqod qilganlar. Shu bilan birga quyosh va hosildorlik xudosi Telepin va boshqa ilohlarga sig'inganlar. "Rubaum" (Podsho) quyoshga taqqoslab iloh sifatida ko'rilgan. Ular o'z podsholarini "quyoshim" deb ulug'lab, unga xudo sifatida qarashgan. Yozuvda mixxatdan foydalanishgan va bu holat davlat ishlari, diniy marosimlar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalar asosini podsholar qoldirgan bitiklar tashkil etadi. Ayniqsa, podsholar Xattusili I, Telepin va Suppilulium I lar davrida yozilgan mixxat bitiklar qadrlidir. Yozma ma'lumotlardan saqlanib qolgan hukmdorlarning "tarjimayi hollari" o'ziga xosligi bilan e'tiborni tortadi.

Xetlar arxitekturası somiy xalqlarining madaniy yodgorliklarga juda o'xshash bo'lgan. Xetlarning poytaxti Xattusani ark qismi (hozirgi Buyuqqa'l'a) tik qoyada joylashgan bo'lib, o'sha davr mudofaa tizimi talablariga mos qilib qurilgan edi. Ark devorlari zich terilgan tosh bloklardan iborat bo'lgan. Shaharga kirishda darvoza chetlarida sherlar tasviri toshdan o'yib ishlangan. Bogaz Koy va Eyuk manzilgohlari ham tabiiy qoyalar yon bag'rida joylashgan bo'lib, u yerdagi devoriy suratlar Xett madaniyatining yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Eyukda mahobatli sfinks haykallari topilgan va shu bilan birga Kichik Osiyo xalqlari madaniyatiga xos ikki boshli burgut tasvirini ham uchratish mumkin. Xattusadan Sharqda bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan Yazilik manzilgohi diniy marosimlar maskani hisoblangan.

Xetlarning toshdan yaratgan haykallari garchand Misr va Mesopotamiyadagi kabi haybatli bo'lmasada, ammo ulug'vorligi jihatidan ulardan qolishmas edi. Ayniqsa, toshdan qurilgan qal'a inshootlari, mudofaa devorlarini qurish yuksak darajada bo'lgan. Xett davlatini "dengiz xalqlari" halokatga uchratganidan keyingi asrlarda ham ularning madaniy merosi boshqa qo'shni mamlakatlar madaniyatlarida o'z izini qoldirgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Kichik Osiyodagi ilk shahar-davlatlarning yuzaga kelishi.
2. Qadimgi Xett davlati ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Qadimgi xetlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.
4. Yangi Xett saltanati hukimronligi davrida madaniy hayot.
5. Qadimgi Xett podsholigi davrida Kichik Osiyo xalqlari.
6. Yangi Xett podsholigi inqirozining sabablari.

Glossariy

Xatti	Kichik Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri
Velusa	Xetlar davrida Troya shahar davlatining qadimiy nomi
Ugarit	Finikiya shahar davlatlaridan biri

Rubaum(quyosh)	Qadimgi Xett davlatida “podsho” degan ma’noni anglatgan
Xattusa	Xettlar poytaxtlaridan biri
Nesa	Qadimgi Xett davlatining dastlabki poytaxtlaridan biri
Arsava	Kichik Osiyodagi qadimiy mamlakat

Mavzu: Qadimgi Frigiya va Lidiya davlatlari

Reja:

1. Qadimgi Frigiyaning iqtisodiy – siyosiy va madaniy hayoti.
2. Lidiya davlati xo‘jaligi va siyosiy taraqqiyoti.

Qadimgi Sharq tarixida Kichik Osiyo hududida sodir bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar jarayonida Frigiya va Lidiya davlatlari muhim o‘rin tutadi. Kichik Osiyo hududidan topilgan dastlabki hujjatlar Xett tilida emas, balki akkad tilida yozilgan. Ularning aksariyati ko‘hna Kanish (Kanes) shahri o‘rnida joylashgan Ko‘ltepa manzilgohi atroflaridagi qazilmalarda topilgan. Bu yerda mil. avv. XIX –XVIII asrlarda Dajla bo‘yidagi Ashshur va Shimoliy Suriyadan kelgan somiy tilli aholi bilan savdo gullab-yashnagan koloniyalar joylashgan. O‘shanda xalqaro savdoda vositachilik rolini aynan shunga o‘xshagan koloniya shaharlari bajargan.

Bu davr uchun o‘ziga xos jihat sifatida xususiy savdoning rivojlanishini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Biroq, xususiy sarmoya bu hududdagi siyosiy vaziyat xilma-xil va beqaror bo‘lganligi sababli unchalik katta bo‘lmagan. Shu sababli savdogarlar birlashmalarga birlashganlar. Boshqa koloniyalardagi vatandoshlari va hamshaharlari bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatganlar hamda mahalliy hokimiyat, xususan, Kanish shahri hukmdori tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga erishganlar. Natijada qaroqchilikdan himoyalaniish va erkinlik kafolatini berish evaziga hukumat faqatgina foydaga sherik bo‘lmay, balki, sovg‘alar va eng yaxshi tovarni tanlash huquqiga ham ega bo‘lgan. Mazkur omillar Frigiya davlatini gullab – yashnashida muhim o‘rin tutadi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikni boshlarida yarim orolning markaziy qismida yirik va boy Frigiya davlati mavjud

bo'lgan. Frigiyaliklar Kichik Osiyoning shimoliy-g'arbiy qismiga mil. avv. II mingyillikda Makedoniya yoki Frakiyadan ko'chib kelganlar. Ularni asosiy xo'jaligini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Biroq, antik mualliflar bu yerda yilqichilik va vinochilik ham rivojlanganligi haqida alohida to'xtalib o'tadilar. Turli xil hunarmandchilik turlari, jumladan, toshga (jumladan, marmarga) va yog'ochga ishlov berish, oltin va boshqa metallarni qazib olish hamda to'quvchilik va gilamchilik gullab-yashnagan.

Frigiyaliklar qo'shni davlat va qabilalar bilan o'zaro aloqada bo'lganlar. Ular mil. avv. XIII asrda yunonlar bilan urushda troyaliklarga yordam berganlar, lekin ittifoqchilarining mag'lubiyatidan so'ng xetlar bilan birgalikda yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib Troyada o'lkasini o'z hududlariga qo'shib oladilar.

Frigiya Xett podsholigini qulashida ma'lum bir rolni o'ynagan. Chunki uning hududini sezilarli qismi frigiyaliklarga tegadi. Frigiyaliklar bir qator qabilalar, xususan, mushklar bilan aralashadi. Shuning uchun ossuriyaliklar o'z qo'lyozmalarida Frigiyani odatda "mushklar mamlakati" ("dengiz xalqlari "dan biri) deb ataydilar. Mil. avv. XII asrda mushklarning Sharqqa yurishlari Ossuriya tomonidan Quyi Frot hududida to'xtatib qolinadi. Mil. avv. X-VIII asrlarda Frigiya podsholigi birmuncha gullab-yashnaydi. Shaharlar soni ko'payadi. Frigiyaning poytaxti sifatida Sangariya (zamonaviy Sakarya) daryosining qirg'og'ida joylashgan Gordion shahri shuhrat topadi. Yunonlar unga afsonaviy podsho Gordiya asos solgan deb hisoblaydilar. Mazkur shahar devorlari tosh va xom g'isht, keng darvozalar va katta qal'a qo'rg'onlardan tashkil topgan qudratli shahar edi.

Yozma ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Frigiyaning yetakchi podshosi sifatida Midas (mil. avv. VIII asr oxiri-VII asr boshlari) tilga olinadi. U hokimiyat tepasiga Gordiyning o'limidan so'ng yuzaga kelgan shafqatsiz ichki kurashlar natijasida keladi. Bo'lajak hukmdor bir parcha yer va bir juft ho'kizga ega bo'lgan oddiy dehqon bo'lgan bo'lsa-da, kohinning tanloviga ko'ra podsholikka tayinlangan. Dehqon mehnati an'anaviy Frigiya jamiyatida katta xurmat qozongan: mehnat quroli yoki ho'kizni o'g'irlaganlar o'limga mahkum qilingan. Afsonalarga ko'ra uning shohi Midas nimaga teginsa uni toza oltinga aylantirgan. Rivoyatlarda

yana yovvoyi gilos po'stlog'idan tug'ilgan Gordiy tuguni haqida ham ma'lumotlar berilgan. Kimdan kim bu mashhur tugunni yechib tashlasa, Osiyoning egasi bo'lishi aytilgan. Keyinchalik, bu tugunni Makedoniyalik Aleksandrğa ko'rsatishganida uni qilich bilan chopib tashlaydi va Osiyoni egallaydi.

Podsho Midas ilm-fan va san'at rivojlanishiga homiylik qiladi. Sharqda faol tashqi siyosat olib boradi, buning natijasida yunonlar bilan doimiy aloqada bo'ladi. Yunonlar u tomonidan mamlakat markazida Ankira (Turkiyaning bo'lajak poytaxti Anqara) shahrini qurganligini yozib qoldirganlar. Arxeologlar Kichik Osiyo Sharqidan "Midas shahri" ni aniqlaganlar. U to'rtta tepalikda podsho saroyi va shahar aholisini o'z ichiga olgan qal'ada joylashgan bo'lib, dushmanlardan qoyalar tizimi bilan himoyalangan. Sharqiy O'rtayer dengizidagi murakkab vaziyat sababli Frigiya Urartu, Tabal, Karxemish va boshqa davlatlar kabi turli xil aksilossuriya ittifoqlariga kirgan. Biroq, Ossuriya o'z dushmanlarini birma-bir yakson qiladi. Ossuriya podshosi Sargon II solnomalarida Midasga qarshi muvaffaqiyatli urushlar haqida ma'lumot beriladi. Tog'li joylardagi janglarda ossuriya qo'shinlari 3000 qal'a, 10 ta shahar, 2400 asir va katta o'ljani qo'lga kiritadilar. Midas Ossuriya hukmronligini tan olishga va unga o'lpon to'lashga majbur bo'ladi. Mil. avv. VIII asr oxiriga kelib Frigiyaning tashqi siyosiy ahvoli birdan yomonlashadi. Chunki, g'arbiy va shimoliy-g'arbiy chegaralarda unga yunonlar va bir qator kichik Osiyo xalqlari tahdid qiladi. Shu bilan birga, Sharqdan kimmeriy qabilalari hujum qiladi. Frigiyaliklar esa ularga munosib qarshilik ko'rsata olmadilar.

Ossuriya va kimmeriyaliklar bilan qonli kurash uzoq davom etadi. Ayniqsa, sobiq ittifoqchilarining ba'zilar Ossuriya ta'siriga tushib undan chiqib ketadi, yoki mustaqil o'yin olib borib Frigiyaning dushmaniga aylanadilar (masalan, Urartu).

Oxir-oqibatda mil. avv. VII asrning 60-yillarida Asarxaddon davrida Ossuriya Frigiyani o'zining viloyatlaridan biri deb, hisoblaydi. Lekin, bu nomigagina bo'ysunish bo'lib, aslida uning haqiqiy xo'jayinlari ko'chmanchi qabilalardan bo'lgan kimmeriy va trerlar bo'lgan. Tashqi bosqinlar mamlakatni og'ir ahvolga solib qo'yadi. Natijada, Frigiya podsholigi mil. avv. VII asrda qulaydi. Uning yerlari esa Lidiyaga qo'shib olinadi. Mil. avv. 547-yilga kelib, Ahamoniylar Frigiya yerlarini haqiqiy xo'jayiniga aylanadi.

Qadimgi Frigiya madaniyati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, Kichik Osiyo podsholarining ertaknamo xazinlari haqidagi rivoyatlar bekorga to'planib qolmagan. Azaldan bu yerlarda oltin qazib olingan va mahalliy xalq elektrumni (oltin va kumush qotishmasi) ixtiro qilishgan. Qirg'oq bo'yidagi Ioniya yunon shaharlari orqali ushbu kashfiyotlar keyinchalik ellin dunyosiga tez tarqalgan.

Frigiya alifbosi qadimiylkda yunon alifbosidan qolishmaydi va deyarli undan farq qilmaydi. Frigiyaliklar va yunonlar alifbosi masalasida bahs munozaralar hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Har qanday holatda ham Kichik Osiyo davlatlari fors bosqiniga qadar yunon dunyosi bilan qalin munosabatlarda bo'lgan. Podsholar Delfa orakullariga (kohin-bashoratchilar) qimmatbaho sovg'alar jo'natganlar. Ular yunonlar bilan o'sha paytda faol harbiy-diplomatik o'yinlarda ishtirok etganlar. Arxaik davrda (mil. avv. VIII-VI asrlar) Kichik Osiyoning g'arbida joylashgan Ioniya shaharlari ellin dunyosidagi eng rivojlangan markazlar bo'lgan. Shuningdek, Frigiya madaniyatini gullab-yashnashida Old Osiyo dunyosining ming yillik madaniy an'analari bilan yaqinligi muhim ahamiyat kasb etadi

Qadimgi Lidiya davlati. Keyinchalik Kichik Osiyoda markazi Sard shahri bo'lgan Lidiya podsholigi yetakchi rol o'ynay boshladi. Lidiya hududi Kichik Osiyoning g'arbiy qismini markaziy hududlarini egallagan. Mil. avv. I ming yillikda Lidiya qudratli Frigiya davlati tarkibiga kirgan, biroq u kuchsizlangani va qulaganidan so'ng, mustaqil davlatga aylanadi. Lidiya iqtisodiyotining asosini dehqonchilik xo'jaligi tashkil qilgan. Germ, Paktol, Meandr daryolaridan oqib kelgan unumdor loyqa bilan o'g'itlangan Lidiya yerlari hosildorligi bilan ajralib turgan. Vodiylarda boshqqli ekinlar ekishgan, tog' yonbag'irlarida bo'lsa uzum, anjir va boshqa bog'dorchilik madaniyati rivojlangan. Ulkan yaylovlar keng miqyosli chorvachilik, ayniqsa, yilqichilik bilan shug'ullanish imkonini bergan. Qimmatbaho metall konlarini mavjudligi (oltin, kumush, temir, mis, rux) metallurgiya xo'jaligini rivojlantirish imkonini bergan. Paktol daryosidan sof holatdagi oltin va oltin qumi qazib olingan. Lidiyaliklar tog' jinslaridan oltin olishni va uni tozalash usullarini bilganlar.

Mahalliy xalqlar naqshinkor gazlamalar, hashamatli kiyimlar, ajoyib bosh va poyabzal tayyorlashni bilishgan. Ular kulolchilik

buyumlari bilan ham nom taratgan. Ayniqsa, guldor idishlar va sirli sopol taxtachalar shular jumlasidandir. Ular mustahkam g'isht, mineral bo'yoqlar tayyorlashni kashf qilishadi, masalan, mashhur sard oxrasida to'q qizil rangli bo'yoq ishlatilgan. G'arb (yunon) va Sharq dunyolari kesishuvida joylashgan Lidiya qo'shni davlatlar bilan faol savdo-sotiq olib borgan. "Uddaburon" Lidiya savdogarlari haqida antik mualliflar o'z asarlarida bir necha marotaba eslatib o'tganliklari ham bejizga emas. Lidiya shaharlariga kelgan savdogarlar uchun qulaylik yaratish maqsadida maxsus karvonsaroylar qurilgan. Antik an'anaga muvofiq, Lidiyaning savdo munosabatlarida nisbatan qulay bo'lgan tangalarni mavjud bo'lganligi kuzatiladi. Mil. avv. VII asr podsho Giges davrida elektrum – oltin va kumushning tabiiy qotishmasidan tangalar zarb qilingan, keyinchalik kumush tangalar, mil. avv. VI asrga kelib, Krez davrida oltindan chiqarilgan. Lidiya tanga-pul tizimi o'sha davrda keng tarqalgan bo'lib, masalan yunon Ioniya shaharlari undan keng foydalanishgan.

Lidiya jamiyatida hukmron mavqeni yirik yer egalari, ruhoniylar va harbiylar, shuningdek, savdo aristokratiyasidan iborat tabaqa tashkil qilgan. Gerodotda qandaydir Pifiy ismli Lidiya zodagoni podsho Doro I ga sof oltindan yasalgan buyum va uzum novdasi sovg'a qilgani hamda Yunonistonga urushga ketayotgan Kserks qo'shiniga esa dabdabali qabul uyushtirgani haqidagi qiziqarli ma'lumotlar uchraydi.

Asosiy ishlab chiqaruvchilarni ibodatxona va podsho xazinasiga soliq to'lovchilar bo'lgan erkin mayda dehqonlar, chorvadorlar hamda hunarmandlar tashkil etgan. Lidiya jamiyatida ijtimoiy va tabaqaviy ierarxiyaning eng quyi qismini xususiy va boshqa turdagi qullar tashkil qilgan.

O'zining siyosiy tuzilishiga ko'ra Lidiya monarxiya bo'lgan. Davlatning tepasida podsho turgan. Uning hokimiyat tayanchini tansoqchilar guruhi va qo'shin tashkil qilgan. Ayniqsa, otliqlar va Lidiya jang aravalari mashhur bo'lgan. Lidiya podsholari harbiy xizmatga yollanma askarlarni ham jalb qilgan bo'lib, ko'p hollarda ular qo'shnilari – kariy, ioniy va likiy xalqlari safidan olingan. Podsho saroyida katta rolni ko'zga ko'ringan aristokratlar urug'idan chiqqan podsho ayonlari o'ynagan. Ehtimol, aristokratik kengash ham bo'lgandir. Tashqi va ichki siyosatga doir muhim masalalarni hal qilish uchun xalq kengashi chaqirilgan. Biroq, asta-sekinlik bilan podsho hokimiyati kuchayib borishi natijasida u o'z ahamiyatini

yo'qota bordi. Lidiyaning ijtimoiy va siyosiy hayotida qabilaga mansubligiga ko'ra bo'linish, ajdodlar odatlari, qadimgi urug' normalari kabi arxaik ijtimoiy munosabatlar qoldiqlari saqlanib qolgan edi.

Lidiya podsholigining taraqqiyoti mil. avv. VII—VI asrlarda podsho Giges tomonidan asos solingan Mermnadlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan davrga to'g'ri keladi. U podsho urug'idan emas, balki zodagonlar toifasidan kelib chiqqan bo'lib, saroy to'ntarilishi natijasida hokimiyatni egallaydi. Giges Lidiyaning qudratli podsholaridan biri bo'lgan. U Lidiyaga Frigiyaning bir qismi, Kariya, Troyada va Misiyani qo'shib oladi. Natijada Qora dengiz bo'yidagi muhim savdo yo'llari va dengiz bo'ylariga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Lekin, savdo munosabatlarining rivojlanishi Egey dengiziga chiqishni talab qilardi. Shuning uchun ham Giges yirik yunon shaharlari bo'lmish Milet va Smirnaga muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan yurishlar uyushtirgan, biroq Kolofon va Magneziyani bosib olishni uddalagan. Shu bilan birga, uni taxtga chiqishini qo'llab-quvvatlagan yunon ibodatxona markazi Delfiga saxiy sovg'alar jo'natadi.

Lidiya G'arbda muvaffaqiyatli bosqinchilik siyosatini olib boradi. Sharqda esa Kilikiya orqali Sharqiy O'rtayer dengiziga chiqishga harakat qiladi, biroq, ko'zlagan natijasiga erisha olmaydi. Shuningdek, qiyinchilik bilan Kappadokiyaning qamal qilgan kimmeriyalardan himoyalangan. Kimmeriyaliklar bilan urushda Ossuriyadan yordamga umid qilib, ularga elchi jo'natadi va ularning oliy hokimiyatini tan oladi. Bu ittifoqqa tayangan holda u kimmeriyalar ustidan g'alaba qozonadi. Ammo, tez orada Lidiya Misr va Bobil kabi Ossuriya hukmronligidan ozod bo'lishga chanqoq bo'lgan ittifoqchilarni topadi. Mil. avv. VII asrda esa Ashshurbanipal tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan aksilossuriya harakatida qatnashadi.

Lidiyaga Ossuriya qutqusi bilan kimmeriyalar qo'shini bostirib kiradi. Ular bilan jangda Giges taxti va hayotidan mahrum bo'ladi, butun mamlakat poytaxt Sard bilan birga bu dahshatli ko'chmanchilar tomonidan bosib olinadi.

Garchi bosqinchilar shaharni xonavayron qilgan bo'lsalarda, Lidiya poytaxtining mustahkam akropolini egallashni uddalay olmaydilar. U yerda Gigesning vorisi — yangi podsho Ardis qamalib olgan bo'lib, Ossuriyaning Lidiya ustidan hukmronligini tan olish

evaziga kimmeriylardan qutulishni uddasidan chiqadi. Ardis (mil. avv. VII asr) o'zining Sharqiy chegaralarida ehtiyotkorona tashqi siyosat olib borsada, kimmeriylar mamlakatga xavf solib turadi. Lekin, u Sharqda Priena va Milet shaharlari bilan jang qilib, Egey dengiziga shiddat bilan joylashib oladi. Milet bilan jang 12 yilga cho'ziladi, natijada Milet uchun foydali tinchlik shartnomasi bilan tugaydi.

Lidiya Ossuriyaning qulashidan foydalanib, o'zining Sharqdagi chegaralarini kengaytirishga intiladi. Bu esa Old Osiyoning shimoliy qismidagi Midiya bilan to'qnashuvga olib keladi. Natijada Lidiya va Midiya o'rtasida 5 yillik (mil. avv. 590-585-yy) urush kelib chiqadi. Mazkur jang mil. avv. 585-yil 29-mayda noxush alomat sifatida tan olingan quyosh tutilishi (jang vaqtida ikkala taraf dahshatdan qurollarini tashlab yuboradi) ta'sir qilgan tinchlik shartnomasi tuzilishi bilan yakunlanadi. Yovlashayotgan tomonlar o'rtasidagi chegara etib Galis daryosi tan olinadi. Shartnoma sulolaviy nikoh bilan mustahkamlanadi: Midiya shahzodasi Astiag Lidiya malikasiga uylanadi. Lidiyaning bu davrdagi eng katta muvaffaqiyati Kichik Osiyodan kimmeriylarni haydab chiqarilishi bo'ldi.

Lidiyaning tashqi siyosatda gullab- yashnashi podsho Krezning (mil. avv. 562-547-yy) hukmronlik davriga to'g'ri keladi. U Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini bo'ysundirib, ularni Lidiyaga o'lpon to'lashga majbur qiladi. Lidiya hukmdori Krez mil. avv. VI asrda o'zining boyliklari bilan shuhrat qozongan. Fors davlatining qudratidan xavfsiragan Lidiya ehtiyotkorlik bilan birmuncha yirik va ta'sirli yunon markazlari: Sparta, Afina va Samos bilan aloqalar o'rnatdi, Bobil va Misr bilan ittifoq shartnomalarini imzoladi. Krez katta yollanma qo'shin tuzadi, lekin na armiya, na ittifoqchilar Lidiyani qutqarib qola olmaydi. Mil. avv. 547-yilda Krez birinchi bo'lib Galis daryosini kechib o'tadi va Kappadokiyaga bostirib kiradi. Forslar bilan urush hech bir tarafga muvaffaqiyat keltirmaydi. Krez qo'shinlarini ortga, Sardga qaytarishga majbur bo'ladi. Bundan darhol foydalangan fors podshosi Kir II Lidiyaga bostirib kiradi va tez orada poytaxtni egallab, podsho Krezni asir oladi. So'ngra fors sarkardasi Xarpag Lidiyaga satrap etib tayinlanadi. Mil. avv. 547-yildagi ushbu harbiy mag'lubiyat bilan Lidiya podsholigining 150 yillik mustaqillik tarixi tugaydi. Lidiya fors podsholigi tarkibiga uning satrapliklaridan biri sifatida kiradi. Lidiya madaniyati ham Kichik Osiyodagi boshqa xalqlar madaniyati kabi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Lidiyaliklar

o'zlarining yozma alifbosini Kichik Osiyo yunonlaridan o'zlashtirganlar. Ularda maxsus gimnastik harbiy o'yinlar va harbiy raqslar, kub, koptoklarda turli o'yinlari bilan mashhur bo'lgan. Ularning musiqiy madaniyati yuqori darajada rivojlangan. Lidiyada musiqa asboblari (sibizg'a, qamish surnay, shaqildoq, timpan, kimval, ko'p torli liralari) qadrlangan. Lidiyada mohir tabiblar bo'lgan, dori-darmonlar haqida bilimlar yig'ilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Frigiya davlatini yuzaga kelishi shart-sharoitlari.
2. Frigiya davlati ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Lidiya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.
4. Lidiyaning yuksalishi davrida madaniy hayot
5. Lidiya podsholigi xo'jaligi.

Glossariy

Frigiya	Kichik Osiyoning qadimgi davlatlardan biri
Sardi	Lidiyaning poytaxti.
Ugarit	Finikiya shahar davlatlaridan biri
Karxemish	Shimoliy Suriyadagi qadimiy shahar
Sherdane	Qadimgi Misr manbalarida "dengiz xalqlari"ning umumiy nomi.
Krez	Lidiyaning so'nggi hukumdori.
Arsava	Kichik Osiyodagi qadimiy mamlakat

Mavzu: Qadimgi Eron

Reja:

1. Qadimgi Elam davlati.
2. Qadimgi Midiya.
3. Ahamoniylar imperiyasi.

Qadimgi Elam davlati. Qadimgi Elam hududi tog'li Karuna va Kerxe daryolari vodiysida yuzaga kelgan. Hozirgi Eronning janubiy-g'arbiy qismini o'z ichiga oladi. Afsonalarga ko'ra mil. avv. 2700-

yilda Elam davlatiga tarixda “noma’lum podsho” deb nom qoldirgan hukmdor asos solgan deyiladi. Elam tarixini, mutaxassislar to’rt davrga bo’lib o’rganadilar. Ya’ni, Protoelam davri (mil. avv. 3200-2700-yy), Qadimgi Elam davri (mil. avv. 2700-1600-yy), Yaqin Elam davri (mil. avv. 1500-1100-yy) va Neoelam yoki Yangi Elam davr (mil. avv. 1100-539-yy)lariga ajratadilar.

Qadimgi Elam aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanib kelgan. Elam tili izolyant hisoblanadi ammo dravid yoki afraasiyo tiliga qarindoshligi hozigi kunda xorij olimlari tomonidan e’tirof etilmoqda. Mesopotamiya shahar dalatlariga yaqin bo’lganligi tufayli ularning ma’daniy ta’siri juda yuqori bo’lgan. Mil. avv. III mingyillikga oid Shumer-Akkad manbalarida Shushen(Suza), Anshan(Anchan), Simashki, Adamdun va Paraxse (Marxashi) kabi shahar davlatlar haqida ma’lumot keltirilgan. Mil. avv. XXVI asda Elamning Avan shahridan kelib chiqqan Mesilim Kish lugali maqomini ham olishga muvaffaq bo’lgan. Aynan u Avan sulolasiga asos solgan. Avanliklar protoelam piktografik chiziqli yozuvdan davlat ishlarida foydalanganlar. Podsholar Ukkutaxish, Shushuntarana, Autalumash, Kikkusivetemptilar hukmroligi yillari borasida olimlar orasida munozarali fikrlar mavjud. Ammo mil. avv. 2300-yilda Avan shahri podshosi Luxxishshan haqida ma’lumotlar keltirilgan. Elam garchand siyosiy jihatdan kichik shahar davlatlardan iborat bo’lsa-da yagona o’lka hisoblangan. Podsho Lixxishshan, Akkad hukmdori Sargon I qo’shinlaridan yengilib asir tushadi. Lekin Elam yerlari Shumer-Akkad dalatining viloyatlaridan biriga aylanib qolmaydi. Balki vaqtincha qaram mamlakat maqomida qoladi. Mil. avv. 2190-yili Kutik-Inshushinak(akkadcha Puzur-Inshushinak) Elamda hokimiyatga keladi. Uning otasi Shimpixishxuk podsholar naslidan bo’lmasada, ammo ona tomondan oldingi hukmdor Xitaga qarindosh bo’lgan. Bu sulola mil. avv. 2190-yilga qadar Elamda hukmrolilik qildi. Kutik-Inshushinak Elamni akkadliklarning hukmronligidan xalos qiladi. Chunki bu payt ko’chmanchi gutiylar Mesopotamiya shahar davlatlarini bosib olib, Shumer-Akkad podsholigini tugatadilar. Natijada Elam ozod mamlakatga aylanadi. Kutik-Inshushinak Anshanni bosib olib Elamning katta qismini birlashtirishga muvaffaq bo’ladi. Akkadliklar bilan ittifoqda gutiylar bilan ham urush olib boradi. Suzada iloh Inshushinak uchun ibodatxona bunyod etadi va kanallar qazitib dehqonchilikni

rivojlanishiga e'tibor qaratadi. Uning vafotidan so'ng gutiylar Elamni talon-taroj qiladi va Avan sulolasi barham topib Elam kichik dalatchalarga bo'linib ketadi. Ko'p o'tmay Ur podshosi Shulgi tomonidan bosib olinadi. Mamlakat bir asrdan ko'proq shumerlik amaldorlar tomonidan boshqariladi.

Ur podshosi Shu-Suen davrida Elamning Simashki shahar-davlati poshosi Girmamme (mil. avv. 2030-yilda) Shumerdan ma'lum erkinliklarga erishadi. III Ur sulolasi amoreylarning doimiy hujumlaridan Shumerni mudofaa etib turgan paytda, Elam qariyb ikki yuz yillik qaramlikdan chiqa boshlaydi. Simashki (Mil. avv. 2015-yilda) sulolasidan Enpiluxan davrida Elam Shumerga bo'ysunmay qo'yadi. Garchand Ur podshosi Ibbi-Suen Elamga yurish qilib Enpiluxanni asir olib qaytsada, mamlakat mustaqil bo'lib qolavergan. Podsho Xutran-tempti (mil. avv. 2010-1990-yy) davrida Elam qo'shini Ur shahrini egallab, III Ur sulolasining so'nggi podshosi Ibbi-Suenni taxtdan tushiradi. Simashki sulolasidan podsho Idattu I butun Elamni birlashtiradi. Birlashgan Elam yarim asr mobaynida yuksaladi. Mil. avv. XIX asrda siyosiy inqiroz boshlanib hokimiyatga Sukkal-max(yoki Epartidlar)lar sulolasi keladi. Elam amalda uchga bo'lib boshqarilgan. Mil. avv. XV asr boshlariga kelib Sukkal-maxlar sulolasi ham barham topadi. Olimlarning fikricha ko'chmanchi kassitlar hujumi bunga sabab bo'lgan. So'ngra Elam Anshana va Suza sulolalari tomonidan idora qilindi. Mil. avv. 760-yili podsho Xumbantaxrax Yangi Elam sulolasiga asos soladi. Ushbu sulola Elamni, Ossuriya podshosi Ashshurbanapal bosqiniga qadar boshqardi. So'ngi Elam podshosi sifatida Xumban Xaltash III tan olinadi. Shundan so'ng Elam o'z mustaqilligini butunlay yo'qotadi.

Qadimgi Midiya. Qadimgi Midiya hududi hozirgi Eronning g'arbida, ya'ni Araks daryosi va Elbrus tog'laridan janubda, Fors o'lkasining shimolida hamda Dashti-Kavir cho'lidan g'arbda joylashgan edi. Midiyaliklar bu o'lkaga Eronning shaqidan kirib kelganligi ta'kidlanadi. Eroniy tilli midiyaliklar tez orada lulubeylar, gutiylar va kassitlarni assimilyatsiya qiladilar. Hududi asosan mo'tadil iqlimli bo'lgan. Midiyaliklar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Bu yerda yilqichilik ham keng tarqalgan edi.

Mil. avv. IX asr oxiri va VIII asr boshlarida Midiya ossurlar tomonidan bosib olinadi. Ammo mil. avv. 673-yili midiyaliklar ossurlarga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Unga Kashtariti ismli sardor

boshchilik qiladi. Natijada Midiya mustaqillikni qo'lga kiritadi. Midiyaning poytaxti Ekbatan. Ossuriya podshosi Asarxaddon skiflarni midiyaliklarga qarshi gij-gijlaydi. Skiflar hukmdori Partatua (Gerodotda, Prototiy deb tilga olingan)ga o'z qizini turmushga beradi hamda ular bilan kelishuv yo'lini tutadi.. Natijada skiflar akilossuriya koalitsiyasidan chiqadilar. Midiyani ossurlar boshqa o'z iznida tutib tura olmaydilar. Ammo ularni vaqtincha kuchsizlantiradilar.

Mil. avv. 625-yilda Midiya taxtiga podsho Fravartishning o'g'li Kiaksar (Uvaxshatra) chiqadi. Harbiy islohot o'tkazib, so'ngra Ossuriya bilan urush boshlaydi. Bu orada Kavkaz tog'laridan Midiyaga ossurlarning ittifoqchilari podsho Madiy boshchiligida skiflar bostirib kiradilar. Ular Midiyani talon-taroj qiladilar. Kiaksar esa vaqtincha skiflarga bo'ysunadi va ko'chmanchilarga o'lpon to'lashga majbur bo'ladi. Ko'p o'tmay skiflar sardorlarini hiyla yo'li bilan qo'lga olib, ularni qatl etadi. Rahbarlarisiz qolgan skiflar Midiyani tark etishga majbur bo'ladilar. Midiya mustaqilligi qayta qo'lga kiritiladi.

Mil. avv. 614-yilda Kiaksar qo'shinlari Dajla daryosidan kechib o'tib, Ossuriyaning qadimgi poytaxti Ashshurni qamal qiladi. Uzoq qarshilikdan so'ng Ashshur egallanib, vayron qilinadi. Bobil podshosi Nabopalasar Ashshur vayronalariga yetib kelgach ikki o'rtada Ossuriyaga qarshi ittifoq tuziladi. Mil. avv. 612-yilga ikki davlat qo'shinlari Ossuriya poytaxti Nineviyani egallaydilar va butunlay vayron qiladilar. Ossuriyaning shimoli Midiya davlatiga o'tadi. Kiaksar kuchli dushmanidan qutilgach, Elam va Urartu yerlariga yurish qilib, bu hududlarni ham Midiyaga bo'ysundiradi. Mil. avv. 590-yilda midiyaliklar Lidiyaga(Kichik Osiyo) bostirib kiradilar va besh yil urush olib boradilar. Ammo ikki tomon ham bir-birini yenga olmaydilar. Mil. avv. 585-yil Galis daryosi yonidagi jang paytida quyosh tutilishi sodir bo'lib, midiyaliklar va lidiyaliklar buni ilohiy belgi deb hisoblab sulh tuzadilar. Podsho Kiaksarning o'g'li Astiag, Lidiya malikasiga uylanadi. So'ngra Kiaksar vafot etadi, taxtga Midiyaning so'ngi podshosi Astiag (mil. avv. 585-550-yy) keladi. Ko'p o'tmay Midiya forslar tomonidan Ahamoniylar davlatiga qo'shib olinadi. Midiyaning o'zi va uning yerlari satrapliklarga ajratiladi.

Madaniyatiga va tiliga ko'ra midiyaliklar forslarga juda yaqin xalq hisoblangan. Boshqa eroniy xalqlar kabi uzun soch va soqol

o'stirib yurganlar. Bellarida alohida hanjar (akinak) ilib yurganlar. Zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. Shu bilan birga hosildorlik ilohasi Anahitaga sig'inganlar. Hatto Midiya poytaxti Ekbatanda uning ibodatxonasi bor edi.

Ahamoniylar davlati. Midiyalik va forslar bir-biriga yaqin qardosh xalqlar bo'lganligi uchun antik mualliflar ularni ko'pincha adashtirardilar. Chunonchi, Gerodot mashhur yunon-fors urushlarini Midiya urushlari deb atagan. Persida (Fors) hududi (keyinchalik Fors viloyati) Fors ko'rfazi sohilida, Elamning yaqinida joylashgan bo'lib, uning madaniy merosi qo'shnilarga katta ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik, ulkan saltanatni barpo etib, forslar elam tili, mixxatidan keng foydalanadilar, Elam poytaxti Suzada esa forslar podshosining bosh qarorgohlaridan biri joylashganligi bejiz emas.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Midiya podshosi Astiagning o'g'li bo'lmagan. Shu jihatdan, yagona qizi Mandanaga bo'lajak munosib kuyovni sinchiklab tanlar edi. U Mandanani o'ziga qaram bo'lgan Kir I ning o'g'li, Kambizga turmushga beradi. Kambiz midiyalik hukmdoriga o'zining sodiqligi haqida qasamyod qiladi. Gerodotning ta'kidlashicha, Astiag bir tush ko'radi; tushida uning qizidan tok novdasi chiqib, unga tegishli butun hududni o'rab oladi. Bu tushning ta'birini uning kohinlari, qizining o'g'li nafaqat uning vorisi bo'ladi, balki uning o'rnida saltanatni boshqaradi, deb bashorat qiladilar.

Mandana o'g'il tug'ib, unga erining otasi sharafiga Kir ismini beradi. Astiag nabirasini o'ldirish gunohidan qochib, atqli amaldor Xarpagni chaqirtirib, bolani o'ldirishni buyuradi. Xarpag ham gunoh qilgisi kelmay, Astiag singari, bu ishni bajarishni boshqa birovga topshiradi.

Shuning uchun u Mandananing o'g'lini o'ldirmay, Astiag cho'ponlaridan biriga beradi. U esa bolani nogahon uyga olib ketadi va endigina o'lik bola tuqqan xotiniga beradi. Cho'pon tog' qiyaligida o'z bolasini ko'mib, Xarpagga ishni bajarganligi to'g'risida aytadi. Shunday qilib Kir cho'pon oilasida katta bo'ladi.

Gerodot so'zlab bergan bu hikoya an'anaviy syujetni namoyish etadi va qahramonning ilohiy qismatini basharot qiladi. Kir bilan bog'liq hikoyada Gerodot midiyalik va forslar o'rtasidagi mashaqqatli siyosiy o'zaro munosabatlarni ham ko'rsatib o'tadi. Midiyaliklar hukmron bo'lgan, lekin ularga qaram bo'lgan Fors hukmdorining

o'g'lini hattoki eng oliy podsho tomonidan ham ochiq o'ldirib bo'lmadi.

Keyinchalik sir fosh bo'lgandan keyin Astiag Kirni jonini saqlab qoladi. Amaldor Xarpag jazolanadi, lekin podshoga qarindosh bo'lgani uchun o'ldirilmagan. Kir esa Fors yerlariga, ota-onasi huzuriga qaytarib yuborilgan.

Uning oilasi, Ahamoniylar, fors urug'lari ichida eng yirik va eng qudratli pasargadlar qabilasiga tegishli bo'lgan. Ko'p o'tmay forslarga nisbatan midiyaliklarni zulmi yanada kuchaydi. Shu vaqtda Xarpag bilan bir qatorda Midiya aristokratiyasining aksariyat qismi Kirni vorisligini qo'llab-quvvatlar edi.

Uzoq tayyorgarlikdan so'ng Kir va uning lashkarlari Ekbatan tomon harbiy yurishini hoshlaydi. Midiya qo'shinlariga Xarpag boshliq etib tayinlanadi. U esa o'z navbatida Kir tomoniga o'tib ketadi. Astiagga sodiq bir guruh askarlar tarqalib ketadi. Podsho Astiag asirga olinadi, Kir Ekbatanni istilo qiladi va mil. avv. 558-yilda o'zini Midiya va Eronning podshosi deb e'lon qiladi. Natijada, Midiya yerlari Fors davlatining viloyatiga aylantiriladi. Kir II bobosini o'ldirmadi, balki uni yaxshi sharoitda o'z ajali bilan o'lgunga qadar tutqunlikda ushlab turadi.

Kir II o'zining sobiq ittifoqdoshi bo'lgan Bobilni bosib olish istagi yo'q edi. Ammo, imperiya tuzish yo'lida bu maqsadidan ham qaytmadi. Dastlab Astiag vafot etishi bilan lidiyalik va midiyaliklar bilan tuzilgan sulh shartnomasi bekor qilinadi. So'ngra Lidiyaga qarshi harbiy harakatlar boshlanadi.

Ikki davlat armiyasi Galis daryosi yaqinida uchrashadi va uzoq vaqt natijasiz jang qiladi. Pirovard natijada Krez Bobildan yordam so'rash maqsadida chekinadi. Kir II Lidiyaga bostirib kiradi va oxir-oqibatda Lidiya qo'shinini poytaxt Sard yaqinida qurshab oladi. U tuyalarni jangga tashlab, dushman otlarini qo'rqitadi va buning oqibatida Lidiyaning otliq askarlarini tor-mor qiladi, shaharni qurshovga olib o'n to'rt kunlik qamaldan so'ng egallaydi.

Kir II o'z harbiylarini mukofotga sazovor deb hisoblab, ularga shaharga bostirib kirib, uni talon-taroj qilishga ruxsat beradi. Bu orada asir olingan va Kir II huzuriga keltirilgan Krez forslar yonida shaharning achinarli taqdirini kuzatib turishga majbur bo'ladi. Kir II adolatli va sahovatli bo'lishiga qaramasdan, u, avvalo, kuchli va

shafqatsiz tartibni tashkil qilishda boshqa podsholardan ustun turar edi.

Antik tarixchi Ksenofontning ta'kidlashicha, Kir II, avvalgi har bir buyuk podsho singari, o'z saltanatini kuch va zulm vositasi orqali boshqara olgan. Uning davlati ko'p millatli imperiyaga aylanib bordi. Endilikda midiyalik, lidiyaliklar (shu jumladan Frigiya) va bobosi tomonidan bosib olingan Ossuriyaning shimoliy viloyatlari – barchasi Eron tarkibiga kirdi. Kir II Xarpagga sohil bo'ylab Ioniya shaharlarini bosib olishni davom ettirish vazifasini topshirib, o'zi Sharqdagi, Midiya hududidagi harbiy harakatlarni davom ettiradi. U Hind daryosigacha bo'lgan yerlarni Ahamoniylar davlatiga bo'sundiradi.

Faqat uchta davlat - skiflarning nazoratidagi shimolda yoyilgan o'lkalar, uzoq janubda misrliklar va barchasiga qaraganda eng qudratli – g'arbdagi bobilliklar mustaqilligicha qolgan edi.

Mil. avv. 540 yilga kelib Kir II qo'shinlarini g'arbiy chegara tomon suradi, u yerda vaqti-vaqti bilan (davriy ravishda) bobilliklar bilan to'qnashuvlar bo'lib turardi. Forslar hujumlari tobora jiddiylashib boradi, shuning uchun Babil podshosi Nabonid shimolga, o'z saltanatining markaziga (yuragiga) qaytib borishga tayyorgarlik ko'radi.

Uning yetib kelishiga Kir II shiddatli hujumni tayyorlab qo'ygan edi. Hokimiyat tepasida bo'lgan Nabonid Babil qo'shinlariga dushmanga qarshi chiqishni buyuradi. Ular Dajla daryosini kechib o'tadilar va Opis yaqinida forslar qo'shini bilan to'qnashadilar.

“Bobilliklar jangga kirishadi, - deb xabar qiladi Gerodot, - lekin ular jangda yengiladi va qayta shaharga quvib kirgiziladi”. Ksenofontning aytishicha, ularning yigirma yil qamalga yetadigan oziq-ovqat va suvi bor edi.

Kir II yaxshi qurollantirilgan shahar himoyachilari o'rtasida ochlik yuzaga kelishini o'ylab, hatto yillab kutishi mumkinligini tushunib boshqa reja tuzadi. Ksenofont uni quyidagicha tavsiflaydi: Babilning qoq markazidan oqib o'tadigan Dajla daryosi ikki odam bo'yidan ham chuqur edi. Navuxodonosor II qurdirgan istehkomlari tufayli shaharni osonlikcha suv bostirish qiyin edi. Lekin, Kir II boshqa strategiyadan foydalanmoqchi bo'ladi. Shahardan yuqorida o'tadigan Dajla oqimining atrofida xandaqlar kovlab qo'yilgan bo'lib, bir kuni qorong'i tunda uning odamlari ularni baravar ochib

yuboradilar. Dajlaning sathi pasayadi va fors qo'shini shaharga bostirib kiradi. Bobil zabt etiladi.

Kir II ning g'alabasi Bobildagi ichki boshqaruv tizimining o'zgarishiga olib kelmadi. Kir II Navuxodonosor II ning g'oyat katta qasrini o'zining qarorgohlaridan biri qilib oladi va Ekbatandagi saroyni yozgi qo'nalg'asiga aylantiradi. Lekin, imperiyaning ma'muriyati uchun Kir II yangi poytaxtni Eronda Pasargadni quradi.

Kir II o'zining saltanatini forslar boshqaruvi ostidagi turli xalqlar majmui sifatida ko'rardi. Ossuriyaliklardan farqli o'laroq, u milliy o'xshashlik va o'ziga xoslikni buzishga harakat qilmagan. Buning o'rni u o'zini barcha ushbu individualliklarning muruvvatli rahbari sifatida ko'rsatadi – buning uchun esa mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan xabardor bo'lish uchun o'zining “quloq”lari va “ko'zlari”ga haq to'laydi.

Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalarida Eron shohi Kir II nafaqat Midiyaga qaramlikdan qutuladi, balki ilgari Midiyaga qaram bo'lgan barcha xalqlarni o'ziga bo'ysundiradi.

U Oks (Amudaryo) orqali shimolga, butunlay yangi hududga, Orol dengizidan Sharqqa, Markaziy Osiyoga qarab harakat qiladi. Bu joylarda yashab kelayotgan qabilalar massagetlar, deb atalgan. Gerodot bu haqda “Ular uchi bronzadan yasalgan o'q va nayzalardan foydalanadilar, quyoshga sajda qiladilar va yerga ishlov bermaydilar, lekin yirik qoramol va baliq iste'mol qilib yashaydilar”- deb xabar beradi.

Boshida Kir II massagatlarni muzokara yordamida o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ldi. Malika To'mariga unga turmushga chiqishni taklif qiladi. U nafaqat taklifni rad etgan, balki o'g'lini forslar armiyasiga qaratilgan hujumga boshchilik qilgani yuboradi. Hujum barbod bo'lib, To'maris o'g'li asir olinadi.

Sharmandalikka bardosh berolmay u o'zini o'zi o'ldiradi. To'maris Kir II ga xat yuborib qasamyod qiladi: “Quyosh ila ont ichamanki, sening qonga chanqog'ingni qondiraman”. So'ng u o'zining qolgan odamlarini bosib kelayotgan forslarga qarshi olib chiqadi. Ikki tomon mil. avv. 530-yilda bir-biri bilan to'qnashadi. “Men ushbu jangni yunon bo'lmaganlar o'rtasida bo'lib o'tgan barcha janglardan eng dahshatlisi, deb hisoblayman”, - deb ta'kidlaydi Gerodot, bu bilan (e'tiborni “yunon bo'lmaganlar” ta'rifiga qaratilsa)

jang barcha ma'lum bo'lgan janglar ichida eng shiddatlisi ekanligiga e'tiborni qaratgan.

Massagetlar kamon va o'qdan, shuningdek, hanjar va nayzalardan foydalanganlar. Lekin ular deyarli butun fors qo'shinlarini yo'q qildilar. Kir II o'z odamlari orasida piyoda askar sifatida jang qilib, jang avjiga chiqqanda halok bo'ladi. Massagetlar g'alaba qozongandan so'ng, To'maris podsho jasadini qidirib ketdi va uni o'z qoniga bulg'anib yotgan forslar orasidan topdi. Kir II ning jasadini qidirib topib, kallasini kesib oladi va qonga to'ldirilgan meshga tiqib: "Qonga chanqog'ingni qondiraman deb seni ogohlantirgan edim", - deydi.

O'g'li uchun qasos olib, To'maris tirik qolgan forslarga jang maydonidan buyuk podshoning tanasini olib ketishga ijozat beradi. Ular shohning yuzidan qonlarni yuvib tashlab, jasadini dafn etish uchun Pasargadga qaytarib olib ketadilar.

Kir II oldindan o'zi uchun maqbara qurdirgan edi: tomi ikki nishabli tosh imorat boy o'yma naqshlari tufayli yog'ochdan yasalganga o'xshab turardi. Imorat yetti pog'onali zinapoya shaklida qurilgan zikkuratning tepasida o'rnatilgan edi. Jasadni shohona kiyimlarga kiyintirib, zeb-ziynatlar bilan bezab, qurolini yoniga qo'yib, tilla tobutga yotqizdilar. Maqbarani qulflab, uni qo'riqlash uchun bir guruh fors ruhoniylariga maqbara yonida joylashgan kichik uychada yashashni buyurdilar.

Kir II ning to'ng'ich o'g'li, Kambiz – Kambiz II nomi bilan taxtga o'tiradi. U otasining qo'shinida bir necha yil zobit sifatida xizmat qilgan va Oksning narigi qirg'og'iga o'tishdan oldin Kir II bilan birga bo'lgan, lekin podsho o'g'lini, o'zi jang qilguncha, ishlarni nazorat qilib turish maqsadida Pasargadga qaytarib yuboradi, chamasi Kir II jangni arzimagan ish, deb tasavvur qilgan.

Kambiz II avval o'z saroyi va saltanatning ma'muriy markazini elamliklarning eski poytaxti – Suzaga ko'chiradi.

Kambiz II taxtga o'tirgandan to'rt yil o'tib Misrga hujum boshlaydi. Uning floti sohil bo'ylab jo'naydi, armiyasi esa cho'lni kesib o'tadi. Kambiz II o'zining qurolbardori Doro hamrohligida qo'shinlarga boshchilik qiladi. Doro uning shaxsiy qo'riqchisi sifatida saltanatning shimoli-sharqiy qismida joylashgan Parfiya viloyatini boshqargan fors amaldorining o'g'li bo'lgan.

Misr fir'avni Amasis forslarni kutib olish uchun o'z kuchlarini tayyorlaydi. Lekin uning yoshi yetmishdan oshgan bo'lib, Kambiz II bostirib kelishidan oldin keksalikdan vafot etadi.

Kambiz II uchun bu hodisa katta yutuq edi, chunki endi Misrni muhofaza qilish majburiyati uning o'g'li Psammetix III zimmasiga tushadi. Psammetix III o'z qo'shinlarini Misrning shimoli-sharqiy sarhadida saflaydi, mudofaasining markazi chegara yaqinidagi Peluziy qal'asi bo'lgan. Bu qal'a Nexo II davridayoq kanalni muhofaza qilish uchun qurilgan edi. Bunday joylashish yomon emasdi, lekin misrliklar muvaffaqiyatsizlikka uchray boshlaganda Psammetix III qo'shinlarini orqaga, to Memfisgacha chekinishga buyruq beradi.

Ushbu vaziyat forslarga delta suv yo'llariga deyarli erkin kirib borish hamda Memfisni ham quruqlik, ham suvdan turib qamal qilish imkoniyatini berdi. Urushning keyingi tafsilotlariga ega emasmiz, lekin Psammetix III tez orada taslim bo'ladi. U Misr fir'avni sifatida bir yildan kam vaqt taxtda o'tirgan.

Endi Kambiz II o'zini Misr fir'avni, "yuqori va quyi Misr shohi Kambiz, Neyt ilohasining mahbubi" kabi nomlar bilan e'lon qiladi. Neyt Quyi Misrning ko'zoynakli ilon tasviridagi ilohasi, uning tasviri Qizil Toj ustida uzoq o'tmishda Misrning birlashish vaqtida paydo bo'lgan. Aftidan, u Amasis jasadini qazib olib, parchalab tashlashni buyurgan, ammo mumiyolash jasadni shunchalik qattiq qilib qo'ygan ediki, Kambiz II uni yoqib yuborishga majbur bo'ladi.

Kambiz II saltanatining g'arbiy chegaralarini tekshirish maqsadida Suriyada bo'lgan. Gerodot fikriga ko'ra, taxti o'g'irlanganligini eshitgan podsho, oti tomon yuguradi, unga minib va qilichini qindan sug'urib olayotganda o'zining sonini jarohatlantiradi. Jarohat jiddiy bo'lgan ekan: uch haftadan so'ng buyuk podsho qorason kasalligidan vafot etadi.

Kambiz II vafotidan so'ng taxtni soxta Bardiya ismli shaxs yetti oy egallab turadi. Mazkur vaqt davomida u boshqalarga ko'rinmaslikka harakat qilgan, Suzadagi saroy hududini hech qachon tark etmaydi va podsho oilasi bilan yaqindan tanish bo'lgan fors zodagonlarini qarorgohga taklif qilmagan.

Uning soxtaligi ma'lum bo'lgach, unga qarshi fitna tayyorlanadi. Fitnachilar qatoriga Otan ismli tajribali askar, Kambiz II xotinlaridan birining otasi, shuningdek, Misr istilosi davomida Kambiz II ning

qurolbardori, Misrga yurishdan so'ng Eronga qaytib kelib va endi noma'lum sababga ko'ra Suzada bo'lgan Doro ham kiradi.

Yettita fors zodagonlari birgalashib, soxta hukmdor va uning katta akasini o'ldirishni tashkil qilishga kelishadilar. Aftidan, Otan suiqasdga boshchilik qilgan, lekin Doro kiyimlari ichida qurollari yashirilgan erkaklar guruhini saroy soqchilari yonidan o'tkazib berishni taklif qiladi; o'zi esa endigina otasi, Parfiya satrapi oldidan podshoga maktub bilan kelganini ovoza qilishi kerak edi.

Yetti kishi podsho xonasi eshigiga yetib kelgunga qadar hammasi reja bo'yicha ketayotgan edi, biroq, podsho haramidagi qullar ularning ichkariga kirishiga qarshilik qiladilar. Shunda fitnachilar qurollari bilan qullarni o'ldiradilar, soxta hukmdor va akasining boshlarini kesib olib, boshqa zodagonlarga o'zini Bardiya deb atagan kishi aslida Kir II ning o'g'li emasligining isboti sifatida namoyish qiladilar.

Natijada tabiiy tanlov sifatida Doro sahnaga chiqadi. U yosh va g'ayratli edi (suiqasd vaqtida uning yoshi o'ttizlarda edi). O'z vaqtida Kambizning vakolatli amaldori, kelib chiqishi Ahmoniyar urug'idan, uning ustiga otasi ixtiyorida saltanat askarlarining katta qismi bo'lgan. Mil. avv. 522 yilda suiqasdchilarning oltitasi tomonidan Doro I Eron podshosi deb e'lon qilindi va saltanatdagi mavjud kelishmovchiliklarga barham bera boshladi. Shu orada bir nechta poytaxtdan olisdagi hududlar isyonni rejalashtira boshladilar.

Doro I shu zahotiyoyq o'zining yangi imperiyasi xavfsizligini himoya qilish maqsadida urushga jo'naydi. "Behistun yozuvlari (bitiklari)"ga ko'ra, isyon shimolda bobilliklar, skiflar, Sharqda midiyaliklar va hatto Parfiyada ko'tarilgan, u yerda Doro I ning otasi qo'shinlar ustidan nazoratni yo'qotgan. Butun saltanat bo'yicha to'satdan katta va kichik, uyushmagan isyonlar boshlanib ketadi.

Lekin hukmdor g'oyat qisqa vaqt ichida ajralib chiqqan hududlarni saltanatga qaytardi. Doro I hammasini kuch hal qiladigan vaziyatga tushganda, u mislsiz muvaffaqiyatlarni namoyish etardi. Uning isyonchi o'lkalarni shafqatsizlik bilan jazolashi Behistun qoyatosh yozuvlarida o'z aksini topgan. Chunonchi, Marg'iyonada Frada boshchiligidagi qo'zg'olon va Skunxa rahbarligidagi saklar qo'zg'oloni ham tilga olinadi.

Kambiz II armiyasi turli xalqlar va etnoslardan tarkib topgan edi. Bunday armiyada aksariyat askarlar odatda "bir marta foydalaniladigan" bo'lib, jangda son jihatdan ustunlik yo'li bilan

g'alabaga erishar edi. Bu strategiya Kambiz II ga o'sha paytdagi dushmanlarining tajribasizligi tufayli foyda berar edi, lekin skif qabilalariga qarshi jangda unga umuman yordam bermagan.

Doro I o'z qo'shinini boshqacha tasavvur qilgan. Ko'p sonli yollanma askarlar o'rniga, u doimiy harbiy qo'shin yaratishni o'ylab qo'ygan edi. Bunday qo'shinning soni kamroq bo'lsa ham, oziq-ovqat bilan yaxshi ta'minlangan, harbiy mashqlarni o'rgangan va sodiq bo'lishi kerak edi. Uning asosini o'n ming harbiy piyodalar va o'n ming suvoriylar (barchasi – faqat forslar va midiyaliklardan saralab olingan) tashkil qilishi va avvalgi ulkan hamda boshqarilishi juda qiyin bo'lgan qo'shinlarga qaraganda epchil bo'lishi lozim edi. "Mening boshqaruvim ostida bo'lgan forslar va midiyaliklardan tashkil topgan qo'shin katta bo'lmagan", - deb yozadi Doro I Behistun qoya toshida. Qo'shin tarkibidagi askarlar milliy his-tuyg'u va ruhiyat vositasida bir-biri bilan bog'langan ediki, o'n ming piyoda askar o'zlarini o'rtoqlar deb atashar hamda ular qatoriga yangi odamlar qo'shilishini o'kinch bilan kuzatar edilar.

Birinchi navbatda podsho chegaralari oldingi davlatlar sarhadlariga har doim ham to'g'ri kelavermagan mamlakatni satrapliklarga bo'lib chiqib, ma'muriy islohotni amalga oshirdi. In'omlar tortiq qilish tizimi bilan qanoatlanmagan Doro I har bir satraplikdan olinishi kerak bo'lgan doimiy soliq miqdorini o'rnatdi. Eng badavlat satrapliklardan yiliga o'nlab tonna kumush olgan. Satrapliklar ko'pincha ajralib chiqishga harakat qilishi mumkin bo'lgan mahalliy elita vakillari emas, balki forslar, ko'p hollarda esa Eron podshosining qarindoshlari boshchiligi ostida bo'lgan. Bunda satrap faqat fuqaroviy ishlarda hokimiyatga ega bo'lib, u yoki bu satraplik lashkarlari unga emas, balki podsho lashkarboshisiga bo'ysungan. Lashkarlarni idora qilmaganligi sababli satrap isyon ko'tara olmagan. Satraplikdagi podsho lashkarboshisi esa ma'muriy hokimiyatga ega emas edi. Satrap va lashkarboshi o'rtasidagi raqobat markaziy hokimiyat tomonidan kuchaytirilardi, chunki ularning bir-birining ustidan qilgan shikoyatlari rag'batlantirilgan.

Qadimgi imperiyalarda aloqa tizimining mukammal bo'lmaganligi sababli imperiyalarni boshqarishda katta muammolar yuzaga kelgan. Agar davlat chegaralari poytaxtdan minglab kilometr uzoqda joylashgan taqdirda, axborotning yetib borishi odatda oylarga cho'zilgan. Unga qilingan har qanday javob befoyda bo'lgan, chunki

uni olish vaqtiga kelib uzoq satraplikdagi vaziyat, tubdan o'zgarib bo'lar edi. Doro I davrida eng yirik shaharlarni: Sard, Bobil, Suza va Ekbatanni (hozirgi Hamadon) biri-biri bilan bog'lagan noyob katta qatnov yo'llar tizimi yaratilgan. Podshoga axborot va uning farmonlarini tezkor yetkazib berish maqsadida maktublarni maxsus pochta xizmati olib kelgan.

Doro I boshchiligidagi bir guruh lashkarlar Bobildagi isyonni bostirayotgan vaqtda ushbu yangi qo'shin bo'linmalaridan biri Sharqda, Midiyadagi isyonga barham beradi va yana bir harbiy bo'linma shu maqsadlarda Kichik Osiyoga yuborilgan edi. Uncha katta bo'lmagan, ildam, yaxshi o'rgatilgan qo'shin samarador edi. Bir yildan bir oz ko'proq vaqt davomida isyonlarga barham berildi. Behistun qoya tosh bitigida u oyog'i bilan yerda cho'zilib yotgan taxtga da'vogar, soxta Bardiya ko'kragini bosib olgan va oldida oyoq-qo'li bog'langan Bobil, Skifiya, Midiya va yana oltita hudud podsholariga mag'rur qarab turibdi.

Doro I iste'dodli sarkarda bo'lganidek, iste'dodli davlat arbobi ham edi. U satrapliklar deb nomlangan viloyatlar tizimini yaratib, tiklangan imperiyani qayta tashkil qila oldi. Ular satrap tomonidan boshqarilgan, har yili Suzaga jo'natilishi kerak bo'lgan soliqlarni to'lagan. Belgilangan miqdordagi soliqni yubormagan yoki o'z hududini tartibga sola olmagan satraplar qatl qilingan. Podsho Doro I ning ushbu boshqaruv tizimi yaxshi amal qilgan, istilo qilingan xalqlarni dahshatga solishni podsho o'z satraplariga yuklagan.

Endi o'zini tiklab olgan Ahamoniylar davlati tashqi dushmanlaridan biri bo'lmish ko'chmanchi chorvador skiflarga qarshi chiqadi. Ikki yuz yildan ortiq bepoyon hududda ko'chib yurgan skiflar, qabilaviy ittifoqlar va podsholiklar yig'indisidan tashkil topgan edi. Mil. avv. 516-yilda skiflarga tegishli yerlarining markazi Qora dengizga quyiladigan ikki buyuk daryo – g'arbda Dunay va Sharqda Don - oralig'ida joylashgan edi.

Bu skiflar Ossuriya yozuvlarida ilk bor qayd qilingan mil. avv. 700-yilga qadar ko'chmanchi chorvador bo'lgan va mil. avv. 516-yilda ham hali o'troq bo'lib yashamas edilar.

Mil. avv. 516-yilga kelib Doro I skiflarga qarshi yurishni rejalashtira boshlaydi. U Kichik Osiyodagi Sard shahrini saltanatining ikkinchi ma'muriy markazi qilib qo'yadi. Ko'p o'tmay Suzadan, Sard shahrigacha muhim strategik "Shoh yo'li" ni qurdiradi. So'ngra

Frakiya orqali Skiflarga qarshi yurish qiladi. Ammo bu harbiy yurish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Fors qo'shini ortga chekinadi va Frakiyani bo'ysundiradi. Keyinchalik mil. avv. 490-yili Doro I, Afina davlatiga qarshi harbiy ekspeditsiya uyushtiradi. Lekin mashhur Marofon jangida afmaliklar fors qo'shinini mag'lub etadilar.

Mil. avv. 486-yilda Misrda forslarga qarshi xalq qo'zg'oloni avj olgan paytda Doro I vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Kserks(mil. avv. 486-465-yy) chiqadi. U Misr va Mesopotamiyadagi isyonlarni bostiradi va mamlakat yaxlitligini saqlab qoladi. Mil. avv. 480-yilda yunon-fors urushlarini boshlaydi. Garchand forslar Yunonistonning katta qismini talon-taroj qilsada, ammo Afina va Sparta dalatlari boshchiligidagi yunon polislari qarshiligini sindira olmay mag'lubiyatga uchraydi. Mil. avv. 465-yilda Kserks fitnachilar tomonidan o'ldirilib, taxtga uning o'g'li Artakserks I (mil. avv. 465-424-yy.) keladi. U yunon polislari bilan urushni davom ettiradi. Mil. avv. 460-yilda Misrda forslarga qarshi yana qo'zg'olon ko'tariladi. Bu qo'zg'olon mil. avv. 464-yildagina Artakserks I tomonidan bostiriladi. Isyonchilar rahbari Inar asir tushib, Eronda qatl qilinadi. Artaksers I mil. avv. 449-yili Suzada yunonlar bilan tinchlik sulhini (Kalliy sulhi)tuzishga majbur bo'ladi. Unga ko'ra, Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlari va Egey dengizida joylashgan orollar ozod bo'ladi. Shu bilan birga forslar Egey dengizida harbiy flot ushlash huquqidan mahrum bo'ladilar. Natijada uzoq davom etgan yunon-fors urushiga yakun yasaladi. Mil. avv. 424-yilda podsho Artakserks I vafotidan so'ng Ahamoniylar davlati kuchsizlanadi va imperiyada toj-u taxt uchun o'zaro urushlar bo'lib o'tadi. Bu kurash mil. avv. 401-yilda Artakserks II ning g'alabasi bilan yakunlanadi. Taxtga da'vogar Kichik Osiyo viloyatlaridan birining satrapi Kir III (ayrim manbalarda Kir kichkina) mag'lubiyatga uchraydi va o'ldiriladi. U tomonida jang qilgan yunon yollanma askarlar boshliqlari hiyla yordamida qo'lga olinib qatil etiladilar. Biroq yunon yollanma askarlari o'z vatanlariga qaytib ketishga muvaffaq bo'ladilar.

Podsho Artakserks II davrida Ahamoniylar davlati kuchsizlanadi va mamlakat iqtisodiy va siyosiy tushkunlikni boshdan kechiradi. So'ngra Artakserks III taxtga keladi. Uning davrida Finikiyaning Sidon shahridagi qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi. Mil. avv. 343-yilda Misrga yurish qilinib, bu mamlakat Ahamoniylar imperiyasiga qayta bo'ysundiriladi. Artakserks III davrida Eron o'z

qudratini nisbatan tiklashga erishadi. Ammo mil. avv. 336-yilda Artakserks III ham o'ldirilib, taxtga Doro III (mil. avv. 336-330-yy) chiqadi. So'ngra Eron davlati, yosh Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinadi. Shu tariqa ikki asrdan ko'roq yashagan Ahamoniylar davlati tugatiladi.

Qadimgi Eron xalqlarining madaniyatini o'rganishda yozma manbalarning o'rni muhimdir. Chunki Eronda ham dunyoning eng qadimgi madaniyat o'choqlari qoldiqlari bizga qadar yetib kelgan. Eron xalqlarining qadimgi madaniyati, ko'hna Sharq xalqlari madaniyatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Zardushtiylikning muqqaddas kitobi "Avesto"da Eron hududlarida Ahamoniylar davrigacha davlat tuzimi bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu qabilaviy ittifoqlar shaklidagi davlatlar harbiy demokratiya asosida tashkil topgan edi.

Eronda qadimdan zartushtiylik xudolari Ahuramazda (oliy xudo), Axriman (yovuzlik xudosi), Mitra (quyosh xudosi), Anahita (suv va hosildorlik ilohasi) va boshqa ilohlarga sig'inilgan. Fors podsholari zardushtiylikning afzalligini tan olib, rasmiy din sifatida qabul qilgan bo'lsalarda, Ahamoniylar imperiyasida mavjud bo'lgan boshqa xudolardan voz kechilmagan.

Ahamoniylar Mesopotamiyaning qadimiy mixxat yozuvini o'zlashtirib oladilar. Shu bilan birga joylarda imperiya tarkibidagi xalqlar yozuvini ham ishlatganlar.

1755-1761-yillarda Fransuz olimi Anketil Dyuperron Hindistonning Guhlorot viloyatida Eron zardushtiylarining avlodlari - forslarning urf-odatları va diniy marosimlari bilan tanishib chiqdi. Ulardan Avestoning ayrim duolarini ko'chirib, diniy ahkomlarni o'qishga muayassar bo'ldi.

Ahamoniylar madaniyati, ko'p hollarda sun'iy ravishda turli-tuman qismlardan tarkib topgan, ulkan va murakkab organizm edi. Uning rasmiy san'ati ham ko'p millatli madaniyatni o'zida mujassamlashtirgan. Eron arxitekturasi va haykaltaroshligida Old Osiyoning yemirilgan saltanatlari, avvalo Ossuriyaning, tajribasi o'zlashtirilganligi yaqqol ko'rinib turadi. Suza va Persepoldagi serhasham saroylarining qurilishida saltanatning barcha viloyatlaridan olib kelingan eng yaxshi ustalar ishlagan. Bu yerda Eron, Yunon, Misr, Bobil arxitekturasi qorishib ketganini ko'rishimiz mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Erondagi ilk sivilizatsiya manzilgohlari haqida ma'lumot bering?
2. Ahamoniylar davlati ichki siyosati haqida nimalarni bilasiz?
3. Ahamoniylar davlati ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyati nimada?
4. Qadimgi forslar etnik kelib chiqishi jihatidan kimlar edi?
5. Ahmoniylar saltanati hukmronligi davri haqida nimalarni bilasiz?
6. Persopol shahri qachon qurilgan?
7. Avesto qachon paydo bo'lgan?
8. Qadimda forslar davlat ishlarida qanday yozuvdan foydalanishgan.

Glossariy

Ahuramazda	Zardushtiylikda ezgulik xudosi
Satrap	Ahamoniylar davlatida viloyat hokimi
Doroiy	Ahamoniylar podshosi Doro I zarb etgan tanga
Fors	Qadimgi Erondagi o'lkani nomi
Mitra	Zardushtiylikda quyosh xudosi
Saklar(Skif)	Sharqiy eron tilida so'zlashuvchi xalqlardan biri
Midiya	Shimoli-g'arbiy Erondagi qadimiy davlat

Mavzu: Qadimgi Hindiston

Reja:

1. Qadimgi Hind sivilizatsiyasining yuzaga kelishi.
2. Vedalar davri.
3. Kshatriylar davlatlarining shakllanishi. Buddaviylik davrida Hindiston.
4. Kushonlar imperiyasi.

Qadimgi Hind sivilizatsiyasining yuzaga kelishi. Mil. avv. III–II ming yillikda Gang vodiysida dastlabki manzilgohlar qoldiqlari topilgan. U yerda istiqomat qilgan aholi asosan ov va baliq ovlash kabi mashg'ulotlar ustuvor bo'lgan ibtidoiy xo'jalik sharoitida

yashagan bo'lsalarda, misdan mehnat quroli sifatida foydalanishni bilganlar. Keyinchalik esa dehqonchilikni o'zlashtirganlar.

Hind daryosi havzasida ilk aholi maskanlari madaniy qoldiqlari topilgan edi. Uning eng kattasi Xarappa madaniyati hisoblanadi. Xarappa bilan bir qatara xuddi shunday ahamiyatga ega bo'lgan Mohenjo-Daro ("marhumlar tepaligi") manzilgohi ham e'tiborga loyiq. Tez orada Moxenjo-Daro va Xarappa yirik shaharga aylanib boradi. Ikkala qadimgi shahardagi uylar har xil shakl va kattalikdagi pishiq g'ishtdan qurilgan. Uylar bir-biri bilan zich tutashgan bo'lib, ko'p hollarda ikki qavatli bo'lgan. Mohenjo-Daro va Xarappaning aholisini kelib chiqishi hamda qaysi tilda so'zlashganliklari masalasi hozirga qadar munozarali bo'lib kelmoqda. Ammo g'arb olimlarining fikricha bu yerda negroid yoki dravid irqiga mansub odamlar yashaganligi ta'kidlanadi.

Ushbu shahar-davlatlar tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'lingan: qal'a (sitadel) quyi shaharning turar joy dahalaridan baland bo'lib, alohida ajralib turgan. Mohenjo-Daro va Xarappa xalqi dehqonchilik, chorvachilik hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Bu yerda jamoat imoratlar va katta don ombori ham mavjud edi. Shaharning tuzilishi keng, bir-biri bilan to'g'ri burchak bilan kesishuvchi daha va ko'chalarga ajratilgan. Shu bilan birga metalga ishlov berishni ham bilishgan. Topilgan muhrlarda yozuv shakllari saqlanib qolgan. Bularning hammasi Xarappa madaniyatini ibtidoiy madaniyatlarga emas, balki sivilizatsiya davriga tegishli deb hisoblash imkonini beradi. Bu shaharlarni alohida hokimlar boshqargan chunki Mohenjo-Darodan topilgan soqolli kishini haykali, uning bosh kiyimi va yelkasida boy bezakli keng ustiboshi borligi hamda muhrlarda hukmdor suratining mavjudligi mulkiy tabaqalanish bo'lganligidan dalolat beradi. Shaharda askarlar turar joyi, xizmatkorlar uchun mo'ljallangan xonalarga o'xshash qator imoratlar bor edi.

Ma'lum bir vaqt Xarappa va Mohenjo-Daro mazkur madaniyatning ikkitagina shahri hisoblanib kelingan. Biroq hozirgi vaqtda Xarappa madaniyatiga tegishli yetmishdan ortiq shaharlari aniqlangan. Ular Hind daryosining etagidan shimoliy irmoqlarigacha hamda Sutkagen-Dordan Sharqroqda joylashgan o'lkadan Narmada daryosigacha deyarli uzluksiz zanjir singari joylashgan. Xarappa madaniyati daryo bo'ylab taxminan yarim million kvadrat milyani egallagan.

Yirik shaharlar atrofida joylashgan omborxonalar taxminan o'ttiz ming odamning kun kechirishiga yetar edi. Bu shaharlarda yashagan odamlar gigiyenaga katta ahamiyat berganlar. Ko'chalar suv yetkazib berish va oqova suvlarni chiqarish tizimiga ega bo'lgan. Uylar odatda katta cho'milish hovuzlari bilan ta'minlangan, ularning atrofida esa kiyim almashtirishga mo'ljallangan kichik xonachalar bo'lgan. Xarappa aholisiga xos bo'lgan tozalikka intilish diniy odatlarga bog'liq bo'lgan bo'lishi mumkin.

Juda katta hududda joylashgan Xarappa shaharlari hayron qolarli darajada bir-biriga o'xshashdir. Ular go'yoki yagona reja asosida qurilgan bo'lib, qal'a (sitadel) turar joy daxalaridan ajratilgan va ularga nisbatan g'arb tomonda joylashgan. Ko'chalar aniq to'g'ri shimoldan janubga yoki g'arbdan Sharqqa yo'naltirilib qurilgan.

Xarappaning madaniyati asosan ko'p sonli qisqa ieroglifik yozuv, tasvirli tosh tamg'alar yoki ularning loyga tushirilgan nusxalari topilmalari tufayli bizgacha etib kelgan. Relyeflarda nafis ishlangan bo'rtma naqshlarda muqaddas hayvonlar va daraxtlarga sajda qilish manzaralari, shuningdek mifologik syujetlar o'z aksini topgan.

Mil. avv. 1750 va 1700-yillar oralig'ida Mohenjo-Daro aholisi o'z uylarini tashlab keta boshlaydi. Arxeologik qazish ishlari davomida ko'chalarda ko'milmagan holatda yotgan inson suyaklari topilgan. Butun bir oila o'z xonadonida o'ldirilgan va yerga ko'milmasdan tashlab ketilgan. U yoki bu yerda yonib, qulab tushgan uylar qoldiqlari uchraydi. Qochib ketayotgan aholi qimmatbaho buyumlarini (uy-ro'zg'or anjomlari, zargarlik buyumlari va kumush) shoshilinchda tashlab ketganlar. Xarappaning shimolida ham xuddi shunday ahvol kuzatiladi.

Arxeologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki Xarappa aholisi dushman bostirib kelishi natijasida qirilib ketmagan. Xarobalarda topilgan qurollar, shuningdek muntazam ravishda uylarning buzilganligi, shahar mudofaa istehkomlari atrofida jang va boshqa shunga o'xshash kurash alomatlari topilmagan.

Arxeologik qatlamlarni o'rganish natijasida, Hind daryosi qadimda muntazam ravishda toshgan va o'zidan keyin hosildor tuproqlar qoldirgan, lekin toshqinlarni oldindan bashorat qilib bo'lmadi. Xarappa shaharlarida aniqlangan vayronagarchiliklarni faqat shahar devorlari balandligidagi to'lqin keltirib chiqargan bo'lishi mumkin edi. Hidrolog R. I. Reykening fikricha, Hind daryosi oqimi

bo'ylab Xarappadan yuqoridagi to'g'onlar unumdor loyqani to'sib turishi dalalarda hosildorlikni kamaytirgan. Natijada ocharchilik yuzaga kelgan so'ngra yig'ilib qolgan suv to'g'onni yorib o'tib shaharni suv bosgan. Biroq Xarappaning ikkita yirik shaharlaridagi madaniy qatlamlarni o'rganilishi, biron-bir toshqin bo'lgani haqida guvohlik beradi.

Shunisi aniqki ushbu sivilizatsiyaga qandaydir tabiiy ofat yopirilgan, buning oqibatida u tanazzulga yuz tutgan. Aholi anchagina qisqargan, lekin shunga qaramasdan shaharlar butunlay huvillab qolmagan. Odamlarning bir qismi shaharda qolgan, yana bir qismi shahar atrofidagi qishloqlarda yashaganlar. Xarappa ustida yotgan madaniy qatlamlarni qazish chog'ida bu yerning aholisi turmush sharoiti past darajada bo'lganligini ko'rsatdi. Arxeologlar bu qatlamni qo'pol kulolchilik buyumlari ishlab chiqarilgan qishloqqa bag'ishlab Jxukar madaniyati (yoki Xarappadan keyingi) deb nomlaydilar.

"Jxukar madaniyati"ni Xarappa xarobalarida yashab kelgan odamlar tashkil qilgan edi. Mil. avv. 1575-1500-yillargacha shimoliy Hindistonga ko'chmanchilar bostirib kelmaganligi tufayli Xarappa va Mohenjo-Daroda aholi yashashni davom etgan.

Biroq taxminan mil. avv. 1500-yilda shimoldan ko'chmanchi "oriy" qabilalari kirib keladilar. Ular o'sha davrning mukammal qurollari bilan qurollanganlar. Oriylarning otlari, jang aravalari, bronzadan ishlangan boltalari va o'q-yoylari bor edi.

Biroq ular Hind vodiysini darhol zabt etishga kirishmadilar, balki janub va Sharqqa tomon safarga jo'nashdan avval yetti daryo hududida kamida bir asr davomida yashadilar. Ular, Xarappa shaharlari tomon yo'l ochgan vaqtda mahalliy sivilizatsiya yo'q bo'lib ketgan edi. Ehtimol, o'sha vaqtda shu yerda yashagan odamlarning tarqoq guruhlariga ularga qarshilik ko'rsatgan bo'lishi mumkin, ammo ko'chmanchilar uyushgan qarshilikka duch kelmadilar. Ko'chmanchi qabilalar madaniyati nafis va yuqori darajada tashkil qilingan Xarappa sivilizatsiyasini tez o'zlashtira olmadilar. Davlatni boshqarish tajribasiga ham ega emas edilar. Lekin ularga notanish bo'lgan muhitga osonlik bilan moslashdilar.

Vedalar davri. Hidiston tarixini mil. avv. II ming yillik oxiri – I ming yillikning birinchi yarmiga oid davrini "Veda davri" deb ataydilar. Chunki Vedalar ushbu davrni o'rganishning asosiy yozma manbasi hisoblanadi.

Vedalar, oriylarning hind guruhi (hind ariylari) yaratgan muqaddas adabiy yodgorliklaridir. Tili va mifologiyasi bo'yicha ular Avestoga juda yaqin turadi. "Veda" so'zi rus tilidagidek "vedat", ya'ni "bilish" (muqaddas bilim) so'zi bilan bog'liq. Vedalarning to'rt asosiy to'plami va ularga qilingan son-sanoqsiz sharhlar matnlari saqlanib qolgan. Vedaning asosiy mazmuni diniy marosimlar bilan bog'liq edi. Sharhlar esa keyingi davrlarda Vedalarga asoslangan adabiyotlar tarkibini tashkil qiladi.

Vedalarning eng qadimgisi – Rigveda (asl ma'nosi "madhiyalar vedasi") oriylar xudolariga bag'ishlangan madhlardan tarkib topgan. Uning asosiy qahramoni – Indra xudosi hisoblanadi. U momaqaldiroq singari quroli – "vajra" bilan, shaklsiz va dahshatli samoviy suvlarni (bu suvlar sigirlar podasiga qiyoslangan) ushlab turadigan yovuzlik timsoli Vritrani sanchib nobud qiladi. Indra g'alabasidan so'ng suvlar shiddat bilan oqadi va sigirlar suvloqlar tomon yuguradi. Koinotdagi tartibsizlik o'rmini samoviy tartib egallaydi. Shu kabi afsonalar oriylar jamiyatining dastlabki diniy tasavurlari haqida ma'lumot beradi.

Qadimiy veda adabiyoti, oriylar yarim ko'chmanchi tarzda turmush kechirganligini ta'kidlaydi. Ularning asosiy mashg'uloti yirik qoramol boqish va yaylovlarda o't-o'lan kamayguniga qadar bir yerdan boshqa joyga ko'chib yurishgan iboratligi aytib o'tiladi. Oriylarning ijtimoiy munosabatlari patriarxal urf-odatlariga qurilgan edi. Xarappa aholisi madaniyatidan farqli o'laroq hindoriylar xudolarining aksariyati erkaklar timsolida gavdalangan. Chunonchi Rigveda madhiyalarida xudolarning alohida odamga xos jihatlari o'z aksini topgan. Ammo bular sof she'riyatga xos obrazlardir ("Indraning baquvvat qo'llari", "quyoshli xudoning tillo sochlari"). Hind-oriylarning xudolari deyarli mavhum tarzda idrok etilgan. Ular olov mehrobida qurbonliklar qilib, xudolar o'tga tashlangan go'sht, yog', sut, arpa yoki bo'g'doy urug'lari hidiga to'yinadilar deb ishonganlar.

Rigvedada ikki ijtimoiy toifa alohida o'rin egallaydi. Birinchisi – "rishi"lar (bashoratchilar) bo'lib, ular diniy marosimlarda alohida o'ringa ega bo'lganlar. Ikkinchi toifaga qabilalar boshliqlari yoki sardorlar kirgan. Ular chorva podalarini, sermaysa yaylovlar uchun yuzaga keladigan harbiy to'qnashuvlarda qabiladoshlariga bosh bo'lganlar. Ammo yakka hukmdor emas edilar.

"Rigvedaning" keyingi nusxalari paydo bo'lishi davriga kelib, oriylarning koinat xudolari bilan muloqot qiluvchi bo'libgina

qolmay, balki ularning kasbi nasldan naslga o'tadigan sinfiga aylanadi. Kohinlarning o'g'illari kohin bo'ladilar va boshqa kohinlar qizlariga uylanadilar. "Rigveda"ni kohinlar o'zib qoldirgani uchun ular aslzodalar hisoblangan.

Hind-oriylar Varuna – osmon xudosi, Ratri – tun ruhi, Agni – olov xudosi; Parjana – "daraxtlarni sindiruvchi" hamda sigirlar, otlar va odamlarga suv quyuvchi yomg'ir xudosi va Indra quyosh xudosisiga sig'inganlar.

Hind-oriy jamiyatida ("kasta" yoki "varna") braxmanlar bir qator ustunliklarga ega bo'lgan. Unga hech kim zulm o'tkazmasligi, tahqirlashi va unga jismoniy jazo berilishi mumkin emas edi. Aks holda qilingan qurbonlik befoyda bo'ladi, xudolar uni qabul qilmaydilar deb ishonganlar. Bundan tashqari, braxmanni xafa qilish xavfli hisoblangan. Braxmanlar bilimlari avloddan avlodga o'tgan. Olim braxman atrofida doim shogirdlari bo'lgan, ular balog'atga yetguncha uning uyida yashayganlar, ustoziga xizmat qilganlar va undan ilm olganlar.

Braxmanlardan keyingi ikkinchi toifani "kshatriy"lar tashkil qilgan. Ular qabila sardorlaridan chiqqan harbiylar sinfi (zodagonlar) edi. Uchinchi tabaqaga qabila jamoasining to'la huquqli vakillari "vayshiy"lar kirgan. Ular chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan ozod kishilar edi.

Yuqorida keltirilgan uch tabaqa vedalar bilan bog'liq diniy marosimlarda ishtirok etish va veda matnlarini o'qish huquqiga ega bo'lganlar. Ular "ikkinchi marta tug'ilgan"lar sinfiga kirgan.

Aksincha, to'rtinchi tabaqa vakillari "shudra"lar hech qanday vaziyatda "ikkinchi marta tug'ilish" marosimidan o'tishi va veda marosimida ishtirok etishi mumkin emas edi. Barcha begonalar va to'la huquqli bo'lmaganlar shudra hisoblangan.

Hindistonda tabaqa-kasta tuzumi "karma" (hayot davomida qilingan ishlar, xatti-harakatlar, qilmishlar) ta'limotiga bog'liq bo'lgan. O'sha davrda mavjud bo'lgan tasavvurlarga ko'ra, tirik jon o'limidan so'ng butunlay yo'q bo'lib ketmasdan, qayta tug'iladi va oldingi hayoti davomida qilgan ishlariga muvofiq ravishda yangi ko'rinishga ega bo'ladi. Yaxshiroq ko'rinishda qayta tug'ilishga sazovor bo'lgan hayvon, odam bo'lib tug'ilishi mumkin, shudra esa braxman, braxman esa xudo (xudolar ham tirik mavjudotlarning bir

turi, shuning uchun ular ham karma qonuniga bo'ysunadilar deb ishonganlar) sifatida tug'ilishi mumkin edi.

Tirik mavjudotlar guruhlarining har biri - jati (asl ma'nosi – "tug'ilish") hisoblangan. Chorva jatisi (zotlari), o'simliklar jatisi (turlari), odamlar jatisi (kasta va varnalar) mavjud deb ishonishgan. Hindlar uchun kastani o'zgartirish masalasi, xuddi qo'ying filga aylanishi masalasi singari bema'ni hisoblangan. Kastadan tashqaridagi nikohlar dastlab mumkin bo'lmagan. Shu tariqa hind-oriy jamiyati shakllanib borgan.

Kshatriylar davlatlarining shakllanishi. Buddaviylik davrida Hindiston. Ko'chmanchi oriyalarning urug'-aymoqlari o'zlarini "jana" (sanskritchada "qabila") deb nomlaganlar. Gang daryosi vodiysiga ko'chib borib o'rnamashgach, ular bu yerlarni bosib olishgan. So'ngra o'zlarini "janapada", ya'ni "mahalliy qabilalar" deb nomlay boshladilar. O'n oltita maxajanapada (yoki "buyuk janapada") qabilaviy ittifoqlari yuzaga kelgan edi. Tez orada boshqa qabilalarni o'zlariga bo'ysundirganlar va ular bilan aralashib ketadilar. Keyinchalik harbiy demokratiyadan uzoqlashish yuzaga kelib, davlatlar paydo bo'la boshlaydi. Ushbu podsholiklarda hukmdor va uning qarindoshlari hamda jangchilari yuqori tabaqa hisoblanib kelgan. Hukmron urug'da tug'ilgan kishi "kshatriy" hisoblangan va u zodagolardan qatlamiga mansubligi e'tirof etilgan. Shunday bo'lsa-da braxmanlar o'z mavqeyini saqlab qolganlar. Hokimiyatni qonuniylashtirishda braxmanlar muhim ahamiyatga ega edilar.

Mil. avv. VI asrlarda Shimoliy Hindiston hududida yigirmadan ortiq kichik davlatlar yuzaga keladi. Ushbu davlatlarning boshida kshatriylar kastasiga tegishli mahalliy podshohlar turar edi. Ammo mutaxasislarning fikricha ayrim podsholiklardagi sulolalar oriyalardan bo'lmagan. Shunday bo'lsa-da tashkil topgan eng yirik davlatlarga Kashala, Magatxa, Gandxar, Malla, Anga, SHaxya, Panchala va boshqalar misol bo'la oladi. Yuqorida ta'kidlangan davlatlar o'rtasida doimiy o'zaro urushlar bo'lib o'tgan. Ular butun Hindistonda hukmronlik qilishga intilganlar.

Mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida mamlakatda avvalgi dinlardan farq qilgan qator diniy oqimlar paydo bo'ladi. Ulardan asosiysi buddaviylik edi. Rivoyatlarga ko'ra unga Siddxartxa Gautama ismli shahzoda asos solgan edi. Tez orada uning ta'limoti butun Hindistonga tarqalib ketadi. Buddaviylarning fikri to'rt asosiy

haqiqatga suyanadi. Ya'ni dunyo azob-uqubatdan iborat, uning sababi esa insonlarning nafs va xohishlari deb ta'kidlangan. Azobdan qutulish uchun odamlar o'z nafslarini tiyishlari kerak edi. Bu yo'lda insonlar Budda aytib o'tgan qoidalarga rioya qilishlari lozim deb bo'lgan. Buddaviylik insonlarni ilm va ma'naviy komillikka chorlovchi dinga aylanib borgan.

Mil. avv. V–III asrlar Hindiston tarixida Magadha-Mauriya davri deb nomlanadi. Magadha qabilaviy ittifoqi tez orada kuchli qo'shinga ega bo'lgan markazlashgan davlatlardan biriga aylanadi. U hozirgi Bixar shtati hududini egallagan edi. Mil. avv. IV asrga kelib boshqa podsholiklar bilan qonli kurashdan so'ng ustunlikka erishadi va Gang vodiysida o'z hokimiyati o'rnatadi.

Hind afsonalarida Magadha podsholari hasis va shafqatsiz qilib ko'rsatilgan. Shuningdek ularning lashkarlari soni juda ko'pligi alohida ta'kidlanadi. Magadha podsholarining harbiy kuchlari maosh oladigan (yollanma) qo'shin bo'lgan. Ularni ta'minlay uchun bo'ysundirilgan hududlar aholisidan doimiy o'lpon olingan.

Gang daryosi havzasidagi davlatlar Magadha hukmronligi ostida birlashish jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda, mil. avv. 327-yilda Hindistonning shimoli-g'arbidan Aleksandr Makedonskiy (Sharqdagi ismi Iskandar) qo'shinlari mamlakatga kirib keldilar. Mahalliy davlatlarning bir qismi yunon-makedon askarlariga qarshi kurash olib boradilar, ayrim podsholiklar esa ularga bo'ysunadi. Masalan, Panjobdagi mahalliy podsholardan biri Por o'zining 30 ming piyoda, 4 ming otliq, 3 ming jang arava va 200 ga yaqin fillardan iborat qo'shini bilan Aleksandr Makedonskiyga qarshi jang qilgan. Ammo yunon-makedon qo'shinlaridan yengiladi. Aleksandr Makedonskiy uning mardligiga tan berib, podsholigini o'ziga qaytarib beradi. Mil. avv. 325-yilga kelib yunon-makedon qo'shinlari ayrim garnizonlarni Hindistonda qoldirib, mamlakatni tark etadilar.

Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng (mil. avv. 323-yilda) bosqinchilarga qarshi harakatga Magadhadan kelib chiqqan Chandragupta Maurya boshchilik qiladi. Mil. avv. 317-yilda Makedoniya qo'shinlarining oxirgi garnizonlari Hindistondan jo'nab ketadilar. Chandragupta ichki urushlarda Magadha hukmdori ustidan g'alaba qozonadi va uning poytaxti Pataliputrada (hozirgi Patna) taxtga o'tiradi. Shu tariqa Mauriya sulolasiga asos solinadi, Chandragupta butun Shimoliy Hindistonni o'ziga bo'ysundiradi. Mil.

avv. 305-yili Salavkiylar dalati bilan kurash olib borib, ular bilan sulh tuzadi.

Keyinchalik Chandragupta jaynizm e'tiqodi tarafdori bo'lganligi manbalarda ta'kidlangan. Natijada mil. avv. 297-yilda podsho Chandragupta o'z o'g'li shahzoda Bindusara (mil. avv. 297-272-yy) foydasiga taxtdan voz kechadi. Uning davrida Maurya davlati o'z qudratini saqlab qoladi. Bindusaraning hukmdorligi to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Yunonlar unga Amitrokates ya'ni "dushmanlar qotili" degan istilochilarga beriladigan ism qo'yganlari ma'lum.

Faqatgina Kalinga podsholigi, Maurya davlati hukmronligining janubga tarqalishiga qarshilik qilgan edi. Bindusara vafot etgandan so'ng (taxminan mil. avv. 372-yilda), Kalinga istilo etilmagan edi. Uni bosib olish vazifasi Bindusaraning o'g'li podsho Ashoka zimmasiga tushadi. U yosh yigitlegi chog'ida, otasi uni Taksilaga isyonni bostirish uchun yuboradi. Shundan so'ng beshta "janapada"lardan biriga hokim qilib yuboradi. So'ngra Ashoka taxt uchun aka-ukalari bilan kurashishga majbur bo'ladi va g'alaba qozonadi. O'zaro ichki urushlar to'rt yil davom etganligi manbalarda ta'kidlangan edi. Mil. avv. 260-yilda u qo'shinlarini janubga, qarshilik ko'rsatayotgan Kalingani bosib olishga boshlab boradi. Kalinga zabt etilib, 100 ming kishi qirib tashlanadi va 150 mingga yaqini imperiyaning boshqa joylariga ko'chirib yuboriladi. "Kalinga yozuvi"da Ashoka qilgan ishlaridan qattiq afsuslangani ta'kidlab o'tadi va istilolarni to'xtatadi.

Kalingani bosib olganidan so'ng Ashokaning eng yirik yutug'i diniy va siyosiy sohalaridagi islohatlari e'tiborga loyiqdir. U dhamma tamoyillarini qayta tasdiqlash maqsadida buddaviylik (ayrim manbalarda buddaviylar sabori) yig'ilishi tashkil qiladi. Pataliputra shahrida taxminan mil. avv. 245-yilda o'tkazilgan buddaviylik yig'ilishi Palikanon kitoblaridan birining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Yig'ilishning oxirida Ashokaning o'g'li Maxendra janubiy sohil yaqinida joylashgan orolga (hozirgi Seylon) din targ'ibotchisi sifatida jo'natiladi. Boshqa targ'ibotchilar Ashokaning yordami bilan hattoki Yunonistonga ham yuboriladi.

Mil. avv. 231-yilga kelib Ashoka vafotidan so'ng Maurya davlati tez orada parchalanib ketadi. Ashokaning o'g'illari va nevaralari saltanatda hukmronligini yo'qotadi. Ichki urushlar davlatni kuchsizlantirdi oqibatda tashqi dushmanlar bundan foydalanadi. Mil. avv. III asrning o'rtalaridayoq, Salavkiylar saltanatining parchalanib

ketishidan so'ng, Hindiston chegaralari yaqinida Yunon-Baqtriya podsholigi tashkil topadi. Baqtriyaning yunon hukmdorlari mil. avv. II asrning boshlaridayoq Hindistonni kuchsizlanishidan foydalanib, harbiy yurishlar uyushtiradilar. Mil. avv. II asrning 40-30 yillarida Yunon-Baqtriya davlati kuchsizlanadi va shimoli-sharqdan ko'chmanchi "katta yue-chji" qabilalari kirib keladi. Yunon-Baqtriya bosqichma-bosqich zabt etiladi. Hindistonning shimoli-g'arbida esa yunon-baqtrialik lakarboshilar boshqargan kichik podsholiklar bor edi. Tarixda ularni Yunon-hind davlatlari deb ataydilar. Keyinchalik, milodiy I asrida, Yunon-hind davlatlari yaqinida Hind-saklar va Hind-Parfiya davlatlari paydo bo'la boshlaydi. Hind-Parfiya podsholari orasida eng ko'zga ko'ringani Gondofar (milodiy 21-46-yy) bo'lib, uni davlati shimoliy Hindistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi.

Kushonlar imperiyasi. Mil. avv. II asr o'rtalarida Markaziy Osiyo hududlarida siyosiy vaziyat murakkablashadi. Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoy yerlarida kuchayib borayotgan ko'chmanchi xunlar imperiyasining ta'siri natijasida boshqa chorvador xalqlar o'z yerlaridan g'arbga siljishga majbur bo'ladi. Yoki bo'lmasa ushbu ulkan imperiya tarkibiga kirib ketishi xavfi paydo bo'ldi. Xususan ko'chmanchi yue-chjilar va xunlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bunga misol bo'la oladi.

Taniqli olimlar A. N. Bernshtam, A. M. Xazanov, E. I. Kichanov, N. N. Kradin, A. Asqarov, Y. F. Buryakov, K. Shoniyozev, E. Rtveladze va boshqalarning ilmiy izlanishlarida Markaziy Osiyo ko'chmanchilari va o'troq ziroatkorlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlari o'z aksini topgan.

Xunlar hukmdori shanyuy Mode (yoki Maodun)dan so'ng mil. avv. II asrda yue-chjilarga shanyuy Laoshan oxirgi qaqshatqich zarbani bergach, ular g'arbga O'rta Osiyoga chorvalari bilan ko'chib ketishga majbur bo'ldilar. Usun yerlari (Yettisuv) orqali ikki daryo oralig'i (Oks va Yaksart) hududlariga chiqdilar. Mahalliy ko'chmanchi xalqlar bo'lmish saklarning ayrimlari Baqtriya orqali Parfiyaga o'tib ketishga majbur bo'ldilar, qolganlari esa, yue-chjilar qabilaviy ittifoqi tarkibidan o'z o'rnini topgan. Katta yue-chjilar kelguniga qadar ham ikki daryo oralig'i yerlarini egallash borasida saklar o'rtasida doimiy kurashlar bo'lgan. Misol uchun saklarning bir qismi hisoblanadigan qang'arlar, yue-chjilar kelguniga qadar o'zlariga bo'ysunishni xohlamagan mahalliy ko'chmanchilar (saklarning

boshqa guruhi) assiylar (yoki assian), passianlar, toxarlar va sakaroakalarni Yunon-Baqtriyaga siqib chiqarganlar. Ushbu ko'chmanchilar Baqtriyadagi (Xan davlati solnomalarida Daxya yoki Dasya) markazlashgan ammo kuchsizlanib qolgan yunonlar hokimiyatini tugatganlar. Strabonning ma'lumotiga qaraganda aynan yuqorida aytib o'tilgan nomadlar Yunon-Baqtriya davlatini ag'darib tashlaganlar. Ularning ichida yuechjilar borligi to'g'risida olimlar o'rtasida mulohazali fikrlar bildirilmoqda.

Saklarning katta bir qismi Hindistonning shimoli-g'arbidagi Seyiston viloyatiga borib o'rnamshdilar. Ikki daryo oralig'i (Amudaryo va Sirdaryo) esa siyosiy jihatdan yuechjilar va qang'arlar o'rtasida bo'lib olingan. Ammo iqtisodiy jihatdan ko'chmanchilar o'troq zirotkorlar bilan bir joyda yashay olmaganligi sababli chorvadorlar yaylov va tog' oldi qirlarida qo'shni bo'lib hayot kechirganlar. Amudaryo daryosi qirg'oqlari yerlarida dastlab o'ziga makon tutgan katta yue-chjilar qabilaviy ittifoqi, Baqtriyaga hali to'liq kirib bormagan edilar.

Oldin Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan Yunon-Baqtriyaning shahar va qal'alari ko'chmanchilar nazorati ostiga o'tadi. Misol uchun Dalvarzintepa manzilgohi ko'chmanchilar hukmronligi davrida taraqqiy eta boshladi. Dastlab yunon-baqtriyaliklar hukmronligi yillarida 4 gektarni tashkil qilgan shaharcha mil. avv. I asrlarda yirik siyosiy markazlardan biriga aylangan edi. Bu orada mil. avv. 90-yilga kelib yue-chjilar deyarli butun Baqtriyani bosib olishga erishadilar. Ya'ni Amudaryodan janubda joylashgan kichik yunon knyazliklarini birin ketin bosib oladi. Iqtisodiy jihatdan bir ko'chmanchi oilani boqish uchun taxminan o'rta hisob bilan 100 ta qo'y va echki hamda 15 yoki 25 ta yirik shohli qora mol kerak bo'ladi. Agarda katta yuechjilarning umumiy soni 100000 oilaga yaqin bo'lsa, boqiladigan chorva soni Shimoliy Baqtriyada uzoq tura olmasligi ma'lum bo'ladi. Zero, shimoldagi So'g'd yerlari qang'arlar ta'sirida bo'lganligini hisobga olsak, ular faqatgina saklar talon-taroj qilib o'tgan Baqtriyaning qolgan qismiga kirib borishdan boshqa ilojlari ham yo'q edi.

Ushbu vaziyatdagi Markaziy Osiyodagi siyosiy omilni tahlil qiladigan bo'lsak, butun Baqtriya yunon-baqtriyaliklarning o'zaro urushi va saklarning bosqinidan so'ng oson o'lja bo'lib qolgan. Taniqli olimlar B. Y. Staviskiy, G. A. Pugachenkova va E. V.

Rtveladzelarning bu boradagi fikri turlicha talqin qilingan. Ammo yue-chjilarni besh mustaqqil knyazlikka (Xitoy mabalarida "xi-xou") bo'linishidan oldin deyarli butun Baqtriya egallanib bo'lganligi aytib o'tiladi. Shundan so'ng Baqtriya (Daxya) yerlari Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Xisi va Dumi knyazliklariga bo'linib ketgan. Ko'chmanchilar o'zlaridan keyin kam yozma manbalar qoldirganligi sababli, yuqorida ta'kidlangan knyazliklarni chegaralari borasida aniq ma'lumotlar hozircha yaxshi o'rganilmagan.

Mahalliy va ellin boshqaruv tizimi ko'chmanchi katta yue-chjilar tomonidan tez o'zlashtirildi. Buni biz yozma va numizmatik manbalarda ko'rishimiz mumkin. Ko'chmanchi chorvachilik sekin inqirozga yuz tuta boshladi.

Mil. avv. I asrga kelib aksariyat katta yuechjilar o'troqlashib bo'lgan edi. O'troq ziroatkor yerlardagi aholi bilan aralashuv, jadal rivojlanib borgan. Dasht chorvadorlari harbiy davlatchilik tizimi bevosita saqlab qolingani edi. Arxeologik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, katta yue-chjilar davlat boshqaruvida dastlab, Baqtriya'dagi mahalliy yozuvlardan keng foydalanganlar.

Milodiy I asr boshlarida katta yuechjilarning Guyshuanlar urug'idan bo'lgan hukmdori (yabg'u) Kudzula Kadfiz Baqtriya'ni birlashtirishga erishadi. Yue-chjilarning 5 ta knyazligini birlashtiradi, so'ngra Ansi (Parfiya) bilan urush boshlab, Hindikush janubidagi Pudu (Kashmir)ni bosib oladi va Gibon (Qobul viloyati) yerlarini ham egallaydi. Bularning barchasiga Baqtriya, iqtisodiy va siyosiy platsdarm bo'lib xizmat qilgan edi. Kudzula Kadfiz Kushonlar davlatini imperiyaga aylantirishda dastlabki qadamni qo'yib berdi. Rabotak sulolaviy ro'yxatga ko'ra undan so'ng taxtga kelgan Vima Takto "noma'lum podsho" yunoncha Soter Megas nomi ostida podsholik qilgan. Soter Megas olimlarning fikricha uzoq hukmronlik qilmagan bo'lsa-da uning nomidan tangalar zarb etilgani ma'lum. Ammo hukmronlik qilgan yillari borasida olimlar orasida munozarali fikrlar ko'p uchramoqda.

Milodiy I asr o'rtalarida Vima Taktodan keyin hokimiyatga kelgan Vima Kadfiz Hindistonning Markaziy qismlariga qadar imperiya'ni kengaytirdi. Uning davrida pul islohoti o'tkazildi hamda oltin tangalar keng muomilaga kiritila boshladi. Oltin tangalarning aksariyati aholi zich bo'lgan Hindistonda keng tarqaldi. Matxura va Taksilla shaharlari Kushonlar ta'siriga tushgan o'z rivojlanishining

yangi bosqichiga chiqadi va iqtisodiy jihatdan yuksaladi. Vima Kadfizdan keyin, milodiy 78-yil hokimiyatga kelgan Kanishka I davriga kelib, mamlakat siyosiy markazi Hindikushdan janubga Hindistonga siljiy boshladi. Chunki Buyuk ipak yo'li savdosining muhim qismi sifatida Shimoliy va Markaziy Hindistonning e'tibori oshgan edi. Hindistonda aholi ko'p bo'lganligi tufayli iste'mol bozori katta edi. Kushonlar Kanishka I (taxminan milodiy 78-123-yy) hukmronligi yillarida yunonlar alifbosi asosida davlat ishlarini yuritishni cheklay oldilar. Kushonlarning alohida yozuvi paydo bo'lsa-da imperiyaning hududlarida aholi o'z yozuvini ishlataverganlar. Kanishka I buddaviylarning soborini Ashokadan keyin yig'gan hukmdorlaridan biri bo'ldi. Uni podsholigi davrida, buddaviylikning maxayana (katta g'ildirak) yo'nalishi yanada rivoj topishi uchun keng imkoniyat yaratildi. Buddizm davlat diniga aylanib boradi. Ammo Kushonlar imperiyasida mahalliy dinlarga tolerantlik va diniy bag'rikenglik imkoniyatlari yaratilgan edi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Eski Termiz, Qoratepa, Dalvarzintepa va Ayrطوم manzilgohlaridan topilgan topilmalar, Baqtriyada zardushtiylikning o'rni yuqori bo'lganligini ko'rsatdi.

Kushonlar Hindistondagi qaram knyazliklar (rojaliklar) ichki ishlariga kam aralashganligi tarixdan ma'lum. Kushonlar tayinlagan kshatraplar (hokimlar) markaziy hokimiyatga nomiga bo'ysunib ichki ishlarda mustaqil bo'lganlar. Hukmdorlar Xuvishka, Vasishka Vasudevalar davrida Kushonlar konfederativ boshqaruv tizimini saqlab tura oldilar. Milodiy III asr o'rtalariga kelib, Kushonlar tuzgan imperiya ichki nizolar va o'zaro urushlar natijasida inqirozga yuz tutdi. Podsho Kanishka III davrida ko'p millatli mamlakat parchalanishni boshladi. Milodiy 276-yilga kelib Kushonlar imperiyasi tarix sahnasidan o'chib ketadi.

Ko'p millatli Kushonlar imperiyasi Buyuk ipak yo'lida joylashgan ulkan davlat sifatida shuhrat qozonadi. G'arbda qudratli Parfiya (keyinchalik Sosoniylar) Shimolda Qang' davlatlari bilan chegaradosh bo'lgan. Savdo yo'li tranziti ushbu davlatni ikki asrdan ortiq dunyoning eng kuchli imperiyalari ichidan o'z o'rnini egallash imkonini bergan. Kushonlar imperiyasida siyosiy hokimiyat, kelib chiqishi ko'chmanchilardan bo'lgan sulola qo'lida bo'lsa-da, ular mahalliy boshqaruvni o'zlariga moslashtira oldilar va keng sarhadli hududlarda hukm surgan edilar.

Ko'chmanchilar ko'p millatli imperiya tuza olibgina qolmay ushbu davlat tarkibidagi xalqlarni umumiy manfaatlarini himoya qilib, o'troq va chorvador madaniyatlarni yagona chegaralar ostida birlashtira oldilar. Umum imperiya qonunlari konfederativ tusda bo'lsa-da, ammo mahalliy urf-odatlar ham e'tibordan chetda qolmagan edi.

Qadimgi Hindiston madaniyati. Qadimgi Hindiston madaniyatiga ibtidoiy davrdayoq asos solingan edi. Mil. avv. III ming yillik oxiri II ming yillik boshlarida Hindiston madaniyati birmuncha yuksaladi. "Ramayana", "Mahabhorata" va "Panchatatra" dostonlari qadimgi hind adabiyoti merosi hisoblanadi. Undagi obrazlar kishilarni rostgo'ylik, sadoqat, mardlik, mehribonlik va boshqa yuksak ijobiy hislatni o'zida tarbiyalashga charlaydi.

"Ramayana" dostonida shahzoda Rama, o'gay onasining siquvlari va tahqirlashlaridan ko'ngli qolgach, o'z yurtini tashlab ketishi va xavfli sarguzashtlari haqida so'z boradi. Sevikli yori Sitani devlar podshosi Ravan o'g'irlab ketishi va uni qaytarish yo'lida Ramani maymunlar va ayiqlardan tuzilgan qo'shini devlar bilan olib borgan urushi tasvirlanadi. U devlarni yengib xotinini ozod etadi va o'z vataniga qaytib kelib, otasining taxtini qaytarib oladi.

Mashhur "Mahabhorata" dostonida esa podsholarning Bxarata sulolasidan chiqqan ikki oila avlodlari Kauravlar va Pandavlar(yoki Panduzodalar) o'rtasida toj-u taxt uchun olib borgan urushlari o'ritiladi. Unda yovuzlik timsoli Kauravlar sulolasi sardori Duryatxan va uning tarafdorlari, Pandavlardan bo'lgan aka-ukalar Yutxisht, Bxim, Arjun, Nakul va Sagdevlar tomonidan mag'lub etiladilar.

Qadimda Hindistonda aniq fanlar ham rivoj topgan edi. Bu yerda astronomiya, geografiya va matematika fanlari taraqqiy etganligi manbalarda ta'kidlanadi. Hindlar birinchilardan bo'lib hisob-kitobda "nol" sonidan foydalanishni bilganlar. Bu bilimlar ularga savdo-sotiqda katta yutuqlarga erishish imkonini yaratdi. Shu bilan birga ular 360 kunga bo'lingan o'z kalendarlariga ham ega edilar.

Tabobatda hind tabiblari dori tayyorlashda turli xil dorivor o'tlar va minerallardan foydalanishni bilganlar. Ular mingga yaqin dori turlaridan xabarlari bor edi. Hatto jarroxlik ilmini yaxshi o'zlashtirganlar.

Keyinchalik mil. avv. III asrlarda Hindiston madaniyatiga ellinistik madaniyat katta ta'sir ko'rsatadi. Hindlar yunonlardan antik haykaltaroshlik usullarini o'rganib olganlar. Ayniqsa Gandxara haykaltaroshlik san'ati yuqori darajada rivojlangan. Buddani toshda o'yib tasvirlash yaratiladi. Mauryalar davridagi arxitekturada muhim o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Qoyalar va g'orlarda buddaviylik ibodatxonalarini qurish ishlari amalga oshiriladi.

Qadimgi Hindlar dastlab animizmga yaqin diniy tasavvurlarga ega edilar. Ular hayvonlar, tabiatda mavjud bo'lgan hodisalar (quyosh, olov, momaqaldiroq, chaqmoq, yomg'ir, shamol va boshqalar) va turli ruhlariga sig'inganlar. Ko'chmanchi oriyalar kirib kelgandan so'ng mil. avv. IX-VIII asrlarda Braxmanizm dini paydo bo'ladi. Bu din e'tiqodiga ko'ra, Braxma ilohi olam va insonlarni yaratgan hisoblanadi. Insonlar uning turli a'zolaridan paydo bo'lgan deb hisoblaganlar. Braxmaning og'zidan braxmanlar, qo'llaridan kshatriylar, boldirlaridan vayshilar, oyoqlaridan esa shudralar paydo bo'lganligiga ishonganlar. Keyinchalik yuqorida ta'kidlangan buddaviylik dini yuzaga keladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qadimgi Hindistongi ilk manzilgohlar haqida ma'lumot bering?
2. Maurya davlati haqida nimalarni bilasiz?
3. Kushonlar imperiyasi ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyati nimada?
4. Qadimgi Moxenjo-Daro va Xarappa madaniyati, oriy qabilalariga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Maurya davlati hukmronligi davri haqida nimalarni bilasiz?
6. "Yue-chji" lar asli kimlar edi?
7. Buddaviylik dini qachon paydo bo'lgan?
8. Kushonlar imperiyasida davlat ishlarida qanday yozuvdan foydalanishgan?

Glossariy

Gang	Hindistondagi daryolardan biri
Oriy	Mil. avv. 1500 yillar atrofida shimoliy Hindistonga bostirib kelgan evropoid irqiga mansub ko'chmanchi

	qabilalar
Braxman	Qadimgi Hindistonda kohinlar kastasi
Shudra	Qadimgi Hindistonda xizmatkorlar kastasi.
Rishi	Bashoratchi kohin
Karma	Hayot davomida qilingan ishlar, xatti-harakatlar, qilmishlar
Yue-chji	Mil. avv. II asrlarda Baqtriyani bosib olgan ko'manchi chorvadorlar qabilaviy ittifoqi. Kushonlarning kelib chiqishi ularga borib taqaladi.

Mavzu: Qadimgi Xitoy

Reja:

1. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining yuzaga kelishi, Sya va Shan sulolari.
2. Chjou sulolari davrida Xitoy
3. Chunsyu va Chjango davri. Sin imperiyasining yuksalishi.
4. Xan imperiyasining ichki va tashqi siyosati.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining yuzaga kelishi, Sya va Shan sulolari. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining dastlabki kurtaklari Xuanxe (Sariq daryo) va Yanszi daryolari oldida yuzaga kela boshlaydi. Mil. avv. V-IV ming yillikda paydo bo'lgan ilk dehqonchilik manzilgohlari Yanshao, Syuyszyalin va Davenkoular qadimgi Xitoy tarixida muhim o'rin egallagan. Misol uchun neolit davriga oid Davenkou madaniyati to'rt bosqichga bo'lib o'rganiladi. Bularga Lyulin, Xuatin, Davenkou va Sinlyangan manzilgohlari kiradi. Ilk sopol idishlarga ishlov berish va mehnat qurollarining takomillashib borish jarayonida ortiqcha mahsulot hajmini ortib borishiga olib keldi. Tez orada mil. avv. II ming yillik boshlariga kelib, Xuanxe va Yanszi daryolari bo'ylarida yashovchi aholi metallardan (mis va bronza) foydalanishni keng yo'lga qo'yadi. Bularga Erlitou madaniyati yorqin misol bo'la oladi. Metallurgiya tараqqiyoti sug'orma dehqonchilikni rivojlanishiga olib keldi. Natijada oshiqcha mahsulotlarni ortib borishi hamda mulkiy tabaqalanish jarayonini yuzaga keltirdi.

Qadimgi Xitoy afsonalariga ko'ra Xuanxe daryosi qirg'oqlarida dastlab Sya davlati paydo bo'lgan. Ammo ko'p o'tmay mil. avv. XVIII asrda Chen Tan ismli podsho Sya sulolasini taxtdan olib tashlab Shan davlatini tuzadi. Ushbu davlat mil. avv. 1600-yildan mil. avv. 1027-yillargacha yashaydi. Shan podshosi Pan Gen davrida poytaxt Yandan, Beymen shahriga ko'chiriladi. Keyinchalik Beymen shahri In deb ataladigan bo'ldi. Natijada davlat Shan-In deb ham tilga olinadi. Podsho asosan diniy va dunyoviy hokimiyatni o'zida mujassamlashtirgan. Hokimiyat (hukmdorlar U Din va U I gacha) akadan-ukaga yoki amakidan jiyanga meros bo'lib qolgan. Ichki nizolar tufayli dastlabki poytaxtlardan biri (Van Chun Din davrida) Syao shahriga ko'chiriladi. So'ngra hokimiyat otadan-bolaga o'tish tizimi (taxminan mil. avv. 1300 yil) joriy qilingan. Amaldorlar sinfi zodogon qavmlar tabaqasidan shakllangan. Davlat boshqaruv apparati podsho(yoki Van), yirik amaldorlar, kichik zodogonlar va jangchilardan iborat bo'lgan. Dehqonlar va qullar ijtimoiy pog'onaning eng pastidan o'rin egallagan edi. Shan davlati ko'chmanchilarning doimiy hujumi bilan kurash olib borganligi haqida yozma ma'lumotlar bor. Shan podsholari Syuan-syao (sariq imperator Xuan-di) urug'idan bo'lganlar deb hisoblangan.

Chjou sulolari davrida Xitoy. Mil. avv 1027-yili Chjou knyazi U Van, Shan podshosi Di Singa qarshi isyon ko'tarib, Mu-e yonidagi jangda shanliklar ustidan g'alabaga erishadi. Shan podshosi Di Sin poytaxti Chaoqe shahriga qochib, o'z saroyi "Kiyik minora"da joniga qasd qilgan. Dushman qo'shini shaharga kirib kelib, U Vanni podsho deb e'lon qiladi. Shu tariqa Xitoyni 300 yil birlashtirib turgan Chjou davlatiga asos solinadi. Chjou Sharqiy va G'arbiy Xitoyni nazorat qilib turishga erishdi. Shimoliy Xitoydagi bir-necha yirik qabilalar birlashtirildi. Bosib olingan yerlarni U Van qarindosh urug'lari va tarafdorlariga bo'lib beradi. So'ngra taxtga U Vanning o'g'li yosh Chen-Van keladi. Hukmronligining dastlabki yetti yilligi davrida davlatni amakisi Chjou-gun boshqardi. Shanliklar isyoni bostirildi va ular o'z yerlaridan ko'chirib yuborildi. Ko'chmanchi I qabilariga qarshi yurish qilindi.

Mil. avv. 996-yili taxtga Chen-Vanning o'g'li Kan-Van keladi. Qaram viloyatlar boshqaruvi isloh qilinib, ularning soni 55 dan 36 taga kamaytirildi va ixchamlashtiriladi. Yozma manbalarining ta'kidlashicha, ("Bambuk kitoblar"va "Shisszi") Chjou davlatida

tinchlik hukm surgan. Mil. avv. 977-yilda imperator vafot etadi. Keyingi imperator Chjao-Van janubdagi isyonlarni bostirishga urinadi va yangi tuzilgan Chu podsholigi bilan urushda halok bo'ladi.

Chjou podsholari "shanfu"(yuz boshi) va "szay"(boshliq yoki to'g'irlovchi) unvonlariga ega bo'lgan saroy a'yonlariga tayanib davlatni idora qilganlar. Podsho saroyi davlat boshqaruvining markazi hisoblangan. Davlat yerlarini nazorat qilish uchun podsho alohida mansabdor shaxsni tayinlar edi.

Mil. avv. VIII asr boshlarida Chjou davlatidan shimoli g'arbda yashagan "jun" qabilalari talonchilik yurishlarini amalga oshiradilar. Chjou podshosi Yu-Van (mil. avv. 781-771-yy) ularni to'xtatish uchun urush olib boradi. Chjouning o'troq aholisi junlarni varvar qabila sifatida ko'rar edi.

Chjou (ayrim manbalarda G'arbiy Chjou) davlatining poytaxti Xao shahridan Loi shahriga (zamonaviy Loyan) ko'chirilishi bilan (mil. avv. 771-yilda) Sharqiy Chjou sulolasining davri boshlandi. Ammo bu davlat ham Chjouning avvalgi shuhratini tiklay olmaydi. Garchand podsho Syan-Van davrida ko'chmanchilar bilan tinimsiz urush olib borilsada davlat kuchsizlanadi.

Chunsyu va Chjango davri. Sin imperiyasining yuksalishi. Mil. avv. VIII asrdan boshlab Xitoyda "Chunsyu" (bahor va kuz) ya'ni "ko'p podsholiklar" davri boshlanadi. Bu tarixiy davr mil. avv. V asrlarga qadar davom etgan. Xitoy hududida Chjou podsholigi o'rnida Chjan, Vey, Chen, Sun, ssi, Lu, Szin, Chu, Yue va U davlatlari yuzaga keladi.

Xuanxe daryosi o'rta oqimi va Buyuk Xitoy tekisligida joylashgan davlatlar, qolgan barcha xalqlar va podsholiklardan farqliroq tarzda, o'zlarini xuasya etnomadaniy birligi qatoriga kirgizishgan va "o'rtadagi davlat"lar deb nomlanishgan. "O'rtadagi podsholik"larning barchasi Chjou davlatining ustunligini tan olishgan. Chjou hukmdori van "Samo o'g'li" ilohiy unvoniga ega edi, "o'rtadagi podsholik" larning hukmdorlari esa uni Xitoydagi oliy diniy nufuzga ega bo'lgan shaxs sifatida izzat qilishgan.

Hamonki ushbu podsholiklar o'rtasidagi urushlar doimo bo'lib o'tar ekan, davlatlararo munosabatlar, ular o'rtasida ittifoqlar tuzish tartibi, razvedkani (josuslikni) tashkil etish masalalariga oid boy amaliy tajriba asrlar davomida to'plandi. Ayniqsa oxirgisi katta rol

o'ynagan. Shu paytda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga taalluqli ta'limotlar va doktrinalar yaratildi.

“O'rtadagi podsholiklar”, “Xuasya” va “Varvarlar”ga o'xshamasligi to'g'risidagi tasavvurlar shakllandi va bu xol tashqi siyosiy aloqalar tamoyillariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Samo o'g'lini butun olamning hukmdori sifatida tasvirlaydigan Chjou doktrinasi “o'rtadagi podsholiklar” aholisining ustunligi va “varvar”larning tug'ma madaniyatsizligi to'g'risidagi Konfutsiy (mil. avv. 551-479-yy) ta'limotining negizini tashkil etdi. Ushbu ta'limot qadimgi Xitoyda davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga sezilarli darajada ta'sir etdi.

Hukmdorlar huzuridagi ayrim amaldorlarning vazifalari doirasiga boshqa davlatlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish masalasi kirardi va maxsus kishilar elchilar nutqini tayyorlashardi. Dastlab saroyda muhokama qilingan ushbu nutqlar qo'shni davlatlar bilan muzokaralar olib borilganda katta ahamiyatga ega edi.

Chjou podshosi (Vani), Si hukmdori Chjuan gun (mil. avv 743-701-yy.) ning mustaqil ravishda tashqi siyosiy va diplomatik harakatlar olib borish hamda harbiy ittifoqlar tuzish, shuningdek “ba” (gegemon) unvoniga ega bo'lish huquqini tan oldi. Ittifoqchi podsholiklar gegemonga birlashish muqaddas qasamini (men) ichishar edi. Si davlatidan so'ng gegemonlik (Szin, U va Yue) birin-ketin boshqa knyazliklar qo'liga o'tib bordi. Bu davrda ichki urushlar doimiy bo'lib qolgan edi. Xitoy tarixida “Chunsu” (ya'ni bahor va kuz) davrining mafkuraviy asoslari Lu davlatida afsonaviy Konfutsiy tomonidan ishlab chiqilgan degan fikr mavjud. Unga ko'ra barcha insonlar o'z maqsad vazifasi va taqdiri bilan dunyoga keladi. degan konsepsiya ilgari surilgan.

Gegemonlarning siyosiy ustuvorligini mustahkamlashda elchilarni qabul qilish va yuborish marosimi muhim rol o'ynardi. Elchilarni yo'lga otlantirish gegemonlarni o'ziga yarashmasdi, shu paytning o'zida esa ittifoqchi podsholiklar hukmdorlarining shaxsan o'zlari elchilar sifatida gegemon huzuriga etib kelardilar.

“Chjango davri” xitoyliklarga faqat doimiy urush va ochlikni olib kelgan edi. Tarixda bu davr ikki asr davom etgan bo'lib, “kurashuvchi podsholiklar” davri deb ham atalgan. Mil. avv 461-yili Xitoyning sharqi va g'arbga qadar yastanib yotgan hududda Si, Vey Vassin davlati joylashgan edi. Janubda esa ulkan Chu podsholigi Sharqdagi U

va Yue dalatlarini qattiq qarshiligiga qaramay ularni bosib olishga intilayotgan edi.

Yuqoridagilar orasida Si davlatida nisbatan markazlashgan, soliq tizimi tartibga solingan va tuz savdosi davlat monopoliyasiga o'tkazilgan edi. Vey esa harbiy jihatdan cheklangan kuchga ega bo'lgan. Sin g'arbdagi ulkan hududga ega bo'lsa-da ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan boshqalarga nisbatan qoloq edi.

Ittifoqchi davlatlar podsholarining o'g'illarini garovga olish Chjango davridagi davlatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Davlatlar tomonidan mayda podsholiklarni bosib olish jarayoni avj olgandi. Bu esa podsholiklar o'rtasidagi ittifoqlarning majburiy birlashuviga sabab bo'lar edi. Davlatlararo yirik birlashmalarning alohida shakllari yuzaga keldiki, ular "vertikal bo'yicha ittifoqlar", "gorizontal bo'yicha ittifoqlar", "uzoqdagi davlatlarning yaqindagi davlatlarga qarshi ittifoqlar" deb nomlanishi bilan ma'lumdir. Ushbu sharoitda davlatlararo bitimlarni tuzish amaliyoti bilan bog'liq maxsus faoliyat turiga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi. Bunday zarurat nafaqat urush vaqtida, balki boshqa paytlarda ham talab qilingandi.

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra jamiyatni boshqarish uchun har bir kishi o'z vazifasini sidqidildan bajarishi zarur bo'lgan. Diplomatiyaga taalluqli faoliyatning katta ahamiyatga ega ekanligini Chjango davrida mavjud bo'lgan barcha g'oyaviy-siyosiy maktablarning vakillari ta'kidlashgan. Jumladan, Konfutsiy diplomatiya san'atiga o'rgatishni podsholikni boshqarishdan keyin ikkinchi o'ringa qo'ygan. O'sha davrda elchilar yozma emas, balki og'zaki ko'rsatmalar bilan yuborilgan. Qadimgi Xitoyda diplomatik daxlsizlik haqida tushuncha mavjud bo'lmasligiga qaramasdan, amalda har qanday podsholikda elchiga katta xurmat bilan qaralgan.

Chjango davri hukmdorlarining saroylari qoshida "yuyshi" deb nomlangan yaqin amaldorlar bor edi. Ular hukmdor nomiga boshqa podsholiklardan yetib kelgan barcha maktublarni qabul qilish, hamda kelgusi muzokaralar uchun ma'lumotlar tayyorlash bilan shug'ullanardilar. Davlatlararo munosabatlar nazariyasi va amaliyoti bilan "Szun xen" maktabining faoliyati bog'liq bo'lgan. Odatga ko'ra ushbu maktabning paydo bo'lishi donishmand Guy Gutszi (mil. avv. IV-III asrlar) nomiga taqaladi. Maktabning nomi ikki turdagi davlatlararo ittifoqlarning nomidan kelib chiqadi – "Szun" (vertikal

bo'yicha ittifoq yoki shimol-janub ittifoqi) va "Xen" (gorizontal bo'yicha ittifoq yoki Sharq-g'arb ittifoqi).

Mil. avv. IV asr oxiriga kelib Xitoyni birlashtirish yo'lida Chu vassin davlatlari o'zaro raqobatlashadilar. Sin podshosi Syao-Gun (mil. avv. 361-338-yy)ning yirik amaldorlaridan biri Shan Yan ushbu davlatda islohatlar o'tkazadi. U soliqlarni tartibga solib, yerni sotish va sotib olishga ruxsat beruvchi qonunlarni kiritadi. islohot armiyada ham amalga oshirilib, Sin davlati qo'shinlari qayta tuziladi. Natijada podsho hokimiyati kuchayadi va davlat tizimi markazlashadi. Ammo podsho Syao-Gun vafot etgach, Shan-Yan eski zodagonlar tomonidan qatil etiladi. Shunday bo'lsa-da, uning islohatlari kelgusida Sin davlatini Xitoyni birlashtirishi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Keyinchalik Sin podshosi In Chjen (mil. avv. 241-210-yy) davrida istilolarni amalga oshirish tashqi siyosatining asosiy vazifasiga aylandi. Mil. avv. 230-yilda Xan, mil. avv. 225-yilda Vey, mil. avv. 223-yilda Chu, mil. avv. 222 yilda Chjao va Yan hamda mil. avv. 221-yilda Si davlatlari bo'ysundirildi. In Chjen bir-necha bor unga uyushtirilgan suiqaatlardan omon qoladi. Sin podsholigi esa ko'p asrlardan buyon parchalanib yotgan Xitoyni birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa "Chjango" (Kurashuvchi podsholiklar) davri yakunlandi. In Chjen imperatorlik darajasini oladi va Sin Shixuandi sifatida butun Xitoy ustidan hukmronligini o'rnatadi. Mamlakat eski podsholiklar chegaralari bilan hisoblashilmay, 36 viloyatga bo'linib, har biriga Sin Shixuandi noib tayinlaydi. Butun Xitoyga yagona o'lchov birliklari va pul joriy qilindi. Yo'llar bir xil standart asosida savdo aravalariga mos qilib qurila boshladi. Syanyan shahri Sin imperiyasi poytaxti bo'ldi. Mil. Avv. 210-yilda imperator Sin Shixuandi kichik o'g'li Xu Xay, devon boshlig'i Chjao Gao va bosh maslahatchisi Li Silar bilan mamlakat bo'ylab sayohati paytida olamdan o'tadi. Taxtga 21 yoshli Xu Xay (Er Shi-Xuandi nomi ostida) o'tqaziladi. Amalda esa davlatni bosh vazir Chjao Gao boshqaradi. Imperiyada ichki nizolar boshlanib, Chen Shen, U Guan va Lyu Ban boshchiligida xalq qo'zg'olonlariga olib keladi.

Xan imperiyasining ichki va tashqi siyosati. Mil. avv. 203-yilda Sin sulolasi xalq qo'zg'olonlari natijasida kuchsizlandi. Gaysya yonidagi jangda Lyu Ban qo'shini Chu sulolasidan bo'lgan Syan Yuyni jangda yengadi. Bir yildan so'ng Sin davlati o'rnida Xan

saltanati tuziladi. Xan imperiyasining qo'shni xalqlar bilan munosabatlarda avvalgi davrdan meros bo'lib qolgan oykumena egotsentrik (egotsentrizmga oid, o'ta manmanlik. O'zini dunyoga ustun deb bilish) konsepsiyasi katta rol o'ynagan.

Ushbu rasmiy tashqi siyosiy doktrinaga "daotsizm" falsafasiga oid asarlarda o'z aksini topgan o'zgacha konsepsiyaga qarshi turganki, unga ko'ra "o'rtaliq saltanat" ning boshqa xalqlarga nisbatan ustunligi inkor qilingan. Xan imperiyasining, uning tarkib topgan kunidan boshlab, eng muhim tashqi siyosiy vazifasi – chegaralarni ko'chmanchi Syunnu (Xunn) qabilalarning muntazam bosqinlaridan himoya qilish edi. Mil. avv. III asrning oxiriga kelib imperiyaning shimoliy chegaralarida ushbu qabilalarning qudratli birlashmasi vujudga keldi. "Tinchlik va qarindoshchilikka asoslangan shartnoma" deb ma'lum bo'lgan va mil. avv. 198-yilda tuzilgan shartnomaga binoan Lyu Ban Shanyuy (syunnu qabilalarining oliy sardori) Modega nisbatan o'lpon to'lovchi ekanligini faktik jihatdan tan oldi.

Mil. avv. 195-yilda Lyu Banning o'limidan so'ng, taxtga uning o'g'li Xuey-di (mil. avv. 195-188-yy.) o'tqaziladi. Ammo mamlakatni amalda malika Lyuy-xou va uning qarindoshlari boshqaradi. Imperator esa sharobxo'rlik va ayshu-ishratga berilib, davlatni deyarli idora qilmaydi.

Xunnlar hukmdori Mode, vaziyatni o'zi uchun qulay deb hisoblab, yana bir marotaba nazarini Xitoyga qaratdi. Modomiki, Xitoyga hujum qilishga rasmiy bahonasi bo'lmagan Mode ig'vo qilmoqchi bo'ldi va mil. avv. 192-yilda Lyu Banning beva xotini imperatritsa Lyuy-xouga nikoh taklifi bilan maktub yubordi. Konfutsianlik axloqiga binoan beva hukmdor ayolga nikoh taklifi bilan murojaat qilish odob qoidalarining qo'pol tarzda buzilishi edi. Lyuy-xou darxol Shanyuy Modega qimmatbaho sovg'alar yubordi. Shu bilan bir qatorda nikoh to'g'risidagi taklifiga rad javobini berdi.

Mil. avv. 188-yili davlat boshqaruvida qobiliyatsiz imperator Xuey-di vafot etadi va malika Lyuy-xou buyrug'iga binoan, uning yosh o'g'li Shao-di Gun (mil. avv. 188-184-yy.) taxtga chiqariladi. Manbalarda ta'kidlanishicha Shao-di Gun, imperator naslidan bo'lmagan. Mamlakat yana Lyuy-xou tomonidan boshqarilishi davom etadi. Biroq bu imperator ham qo'g'irchoq hukmdor edi. Mil. avv. 180-yilda malika Lyuy-xou olamdan o'tgach, saroy zodagonlari Lyuy qavmidan bo'lgan vazirlar hamda knyazlarni boshqaruvdan

chetlatiladilar. Taxtga imperator Ven-di (mil. avv. 180-157-yy.) chiqariladi. Yangi imperator davrida soliqlar kamaytiriladi va mamlakatda osoishtalik hukm suradi. Mil. avv. 165-yilda imperator amaldorlikka o'tish uchun imtihon tizimini kiritadi. Xan imperiyasida konfutsiychilik bilan bir qatorda daotsizm ma'rifati rivojlanadi.

Mil. avv. 157-yili taxtni Szin-di (asl ismi Lyussi) egallaydi. U otasining siyosatini davom ettirib, soliqlarni kamaytiradi. Ammo Xan imperiyasiga kiruvchi knyazliklar boshida turgan knyazlarning nufuzi kundan-kunga oshib boradi. Ushbu knyazliklar mustaqqil ravishda tangalar zarb etar, hududlarida soliqlarni yig'ar, hatto o'z qo'shinlariga ham ega edilar. Mil. avv. 154-yil imperator Szin-di ularni huquqlarini cheklab, ayrim knyazliklarning hududini qisqartirmoqchi bo'ladi. Bu yo'l bilan imperator, ularning ortib borayotgan kuch-qudratini pasaytirmoqchi bo'ladi. Natijada U knyazi Lyu Pi, Chu knyazi Lyu U, Szyaosi knyazi Lyu An, Szyaodun knyazi Lyu Syunsyuy, Szichuan knyazi Lyu Syan, Szinan knyazi Lyu Piguan, Chjao knyazi Lyu Suylar imperatorga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Tarixda bu isyon "yetti viloyat qo'zg'oloni" deb nomlangan. Xan imperiyasida ichki nizolar boshlanib ketadi. Imperatorning buyrug'i bilan Chjou Yafu boshchiligidagi hukumat armiyasi dastlab, U hamda Chu knyazliklaridagi qo'zg'olonni bostiradilar. So'ngra imperator qo'shinlari boshqa knyazliklardagi isyonlarni bostirishga muvaffaq bo'ladi. Umuman qo'zg'olonchi knyazliklarni mag'lub etish uchun uch oy kerak bo'ldi. Imperator Szin-di mamlakat yaxlitligini saqlab qoldi.

Szin-didan keyin taxtga uning o'g'li U-Di (mil. avv. 140-87-yy) keladi. Uning davrida konfutsiylilik ta'limoti ravnaq topadi. Mil. avv. 133-yilda xunlar bilan tuzilgan tinchlik shartnomasi bekor qilindi va imperator U-Di ularga qarshi yurishlar boshladi. Mil. avv. 138-yilning o'zidayoq U-Di xunlarga nisbatan dushman bo'lgan yuechji qabilalari bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida Chjan Szyan boshchiligidagi elchilikni jo'natdi. O'rta Osiyoda bo'lgan davrida Chjan Szyan ilgari Xitoyliklar uchun noma'lum hisoblangan yirik o'lkalarni kashf etdi.

Mil. avv. 119-yilda xunlar bilan olib borilgan urush Xan imperiyasi uchun muvaffaqiyatli bo'ldi. Ko'chmanchilar vaqtinchalik bo'lsa-da kuchsizlantirildi. Endi shimoliy Xitoyga xavf soluvchi ko'chmanchi xalqlarning eng kattasi yo'ldan olib tashlangan edi.

Xan imperiyasi Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan Sharqiy Turkiston o'lkasining shahar - davlatlarida o'z ta'sirini va hukmronligini yoyish uchun turli diplomatik va harbiy usullardan foydalangan. Ushbu siyosatni amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida Xan imperiyasining usun qabilalari bilan ittifoq tuzishi namoyon bo'ldi. Mil. avv. 115-yilda usunlar huzuriga Chjan Szyan boshchiligidagi elchilik yuborildi. Ushbu elchilik Xan davridagi Xitoy davlatining Markaziy va O'rta Osiyoning hamda O'rta Sharqning boshqa mamlakatlari bilan savdo va diplomatik aloqalarini rivojlanishida katta rol o'ynadi. Biroq Buyuk Ipak yo'lini egallash U-Di uchun uning "imperiya sarhadlarini 10 mingligacha kengaytirish va hokimiyatini butun dunyo bo'ylab yoyish" g'oyasini amalga oshirishdagi muhim bosqichi edi. Harbiy yo'nalishdagi faol tashqi siyosat bilan bir qatorda U-Di janubiy va shimoliy-sharqiy yo'nalishlar bo'yicha keng istilochilik harakatlarini olib bordi. Mil. avv. 109-yilda imperator U-Di Lyaodun yarim oroli va Koreyaga harbiy yurish uyushtirib, Pxenyanni egallaydi. Koreyadagi Kochoson davlatini bosib olib, uni to'rt viloyatga bo'lib yuboradi. Bir yildan keyin imperator buyrug'i bilan Sharqiy Turkistonga general Chjao Pon qo'shinlari yuboriladi. Natijada Turfan yerlari bosib olinadi. Mil. avv. 105-yilda Usun (Yettisuv) davlati hukmdori bilan qarindosh tutilib, ular bilan ittifoq tuzadi. Mil. avv. 104-yilda U-Di buyrug'i bilan general Li Guanli Davan (Farg'ona) davlatiga qarshi qo'shin tortib boradi. Ammo bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Xitoyliklar katta talofat ko'rib, Davan bilan sulh tuzib ortga qaytadilar. Shu bilan birga, yillar davomida U-Di tomonidan olib borilgan tashqi urushlar davlat g'aznasini kamaytirdi. U-Di vafotidan so'ng yirik istilochilik yurishlari deyarli olib borilmadi. Taxtga uning o'g'li Chjao-Di (mil. avv. 87-74-yy) chiqadi. Mamlakatni vaqtinchalik regent sifatida Xo Guan ismli zodagon boshqaradi. O'zining qisqa boshqaruvi davrida Chjao-di otasidan farqli o'laroq soliqlarni kamaytiradi va jadal tashqi siyosatdan voz kechadi. Mil. avv. 74-yili taxtga Syuan-di chiqadi. Uning davrida xunnlr bilan urush (mil. avv. 71-yilgacha)boshlanib, Xitoyning g'arbiy chegaralari talon-taroj etiladi. Biroq Xan imperiyasi qo'shinlari dushmanga munosib qarshilik ko'rsatadilar. Xunnlr ortga qaytib ketadilar. So'ngra taxtga Yuan-di (mil. avv. 49-33-yy) keladi. Uning davrida imperator saroyida hokimiyat uchun zodagonlar ikki partiyaga (ya'ni

konfutsiychilar va saroy partiyasi) bo'linib, kurash olib borganlar. Natijada mamlakat kuchsizlanib boradi. Keyingi imperator Chen-di (mil. avv. 33-yildan- milodiy 7-yilgacha) hukmronligi yillarida imperiyada korrupsiya kuchayadi va zodagonlarning Van qavmining nufuzi ortadi. Imperator hokimiyati esa susayib boradi. Bundan vaziyatdan saroy a'yonlaridan biri Van Man foydalanib qoldi va milodiy 9-yili imperator Jutszi Inni taxtdan qulatib o'zini hukmdor deb e'lon qiladi. Uning davrida Xitoyda pul va yer islohatlari o'tkaziladi. Ma'muriy boshqaruv tizimiga ham o'zgarishlar kiritiladi. Bu orada tabiiy ofat yuzaga keladi, ya'ni Xuanxe daryosi o'zanlaridan chiqib mamlakatning unumdor yerlariga katta talofat yetkazadi. Milodiy 18-yili Shandung va Szyansu viloyatining janubida podsho hokimiyati hamda yirik yer egalarga qarshi tarixda "qizil qoshlar" qo'zg'oloni deb nom olgan dehqonlar harakati boshlanib ketadi. Dehqonlar hukumat qo'shinlaridan o'z odamlarini ajrata olishlari uchun qoshlarini qizil rangga bo'yab olgan edilar. Kamiga milodiy 21-22-yillarda imperiyada ocharchilik boshlanadi. Bularning barchasi dehqonlani ag'darib tashlangan Lyu sulolasi vakillari va Fan Chun boshchilik qilayotgan "Qizil qoshlar" armiyasi tomoniga o'tishga majbur qiladi. Milodiy 23-yil Van Man taxtdan qulatilib, hokimiyatga Lyu sulolasi vakili Lyu Syuan (Genshi-di) keladi va Xan imperiyasini qayta tiklanganini e'lon qilinadi. Ko'p o'tmay "qizil qoshlar" qo'zg'oloni ham bostirilib, milodiy 25-yil (ayrim manbalarda 27 yil) imperator Lyu Syu poytaxtni Loyanga ko'chiradi. I asrning o'rtalariga kelib esa Xan imperiyasi yana qadimgi dunyoning eng yirik davlatiga aylandi. Ushbu davrda imperiyaning eng asosiy vazifasi shimoliy xunn qabilalarini bo'ysundirish va "g'arbiy o'lkada" (Sharqiy Turkiston yerlari) o'z hukmronligini tiklash edi. Milodiy 73-yilda Ban Chao elchilik vazifasi bilan g'arbiy o'lkaga yuborildi. Uning bu yerlardagi harakatlari o'sha zamon diplomatiyasiga xos tarzda olib borildi. Sharqiy Turkiston shahar-davlatlari qayta bo'ysundirildi. 80-yillarning oxiridan boshlab Buyuk ipak yo'li orqali Kushon davlati, Parfiya va Rim imperiyasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatildi. Bu aloqalar milodiy I va II asrlar chegarasida eng yuqori darajaga ko'tarildi. Rim imperiyasi (qadimgi Xitoy manbalarida Datsin deb nomlanadi) bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishga urinishlar ham qilib ko'riladi. Keyinchalik mamlakat korrupsiya va ichki nizolar tufayli kuchsizlana boshlaydi.

So'ngra 184-yili og'ir soliqlar va majburiyatlarga qarshi xalq akakulari Chjan Szyao, Chjan Bao hamda Chjan Lyanlar boshchiligida ("Sariq ro'mollilar") qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilarning umumiy soni 300 ming kishiga etib, ular 30 dan ortiq guhlarga bo'lingan edi. Qo'zg'olon 205-yil Xan sarkardalari Dun Chjo va Saosaolar tomonidan qiyinchilik bilan batamom bostiriladi. Tez orada Saosao bosh vazir bo'lib olgach, imperator hokimiyati nomigagina tan olinadi. So'ngra 220-yil mart oyida bosh vazir Saossao vafotidan so'ng, Xan imperiyasining so'nggi imperatori Syan-di taxtdan voz kechadi. Hokimiyatga Saossaoning o'g'li Sao Pey keladi va o'zini Vey davlati podshosi deb e'lon qiladi. Natijada Xitoy uch mustaqil davlatga (Vey, Shu, U.) bo'linib ketadi.

Qadimgi Xitoy madaniyati. Xitoy aholisining madaniy merosi juda qadimga borib taqaladi. Bu yerda qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Yaqin Sharqdagi kabi ko'hna madaniyat taraqqiy etgan. Bu hududda dastlabki sivilizatsiyalar paydo bo'lishi bilan insonlar yuksak madaniyatga asos solganlar. Xitoyliklar qadimdan juda mehnatkash xalq bo'lib, dehqonchilik va chorvachilikni erta o'zlashtirganlar. Mil. avv. II ming yillikdan boshlab, Xuanxe va Yanszi daryolari qirg'oqlarida paydo bo'lgan davlatlar (Shan) davridayoq qadimgi Xitoy piktografik yozuvlari paydo bo'ldi. Keyinchalik bu yozuvlar ieroglif shakliga kira boshlaydi. Ieroglif yozuvlar ma'lum bir ma'noni anglatuvchi so'zlar edi. Shan-In davrida u takomillashadi, yozuvdan asosan diniy marosimlarda, fol ochishda, mulkiy munosabatlarni hal etishda va boshqa maqsadlarda foydalanish keng quloch ochdi. Yozishda dastlab qora mol kurak suyaklari, toshbaqa toshi, shoyi mato va bambuk taxtachalaridan foydalanganlar. Faqatgina mil. avv. I asrdan boshlab, qog'ozga yozishni boshlaydilar. Qog'ozni ixtiro etilishi esa davlat boshqaruvi, fan va madaniyatni rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Qadimgi xitoyliklar ilmiy bilimlarni dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikda qo'llashni yaxshi bilganlar. Irrigatsiyadagi katta yutuqlar pirovardida dehqonchilikda hosildorlikni oshirishini yaxshi tushunganlar. Suvsiz joylarni sug'orish uchun maxsus moslamalar ixtiro qilingan. Ular yana ipak qurti yordamida ip olish va undan mato to'qish texnologiyasini ishlab chiqqanlar.

Qadimgi Xitoydagi ilmiy bilimlarning asoslaridan biri sifatida falsafani tan olishgan. Bu yerda mashhur faylasuf Kun-szi (mil. avv.

551-479-yy) faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik u dunyoda Konfutsiy sifatida tanilgan. Konfutsiy yashagan davrda Xitoyni ichki nizolar va urushlar qamrab olgan edi. Shunga qaramasdan uning falsafiy ta'limoti Xitoy jamiyati uchun eng kerakli dastur-ul amal vazifasini bajardi. Chunki konfutsiylik etikasi diniy emas edi. Ammo tabiat bilan uyg'unlikka intilish jamiyat uchun muhim deb hisoblangan. Konfutsiy etikaning oltin qoidasi "o'zingga ravo ko'rmagan narsani, bировga ravo ko'rma" tushunchasini ilgari surdi. Uning fikricha haqgo'y va solih inson quyidagi besh tamoyilga rioya qilishi kerak edi. Bularga "Jen" insonlarga muhabbat, "I" haqiqat va adolat, "Li" urf-odat, "Chji" aql-zakovat hamda "Sin" samimiyluk yoki yaxshi niyat kabilar kirgan. Garchand Konfutsiy o'z yurti Lu davlatidan badarg'a qilingan bo'lsa-da, u yaratgan ta'limot Xitoyning boshqa joylariga va keyinchalik butun dunyoga yoyildi.

Shu bilan birga mil. avv. V-III asrlarda Xitoda "daotsizm" ta'limotining asoslari paydo bo'ladi. Afsonalarga ko'ra daotsizmga mashhur donishmand Lao-szi asos solgan. Bu falsafiy va diniy ta'limot konfutsiylik bilan bir qatorda rivojlanib borgan. Xitoy jamiyatining taraqqiy etishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi Xitoyda yana tarix va geografiya fanlari rivojlangan. Masalan Sima Syan, Fan E, Ban Gu va boshqa olimlar Xitoyning tarixi va geografiyasiga oid asarlar yozib qoldirishgan.

Aniq fanlarga kelsak qadimgi Xitoyda matematika va astronomiyaga ham katta e'tibor berilgan. Shan-In davlati davrida astronomiyaga oid bilimlar shakllangan edi. O'sha davrdayoq xitoylik astronomlar quyosh va oyning tutilish vaqtini aniq hisoblay olganlar. Manbalarda ta'kidlanishicha, keyinchalik xitoylik olimlar janubni ko'rsatuvchi kompasni ham ixtiro qilganlar.

Qadimgi Xitoy me'morchiligi dunyoning boshqa davlatlarida mavjud bo'lgan me'morchilik maktablaridan qolishmaydi. Masalan, ko'chmanchi qabilalardan mudofaalanish uchun qurilgan dunyoga mashhur "Buyuk Xitoy devori"ni olaylik. Uning uzunligi 4000 kilometrga yaqin bo'lib, balandligi 12 metr, qalinligi esa 5 metrga teng bo'lgan. Bu mahobatli me'moriy majmuasi Sin imperiyasi paydo bo'lishidan avval qurilishi boshlangan edi. Shu bilan birga mashhur Sin imperatori In Chjen (Sin-Shixuandi) maqbarasi o'zining go'zal va maftunkor mahobati bilan kishilarni e'tiborini tortadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Xitoydagi ilk manzilgohlari haqida ma'lumot bering?
2. Shan shahar-davlati haqida nimalarni bilasiz?
3. Chjou davlati ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyati nimada?
4. Qadimgi Shan-Inliklar madaniyati, Chjou davlatiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Chjou davlati hukmronligi davri haqida nimalarni bilasiz?

Glossariy

Sya	Qadimgi Xitoydagi ilk sulola
Ba	Gegemon knyazlar maqomi
Chunsyu	Qadimgi Xitoy tarixida "ko'p podsholiklar" davri
Van	Hukmdor yoki imperator
I	Chjou davlati davrida ko'chmanchi varvar qabilalar ittifoqi
Di go	Xan saltanatida teng davlatlar konsepsiyasi
Daotsizm	Qadimgi Xitoydagi falsafiy oqimlardan biri

QADIMGI YUNONISTON

Mavzu: Qadimgi Yunoniston tarixiga kirish

Reja:

1. Qadimgi Yunonistonning geografik o'rni va aholisi.
2. Qadimgi Yunoniston tarixini davrlashtirish.
3. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar.

Qadimgi Yunonistonning geografik o'rni va aholisi. Qadimgi yunon tarixining geografik joylashuvi doimiy bo'lmagan. U tarixiy rivojlanishga ko'ra o'zgarib va kengayib turgan. Qadimgi yunon sivilizatsiyasining asosiy hududi Egey havzasi, ya'ni, Egey dengizining Bolqon, Frakiya va Kichik Osiyo sohillari va ko'p sonli orollar bo'lgan. Mil. avv. VIII-VI asrlarga kelib, buyuk yunon kolonlashtirishidan so'ng yunonlar Janubiy Italiya va Sitsiliya hududlari, shuningdek, Qora dengiz sohillarini o'zlashtirganlar. Natijada Buyuk Yunoniston tushunchasi vujudga keldi. Mil. avv. IV asrning oxirida Makedoniyalik Aleksandrning g'olibona yurishlari va Ahmoniyar davlati egallanganidan so'ng Yaqin va O'rta Sharqda ellin davlatlari tashkil topdi va bu hududlar qadimgi yunon dunyosining bir qismiga aylandi. Ellinizm davrida yunon dunyosi g'arbda Sitsiliyadan sharqda Hindistongacha, shimolda Shimoliy Qora dengiz sohillaridan janubda Nilning birinchi irmoqlarigacha bo'lgan ulkan hududlarni qamrab oldi. Biroq, butun qadimgi yunon tarixi davomida uning markaziy qismi Egey havzasi hisoblangan. Chunki, bu yerda yunon davlatchiligi va madaniyati paydo bo'ldi va gullab yashnadi.

Qadimgi Sharq mamlakatlaridan farqli o'laroq, qadimgi Yunonistonda etnik rang-baranglikni kuzatish mumkin. Yunonistonning markaziy hududlari, ya'ni Egey havzasi va Bolqon yarim orolining janubiy qismlarida asosan yunon tilli xalqlar yashagan bo'lib, ularni axeylar, doriylar, ioniy va zoliylar tashkil etgan. Bu qabila guruhlarida o'z dialektlarida gaplashganlar hamda diniy qarashlar va urf-odatlarida ham o'ziga xoslikni kuzatish mumkin, biroq bu farqlar unchalik sezilarli bo'lmagan. Barcha yunonlar bir tilda gaplashgan, bir-birini yaxshi tushungan va o'zlarini bitta xalqqa va bitta sivilizatsiyaga tegishli ekanligini his qilgan. Mazkur xalqlar orasida birmuncha qadimiyroq qabila guruhi axeylar bo'lib, ular mil.

avv. III mingyillikning oxirida Bolqon Yunonistonining janubiy qismiga kelib o'rinishganlar. Mil. avv. II mingyillikda zamonaviy Epir va Makedoniya hududlaridan harakatlangan doriy qabilalari bosimi ostida axeylar qisman assimilyatsiyalashadi va bir qismi tog'li hududlarga siqib chiqariladi. Doriylarning katta qismi Peleponnes (Lakonika Messeniya, Argolida, Elida), Egey dengizining janubidagi orollarning katta qismi, xususan, Krit va Rodos, Kariya va Kichik Osiyo hududlarining ba'zi qismlarida o'rinishganlar.

Attika ioniy shevada gaplashgan uchinchi qabila guruhi Attika, Evbeya, Samos, Xios, Lemnos kabi Egey dengizining markaziy qismidagi orollari va Kichik Osiyo sohillaridagi Ioniya viloyatida joylashganlar.

To'rtinchi qabila guruhlar bo'lmish eoliylar Beotiya, Fessaliya va Kichik Osiyo sohillaridagi Ioniya viloyatini shimolidagi Eolida viloyati va Lesbos orolida yashaganlar.

Egey havzasida yunonlardan tashqari uunongacha bo'lgan qabilalar qoldiqlari, jumladan, leleglar, pelasglar, kariylar yashagan bo'lib, ular mil. avv. I mingyillikda Yunoniston aholisining etnogenezida unchalik katta rol o'ynamagan. Shuningdek, yunon davlatchiligida muhim o'rin tutgan xalqlardan biri sifatida tog'li Frakiyaliklarni qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat hududining katta qismi tog'liklardan iborat bo'lib, faqatgina 20% ni tekislik va vodiylar tashkil etgan. Yunonistonda tabiiy boyliklardan - marmar, temir rudasi, mis, kumush qazib olingan, shu bilan birga kulolchilik uchun soz tuproqlarni ko'p uchrashi hunarmandlarga xomashyo manbai bo'lib xizmat qilgan.

Qadimgi Yunoniston tarixini uchta katta bosqichga bo'lish mumkin: 1) ilk sinfiy jamiyat va mil. avv. II mingyillikda davlat uyushmalarining shakllanishi (Krit va Axey Yunonistoni);

2) Polislarning shakllanishi va gullab yashnashi, klassik ko'rinishdagi qulchilik munosabatlari, yuqori madaniyatni yaratilishi (mil. avv. XI-IV asrlar);

3) Yunonlar tomonidan Fors davlatini bosib olinishi, ellinistik jamiyatlar va davlatlarning tashkil topishi.

Birinchi bosqich uchun xos bo'lgan xususiyat shundan iboratki, unda Krit oroli va unga tutash hududlarda dastlabki sinfiy jamiyat paydo bo'ladi. Shu bilan birga ilk davlatchilik an'analari vujudga kelishi hamda rivojlanishi, Yuksak sivilizatsiya belgilarini namoyon

bo'lishi kuzatiladi. Odatda bu davr Krit podshosi Minos sharafiga "Minoy sivilizatsiyasi" deb ham ataladi. Mazkur davr mil. avv. 3000 ming yillikdan - mil. avv. 1200-yilni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichni tarixchilar "polislar davri" deb atashadi. Bu davr ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanish darajasiga ko'ra 3 ga bo'linadi:

1. Gomer davri yoki "zulmat asri". Ushbu davr polisgacha yuz bergan tarixiy jarayonlarni qamrab olgan holda mil. avv. XI-IX asrlarni o'z ichiga oladi.

2. Arxaik davr mil. avv. VIII-VI asrlarni qamrab oladi. Mazkur bosqichda polis jamiyati va davlatlarining shakllanishi, aholining O'rtayer hamda Qora dengiz bo'ylariga kelib joylashuvi kuzatiladi (Buyuk yunon kolonlashtirishi).

3. Klassik yoki mumtoz davr (mil. avv. V-IV asrlar). Unda qadimgi yunon sivilizatsiyasining gullab-yashnashi, davlatchilik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayonlarini ko'rish mumkin.

"Ellin bosqichi" bilan Yunonistonning qadimgi tarixi nihoyasiga etadi. Biroq, mazkur bosqichda yunon va sharq tarixi bilan bog'liq jarayonlar aks etgani bois, tarixchilar uni 3 davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

1. Aleksandr Makedonskiyning sharqqa yurishlari va ellin davlatlari tizimining vujudga kelishi (Mil. avv. IV asrning 30-yillaridan- mil. avv. III asrning 80-yillariga qadar).

2. Ellin davlatlari va jamiyatining mavjud bo'lishi (mil. avv. III asrning 80 yillaridan-mil. avv. II asr o'rtalarigacha).

3. Ellin tizimining inqirozi va ellin davlatlarining g'arbda Rim imperiyasi, sharqda Parfiya tomonidan egallanishi (mil. avv. II o'rtalari - mil. avv. I asrlar). Rim imperiyasi tomonidan mil. avv. 30-yilda Misrdagi Ptolemeylar sulolasini bosib olinishi qadimgi Yunoniston tarixida ellin bosqichini tugallanganligini anglatadi.

Aslida, manbalar - tarix xomashyosi bo'lib, tarixchilar undan tarixni yaratadilar. Deyarli, butun qadimdan saqlanib qolgan topilmalar - qadimgi tarix uchun potensial manbalardir. Bu davrga oid manbalar ikki katta guruhga - suyakdan tortib binolargacha bo'lganlarni o'z ichiga oladigan moddiy manbalar va yunonlarning bevosita o'zi haqida yoki qadimda ular haqida yozilgan ma'lumotlardan iborat bo'lgan yozma manbalarga bo'linadi. Albatta, moddiy manbalardagi yozuvlar ba'zida sopolning bir qismi

shikastlanishi yoki tosh ustundagi yozuvning kesib olinishi natijasida tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin.

Yunoniston tarixiga oid asosiy manbalar ko'p hollarda ikki ming yil va undan qadimiyroq bo'lgani uchun qo'llanilishidan oldin ularni qayta tiklash va rekonstruksiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda arxeologlar topilmalarga ishlov berishi, paleograflar papirus va pergamentlarga yozilgan yozuvlarni rasshifrovka qilish va tushuntirib berishi; epigraflar va numizmatlar esa tosh va tangalardagi yozuvlarni izohlab berishi kerak bo'ladi. Manba va xomashyolarni qayta ishlovchi mutaxassislar xulosasi tarixchilar uchun qadimgi tarixni o'rganishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Moddiy manbalar. Qadimgi Yunoniston yodgorliklari asosan yer ostida joylashgan. Bir nechta tosh binolarni hisobga olmaganda asosan ibodatxonalar yer ostidan qazib o'rganilgan. Yunoniston tuprog'i buyumlarni saqlanishi uchun qulay bo'lmaganligi sababli ko'p topilmalarga zarar yetganligini kuzatish mumkin. Shu boisdan yog'och, mato va teridan yasalgan eksponatlar juda kam uchraydi. Saqlanib qolgan metall buyumlar orasida: oltin va kumush buyumlar yaxshi darajada; bronza qisman, o'z o'rnida, temir buyumlar esa korroziyaga uchragan holda topilgan. Yana bir turkumdagi yaxshi saqlangan moddiy buyumlar sirasiga yuqori olovda pishiriladigan sopol terrakotalar kiradi. Sopol qadimda ko'plab maqsadlarda, xususan, haykallar va yodgorliklarda, lekin ko'p hollarda xo'jalikda ishlatilgan bo'lib, asosan qabrlar va boshqa joylardan topilgan. Ushbu idishlar asosida arxeologlar Yunonistonning siyosiy tarixigacha va uning ilk tarixi xronologiyasini tuzib chiqib, ularni tarixiy sanalarga aylantirish imkoniyatini yaratgan. Bu davrga oid moddiy yodgorliklar Knoss, Fest, Miken va Pilos hamda Peloponnesdagi saroy qazishmalari natijasida topilgan. Eng ko'p ma'lumotlar Lerna (Shimoliy Peloponnes) va Rafina (Attika) manzilgohlaridan qazib o'rganilgan. Ushbu manzilgohlar miloddan avvalgi uchinchi ming yillik oxirlariga mansub bo'lib, undan bronzadan yasalgan mehnat qurollari va xo'jalik buyumlari topilgan. Shuningdek, Axey qabilalari yashagan qishloqlar qoldig'i Koraka (Korinf) hamda Ziguries (Miken yaqinida) manzilgohlarini o'rganishda ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, Attika va Spartadan qadimgi qabristonlarni o'rganilishi oqibatida miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalariga oid ashyoviy manbalar topildi.

Yozma manbalar. Qadimgi yozuvlar sopol, tosh, metall, va papirus (mil av. II asrdan pergament) kabi turli materiallarga yozilgan. Bizgacha yetib kelgan asosiy yozma manbalar mil. avv. VIII asrda yaratilgan yunon alifbosi asosida yozilgan; lekin, shuningdek, qisqa davr mil. avv. II mingyillik davomida A va B chiziqli Krit yozuvlari ham bo'lgan. Ushbu yozuv namunalari 1901-yilda A. Evans tomonidan topilgan bo'lishiga qaramay, faqatgina 1953- yili ingliz olimi M. Ventris ba'zi qismlarini shifrovka qilishga muvaffaq bo'ldi. Afsuski, bularning ko'pchiligi yo'qolib ketgan.

Qadimgi Yunonistonning klassik hamda ellin davri tarixini yoritishda mazkur mintaqada yashab ijod qilgan tarixchilar asarlarini o'rni beqiyos. Birinchi navbatda mil. avv. V asrda yashagan Galikarnaslik Gerodot (485-425-yy)ni qayd etish maqsadga muvofiqdir. Uning mashhur asari "Tarix" deb nomlanib, 9 kitobdan iborat. Muallif asarning dastlabki 4 ta qismida Kichik Osiyo, Bobil, Midiya, Misr hamda Skif qabilalari tarixini bayon etadi. Qolgan 5 ta kitobda asosan yunon-fors urushi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar (mil. avv. 479 yilgacha) o'rin olgan. Shu davrning yana bir yirik vakili afinalik tarixchi Fukidid (460-400- yy) bo'lib, uning asari Peloponnes urushlariga (431-404- yy) bag'ishlangan. Shuningdek, tarixchi va publitsist Ksenofont (430-355- yy) ham o'z davrining mashhur kishilaridan bo'lgan. U Fukidid ishlarini davom ettirib, "Yunon tarixi" asarini yaratgan.

Yunoniston tarixi yoritishda antik davr faylasuf va siyosatchi arboblarning asarlari muhim o'rin tutadi. Ular orasida Platon va Aristotel qoldirgan ilmiy meros biz uchun qimmatlidir. Platon (427-348- yy) o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini chuqur tahlil qilgan holda "Davlat" va "Qonunlar" nomli traktatlar yaratgan. Aristotel esa hududdagi 158 ta Yunon polislari siyosiy jarayonlarini ilmiy tadqiq etgan holda "Siyosat"(Politika) asarini yozgan.

Qadimgi Yunoniston tarixini yoritishda badiiy adabiyot va san'atning o'rni beqiyos. Esxil, Sofokl, Evripid tragediyalari hamda Aristofan komediyalari shular jumlasidandir. Afsuski, barcha tarixiy va badiiy asarlar to'liq saqlanib qolmagan. Jumladan, mil. avv. V asrning eng taniqli dramaturgi Sofokl tomonidan yozilgan 120 dan ortiq pyesaning yettitasigina bizgacha to'liq etib kelgan. Hozirga kelib so'nggi texnologiyalar asosida yunon yozuvlarining elektron bazasi

yaratilgan bo'lib, unda mil. avv. VIII asrdan milodiy II asrgacha bo'lgan 20 000 000 so'zdan iborat yunon adabiyoti matnlari joy olgan.

Qadimgi O'rtayer dengizi hududida yozish uchun qo'llaniladigan odatiy xomashyo - papiruslar bo'lib, u Misrda mil. avv. III mingyillikdan ishlatila boshlangan. Qadimgi yunonliklar o'tmish mualliflar asarlarini saqlashga jiddiy e'tibor qaratganlar. Aleksandriyadagi katta kutubxonaga tashrif buyuruvchi o'quvchi mil. avv. 1-ming yillik davomida 500 ming o'ramga yaqin kitob o'qish imkoniyatga ega bo'lsa, aytishlaricha o'sha vaqtda Pergamda bunday kitoblar 200 000 o'ramdan oshgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur davrda yunonlar uchun manbalarni o'qish jarayonida tanlov imkoniyati kuchli bo'lgan. Aleksandriyalik olimlar o'zlari ular maktablarda o'rganish uchun eng munosib deb hisoblaganlarini mualliflar ro'yxati bilan birga saralab foydalanganlar.

Mazkur manbalar keng qamrovli bo'lib, ularni davr va joyiga qarab o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, Miken davriga (mil av. 1600-1200) oid manbalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Afsuski, "Zulmat davri" bosqichida, ya'ni mil. avv. VIII asrgacha juda kam materiallar uchraydi va hech qanday yozma ma'lumotlar yo'q (Gomer dostonlari bundan mustasno). Mil. avv. VII asrdan keyin esa moddiy va yozma manbalar ko'plab uchraydi va qadimgi Yunoniston haqidagi rang-barang ma'lumotlarga ega manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Mazkur manzarlarda yunonlar murakkab tabiiy sharoitlarga qanday g'oya va texnologiyalar bilan javob bergani, ular kishilik jamiyati doirasida o'zaro hamkorlik qilganliklari va jamoalar - uyushmalar doirasida qanday o'zgacha madaniyat vujudga keltirgani hamda individual farqlilikni saqlaganliklarini ko'rsatib beradi.

Yunon yozma manbalari orasida badiiy adabiyot ham muhim o'rin tutadi. Albatta zamonaviy tarixchilar asosan qadimgi tarixchilar va biograflar ma'lumotlarga tayanishadi. Lekin, she'riyat va nasrning boshqa janrlari ham muhim manbalar sifatida qaraladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Yunoniston tarixi jahon tarixida qanday o'rin tutadi?

2. Qadimgi Yunoniston geografik o'rni va tabiiy sharoitlari haqida nimalarni bilasiz?

3. Qadimgi Yunonistonning asosiy tarixiy manbalari haqida ma'lumot bering.

4. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid moddiy manbalarning asosiy xususiyatlari.

5. Badiiy va san'at asarlarining Qadimgi Yunoniston tarixini o'rganishdagi roli.

Glossariy

Attika-Yunonistonning qadimgi viloyati, o'rta Yunonistonda joylashgan

Antik – lotincha «qadimgi».

Antik tarix – Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi. **Amfora** – suyuq mahsulotlarni tashish va saqlash uchun mo'ljallangan bo'g'zi ingichka va qo'shaloq dastali katta ko'za

Oykumena – Yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

Polis – yunoncha «shahar».

Ellada – Qadimgi Yunoniston.

Ellinlar – qadimgi Yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

Olimpiya – Qadimgi Yunonistondagi eng baland tog', balandligi 2811 metr.

Mavzu: Krit-Miken sivilizatsiyasi rivojlanishi xususiyati

Reja:

1. Krit-Miken sivilizatsiyasining paydo bo'lishi.
2. Krit-Miken davrida Qadimgi Yunoniston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tizimi.
3. Krit-Miken davrida Qadimgi Yunoniston jamiyatining iqtisodiy tizimi.
4. Krit-Miken davri arxitekturasini.
5. Krit-Miken sivilizatsiyasining barbod bo'lishi.

Krit-Miken jamiyati qadimgi Yunonistondagi dastlabki sivilizatsiya bo'lib, jahon tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. So'nggi

yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar va tadqiqotlarga tayanilgan holda xorij tarixshunosligida Egey dengizi hududidagi bronza davri yoki Krit madaniyati xronologik jihatdan quyidagicha bo'linadi:

- . Mil. avv. 3000-1900- yy Materik Yunonistonda Ilk bronza asri: Kritda ilk Ellada: Ilk Minoy
- 2. Mil. avv. 1900-1600 -yy Materik Yunonistonda o'rta Bronza asri: Kritda o'rta Ellada: O'rta Minoy (Linerar A B chiziqli yozuvlarni paydo bo'lishi)
- 3. Mil. avv. 1600-1200 -yy So'nggi Bronza asri: Kritda so'nggi Ellada yoki Miken davri: So'nggi Minoy

Yunonistonda davlatchilik tarixiga qadar mashhur kishilardan ilk va o'rta Bronza asrida Kritda yashagan minoyliklar bo'lgan. Ularni orolning afsonaviy hukmdori sharafiga shunday nomlashgan.

Arxeologik qazishmalar orasida oroldagi eng diqqatga sazovor joy sifatida Knoss saroyi bo'lib, Ser Artur Evens tomonidan qazib o'rganilgan. Minoyliklar hayratlanarli saroy, ajoyib go'zallikka ega badiiy tasvirlar va hozirgacha o'qilmagan Krit ieroglifi yoki A chiziqli yozuv deb ataladigan yozuvlarni qoldirganlar.

Minoyliklar Misr bilan savdo sotiqli aloqalarini olib borganlar, shu jihatdan Misr yozuvida ularni "Keftiu" nomi bilan tilga olishadi. Bir matnda, hattoki, Krit "shohi" haqida so'z boradi. Agar bu yagona matn to'g'ri bo'lsa, orol yagona hukmdor boshqaruvi ostiga birlashtirilgan. Minoy tili O'rtayer dengizi hududidagi savdogarlar orasida keng tarqalgan. Keyinchalik yaratilgan yunon afsonalarida Egey dengizidagi Minoy dengiz boshqaruvi haqida ham to'xtalib o'tilgan. Afsuski, minoyliklarning Krit ieroglif va A chiziqli matnlari (bir nechta Misr ilovalaridan tashqari) haligacha o'qilmagan. Shu bois, minoyliklarning qadimgi tarixi faqat arxeologik qazishmalar orqali bizgacha ma'lum. Shu jihatdan minoyliklar yaratgan sivilizatsiya hozirga qadar o'tmish jumboqlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kritning ilk gullab-yashnash davri va uning Egey dunyosidagi yetakchiligi mil. avv. III-II ming yilliklarga to'g'ri keladi. Buning birinchi sababi Krit jamiyatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va takomillashuvi bo'ldi. Mil. avv. III ming yillikdayoq Kritda avval mis, keyinchalik bronza ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Bronza qurollar tosh qurollarni siqib chiqaradi. Bu davrda muhim o'zgarishlar qishloq xo'jaligida ro'y berdi. Dehqonchilikda donli

ekinlar (asosan arpa), uzumchilik va zaytun etishtirish kabi asosiy uch yo'nalish paydo bo'ldi.

Mazkur o'zgarishlar o'z navbatida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi va ortiqcha mahsulotning ko'payishiga olib keldi. Buning asosida alohida jamoalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining zahira fondi yaratila boshlandi. Bu esa faqatgina hosil kam bo'lgan yillarda oziq-ovqat yetishmasligini qoplabgina qolmay, qishloq xo'jaligida band bo'lmagan odamlarni, masalan usta-hunarmandlarni boqish uchun ham yetarli bo'lgan. Shu tariqa hunarmandchilik qishloq xo'jaligidan alohida soha sifatida ajralib chiqib, hunarmandchilikning turli sohalarida professional ravishda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga yordam berdi. Arxelogik qazishmalar jarayonida topilgan zargarlik buyumlari, idishlar, tosh buyumlar, kesilgan muhrlar mil. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmidayoq minoylik hunarmandlar mohir usta bo'lib yetishganlaridan guvohlik beradi.

Bu davrda jamoa zahira fondlarining ma'lum qismi jamoalararo va qabilalararo ayriboshlash uchun ham ishlatilishi mumkin edi. Butun Egey havzasida bo'lgani kabi Kritda ham savdo-sotiqning rivojlanishi dengiz savdosining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bizga ma'lum bo'lgan Krit manzilgohlarining aksariyat qismi sohil bo'yida yoki sohildan uncha uzoq bo'lmagan hududda joylashgan edi. Mil. avv. III ming yillikdayoq kritliklar Kiklada arxipelagi orollari, materik Yunonistonning sohilbo'yi hududlari aholisi bilan qalin munosabatlar o'rnatib, Suriya va Misrgacha yetib boradilar. Boshqa dengiz xalqlari kabi kritliklar savdo-sotiq va baliqchilikni qaroqchilik bilan uyg'unlashtirganlar. Kritning mil. avv. III-II ming yilliklarda iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashi ma'lum darajada bu uchta boyish manbalariga ham bog'liq bo'lgan.

Krit iqtisodiyotini rivoji orolning birmuncha hosildor hududlarida aholi sonining oshishiga olib keladi. Ularning katta qismi Kritning sharqiy qismi va keng markaziy tekisliklarda (Knoss va Fest hududi) joylashgan edi. Shu bilan bir vaqtda Krit jamiyatida tabaqalashuv jarayoni ro'y beradi. Alohida jamoalar ichida nufuzli zodagonlar tabaqasi ajralib chiqadi. Uning tarkibiga asosan sulolaviy yo'lboshchilar va kohinlar kirgan. Ular ishlab chiqarish jarayonidan bevosita qatnashishdan ozod qilingan bo'lib, boshqa jamoa a'zolariga qaraganda birmuncha imtiyozlarga ega edilar. Shu davrdan boshlab

asosan bosib olingan qabila a'zolari orasidan asirga olingan kishilardan qullar toifasi paydo bo'la boshlaydi. Shuningdek, shu davrdan boshlab siyosiy munosabatlarning ham yangi shakli vujudga kela boshlaydi.

Taxminan mil. avv. 1700 yillarda Kritda kuchli zilzila ro'y berib, hammayoqni qamrab olgan yong'inga aylandi. Natijada Knoss va Fest, Malliya va Kato Zakrodagi saroylar vayron bo'lgan. Aholi yashaydigan boshqa joylar ham zarar ko'rgan. Bu faqatgina Krit madaniyatini birmuncha vaqt to'xtab turishiga sabab bo'ladi. Tez orada saroylar qayta tiklanib, Knoss orolda ustun ahamiyatga ega bo'ldi. Arxeologik topilmalarga ko'ra orolning turli tomonlaridan Knossga qarab qurilgan yo'llar ana shundan dalolat beradi. Saroylar qayta qurilganidan keyin miloddan avvalgi XVIII asrning ikkinchi yarmidan to miloddan avvalgi XV asrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida Krit davlati qudrati avjiga chiqqan edi. Qaytadan qurilgan Knoss saroyida devorlarga solingan turli bezakli suratlar zodagonlarning qudrati va mavqeini yanada ortganligini aks ettiradi.

Knoss va Kritning boshqa saroylarida egalarining dabdabali hayoti va aksariyat aholining ayanchli hayoti arxeologik materiallar: turar joy, ro'zg'or buyumlari va maqbaralarda yaqqol namoyon bo'ladi. Saroy omborxona, ustaxonalari va boshqa yordamchi binolar esa saroy xo'jaligini murakkab tuzilganidan dalolat beradi.

Saroy xo'jaligida ko'plab mutaxassis va hunarmandlar – yordamchi xodimlar, xizmatkorlar xizmat qilgan. Saroyda xodimlari orasida qullar ham ko'p bo'lgan.

Kemalar flotidan tashqari, Kritda quruqlik qo'shini ham bo'lib, askarlar jang aravalarida harakatlanganlar. Krit davlati ma'muriy jihatdan viloyatlardan iborat bo'lib, ular shoh noiblari tomonidan, oqsoqollar kengashlari bilan birga idora qilingan. Yerlar qisman jamoaga qarashli bo'lib, qisman yakka tartibda ijaraga berilgan va xususiy mulk mavjud edi. Dengizning narigi tomonidagi Krit nazorati ostidagi yerlar mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan. Masalan, Attika viloyatida shunday jarayonni kuzatish mumkin bo'lgan.

Qadimgi kritliklarning e'tiqodi xususida arxeologik manbalar ko'proq ma'lumotlar beradi. Kritliklar katta ibodatxonalar qurmay, balki kichik- kichik sajdagoh va mehroblar qurish bilan cheklanganlar. Ko'pgina rasm va haykalchalar kritliklarning bosh xudosi – ayol-iloha bo'lib, u mahalliy xalq tasavvurida hayot baxsh etgan, o'simliklar,

hayvon va odamlarni himoya qilgan. Diniy marosimlar asosan ayollar tomonidan ado etilgan. Yunon afsonalari Krit dinini keyinchalik yunonlarning yuzaga kelgan diniga ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi.

Miken. Mil. avv. II ming yillik oxirlarida Bolqon Yunonistonida qabilalarning ko'chishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy xayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taxminlarga ko'ra bu vaqtda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'oqlarida Hind-Yevropa tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlar paydo bo'ladi. Bu haqda Mikenda arxeologik qazishmalar olib borgan Genrix Shlimann ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Miken keyinroq yaratilgan yunon afsonasi bo'lmish Iliada dostonida yunonlarni Troyaga qarshi urushga boshlab borgan Agamemnon ismli afsonaviy hukmdorning yashash joyi bo'lgan. Egey havzasida 400 yil davomida bir xil madaniyatni mavjud bo'lishi uni shartli ravishda "Miken" madaniyati deb atalishiga sabab bo'ldi. Mikena siyosiy markaz sifatida o'z hukmronligini keng qamrovda amalga oshira olmadi. Faqat Mikenada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Mikena madaniyatiga mansub inshootlar qazib ochildi. 1876 yilda arxeolog G. Shliman Mikenada qoyaga o'yilgan shaxta tipidagi qabrlarni topdi. Qabrlarda kumush va oltin bilan bezatilgan bronza (jez) qilichlar, oltin va kumush qadahlar, tilla niqoblar va boshqa buyumlar topildi. Qabr toshlarida ov va jang lavhalari tasvirlangan.

Mil. avv. 1600 yillar atrofida Kritda yuksak rivojlangan madaniyat mavjud bo'lgan paytda Bolqon Yunonistonida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Markaziy va janubiy Yunonistonda qudratli markaz Mikena shahri va boshqa shaharlar shakllana boshlaydi

Biz bugun Mikenning oxirgi yuz yil davomidagi boyligi va kuch-qudrati, 14-15 asrlar oldin qurilgan joy-majmualarining xarobalarini ko'ramiz. Ularning arxitekturasini va bezagi diqqat bilan qaralganda, Minoy uslubiga o'xshatiladi, shu bilan birga bir-nechta ajoyib farqlari ham bor. Ular odatda tepaliklarda joylashgan bo'lib, hashamatli qalin devorlar bilan o'ralgan va ular Krit makonlaridan farqli o'laroq, ancha kichik edi. Biz Miken hukmdorlarining dastlabki vazifasi mamlakatga bostirib keluvchi raqiblardan mudofaa qilish deb, xulosa qilamiz. Qal'alarni o'rab olinishi yashirinish va istiqomat qilish uchun

dastlabki shahar bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik Yunonlarda juda katta devorlar insoniyat aqli bovar qilmaydigan darajada ulkan va hashamatli qilib qurilgan. Haqiqatdan ham bunday ishlar, ehtimolki shohning maqtanishi, davlati va kuch-qudratini odamlar ko'z o'ngida namoyish qilish uchun kerak bo'lgandir. Shuningdek, Miken makonlari Minoydan farqli o'laroq, turli vaqt oralig'ida o'zlashtirilgan. Krit komplekslarida hovliga tosh yotqizilgan, markazda to'g'ri to'rtburchakli saroylar bo'lib, zal, megarondan tashkil topgan. Megaron - bayramlarda kengash a'zolari va mehmonlarni kutib olish uchun ishlatiladigan tantanali markaz edi. Birinchi hovli orqali peshayvon va kichik xonaga kiriladi. O'rtada katta xona bo'lib, u yerda plastikdan yasalgan dumaloq o'choq, yon tomonida to'rtta ustun hamda ochiq balkon bo'lgan (U yerda ilohdan madad so'ralgan).

Yangi qirollik davri (mil. avv. 1575-1087- yy) da Anatoliya, Suriya, Misrga qarshi agressiv harakatlar olib borilgan. Shunga qaramay, O'rtayer dengizi dunyosida Miken madaniyati va boshqa davlatlar bilan diplomatik jarayonlar shakllandi.

Mintaqadagi yana bir muhim markaz haqida Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari ma'lumot beradi. Unda Pilos shahri va Messaniya haqida hikoya qilinadi. "Nestor" makoni Amerika arxeologi Kar Belgans tomonidan 1939-yili Pilosdan topilib, so'nggi bronza davriga oid ekanligi aniqlanadi. Belgans ko'p sonli B chiziqli muhim yozuvlarni topadi. B chiziqli yozuvlar Knoss va boshqa markazlardan ham topilgan. Unda Mikenning iqtisodiy jamiyati haqida ma'lumotlar uchraydi.

Yana bir markaz "Pilos" hisoblanib, B chiziqli yozuvda "Pu-ro" deyilgan. U yerdagi jo'shqin hayot mil. avv. 1400-1200- yillarning o'rtasigacha cho'zilgan. Nestorda inshootlar mil. avv. 1300-1200- yillar atrofida qurilgan va ular kichikroq ko'rinishda bo'lgan. Pilos qirolligi ikki yuz atrofida shahar va qishloqlarni o'z ichiga oladi. Hududi 1400 kv km milni tashkil qilib, 2 ta viloyatga bo'linadi, viloyatlar esa, yetarlicha tumanlarga bo'linadi. Jamiyat piramidasining Yuqorisida qirol turgan bo'lib, u "vanaks yoki vanaka" deyilgan. Qirolidan keyin peshqadamlik armiyada bo'lgan. Markazlashtirilgan ishlab chiqarish va tarqatish tizimi, asosan, hashamatli uylarda yashovchi mansabdorlar uchun xos bo'lib, kichik bo'lgan guruhlarining ba'zi qismi ta'minlangan. Lekin, ko'pchilik odamlarning

asosiy ishlab chiqaruvchi boyligi - dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Oddiy aholi kamtarona hayot kechirishgan, uylari bir-ikki xonali bo'lib, ularni ozchilik qismigina serhasham yashagan. Ko'pchilik oilalar oliy darajadagi kishilardan yerlarni ijaraga olgan, qolganlari esa, o'zining yeriga ega bo'lgan. Hunarmand, chorvador va ruhoniylar yerlarning "shaxsiy" xo'jayinlari hisoblanishgan. Oddiy qishloq kishisi fermada ishlashi, yer, daraxtlar, tok, uy hayvonlariga qarashi, soliq to'lashi lozim bo'lgan. Bir necha uy xizmatkorlari armiyada ham xizmat qilishgan. Ayollar asosan uy ishlari bilan mashg'ul bo'lishgan. Shuningdek, qishloqdagi ayollar mato to'quvchilardan asboblarni ijaraga olib, ulush evaziga jun va zig'irdan buyumlar tayyorlashgan.

Mikenda aholi uyda mahsulot tayyorlab, eksport qilgan. Ayollar to'qimachilik, ko'ylak tayyorlash, choyshab tikish bilan band bo'lsa, erkaklar duradgorlik, kulolchilik, charm tayyorlash va boshqa ishlar bilan shug'ullanishgan.

O'sha vaqtda Yunonistondan mis, qalay, oltin, fil suyagi, bo'yoq, qahrabo va ziravorlar chet davlatlarga eksport qilingan. Ayniqsa, vino va qimmatbaho taqinchoqlar eng ko'p chiqarilgan mahsulotlar sirasiga kirgan.

B chiziqli yozuvga qaraganda, Mikenda aholi Zevs, Poseydon, Germes, Artemidaga ibodat qilgan. Zevsni "Osmon otasi" deb atashgan.

Mikenda doriylar o'z davlatiga asos soladi va bu tarixda "doriylar bosqini" deyiladi. Miken qirolligi miloddan avvalgi 1100-yilgacha yashagan.

Minoy san'ati va arxitekturasida Yaqin Sharq sivilizatsiyalari, avvalo Misr oldida katta qarz dordir. O'sha paytda ular qadimgi sivilizatsiyalar metod va texnologiyalaridan unumli foydalanilgan holda o'ziga xos farqli jihatlar va uslub asosida rivojlantirdilar. Tashrif buyuruvchilar uning hashamatli o'lchami (300 xonadan iborat 3.2 akr maydonni egallagan) va arxitekturasining jozibadorligidan hayratga tushganlar. Saroy tosh va g'ishtdan qurilgan bo'lib, shuningdek, ko'plab ustunlar ham ishlatilgan. Ko'plab ayvonlar, peshayvonlar va balkonlar yorqin ranglar bilan bo'yalgan bo'lib, tashqaridan teatrona ko'rinish bergan. Kichkina tuynuklar saroy ichkarisiga toza havo va kunduzi yorug'lik berib turgan. Quvurlar tizimi va kanalizatsiya ko'plab xonalarga chuchuk suv olib kelish va

chiqindilarni chiqarib tashlash imkonini bergan. Devorlar va yo'laklar o'simliklar tasviri, hayvonlar hayotidan olingan lavhalar va kishilar faoliyati, ba'zida diniy jarayonlar yoki marosimlar bilan bezatilgan. Bu kabi tasvirlar shahar va qishloqlardagi biror- bir uylarda uchramaydi.

Krit san'ati nafisligi, hayotiyliigi va rang-barangligi sabab bugungi kunda ham undan ilhom oladilar. Freskalar, idishlardagi rasmlar va kichik haykalchalar bizga saroy va villalar egalari o'zlarining qanday tasvirlaganliklarini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Ayol va erkaklar yosh, xushbichim va bejirim tasvirlangan. Erkaklarning soqollari olingan va Misr erkaklari kiyimlariga o'xshash kalta katak yubka kiyganlar. Ayollar va erkaklarning ikkalasi ham uzun sochlarga ega bo'lgan, orasta kiyim va oltin taqinchoqlar taqishgan.

Mil. avv. III ming yillik oxirlarida Bolqon Yunonistonida qabilalarning ko'chishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taxminlarga ko'ra bu vaqtda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ida hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlar paydo bo'ladi.

Mil. avv. II ming yillik boshlarida kulolchilikda, kumushga ishlov berish ishlarida, urf-odat, an'analarda (jumladan, uy ichida, pol ostida yoki devor orasida bolalar qabri) yangi jihatlar paydo bo'ladi. Yangi etnik birliklar eskilari bilan aralashib yangi moddiy va ma'naviy madaniyatini vujudga keltirdilar.

Mil. avv. I ming yillikni oxirida Kipr Kichik Osiyodagi panfiliyalik axeylar tomonidan o'zlashtiriladi. Mil. avv. XIV asrda Kichik Osiyoda Axeya davlati mavjud bo'lgani to'g'risida mixxat yozuvlari ma'lumot beradi. Xett manbalarida (XIV-XIII asrlarda) Axeya deb atalgan davlatni tadqiqotchilar Bolqon yarim oroli Kichik Osiyo va Rodos orolida deb turli farazlar qiladilar.

Mil. avv. XII asr boshida Sharqiy O'rtayer dengizining Osiyo qirg'og'ida filimstinlar deb atalgan xalqlar o'rmashadi. Ularning manzilgohlarida bu yerda ilgari bo'lmagan, shu yerning o'zida ishlab chiqarilgan mikena sopol buyumlari ko'plab topilgan. Bu vaqtda Bolqon Yunonistoniga shimoldan turli qabila guruhlar ko'chishi boshlanadi. Yodgorliklarda moddiy – ma'naviy madaniyatning tushkunligi ko'rinadi. Bu vaqtdan boshlab temir o'zlashtirila boshlanadi. Peloponnes yarim oroli va Kritga doriylar kelib

oʻrnashadilar. Doriylarning kirib kelishi bilan mavjud sivilizatsiya yoʻq qilib yuborildi.

Xulosa qilib aytganimizda, Krit-Miken jamiyati qadimgi Yunonistonda ilk sivilizatsiya oʻchoqlaridan biri boʻlib, bu yerda ilk davlatchilik shakllari koʻzga tashlanadi. Lekin bu davlat keyinchalik oʻzaro bosqinlar natijasida inqirozga yuz tutadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Krit sivilizatsiyasining tarixda tutgan oʻrni haqida maʼlumot bering.

2. Knoss shahri xarobalaridan nimalar topilgan?

3. Miken aholisining etnik tarkibi qanday boʻlgan?

4. Yunonlarning qoʻshni xalqlar bilan oʻzaro madaniy aloqalari haqida nimalarni bilasiz?

5. Krit-Miken madaniyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan oʻrniga baho bering.

Glossariy

Fol toshi-Krit din va madaniyatiga oid yozma manba

“B” chiziqli yozuv-Axeylar taʼsirida oʻzgargan Krit yozuvi

Nukleus-oʻzak toshli mehnat quroli

Stela- tom taxta. Ularga suratlar uyilgan

Vanaka – Pilos va Kritda davlat hukmdori unvoni (mil. avv. II ming yilliklar). Keyinchalik hukmdor podsho.

Patreve-shoh noiblari

Mavzu: Miloddan avvalgi XI asr oxiri–VI asrlarda Yunoniston

Reja:

1. Mil. avv. XI-IX asrlarda Gomer davri (“Zulmat asri”) da Yunoniston.

2. Buyuk Yunon kolonlashtirish davri.

3. Yunon polislarining shakllanishi.

4. Sparta davlati

Mil. avv. XI-IX asrlar Gomer davri ("Zulmat asri")da Yunoniston. Krit-Miken davridan keyingi Yunon tarixi davrini sobiq sovet va ba'zi bir g'arb tarixshunoslari "Iliada" va "Odisseya" asarlari muallifi Gomer nomi bilan Gomer davri deb atashgan. Sababi, mazkur davr bo'yicha asosiy ma'lumotlar Gomer dostonlarida keltirilgan tarixiy voqeilikka asoslanib yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy g'arb tarixi maktablari, jumladan, amerika, ingliz, fransuz va boshqa maktab vakillari bu davrni "Zulmat asri" deb ham nomlashadi.

Gomer davri bo'yicha ma'lumotlarni arxeologik tadqiqotlar sezilarli ravishda to'ldiradi va kengaytiradi. Bu davr uchun asosiy arxeologik topilmalar nekropol (qabriston)lardan topilgan. Ularning eng yiriklari Afinadan (Keramika va so'nggi Agora), Salamin oroli, Evbeyadan (Lefkanda yaqinida) va Argos atroflarida ochib o'rganilgan. Mil. avv. XI-IX asrlarga oid bo'lgan manzilgohlarning soni hozirgacha ko'p emas. ularning deyarli hammasi yetib borish qiyin, tabiiy himoyalangan joylarda joylashgan. Ularda doriylar tomonidan siqib chiqarilgan mahalliy minoy-axey aholisining qoldiqlari yashagan. Gomer davri dengizbo'yi aholisi quruqlik bilan tor yo'llar orqali bog'langan yarim orollarda joylashgan. Ular qaroqchilardan himoyalaniş uchun devorlar bilan o'rab olingan. Bunday manzilgohlaridan biri sifatida Eoliya kolonistlari tomonidan asos solingan Kichik Osiyo sohilidagi Smirmani ko'rsatish mumkin.

Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, doriylar bosqini Yunoniston taraqqiyotini bir necha asrlarga orqaga ketishiga sabab bo'lgan. Miken davrida erishilgan yutuqlardan faqatgina yangi yerlarni o'zlashtirish uchun kerak bo'lgan ishlab chiqarish usullari va texnikalar saqlanib qolgan edi. Bunga kulolchilik charxi, metallga ishlov berish texnikasi, yelkanli kema, zaytun va uzum yetishtirish madaniyatini misol keltirish mumkin. Miken sivilizatsiyasiga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, davlat muassasalari, diniy-g'oyaviy tasavvurlar o'zining mavjudligini to'xtatgan edi. Butun Yunoniston hududida uzoq vaqtgacha yana ibtidoiy jamoa tuzumi qaror topdi.

Miken saroylari va qal'alari tashlandiq holda yotgan. Ularning devorlari ortiga endilikda hech kim kelib joylashmadi. Hattoki, doriylar bosqinidan zarar ko'rmagan Afinada ham mil. avv. XII asrda Akropol uzoq vaqtgacha huvillab yotdi. Bu davrda deyarli barcha uylar yog'och yoki xom g'ishtdan qurilgan. Gomer davrida dafn qilish

marosimi ham Miken qabrlariga nisbatan qiyoslaganda ancha nochorroq. Erkaklar qabrlarida faqatgina sopol ko'zalar bronza yoki temir qilichlar hamda nayza va kamon o'qi uchlari mavjud bo'lsa, ayollar qabrlarida arzon taqinchoqlar uchraydi. Ularda deyarli qimmatbaho buyumlar bo'lmagan. Gomer davri hunarmandchiligi ham badiiy ham texnik jihatdan Miken davridan ortda qolganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, qabrlarda o'zga xalqlar, xususan, sharqiy xalqlarga tegishli bo'lgan buyumlar uchramaydi. Bularning hammasi hunarmandchilik va savdoning keskin susayib ketganligi, malakali ustalarning urush natijasida ommaviy tarzda qochib ketganligi, Miken Yunonistonini Yaqin Sharq va boshqa O'rtayer dengizi bilan bog'lab turgan dengiz savdo yo'llarining uzilganini ko'rsatadi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, Gomer davri Yunonistonning madaniy rivojiga hech narsa bermadi, deb bo'lmaydi. Bu davrda ba'zi bir muhim yangiliklar ham qilindi. Ulardan eng muhimi yunonlar tomonidan temirni eritish va qayta ishlash bo'ladi. Miken davrida temir qimmatbaho metall hisoblanib, undan faqat uzuk, tumor kabi taqinchoqlar yasash uchun foydalanilgan. Bolqon Yunonistoni va Egey orollari hududlaridan topilgan temir qurollarning qadimiy ko'rinishlari (qilich, hanjar, o'q va kamon uchlari) mil. avv. XII-XI asrlarga tegishlidir. Birozdan keyin mil. avv. X-IX asrlarda temirdan birinchi mehnat qurollari yasala boshlanadi. Misol tariqasida Afina agorasidagi qablardan birida topilgan bolta va iskana, keramika nekropolidagi qablardan biridagi iskana va poytesha, Tirinfdagi temir o'roq va boshqalarni keltirish mumkin.

Gomer davri iqtisodiyotida natural ishlab chiqarish hukmron bo'lib, asosiy sohalar Miken davriga o'xshab dehqonchilik va chorvachilik edi. Gomerining "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan ko'plab sahnalar o'rin olgan. Gomer davri iqtisodiyotida chorvachilik favqulodda muhim rol o'ynagan. Chorva asosiy boylik o'lchov birligi hisoblangan. Masalan, Odissey "Itaka va yaqin materikdagi qahramonlarning birinchisi" hisoblangan, chunki unga 12 suruv yirik shoxli qoramol, shuncha miqdorda echki, qo'y va cho'chqa tegishli bo'lgan.

Arxeologik jihatdan Gomer davrini o'rganish natijalaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mil. avv. XI-IX asrlarda Yunoniston va Butun Egey havzasi iqtisodiy izolyatsiyada yashagan.

Gomer davri jamoalari hattoki o'zi bilan qo'shni bo'lgan jamoalar bilan ham deyarli aloqaga kirishmagan. Jamoalar xo'jaligi natural ko'rinishga ega bo'lgan. Umuman olganda bu davrda ishlab chiqarish sust rivojlangan, ijtimoiy munosabatlar ham taraqqiyotda ancha ortda qolgan bosqich sifatida tarixda qoldi.

Buyuk Yunon kolonlashtirish davri. Qadimgi Yunoniston tarixida mil. avv. IX-VIII asrlarda chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mayda, bir-biridan ayro bo'lgan urug' va qishloq jamoalari yangi ijtimoiy-siyosiy institutlarga aylana boshlaydi. Bunda turli xil ijtimoiy guruhlar o'rtasida qonli to'qnashuvlarga olib kelgan o'tkir qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi, davlatchilik organlari tizimi shakllanadi, yuksak madaniyat yaratiladi.

Bu yangi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar polis nomini olib, qadimgi yunon jamiyati, davlatchiligi va madaniyatining asosiy yacheykasiga aylandi. Polislar faqat urug' jamoalari negizidagina shakllanib qolmasdan Egey havzasi, Qora va O'rtayer dengizi sohillarida yangi manzilgohlar – koloniyalarga asos solinishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu jarayon faqatgina mil. avv. VI asr oxiriga kelib yakuniga yetadi.

Mil. avv. VIII-VI asrlarda yunon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti qadimgi yunon tarixida Buyuk kolonlashtirish jarayonini boshlab beradi. Aholi Egey havzasidagi yunon shaharlaridan O'rtayer va Qora dengiz sohillari bo'ylab joylashgan ko'p sonli koloniyalarga (yunoncha "apoykiya") ko'chib o'tadi. Umumiy aholisi 1.5-2 mln. kishi bo'lgan bir necha yuz koloniyalar vujudga keldi. Buyuk kolonniyalashtirishning bir necha sabablari bor edi. Birinchidan yangidan paydo bo'layotgan yunon polislarida hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi faoliyat maydonini kengaytirishni talab qilardi: o'zining chek yerlarini yo'qotgan fuqarolar uchun yangi yerlar kerak edi, hunarmand ustalar uchun xomashyo manbalari va sotish uchun bozor talab qilinardi. Bu sharoitlarni barchasini atrofi mahalliy qabilalar bilan o'ralgan O'rtayer va Qora dengizning boy va qulay viloyatlaridan topish mumkin edi.

Koloniyalarning vujudga kelishining yana bir sababi yunon jamiyatida tabaqalashuv va ijtimoiy differensiyalash jarayoni bo'ldi. O'zining yerini yo'qotgan kambag'allar, sudxo'rlar domiga tushganlar, turli ijtimoiy kurashlarda mag'lubiyatga uchragan guruh vakillari o'zga koloniyalardan omad va farovonlik qidirdilar. Aristokratlar bunday ko'chishlarga qarshilik qilmadilar. Chunki

koloniyalarga hukmron tabaqa uchun xavfli, norozi bo'lib yurgan siyosiy raqiblar ketayotgan edi. Shu bilan birga shahar-metropoliya hukmron doirasi uchun ham o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatilgan, qimmatbaho xomashyo olish mumkin bo'lgan koloniyalarning bo'lishi manfaatli edi, shu tufayli metropoliyalar o'zlarining siyosiy ta'sirini kengaytirar edilar.

Koloniyalarga ko'p sonli aholining ko'chishi umumiy yunon aholisi sonini ko'paymasdan sodir bo'lmas edi. Yunoniston mil. avv. VIII-VI asr o'ziga xos demografik portlashni boshdan kechirdi.

Buyuk yunon kolonizatsiyasi uchta yo'nalishda amalga oshirildi. Ular orasida birmuncha kuchlirog'i g'arbiy yo'nalish edi. Miloddan avvalgi VIII asrda ko'plab aholi Yunonistondan Sitsiliya va Italiyaning janubiga qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ko'chib ketadi. Ular g'arbga qishloq xo'jaligi uchun emas, balki savdo-sotiq tufayli borgan ilk sayohatchilar ortidan ergashdilar. Tez orada yirik va gullab-yashnagan g'arbiy Yunon polislariga aylangan shaharlar - Sirakuza (mil. avv. 733-y), Zankla (mil. avv. 730-y), keyinchalik Messana deb nomlangan Regiya (mil. avv. 720-y), Tarent (mil. avv. 706-y), Sibaris, Kroton, Gela, Selinunt Akragant va boshqalarga asos solinadi. Sitsiliya va Janubiy Italiyada yunon kolonistlari shu darajada zich o'rnamshgan edilarki, bu hududlarni "Buyuk Yunoniston" atamasi bilan atay boshladilar.

Yana bir kuchli kolonizatsiya harakatlari shimoliy-sharqiy yo'nalishda yuz berdi. Bunda yirik va boy yunon shaharlaridan biri bo'lgan Milet yetakchi rol o'ynadi. Rivoyatlarga ko'ra, Milet dan 100 ga yaqin manzilgoh va koloniyalar ajrab chiqqan. Bu yo'nalishda Kizik (mil. avv. 756-y), Xalkedon (mil. avv. 685-y), Vizantiy (mil. avv. 667-y) lar eng mashhurlari sanalgan. Mil. avv. VI asrda kolonizatsiya to'liqini Shimoliy Qora dengiz bo'yiga etib boradi. Bu yerdagi yunon koloniyalaridan Olviya, Tavrika, Pantikapey, Tir, Gorgippiya va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Yunon kolonizatsiyasining birmuncha kuchsiz yo'nalishi sifatida janubiy-sharqiy va janubiy yo'nalishlar bo'lib, Finikiya sohillari, Misr va Livianing dengizbo'yi hududlari hisoblangan. Bu hududlarda Yunon koloniyachilari qudratli Ossuriya va Yangi Bobil podsholari va Misr fir'avnlari qo'llab turgan Finikiya savdogarlarining qattiq qarshiligiga duch keladi. Shu boisdan bu hududlarda faqatgina bir nechta savdo faktoriyalari rolini o'ynagan va mahalliy hukmdorlarga

bo'ysungan sanoqli manzilgohlarga asos solingan, xolos. Bular Shimoliy Suriyadagi El Mina, Finikiyadagi Sukas, Misrdagi Dafna va Navkratislardir. Faqatgina dengizdan bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan, Finikiya savdogarlari va Misr fir'avnlari qo'li yetmagan Kirena (mil. avv. 630 y) rivojlangan Yunon polisi sifatida Bolqon Yunonistoni shaharlari bilan faol savdo aloqalarini olib boradi.

Yunon kolonistlari xalqaro savdo ittifoqiga qo'shilganlar va hech qancha vaqt o'tmasdan boshqa Evbeyaliklar Italiyaning janubidagi Pitekussada savdo koloniyasiga asos solganlar. Shu bilan birga ko'p sonli yunon kemalari O'rtayer dengizi bo'ylab o'tgan savdo yo'llarida suzganlar va hattoki O'rtayer dengizidagi yetakchi dengiz savdogarlari bo'lgan finikiyaliklar bilan ham raqobatlashganlar. G'arbda paydo bo'lgan yangi yunon koloniyalari nafaqat dehqonchilik uchun qulay yerlar, balki o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish va qadimgi Yunoniston bilan shimoliy Yevropa aholisi uchun xomashyo materiallar, ayniqsa metallga ehtiyoj tufayli ham borgan edilar.

Birinchi koloniyalarning aholisi uncha ko'p bo'lmagan. Ko'chib borgan guruhlar odatda bir necha yuz kishidan iborat bo'lgan. Koloniyachilar ma'lum darajada mahalliy aholi bilan aloqaga kirishishi lozim bo'lgan. Odatda (har doim ham emas) bunday aloqalar tinch o'tmagan, kolonistlar agressiv siyosat olib borish uchun kamchilik qilganlar. O'z navbatida mahalliy qabila boshliqlari ularga vino, zaytun yog'i, taqinchoq buyumlari olib keladigan birmuncha sivilizatsiyalashgan yunonlar bilan aloqa o'rnatishga qiziqqanlar. Begona joyga ko'chib borgan birinchi ko'chmanchilar metropoliya bilan qalin aloqalarni saqlab qolganlar va ularning har tomonlama qo'llab-quvvatlashiga tayanganlar. Biroq bunday qalin aloqalar va yaqin qarindoshchilik munosabatlariga qaramasdan koloniyalar mustaqil polis sifatida tashkil etiladi.

Mil. avv. VIII-VI asrlardagi buyuk kolonlashtirish butun yunon dunyosining siyosiy-iqtisodiy va madaniy rivojidagi eng muhim omillardan biri bo'ldi. Ko'chib boruvchilarning yangi qabilalar, mamlakatlar bilan tanishishi yunonlarning madaniy jihatdan dunyoqarashini kengaytirdi. Yangi shaharlarni qurish, hududlarni o'zlashtirish zarurati shahar qurilishi va arxitektura hamda tasviriy san'atning rivojiga katta turtki beradi. Qadimiy sharq mamlakatlari madaniyati, O'rtayer dengizi qabilalari dunyosi bilan o'zaro aloqalar

yunon madaniyatini yangi g'oyalar va bilimlar bilan boyitdi, yunon falsafasi va adabiyotini rivoji uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qildi.

Yunon polislarining shakllanishi. Shahar-davlat asosan markaziy shahar va unga tutash bo'lgan hududlarni birgalikda yagona, o'z-o'zini boshqaradigan siyosiy tuzilma sifatida birlashtiruvchi ma'lum geografik rayon hisoblanadi. Yunonlar bu kelishuvni polis deb atashgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yunon shahar-davlatlarining asosiy elementlari so'nggi zulmat asridayoq paydo bo'lgan edi. Butun zulmat asrida mavjud bo'lgan poytaxt shaharlar shahar-davlatlarga aylandi va ularning ko'pchiligi Miken davridayoq markaz shaharlarga aylanib ulgurgan edi. Gomer eposlarida tasvirlangan yunon shahar-davlatlarining ikki asosiy boshqaruv organlari bo'lmish chaqiruv yoshidagi erkaklar yig'ini va "oqsoqollar" kengashi to'la rivojlanib bo'lgan edi. Mil. avv. 800- yilda demos jamiyatlari mavjud bo'lgan bo'lsa, mil. avv. 700- yillarga kelib, mazkur jamoalar shahar-davlatlar ko'rinishida faoliyat yuritga boshladi.

Yunon polislarining vujudga kelishi. Mil. avv. VII-VI asrda quldorlik jamiyati va polis tizimi shaklidagi davlat tuzildi. Bu sinfiy jamiyat taraqqiyoti va davlat tuzumida yangi yo'l bo'lgan.

Mil. avv. VIII-VI asrda yunon sivilizatsiyasi ma'muriy bo'linishga ko'ra emas, balki urug'-jamo'a va qarindoshlik munosabatlari asosida shakllangan. Bu murakkab madaniyat Krit-Miken sivilizatsiyasining merosxo'ri bo'lgan.

Mil. avv. II mingyillikdagi tarixiy tajriba shunchaki qolib ketmay, u umumiy tarixiy jarayonni yanada boyitdi.

Ishlab chiqarish kuchlari II mingyilliklarga nisbatan mil. avv. VIII-VI asrlarda yuqori darajada rivojlandi. Yangi metall-temirning ixtiro qilinishi ishlab chiqarish kuchlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Temir uskunalar yordamida tosh yerlarni tozalash va daraxtzor yerlarni kesib ularni tekisliklarga aylantirish imkoni paydo bo'ladi.

Tabiiyki, bu material yunonlarning xomashyoga bo'lish imkonini beradi. Murakkab iqtisodiyot vujudga keldi, tovar ishlab chiqarish tezlashdi. Bu jihat xo'jalik va jamiyat rivojlanishi uchun sabab bo'ldi. Yunoniston tabiati qadimgi sharq mamlakatlaridan ko'ra boshqacharoq bo'lib, hududda yerga ishlov berish uchun murakkab gidrotexnika shart bo'lmagan. Bu sharoit xususiy yerlarning

rivojlanishi uchun imkon bergan. Davlatga asosiy daromad podsho yerlaridan emas, balki qullar ishlagan xususiy yerlardan kelgan.

VIII-VI asrda yunon jamiyatining rivojlanishi kichik respublikalarga, o'rta boy tabaqagaga bog'liq bo'lgan. Shu kichik mamlakatlar va jamiyatlarda iqtisod rivojlanishi uchun zamin yaratiladi. Albatta, har bir polis o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lgan.

Hududi va aholi soni bo'yicha yunon polisleri bir-biridan ajralib turgan. Polislar orasida juda kattalari ham bo'lgan. Masalan, Lokedemon yoki Sparta hududi 8400 km, aholisi taxminan 200 -300 ming kishi atrofida bo'lgan. Afina polisining hududi 2, 5 km. kv bo'lib, 250-300 ming atrofida aholi yashagan. Lekin shunday polislar ham bo'lganki, hududi 30-40 km. kv dan iborat bo'lib, bir necha yuz aholiga ega bo'lgan, xolos. Mintaqadagi Fokid polisi, Panopey (Beoteya) polisleri shular jumlasidandir.

Eng ommalashgan va keng tarqalgan yunon polisining hududi 100-200 km. kv, ya'ni 10x10, 10x20 kmni tashkil etgan. Aholisi 5 mingdan 10 minggaacha bo'lib, uning tarkibi: bolalar, ayollar, chet elliklar va qullardan iborat bo'lgan. Aristotel aytganidek, polis hududi ko'zga ko'rinadigan bo'lishi kerak, sababi himoya qilish oson bo'ladi. Polis markazida shahar joylashgan. Bu shaharning vazifasi markaziy punkt vazifasini bajarish, ya'ni polisning barcha hududiga yordam jo'natish, o'rmon mahsulotlarini yetkazib berish, bu mahsulotlarni o'sha yerning o'zida qayta ishlash lozim bo'lgan.

Shahar va polislarining dengizga chiqish imkoniyati bo'lishi ular uchun juda katta ustunlikni ta'minlagan. Birinchidan, davlat xavfsizligini ta'minlagan, ikkinchidan, mahsulotlarni yetkazib berish qulay bo'lgan. Bu kabi qulayliklarga ega bo'lgan polis Aristotelning fikricha ideal ko'rinishdagi polis hisoblangan

Odatda yunon polisleri kichik-kichik davlat bo'lgan. Hududining kichik bo'lishi polis hududining boshidan oxirigacha borib-kelish oson bo'lishini ta'minlagan. Shaharni bir necha soatlarda aylanib chiqish mumkin bo'lgan. Aholisi ham kam bo'lib ko'pchilik bir-birini tanigan. Markaz bitta bo'lib xalq shu yerda yig'ilgan. Bu yerda ibodatxona, hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan. Shahar dengiz qirg'og'ida yoki bir necha km uzoqlikda joylashgan. Shaharning markaziy polisi mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lishi kerak edi. Shahar aholining 50%dan ortig'i istiqomat qilgan. Yer egalari va

yerga ishlov beruvchilar har hafta unga ishlov berishga borishgan. Chunki, yer markazga yaqin bo'lgan. Markaziy maydonda turli xil bayramlar, savdo operatsiyalari, sport o'yinlari o'tkazilgan. Polis hududida bir nechta qishloq aholisi bo'lishiga qaramay, shahar markazi butun bir davlat hududida bitta edi, xolos.

Polisning asosiy iqtisodiy yer hisoblangan. Tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda yunon shaharlarining katta qismi va qishloq xo'jaligi murakkab tuzilishga ega edi. Masalan, qishloq xo'jaligining o'zi bir necha tarmoqqa bo'lingan bo'lib, g'allachilik, uzumchilik, zaytun etishtirish, bog'dorchilik, polizchilik, chorvachilik asosiy xo'jalik turlarini tashkil qilgan.

Uzumchilik, polizchilik va zaytun yetishtirish juda katta mehnat va mablag' talab qilar edi. Shuning uchun iqtisodiy imkoniyatni hisobga olib, qo'shimcha qullar kuchidan foydalanishgan. Ko'p hollarda shahar markazlari dengiz bo'yida joylashganligi sababli u yerda hunarmand, savdogarlar mol ayirboshlash va savdo operatsiyalarini qulay sharoitlarda olib borishgan.

Kichik hajmdagi yunon polislarining hududida zarur metallar ya'ni, temir, mis, bronza va boshqa turli xil xom ashyolar etishmas edi.

Tovarga bo'lgan munosabat va bozor orqali mahsulot savdosi olib borilishi polis xo'jaligining asosiga aylandi. Yer egalari va dehqonlar bozorga sharob, yog', don, jun olib kelib sotishar edi.

Sharqqa nisbatan polislardagi iqtisod keng imkoniyatlarni ochdi, ya'ni tovar-pul munosabatlarini rivojlantirdi.

Qishloq joylarda katta yer egalari, shaharda esa yirik hunarmandchilik do'konlari paydo bo'ldi.

Polisning ijtimoiy tarkibi uchta tabaqadan iborat bo'lgan:

1. Quldorlar
2. Erkin mayda ishlab chiqaruvchilar
3. Turli kategoriyadagi qullar.

Quldorlar toifasiga katta yer egalari, hunarmandchilik do'konlari xo'jayinlari, savdo kemalari sohiblari kirgan. Erkin mayda ishlab chiqaruvchilar polis aholisining asosiy qismi bo'lib, dehqonlar, hunarmandlar, afinaning ijtimoiy hayotidagi zevkit va fetlar, savdogar ya'ni o'z mehnati evaziga o'z rizqini topuvchilar ham shular jumlasidandir.

Mil. av VI asrda qullar toifasi kam sonli bo'lgan. Qullar katta yer egalari ham kam bo'lib, hunarmandchilik do'konlarida ham ularning roli sezilarli bo'lmagan. Biroq polis iqtisodiyotining qiyinlashuvi, hunarmandchilik ishlab chiqarilishining rivojlanishi, savdo operatsiyalarining kengayishi natijasida qullar soni o'sib bordi.

Yunon polistalarining o'ziga xos muhim bir ijtimoiy tarkibi ijtimoiy kategoriya, ya'ni teng huquqli fuqarolar jamoasidan iborat.

Polis fuqaroligini quyidagi toifalargina qabul qila olgan:

Avloddan - avlodga o'tadigan yer merosxo'rlari; xalq xizmatchilari; falangadagi og'ir qurollangan goplitlar. Boshqa shaharlardan kelgan, hattoki qo'shni polisdan kelgan kishilar ham bu yerning fuqaroligiga kirmagan.

Yer tomorqalarini yo'qotish fuqarolik huquqidan va fuqarolar jamoasidan mahrum bo'lishga olib kelgan. Savdo va hunarmandchilik rivojlangan markazlar Korinf va Afinada yer tomorqalaridan mahrum bo'lgan fuqarolar hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanishga majbur edi. Bunday odamlar fuqarolik huquqidan mahrum bo'lmas edi, lekin ikkinchi darajali fuqarolarga aylanar edi. Ular birinchi imkoniyatdayoq tomorqalarini qaytarib olishga harakat qilgan va shu bilan o'zlarining jamiyat oldidagi obro'larini tiklab olganlar. Polis hukumati yerdan ajragan fuqarolarga siyosiy yordam ko'rsatgan.

Har bir polisda xususiy yerdan tashqari zahiradagi fond yerlari ham bo'lgan. Ushbu joylar fuqarolarga bo'lib berilgan. (agerpublikus) Bu yerlar tarkibiga yaroqsiz, ya'ni, botqoqliklar, o'rmonlar kirgan. Fuqarolar jamoasi shu yerlardan foydalanganlar va shu yerga egalik qilish butun bir polis oldida va fuqarolar oldida fuqarolik majburiyati ko'rib chiqilar edi. Yer sotish chegaralab qo'yilgan edi, chunki yer uchastkalarini yo'qotilishi fuqarolik huquqidan mahrum qilish darajasigacha borgan..

Iqtisodiy rivojlanish jarayoni fuqarolik jamoasini mol -mulkka bo'lgan egaligini kuchaytirdi va uning oqibatida fuqarolik jamoasining ijtimoiy jihatdan ajraluviga olib keldi.

Ayrim fuqarolarning birdamligini quvvatlash uchun polis hukumati bir nechta chora-tadbirlar qabul qilgan. Boy fuqarolarga luteriyalar, ya'ni o'zlarining mulklaridan jamiyat ehtiyojlariga sarflash, kemalar yetkazib berish, bayramlarni o'tkazish va boshqa majburiyatlar belgilangan. Jamiyat fikri bo'yicha pul yig'ib

to'plaganlar muhokama qilinib, qoralangan. Aksincha namunali fuqarolar sifatida o'rta yer egalari, o'zining xo'jaligini yaxshi tashkil qilib, fuqarolik burchlarini bajargan, o'zlarining polislarini vijdonan himoyachilari tan olingan.

Bir tarafdin o'zaro munosabatlar, ya'ni erkin va xususiy mulkdorlarning munosabati ularni tashqi olamga qarshi birlashtiradi. Davlat boshqaruvi nuqtai-nazaridan Yunon polisi respublika tizimiga ega edi. Oliy hukumat va qonunchilik xalq yig'iniga tegishli edi. Xalq yig'ini polisini amaldor shaxslar bilan birgalikda qonun bo'yicha bir yil boshqargan. Doimiy davlat apparati bo'lmagan. Amaldor shaxslar muddatidan keyin xalq yig'ini oldida hisobot bergan.

Polis fuqarosi vatanparvarlik odob- qoidalariga binoan kuchli bo'lishi kerak edi. Yunonlar faqat o'zining kichik davlatida fuqaro edi. Agar u qo'shni davlatga borsa haq-huquqsiz metekga aylanar edi. Mana shuning uchun yunonlar o'zlarining polislarini qadrlashar edi. Ular o'zlarining kichik shahar davlatida chin erkinligini sezishar hamda haqiqiy shaxs sifatida his qilishar edi. Barcha yunon shahar-davlatlari ikkita asosiy tipga bo'lingan edi:

1. Agrar polis. Qishloq xo'jaligi rivojlangan, biroq savdo-hunarmandchilik va tovar-pul munosabatlari zaif bo'lgan; misol uchun Sparta va Lakemidonna aytish mumkin.

2. Tovar-pul munosabatlari, savdo-hunarmandchilik ishlab chiqarishda qo'l mehnatidan foydalanib rivojlangan polis. Jumladan, Afina polisi shunday polislar tarkibiga kirgan. Umuman olganda qadimgi yunon sivilizatsiyasi rivojida polislarining mavjud bo'lishi alohida o'rin egallagan.

Sparta davlati. Peleponnes hududida ilk davlatlarning paydo bo'lishi. Peleponnesda mil. avv. XII-X asrlarda Miken sivilizatsiyasi qulaganidan so'ng Yunonistonning hamma joyida bo'lganidek to'xtovsiz ravishda qabilalarning ko'chishlari sodir bo'ladi. Uch asr davomida yarim orol hududida aholining sezilarli qismi almashadi. Mil. avv. II ming yillikda Peleponnesda o'mashgan axey va ioniyatlarning bir qismi o'z yerlarini tashlab Sharqqa – Kichik Osiyo va Kiprga qochadilar, bir qismi esa yarim orolning Arkadiya deb nomlangan ichki tog'li hududlariga siqib chiqarilgan. Biroq ularning katta qismi o'z yerlarida qolib yoki ko'chib kelganlar bilan aralashib ketdi. Ba'zi qabilalar bo'ysundirilib, tovon to'lashga majbur qilindi. Peleponnesning shimoli va janubidagi nisbatan hosildor hududlar

hisoblangan Argolida Istma rayoni yoki Korinf bo'yni, Lakoniya va Messeniyaga shimoliy-g'arbiy Yunonistondan (Epir rayoni) ko'chib kelgan jangovor doriy qabilalari joylashadi. Argolida va Lakoniya hududlariga birinchi doriy qabilalarining kirib kelishi mil. avv. XI-X asrlarda yuz beradi. Taxminan shu davrda Peleponnesning shimoliy-g'arbiy viloyatlari sanalgan Korinf ko'rfazining janubiy sohillaridagi Axayya va Elidani – doriylar kabi yunon xalqining shimoliy-g'arbiy tarmog'iga tegishli ko'chmanchilar egallab olishadi.

Bu ko'chishlar natijasida Peleponnes aholisining xilma-xil etnik tarkibi shakllanadi. Ba'zi joylarda yunon tilining turli shevalarida so'zlashadigan turli xil etnik guruhlar yonma-yon joylashadi. Ba'zi joylarda esa bosqinchilar va ular tomonidan bo'ysundirilgan mahalliy aholining qoldiqlari o'rtasida o'tkir tabaqaviy dushmanlik avj oladi. Mag'lub etilgan axeylar g'olib doriylar tomonidan yerga bog'lab qo'yilgan ishchilarga aylantiriladi. Bularga misol sifatida birmuncha taniqli bo'lgan Sparta ilotlari va ular bilan bir xil darajadagi Peleponnesning doriy davlatlari bo'lgan Argos, Sikion, Epidavr, shuningdek, Krit oroli va uning atrofidagi doriylar hukmron bo'lgan joylar aholisini keltirish mumkin.

Butun arxaik davr, ya'ni mil. avv. VIII-VI asrlarda Peleponnes asosiy rayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji bir maromda kechmagan. Bu jihat asosan ularning geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlari o'zaro bog'liq bo'lganligi bilan izohlanadi. Dengizdan uzoqda joylashgan tog'li Arkadiyaning asosiy iqtisodiyoti mil. avv. V-IV asrlarda ham qishloq xo'jaligi bo'lib, unda chorvachilik yetakchi o'rin tutgan edi. Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmiga qadar ham bu yerda birorta shahar bo'lmagan. Shuningdek, Peleponnesning janubiy va g'arbiy viloyatlari bo'lgan Lakonika, Messeniya va Axeyya ham asosan Egey dengizidan uzoqda bo'lganligi uchun iqtisodiy taraqqiyotda ancha orqada qolgan edi.

Sparta davlati. Mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmida Peleponnes davlatlarining ichida Sparta alohida yetakchi sifatida ajralib chiqadi. Butun davlatga o'z nomini bergan Sparta shahri mil. avv. XI yoki X asrda vujudga kelgan. Lakonikaga bostirib kirgan doriylar Frot vodiysining o'rta qismidagi hosildor yerlarga borib o'rtnashadilar. Mil. avv. IX-VIII asrning birinchi yarmida spartaliklar qo'shni qabilalar bilan Lakonika ustidan hukmronlik qilish uchun shiddatli kurash olib bordilar. Oxir oqibat ular janubda Arkadiya tog'

yonbag'irlaridan Peleponnesning janubidagi Tenar va Maleya burnigacha bo'lgan bo'lgan yerlarni o'z hukmronligi ostida birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Mahalliy aholining asosiy qismi (aftidan asosan axeylar) asoratga olinib, ilotlarga aylantiriladi. Lakonikaning eng hosildor yerlariga o'rmanlashib olgan spartaliklar o'z manfaatlari yo'lida siyosat olib bordilar. Tog' yonbag'irlaridagi kam hosilli yerlarni egallagan boshqa Lakonika jamoalari ko'ngilli ravishda Spartaning ustunligini tan olib, aholisi perieklar (atrofda yashovchilar) deb nomlangan Lakedemoniya davlati tarkibiga kirganlar. Ilotlardan farqli ravishda perieklar erkin ozod hisoblangan va hattoki yashagan polisarlari yoki polislaridagi hududlarda fuqarolik huquqlardan ham foydalanganlar. Shu tariqa Sparta jamiyatida uchta tabaqa: to'la huquqli spartaliklar, qul qilingan ilotlar va erkin lekin to'la huquqli bo'lmagan perieklar shakllangan.

Xuddi shu davrda o'zining barqarorligi va ko'p asrlar davomida kam o'zgarganligi bilan ajralib turgan Spartaning davlatchilik asoslari yaratilgan. Bu o'ziga xos siyosiy tizimning muhim elementlari juft podsholik hokimiyati, oqsoqollar kengashi yoki gerusiya va xalq kengashi yoki apella hisoblangan. Qadimgi davrlardan Spartada bir vaqtning o'zida ba'zida o'zaro raqobatlashgan va dushmanlashgan ikkita podsho sulolasi hukmronlik qilgan. Kelib chiqishi Geraklning o'ziga borib taqaladigan podsholar hurmat va ehtiromga sazovor bo'lganlar. Biroq ularning hokimiyati qonun yo'li bilan chegaralab qo'yilgan. Harbiy vaqtlarda ular harbiy yo'l boshchilar vazifasini bajargan, tinchlik vaqtida esa sud va din ishlari bilan shug'ullanganlar. Ikkala podsho ham oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan bo'lib, (ular bilan 30 kishi bo'lgan) asosan davlat boshqaruvi masalalari hal qilinadigan yig'ilishlarda ishtirok etganlar. Butun to'la huquqli Sparta fuqarolarini qamrab olgan Xalq yig'ilishi bu davlat tizimida ikkinchi darajali rolni o'ynagan. O'zining mohiyatiga ko'ra u faqatgina podsholar va oqsoqollarning qo'shma yig'ilishida qabul qilingan qarorlarni tasdiqlagan, xolos.

Spartaning ilk tarixida Messeniya urushlari deb nomlangan davr alohida o'rin tutadi. Taxminan mil. avv. VIII asrda boshqa yunon davlatlarida bo'lgani kabi hududda o'tkir yer yetishmovchiligi sodir bo'ladi. Bu muammoni hal qilish uchun spartaliklar boshqa yunon polisarlari kabi kolonlashtirish siyosatini olib bormay, qo'shnilarining hududlari orqali erlari kengaytirishga kirishadilar. Sparta

ekspansiyaning asosiy obyekti Peleponnesning janubiy-g'arbidagi boy va keng viloyat- Messeniya bo'ldi.

Messeniya uchun kurash uzoq va mashaqqatli kechgan. Birinchi Messeniya urushi (mil. avv. VIII asrning ikkinchi yarmi) 20 yil davom etdi va spartaliklarning g'alabasi bilan tugadi. Ular Messeniya aholisini yillik oladigan hosilining teng yarmini tovon sifatida to'lashga majbur qiladilar. Messeniya yerlarining bir qismi spartaliklar tomonidan o'zaro bo'lishib olinadi. Biroq, bu barcha yerga muhtojlarning ehtiyojini qondirish uchun yetarli bo'lmadi. Spartada fuqarolar o'rtasida nizolar va isyonlar boshlanadi.

Shu bilan birga messeniyaliklar spartaliklar hukmronligiga qarshi bosh ko'taradilar. Avvalgisidan kam davom etmagan yangi urush (mil. avv. VII asrning ikkinchi yarmi) boshlanadi. Messeniyaliklarning mardligi va qahramonligi, shuningdek, Spartaning kuchayib ketayotganidan tashvishga tushgan ayrim Peleponnes davlatlarining yordamiga qaramasdan ular yana mag'lub etiladilar. Bu safar bir nechta periek mavqei berilgan dengizbo'yi shaharlari aholisini hisobga olmaganda aksariyat fuqarolar ilotlarga aylantiriladi va ularga tegishli yerlar spartaliklar ixtiyoriga o'tadi.

Hosildor Messeniya yerlarining egallanishi Sparta hukumatiga o'sib borayotgan agrar inqirozni to'xtatishga yordam beradi. Ikkinchi Messeniya urushidan so'ng chek yer egalari va to'la huquqli fuqarolar miqdori qat'iy tenglashtirish prinsipiga asoslangan yer egaligi tizimi vujudga keladi. Lakonika va Messeniyadagi birmuncha hosildor yerlar daromad keltirishiga, ko'ra bir-biriga yaqinroq bo'lgan 9000 ulush (yer bo'lagi) ga bo'linadi va shunga mos ravishda spartaliklar o'rtasida taqsimlanadi. Keyinchalik Sparta hukumati alohida ulushlar har doim o'zgarishsiz qolishini (masalan uni meros sifatida bo'lib berish mumkin emas edi) diqqat bilan kuzatadi. Yerlar bilan birga bo'ysundirilgan Lakonika va Messeniya aholisi ilotlar sifatida ularga birlashtirilgan. Bunda har bir ulushga bir nechtadan ilot oilasi to'g'ri kelib, o'zining mehnati bilan ulushning xo'jayini va oilasini butun kerakli buyumlar bilan ta'minlashi kerak edi. Har yili ilot o'zining xo'jayiniga arpa doni yoki un, vino, yog'i va boshqa mahsulotlar ko'rinishida obrok to'lagan. Odatda bu norma qonun bilan belgilanib (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra u hosilning yarmini tashkil qilgan), spartalik o'z xohishiga ko'ra uni o'zgartirishi mumkin bo'lmagan. Obrokdan ortib qolgan qismini xohishiga qarab ishlatilish mumkin

bo'lgan. Spartaliklar odatda ularning ishiga aralashmaganlar, ilotlar ham o'z vaqtida to'laganlar. Spartaliklar ilotlarni o'ldirish yoki sotish huquqiga ega bo'lmaganlar, Spartada qullar yer kabi davlat mulki hisoblangan. Shu bilan birga ilotlar o'zlarining yo'qotilgan ozodligini hech qachon unutmaganlar.

Sparta hududidagi arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, mil. avv. VII-VI asrning birinchi yarmida ushbu davlat butun Yunonistondagi eng sezilarli badiiy hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan. Bu davr Lakonika hunarmandlarining mahsulotlari Afina Korinf va Evbeya hunarmandlarining eng yaxshi buyumlaridan qolishmagan.

Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida Lakonika maktabi keskin inqirozga uchraydi va butunlay yo'qolib ketadi. Bu davrda chetdan Sparta o'zga yurt hunarmandlarining buyumlarini kirib kelishiga ham chek qo'yiladi. Shuningdek, katta ibodatxonalar va boshqa me'moriy inshootlar qurilishi ham to'xtatiladi. Ajablanarlisi, mil. avv. VI asr Olimpiada o'yinlarida spartaliklar o'yin g'oliblarining deyarli yarmini tashkil qilgan bo'lsa ham, mazkur o'yinlardan qatnashishdan voz kechishadi. Shu tariqa Sparta uzoq vaqtgacha o'zini-o'zi yakkalab boshqa yunon polislari bilan xo'jalik va madaniy aloqalarni ongli ravishda uzadi.

Messeniya egalanganidan so'ng Sparta jamiyati ko'p minglab ilotlar jamoasi ustidan hukmronlik qiladigan professional jangchi-goplitlar toifasiga aylandi. Spartaning ko'pchiligini tashkil qiladigan ilotlar doimo spartalik bosqinchilarning hukmronligidan ozod bo'lishni o'ylar edilar. Ularni tizimli va shafqatsiz terror yordamida ushlab turishga urinishgan. Plutarxning ma'lumotlariga ko'ra, Sparta hukumati vaqti-vaqti bilan ilotlar qirg'inini uyushtirib turgan. Bunday turdagi operatsiyalar "kriptiya" (yunonchada "kriptos" – "yashirin", "sirli") deb nomlangan.

Doimiy ilotlar qo'zg'oloni xavfi Sparta hukmron tabaqasidan yuqori darajada birdamlikni va hamjihatlilikni talab qilgan. Shuning uchun yer islohoti bilan birga Sparta qonun chiqaruvchisi Likurg tomonidan tarixga Likurg qonunlari nomi bilan kirgan bir qator muhim ijtimoiy islohotlar o'tkaziladi. Bu islohotlar Sparta davlati qiyofasini o'zgartirib, uni qat'iy tartib- intizomga bo'ysungan yagona harbiy lagerga aylantiradi. Spartada Likurg qonunlariga so'zsiz amal qilganlarga to'la huquqli fuqarolar hisoblangan. Ushbu qonunlarda

Sparta fuqarolari amal qilish kerak bo'lgan ko'ylagining andozasidan tortib, soqol va mo'ylov shakli kabi eng mayda detallargacha belgilab qo'yilgan edi.

Qonun har bir spartalikka yetti yoshga to'lgan o'g'lini maxsus lager- agellarga (ma'nosi "poda") berish majburiyatini yuklagan. U yerda chidamlilik, kattalarga xurmat, ayyorlik, shafqatsizlik, buyruq bera olish qobiliyati va boshqa "haqiqiy spartalikka" xos bo'lgan sifatlari o'rgatilgan.

Bu kabi tartib-qoidalar Sparta davlatini mustahkam jamoaga aylantirib, o'ziga xos tarix sinovlariga bardosh berishiga olib kelgan. Masalan, mil. avv. 464- yildagi buyuk ilotlar qo'zg'oloni yoki mil. avv. 431-404- yillardagi Peleponnes urushlarida doimiy harbiy tayyorgarliklar o'z mevasini beradi. Mashhur Sparta falangasi (og'ir qurolangan piyodalar) uzoq vaqtgacha kurash maydonlarida engilmagan. Mil. avv. VI asrning o'rtalaridayoq Sparta Peleponnes davlatlari o'rtasida gegemonlik o'rnatib, Peleponnes ittifoqiga asos solgan edi.

Keyinchalik spartaliklar boshqa yunon davlatlariga ham o'z ta'sirini yoyishga urindilar. Biroq, Spartaning buyuk davlatchilik uchun bo'lgan da'volari faqatgina harbiy kuchga aoslangan edi. U madaniy va iqtisodiy jihatdan boshqa yunon polislaridan ancha ortda qolgan. Siyosiy biqqlik va tashqi dunyoga dushmanona kayfiyat, demokratik qarashlardagi Yunonistonda unga qarshi noroziliklarni keltirib chiqargan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Arxaik davr nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?
2. Polislar davri qachon boshlangan. ?
3. Attikada demokratiya tushunchasining vujudga kelish shart-sharoitlarini tushuntiring.
4. Sparta va Afina o'rtasidagi qarama-qarshilik qachon boshlangan?
5. Afinada quldorlik demokratiyasining o'rnatilishi qanday oqibatlarga olib keldi?

Glossariy

Aristokratiya – aslzoda, Yuqori qatlam.

Apoykiya – mil. avv. VIII-VI asrlarda Qadimgi Yunonistonda buyuk ko'chishlar jarayonida yunonlar o'z polisleri tarixini va madaniyatini unutmagan holda mustaqil polislariga asos solganlar. Shu polislarini apoykiya deb ataganlar.

Pitekussa – Janubiy Italiyadagi Yunon koloniyasi

Arxaget – Sparta podshosiga nisbatan ishlatilgan atama: (basiley ham deyilgan).

Apella – Spartada 30 yoshga yetgan erkaklarning xalq yig'ini. Urush va sulh masalalari hal qilingan.

Gerusiya – Sparta davlatining oliy aristokratik tashkiloti – oqsoqollari kengashi.

Mavzu: Attika xo'jaligi, ijtimoiy-siyosiy hayoti va Yunon-fors urushlari

Reja:

1. Attika jamiyati.
2. Drakon va Solon islohotlari.
3. Pisistrat tiraniyasi va Afinada Pisistratlar (mil. avv. 560- 510 yillar).
4. Klisfen qonunchiligi. Polis demokratiyasini tashkil topishi.
5. Yunon- fors urushlari.

Attika jamiyati. Attikada davlatchilik institutlari Peleponnesning turli viloyatlariga nisbatan erta shakllana boshlagan bo'lsa ham Afina faqatgina katta va qudratli davlat birlashmasi bo'lib qolmasdan, polis Yunonistonining ramzi, klassik davrdagi Elladaning markaziga aylandi.

Attikada polis tizimi urug' muassasalarining doimiy ichki transformatsiyasi orqali sodir bo'ldi.

Arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, Attikada neolit davridayoq aholi istiqomat qilgan. Uning hududida mil. avv. II ming yillik oxirida qadimgi podsholik shakllangan. Peleponnesda qabilalarning jiddiy ko'chishlariga sabab bo'lgan doriylar bosqini

Attikaga unchalik ta'sir o'tkazmagan. Doriylar Attikaga suqilib kira olmaganlar, bu yerda asosan qadimgi aholi (ioniylar va pelasglar) yashagan. Shu bilan birga Attikada Peloponnesdan siqib chiqarilgan ba'zi axey qabilalari ham boshpana topgan. Bu elementlardan mil. avv. I ming yillik boshlarida yunon tilining ioniy lahjasida gaplashadigan Afina qabila guruhlari paydo bo'ladi. Gomer davrida Attika hududida basileylar va oqsoqollar kengashi tomonidan boshqarilgan mustaqil urug' jamoalar bo'lgan. Aholi qon-qarindoshchilik belgilari bo'yicha 4 fila (qabila), u esa o'z navbatida 3 ta fratriyadan tashkil topgan. Har bir fratriyada bir necha o'nlab urug'lar mavjud bo'lgan.

Attikada boshqa yunon viloyatlarida bo'lganidek, mil. avv. IX-VIII asrlarda urug' jamoa munosabatlari yemirilib, ilk davlatchilik belgilari paydo bo'ladi. Attikada polis tizimini paydo bo'lishi boshqa urug' manzilgohlar ichida Afinani yuksalishiga imkon beradi. Afinada sifatli gil tuproq bo'lgan va u kulolchilikni rivojlanishi uchun katta turtki bergan. Mazkur tuproqlar Afinadagi Dipilon rayonidan topilgani uchun Dipilon ko'zlari deb nomlanib, butun Yunonistonda mashhur bo'lgan.

Afina dengizdan 5 km uzoqlikda joylashib, qaroqchilarning hujumidan pana bo'lgan qoyali Akropolda joylashganligi Attikani boshqa manzilgohlariga nisbatan aholining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Afina atrofida Attikadagi barcha urug' jamoalar, ularning bir qismi ko'ngilli, bir qismi majburiy ravishda qo'shilish jarayoniga (sinoykizm) jalb qilinadi. Bunday birlashuvni rivoyatlarga ko'ra Afina qahramoni Tesey oxiriga etkazadi. Tesey butun urug' manzilgohlaridagi boshqaruv organlarini yo'q qiladi. Butun Attikada barcha ishlar bilan Afinada joylashgan basileylardan iborat oqsoqollar kengashi shug'ullana boshlaydi. Mahalliy xudo Afina – shahar homiysi sifatida Attika xudosiga aylanadi. Uning sharafiga Panafiney diniy bayrami ta'sis qilinib, mahalliy aholi uni tantanali nishonlaydigan bo'ldi. Afinaga boshqa manzilgohlardan ko'plab urug' zodagonlarining ko'chib kelishi shahar aholisining ko'payishiga olib keladi.

Mulkiy va xo'jalik jihatdan tabaqalanish Afina jamiyatini uchta ijtimoiy guruhga ajralishiga olib keladi: yevpatridlar nomini olgan urug' zodagonlari, aholining asosiy qismi bo'lgan dehqon-geomorlar

va hunarmand – demiurglar. Siyosiy sohada basileylar – qabila sardorlari o‘z o‘rmini arxontlarga bo‘shatib beradi. Oqsoqollar yig‘ini bo‘lsa o‘z muddatini bajarib bo‘lgan arxontlardan iborat Areopag yig‘ini yoki Areopagga aylanadi. Garchi arxontlar va Areopag urug‘ zodagonlari orasidan shakllantirilgan bo‘lsa ham yangi lavozimlar va yangi yig‘in urug‘ tizimining an‘anaviy organlariga zarba beradi.

Mil. avv. VIII-VII asrlarda shakllanayotgan Afina polisida yetakchi rolni urug‘ zodagonlari – yevpatridlar egallaydi. Avval barcha qabiladoshlarga tegishli bo‘lgan ko‘plab yerlar zodagonlar tomonidan o‘zlashtirib olinadi. Yeridan ajralgan qarindoshlarning aksariyat qismi qashshoqlashadi va yevpatridlarga qaram bo‘lib qoladi. O‘sha davr an‘analariga ko‘ra urug‘ tartiblari, ya‘ni huquq qoidalarini yozilmagan, bu esa zodagonlarning o‘z manfaatlarini suiste‘mol qilishlariga sabab bo‘lgan. Yevpatridlar urug‘ munosabatlari qoldiqlaridan yangi sharoitlarda o‘z hukmronliklarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida foydalanganlar.

Drakont va Solon islohotlari. Drakont islohotlari. Urug‘ muassasalariga eng katta zarba Afinadagi mavjud huquq normalarini mil. avv. 621-yilda arxont Drakont tomonidan yozma holga keltirishi bo‘ladi. Drakont faqatgina qadimgi davrlardan yetib kelayotgan amaldagi huquqni yozib qolmay, balki qonunchilikka o‘sha davr ijtimoiy iqtisodiy vaziyatini aks ettiradigan bir qator yangi qonunlarni ham qo‘shadi. Drakont qonunlari bo‘yicha qadimgi xun olish bekor qilinadi. Yangi sud tizimi kiritiladi, qasddan va ehtiyotsizlik tufayli yuz bergan qotillik o‘rtasidagi farq o‘rnatiladi. Qonunlar shaxsiy mulk huquqini mustahkamlab, shaxsiy mulkka ko‘z olaytirishga (u tomorqadan sabzavot o‘g‘irlash bo‘ladimi yoki yer maydonini o‘zlashtirib olish bo‘ladimi) eng oliy jazo o‘lim belgilanadi. Bunday qat‘iy tartib qoidalar o‘sha davrda shakllanayotgan shaxsiy mulkni urug‘ tuzumidagi jamoa munosabatlari institutidan himoya qilish edi.

Drakont qonunchiligi yangi davlatchilik tartiblarining o‘rnatilishi va fuqarolarni qattiq eksplutatsiya qilishdan manfaatdor bo‘lgan yevpatridlarning yirik g‘alabasi edi.

Biroq, Afina aholisining asosiy qismi og‘ir ahvolda yashashda davom etdi. Chunki, jamoa boyligining asosi bo‘lgan yer, iqtisodiy hayotning dastagi yevpatridlar qo‘lida edi. Bu esa Afina fuqarolari o‘rtasida o‘tkir norozilikni keltirib chiqaradi. “Bundan so‘ng uzoq vaqtgacha zodagonlar va xalq o‘rtasida nizolar kelib chiqadi”, deb

yozgan edi, Aristotel. Bu davlatchilik tizimi oligarxik ko'rinish olgan edi. Asosiysi kambag'allar faqat o'zlari emas, balki xotin bolalari bilan qullikka tushib qoladilar. Ular pelatlar deb atalib, hosilning 1/6 qismi yoki 17% evaziga boylarning yerlarida mehnat qilganlar. Yerlarning deyarli barchasi ozchilik qo'lida edi. Agar ijara to'lovlarini to'lamasa o'zini yoki bolalarini qul sifatida olib ketishlari mumkin edi. Bu holat Solon davrigacha davom etadi.

Afinada mil. avv. VII asrda ijtimoiy qarama-qarshilik shu qadar murakkab ko'rinish oldiki, bundan qonli to'qnashuvlar xavfi kelib chiqadi. Bunday murakkab sharoitlarda yevpatridlar yon berib Solonni arxont sifatida saylashga majbur bo'ladilar. Unga vaziyatni mo'tadillashtirishdan iborat bo'lgan og'ir vazifani yuklaydilar (mil. avv. 594 yil).

Solon islohotlari. Solon atoqli siyosiy arbob, mutaffakir va shoir bo'lgan. U yuzaga kelgan ijtimoiy iqtisodiy vaziyatning murakkabligini yaxshi tushungan. Solon kelib chiqishiga ko'ra yevpatrid bo'lib, savdo-sotiq bilan shug'ulangan va Afina savdo-hunarmandchilik qatlamining ehtiyojlarini yaxshi bilgan. U urug'munosabatlari qoldiqlariga tayanib qullik va ekspualatatsiya hisobiga quvonib yashaydigan zodagon yer egalari Afinaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga to'siq bo'layotgani, ichki hayotda portlash xavfini keltirib chiqarayotganini teran his qilib turardi. Solon Afinaning yorqin kelajagini iqtisodiyotni umumiy jonlantirish, yer egaligini takomillashtirish, hunarmandchilik ishlab chiqarishini keng yoyish, savdo-sotiqni kengaytirish, Afina o'rta tabaqasining xo'jalik va savdo-hunarmandchilik faoliyati uchun kafolatlarni yaratish, davlatchilik tartiblarini yangilash va siyosiy hayotga aholining keng qatlamlarini jalb qilish kabilarda ko'radi.

Katta vakolatlar bilan arxontlikka saylangan Solon o'zining Afina davlatchilik va jamiyat tizimini isloh qilishga qaratilgan dasturini amalga oshirishga kirishadi. Solon islohotlari deyarli Afina jamiyatining barcha sohalarini qamrab oladi: iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy tizim, harbiy ish va davlat boshqaruvi.

Iqtisodiy sohada Afina xo'jaligini umumiy faollashtirish choralarini ko'radi. Odatda qurg'oqchilikdan jabr chekadigan Attika hududida suv bilan ta'minlash tizimini tartibga keltirishga harakat qiladi. Zaytun yetishtirishni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi: zaytunni Attika hududidan eksport qilishga ruxsat beriladi. O'z

navbatida donni olib chiqib ketish qonun yo'li bilan ta'qiqlanadi. Zaytun daraxtlarini o'tqazish va qayta ishlash tartibga solinadi. Ko'rilgan choralar natijasida Attikada yog' ishlab chiqarish qishloq xo'jaligining serdarmad va gullab yashnagan sohasiga aylangan. Afina zaytun yog'i mashhurligi jihatidan butun yunon dunyosida qadrlangan.

Solon savdo-sotiqni yanada rivojlantirishga qulay sharoitlar yaratish uchun arxaik fidon og'irlik va uzunlik o'lchov birligi va beso'naqay egina pul tizimi o'rniga birmuncha qulay va Egey havzasida keng tarqalgan Evbeya og'irlik va pul tizimini joriy qiladi.

Solon Afina jamiyati ichida Afinaning iqtisodiy taraqqiyotiga butun diqqat e'tiborni jamlash uchun bir qator dabdabalar va ishlab chiqarishga yo'naltirilmagan harajatlarga qarshi faol kurash olib boradi. Qimmatbaho dafnlar, maqsadsiz ko'p miqdorda hayvonlarni qurbonlikka keltirish, hashamatli maqbaralar qurish ta'qiqlanadi.

Solon islohotlarining eng muhim jihatlaridan biri Afinaning erkin tub aholisini 4 toifaga ajratgani bo'ldi. Bular eng ko'p daaromadga ega bo'lgan-pentakosiomedlar, ikkinchi toifa otliqlar, uchinchi toifa zevgitlar, to'rtinchi eng quyi toifa fetlar edi. Kishilarni ma'lum bir toifaga tegishliligiga qarab huquq va majburiyatlar belgilangan edi. Birinchi va ikkinchi toifa vakillari otliq qo'shinda xizmat qilgan, Yuqori lavozimlarga saylangan, zevgitlar og'ir qurolli piyoda qo'shinlarga chaqirilgan, fetlar faqat Xalq yig'inida ovoz berganlar.

Solon islohotlarning yana bir muhim jihati qarz munosabatlari bo'yicha edi. Avvalo, barcha qarzlar bekor qilinib qarz toshlari olib tashlanadi. Bir vaqtning o'zida qarz evaziga qullik bekor qilinadi. Qarz toshlarining olib tashlanishi va qarz evaziga qullikni bekor qilinishi zodagonlarga berilgan katta zarba bo'ladi. Solon o'rta toifa vakillarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qarz foizlariga ham cheklovlar kiritdi. Bu keskin choralar Afina dehqonlarining asosiy qismini iqtisodiy holatini mustahkamlab, ularning umumiy farovonligiga xizmat qilishi kerak edi.

Harbiy siyosiy sohada ham muhim o'zgartirishlar amalga oshirildi. Qo'shindagi Afina jamiyatini to'rt toifaga bo'linishi o'zaro bir-biri bilan chamcharchas bog'liq bo'ldi. Endilikda harbiy tuzilishning asosini zevgitlardan iborat bo'lgan og'ir piyoda goplitlar tashkil etardi.

Solon tomonidan amalga oshirilgan chora- tadbirlar natijasida Xalq yig'inining faoliyati yanada faollashadi. Xalq yig'inida muhim davlat ishlari muhokama qilinadigan, zodagonlarga qarshi qonunlar qabul qilinadigan bo'ladi. Solon xalq yig'ini ishlarini yaxshi tashkillashtirish maqsadida 400 kishidan iborat yangi Kengash (har bir filadan 100 kishi) ta'sis qiladi. U Xalq yig'iniga tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qilib, bir qator muhim boshqaruv ishlarini muhokama qilardi. Xalq yig'ini rolining oshishi va 400 lar Kengashining ta'sis qilinishi Aristokratik kengash Areopag vazifalarining cheklanishiga olib keladi. Yangi davlat organi gelieya ko'p sonli sud jamoasi bo'lib, barcha fuqarolardan, shu jumladan, fetlardan ham saylangan. Gelieya boshqa davlat organlari ichida eng demokratiga aylanadi. Politsiya vazifasini 11 kishidan iborat jamoa bajargan. Solon islohotlarining asosiy mohiyati shunda ediki, unda demosning keng qatlamlari ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Keyinchalik u demokratiya nomini oladi. Solon mil. avv. V-IV asrlarda o'z rivojiga erishgan Afina demokratiyasiga asos soladi.

Pisistrat tiraniyasi va Afinada Pisistratlar (mil. avv. 560- 510 yillar). Solon islohotlari polis demokratiyasi asosiga tamal toshini qo'ydi, lekin qisqa muddatda urug' tuzumining barcha qoldiqlarini ildizi bilan sug'urib tashlashga hamda zodagonlar hukmronligiga to'la barham bera olmadi. Demos va zodagonlar o'rtasidagi kurash Solon islohotlaridan keyin ham davom etdi, lekin u endilikda yangi mazmun kasb etdi. Solondan so'ng Afinada urug' zodagonlari vakillari boshchilik qilgan uchta siyosiy guruh shakllanadi: Likurg boshchiligidagi pedieylar, Megakl boshchiligidagi paraliylar va Pisistrat boshchiligidagi diakriylar. Ular urug' zodagonlarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan guruhlar edi.

Siyosiy guruhlar o'rtasidagi o'tkir kurashlar Pisistrat boshchiligidagi diakriylarning g'alabasi bilan tugadi. U mil. avv. 560-yilda Afinani egallaydi va o'zini polisning oliy hukmdori deb e'lon qiladi. Uning vazifasi o'zining hokimiyati mustahkamligini ta'minlash va uni qo'llab-quvvatlagan ijtimoiy guruhlar va urug' zodagonlarning manfaatlarini himoya qilish edi.

Pisistrat o'zi boshqargan tuzumni aholining turli qatlamlari – dehqonlar, savdogar-hunarmandlar toifasi, zodagonlarning bir qismining ehtiyojlarini ta'minlaydigan jamiyat sifatida ko'rsatishni istardi. Pisistrat dehqonlarga g'amxo'rlik qilib, ularga dehqonchilik

ishlari uchun qulay foizli qarzlar taqdim etadi. Dehqonlarni qishloq xo'jalik ishlaridan chalg'itmagan holda yuzaga kelgan bahslarni hal qilish uchun sayyor sudlar tashkil qildi. Pisistrat og'ir ishlar o'rniga o'zining g'aznasiga hosilning 10 %i miqdorida soliq joriy qildi.

Uning davrida Afmada keng qurilish ishlari boshlanadi: Akropolda Afina ibodatxonasi, Zevs va Apollon ibodatxonalari qurilishi boshlanadi. Shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun vodoprovod olib kelinadi. Pisistrat Egey havzasida faol siyosat olib boradi, dengiz savdosini kengaytiradi. Bu esa kemasozlikni rivojlanishiga olib keladi. Pisistrat davriga kelib mashhur ko'zalardagi qora rang nisbatan ko'rkamroq bo'lgan qizil rangga o'zgaradi. Bu esa kulolchilik ishlab chiqarishiga katta turtki beradi. Keramika – kulollar mavzesida yangi ustaxonalar ochiladi.

Pisistrat o'ziga raqib zodagonlarning yerlarini musodara qilib ularning bir qismini kambag'al dehqonlarga bo'lib beradi. Lekin, urug' zodagonlarining aksariyat qismi o'zining boyliklarini saqlab qoladi. Ular boshqalarga ta'sir ko'rsatish bilan tiran foydasiga harakat qilishi lozim edi.

Pisistrat saroyga yunon adabiyoti va san'atining yorqin namoyondalarini taklif qiladi. U ommaviy bayramlarni tashkillashtirish uchun pullarni ayamaydi. Uning davrida Afina va Dionis xudolariga bag'ishlab o'tkaziladigan bayramlar umumattika, umumdavlat miqyosiga ko'tariladi va juda tantanali o'tadi.

Afina tiranlarining tashqi siyosati ham muvaffaqiyatli va keng miqyosli bo'ladi. Uning asosiy maqsadi dengiz qo'ltiqlari va Qora dengizgacha olib boradigan muhim punktlar ustidan nazorat o'rnatish edi. Pisistrat Frakiya sohillarida joylashgan Pangeyadagi boy konlarni egallashga muvaffaq bo'ladi, afinaliklar Lemnos va Imbrosga o'rnashadilar. Gellespontga kirishdan uzoqda bo'lmagan Osiyo qirg'og'ldagi Sigey ham bosib olinadi. Evpatridlardan biri Miltiad Frakiya Xersonesini egallaydi.

Pisistratning o'g'illari Gippiy va Gipparxlar mil. avv. 527- yilda otasining o'limidan so'ng uning siyosatini davom ettirdilar. Lekin ular hokimiyatni o'z qo'llarida tutib tura olmadilar. Mil. avv. 514 -yili fitna natijasida Gipparx o'ldiriladi, Gippiy bo'lsa umumiy norozilikni keltirib chiqargan shafqatsiz rejimni kuchaytiradi. Afinaning tashqi siyosiy holati ham yomonlashadi. Ulkan Ahmoniyar imperiyasi Kichik Osiyodagi barcha yunon shaharlari va Egey havzasidagi

orollarning katta qismini bosib oladi. Afinaliklar Frakiya Xersonesidan ketishga majbur bo'ladilar. Pisistratlar tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatsizliklaridan raqib alkmeonidlar foydalanib, kuch yig'ishni boshladilar va Afmadagi tiraniyaga qarshi chiqadilar. Ular Delfiya orakullari va Spartani o'z tarafiga og'dirib oladilar. Sparta podshosi Kleomen kuchli qo'shin bilan Attikaga bostirib kiradi va himoyalangan Akropolni qamal qiladi. Har qanday yordamdan mahrum bo'lgan Gippiy taslim bo'ladi va Eronga qochib ketadi. Mil. avv. 510 -yilda Afinada tiraniya qulaydi.

Pisistrat va uning o'g'illarining tiraniyasi kam davom etgan bo'lsa ham Afinaning rivojida muhim o'rin tutadi. Garchi tiranlar ma'lum darajada o'z manfaatlarini o'ylab ish tutgan bo'lsalarda, ularning siyosati aholining keng qatlamlari tomonidan iliq qarshi olindi. U Afina jamiyatining iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy tinchligi, iqtisodiy va madaniy rivojiga sabab bo'lgan edi. Tiranlar Solon qonunchiligini bekor qilmadilar va jamiyatda Solon tomonidan asos solingan polis tartiblari mustahkamlanishda davom etdi.

Klisfen qonunchiligi. Polis demokratiyasini tashkil topishi. Gippiy tiraniyasining ag'darilishi ichki kurashni keltirib chiqardi. Natijada Afina rahbarligiga Alkmeoniylar urug'i keladi. Uning vakili Klisfen urug' munosabatlarni ildizi bilan sug'urib tashlashga qaratilgan va polis qurilishini demokratik ko'rinishda rasmiylashtirishni nazarda tutgan islohotlar dasturi bilan chiqadi.

Islohotlarda Attikani ma'muriy jihatdan yangi bo'linishiga e'tibor qaratiladi. Gap shunda ediki Attikaning an'anaviy bo'linishi filalar, fratriya va urug'larga bog'liq edi. Klisfen bu tizimni ildizi bilan yo'qotib tashlashga harakat qiladi. Butun Attika hududi har bir uch rayondan iborat 10 ta viloyatga bo'linadi. Har bir rayon (trittiy) quyi ma'muriy birlik bo'lgan demlardan iborat edi. Har 10 ta viloyatning biri o'zida yaxlit hududni aks ettirmagan. Ular Attikaning turli joylarida (biri Afinaning shahar qismida, boshqasi dengizbo'yi qismida, uchinchisi Attikaning ichki qismida) joylashgan edi. Avvalgi urug' jamoalari turli dem, trittiy va filalarga sochilib ketadi.

Mil. avv. VI asr oxirida Afina yirik va ko'p sonli aholiga ega shahar markaziga aylanadi. Bu yerda yirik ustaxona egalari, qullar, matroslar va eshkakchilardan tortib turli xil kishilar yashagan. Bu yirik markazda kelib chiqishi boshqa yunon shaharlari – Milet, Megara, Samos, Sigey, Korinf va boshqalardan bo'lgan va doimiy

aholiga aylangan kishilar ham bo'lgan. Bu kishilar meteklar toifasini to'ldirib, afinaliklardan fuqarolik huquqlari yo'qligi bilan farqlangan. Masalan, ular xalq yig'inida qatnashmagan, yer maydonlariga ega bo'lmagan, lekin ustaxona ochishi yoki kema sotib olishi mumkin bo'lgan.

Shahar aholisini eski aristokratiyaga qarshi qo'yish va uning siyosiy ahamiyatini oshirish uchun Klisfen yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanadi. Yangi filalarni tashkil qilib, fuqarolarning tarkibiga sezilarli miqdorda ozod qilingan qullar va meteeklarni kiritadi.

Solon davridan beri ko'plab yersiz dehqonlar mavjudligi sababli, davom etib kelayotgan agrar muammoni hal qiladi. Klisfen metek va qullarni yer sotib olishi mumkin bo'lgan qatlam tarkibiga kiritadi.

Klisfen yangi hududiy bo'linish prinsipini o'rnatib, polisning hokimiyat organlari tizimini ham shunga moslashtiradi. Eski urug' filalaridan tashkil topgan 400 lar kengashi tarqatib yuboriladi. Uning o'rniga har bir yangi filadan 50 kishi kirgan 500 lar kengashi ta'sis qilinadi. Filalar ichida 500 lar kengashiga nomzodlar demlar va trititiya asosida saylab olingan. Yangi lavozimlar apodekt (turli vzoslar yig'uvchilar, ularning soni 10 ta bo'lgan) va strateglar (10 harbiy qo'mondonlar) joriy qilingan.

Yangi 500 lar kengashining vakolatlari kengaytirilib, u doimiy ko'rinish oladi va faqatgina Xalq yig'iniga masalalarni tayyorlab qolmasdan boshqaruv ishlari bilan ham shug'ullangan. Aristokratik Areopagning funksiyalari cheklanadi va u bora-bora siyosiy mavqeini yo'qotib, oddiy sud bo'g'iniga aylanadi.

Klisfen qonunchiligi va uning tarafdorlari Solon davrida boshlangan Afina jamiyatini isloh qilish ishlarini yakunlagan. Klisfen qonunlari mil. avv. VIII asrda boshlangan Attikaning demokratik ko'rinishidagi davlat va jamiyat shakllanishini yakunlab beradi.

Yunon- fors urushlari

Yunon-Fors urushlarining kelib chiqish sabablari. Yunon polislarining ijtimoiy, siyosiy jihatdan tashkil topishi mil. avv. VI asrda tugallandi. Bolqon Yunonistonidagi ko'plab polislarda ichki holat me'yorlashdi, xo'jalik hayoti rivojlandi, aholi o'rta qatlamining siyosiy ahvoli o'zgardi. Xullas, madaniyatni yuksaltirish uchun sharoit yaratildi.

Mil. avv. VI asr oxirida yunon polislari uchun xavfli dushman paydo bo'ldi. Bu ham bo'lsa, dastlab Fors viloyatida tashkil topgan hamda keyinchalik ulkan imperiyaga aylangan Ahmoniylar podsholigi edi. Kambiz vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Doro I (522-486-yy) ning iqtisodiy va harbiy islohotlaridan so'ng forslar imperiyasi yanada ravnaq topdi. Mil. avv. VI asr oxiriga kelib esa hududi jihatidan ham ulkan saltanatga aylandi.

Ahmoniylar Kichik Osiyo shaharlari va Egey dengizining sharqiy qirg'oqlarini egallab olganlaridan so'ng, ular Bolqon Yunonistonidagi polislarini bosib olishning turli xil rejalarini tuza boshladilar. Ahmoniylarning harbiy-iqtisodiy potensialini ortib borishi, cheklanmagan moliyaviy imkoniyat, ulkan armiyani mavjudligi hamda yunon polislarining bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lganligi kabi sabablar urushni boshlash uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilgan.

Yunon shaharlari savdo-sotiq markazi, ulkan madaniyat o'chog'i sifatida mashhur bo'lgan. Bu yerlarni egallanishi forslar g'aznasini ulkan boylik bilan to'ldirgan bo'lar edi.

Bolqon Yunonistonini egallash ulkan strategik ahamiyat ham kasb etgan. Forslar Sharqiy O'rtayer dengizini buyuk podsholiklarini ham qo'l ostiga olmoqchi bo'lishgan.

Yunon polislari uchun forslarni paydo bo'lishi o'lim xavfidek tuyulgan.

Yunon-fors urushlari mil. avv. 500-449 -yillar oralig'ida bo'lib o'tgan. Bu urush uzoq davom etgan dunyodagi urushlardan biridir. Jahon tarixshunosligining so'nggi yutuqlariga asoslanib, mazkur urushni 5 bosqichga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1) Mil. avv. 500-494 -yillar – Milet va Kichik Osiyo yunon shaharlarining forslarga qarshi qo'zg'oloni;

2) Mil. avv. 492-490- yillar – fors qo'shinlarining Bolqon Yunonistoniga birinchi hujumi;

3) Mil. avv. 480-479 -yillar – Yunonistonga Kserksning harbiy yurishi – yunon-fors urushlarining kulminatsion nuqtasi;

4) Mil. avv. 478-459 -yillar – urush harakatlari xarakterining o'zgarishi, ustunlikni yunonlar qo'lga o'tishi, Egey dengizi va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarining forslar zulmidan ozod bo'lishi.

5) Mil. avv. 459-449 -yillar Afinaning harbiy ekspeditsiyasi. Misr bilan ittifoqi va yunon-fors urushlarining tugashi.

Yunon-fors urushlariga oid asosiy manba Gerodotning “Tarix” asari hisoblanadi. Ayrim tarixchilar esa bu urushga oʻz munosabatlarini bildirib, ayrim xususiyatlarini hikoya qiladilar. Esxil oʻzining “Forslar” tragediyasida shohid va bevosita ishtirokchi sifatida Salamin oroli yonida yunonlarning forslar bilan qilgan dengiz jangini yorqin obrazlarda tasvirlagan. Keyinroq yunon-fors urushlari tarixi Diodor asarlarida ham yoritilgan. Plutarx oʻsha zamonda Afinaning atoqli siyosiy va harbiy arboblari boʻlmish Femistokl, Aristid va Kimonning tarjimai hollarini yozgan.

Fors tarixi boʻyicha manbalar afsuski cheklangan. Forslar mixxat yozuvi asosida oʻz alifbolarini yaratgan boʻlsalar ham, fors shohlari qurilish ishlariga bagʻishlangan yozuvlardan tashqari hech qanday fors adabiyoti namunalari saqlanib qolmagan. Shuning uchun forslar tarixi forsiy boʻlmagan manbalar bobil, oromiy, ivrit va boshqa xalqlar tarixi manbalarida keng uchraydi.

Milet qoʻzgʻoloni va Kichik Osiyoning yunon shaharlari. Kichik Osiyoning yunon shaharlari fors podshosi Kir II tomonidan mil. avv. VI asrning 40-30-yillarida egallangan. Boshida yunonlar bilan iliq siyosat olib borilgan, soliq olinmagan hamda ichki ishlariga kam aralashilgan. Kichik Osiyoda savdo bilan shugʻullanuvchi mahalliy shaharlar doimo ragʻbatlantirib borilgan.

Doro I taxtga kelgandan soʻng esa yunon shaharlariga nisbatan agressiv siyosat yurita boshladi. Yunon shaharlarining ichki hayotiga markaziy hokimiyat tomonidan aralashish boshlandi. Fors boshliqlari – tiranlarga koʻplab shahar hokimliklari berildi. Shaharlar qaramligi tufayli soliq toʻlashga majbur etildi.

Kichik Osiyodagi Milet shahri forslarga qarshi turgan eng kuchli shahar edi.

Mil. avv. 500-yilda forslardan boʻlgan boshliq, Aristagor tiranlikdan voz kechib, forslarga qarshi kayfiyatdagi guruhlariga tayanib, Milet aholisini forslarga qarshi qurollantira boshladi. Milet shahri boshqa Ioniya shaharlari bilan birlashadi.

Butun Kichik Osiyoda qoʻzgʻolonga daʼvat etuvchi xabarlar tarqatildi. Bu chaqiriq Kichik Osiyoning barcha shaharlari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi. Shuningdek, Vizantiya va Xalkidon, Pamfiliya va Kiprgacha boʻlgan hududlar ham bu chaqiriqqa qoʻshilish istagini bildirdilar.

Avval boshida Aristagor qo'zg'olonga o'zi boshchilik qiladi. Hattoki, Bolqon Yunonistoniga yordamga ham boradi.

Lekin ularning yurishi natijasiz bo'ldi: Sparta yordam berishni rad etdi, faqat Afina 20 ta kema, uncha katta bo'lmagan eskadra yubordi. Ulardan 5 ta kemani Eritreya jo'natgan edi. Qo'zg'olon ko'targan shaharlarda qo'mondonlik joriy etildi.

Mil. avv. 498-yilning yozida qo'zg'olon ko'targan shaharlarning qo'shinlari Sardga yig'ildi. Kichik Osiyo satrapliklarining qo'shinlari shaharni vayron qilishdi lekin akropolni olisholmadi. Bu yerga satrap Artavern garnizoni joylashib olgan edi. Keyingi yilda Kipr yaqinida bir qancha Finikiya eskadralari olib kelindi. Kichik Osiyodagi qo'zg'olonning kattalashuvi fors hokimiyati uchun jiddiy xavf tug'dira boshladi. Doro I ehtiyotkorlik holatini topish zarurligini tushunib yetdi va buning yechimini topdi. Kichik Osiyoga qo'shimcha harbiy qism tashladi. Kichik Osiyodagi garnizon ikkita katta armiyaga bo'lindi. Avval boshida Kiprning yunon shaharlari va Kichik Osiyoning janubiy qismi itoatkorligini bildirishdi. Keyin Qora dengiz bo'g'ozlarida polislar qo'zg'olonlar ko'taradi. (Vizantiya, Xalkedon, Abidos, Lampsk)

Yunon qo'zg'oloni markazlari Ioniya va Milet atroflari asta-sekin siqilib bordi. Qo'zg'olon ittifoqi mustahkam emas edi, ittifoq parchalanib ketdi.

Forslar qo'zg'olonni tark etganlardan va "targ'ibot" yurg'izganlardan oltin va saxovatini ayashmadi. Shu tariqa muvaffaqiyatga erishdi.

Forslar qo'zg'olonchilarni Efes shahri yaqiniga olib kelishgan. Mil. avv. 495-yilda forslar Finikiya kemalaridan (600 ta kema atrofida) iborat katta flot tuzadi. Qo'zg'olon markazi Milet forslar tomonidan qamal qilindi va qariyb 1 yillik qamaldan so'ng mil. avv. 494-yilda egallandi. Shahar shafqatsizlik bilan vayron qilindi. Aholisining ko'pi o'ldirildi yoki qullikka berildi.

Qo'zg'olon muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Qo'zg'olon Doro I ni butun e'tiborini kuch va vaqtga qaratishga undadi. Bu qo'zg'olondan so'ng yunonlar 6 yil davomida forslar bilan to'g'ridan-to'g'ri urushlarga kirisha olmadi.

Forslarning Bolqon Yunonistoniga birinchi yurishi.

Forslarning Bolqon Yunonistoniga birinchi yurishi mil. avv. 492-490 - yillarda bo'lib o'tgan.

Kichik Osiyoliklar qo'zg'olonidan keyin Doro I Bolqon Yunonistonini bosib olish kerakligini anglab yetdi va rejalar tuza boshladi.

U bu yurishni qonuniy qilish uchun zo'r strategik bahona o'ylab topdi. Unga ko'ra Afina va Eritreyani ioniytlarga bergan yordami uchun jazolash kerak edi.

Kichik Osiyoda 30 ming kishilik va 600 kemalik kuchli korpus tashkil etildi. Mazkur armiyaning boshlig'i etib, podshoning kuyovi, iqtidorli harbiy yo'lboshchi va diplomat Mardoniy tayinlandi.

Mil. avv. 492 -yilda Mardoniy o'zining armiyasini Egeyning shimolini egallash uchun Gellespont bo'g'ozi(hozirgi Dardanell) orqali harakatlantiradi.

Forslar qirg'oqbo'yi yunon shaharlari, Frakiyaning janubiy qismini, Fasos oroli qabilalarini egallay boshladi. Lekin, Afon burnida fors floti kuchli bo'ronga duch keldi. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, bu favqulodda holat tufayli Mardoniy 300 kema va 20 mingga yaqin odamini yo'qotadi.

Mardoniy qolgan-qutgan armiyasi bilan Kichik Osiyoga qaytishga majbur bo'ladi. Mil. avv. 492-yilgi omadsiz yurishga qaramay, Mardoniy Egey dengizining shimoliy qismida bo'lajak harbiy harakatlar uchun platsdarm barpo qildi.

Birinchi omadsiz yurish Doro I rejalarini o'zgartira olmadi, Yunonistonga qarshi yangi yurishga jiddiy tayyorgarlik ko'rildi. 20 minglik qo'shin va katta flotga ega bo'lgan yangi armiya tashkil etildi. Bu armiyaga harbiy boshliq qilib, Datis va podsho qarindoshi Artafern tayinlanadi.

Afinadan quvilgan oldingi tiran Gippiy maslahatchi vazifasini bajara boshladi. Chunki u Afinani harbiy strategiyasini puxta o'rgangan edi.

Forslar Egey dengizini aylanib o'tishdan ko'ra, birmuncha xatarli qaror qabul qilishdi. Ular armiyani to'g'ridan-to'g'ri Kichik Osiyodan Attikaga kemalar orqali olib o'tish va Afinani egallashni maqsad qiladilar. Buning uchun uzoq vaqt diplomatik va harbiy tayyorgarlik ko'rildi.

Mil. avv. 491-yilda Bolqon Yunonistonidagi hamma polislarni forslarga butunlay itoatkorlikka majburlash talab etildi yoki hech bo'lmasa keyingi urushda betaraf (neytral) bo'lishiga erishish lozim edi.

Ko'plab yunon polislari, orollar (masalan Egina), Fessaliya, Beotiya bu talabga bo'ysunishdi, Argos esa o'zining betarafligini biidirdi. Sparta va Afina esa bu talabni rad etishdi. O'z o'rnida yunonlar ham urushga tayyorlana boshlashdi.

Datis va Artafern ehtiyotkorlik yuzasidan qulay ob-havoni kutishdi va o'zining armiyasini Evbeya oroliga olib o'tdi. Bir zarba bilan Eritreya egallanib, aholisi qullikka mahkum etildi.

Evbeyani bo'ysundirgandan so'ng, forslar Attikaning shimoli-sharqiy qismiga yo'l olib, Afinadan 42 km uzoqlikda bo'lgan Marafonga yetib keldilar.

Barcha ehtimollar hisobga olinib, Afinaga qarshi harbiy harakatning rejasini Gippiyning maslahati bilan tuzishadi. Forslar uzun Marafon tekisligiga o'z armiyasini qulay qilib joylashtirishdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zining otliq qo'shinidan unumli foydalanish edi. Forslar u yerda mustahkamlanib olgach, hech qanday to'siqlarsiz butun Attikani vayron qilmoqchi bo'lganlar.

Vaziyatni kuchaytirish uchun Gippiy o'zining tarafdorlari bilan forslar "foydasiga" targ'ibot ishlarini olib bordilar.

Afina qo'shinida esa harbiy harakatlarga qarshi aniq bir reja mavjud emas edi. Strateglar qismi esa passiv taktika qo'llashni va Afina shahrini mudofaa qilish rejasini qo'llab-quvvatlaydi.

Eng oxirida dastlabki rejaning barcha jihatlari o'rganib chiqilib, iste'dodli qo'mondon Miltiad tomonidan mukamallashtirildi.

Mil. avv. VI asr oxirida Miltiad Frakiya Xersoniyasida hokim bo'lgan, bir necha marta forslar bilan to'qnash kelgan va forslar harbiy tuzilmasining nozik tomonlarini yaxshi bilar edi. Mil. avv. 490-yilda Miltiad Afina polisi strateglaridan biri sifatida harbiy harakatlar rejasini qayta ishlab chiqadi. Shuning natijasida afinaliklar g'alaba qozondi.

Miltiad oldindan o'ylab qo'yilgan fikrini forslarga ilgariroq xabar berishni taklif qildi va ularni hujumkor taktikasiga bog'lab qo'ydi.

U o'zining strateglar jamoasini kuchsizroq mustahkamlangan Afinada bekinib o'tirmaslikka, butun urush va hal qiluvchi jangni Marafonda bo'lishiga ishontirdi.

Bu jang mil. avv. 490 yilning 12- sentyabrida mashhur Marafon jang maydonida sodir bo'ldi va tarixda antiqa harbiy san'atni namoyish etadi.

Marafon tekisligida qadimgi ikki yirik harbiy tuzilma tizimi to'qnashdi. Birinchisi qadimgi yunon falangasi bo'lib (og'ir qurollangan askarlar ya'ni goplitlardan tuzilgan), ikkinchisi yoyilib safga tizilgan forslar armiyasi edi. Forslar qo'shinining ustun tomoni mashhur otliq qo'shinlar va mohir kamonchilarni mavjud bo'lganligida edi. Miltiad odatdagidek yunonlardan umumiy soni 11 ming kishilik falanga tuzadi. U 1000-1200 ta harbiylardan iborat bo'lib, 8 qator safga tizilgan edi. Falanga markazlardagi qatorlarning zichligini kamaytirish uchun cho'zilgan falangalar qo'shni tepalikkacha borib taqalgan edi. Chunki, yunonlar fors otliqlarining o'rab olishi va hujumidan saqlanishi kerak edi.

Falanga tarkibidagi 3 qismning mustaqil harakat qilishi (chap falanga, markaziy va o'ng falanga) yunonlarga katta ustunlik beradi. Urush taklif qilingan reja bo'yicha amalga oshirildi. Fors otliq qo'shinlari yunon falangasini aylanib o'ta olmagan va amaliy jihatdan jangda kamchilik qatnashgan. Urush vaqtida forslar zaiflashgan afinaliklar markazini siqib qo'ydi. Lekin harbiy va taktik ustunlik yunonlar tomonida edi. Natijada g'alaba yunonlar tomoniga to'liq o'tdi. Jang maydonida 6 mingga yaqin forslar o'ldirildi. Afinaliklar 192 ta goplitidan ayrildi.

G'alabadan so'ng darrov Afina shahriga chopar yuborildi. U agoraga yetib kelib, "g'alaba" deya yerga yiqilib, jon beradi. Bu epizod Olimpiya o'yinlarida Marafon masofasi nomi bilan saqlanib qoldi. Bu masofaning uzunligi 42 km 192 m ga teng edi.

Afinaliklarning Marafon jangida g'alaba qozonishi katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Bu jang yunon harbiy tizimining ustunligini, bir qancha yunon polislarining kuchini isbotladi. Fors podshosi Elladani egallash uchun fors davlatining butun kuchi kerakligini anglab etdi.

Kserksning harbiy yurishlari. Doro I o'zining harbiy siyosiy imkoniyatlari yunonlarga kuchli zarba bo'lishini tushunib etdi. U Yunonistonga yangi hal qiluvchi Yurishni ikki baravar ko'p shiddat bilan boshlashga qaror qildi. Lekin, mil. avv. 486-yilda Doro I vafot etadi. Ushbu voqea esa Bobil va Misrda qo'zg'olonlar boshlanishiga sabab bo'ldi. Yangi podsho, Doro I ning o'g'li Kserks birmuncha xotirjamlik va o'z hokimiyatini mustahkamlagandan so'ng, mil. avv.

483 -yilda Yunonistonga hal qiluvchi yurishlar uchun harbiy tayyorgarlikka shiddatli tarzda kirishdi. Barcha tayyorgarliklar tugagandan so'ng, imperiya o'zining harbiy kontingentini Kichik Osiyoga yo'naltirib, katta flot barpo qildi, qurol aslahalarni taxt holiga keltirdi va urush uchun oziq -ovqatlarni g'amladi.

Katta armiyani to'g'ridan-to'g'ri Egey dengizi orqali olib o'tish mumkin emasdi. Shuning uchun ham Mardoniy yurgan yo'nalishni tanladi. Bu yo'nalish ancha uzunroq va shu bilan birga xavfsiz edi. Ushbu yo'l orqali Egey dengizining shimoliy qirg'oqlari bo'ylab uzunasiga aylanib o'tilar edi. Mazkur jarayonda Makedoniyada fors protektorati o'rnatilganligi tan olindi. Bu yerda ulkan armiyani ta'minlash uchun omborxonalar qurildi. O'zining xavfsizligini ta'minlash maqsadida Afon burnida tasodifan ro'y bergan dahshatli girdob va suv ichidagi qoyalarni (xuddi shu yerda mil. avv. 492-yilda katta fors floti halok bo'lgan edi) hisobga olgan holda kemalarni sokin suvda olib o'tish uchun Akte yarim orolida 2 km lik kanal barpo etiladi.

Urushga diplomatik jihatdan ham puxta tayyorgarlik ko'rildi. Aristokratlar boshchiligidagi polislar hisoblangan Fessaliya, Beotiya, Agros o'zining betaraf ekanligini e'lon qilishdi.

Mil. avv. 481 -yilda urushga tayyorgarlik nihoyasiga yetadi. Fors armiyasi endilikda 150-200 ming kishini tashkil etib, katta harbiy flot esa 1200 kemadan iborat edi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, Gerodot forslarning kuchini fantastik raqamlar bilan bog'lab, armiya sonini 5.28 mln kishi bo'lganligini aytadi. Bu qo'rqinchli va o'limli tahdidlar Elladaga qaratilgan edi.

Yunoniston ham bu tahdidni qaytarishga tayyorgarlik ko'rdi. Tayyorgarlik asosan harbiy-siyosiy birlikni tashkil qilib, polislar o'rtasidagi dushmanlik kayfiyatini bir tomonga qo'yib turish, forslarni quvib chiqarib, oppozitsiya kuchlarini yo'qotishga qaratilgan edi. Albatta, bu jarayonda har bir polisning harbiy kuch-qudratini oshirishga harakat qilindi. Forslar agressiyasini qaytarish bo'yicha alohida rejalar tuzib chiqiladi.

Mil. avv. 481-yilda Yunonistondgi 31 ta polis Korinf kongressida harbiy ittifoqga birlashdi. Asosiy e'tibor qurolli kuchlar va flotni birlashtirib, armiya va flot sonini maksimal darajaga ko'tarishga qaratildi.

Femistoklning dengiz rejasida nafaqat harbiy, balki siyosiy nuqtai nazar ham hisobga olinadi. Uning rejasiga ko'ra, afinaliklarning quyi qatlami rolini oshirishi kerak edi. Solon islohotlaridan keyin aholining to'rtinchi qatlamiga aylangan fetlar Femistokl rejasiga bo'yicha, flotning asosiy qismini tashkil qilishi kerak edi. Uning ushbu qarori Afinaning badavlat yer egalari qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay u harbiylarni kuchaytirish, Afina atrofidagi himoya vositalarini mustahkamlash va faol tashqi aloqalarni olib borishga harakat qildi.

Mil. avv. V asrning 80-yillar oxirida Afinadagi saylovlarda Femistoklning jamoasi g'alaba qozondi, uning siyosiy raqibi Aristid esa astrokizm orqali quvg'in qilindi. Femistoklning dengiz dasturi hayotga keng tadqiq qilina boshlandi.

Uning muvaffaqiyatli ish olib borishiga, arxontlarni Afinada amaldorlarni davlat mansabiga qo'yishda qur'a tanlash yo'li bilan tanlashga asoslangan demokratik islohati sabab bo'ldi. Oldinlari amaldorlar ochiq usulda ovoz berish yo'li bilan saylangan. Bu jarayonga amaldorlar ta'sir o'tkazgan. Lekin, mil. avv. 487-yildan keyin 10 ta hududiy birlashmadan 500 kishi tanlab olingan va ulardan yopiq usulda ovoz berish yo'li bilan 9 ta yuqori magistr arxontlar tanlab olingan.

Forslar bosqin arafasida afinaliklar quvg'in qilingan Aristid va uning tarafdorlarini shaharga qaytishiga ruxsat berishdi. Bundan ko'zlangan maqsad, ularning harbiy mudofaaga yordam berishi mumkinligi edi.

O'sha davrning eng zo'r kemalaridan tashkil topgan Afina floti Sparta og'ir qurollangan piyoda qo'shinlariga katta yordam berdi. Ko'ngilli askarlar va Elladaning boshqa ittifoqchi polislarining kemalari bilan Fors hujumiga qarshi mustahkam ittifoq bo'ldi.

Mil. avv. 480-yilning bahor fasli boshlarida Kserksning Elladaga buyuk yurishi boshlandi. Forslar ikkita panton ko'priki yasab, Gellespont bo'g'ozi orqali o'tishdi. Bu kechuv talafotsiz bo'lmadi, kuchli oqim va kengliklar bitta panton ko'priki buzib tashladi.

Bu talofatdan g'azablangan Kserks o'zini odamlar, balki barcha tirik mavjudotlar sifatida ko'rib, Gellespont suvlarini qamchilatadi hamda suvga kishan tashladi (Go'yoki bo'ysunmagan suvni jazolash maqsadida). Ko'priki qurgan ustalar o'ldirildi va yangi ko'priki qurildi.

Oldindan tanlangan yo'nalish orqali forslar barcha Frakiya qirg'oqlari va Makedoniyani eson-omon bosib o'tishdi. Yunonlar birinchi bo'lib himoyani Tempey vodiysining tor kiraverishida ushlashmoqchi bo'lishgan va hatto 10 ming kishilik otryad yuborgan, lekin, Fessaliya aristokratlari xoinligidan cho'chib, ushbu pozitsiyani tark etishdi.

Yangi himoya qo'rg'oni sifatida Fessaliyadan O'rta Yunonistonga o'tuvchi yagona tor dara hisoblangan Fermopil tanlandi. Shu yerda himoya vositalari devorlar, minoralar qurildi (Ularning qoldiqlari keyinchalik arxeologlar tomonidan aniqlangan). U yerga 7200 ta goplit va Leonid boshchiligidagi 300 spartalik jangchi yuborildi. Bir vaqtning o'zida 270 trieradan iborat yunon polislari floti Evbeya oroli shimolidagi Artemisiya burniga joylashtiriladi. Ulkan fors qo'shinlari to'rt kun davomida shiddatli hujumlar uyushtirdi. Biroq, yunon qo'shinlarining mardonavor kurashlari natijasida Kserks ko'zlagan maqsadiga erisha olmaydi. Hatto, jangga podshoning saralangan mashhur "o'lmas" jangchilarining jalb qilinishi ham hech qanday natija bermaydi. Spartalik sarkarda Leonid esa jangda kuchli taktikaga ega harbiy ekanligini namoyish etadi. Podsho Kserksga fessaliyalik sotqin yordamga keladi. Katta boylik evaziga u yunon qo'shinlarini aylanib o'tuvchi yo'lni ko'rsatadi. Leonid endi kurash olib borish befoydaligini tushunib etadi va spartaliklardan tashqari jangchilarga chekinishga buyruq beradi. O'zi esa 300 ta spartalik jangchi bilan forslarga qarshi kurash olib borib, jang maydonida halok bo'ladi. Bu g'alaba forslarning yirik va so'nggi yutug'i bo'ldi. Fermopil jangi bilan bir vaqtda Artemisiya burnida uch kun davomida flotlar ishtirokida jang bo'lib o'tadi. Lekin bu to'qnashuvda ikki tomon ham ustunlikka erishmadi. Yunon floti chekinib, Salamin bo'g'oziga joylashdi.

Salamin jangi mil. avv. 480-yilning 28-sentyabrida bo'lib o'tdi. Femistoklning tashabbusi bilan jangga kirgan kichik va tez harakatlanuvchi trieralar dushmanga qaqshatqich zarba berdi. O'z navbatida forslarning katta kemalari tor va sayoz joylarda harakatlana olmay, mag'lubiyatga uchradi.

Mil. avv. 479-yilda Mardoniy qo'mondonligidagi Eron qo'shinlari Attikaga bostirib kirib, Afinani vaqtincha ishg'ol qilganlar. Sparta, Afina, Megara, Plateya va boshqa polislarning birlashgan kuchlari eronliklarga qarshi kurashga otlangan. Yunonlarning

birlashgan qo'shiniga spartalik sarkarda Pavsaniya boshchilik qiladi. Mardoniy qo'shinlari Beotiyaga chekingan. Hal qiluvchi jang shu yili Plateya yonida bo'lib o'tadi. Unda yunonlar g'alaba qozongan. Eron qo'shini qo'mondoni Mardoniy ham jangda halok bo'lgan. Forslar Yunonistonni tashlab chiqishga majbur bo'lganlar. Shu tariqa yunonlar qahramonona kurashib o'z vatanlarini dushmandan tozalaganlar.

Mil. avv. 465-yili saroy fitnalari natijasida Kserks vafot etib, taxtga uning o'g'li Artakserks keladi. Bundan foydalangan Misr satrapligi liviyalik Inar boshchiligida mil. avv. 460-yilda forslarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilar Afina floti yordamida dastlab g'alaba qozonganiga qaramay, Ahmoniylar mil. avv. 455-454-yillarda yangi armiya tashkil etib, qo'zg'olonn bostirishga muvaffaq bo'ldilar. Misrda forslar hukmronligini tiklanishi va afinaliklarning mag'lubiyatga uchrashi, Sharqiy O'rtayer dengizida vaziyatni Ahmoniylar foydasiga o'zgartiradi. Afinada qaytadan strateg lavozimiga qaytgan Kimon misrliklar va kiprliklar ko'magida mil. avv. 450-449- yillarda forslarga qaqshatqich zarbalar beradi. Mil. avv. 449-yili Kimonning qarishdoshi bo'lgan Kalliy Kiprga yuborildi. Uning tashabbusi bilan tuzilgan kelishuv "Kalliy sulhi" nomi bilan tarixga kiradi. Mazkur sulhga asosan forslar Kichik Osiyodagi barcha yunon polislari mustaqilligini tan oladi. Hamda ularga qarshi harbiy harakatlar olib bormaslik va Egey dengizi hududlariga flot kirgizmaslik majburiyatini oldilar. O'z navbatida yunonlar Sharqiy O'rtayer dengizi va Misrdagi forslarga qarashli satrapliklar ichki ishlariga aralashmaslikni zimmasiga oldilar. Shunday qilib, uzoq davom etgan urush yunonlar g'alabasi bilan nihoyasiga etadi.

Yunon-fors urushlaridan so'ng Afina tez tiklandi. Pirey porti qayta qurilib, o'sha davrdagi O'rtayer dengizidagi eng yirik port hisoblangan Karfagen portiga tenglashdi. Dengiz ittifoqiga yetakchilik qilgan Afina yunon dunyosi dengiz savdosida ham birinchi o'rinni egalladi. Afina eksporti Shimoliy qora dengiz, Sitsiliya, Apuliya, Etruriyani qamrab oladi. Egina, Korinf, Kerkira va boshqa shaharlar savdoda Afinani birinchiligini e'tirof etishga majbur bo'ldilar.

Mil. avv. V asr o'rtalariga kelib Afinada hunarmandchilik va dehqonchilikda foydalaniladigan qullar soni ko'payib ketdi. Afina olib borgan ko'plab urushlar natijasida Kichik Osiyo, Frakiya va

Illiriyadan qullar olib kelib sotiladigan Xios orolidagi qul bozori iqtisodiyotning ishchi kuchiga bo'lgan doimiy ehtiyojini qondirdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Polislar davri qachon boshlangan?
2. Attikada demokratiyaning vujudga kelish shart-sharoitlari.
3. Afinada quldorlik demokratiyasining o'ziga xos xususiyatlari
4. Yunon-fors urushlarini keltirib chiqargan asosiy omillarni sanab bering.
5. Yunon-fors urushlarining yunon polislari taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri.

Glossariy

Agora – bu Qadimgi Yunonistonda tevaragini turli-tuman imoratlar qurshab turgan shahar markaziy maydonidir.

Delfa amfikteonasi – mil. avv. IV asrda Delfa ibodatxonasi muqaddas nomini qo'riqlovchi davlatlar ittifoqi. O'sha davrda Fokida Delfakuli ibodatxonasi bo'lib, unga juda ko'p qimmatbaho qurollar, oltin buyumlar sadaqa qilingan va u muqaddas hisoblangan.

Diakriylar – Afina tog'li tuman aholisi

Drakont qonunlari – mil. avv. 621-yilda Afinada Drakont nomli arxont tomonidan qabul qilingan. Ushbu qonunga ko'ra ho'l meva o'g'irlagani uchun ham, odam o'ldirgani uchun ham o'lim jazosi joriy qilingan. Bu qonunni oddiy xalq (demos) shu sababli, siyoh bilan yozilmagan, balki qon bilan yozilgan deb baholagan.

Yevpatrid – Qadimgi Yunonistonda nasl-nasabi oliyjanob bo'lgan zodagonlar.

Tiraniya- Qadimgi Yunonistonda davlat tuzilishlaridan biri. Davlat tiran tomonidan idora qilingan. Dastlabki tiraniyalar mil. avv. VI-V asrlarda Yuzaga kelgan. Pisistrat va Polikrit tiraniyasi bunga misoldir.

Mavzu: Mil. avv. V-IV asrlarda Yunoniston. Polis tizimining inqirozi

Reja:

1. Afinada quldorlik demokratiyasining rivoji.
2. Peloponnes urushlari(mil. avv. 431 - 404 -yy).
3. Polis tizimining inqirozi.

Afinada quldorlik demokratiyasining rivoji. Yunon shahar-davlatlarining raqobati va Afina demokratiyasining rivoji. Yunonistonda fors bosqinini bartaraf qilish jarayonida kuchli ellinistik umumiylik shakllandi. Uchinchi bosqinni oldini olishga intilib, ko'plab yunon polislari urushda harbiy dengiz kuchlari jihatidan alohida o'rin egallagan Afina boshchiligidagi ittifoqqa birlashdilar. Bu ligadan kelgan daromadlar natijasida Afina polisining mavqei yanada ortadi, jamiyatda boshqaruv ishlarida qatnasha oladigan erkaklar soni ko'paygan. Oddiy fuqarolar rivojlanib borayotgan shaharlar aholisining asosiy qismiga aylanib bordi, biroq ular boy va aslzodalarga siyosiy boshqaruvda an'anaviy monopol boshqaruvni qo'llab-quvvatlashlariga halal berardilar. Haqiqatda Afinaning imperiya korxonalari Attikadagi qullar sonini oshirdi va erkak fuqarolari orasida tenglik o'sib borsada, ayollarning mavqei pastligicha qolaverdi.

Kserks mag'lubiyatidan keyingi o'n yillar mobaynida Afina shahri asosiy madaniy markazga aylandi. Barcha sayohatchilar xudo Dionis sharafiga qo'yiladigan tragediyalarni ko'rishga kelishardi. Afinaliklarning dengizni qo'riqlash uchun olingan pullarning bir qismi diniy marosimlarni nishonlash va Afina tepaligidagi Parfenon kabi ommaviy inshootlar qurish uchun ishlatilar edi. Tragediyachilar Esxil, Evripid va Sofokllarning barchasi Afinada tug'ilgan, shuningdek komik dramaturg Aristofan, haykaltarosh Fidiy va tarixchi Fukiditlar ham shular qatorida bo'lishgan.

Mil. avv. V asrlarda Afina Yunonistonning yirik savdo va qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Yunon - Eron urushlari va Afina ittifoqi tashkil topayotgan bir vaqtda, katta o'zgarishlar ro'y berdi. Solon islohotlariga ko'ra Afinaning barcha fuqarolari o'zlari mansub bo'lgan mulkiy tabaqaga ko'ra ma'lum bir harbiy majburiyatlarni ado etganlar. Shuningdek, ular ba'zi huquqlarga ham ega bo'lganlar.

Islahotlardan so'ng kambag'al qatlam – "fetlar" Afina siyosiy pillapoyasining eng quyi pog'onasiga tushib qoladilar. Og'ir qurol - yarog'lar sotib olish uchun mablag'i bo'lmaganligi tufayli ular yordamchi bo'linmalarda xizmat qilganlar. Flot Afina dengiz ittifoqining tayanchi bo'lganligi uchun fetlar siyosiy ahamiyati jihatidan asta-sekin Afina demosining nisbatan yuqori darajasi – zevgitlar, qisman esa suvoriylar bilan tenglashib, mil. avv. V asrda Afina qudratining asosiy tayanchi bo'lib qoldilar. Yunon - Eron urushlari davridayoq Afina demosini mavqei oshib, ular hokimiyat uchun kurashganlar.

Afina qishloqlarida, asosan, qishloq demosining vakillari – bo'lmish mayda va o'rtahol dehqonlar yashaganlar. Keyinchalik yirik yer egalari paydo bo'la boshladi. Shu bilan birga Afinada aristokratiya hukmronligi bilan oligarxiya ham rivojlandi. Afina aristokratlari o'z hukmronlik mavqeini yo'qota bordi. Yunon - Eron urushlari tugashi arafasida aristokratik va demokratik guruhlar o'rtasida siyosiy kurash boshlandi.

Aristokratlar harbiy muvaffaqiyatlari tufayli Afina siyosatida ham yetakchilikka intilganlar. Afinada ularga mashhur sarkarda Miltiadning o'g'li Kimon boshchilik qilar, ammo aristokratlar o'sha davr ishlab chiqarishida muhim o'rin tutmaganlar. Vaqt o'tgani sayin ularning yer-mulki kamayib borgan. Ular aksariyat demokrat kuchlarning Afinada yo'qligidan foydalanib, boy fuqarolar ko'magi bilan hokimiyatni vaqtincha kuchaytirishga erishdilar. Biroq urush harakatlari tugab, jangchi va dengizchilar urushdan qaytib kelganidan so'ng, Afinada demos qatlamining faolligi kuchaydi. Endi demokratiyaning vazifasi hokimiyatda aristokratlarning siyosiy huquqlarini zaiflashtirishdan iborat bo'ldi.

Peloponnes urushlari(mil. avv. 431 – 404- yy)

Afina va Sparta o'rtasidagi raqobat. Afinada qattiqqo'l va zo'ravon Femistokldan o'rniga donishmand va oliyjanob Kimon hokimiyat tepasiga keladi. Kimon va Femistokl har bir jabhada birbiriga qarama-qarshi edi. Ularning biri sekin bo'lganda biri tez bo'lgan, biri manman bo'lganda ikkinchisi odobli bo'lgan edi.

Kimon aqlli bo'lmagan lekin mohir lashkarboshi edi. U harbiy obro'si tufayli Sparta bilan aloqalarni uzish va demokratiyaning rivojlantirish maaqsadida bo'lgan. O'z faoliyati davomida Afina yig'inida Efialt boshchiligidagi koalitsiya u bilan hisoblashishga

majbur bo'ladi. Shu bilan Kimon katta obro' qozonishda davom etgan. Mil. avv. V asrning 70-yillarida Kimon boshchiligidagi afinaliklar Egey dengizidagi qator orollarni egallab olishga muvaffaq bo'ldilar. Afina polisining Delos ittifoqidagi mavqei yanada ortdi. Bu jarayon ikkinchi yirik polis-Sparta bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. mil. avv. 464-yili Spartada kuchli zilzila ro'y berdi. Zilzila natijasida ko'plab uylar vayron bo'ladi va minglab odamlar qurbon bo'ladi, bundan foydalangan ilotlar esa qo'zg'olon ko'taradilar. Itom tog'ida mustahkamlanib olgan qo'zg'olonchilarni bostirishga kuchi yetmagan spartaliklar, mil. avv. 481 -yilda forslarga qarshi urush davomida tuzilgan Ellin ittifoqiga kiradigan shaharlardan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Kimon boshchiligidagi aristokratlar Afina kengashini Sparta yordam berishga ko'ndirdi. Og'ir qurollangan qo'shin (Goplitlar) yetib borgan vaqtda spartaliklar qo'zg'olonni o'z kuchi bilan bostirishga erishib, afinaliklarni orqaga qaytarib yuboradilar. Afina demokratiyasi vakillari Efialt boshchiligidagi buni o'zlariga haqorat deb bilib, Kimonga qarshi kurash boshladilar. Mamlakatda ostrakizm so'rovi bilan Kimon amalidan ayrilib, quvib yuborildi.

Efialt islohotlari. Efialt Kimonga bosim o'tkazib undan qutulgach, bir qancha sezilarli islohotlarni o'tkazishga erishdi. Biz Efialt islohotlari to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lmasakda, biroq u qadimgi Oliy sudning mavqei va ta'sirini tushirishni maqsad qilgandi (mil. avv. 462 -yilgi qabul qilingan qonun buning isbotidir). Ammo bu idoraning obro' - e'tibori zo'r bo'lganligi bois, Efialtning o'z maqsadiga erisha olishi qiyin kechadi.

U dastlab areopagga qarshi yetarlicha dalillar to'plagan (Areopag - Afinaning oliy sud va hokimiyat organi). Keyinchalik Efialt islohotlar o'tkazishga muvaffaq bo'lib, areopagni siyosiy nazorat imkoniyatidan mahrum qilib, endi u faqat sud ishlarini yuritish bilan cheklanadigan bo'ldi. Qolgan ishlarning barini gelieya, ya'ni hakamlar sudi ijro etgan.

Efialt vafotidan so'ng Afina demokratiyasi zaiflashib qoldi. Aristokrat va demokratlar o'rtasida siyosiy kurash keskinlashdi. Bu vaqtda tajribali siyosiy arbob Fukidid aristokratiya sinfi yetakchisi, Perikl esa demokratiya sinfi yo'lboshchisiga aylandi.

Perikl va Afina demokratiyasining rivoji. Perikl Afina demokratiyasi ruhiyatiga sodiq edi, siyosiy kurashlarda demos manfaatlarini himoya qilgan qilgani uchun afinaliklar saylovlarda uni

qo'llab-quvvatlashadi. Aslida, undan tashqari yana to'qqizta strateg bo'lsa ham boshqa generallar uning ra'yiga qarshi chiqishmagan.

Perikl quldorlik demokratiyasi g'oyalariiga sidqidildan sodiq edi. U Afina demosining turmushini yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilgan va uning manfaati yo'lida faoliyat yuritgan. Perikl o'z hayotini Afina demokratiyasiga bag'ishlagan. Uning "Biz oz muddatda yaratganlarimiz qisqa muddat yashamasligi kerak" degan iborasi xalq orasida mashhur edi. Perikl demosning o'rta tabaqalariga tayangan va Afina kambag'al tabaqalarini ish bilan ta'minlashga intilgan. U shahar aholisi bilan birga yirik qurilishlarda ishtirok etgan. Perikl xalq yig'iniga tayanib, 15 yil Afina quldorlik demokratiyasi hokimiyatini boshqardi. Afina demokratiyasi ko'proq xalq yig'iniga tayanib ish ko'rgan. Bu esa Afina siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Peloponnes urushi arafasida Yunoniston.

Delos va Peloponnes ittifoqlari. Yunon shahar-davlatlarining gullashi davomiy bo'lib chiqmadi. Bu yunon-fors urushlaridagi g'alabalar va Peloponnes urushlari orasidagi qisqa mo'tadillik va ko'tarilish davri edi. Buning ustiga hatto o'sha davrda ham mo'tadillik nisbiy edi, ko'tarilish esa qulash tendensiyalariga to'la edi. Forslar bilan to'qnashuvda yunonlarning ozod fuqarolar jamiyati forslar despotiyasidan ustun ekanligini ishonch bilan isbotlab berishdi. Shu bilan birga yunon-fors urushlari xo'jalikning kuchli quldorlik shakllarini rivojlantirgan holda fuqaroviy jamoalarda ijtimoiy va egalik manfaatlarini o'sishiga yordam bergan. Shuningdek, ular umumiy ozodlikning qudratli himoyachilari bo'lgan Afina va Spartani oldingi qatorlarga olib chiqdi. Qadimgi Yunonistonda, aslida shahar davlatlar orasida asosan ikki qarama-qarshi kuch mavjud bo'lgan. Bir tomonda Sparta Janubiy Yunonistonning katta qismlari bo'yicha konservativ polislarni birlashtirgan holda mil. avv. VI asrdayoq Peloponnes ligasining tashkilotchisiga aylangan edi. Boshqa tomonda keyingi yuz yillikdagi yirik birlashma – Delos, yoki savdo aloqalari jihatida umumiydashgan dengizbo'yi va orol polislarining katta qismini birlashtirgan va forslarga qarshi kurashda o'sha kuchlarni birlashtirishni ko'zlagan Afina dengiz ittifoqini mavqei ortib borardi. Peloponnes ligasining yadrosi konservativ, agrar tipga mansub bo'lgan, asosan savdo-iqtisodiy aloqalarga moslashgan doriylar jamoalari edi. Har jamoa o'z sardorining tashabbusiga bo'ysungan

holda ta'sir doirasini saqlab qolish va kengaytirishga intilgan va raqobatchi guruhlar muvaffaqiyatlarini obdon kuzatib borgan. Ikki ittifoq o'rtasidagi bu raqobat- o'z o'rnida mil. avv. V asrda Yunoniston jamiyatida shunday siyosiy qarama-qarshilikka aylanganki, u umumiy katta ichki mojaroni, Peloponnes urushi (mil. avv. 431-404-yy)ni keltirib chiqargan. Bunda birinchi o'rinda, Afina tashabbuskor tomon sifatida namoyon bo'ladi. Tez rivojlanib borayotgan iqtisodiyot va unga asoslangan ijtimoiy harakatlarga bo'lgan ehtiyoj afinaliklarni o'z ta'sir doirasini, hududini kengaytirishga, xom-ashyo va resurslarini ko'paytirishga undagan. Afina bilan dengizda raqobatini olib borgan doriylarning savdo shaharlari, eng avvalo, Megara va Korinf, shuningdek butunlikni saqlab qolish g'amidagi katta yer egalarining barchalari Spartaga murojaat qilishardi. O'z navbatida Sparta ham Peloponnes ligasida siyosiy yaxlitlikni saqlab qolishni xohlardi. Afinaning V asrning 50-yillarida Istma va O'rta Yunonistonda o'z kuchini o'rnatishga bo'lgan harakatlari oxir oqibat uning Sparta bilan qurolli to'qnashuviga olib keldi. Bu birinchi yoki kichik Peloponnes urushi nomini olgan harbiy to'qnashuvlar (mil. avv. 457-446-yy.) o'ziga xos kuchlarni sinash voqeasi bo'ldi. U ikki tomonga ham muvaffaqiyat keltirmadi; shunchaki navbatdagi urushga tayyorgarlik vazifasini o'tovchi qisqa vaqt bo'lgan "O'ttiz yillik" tinchlik sulhi bilan tugadi.

Urushning sababi Afina va Sparta o'rtasida Yunonistonda gegemonlik qilish uchun olib borilgan kurash hisoblanadi. Shuningdek, boshqa tomondan Korinf va Megara o'rtasidagi savdo raqobatlari dastlabki mojarolarni keltirib chiqargan edi. mil. avv. 433-yilda Kerkira va materik orasidagi havzada kerkiraliklar va korinfliklar o'rtasida jang bo'lganda Afina floti unga aralashib kerkiraliklarni mag'lubiyatdan saqlab qoladi. Shunday qilib Korinf va Kerkira o'rtasidagi tortishuv Afina va Korinfning bir-biriga qarshi qurollanishiga sabab bo'lgan. Bu orada Xalkidika yarimorolidagi Potideya tufayli ikkinchi mojaro kelib chiqdi. Korinfliklar tomonidan asos solingan Potideya Afina dengiz ittifoqi tarkibiga kirgan. mil. avv. 430-yillarda afinaliklar tomonidan ittifoq to'lovi summasining oshirilishi va Xalkidika shaharlari ustidan qattiqroq nazoratning o'rnatilishi potideyaliklarning Peloponnes ittifoqiga yaqinlashish yo'llarini qidirishiga olib keldi. Mil. avv. 433-yilda Afinadan ochiqchasiga ajralib chiqqan Potideya yordam so'rab Korinf va

Peloponnes ligasiga murojaat qildi. Peloponnesdan Potideyaga ikki ming ko'ngillidan iborat otryad yetib keldi. Afinaliklar o'z o'rnida mil. avv. 432-yilning bahorida qo'zg'olon qilayotgan shaharga yirik harbiy qo'shin yubordi. Nihoyat, uchinchi falokat ham qo'shildi: afinaliklar Megara ustiga yurish qilishdi. Afinaliklar Megaraga Peloponnes ittifoqi bilan aloqalarni uzishni talab qilib, bosim o'tkaza boshlaydi. Bu bosim hech qanday natija bermagach esa megaraliklarga Afina portlari va Afina ittifoqi shaharlariga kirish va savdo qilish taqiqlab qo'yildi. Potideya va Megaraning Peloponnes ittifoqidan ularni qo'llab-quvvatlashini so'rashi va korinfliklarning afinaliklarga qarshi darhol chora ko'rilishini talab qilishi Spartaning hal qiluvchi qadamni tashlash istagini uyg'otdi. Mil. avv. 432-yilning kuzida spartaliklar xalq yig'ini afinaliklarni "O'ttiz yillik" tinchlikni buzganlikda aybdor deb qaror chiqardi. Birozdan so'ng Afinaga qarshi urush boshlashga qaror qilgan Peloponnes ittifoqi a'zolarining Spartada yig'ini bo'lib o'tdi. Yilning kech payti bo'lgani uchun urush darrov boshlanmadi—tomonlar qishni kuchlarni to'plash va ikki tomonlama diplomatik hujjatlarni tayyorlashga sarflashdi. Spartaliklar Potideya qamalini bekor qilish, Eginaga avtonomiya berish, megaraliklar haqidagi qarorni bekor qilish va nihoyat, Afina qo'li ostidagi barcha yunon shaharlariga ozodlik berish kabi talablarni qo'yadi. Biroq u bilan birga Spartaning boshqa talablari ham rad qilindi. Afinaning yon bosmasligi undagi ichki vaziyat bilan izohlanadi. V asrning 30-yillarning oxiriga kelib Afinadagi siyosiy vaziyat keskinlasha boshladi. Oxirgi 10 yil davomida mamlakat boshqaruv kemasini mutlaq o'zi boshqarib kelayotgan Periklning holati kuchsizlandi. Periklning avtoritar pozitsiyasi turli qatlamlar—oligarx va demokratlar muxolifati asta kuchayib borayotgan guruhlar orasida norozilikni keltirib chiqargan edi.

Urush arafasida Afina piyoda qo'shinlari 30 mingdan ortiq edi. Ulardan 13 mingtasi goplitlar, 1200 tasi otiqlar, 16 mingtasi garnizon jangchilari bo'lgan. Flot 300 ta suzishga tayyor turgan trialar va ularga qo'shilishi kerak bo'lgan ittifoqdosh xioslik, lesboslik va kerkiraliklar eskadralaridan iborat edi. Afina dushmanlarining kuch va imkoniyatlari nisbatan ishonchsizroq ko'rinardi. To'g'ri, Peloponnes ittifoqi piyodalar qo'shinini 60 ming kishiga chiqarishi mumkin edi. Biroq peloponnesliklar floti afinaliklarnikidan ikki, uch marta kam edi. Agrar polislarining moliyaviy imkoniyatlari afinaliklarniki bilan

hatto tenglasha olmasdi. Peloponnesliklar Attika ustiga hujum qilishni rejalashtirar edi. Ular odamlar urushga jalb qilinishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jaligi hududlarini yakson qilib, birinchi jangdayoq urushni yutib chiqmoqchi bo'ldilar. Periklning rejasi quruqlikda Afinaning o'zini va boshqa qal'alarni himoya qilish bilan cheklanish, faol operatsiyalarni esa dengizda olib borishdan iborat edi. Peloponnes qirg'oqlarini qurshab olib, qo'shirlarni kiritib va tobe aholida qo'zg'olon uyg'otish bilan afinaliklar o'z dushmanlari davlatining qulashi va yakson bo'lishiga umid qilishadi.

Arxidam urushi va mustahkam bo'lmagan yarashuv. mil. avv. 431-yilning bahoriga kelib tomonlar tayyorgarlikni tugatishdi. Urush harakatlari fivaliklarning Afinaga ittifoqdosh bo'lgan beotiylar shahri Plateyaga kutilmagan hujumi bilan boshlandi, lekin fivaliklar otryadi tor-mor etildi. Asirga olingan jangchilar qatl etildi. Ular orasida ko'zga ko'ringan fivalik aristokratlar ham bor edi. Javob tariqasida katta Peloponnes qo'shirlari yoz oyi boshida Attika hududiga kirib bordi. Peloponnesliklarga spartalik hukmdor Arxidam qo'mondonlik qildi. Shuning uchun ham Peloponnes urushlarining butun birinchi davrini mil. avv. 421-yilgacha Arxidam urushi deb atashadi. Dushmanlarning hujumi qishloq aholisini shaharga ko'chib, uning devorlaridan panoh topishga majbur qildi. Ammo, Perikl dushmanning ustun qo'shirlari bilan ochiqdan-ochiq jangga kirish tavakkal ekanini anglab turardi va shuning uchun yurtdoshlarini bunday to'qnashuvdan saqlab qolishni uddaladi. Attikaning shimoliy qismini bo'm-bo'sh qilgach, Arxidam tezda o'z qo'shirlarini Peloponnesga qaytarib olib ketdi, afinaliklar esa jonli kuchlarini saqlab qolishdi. Bu orada Afinaning floti Peloponnes bo'ylab tekshiruv, reydlar o'tkazib ulgurgandi. Afinaliklar qirg'oqbo'yi hududlarini bo'shatib, ularni o'zlarining Kefalleniy orollari ittifoqiga birlashtirishdi hamda Korinfning bir koloniyasini ham qo'lga kiritishdi. Undan tashqari, afinaliklar ikkita qaqshatqich operatsiyani amalga oshirishdi: Eginadan spartaliklarni qo'llab-quvvatlagani uchun mahalliy aholi quvg'in qilindi va u yerga Afina koloniyalari joylashtirildi, yil oxiriga borib esa Megaraga yurish qilindi. Mil. avv. 430-yilda peloponnesliklar Attikaga takror yurish qildi; bu safar Arxidam ancha ichkariga kirib bordi va mamlakatda deyarli bir yarim oy qolib ketdi. Dushmanlar yana ekinlarni yo'q qilib, Afina dehqonlarining uylarini yoqib yuborishardi. Qishloq xo'jaligi

hududlarining vayron etilishi afmaliklar uchun og'ir zarba bo'ldi, ammo undan ham yomoni shundaki, Pirey bandargohi, so'ngra Afinaning o'zida ham vabo tarqaldi. Uncha katta hududga ega bo'lmagan va oddiy gigiena shart-sharoitlari mavjud bo'lmagan bu shaharda 200 minggaacha odam to'plangan edi. Epidemiya aql bovar qilmas darajada tez tarqalib borardi. Fukididning guvohlik berishicha, jang salohiyatiga ega bo'lgan armiyaning to'rtidan bir qismi halok bo'ldi. Bundan tashqari Afina xalqining ma'naviy ahvoli og'irlashib, ishonchsizlik kayfiyati avj olib borardi. O'sha vaqtning o'zidayoq Perikl floti yordamida Peloponnes atrofida yana reydlar o'tkazdi, biroq shimoliy va sharqiy sohildagi bir nechta punktlarning vayron etilishidan boshqa natijaga erishilmadi. Keyin flot va qo'shin Xalkidika qirg'oqlariga yo'naltirildi, lekin bu yerda afmaliklarning harakatlari epidemiya tufayli mutlaq cheklangan edi. Kasallik yangi qo'shilgan jangchilarning uchdan birini nobud qildi va mil. avv. 432-yildan beri Potideyani qamal qilib kelayotgan Afina qo'shinlariga o'tdi. Bu hamma muvaffaqiyatsizliklar natijasida Perikl siyosiy jihatdan quladi. Mil. avv. 430-yilning yozida navbatdagi mehnat yili uchun strateglar tanlash saylovida oxirgi 15 yil ichida birinchi bo'lib u Afinadagi eng muhim bu lavozimga saylanmadi. Ammo Periklning chetlatilishi Afinada siyosiy oqimning o'zgarishiga olib bormadi. Sparta bilan muzokaralar olib borish haqidagi taklif va urinishlar tez orada qoldirildi: ikkala tomon ham yon bosishni xohlamasdi, urush davom etdi. Mil. avv. 430/29-yilning qishida afmaliklar holati biroz yaxshilandi: ular nihoyat Potideyani qo'lga kiritishdi; Afina floti Korinf ko'rfaziga kirib borib, Korinfni qamal qila boshladi. Afinada siyosiy vaziyat biroz yengillashadi. Perikldan ayblari olib tashlanib, u yana strateg etib tanlandi. Lekin bu mashhur afinalik siyosatchining so'nggi zafari edi: mil. avv. 429-yilning kuzida uning o'zi shafqatsiz kasallikning qurboni bo'ldi. Perikldan so'ng Xalq yig'inida Kleon ancha ko'zga ko'ringan edi, lekin u shunchaki demagog(balandparvoz so'zlar, va'dalar bilangina cheklanadigan siyosiy arbob) edi; harbiy ishlarga esa Perikl davrasidan bo'lgan Nikiy ismli aslzoda strateg boshchilik qilardi. Tashabbuskor sardorning yo'qligi darrov sezildi: mil. avv.. 429-yilda afinaliklar bironta ham faol harbiy yurishlarni amalga oshirishmadi. Ammo dushman tomon dadil harakat qilardi: peloponnesliklar Plateyani qamal qilishni boshlab g'arb tomonga ikkita: quruqlikda – Akarnaniyaga, dengizda esa – Navpaktdagi Afina

flotiga qarshi hujum uyushtirishadi. To'g'ri, ikkala harakat ham omadsizlik bilan tugadi, biroq peloponnesliklarning dengizda ancha faol ekanligi namoyon bo'ldi. Mil. avv. 428-yil afinaliklar uchun og'ir sinovlar yili bo'ldi. Spartaliklar yana Attikaga hujum qilishdi va deyarli darhol shu voqeadan keyin muhim orol Lesbosda qo'zg'olon ko'tarildi. Bu orolning ajralib chiqishi Afinaning Egey dengizini shimoli-sharqiy qismida hukmronligini xavf ostida qoldirardi. Afina xalq yig'inida bosh ko'targan lesbosliklar harakati bostirildi. Lesbos shaharlari (sodiq qolgan Metimnadan tashqari) o'z avtonomiyasi va flotidan mahrum qilindi, qatl hukmi faqatgina qo'zg'olonning eng faol ming nafar ishtirokchilariga berildi. Lesbos yerlarining sezilarli qismi esa 2700 ta Afina kolonistlariga bo'lib berildi.

Lesbos va Kerkiradagi voqealar Afina himoyasining kuchsiz tomonini ko'rsatib qo'ydi. Separatchilik harakatlari va davlat qulashining ehtimoli kuchayib borar edi. Afinaliklar o'z manfaatlari yo'lida olib borgan urush ittifoqchilarning noroziligini keltirib chiqardi, xolos. Shu bilan birga, Afinaning hatti-xarakatlari ittifoqdosh shaharlarda noroziliklarni keltirib chiqardi. Natijada Peloponnes urushlari xususiy jangovar to'qnashuvdan ko'ra ko'proq butun-yunon ijtimoiy-siyosiy nizosiga aylanib borar edi.

Mil. avv. 427-yilning kuzida strateg Laxet 20 ta kema bilan Sitsiliyaga suzib ketdi. U ulkan ulkan zafarlar quchdi. Shu tariqa Messapa afinaliklar tomoniga o'tdi. Mil. avv. 426-yilda muvaffaqiyatdan ruhlangan afinaliklar spartaliklarni muzokaralar boshlashga urinishini rad etganlaridan so'ng 425-yilda spartaliklar 5-marta Attikaga hujum qilishdi. Bu orada afinaliklar Sitsiliyaga 40 ta kemadan iborat yangi eskadrani yuborishdi. Ekspeditsiyaga bosh etib muhir strateg Demosfen tayinlandi. U dushmanga sezdirmasdan Messeniyaning g'arbiy sohilidagi Pilos bandargohiga tushdi va u yerda uncha katta bo'lmagan otryad bilan qolib himoya qo'rg'oni qura boshladi. Afinaliklarning Messeniya —doimo ilotlarning bosh ko'tarishiga tayyor bo'lgan mamalakatga o'rnashib olishi spartaliklarni Attikaga yurishini darrov to'xtatishga majbur etdi. Demosfenni tashqi dunyodan uzib qo'yish maqsadida spartaliklar Pilos bandargohiga boradigan yo'lni to'sib qo'yadigan Sfakteriya orollarini egallashadi. Shu vaqtda Sitsiliyaga yuborilgan Afina floti yetib keldi. Afinaliklar Peloponnes eskadrasini yakson qildi va spartaliklarning Sfakteriyadagi garnizonini qamalgaoldi. Spartaliklar

tinchlik muzokaralarini olib borishni taklif qilishdi. Nikiyning guruhi, aftidan, bu taklifni qabil qilishga moyil edi, lekin Kleonning partiyasi bunga rozilik bermadi.

Mil. avv. 424-yilda afinaliklarning yangi hujumi bilan boshlandi: Nikiy Lakon sohillari yaqinida joylashgan Kifer orollarini qo'lg'a kiritdi, boshqa strateglar esa megaralik demokratlar bilan til birlashtirib Megaraning bandargohi Piseyani qo'lg'a kiritishadi. Bu Afina zafarlarining eng yuqori nuqtasi edi, biroq g'alabadan mast bo'lgan Megaradagi afinaliklar shunday natijaga Beotiyada ham erishmoqchi bo'ladilar. Afina qo'shinlarining Beotiyadagi harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

O'sha vaqtda afinaliklar uchun shimoldagi vaziyat keskinlashdi. Yosh spartalik qo'mondon Brasid ajoyib g'oyani ilgari surdi. U Frakiyada yangi front ochish, Afinadan norozi ittifoqchilarni o'z tomoniga og'dirib shu yo'l bilan Afinaga qaqshatqich zarba berish rejasini tuzadi. Brasid ilotlar va yollanma jangchilardan uncha katta bo'lmagan otryad tuzib, Xalkikka yetib keldi. Makedoniyalik hukmdor Perdikka darhol Sparta tomonga o'tdi. Brasid Afinaning shimoldagi hukmronligining poydevori bo'lgan Amfiopol shahrini qo'lg'a kiritdi. Afinaliklarning Beotiya va Frakiyadagi mag'lubiyatlariga yana bittasi qo'shildi: afinaliklarning faolligidan qo'rqqan Sitsiliyadagi yunon shaharlari ichki urushlarni to'xtatish haqida kelishib olishdi va Afina floti oldiga kelgan joyiga qaytib ketish shartini ko'ndalang qo'ydi. Bu ketma-ket muvaffaqiyatsizliklar harbiy partiyaning obro'sini zaiflashtirib qo'ydi. Sparta bilan tinchlik haqida muzokaralar boshlanadi. Yil tugashi bilan Kleon urush harakatlarini qayta tiklab, uning o'zi shimolga yurishga boshchilik qildi va qisqa muddat ichida boy berilgan punktlar ustidan Afina nazoratini qaytardi. Lekin Amfiopolga ketishda Kleonni Brasid qarshi oldi va Kleon mag'lub bo'ldi. Afina mag'lubiyatga uchradi Kleonning o'zi esa jangda halok bo'ldi. Spartaliklar kam talofot ko'rishdi, lekin nobud bo'lganlar ichida Brasidning o'zi ham bor edi (mil. avv. 422-yil). Jang qilayotgan ikkala tomonning sardorlarini bir vaqtdagi o'limi yana tinchlik muzokaralari uchun yo'l ochadi. Ikki tomon ham 10 yillik urush davomida bir-birini yengish mumkin emasligiga ishonch hosil qildi. Afinada moliyaviy va odam resurslari sarflanib bo'lgan edi. So'nggi mag'lubiyatlar dengiz qo'shinlarini ancha kuchsizlantirib, g'alabaga bo'lgan ishonchini so'ndirdi. Spartaning ham og'irlashdi.

Bunday sharoitda mil. avv. 421-yil bahorida Sparta va Afina tinchlikka erishdi.

Tomonlar urushdan avvalgi vaziyatga qaytib, afinaliklar Pilos va Kiferani, spartaliklar-Amfipolni qaytarib berishga kelishib oldilar. Afinadan ajralib chiqqan Xalkidika shaharlari o'z mustaqilligini saqlab qoldilar, ammo afinaliklarga dastlab belgilangan hisobda o'lpon to'lab turish majburiyati belgilandi. Barcha asirlar kelishilgan holda almashildi. Bu tinchlik tantanali ravishda 50 yilga qabul qilindi. Bu kelishuv uning afinalik tashabbuskori Nikiy sharafiga "Nikiy sulhi" deb ataldi.

Mil. avv. 421-yilda tuzilgan kelishuv unchalik mustahkam bo'lmagan yarashuv edi. Sulhni tuzgan ikki davlat uning shartlarini bajarishga unchalik shoshilmadilar. Sparta Amfipolning Afinaga qaytarib berilishini ta'minlamadi (ular shunchaki o'z qo'shinlarini shahardan olib chiqib ketdilar, biroq shahar mustaqilligini saqlab qolgan edi), afinaliklar ham o'z o'rnida Pilos va Kiferani qaytarishga shoshilmadilar. Na Potideya va Kerkira, shuningdek, Afina qo'li ostida qolib ketganiga sira ko'nika olmagan Korinf, na Xalkidika shaharlari Nikiy tinchlik sulhini tan olmadilar.

Bu orada Afinada tinchlik tarafdori bo'lgan partiyaning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. Periklning jiyani bo'lgan Alkiviad urush tarafdori edi. Mil. avv. 420-yilda Alkiviad birinchi strateg etib tayinlandi va o'shandan boshlab o'z davlatining siyosatiga ta'sir ko'rsatib, uni urush tomon yaqinlashtirdi. Afinada urush kayfiyatiga qaytayotganligini uning mil. avv. 420-yilda Argos, Mantineya va Elida bilan ittifoqqa kirishi guvohlik beradi. Natijada Korinf Spartaga qarshi ittifoqdan chiqib, u bilan yaqinlashib oldi. Mil. avv. 419-yilda Afina va Argos Epidavrga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi. Epidavrga spartaliklar yordamga kelishdi, mil. avv. 418-yilda esa vaziyat Sparta va Afina yordam berayotgan o'sha Peloponnes ittifoqi o'rtasida ochiq urush bo'lishigacha yetib bordi. Nikiyning noto'g'ri harakatlari va qaror qabul qila olmaslik qobiliyati tufayli Afina yomon ahvolda edi. Sparta Mantineya yaqinidagi jangda dushmanlarini yer bilan yakson qildi va butun Peloponnesda o'z gegemonligini o'rnatdi. Bu Afinada siyosiy inqirozga olib keldi: Giperbolning tashabbusiga ko'ra demokratiya siyosiy arboblarni ostrasizmga (qadimgi Yunonistonda sodiq bo'lmagan fuqarolarni quvg'in qilish) hukm qildi. Keyingi yillarda Afinada hal qiluvchi rolni Nikiy va Alkiviad o'ynadi.

Mil. avv. 415-yilda bir nechta tashqi siyosiy zafarlardan keyin Sitsiliyaga ajoyib ekspeditsiyani uyushtirishga kelishildi.

Sitsiliya ekspeditsiyasi va Dekeley urushi. Mil. avv. 416-yilda Sitsiliyaning kichik bir shahri Egesta o'z qo'shnisi, qudratli Sirakuza qo'llab-quvvatlab turgan, doriylarning Selinuntiga qarshi kurashda Afinadan yordam so'raydi. Afina savdogarlarini Sitsiliyaning hosildor yerlari o'ziga jalb qilgan bo'lsa, dengizchi va eshkakchilarni uzoq sayohat o'ziga tortardi. Xalq yig'ini katta flot va qo'shin yuborishga qaror qildi. Tashqaridan qaraganda bu Egestaga ko'rsatiladigan yordam edi, aslida esa ular Sirakuzaga qarshi kurashib, butun Sitsiliyani egallab olishmoqchi edi. Bu ekspeditsiya uchta strateg – Alkiviad, Nikiy va Lamaxga bo'lib berilgan edi. Mil. avv. 415-yilning bahoriga kelib hammasi tayyor bo'ldi va 6 mingdan ortiqroq jangchi joylashtirilgan ulkan armada urushga shay holatda Pirey portida jamlandi. Ammo suzib ketish oldidan boshlangan barcha harakatlarga soya solgan noxushlik sodir bo'ldi. Bir kechada Afinada qandaydir bezorilar hamma germlarni – savdo va sayohat xudosi Germes tasvirlangan tosh ustunlarni buzib ketishadi. Ammo, bu voqea ko'pchilik tomonidan shunchaki bir necha ichib olgan yoshlarning bezoriligi emas, balki fitnachilarning demokratiyaga qilgan tahdid da'vati sifatida qabul qilindi. Bunda Alkiviad shubha ostiga olindi. O'z navbatida Sitsiliyada afinaliklarni yaxshi kutib olishmadi: Naksos darvozalarini ochdi, lekin Katanga kuch bilan kirishga to'g'ri keldi. Bu ikki shaharda o'rnashib olgach afinaliklar Sitsiliya qirg'oqlaridan ichkariga suzishdi. Afinaliklarning asl maqsadi ko'pgina sitsiliyaliklarga ayon bo'lib bo'lgan edi.

Bu orada Afinada "muqaddas marosim" tergov ishlari davom etardi. Alkiviadga qarshi ish ochildi va uni Afina sudiga olib kelish uchun Sitsiliyaga maxsus kema yuborildi. Alkiviad kelganlar bilan yo'lga tushdi, ammo yo'lda kemadan qochib, qirg'oqqa yashirinishga muvaffaq bo'ldi. U suddan qochganligi bilan o'z aybini isbotladi. Afinada uni o'limga hukm qilishdi, ismini la'natlab, mulkini musodara qilishdi. Bu esa voqealar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bosh qo'mondonga aylangan Nikiy maqbul yo'llar bilan harakat qilmayotgan edi. Mil. avv. 414-yilning bahorida afinaliklar Sirakuzaga yaqin kelib uni qamal qila boshlaydi. Qish bo'yi sirakuzaliklar shahar atrofida yangi himoya chizig'ini yaratishdi, kuchli qo'shin to'plab Peloponnes davlatlarining qo'llab-quvvatlashi

va yordamidan bahramand bo'layotgan edilar. Ular afinaliklarning qamal harakatlarini yo'qqa chiqarishni uddalashdi. Mil. avv. 413-yilning bahorida sirakuzaliklar dengizda ham ancha jonli harakat qilishga o'tishdi. Sirakuza yonidagi Afina qo'shinlari xavf ostida qolgandi. Bu orada Yunonistonning o'zida ham urush qayta boshlandi. Mil. avv. 414-yildayoq spartaliklar armiyasi Afinaning ittifoqdoshi Argos yerlariga bostirib kirgan edi. Afinaliklar floti javob tariqasida Lakonika qirg'og'iga hujum qiladi. Afinani tinchlik sulhini buzganlikda ayblab spartaliklar qo'shini shoh Agis qo'mondonligida keyingi bahorda Attikaga bostirib kirishdi. Bu paytga kelib Spartaga o'tishga muvaffaq bo'lgan Alkiviadning maslahatiga ko'ra ular Afina shimolidan 20 km uzoqlikda joylashgan Dekeleyani egallashdi va Attikaning yarmini doimiy kuzatuv ostiga olishdi. Spartaliklar Afinaga qarshi hamma operatsiyalarini Dekeleyadagi bazalariga tayanib olib borganliklari uchun Peloponnes urushlarining bu bosqichini Dekeleya urushi deb ham nomlashadi.

Spartaliklar qo'shinini Afinaga bu qadar yaqin ekanligi dahshatli tahdid uyg'otardi. Shunga qaramay afinaliklar Sitsiliyadagi kompaniyani davom ettirishardi. Mil. avv. 413-yilning yozida ular u yerga yangi, avvalgisidek katta flot va qo'shirlarni mashhur Demosfen boshchiligida yuborishdi. Biroq Sitsiliya va Peloponnesdagi ittifoqdoshlaridan yordam etib kelishi natijasida sirakuzaliklar bilan bo'lgan ikkita jangda Afina floti mag'lub bo'ldi. Afinaliklar Sitsiliya janubiga yo'l olishdi. Ularning bir qismi asirga tushdi, Nikiy va Demosfenni esa tinch holatdagi davlatga asossiz hujum qilgan qo'mondonlar sifatida qatl qilishdi. Afinaning Sitsiliyadagi mag'lubiyati ulkan talofotli bo'ldi. Shunchalik ko'p odam va kemalar yo'qotilgan ediki, ularni yaqin yillar ichida tiklab olishning iloji yo'q edi. Afinaning eng muhim ittifoqdosh shaharlari – Evbeya, Lesbos va Xios – yashirincha peloponnesliklar bilan aloqaga kirishishdi. Tez orada bu harakat butun Ioniya va Eliodani egalladi. Separatistlarni qo'llab-quvvatlash uchun spartaliklarga katta flot kerak edi. Biroq uni qurish katta mablag'ni talab qilardi, spartaliklarda esa bu mablag' yo'q edi. Shunday sharoitda Sparta Eron bilan yaqinlashdi. Sparta kerakli ko'makni oldi, ammo ular fors hukmdorining butun Kichik Osiyoda, bir necha sohilbo'yi yunon shaharlarini ham hisoblagan holda, hukmronligi va hokimiyatini tan

oldilar. Eron Sparta yordamida o'zining eski dushmani Afina bilan hisobni tenglashtirib olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Mil. avv. 411-yilning boshiga kelib Afma qo'li ostida Lesbos, Samos, Kos va ikki-uchta Kichik Osiyo sohillaridagi shaharlar qoldi. Barchaomadsizliklar natijasida mil. avv. 411-yili Afinada siyosiy inqiroz yuzaga keldi. Sofist Antifont, Frinix hamda Pisandrning sa'y-harakatlari bilan butun hokimiyat oligarxlarning 400 lar Kengashiga topshirildi. Oligarxiya g'olib bo'ldi, ammo ularning g'alabasi uzoqqa cho'zilmadi. Aholining katta qismi demokratik an'analar davomchisi bo'lgan Afinada oligarxik tuzumning mustahkam va uzoq davom etishi uchun poydevor yo'q edi. Oligarxlarning Samosdagi flot va qo'shinni o'z nazoratiga olish harakatlari samarasiz bo'ldi. Demokratiyaga moslashgan jangchilar dengizchilar, eshkakchilar oligarxiya haqida eshitishni ham xohlashmasdi. Afinadagi ichki inqirozdan foydalangan spartaliklar kanallarda operatsiyalarni boshlab yuborishdi. Ularning paydo bo'lishlarining o'ziyoq Afina ittifoqchilarining ajralib ketishi uchun yetarli edi. Afinaliklar uchun yana bir dahshatli zarba Evbeyaning boy berilishi bo'ldi. Evbeyaning boy berilishi Afinani yangi inqirozga olib keldi: 400 lar hukumati quladi va boshqaruvga Feramenning konservativ ruhda g'uruhi keldi (mil. avv. 411-yil kuz). Yangi yo'nalish ishlab chiqildi va yangi hukumat Alkiviadga amnistiya haqida qaror qabul qildi hamda shu bilan flot bilan hamkorlikka yo'l ochdi. Uchta ketma-ket jangda Alkiviad va afinaliklar Peloponnes flotini yer tishlatishdi hamda suv yo'llari ustidan deyarli mutlaq nazoratni qo'lga olishdi. Afinada bu g'alabalardan ruhlangan xalq bosh ko'tardi va mil. avv. 410-yil bahorda demokratik tuzum to'laligicha tiklandi. Muvaffaqiyatlarda Alkiviadning katta hissasi edi. Mil. avv. 407-yilda Alkiviad o'z yurtiga qaytdi va Afina xalqi tomonidan yuksak kutib olindi. U quruqlik va dengizdagi yakka qo'mondon etib tayinlandi. O'sha yilning so'ngidayoq 100 ta trieradan iborat eskadrage bosh bo'lib Alkiviad Ioniyani zabt etish uchun yo'lga chiqdi. Bu orada spartaliklar o'z flotlarini tiklab olishdi va Efesda afinaliklarni ham deyarli o'shanday eskadra kutib turardi. Sparta flotining qo'mondoni mohir sardkarda Lisandr edi. U Sparta flotining ta'minotini o'z bo'yniga olgan Kir Kichkina bilan yaxshi aloqalar o'rnatgan edi. Mil. avv. 406-yilning bahorida Alkiviadning vaqtinchalik yo'qligidan foydalangan Lisandr Afina flotiga qisman talofot yetkazdi. Bu orada Sparta floti

140 ta trieraga etdi. Afina floti Lesbosdagi Mitelena bandargohida yakson qilindi. Mil. avv. 405-yilning bahorida Lisandr boshchiligidagi Sparta floti Gellespontda urush harakatlarini boshlab yubordi. Lisandr qulay fursatni poylab kutilmaganda afinaliklarga hujum qildi. Afina kemalari qirg'oqda ekipajsiz turar edilar va spartaliklar ularni osongina egallashdi. Bu mag'lubiyat afinaliklar uchun katta falokat edi. Endi ularda yo'qotilganlarni tiklab olishning hech qanday imkoniyati qolmagan edi. Afina davlatining taqdiri hal bo'lgan edi. Afina mulklari bo'ylab Lisandr o'z reyдини boshladi. Hamma shaharlarda haydab chiqarilayotgan Afina garnizonlarining o'miga o'zinikilarni joylashtirdi hamda oligarxik hukumat –dekarxiya (10lar komiteti)ni o'rnatdi. Mil. avv. 405-yilning kuzida Lisandr 150 ta kema bilan Afina yaqinida paydo bo'ldi. Bir vaqtning o'zida shaharga ikki tomondan spartalik piyoda qo'shinlar yaqin kela boshlashdi.

Mil. avv. 404-yilning bahorida qamaldagilarning ahvoli chidab bo'lmas darajaga keldi. Tinchlik tarafdorlari ustun kelishdi; Afina uchun juda og'ir sharoitlarda tinchlik sulhi tuzildi. Ular barcha tashqi mulklaridan ayrilishdi. Afinaning tashqi siyosati butunlay Spartaga qaram bo'lib qoldi. Mil. avv. 404-yilning aprelida Lisandr Afinaga kirib bordi va darhol g'oliblar xursandchiligidagi Uzun devorlar buzilishi boshlandi. Keyin Lisandr Samosga yo'l oldi. U yerda mahalliy demokratiya Afinaga chindan sodiq qolgan edi. Uzoq muddatli qamaldan so'ng samosliklar ham mag'lub qilindi va shu bilan Peloponnes urushi o'z nihoyasiga etadi.

Peloponnes urushlari yakuni va oqibatlari. Peloponnes urushining asosiy natijasi Afinaning Sparta bilan uzoq kurashidan so'ng batamom mag'lubiyatga uchrangani bo'ldi. Afinaliklar mag'lubiyatining ko'plab sabablari bor edi. Avvalo, Afinaning siyosati uning ittifoqdoshlarida norozilik uyg'otdi. Afinaning qudratli paytida ittifoqdoshlar foyda ko'rar edi, biroq yetakchining kuchi va irodasi sustlasha boshlaganda, ittifoq tarqaldi. Afina mag'lubiyatining boshqa sababi urush rejasining nobopligi edi: dengiz jangi bilan Spartadek kontinental davlatni qulatib bo'lmasdi. Afinaning qishloq xo'jaligi hududlari bilan aloqalarning uzilishi og'ir oqibatlarga olib keldi. Bundan tashqari afinaliklarda mustahkam boshqaruv yo'qolgan edi, operatsiyalarni amalga oshirishda noma'qulchiliklar ham bor edi. Bunga Sitsiliyaga uyushtirilgan ekspeditsiya misol bo'la oladi. U barbod bo'lgan edi. Va nihoyat, Afinaning mag'lubiyatiga

Spartaliklarga forslarning moliyaviy yordam ko'rsatgani o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu yordam spartaliklarga qudratli flot tuzib, afinaliklar eng kuchli bo'lgan joyda— dengizda — ularni mag'lub qilish imkonini bergandi. Xo'sh, spartaliklarning g'alabasi yunon polislariga nima olib keldi? Sparta urushni ellin ozodligini afinaliklar zulmidan qutqarish shiori ostida olib borgan. Ammo, Spartani qo'llab-quvvatlash va uning tarafida bo'lish bilan yunonlar aytarli hech nimaga erishishmadi. Afina gegemonligi o'rniga Spartaniki keldi, xolos. Natijada Afinada demokratlar va oligarxlar qator kurashlar bo'lib o'tdi.

Nihoyat, Afinada mil. avv. 403-yilning kuzida demokratiya qayta tiklandi. Biroq, bu urushdan oldin Afinada hukm surgan o'sha buyuk demokratiyaning soyasi edi, xolos. Umuman olganda, yunonlar uchun Peloponnes urushining mohiyati salbiy bo'ldi. Yangi tinchlik va yangi boshqaruv tizimi avvalgidek mustahkam emasdi va tez orada ellinlar yangi ichki nizolar, kelishmovchiliklar ichida qoldilar. Urush fuqaroviy jamoalar o'rtasida kelishmovchilikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. U kambag'allar va boylar, shahar demoslari va qishloq xo'jaligi aristokratlari, demokratlar va oligarxlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada keskinlashtirdi..

Polis tuzumining inqirozi

Miloddan avvalgi V asr so'ngida yunon polislarlari uzoq davom etgan tushkunlik pallasiga kirdi. Fuqarolarning yopiq jamoasiga asoslangan yunon polislarida endilikda yer mulkchilik munosabatlarida keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yerga ishlov berishdan keladigan daromaddan ko'ra sudxo'rlikdan olinadigan foyda o'sib ketdi. Yerni sotish keng tarqaldi. Katta yer maydonlari ayrim fuqarolar qo'lga o'tib qoldi. Kambag'allashgan, yeridan ajragan fuqarolar o'z fuqarolik majburiyatini bajarmay qo'ydilar.

Mil. avv. V asrda boylik ayrim xususiy kishilar qo'lida to'plandi va ular o'zlarining fuqarolik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlay boshladi. Ularning ko'pchiligi o'z mablag'larini dengiz savdosiga qo'yib, o'z polislaridan boshqa hududlarda katta-katta yer maydonlariga egalik qila boshladilar. Endi ma'lum bir polis fuqarosi bo'lish ahamiyatga ega bo'lmay qoldi. Bu davrda yunon polislarida davlat xo'jaligining mavjud emasligi hukumat g'aznasiga daromad tushmasligi olib keladi. Polislarining moliyaviy qiyinchiliklari uzluksiz urushlar, yollanma qo'shinlarning keng tarqalishi hamda harbiy

ehtiyojlarga xarajatlarning muntazam ravishda o'sib borishi bilan qiyinlashdi.

Demokratik polislarda lavozimlarga haq to'lash, kambag'al fuqarolarga muntazam nafaqa berish tizimi bu qiyinchiliklarni yanada chuqurlashtirdi.

Avvallari Afina o'z xarajatlarini ittifoqchilar hisobidan to'ldirgan bo'lsa, mil. avv. IV asrga kelib mulkdan olinadigan favqulodda soliq-eysfora bilan qoplay boshladi.

Mil. avv. V asr so'nggida meteklar va chet elliklarga alohida xizmatlari uchun polis hududida yer va uylarga egalik qilish hollari tarqaldi.

Polis tushkunligi yollanma askarlarning tarqalishida ham ko'rindi. Chunki, yer mulkidan ajrab, qarzgа botib, kambag'allashib qolgan fuqaro qurol-yarog' olishga mablag'i yo'q edi. Endi u begonalar manfaati uchun jang qilishni xohlamas edi.

Yunon polislarning tushkunligi quldorlik tizimining inqirozi emas edi, chunki qulchilik yanada rivojlandi.

Mil. avv. IV asrda polislar tizimida turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi.

Biror bir polis qandaydir mustahkam birlashuvni tashkil qilish va unga rahbarlik qilish qobiliyatiga ega emas edi. Yunon polislari endilikda iqtisodiy-siyosiy jihatdan to'liq inqirozga yuz tutgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Afina quldorlik demokratiyasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat edi?

2. Nima uchun aristokratlar sinfi Afina demokratiyasini qo'llab - quvvatlagan?

3. Nima uchun Yunonistondagi urush "Peloponnes urushi" deb nom oldi?

4. "Peloponnes urushi" da Alkiviadning roli qanday bo'ldi?

Glossariy

Areopag - Afinaning oliy sud va hokimiyat organi.

Agora - Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq majlislari bo'ladigan maydon.

Varvar – dastlab: yunon tilida so‘zlashmaydigan har qanday chet ellik kishi; keyinchalik bu so‘z madaniylashmagan odamlarga nisbatan ishlatiladigan bo‘ldi.

Goplit – og‘ir qurollangan yunon askarlari.

Demagog – balandparvoz so‘zlar, va‘dalar bilangina cheklanadigan siyosiy arbob.

Ostrakizm – qadimgi Gretsiyada sodiq bo‘lmagan fuqarolarni quvg‘in qilish.

Demokratiya – yunoncha «xalq hokimiyati», har bir fuqaro o‘z mamlakatini boshqarish masalasi bo‘yicha o‘z fikrini bayon etadigan, shuningdek, davlat boshqaruvida ishtirok etadigan ijtimoiy tuzum

Mavzu: Aleksandr Makedonskiy imperiyasi va Ellinizmni Sharqqa yoyilishi. Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari

Reja:

1. Filipp II va Makedoniyaning yuksalishi.
2. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi.
3. Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari.

Filipp II va Makedoniyaning yuksalishi. Qadimgi yunonlar tarixining o‘ziga xos jihatlaridan biri hududda uzoq vaqt davomida o‘z mustaqilliklarini saqlab kelgan yunon polislarining mavjud bo‘lganligidir. Ularning kichik hajmi va beqarorligi antik davrda ham hayratlanarli bo‘lishiga qaramasdan forslar hujumidan omon qolganlar. Mil. avv. IV asrda xorijliklar bosqini xavfi ajablanarli holat emas edi, lekin bu xavf-xatar qudratli Fors imperiyasidan emas, balki o‘sha vaqtgacha unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan Makedon yoki Makedoniya nomlari bilan tanilgan podsholik tomonidan edi.

Makedoniyaning muvaffaqiyatlariga Afinadagi siyosiy bo‘linishlar va iqtisodiy bosim hamda yunon polislarining parokandalikka uchrashi sabab bo‘lgan edi. Bularning barchasi mil. avv. 359 yilda Makedoniya shohi bo‘lgan noyob harbiy va diplomatik mahoratga ega Filipp II uchun imkoniyat yaratdi.

Filipp II mil. avv. 382 -yilda tug‘ilgan, otasi Aminta III va uning Illiriyalik xotini Evridikaning farzandi bo‘lgan. Plutarxning yozishicha Evridika bolalarini tarbiyalash uchun o‘qishni o‘rgangan,

lekin Filippning o'qishi akasi Aleksandr II mag'lubiyati natijasida mil. avv. 369-367- yillarda Fivaga garov sifatida asirlikka jo'natish bahonasida to'xtab qoladi. Uning garov sifatida ushlab turilishi unchalik katta yo'qotish bo'lmadi. Filipp Fivada bo'lganida Lektra ustidan g'alabasi uning zamonaviy yunon siyosati va harbiy taktikasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni o'rganishiga turtki beradi.

Filipp mil. avv. 367 -yilda Makedoniyaga qaytganida mamlakatda hamon tartibsizlik hukm surardi. So'nggi yetti yil mobaynida uchta qirol davlatni boshqargan edi. Siyosiy beqarorlik Filippga kutilmagan imkoniyat hosil qildi va u Predikass o'limidan keyin hokimiyatni egallashga da'vo qila boshladi.

Filipp II mil. avv. 359-yilda Makedoniya podshosi bo'ldi. Filipp II taxtga kelganda, Makedoniya har taraflama og'ir iqtisodiy, siyosiy inqiroz holatida edi.

Filipp II o'zidan oldingi hukmdorlarning siyosiy harakatlaridan voz kechdi. Makedoniyani birlashtirib, davlatni mustahkamladi. Undan oldingi podsholarning markaziy hokimiyatni mustahkamlash borasidagi yagona sistemasini mantiqan tugatgan. Shu tufayli Filipp II Makedoniyani Yunondunyosidagi kuchli davlatlardan birigaa ylantirish orqali Forslar bilan raqobatlasha oladigan davlat maqomiga olib chiqqan. Filipp II birinchi bo'lib Makedoniyaning xo'jalik ishlarini rivojlantirishga bor e'tiborini qaratgan. U iqtisodiy jihatdan tog'li hududlardan yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloq aholisining bir qismini o'sha yerga ko'chirgan. Bu yangi shaharlar (masalan Filipp shahri) strategik jihatdan qulay joyga qurilganligidan tashqari iqtisodiy-harbiy tomondan hammarkaz bo'lgan. Filipp II bor e'tiborini konlarni topishga va u yerdan temir ishlab chiqarib, harbiy jihatdan armiyasini kuchaytirishga jalb etadi. Filipp II Pangeya konlarini bosib olib, u yerdagi ishlab chiqarishni kuchaytirish orqali, yiliga 1000 talant oltin foyda ko'rgan. Bu unga o'zining oltin tangalarini ko'plab ishlab chiqarish imkonini bergan. Oltin va kumush tangalardan iborat katta zahiraga ega bo'lishi Makedoniyaga Egey dengizi, Qoradengiz qirg'oqlari va Sharqiy O'rtayer dengizi hududlarida savdo aloqalarini olib borish imkonini berdi. Ulkan flot qurilishi bilan dengizda u katta o'ljalarga ega bo'ldi. Filipp II bir necha yil Yunonistonda (Fivada) yashagani bois, yunon harbiy qismlari kamchiliklarini yaxshi bilar edi. Filipp II ning islohotlaridan biri yunon harbiylarining kuchli taraflarini o'z armiyasiga joriy qilganida edi. Asosiy harbiy tuzilishga kiritilgan

o'zgarishlardan biri sifatida og'ir qurollangan piyoda qismlarni joriy qiladi. Agar yunon qo'mondonlari o'zining harbiy qatorlarini bitta qismga birlashtirgan bo'lsa, Filipp II buni aksini qilgan va jangda ushbu harbiy taktika ustunlikni ta'minlagan. Bunday taktika va tuzilishi unga jangda muvaffaqiyatlar garovi bo'lgan.

Filipp II davlat boshqaruvida ham katta islohotlarni amalga oshirdi. Birinchi bo'lib mustaqil knyazliklarni yo'q qildi. U aristokratlarni to'plab davlat xizmatiga oldi. Filipp II mamlakatdagi yoshlardan shaxsiy gvardiya tuzib, podsho xos soqchilarini tayyorlagan va o'ziga sodiqlik ruhida tarbiyalagan. Filipp II o'z oldiga davlatni markazlashtirish maqsadini qo'yadi. Boshqaruvining birinchi besh yilligida bir qancha islohotlarni bajarishga harakat qiladi.

Jumladan, o'zining shimoliy chegaralarini illeriyalik va frakiyaliklar hujumlaridan himoyalash va o'z ta'sir kuchini Xalkidika yarimoroliga yoyish edi. U frakiyalik bilan illeriyaliklarga qarshi kurashish uchun ittifoq tuzdi. Chunki, ular mamlakat shimoli-sharqini talon-taroj qilayotgan edi. Keyinchalik u Malos qabilasi oqsoqolining qiziga uylanib ular bilan ittifoq tuzadi. Illeriyaliklar yengiladi va tinchlik so'rashadi. Filipp II Olimp shaharlari bilan kurashish uchun Afinaga yon berishga majbur bo'ladi. Ayniqsa, Filipp Anfiopol shahri bilan strategik aloqani yo'lga qo'yadi. Bu shaharga o'z vaqtida Afma da'vogar edi, biroz vaqt o'tib bu safar Olimp bilan ittifoq tuzib shu shaharni egallaydi. Mil. avv. IV asrning 50-yillari o'rtasida Filipp Iisharqqa qarab yura boshlaydi va Frakiyaning Egey dengizi qirg'oqlarigacha yetib boradi va Filipp shahriga asos soladi. Makedoniyani Xalkidika yarimoroliga harbiy yurishlari Frakiya qirollarini birlashishga majbur etdi va Olimp hamda Afma boshchiligida Xalkidika ittifoqi tashkil etiladi. Lekin Afma ittifoqchilariga o'z qo'shini bilan unchalik ko'p yordam berolmaydi va makedoniyaliklar tomonidan mag'lub etiladi.

Filipp II o'zining shimoliy chegaralari va Xalkidikadagi siyosiy maqomini mustahkamlab olgandan so'ng, o'rta yunon siyosatiga ta'sir ko'rsata boshladi. Yunon shaharlarini ichki ishlariga aralashishi oqibatida yunon-shahar davlatlarining Vatan urushi (mil. avv. 355-346-yy) boshlanadi. Harbiy Yurishlar natijasida Apollon ibodatxonasiga tegishli bir qancha hududlarni egallab oladi. Apollon Xudosiga o'z muhabbatini ko'rsatish uchun Filipp 3000 ta fakidiyalik

asirlarni dengizga cho'ktirib yubordi. Fessaliya ham Filipp II ning qudratini tan olishga majbur bo'ladi.

Filipp II ning Yunonistonda mavqeyini ortib borishi, doimiy ichki ishlarga aralashuvi Afinani ehtiyot bo'lishga undaydi. Makedoniya armiyasini o'rta Yunonistonga kirib borishini to'xtatish uchun Fermopil yo'lini egallab oladi va Filippni Fessaliyaga kirib borishini to'sib qo'yadi. Makedoniyaliklarni O'rta Yunonistonga yurishi omadsiz tugagandan so'ng ular yana janubiy Frakiya hududlarini bosib olishni boshlaydi. Kuchli tayyorgarlikdan keyin Xalkidika ittifoqi markazi bo'lgan Olimp shahriga hujum qiladi. Afinaliklar Olimpga yordam berish uchun unga 17 triera 300 otliq va 400 goplit jo'natadi. Lekin Filipp yordam kelgunga qadar shahar taqdirini hal qiladi.

Yunonlarning eng katta shaharlaridan biri bo'lgan Olimp vayron qilinadi va aholisi shaharni tark etadi (mil. avv. 348-y.). Xalkidika ittifoqi tarqatib yuboriladi.

Filipp II yana Vatan urushiga aralashishni boshlaydi. Afina esa Xalkidika va janubiy Frakiyadagi yo'qotishlardan keyin bu tarafdagi o'z hududlarini saqlab qolish maqsadida Filipp II bilan sulh tuzadi. (Bu sulh mil. avv. 346-yilda Filokrad sulhi nomi bilan tarixga kirgan). Filipp II Afina bilan urushni to'xtatgandan keyin markaziy Yunoniston ishlariga aralasha boshladi. U Fivani taklifini qabul qilib o'zining armiyasini Fakidiya hududlariga olib kiradi. Filipp II o'zining bor e'tiborini Fakidiya va Fermopil yaqinidagi muhim strategik punktlarini nazorat qilishga qaratadi. Mil. avv. 346-yil qariyb o'n yil davom etgan Vatan urushi nihoyasiga yetadi. Bu urush bir tarafdin yunon polislarining kuchsizlanishiga olib kelgan bo'lsa, Makedoniya davlatining siyosiy hokimiyatini yanada kuchaytirdi.

Korinf Kongressi. Mil. avv. 337-yil Filipp II tashabbusi bilan Korinfda umumyunon kongressi chaqirildi. Bu yo'l kongressda Yunonistondagi Makedoniya gegemonligini huquqiy jihatdan mustahkamlash va yunonlarni Makedon podshosi qo'li ostida birlashtirish edi. Kongressda yunon xalqlarining Ellin ittifoqi tuzildi, Filipp II esa gegemon sifatida e'lon qilindi. Filipp II harbiy qo'shin oliy bosh qo'mondoni bo'ldi va tashqi siyosat boshqaruvini ham o'z qo'liga oldi. Barcha yunon urushlari to'xtatildi va Yunonistonda umumiy tinchlik o'rnatildi. Bir-birining ichki ishlariga aralashish ta'qiqlandi va siyosiy tuzilishni o'zgartirish man qilindi.

Qaroqchilarga qarshi urush e'lon qilindi. Dengizlarda savdo-sotiq maqsadida suzuvchilarni ozodligi mustahkamlandi. Filipp II mil. avv. 336-yilda Kichik Osiyoga yurish arafasida o'z xizmatkori tomonidan o'ldiriladi. Makedoniyalik podshoning vorisi sifatida uning o'g'li Aleksandr taxtga o'tiradi. Uning ismi bilan yunon tarixida ellinizm yangi davrga o'tadi.

Aleksandr Makedonskiy imperiyasi. Filipp II imperiyani boshqara turib Makedoniyani Dunay daryosidan markaziy Yunonistongacha cho'zilgan hududda yetakchi harbiy mamlakatga aylantirdi. Uning o'limi Osiyoga rejalashtirilgan hujumlar va barcha yutuqlarni xavf ostiga qo'ydi. Aleksandr III miloddan avvalgi 336 yilda otasi o'lgan vaqtda 20 yoshda edi. Bashoratchilar keyinroq uning hukmronligi haqida aytgan edilar. Garchi Filippni bir nechta xotinlaridan merosxo'rlari bo'lsa ham, Aleksandrga Filippning butun hokimiyati merosxo'ri sifatida qaraganlar va uning kelajagi uchun qattiq qayg'urganlar. Aristotel bilan birga bir nechta yunon ustozlari yunon adabiyoti va madaniyatidan ta'lim bergan. Aleksandr ulardan bir umrlik Gomerga muhabbatni va afsonaviy ajdodlari Axill va Geraklning qahramonliklariga tenglashish yoki o'tib ketish maqsadini oldi.

Aleksandrda, shuningdek, Filipp yo'q paytida davlatni boshqarish bo'yicha amaliy tajriba bor edi va Frakiya qo'zg'olonini bostirgan edi. U hattoki miloddan avvalgi 338 yildagi Xeroneya jangida otliq qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan edi. Shunday bo'lsa-da uning davomchiligini hem kim kafolatlamagan edi. Filippning eng keksa qo'mondoni Antikeyter Aleksandrni xavf-xatarlardan qutqarib hukmronlik ramzi bo'lgan Egey dengizidagi makedon qo'shinlarini unga taqdim qildi.

Aleksandrning shaxsiy mavqeyi imperiyaning dastlabki inqirozli yilida unchalik mustahkam emas edi. Bunga Filippning ba'zi amaldorlari Yunonistonni qo'ldan berish xavfi tufayli Makedoniyaning shimoliy o'lkalarini mustaqil qilishga bo'lgan harakatlari sabab bo'ldi.

Yunoniston Aleksandrning e'tiborini tortdi. Filippning dafn marosimi tugashi bilanoq, Aleksandr Filippning o'chini olish uchun o'zini mustaqil deb e'lon qilgan Yunonistonning asosiy polislari Afina va Fivaga yurish qilishga qaror qildi. Aleksandr Makedoniyaning Fessaliya va Korinf Ligalaridagi gegemonligini tasdiqladi.

Yunonistondan qaytgan Aleksandr mil. avv. 335-yil bahorida Filipp o'limidan keyin Makedoniya asoratidan qulutishga harakat qilgan Tirakiya va Illiriya qarshi yurish qildi.

Aleksandr harbiy harakatlarni Danube daryosining shimoligacha uzaytirdi. Filipp II ning mil. avv. 339-yil Skutiya'dagi g'alabasidan keyin kamsitilgan Triballi Aleksandr dan xotinlari va bolalari bilan yashayotgan orolga omonlik so'raydi. Qolgan Tirakiya qabilalari Geta va Danube orasida qolishga majbur bo'lishdi.

Kichik Osiyoning istilo etilishi. Makedoniya mustahkamlangach, Aleksandr mil. avv. 334-yilning bahorida Osiyoga yurish boshladi. Uning armiyasi to'liq 37.000 kishi edi, bundan Makedoniya falanga piyodalari 12.000 nafar, qo'shimcha 3.000 kishilik «qirol gvardiyasi» va 1800 kishilik otliq askarlar edi. Bundan tashqari, Illiriya va Tihrasaning 9.000 ga yaqin yunon piyoda va otliq askarlari ham mavjud edi. Qo'shinlarning transport vositasi bo'lib 200 ta yunon kemalari xizmat qiladi.

Aleksandrning Osiyodagi dastlabki harakatlari xuddi teatr sahnasidagiday bo'ldi. U Osiyo tuprog'iga qadam qo'yan ilk Makedoniya podshosi bo'ldi. Keyinchalik Aleksandr Troya shahriga bordi, afsonaviy Troya shohi Triamdan Afinani bosib olgani uchun kechirim so'radi va ajdodi Axillesga xurmat ko'rsatdi.

Granik jangi (mil. avv. 334-yil). Forslar Aleksandrni dastlab hozirgi Turkiya hududida kutib olishdi. Ilk to'qnashuv Granik daryosi, hozirgi Ko'chabosh bo'yida, Anatoliyaning shimoli-g'arbida bo'ldi. Bu davrda forslar tomonida yunon yollanma askarlari ham bo'lgan. Jangda Aleksandr Troyadan Afinaga keltirilgan zirhda tushdi. "Axilles zirhi" deb nom olgan bu zirh forslarni sarosimaga soldi. Jangda Aleksandr yaralanib, uning hayotini hamshirasining akasi Klit qutqarib qoldi. Jangda Aleksandr 2. 000 nafar vatan xoinini qatl ettirdi, tirik qolganlarini Makedoniyagacha bo'yinlarida zanjir bilan olib bordi.

Aleksandr askarlari Anatoliyaning janubi bo'ylab g'arbgacha harakat qila boshladi va fors satrapliklari Lidiya, Kariya Lusiani egalladi. Mil. avv. 333-yil bahorigacha Aleksandr hozirgi Anatoliya markazi Anqara, o'sha paytdagi Frigiya poytaxti Gordiumga yetib bordi.

Kichik Osiyodagi mag'lubiyatlardan keyin Doro III qo'shinga iste'dodli sarkarda Memnonni qo'mondon qilib tayinlaydi. Memnon Milet shahrini mustahkam qilishga harakat qiladi, lekin tasodifiy

halokat tufayli vafot etadi. Aleksandr ixtiyorida otliq va piyoda qo'shinlardan tashqari, harbiy flot ham bo'lganligi va qamal dengizdan ham amalga oshirilganligi hisobiga Milet shahri egallandi. Endi Aleksandr Kichik Osiyoning ichiga qarab – Kappadokiyaga qarab harakat boshladi. Bu yerlarda yashovchi mahalliy qabila va elatlar Eron hokimiyati ostida bo'lsalar ham, mustaqillikka intilar va Eron zulmidan aziyat chekar edilar. Shu tufayli ular Aleksandr va Makedoniya armiyasini xursandchilik bilan kutib oldilar.

Iss jangi (mil. avv. 333-yil). Kichik Osiyo yarimorolida, O'rtayer dengizi shimoli-sharqiy qirg'og'idagi Iss shahri yaqinida Fors podshosi Doro III va Makedoniya podshosi Aleksandr o'rtasida dastlabki yirik jang bo'lib o'tdi. Doro III taktikasiga ko'ra, podsho otryadi va eng yaxshi harbiy tuzilmalar qo'shin markazida joylashgan edi. Eron armiyasida chap qanot ham kuchli bo'lgan. Jang davomida forslar Filippning yaqin do'sti Parmenion boshchilik qilayotgan Makedoniya armiyasining o'ng qanotini qisib qo'ydilar. Natijada, Aleksandr yordamga yetib keldi va forslarning rejasini barbod qildi.

Aleksandr fors qo'shinlari markaziga nisbatan kuchli bo'lgan otliq qo'shinlarini yuboradi. Jang maydoni noqulay bo'lganligi sababli forslar butun boshli qo'shinni ishga sola olmaydilar. Jang og'ir bo'ldi va yakunda Eron qo'shini tor-mor keltirildi. Aleksandr shohning barcha aravalarini egalladi, ularning orasida Doro III ning oilasi ham bor edi.

Iss jangidan keyin forslar qarshiligini yetarli miqdorda yenggan Aleksandr Suriya va Finikiya tomon yo'l oldi. Lekin, bu hududda Tir shahrigina ma'lum vaqt qarshilikni ko'rsatdi. Qattiq qamal bo'lganiga qaramasdan Aleksandr Tir shahrini egalladi va shaharni vayron etdi, 30.000 ga yaqin shahar aholisi qul qilib sotib yuborildi.

Aleksandr Makedonskiy Misrda. Aleksandr yurishni Finikiyadan janubga qarab davom ettiradi. mil. avv. 332-yilda Aleksandr Misrga yurish qildi. Misrliklar Makedon qo'shinlarini xursandchilik bilan kutib oldilar. Misrdagi Eron satrapi Aleksandrga qarshilik ko'rsatish o'rniga unga xayrixohlik bildirdi va kohinlar bilan birga Aleksandrni kutib olgani chiqdi. Misrliklar Eron asoratidan qutulganlariga xursand edilar. Ularning xursand bo'lishiga yana bir sabab Aleksandrning Misr xudolariga qurbonlik qilish haqida buyruq berganligi va Misr kohinlaridan bu diniy rusum qanday bajarilishi haqida so'raganligi bo'ldi. Nafaqat oddiy Misrahli, balki, zodagonlar va kohinlar ham

yosh Aleksandrning Misr dini va urf-odatlariga muhabbatini ko'rib xursand bo'lganlar. Kohinlar Aleksandrni fir'avn deb e'lon qildilar va o'z-o'zidan Aleksandr quyosh xudosi Amon-Raning o'g'liga aylandi. Mil. avv. 332-yilda Aleksandr Nil daryosi quyilish joyidagi deltada Aleksandriya shahrini qurdirdi. Bu shahar keyinchalik shakllangan ellinistik dunyoning eng ravnaq topgan shahriga aylandi.

Aleksandriyadan Persepolisgacha: Osiyoning shohi (mil. avv. 331-330 yy). Aleksandriyada qisqa vaqt to'xtagan Aleksandr Mismni tark etdi va Doro III bilan qat'iy yuzlashishga yo'l izladi. Doro III unga jang oldidan o'zining to'ng'ich qiziga uylanishni va Frot daryosidan g'arbdagi barcha yerlarni olishi va oilasining barcha a'zolarini katta pul evaziga qutqarib qolishni taklif qildi.

Parmenion Aleksandrga Doro III ning taklifini qabul qilish kerakligini aytdi. Biroq, Aleksandr unga rad javobini berdi va "Men Parmenion bo'lganimda rozi bo'lardim, lekin unday emas" deb javob berdi. Aleksandrdan rad javobini olgan Doro III shoshma-shosharlik bilan makedoniyaliklarga qarshi qo'shin to'pladi. Ikki o'rtadagi hal qiluvchi jang mil. avv. 331-yil 1-oktyabr kuni shimoli-sharqiy Iroqdagi Gavgamel qishlog'ida bo'ldi. Doro III boshliq forslarning mag'lub bo'lishi tufayli bu jang yunon tarixidagi eng yaxshi ta'riflangan jang bo'ldi.

Gavgamel jangi (mil. avv. 331-yil). Iss jangida mag'lub bo'lganidan keyingi yillar davomida Doro III armiyasiga askarlarni ehtiyotkorlik bilan tanladi. Yangi armiyaning otliq qo'shini ayniqsa kuchli edi. Lekin, piyoda askarlarning oldingi qatori kuchsiz edi. Doro III Gavgamel jangida qo'llagan rejasi bo'yicha otliq qo'shinlar Aleksandr qo'shinlarini o'rab olishga umidqildi. Doroning ehtiyotkorlik bilan qilgan tadbirlariga qaramasdan Gavgamel jangi natijasi ham Issga o'xshash bo'ldi. Jangda Aleksandr otliq qo'shini Fors armiyasining markaziga hujum qildi. Doro III jang maydonini tark etdi va Eronning sharqi tomon qochadi. Aleksandr Doro III ni asirga ololmagan bo'lsa-da, Fors imperiyasining markazini egalladi. Doro III ning omon qolgan askarlari Aleksandrni Osiyoning shohi deb olqishlashdi. Aleksandr Bobil, Suza va Persepolni egalladi. Bular Aleksandr uchun berilgan uch ulkan in'om bo'ldi. Aleksandr Bobilga mil. avv. 331-yil oktabr oyi o'rtalarida tantana bilan kirib keldi. Misrdagidek, Aleksandr ruhoniylarni tinchlantirish yo'lini qidirdi, Bobilning bosh xudosi Marduqqa qurbonlik qilishni taklif qildi va

forsliklar deyarli bir asr oldin qo'zg'olonchilarni jazolash uchun buzgan ibodatxonasini qaytadan qurish to'g'risida buyruq berdi. Aleksandr taslim bo'lgan va uning tomoniga o'tgan Suza va Bobil satraplarini mukofotlaydi. Lekin, Persepol shahri va aholisining ahvoli boshqacha bo'ldi.

Persepolning vayron etilishi. Persepol Fors imperiyasining markazi bo'lib, forslarning ommaviy tadbirlari va yangi yil bayramlari, shuningdek, soliq topshirishga oid diniy marosimlari ham shu yerda o'tkazilgan. Bu yerda Doro I hukmronligi davrida yunon elchilari kamsitilgan edi. Persepol yunonlarga va boshqa xalqlarga forslar hukmronligini ko'rsatishi kerak edi, shuningdek, boshqa insonlarga bu qo'rquvni tarqatishi kerak bo'lgan. Aleksandr bu ishlarni mil. avv. V asrda yunon-fors urushlarida vayron etilgan shaharlar uchun o'ch olish maqsadida tanladi. Mil. avv. 330-yil aprelida Persepolni tark etishdan oldin makedoniyaliklar shahardagi saroylarga o't qo'ydilar.

Harbiy bo'lmagan ko'pchilik aholi xususan, ayollar, bolalar va barcha xohlovchilar armiyaga qo'shilishdi. Aytishlaricha, shirakayf ahvolda bo'lgan afinalik Tais Aleksandrga mil. avv. 480-yil forslar tomonidan vayron etilgan Afma uchun qasos olish maqsadida Persepolni yondirishni taklif qildi, Persepolni yondirishga askarlarni ruhlantirdi, lekin Aleksandr shaharni butunlay zabt etish va vayron qilishga qaror qildi. Taslim bo'lganiga qaramasdan, Persepolning taqdiri Fiva va Tirga o'xshash bo'ldi. XX asrda amerikalik arxeologlar Persepolni qazib topishdi. Qazishmalar shuningdek, bu yerdagi saroylar xazinalarga boy bo'lgani, ular Fors imperiyasi hukmronligi davrida ikki asr davomida to'plangani va haqiqatan yong'in natijasida vayron bo'lganini ko'rsatdi. Persepolning yondirilishi bilan Aleksandr yunon yurishlarining oxiri g'alaba bilan tugaganiga ishoraberdi.

Hindistonga uzoq yo'l: Aleksandr O'rta Osiyoda. Aleksandr Persepolning yonishini kuzatar ekan, oldinda uni to'rt yillik mashaqqatli yurishlar kutayotganini bilmagan edi. Birinchidan, uning omadli taqdiri chegarasi davom etayotgandek tuyulardi. Doro III Midiyadan sharqqa tomon qochdi. Aleksandr Ekbatanni va Doro III ning xazinalarini to'laligicha egalladi. Fors va Midiya xavfsiz bo'lgach, Aleksandr Doro III ning yunon askarlarini ozod qildi. Bularning barchasi Doro III ni asirga olish va Ahmoniylar sulolasini tugatish uchun qaratilgan edi.

Doroning o'limi (mil. avv. 330-yil). Aleksandr Doro III Baqtriya, hozirgi Afg'onistonga, yetib olmasidan avval xalaqit qilishga umid qildi va uni ta'qib etishni davom ettirdi. Biroq, sharqiy satrapliklardagi siyosiy to'da boshlig'I Baqtriya satrapi Bess tomonidan mil. avv. 330-yilda Doro III o'ldirildi. Afsuski, Bess Baqtriya qochdi va u yerda Artakserks IV nomi bilan Fors taxtiga o'tirdi.

Doroning o'limidan Aleksandr Makedoniya va Eronni birlashtirish uchun o'ziga xos belgi sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Doroning jasadi Eronga qaytarildi va udumga ko'ra shohona e'tibor bilan yondirildi. Shundan keyin, "Aleksandr Doroning qasdini oldi", degan mish-mish tarqaldi.

Aleksandrning strategiyasi aqlli va foydali edi. Chunki, omon qolgan Ahmoniyar oilasi vakillari va Fors zodagonlari Aleksandr Makedonskiyga qo'shildi. Unga qarshi bo'lib qolgan Bess kuch-quvvatdan siqib qo'yildi. Qarshilik natijasida Aleksandr Iroq sharqigacha siljidi. Oxiri, mil. avv. 329-yil bahorida, Bessning do'stlari uning tirik qolishidan xavfsirab, uni Aleksandr dan kechirim so'rashga majbur qilishdi. Ahmoniyar davomchilarining bu harakatlari tufayli Aleksandr Makedonskiy Bessni sudga keltirdi va qatl hukmini ijro etdi.

Baqtriya va So'g'diyona uchun kurash (mil. avv. 330-327-yy). So'g'diyona va Baqtriya chegaralari bo'ylab makedonlarga qarshi ozodlik kurashi boshlandi. Qo'zg'olon uch yil davom etdi. Qo'zg'olon tugaguncha, ya'ni mil. avv. 327-yilgacha Aleksandr Makedonskiy harbiy mag'lubiyatlardan aziyat chekdi va hududni nazorat qilish bo'yicha qiyinchiliklarga uchradi. Hukmdor Eron satraplari o'rniga yunon va makedon rasmiylarini qo'ydi. U shuningdek, armiyada bo'shab qolgan o'rinlarni to'ldirish uchun So'g'diyona va Baqtriya yoshlarini tanladi.

Yunon va makedoniyaliklardan iborat bo'lgan armiya uzoq vaqt uydan olisda bo'lishdan charchagan edi. Aleksandr Makedonskiy qo'shinlarga ortga qaytish muddatini Doroning o'limi deb aytgan edi. Lekin, Baqtriya va So'g'diyona bosib olingani bilan ham ortga qaytish haqida buyruq berilmadi. Ko'pchilik makedoniyaliklar podshoni tashlab ketib, Eron hududida Makedoniya qirolligi nusxasidagi qirollik tuzish niyatida edilar. Norozilikning eng yuqori cho'qqisi mil.

avv. 327-yil bahorida Aleksandr Makedonskiyning obro'li Sug'd zodagonining qizi Roksanaga uylanishi bo'ldi.

Nikohdan albatta siyosiy manfaat ko'zlangan edi. Endi Baqtriya va So'g'diyona qabila yo'lboshchilari unga ittifoqchi edilar. Aleksandr Makedonskiy bu keng hududni ular orqali boshqarmoqchi edi.

Aleksandr Makedonskiyning muvaffaqiyatsiz qarorlaridan biri bu diniy sohaga oid edi. Aleksandrning xudo Amonning o'g'li deb e'lon qilishi ham qo'shin orasida ma'lum noroziliklarni keltirib chiqargandi. Bu haqidagi qarashlarni Arrian va Plutarx asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Muammoning dastlabki belgisi mil. avv. 330-yil oxirida otliq qo'shinlar sarkardasi, Parmenionning o'g'li Filotas bilan sodir bo'ldi. U podshoga qaratilgan fitnada aybdor sifatida qatl etildi. Shuningdek, ushbu fitnaga aloqador deb topilgan Antipatarning o'g'li Aleksandr Linkestis ham o'ldirildi.

Eng dahshatli fojia mil. avv. 328-yil kuzida ro'y berdi. Klit Qora Aleksandrning hayotini Granik jangida asrab qolgan edi. Keyinchalik, Klit hukmdorning forslarni qo'llab-quvvatlash siyosatiga qarshi chiqdi. Aleksandr Makedonskiyning tarixchisi Kallistenisning ma'lumotlariga ko'ra, u qo'lga olindi va o'ldirildi.

Mil. avv. 327-yil yozigacha So'g'diyona va Baqtriya mustahkamlandi. Bu Aleksandr Makedonskiyga holdan toygan va ma'lum miqdorda zerikkan armiyani qaytadan to'ldirish va shakllantirishga imkon yaratdi.

Aleksandrning atrofida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Perdika, Krater, Lusimax va Ptolomeylar Makedoniyaning "eski qo'shin"iga aylandi. Ular Aleksandr o'limidan keyin bo'lgan siyosiy o'zgarishlarda muhim rol o'ynadi.

Hindiston va orzuning oxiri. Aleksandr Makedonskiy mil. avv. 327-yil Hindistonga yetib kelganida, noma'lum dunyoning oxiriga yetib keldim deb ishongan edi. Yunonlar va forslar hozirgi Pokiston hududidagi Hind daryosini yerning oxiri deb ishonishgan. Aristotel Hindistondan chetda bor-yo'g'i buyuk cho'l va okean bor deb aytgan. Doroi davrida forslar Hindistonni Fors imperiyasi tarkibiga qo'shib olganlariga qaramasdan ular yunonlar borgan hududlarga yetib bormagan edilar. Aleksandr Makedonskiy Dionis va Gerakl, afsonaviy Ossuriya qirolichasi Semiramida bora olmagan afsonaviy hududlar,

daraxt yaproqlaridan kiyim kiyadigan odamxo'r va vahshiy odamlar va hayvonlar yashaydigan, chumolilar oltin qazib oladigan yerlarga yetdim, deb hisoblagan.

Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari dastlab Hind vodiysidagi Panjobga kiradi. U tarqoq holda bo'lgan hind knyazlaridan ma'lum qismini o'z tomoniga og'dirdi. Panjob o'lkasida Aleksandr Makedonskiyga taniqli hind sarkardasi Por qarshilik ko'rsatdi. Gidasp jangida makedon va hind qo'shinlari to'qnash keldilar. Hind armiyasining asosiy yutug'i jangovar fillarning mavjud bo'lganligi edi. Makedonlarning kuchli otliq qo'shinlaridagi otlar fillardan qo'rqar edi. Biroq, Aleksandr Makedonskiy buyrug' bilan askarlar fillarning orqa tarafidan borib, ularning maxsus oyoq tomirlarini kesib tashlash orqali fillarni zararsizlantirishdi. Shiddatli jang natijasiga ko'ra, makedonlar g'alaba qozonishdi.

Aleksandr Makedonskiy ulkan imperiya tarkibiga kirgan Hindiston hududini bevosita Makedoniyadan turib boshqarish mumkin emasligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham u Hind vodiysidagi yerlarni boshqarishni mahalliy hukmdorlar ixtiyorida qoldirdi. Natijada, bevosita ulkan hudud Makedoniyaning vassaliga aylandi. Aleksandr Makedonskiy Gang daryosi vodiysigacha borish niyatida edi, lekin bu davrda mamlakatda boshlangan kuchli yog'ingarchilik oqibatida qo'shin orasida bezgak va boshqa kasalliklar tarqala boshladi. Natijada, qo'shin podsho bilan Gang vodiysiga borishdan bosh tortdi.

Aleksandr Makedonskiyortigaqaytishgaqarorqilar ekan, yangi hududlar orqali qaytishga qaror qildi. Uning buyrug'iga ko'ra, harbiy kemalar qurildi va qo'shin Hind daryosi orqali Hind okeanigacha suzib boradi. Shundan keyin qo'shin ikki qismga bo'linadi. Quruqlikdagi qo'shinga shaxsan Aleksandr Makedonskiy boshchilik qiladi va Gedroziya cho'li orqali ortga qaytadi. Ikkinchi qismi Aleksandrning yordamchisi Nearx boshchiligida kemalarda Hind okeani orqali Fors ko'rfazidano'tib, Frot orqali Bobilga chiqishi lozim edi. Aleksandr Makedonskiy ulkan imperiya poytaxti etib aynan Bobil shahrini tanladi.

Gedroziya cho'li orqali orqaga qaytar ekan, qo'shin juda ham mashaqqatli sinovlarni boshdan kechirdi. Cho'ldagi suvsizlikdan qutulish uchun quduqlar qazildi, lekin suvsizlik o'z kuchini ko'rsatdi. Natijada qo'shinning uchdan bir qismi qirilib ketdi. Og'ir

qiyinchiliklarga qaramay armiyaning ikki qismi ham Bobilga yetib keldi.

Mil. avv. 323-yil bahorida Bobil shahrida Aleksandr Makedonskiy o'zi bosib olgan davlatlardan kelgan delegatsiyalarni qabul qildi. Jumladan, yunonlarning ham maxsus delegatsiyalari kelgan edi. Aleksandr marosim davomida kelgusi rejasi Arabistonni bosib olish kerakligini aytdi.

Lekin, hech qancha vaqt o'tmay mash'um voqea sodir bo'ldi. mil. avv. 323-yil 29-may kuni bo'lgan bazmda Aleksandr Makedonskiy o'z askarlari tomonidan zaharlandi. Ikki haftalik og'ir betoblikdan so'ng, mil. avv. 323-yil 10-iyun kuni Aleksandr vafot etdi. Bobilda vafot etgan paytida, Aleksandr Makedonskiy hali o'ttiz uch yoshga ham to'lmagan edi.

Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari. Makedoniya, Yunoniston, O'rtayer dengizining sharqiy sohillari, G'arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandri stilosidan mil. avv. 30-yilda Misr Rim qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgan paytgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ellinizm atamasi ilk bor nemis olimi I. G. Droyzenning 1836-1843-yillarda chop etilgan 2 jildlik "Ellinizm tarixi" asarida qo'llanilgan. Unda Yunon madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uyg'unlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan. Ellinizm davri sharqiy mamlakatlar uchun taraqqiyotning yangi bosqichi bo'ldi. Yunon-makedonlar sharqqa ishlab chiqarish malakalarini, o'z davlat va huquq me'yorlarini, urf-odat, din va madaniyatlarini olib keldilar. O'z navbatida, Sharqning qator yutuqlari ham o'zlashtirildi. Yunonlarning qadimiy nomi - "ellinlar" atamasi o'z etnik mazmunini asta-sekin yo'qota borib, makedoniyalik, yunon va mahalliy yuqori tabaqaga mansub kishilarni ifodalaydigan so'zga aylanib qoldi. Bu davrda Aleksandriya, Antioxiya, Salavkiya Pergam kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida yuksaldi. Qizil dengiz hamda Fors qo'ltig'i bo'ylab Hindistonga savdo yo'li ochildi. Misr, Qora dengiz atroflari, Karfagen va Rim bilan savdo aloqasini yo'lga qo'ydi. Pul va savdo munosabatlari rivojlangan o'lkalarda polislar ravnaq topdi. Polislar o'zgardi, ya'ni ular mustaqil respublika bo'lmay, ma'lum siyosiy va iqtisodiy imtiyozlarga ega shahar jamoalariga aylandilar.

Mil. avv. IV asrdan Markaziy Osiyo xalqlari tarixida yangi davr boshlangan. Hindistondan Yevropagacha, Yevropadan Misrgacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan ellinistik davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotida Markaziy Osiyo xalqlari ham ishtirok etadilar. Shu tariqa, ellinizm davri Sharq va yunon xalqlari madaniyati, adabiyotlarining o'zaro boyishi jarayonining oliy cho'qqisi bo'ldi. Ellinizm Aleksandr Makedonskiy bosib olgan yurtlardagi xalqlar hayotining turli sohalari – iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy-madaniy hayotiga katta o'zgarishlarni olib kirib, ellinistik madaniyatning ravnaq topishi va keng tarqalishiga zamin hozirlagan. Osiyo va Yevropaning hamma mintaqalarida ellinizm bir tekisda rivoj topmagan. Ammo ellinistik davlatlar inqirozga uchragandan so'ng bir necha asrlar mobaynida ellin madaniyati an'analar adabiyot va san'atda davom etib kelgan

Ellinizm davrida ilm-fan. Ellin taraqqiyotini asosan ilm-fan sohasida ko'rish mumkin. Avvalo yunonlarning ilk bor sharq madaniyati bilan yaqindan tanishishlari ularning ongini yana ham kengaytirib, fanning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda ijod qilgan olimlar Evklid, *Arximed-matematikani*; *Aristarx*, *Gipparx-astronomiyani*; *Eratosfen-geografiyani* yuksak darajaga ko'tarib, jahon ilmining keyingi taraqqiyotiga yo'l ochdilar. Buni ayniqsa ptolomeylar podsholigida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Aleksandr Makedonskiyga o'xshab, Ptolomey I va uning vorislari yunon olim va faylasuflaridan ruhlanishgan. Olimlar, shoirlar va san'at ahlining ishlari uchun qulay sharoit tug'dirish maqsadida Misrning dastlabki Ptolomey xoqonlari Aleksandriya shahrida hozirgi fanlar akademiyasiga o'xshash muassasa-“muzey”, ya'ni muzalar koshonasini ochadilar. Ular ma'budlarga bag'ishlov joyi hisoblangan. Yunonistonning turli yerlaridan chaqirilgan olimlar muzey darsxonalarida ma'ruzalar o'qiydilar, laboratoriyalarda har xil tajriba ishlarini o'tkazadilar. Muzey qoshida maxsus kutubxona ham bo'lgan. Muzey olimlariga yordam berish maqsadida Ptolomey I yunon tilida yozilgan har bir kitobning nusxasidan tashkil topgan kutubxonaga asos soldi. Kutubxonaning kolleksiyasi 700 ming papirus o'ramlariga yetgan (700 mingta kitob). Ptolomeylarning kutubxonalarga qiziqishi afsonaviy edi. Ptolomey II Bibliyaning yunon tiliga tarjima qilinishiga homiylik qilgan va Ptolomey III esa 3 ta diniy tragediyachilarning asarlarini Afina nusxalarini o'g'irlagan. Hattoki olim va shoir

Kallimachus 120 ta kitobni kutubxona katalogiga kiritgan. Ular yunon adabiyoti tarixi uchun asos bo'ladi. Aleksandriya yozuvchilari yunon madaniyatida juda muhim yangiliklarni qilishgan. Suqrot g'arb adabiyotiga ham dunyoviy ham diniy usulni tanishtirgan.

Aleksandriya juda mashhur shaharlardan biri bo'lib, unda Aleksandrning qabri joylashgan. U ptolomeylar, misrliklar, yunonlar, makedoniyaliklarni o'z ichiga olgan ellinistik dunyoning eng mashhur shahri hisoblanadi. Aleksandriya jo'shqinligining va haqiqiylikining eng yaqqol ramzi bu uning monumenti hisoblangan Faros edi. Ptolomey II tomonidan qurilgan Faros birinchi osmono'par bino bo'lgan. 400 fut balandlikdagi bino Aleksandriya shahriga kelayotgan kemalarni yoritib turadigan mayoq va Zevs haykali tomonidan yuksaltirilgan. Ptolomeylar Aleksandriyani yunon dunyosining markaziga aylantirdilar.

Ellinizm namoyondalari shuningdek adabiyot sohasiga ham katta hissa qo'shdilar. Kalimachus va faylasuflar, masalan, Zenodetus va Aristavchus biz hanuzgacha foydalanadigan shoirlarning ajdodlari va Gomer she'rlarini tayyorlab, yunon adabiyoti va yunon tilining tanqidiy ilmiga asos soldilar. Matematik va geograf Aristofen ilmiy kartografiya prinsiplariga asos solgan va yerning holatini ishlab chiqdi. Taniqli bo'lmagan Ptolomaik esa Sudan va Misr bugungi kungacha hanuz foydalanilayotgan hayvon kuchi yordamida harakatlanadigan suv g'ildiraklarini kashf qilgan. Doktorlar Gerofinlizva Eratistrat anatomiyada asosli kashfiyotlarni amalga oshirib, inson nerv sistemasining funksiyalari, optik va hazm qilish sistemalari ustida ilmiy izlanishlar olib bordilar.

San'at. Mazkur davr san'ati ellinistik davrning yangi va eskiliklari uyg'unligini o'zida aks ettiradi. Klassik san'atkorlar chegaralangan janr va turlarni mukammallashtirilgan. Masalan, ideal hissiz yosh erkak figurasini olaylik. Bunday turdagi figuralar ellinizm qirollarini qahramon sifatida namoyon etadi. Kichik geldan figuralar yasash mil. avv. IV asrdan boshlanganva ellinistik davrda gullab yashnagan. Bunday qolip qilingan figurachalar yunon dunyosi bo'ylab mashhur bo'lgan va unchalik qimmat bo'lmagan.

Ellinistik dln. Yunon dini ellin dunyosida ko'pqirrali o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Misrda masalan, Ptolomeyl Aleksandriyaning yangi homiy xudosi sifatida yangi xudoni yaratishga buyurgan. Yangi xudo Sarapis, Osiris, Zevz, Dionis,

Xadesning umumlashma holatini birlashtirgan Misr xudosi edi. Aleksandreyadan tashqari yunonlar odatiy Misr xudolari, jumladan, Osirisga sig'inishgan. Yunoncha madaniyat ta'sirida Misr xudolari o'zgargan, masalan, Isida (Isis) – Osirisning xotini va Xorusning onasi edi. Uni Afrotida, Demetra, Afinalar bilan o'xshatishgan. U koinot qirolichasi, barcha odamlarga muruvvat qiluvchi, sivilizatsiya asoschisi bo'lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun Aleksandr Makedonskiy o'zining Sharq yurishida Panjob (Hindiston)dan ortga qaytishga majbur bo'ldi?
2. Aleksandr Makedonskiy harbiy islohotining mohiyati nimadan iborat?
3. Ellinizm madaniyatining eng asosiy xususiyatlari nimalarda aks etgan?
4. Ellinizm madaniyati sharq madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

Glossariy

Falanga – makedoncha qo'shinning kombinatsiyalashtirilgan shakli. Filip II ning harbiy islohotiga binoan qo'shin markazida og'ir qurollangan piyoda askarlar otryadi, ularning orqa va yon tomonlarida og'ir va yengil otliqlar oldida yengil qurollangan piyodalar va otliqlar joylashuvi falanga deb ataladi.

Falsafa – Yunoncha “filo” sevish “sofiya” donishmandlik tushunchalarini anglatadi.

Sofist – Dastlab biron-bir kasbning mohir ustasi, ya'ni shoirlar, musiqachilar, qonunshunoslar, donishmandlarga nisbatan ishlatilgan atama. Sofistlarning dastlabki maktablari Sitsiliya shaharlarida yuzaga kelgan. mil. avv. Vasrda Afinada demokratiyaning rivojlanishi hamda Yunonistondagi boshqa polislar bilan har tomonlama aloqalar taraqqiy etishi natijasida sofistlarning ta'siri kuchayadi. Sofistlar ikki guruh bo'lingan: Katta guruh sofistlari; Kichik guruh sofistlari; Katta guruh sofistlariga: Protogor, Gorgiy, Gippiy va Prediklar; Kichik guruh sofistlariga Likkafon va Alkidamantlar kirgan.

Oykumena – yer yuzining odamlar yashaydigan qismi, chegarasi.

QADIMGI RIM

Mavzu: Qadimgi Rim tarixiga kirish

Reja:

1. Italiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari.
2. Aholisi.

Italiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari. Zamonaviy Rim shahri hozirgi kunda Italiya Respublikasining poytaxti, G'arbiy Yevropaning yirik shaharlaridan biridir. Lekin qadimgi davr uchun Rim mil. avv. VI asrda vujudga kelgan madaniylashgan davlat va jamiyatni bildiradigan tarixiy termin hisoblanadi. Dastlab Apennin yarimorolida yuzaga kelgan, keyinchalik butun O'rtayer dengizi havzasini egallagan "Qadimgi Rim" atamasi Rimda sivilizatsiya boshlangan davr bilan bog'liq. Lekin undan oldin esa rimlik yoki italyan bo'lmagan markazlar, ya'ni Sitsiliya va Janubiy Italiya hududlaridagi, etrusk shaharlarida sivilizatsiyalarning vujudga kelishi mil. avv. VIII-VI asrlarga to'g'ri keladi

Apennin yarimoroli o'zining ko'rinishi bilan etikchani eslatadi. Uning geologik davomiyligi Sitsiliya oroli, Italiyadan 3 kilometrlik Messin quruqligidan ajralib chiqish bilan bog'liq. Sitsiliyaning shimolida kichkina Lipar (Eoliya) orolchasi joylashgan. Italiyaning g'arbiy qirg'og'ida Sardiniya va Korsika orollari, qirg'oqqa yaqin joyda Elba va Kapri orollari joylashgan. Uning hamma tarafida Tirren dengizi to'liqlanib, janub tarafdin Ioniya, sharqdan Adriatika dengizi suvlari yuvib turadi. Italiyaning Tirren dengizidan ajralgan va janubiy hududlarida dengizchilik rivoj topgan. Sharqiy qirg'oq liniyasi dengizdan ajralgan bo'lib, bu yerda dengizchilik bilan shug'ullanish noqulaylik tug'diradi. Italiyaning shimolida mustahkam Alp tog'lari qad rostlagan, markazda uncha baland bo'lmagan yosh Apennin tog'i, harakatdagi Vezuviy vulqoni bo'lgan. Italiyaning maydoni va hududlari Yunonistonga o'xshaydi. Farqli tomonlari Etruriya va uning qizil yerlari, Kampaniya va uning bir qismi hisoblangan Latsiyaning vulqonli tuprog'i, Apuliyaning qora yerlaridir. Italiya Yunonistonga qaraganda suv resurslariga boy. Yirik suv tarmoqlaridan biri -Padus bo'lib, o'z suvini Adriatika dengiziga quyib, tarmoqlanadi. Padusning irmoqlari chapdan Titsin, katta va kichik Duriya, o'ng tarafdin

Trebiya va Parmadir. Bu daryolar havzasida juda ko'plab o'tloqlar mavjud. Adriatika o'z suvini Rubikon, Metavr, Aufid daryosiga etkazadi. Tirren dengiziga Arno, Tibr, Liris, Voltorn daryolari o'z suvlarini quyadi. Apennin tog'idagi qorlarning erishi bilan uncha katta bo'lmagan yuqoridagi daryolar toshib, aholiga ko'p talofotlar yetkazgan. Toskaniya va Pompiniyada botqoqlar bo'lib, ulardan o'tish aholi uchun qiyinchilik tug'dirgan.

Italiyada ko'llar ham anchagina. Masalan: Alp tog'lari etagida Verban(Major), Benak(Garda), Etruriyada Trazmimin, Latsiyada Regil, Alban, Samniyada Futsin ko'li mavjud. Miloddan avvalgi I mingyillik o'rtalarigacha Italiyada iqlim salqin va nam bo'lgan, shimoliy hududlarda deyarli hayot bo'lmagan-o'lik hududlar hisoblangan. Italiyaning qolgan hududlari esa subtropik iqlimga ega bo'lib, janubda qor juda kamdan-kam yoqqan. Italiyaning o'simlik dunyosi juda boy bo'lgan. Alpning 1700 metr balandlikdagi qismlarida ninabargli daraxtlar: qarag'ay, archalar, Markaziy Italiyada esa sarv, qayinlar, janubda hamisha ko'm-ko'k tusga ega bo'lgan ulkan daraxtlar bo'lgan. Qadimgi davrda Italiyada nok, olma, uzum yetishtirilgan, janubda esa bodom va anor parvarish qilingan. Dehqonlar bug'doy, arpa, polba va boshqa donli ekinlarni yetishtirishgan. Tomorqa dehqonchiligida esa asosan yuqorida ta'kidlanganidek, dukkakli ekinlar etishtirilgan. O'rmonlarda bo'ri, ayiq, quyonlar, tog'li joylarda ohular yurgan. Manbalarga ko'ra Italiyaning nomi "Vitus" –"buqa", "buqacha" so'zidan olingan, boshqa bir variantga ko'ra Bovian shahrining nomlanishi shu yerdan olingan. Dengizlar ham baliq va mollyuskalarga boy bo'lgan. Tarent ko'rfazida chig'anoqlardan marvaridlar olingan. Foydali qazilmalarning turli xillari bo'lib, temir va mis Ilva oroli va Janubiy Etruriyadan, kumush Bruttiiyadan, oltin Alpdan, qurilish toshlari va marmar Apennindan, Kampaniyadan esa tuz va soz tuproq olingan.

Aholisi. Italiyada aholining joylashuvi paleolit davriga borib taqaladi. Bu haqda toshdan va shoxdan yasalgan mehnat qurollari topilgan janubiy hududlar, Neandertal odam tipidagi suyaklar aniqlangan Latsiya hududlari dalolat beradi. Odamlar bu paytda termachilik va ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanishgan. Italiya va unga yondosh orollardan neolit davri yodgorliklari ham topilgan. Bu paytda odamlar, yarim yerto'la shaklidagi boshpanalar qurishgan. Vaqt o'tgani sari aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana

boshlashgan. Italiyada III mingyillikdan boshlab mis qo'llanila boshlangan va sopol buyumlar ishlab chiqarishgan. Eneolit davriga kelganda esa Bolqon yarimoroli va Ispaniya bilan aloqa boshlangan. Mil. avv. II mingyillikda Italiya aholisi bronzani ishlatishni yaxshi bilishgan. Bronzadan dastlab bezak sifatida foydalanishgan bo'lsa, keyinchalik undan mehnat qurollari ishlab chiqarilgan. Bu paytga kelganda Shimoliy Italiyaning daryo va ko'llari qirg'oqlarida aholi manzilgohlarni o'zlashtirganlar. Bu davrda aholi shug'ullangan mashg'uloti-terramar dehqonchilik yoki aralash dehqonchilik deb ataladi. "Terra"-italyancha "yog'li yer" degan ma'noni bildiradi. Terramar dehqonlar bronza madaniyatiga bog'liq, ketmonlardan foydalanilgan. Yerlariga asosan dukkakli ekinlar va bug'doy ekilgan. Yerlarni shudgor qilishda shoxli hayvonlarning suyaklari va cho'chqalardan foydalanilgan. Terramarlar vafot etgan jamoadoshlarini tuproqni qazib, dafn etishgan. Nekropollar aholi yashash joylarining yaqiniga qo'yilgan. O'rta va Janubiy Italiyada terramar madaniyatiga parallel ravishda boshqa bronza madaniyati faoliyat ko'rsatgan. Apennin yarimoroli aholisi egeyliklar bilan aloqada bo'lgan. Miken madaniyatining ta'siri egeyliklarni qurilish asboblari, sopol buyumlar ishlab chiqarishda, diniy urf-odatlarida kuzatiladi. Mil. avv. II mingyillik oxiri va I mingyillik boshlarida Italiyaga temir davri kirib keladi. XIX asr o'rtalarida Boliniyaning Villanova degan hududida yonib ketgan jasadlar topilgan. Jasadlar bikonik ko'rinishida joylashgan. Dafn jihozlari asosan sopol buyumlardan, bronza va temir buyumlardan iborat bo'lgan. Mazkur tarixiy topilmalar Villan madaniyati nomini olgan. Xuddi shunday ko'rinishdagi madaniyat Janubiy Etruriya, Alban tog'laridan topilgan. Italiyaning shimoli-g'arbiy hududida esa temir davrining boshqa madaniyati-Golaseki, shimoli-sharqiy hududlarda Este madaniyati, Bruttiiyada Torre Gali madaniyatlari mavjud bo'lgan. Bu madaniyatlarining rivoji ham turlicha kechgan. Taraqqiyot jarayonlari dengizbo'yi hududlarida tezroq sodir bo'lgan. Xo'jalik munosabatlarida temir qurollarning qo'llanishi iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga olib keldi. O'z navbatida ishlab chiqarishning o'sishi mahsulot ayriboshlashni yuksaltirdi. Xususan, temir bolta va omochlar tomorqalarda piyoz yetishtirishni ko'paytirishga xizmat qiladi. Etruriya va Umbriya hududlaridan Boltiq qahrabosidan tayyorlangan buyumlar topilgan. Ushbu san'at buyumlarida yunon afsonalarining ta'siri seziladi. Bu

mahsulotlar Italiyaga savdogarlar orqali kirib kelgan. Aholi birlashmalarida shaharlashish jarayonlari kuzatilgan. 30 ta lotin shaharlari ittifoqining bosh shahri-Alba-Long bo'lgan. Shaharlar aholisi tabaqalangan bo'lib, buni dafn jarayonlarida ko'rish mumkin. Bolonya va Bey hududlaridagi ko'milgan jasadlar orasida asir va qullar tasvirlangan buyumlar topilgan.

Etnik xilma-xillik. Apennin yarimorolining qadimgi aholisi ligurlar yoki ligiylar deb atalgan. Hozirgi zamon olimlari ligurlarni neolit davri aholisi deb ataydilar. Ligur tili lingvistlar tomonidan o'rganilib chiqilgach, til Korsika aholisi bilan, Sardiniyadagi sardlar bilan, Sitsiliyadagi sikanlar bilan aloqador desalar, bir guruh olimlar buni hind-yevropa tillar oilasiga taalluqli deb, hisoblaydilar. Temir davriga kelganda ligurlar Italiyaning shimoli-g'arbiy hududlaridagi boshqa qabilalardan ajralib qoladi va o'zlaridagi mavjud primitiv hayot tarzini davom ettirishgan. Mil. avv. II mingyillik boshlarida Italiya aholisining asosiy tarkibi hind-yevropa tilida gapiradigan qabilalardan iborat bo'lgan. Ularning ichida italiklar lotin-sikullik va umbro-oskso-sabellar kabi 2 guruhga bo'lingan. Tub joy aholisi italiklar deb atalsada, ular ham kelgindi xalq hisoblanadi. Ushbu xalqlarni Italiyaga qachon va qaysi yo'l bilan kirib kelgani noma'lum. XIX asrda italiklar Italiyaga shimoldan Alp tog'lari orqali kirib kelganligi to'g'risidagi qarashlar yuzaga keldi. XX asr o'rtalarida esa ularni Apennin yarimoroliga Adriatika dengizidan kirib kelganligi haqidagi xulosaga kelishdi.

Italiklardan tashqari I mingyillik o'rtalarida Italiyada boshqa hind-yevropa qabilalari, pelasglar, illiriyaliklar, yunonlar kabi xalqlar bo'lishgan. Illiriyaliklar, yunonlar, italiklar Kampaniya, Janubiy Italiya va Sharqiy Sitsiliyada koloniyalarga asos solishdi. Mil. avv. I mingyillik o'rtalarida Padan tekisligiga asos solgan kelt yoki galliyaliklar Yuqori Dunaydan Alp orqali kirib kelganlar. Mil. avv. IX asrdan Sardiniyaga finikiyaliklar joylashishadi. VI asrda finikiyaliklar G'arbiy Sitsiliyani zabt etishdi. Puna faktoriyalari Tirren dengizi qirg'oqlarida vujudga keldi.

Italiyada VIII-VII asrlarda etrusklar yoki tusklar tilga olinadi. Bu xalqni rimliklar shunday atashgan, yunonlar esa ularni tirrenlar yoki tirsenlar deb nomlashgan. Etrusklar esa o'zlarini ratsenlar deb atashni xush ko'rishgan. Ulardan ko'plab moddiy yodgorliklar bizgacha yetib kelgan. Ular orasida shahar qoldiqlari, nekrapollar, tasviriy san'at

namunalari va 11 mingdan ortiq qo'lyozmalarning borligi tahsinga sazovordir. Etrusklarning alifbosi mahalliy xususiyatga ega bo'lib, ko'plab olimlarning ma'lumotlariga ko'ra u g'arbiy yunon yozuvidan o'zlashtirilgan. Shuning uchun ham yozuv yengil o'qiladi va tushunilishi ham oson bo'lgan. Etrusklar tili va uning kelib chiqishi fanda katta muammo hisoblanadi. Ayrim etruskshunos olimlarning ta'kidlashicha, O'rtayer dengizi va Old Osiyoning qadimgi aholisining hind-yevropa tiligacha bo'lgan tilining qoldiqlari shimoliy Kavkaz tilining bir qismi hisoblanadi. Qolgan olimlar esa xetlar yoki pelasglar tili bilan aloqador degan fikrni ilgari suradilar. Ko'pchiligi esa bu tilni aralash til deb, ham hisoblashadi. Etrusklarning kelib chiqishi borasida ham ko'plab farazlar mavjud. XVII asr boshidan ularning sharqdan kelib chiqqanligi to'g'risidagi qarashlar yetakchilik qila boshladi. Rossiyada XX asr boshlarida V.I. Modestov tomonidan ushbu g'oya yanada mustahkamlanadi. Bu faraz Gerodotning hikoyasiga asoslanib, bunda Gerodot tirrenlarni Lidiyadan kelib chiqqan deb hikoya qiladi. XX asrda Germaniyalik olimlar etrusklarning kelib chiqishida nord xalqlarini asos sifatida ko'rsatadi. XIX-XX asrlarda italyan tarixchilari etrusklarning avtohtonligi konsepsiyasini himoya qilishadi. Buning asosida esa Dionis Galikarnasning guvohligi yotadi. Hozirgi kunda M. Pallatino o'z qarashlarida etrusklar Italiya hududlariga yaxlit xalq bo'lib kirib kelmagan, balki Bolqon yarimoroli va Kichik Osiyodan kelib, Italiyadagi turli xalq birlashmalariga qo'shilib, keyin duragay xalq sifatida shakllanishgan, degan farazni ilgari surmoqda.

Italiyaning mil. avv. I mingyillikdagi etnik kartasi favqulodda rang-barang bo'lib ketgan. Alp va Apenin qoyalarida, uning shimoli-g'arbiy hududlarida ligurlar yashagan. Padus vohasida mil. avv. V asrdan kelt qabilalari kelib o'rtnashadi. Rimliklar ularni gallar deb atashgan, keyinchalik bu hudud Sizalpin Galliyasi deb nomlangan. O'rta Italiyada etrusklar joylashgan hudud -Etruriya, umbrlar joylashgan hudud-Umbriya, pitsenlar o'rtnashgan hudud - Pitseniya, lotinlar joylashgan hudud-Latsiniya deb atalgan. Latsiniya atrofida sabinar, ekvlar, gerniklar joylashgan bo'lib, ular italyan tilida gaplashgan. Kampaniya aholisi osklarning avzonlar bilan aralashuvi oqibatida vujudga kelgan. Janubiy hududlardagi Lukanin va Bruttin aholisi osklar qabilasining ildizidan tashkil topgan. Apuliya va Kalabrida illiriyaliklardan kelib chiqqan yapiglar asosiy aholi qatlami

hisoblangan. Sitsiliya aholisining asosiy tarkibini sikullar tashkil qilgan, ularning tillari lotin tili hamda qadimgi sikan tiliga aloqador bo'lgan. Italiyadagi barcha xalqlar va qabilalar turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimga, siyosiy-madaniy taraqqiyotga ega bo'lganlar. Rimliklarning istilolari oqibatida Italiya romanlashdi, uning turli xil etnik komponentlari yagona Italiya xalqini tashkil etdi. Italiyaliklar lotin tilida gapirishgan. Chunki etrusk va ligur tillari mil. avv. I asrga kelib unutilib ketgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Rimga boshqa hududlardan aholining ko'chib kelishi.
2. Aholining etnik tarkibi va xo'jalik tizimi.
3. Qadimgi Rimning tabiiy sharoiti va qulay iqlimi
4. Appenin yarim orolida dastlabki davlatga asos solinishi.
5. Qadimgi Rim aholisining o'ziga xos madaniyati.

Glossariy

Italiya-yunoncha "buzoqlar mamlakati" degan ma'noni anglatadi
Italiklar-yunonlar Apennin yarim orolida yashovchi barcha aholini shunday deb nomlashgan

Kapitoliy tepaligi-Rimdagi eng baland tepalik

Patritsiyalar-Rimning qadimgi tub aholisi

Plebeylar-Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko'chib kelgan odamlar va ularning avlodlari.

Mavzu: Qadimgi Italiya va Ilk Rim respublikasi

Reja:

1. Qadimgi Etrusklar jamiyati va madaniyati
2. Qadimgi Rim podsholigi
3. Rim respublikasining tashkil topishi.
4. Rimda plebeylar va patritsiylar o'rtasidagi kurash.
5. Italiyada Rim hukmronligining o'rnatilishi.

Qadimgi Etrusklar jamiyati va madaniyati. Italiyaning qadimgi xalqlari orasida mil. avv. I mingyillikni 2-choragida yashagan etrusklar alohida o'rin tutadi. O'sha vaqtda ligur, italik va illiriyalik ibtidoiy jamoa tuzumida yashayotgan vaqtda etrusklar mintaqada dastlabki davlatchilik an'analariga asos solgan xalqlardan biri sanaladi. Qadimdan ular janubda Kampaniya, shimolda Padan hududi va hozirgi Toskanada keng joylashgan edilar. Etrusklarni boy unumdor yerlarga ega bo'lishi donli ekinlar, zig'ir, uzumchilik bilan shug'ullanish imkonini bergan. Shuningdek, mis, qalay va temir konlarining mavjud bo'lishi mehnat qurollarining takomillashuviga olib keldi. Hududda kulolchilik ham yaxshi rivojlangan edi. Qishloq xo'jaligi hamda hunarmandchilikni taraqqiy etishi ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga olib keladi. Jumladan, Feroniya qayinzorlarida har yili savdo yarmarkalari tashkil etilgan. Etrusklar kemalar yasab, dengiz orqali o'zga xalqlar bilan faol savdo aloqalarini olib borganlar. Arxeologik qazishmalar natijasida ko'plab qabristonlar o'rganilganda, qablardan Misr, Suriya, Kipr, Yunonistondan keltirilgan qimmatbaho buyumlar topilgan.

Etrusklar shaharlari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Jumladan, asosiy shaharlar qat'iy talablar asosida ko'proq balandliklarda qurilgan bo'lib, yunon shaharsozligi namunalarini eslatar edi.

Shaharning muhim bo'g'ini ibodatxonalar sanalgan. Tashqi ko'rinishdan yunonlarnikiga o'xshasada, ichki tuzilishi mutlaqo farq qilgan. Shahar aholisining yashash uylari asosan tosh fundamentlar ustiga yog'och devorlar bilan loy suvoqlar qilinib, tomlari cherapitsalar bilan qoplangan edi.

Ko'jalikning yuqori darajada ixtisoslashuvi hamda savdoning rivojlanishi oqibatida etrusklar jamiyatida tabaqalanish yuz beradi. Melioratsiya sohasida va shaharlar qurilishida og'ir mehnat talab etilgani bois, yollanma hamda qullar mehnatiga ehtiyoj kuchayadi. Etrusklar qabristonlarida qullarni o'ldirish bilan bog'liq turli xil marosim belgilari va qoldiqlari topilgan. Shuningdek, saqlanib qolgan ko'zalar sirtida qo'llari bog'langan qullar tasviri mavjudligi yuqoridagi fikrlarni dalilidir. Lekin, faqatgina qullar mehnatidan foydalanilgan, degan fikr noto'g'ri hisoblanadi. Chunki, jamiyatda qullardan tashqari kambag'allashib qolgan qatlam hamda bo'ysundirilgan aholi ham ekspluatatsiyaga mahkum qilingan. Yunon

mualliflari ularni “*penestlar*”, mahalliy aholi esa, “*lete*” yoki “*lautni*” deb atashgan. Jamiyatda xususiy mulkni ortib borishi hamda tabaqalanishni kuchayishi oqibatida kambag‘allashgan qatlamning boshqa joylarga ko‘chib ketish jarayonlari kuzatiladi. Odatda ular o‘zga yurtlarda baxt va boylik izlab omadi chopmagan siyosiy yo‘lboshchilar va muttahamlar atrofiga yig‘ilishgan. Qadimgi afsonalarda qandaydir Avkn nomli shaxs tilga olinadi. U atrofiga kichik harbiy qism to‘plab, shimolga otlanadi va u erda Felzina shahriga asos soladi (Hozirgi Bolonya).

Etrusklar jamiyatining yuqori tabaqasini harbiy-kohinlar qatlami tashkil etgan. Rim tarixchilari ularni prinsepsni vakillari deb ta’riflashadi. Zamonaviy tarixchilar esa imtiyozli tabaqani (*etera*) boshqargan amaldorlar guruhi sifatida baho berishadi. Ijimoiy hayotda urug‘ yoki oila ota tomonidan belgilangan, biroq jamiyatda onaning roli ham yuqori bo‘lgan.

Shaharlarning siyosiy boshqaruvi o‘zida harbiy-diniy hokimiyatni birlashtirgan podsho qo‘l ostida bo‘lgan. Biroq, mil av. VI asrda podsho o‘rnini saylangan vakolatli shaxslar egallaydi. Ular mahalliy xalq orasida *zilka* yoki *zilax* deb atalib lotinchasiga *pretor*, *diktator* ma’nolarini anglatgan. Etrusklarda markazlashgan davlat boshqaruvi tashkil topmagan. Antik mualliflar Toskaniya, Padan viloyati hamda Kampaniyada ularni 12 shahar-davlatlari bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Aslida esa undan ham ko‘proq bo‘lgan. Ushbu shaharlar unchalik mustahkam bo‘lmagan diniy ittifoqda bo‘lib, harbiy qobiliyatga ega bo‘lgan *zilaxlar* tomonidan boshqarilgan. Chunki, etrusk shaharlari dengizdan uzoqroqda barpo etilgan. Shunga qaramay, har bir shaharning dengizga chiquvchi portlari bo‘lgan. Jumladan, Sera shahrining porti Pirgi, Felzining portlari Atriy va Spina hisoblangan. Bizgacha Toskaniya shaharlari ittifoqiga oid tarixiy ma’lumotlar yaxshi saqlanib qolgan. Ularning markazi sifatida Volsiniya tilga olinadi. Mazkur shaharda har yili hukmdorlar saylovi hamda bayram va yarmarkalar o‘tkazib borilgan. Shaharlar orasida muhim o‘rinni Vey shaharlari egallagan. U yerda ijodkorlar maktablari faoliyat ko‘rsatgan Kluziy, Peruziya kabi shaharlar mavjud bo‘lgan.

Har bir shahar og‘ir qurollangan piyoda askarlar qo‘shiniga ega bo‘lib, otliq qismlarni zodagonlar tashkil qilgan. Lashkarboshilar urushda jang aravalaridan keng foydalanishgan. Yangi yer va

bozorlarga bo'lgan ehtiyoj jamiyatda ijtimoiy keskinlikni yuzaga keltiradi. Natijada mustamlaka yerlarga bo'lgan talab yanada kuchayadi. O'rtayer dengizi savdosi uchun raqobat natijasida etrusklar bilan Italiyadagi yunon koloniyalari o'rtasida urush kelib chiqadi. Mil. av. VI asrda etrusklar Korsika va Sardiniya orollarining sharqiy sohillarini egallab oladilar. Shu bilan birga Kapuya shahri boshchiligida tuzilgan kompaniyaliklar ittifoqini mag'lub etishga erishadilar. Natijada bu jarayon yunonlar bilan qarama-qarshilikka olib keladi. Bu yo'lda etrusklar g'arbiy O'rtayer dengizida hukmronlikka intilayotgan Karfagen bilan ittifoq tuzadilar. Mil. avv. 535- yili etrusklar va karfagenliklar Alaliya va Korsika atroflarida yunonlarni mag'lubiyatga uchratadilar va ushbu orollar etrusklar nazorati ostiga o'tadi. Etrusk shahar davlatlarining yuksalishi mil. avv. VI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Ammo mil. avv. VI asrning oxirgi choragida tashabbus yunonlar tomoniga o'zgaradi. Mil. avv. 524-yili yunonlar etrusklarni Kompaniyada va Latsiyada mag'lubiyatga uchratadilar. Mil. avv. 474 -yili Kum yonidagi dengiz jangida yunonlar etrusklarni yana yengadilar va ularning Latsiyadagi ta'siri susayadi. Mil. avv. 509- yil Rimda etrusklar sulolasi tugatiladi. Ko'p o'tmay Etruriyaga shimoldan kelt qabilalari bostirib kirishi bilan etrusklarning Apennin yarim orolidagi gegemoniyasi ham nihoyasiga etadi.

Etrusklar hukmronligini yemirilishiga qaramay ularning shimoliy va markaziy Apennin yarim oroliga madaniy ta'siri mil. avv. IV asr oxiriga qadar davom etadi. Buni biz Rim jamiyatida bevosita kuzatishimiz mumkin. Masalan: rimlik zodagonlar orasida etruskcha so'zlashish va ular kabi tartib qoidaga e'tibor berish, folbinlik, qurbonlik qilish odatlari yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Shu bilan birga, rimliklar muqaddas kitoblarida dunyoni yaratilishi va xudo tomonidan insonlarni 12 ming yillik hayoti bo'lasida ma'lumotlar keltiriladi. Rimliklar etrusklardan yana shaharsozlik, yer xo'jaligini tuzish tizimlarini o'zlashtirganlar. Ayniqsa folbinlar (garuspiklar) etruskcha odatga muvofiq chaqmoq chaqishi va qurbon keltirilgan hayvonlar ichki a'zolariga qarab kelajakni bashorat qilganlar. Etrusklarning Tini, Uni va Menrva kabi ilohlari ko'hna Rim ilohlar panteoniga tegishli Yupiter, Yunona va Minervalar bilan juda o'xshashdir. Avvalambor, etrusk xudolari nomlarining kelib chiqishi Apennin yarim oroli, yunon va Kichik Osiyoga, ya'ni xettlarga ham

borib taqaladi. Etrusklar maqbaralarining arxitekturasi Bolqon, Kichik Osiyo va Sardiniyadan topilgan maqbaralarni eslatadi. Tosh tobutlarda afsonaviy hayvonlar (ximeralar, sfinksalar, qanotli buqalar) tasvirlarini borligi Old Osiyo va Misr madaniyatiga yaqinlikdan dalolat beradi. Etrusklar kulolchiligiga nazar tashlansa, ular yunon kulolchilik madaniyatiga taqlid qilganliklarini bevosita kuzatish mumkin. Shuning uchun yunonlar etrusklarni “yarim varvar” deb ham ataganlar. Keyinchalik etrusklar qo’shni italik qabilalarga o’z madaniy ta’sirini o’tkazadilar. Jumladan, shaharlar va binolarni qurish hamda podsho boshqaruv hokimiyat tizimini rimliklar aynan etrusklardan o’zlashtirganlar.

Qadimgi Rim podsholigi. Rim shahri qadimgi Latsiyada Tibr daryosi qirg’oqlarida mil. avv. VIII asr boshlarida vujudga keladi. Shahar dastlab Palotin, Eskvilin, Seliya, Kvirinal, Viminal va boshqa tepaliklarda paydo bo’la boshlaydi. Afsonalarga ko’ra bu yerga Troyadan suzib kelgan muhojirlar kelib joylashadilar. Muhojirlardan bo’lgan bir ayol, safar davomida sarson-sargardonchilikdan charchab suzib kelgan kemalarga o’t qo’yadi. So’ngra qiyinchiliklarni boshdan kechirgan troyaliklar ushbu zaminda qolishga qaror qiladilar. Mahalliy podsho Lotin ularni iliq kutib oladi, hatto o’z qizi Laviniyani troyalik Eneyga turmushga beradi. Lotin vafotidan so’ng Eney lotin va troyaliklarni boshqaradi. Aynan uning avlodlaridan Rim shahri asoschilari aka-uka egizaklar Romul va Rem kelib chiqqan degan tarixiy ma’lumotlar mavjud. Afsonalarga ko’ra Romul va Rem, Amuliy ismli podshoning buyrug’i bilan go’daklik chog’ida Tibr daryosiga savatda oqizib yuborilgan. Ammo chaqaloqlar solingan savat daryo suvi kamayganda qirg’oqqa chiqib qoladi. Ularni bir necha kun ona bo’ri o’z suti bilan emizdiradi. So’ngra go’daklarni Faustul ismli podsho cho’poni topib olib katta qiladi. Ulg’aygach Romul va Rem kelib chiqishlari haqidagi haqiqatdan xabar topgach, bobosining taxtini qaytarib oladilar. Keyin o’z jangchilari bilan yangi shahar qurishga kirishadilar. Qadimiy shahar qurish marosimini o’tkazish chog’ida aka-ukalar o’rtasida janjal kelib chiqadi va Romul, Remni o’ldirib qo’yadi. Keyinchalik Rem sharafiga shahar Rim nomini olgan, deyiladi. Rimliklar bu voqeani mil. avv. 753-yili sodir bo’lgan deb, hisoblaydilar.

Rim shahri qurilgach Romul tarafdorlari aksariyati erkaklardan tashkil topgani uchun uylanishga qaror qiladilar. Ammo mahalliy

italiklardan hech qaysi qabila ularga qizlarini berishni istamaydilar. Natijada Romul ayyorlik yo'lini tutadi. U qo'shni qabila bo'lgan sabinlarni Neptun bayrami kuni Rimga taklif etadi. Bayram avjiga chiqqan paytda rimliklar sabinlar ustiga tashlanib, qizlarini o'g'irlab ketishadi. Bundan jahli chiqqan sabin qabilalari birlashib, rimliklarga qarshi urush boshlaydilar. Biroq, sabin qabilasi qizlari otalarini rimliklar bilan yarashtirib qo'yadilar. Shundan so'ng ular bir oila bo'lib yashay boshlagan. Hatto sabinlardan bo'lgan Tit Tatsiy Romul bilan birga Rimni boshqargan. Ular shaharning birinchi podsholari sanalgan. To'rtinchi podsho Ank Marsiy lotinlarga munosib kurash olib borib, Tibr orqali ko'prik qurdirgan. Shundan so'ng taxtga Etruriyadan kelib qolgan Tarkviniy chiqadi. Uning davrida Rim shahrida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Shahar markaziy maydoni (Forum) chiroyli ko'rinish oldi. U yerda ibodatxona va sirk barpo etiladi. Biroq, podsho dushmanlar tomonidan o'ldiriladi. Shunda uning xotini asrab olgan qulni farzandi Serviy Tulliyni taxtga o'tkazadi. Serviy Tulliy davrida shahar mudofaa devorlari bilan o'rab olinib, harbiy sohada islohot amalga oshiriladi. Biroq hukmdor o'z kuyovi Tarkviniy tomonidan o'ldiriladi. Yangi hukmdor o'ziga "Mag'rur" taxallusini olib, tiranlarga xos ravishda hokimiyatni boshqardi. Bundan norozi bo'lgan rimliklar Tarkviniyni shahardan haydab chiqarib, Rimni respublika deb e'lon qildilar. Bu voqea mil. avv. 509 -yilda ro'y beradi.

Rim respublikasining tashkil topishi. Rimliklar endilikda hech qachon qirol boshqarmasligini e'lon qiladilar. Uning o'rniga lotincha atama *res publica* "xalq ishi" ma'nosini bildiradigan Respublika tuzumini o'rnatishdi. Respublika boshqaruv shakli bo'lib, o'zlarining boshliqlari uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar boshqaruviga asoslangan. Rimda ovoz berish huquqi faqat ozod bo'lib tug'ilgan erkaklargagina berilgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, uzoq vaqt davomida antik mualliflarning ushbu ma'lumotlariga afsona sifatida qarab kelishgan. Biroq, so'nggi yillardagi arxeologik topilmalar, qadimgi yozuvlarni o'rganilishi hamda lingvistika fani yutuqlari mazkur ma'lumotlarni haqiqiyligini yana bir bor isbotladi.

Mazkur tarixiy jarayonlarda Rim aholisi (*populus*) uchta katta urug' *trib* (qabila) dan tashkil topgan edi. Uni Afinadagi Klisfen islohatlariga qadar bo'lgan *fila* ga o'xshatish mumkin. Bizgacha ushbu qabilalarni etruskcha nomlari-titsiy, ramniy, lutserlar ma'lum, xolos.

Triblar otliq qo'shinlarni shakllanishida muhim rol o'ynagan. Jamiyatning yana bir muhim bo'g'ini-kuriya hisoblanib, ularning soni 30 tani tashkil etgan. Mazkur birlashma erkaklarni harbiy ittifoqi sifatida piyoda qo'shinlarni asosi bo'lib xizmat qilgan. Davlatning ijtimoiy tuzilmasini urug' (*gentes*) tashkil etib, ularni soni dastlab 100 ta keyinchalik 300 taga etadi.

Rim respublikasini boshqarish ishida Senat va komitsiyalar muhim rol o'ynagan. Senat asosan tub aholiga mansub yoshi kattalardan iborat kengash sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ularning tarkibi dastlab 100 ta, keyinchalik 300 taga etadi. Komissiyalar harbiy-erkaklardan iborat xalq yig'ini bo'lib, kuriyalar bo'yicha to'planishgan. Senatning tavsiyasiga ko'ra komissiyalar konsullarni saylashgan. Saylangan konsullar harbiy yo'lboshchilik, kohin va sudyalik qobiliyatiga ham ega bo'lmog'i lozim edi. Respublika tuzumi o'rnatilishi bilan oliy hokimiyat bir yil muddatga saylanadigan ikki konsul qo'liga o'tdi. Jamoalarni kekxa, tajribali oqsoqollar boshqargan bo'lib, ular-magistrat deb atalgan. Oliy davlat organi bo'lgan xalq yig'ini qonunlar qabul qilgan, boshqa davlatlarga urush ochgan yoki sulh tuzish, davlat mansablariga amaldorlarni saylash hamda yuqori sud idorasi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Rim jamiyatining ibtidoiy jamoa tuzumidan chiqish jarayonida ulkan o'zgarishlar yuz beradi. Aholi sonining o'sib borishi va xo'jalikni rivojlanishi oqibatida qo'shni jamoa munosabatlari jadal rivojlandi. Jamoa orasida patriarxal qullar hamda xususiy yer egalari soni o'sib boradi. Natijada ayrim urug'lar keskin ravishda boyib ketadi. Jamiyatda qaram kishilar (*cliens*-qaram, quloq soluvchi) bilan birga ularning homiylari sanalgan *patron* toifasi vujudga keladi. Patronlar qaram kishilarga yerlar ajratib berar, sudda ularni himoya qilar va ularga o'z nomini ham berar edi. O'z navbatida qaramlar homiylari uchun harbiy qo'shinda ishtirok etar, kerak bo'lsa jonini ham fido qilishga tayyor turgan.

Shaharlarni gullab-yashnashi, yangi yerlarni bosib olinishi hamda o'zga hududlardan qulay joy qidirib boshqa yurtlardan aholini ko'chib kelishi ijtimoiy hayotda keskin vaziyatni yuzaga keltiradi. Dastlab kelgindi urug' va qabilalar Rim trib va kuriyalariga qabul qilingan. Keyinchalik vaziyat qiyinlashib, ularni Rim jamoalariga qabul qilmasdan, hatto saylov jarayonlariga ham yaqinlashtirmay qo'yadi. Rimliklar ularni *plebeylar* deb atashardi. Darhaqiqat, erkin bo'lishiga

qaramay, ushbu toifalar amalda hech qanday huquqqa ega bo'lishmagan.

Rim tarixining podsholik bosqichidayoq, aholi orasida yerga bo'lgan talab kuchli edi. Shuning uchun podshohlar turli islohot va o'zgarishlarni amalga oshirgan edi. Jumladan, Serviy Tulliy jami yerlarni 21ta okrugga bo'ladi. Okruglar triblar nomi bilan 4 tasi shahar hududida qolgan 17 tasi qishloq joylarda tashkil etiladi. Shunday qilib, Serviy Tulliy patritsiy va plebeylar yashash joylarini aralashtirib yuborgan edi.

Rimda patritsiylar va plebeylar o'rtasidagi kurash. Ilk respublika davrida rimliklarning turli xil guruhlarini hokimiyat uchun kurashdilar. Bir guruhi patritsiylar bo'lib, katta kuchga ega bo'lgan yirik yer egalari edi. Boshqa muhim guruh plebeylar bo'lib, aholining ko'pchilik qismini tashkil qiladigan dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlardan iborat edi.

Patritsiylar o'z hokimiyati va ijtimoiy mavqelarini meros qilib qoldirganlar. Ular doimo o'z huquq va imtiyozlarini kengaytirish harakatida bo'lganlar. Biroq, jamiyatda plebeylarni soni ortib borar, shu jihatdan ular ham Rimning to'la-to'kis fuqarosi bo'lish uchun kurash boshladilar. Mazkur tabaqalar o'rtasidagi kurash ikki asrdan ko'proq vaqt davom etib, unda 3 bosqichni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1) mil. avv. VI asr o'rtalaridan-mil. avv. 494 -yilgacha. Bunda Serviy Tulliy islohatlaridan to xalq tribunlari o'rnatilishigacha bo'lgan voqealarni ko'rsatish mumkin.

2) Mil. avv. 494 yildan 444- yillar oralig'idagi kurashlar. Mazkur bosqichda xalq tribunlari lavozimlari o'rnatilgan vaqtdan Kanuley qonunlarining joriy etilishigacha bo'lgan voqealarni ko'rsatish o'rinalidir. 3) Mil. avv. 385-287 -yillar. Ushbu davrda plebeylar qator qonunlarni qabul qildirishga hamda erkinliklarni ko'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar.

Plebeylar asosan patritsiylarni yerga egalik imtiyozlarni kamaytirish va shu orqali o'zlari uchun jamoa yerlarini egallashga imkon berish, qarz foizlarini kamaytirish hamda siyosiy tenglikka erishib, davlat mansablariga saylanish kabi talablarni ilgari surdilar.

O'n ikki jadval. Plebeylar uchun muhim g'alaba yozma qonunlar kodeksni yaratish uchun kurash bo'ldi. Yozilmagan qonunlar orqali patritsiy aslzodalar o'z manfaatlari uchun qonunlarni buzib talqin

qilardilar. Mil. avv. 451 yilda 10 kishidan iborat mansabdor shaxslar guruhi Rim qonunlarini yoza boshlashdi. Mil. avv. 449 -yilga kelib yangi qonunlar majmuasi vujudga keladi. Qonunlar 12 ta mis lavhaga o'yib yozilgan va Forumga osib qo'yilgan. Ular keyinchalik Rim qonunlari uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'n ikki jadval barcha ozod fuqarolar qonun bilan himoyalaniş huquqiga ega bo'lish g'oyasini belgilab qo'ydi. Shu yili konsullar Valeriy va Goratsiy plebeylar manfaati yo'lida yana uchta qonun qilishga erishdilar. Unda xalq tribunlari shaxsining daxlsizligi, xalq kengashiga patritsiylar qarorlari ustidan apellyatsiya berish huquqi va eng muhimi, plebeylar kengashi qarorlari patritsiylar uchun ham birdek amal qilinishi ko'rsatilgan edi.

Italiyada Rim hukmronligining o'rnatilishi. Rimliklar o'z hukumatlariga qo'shimcha ravishda katta ahamiyatga ega bo'lgan qo'shinlarini ham tuzganlar. Barcha o'z yeriga ega bo'lgan fuqarolar armiyada xizmat qilishga majbur edilar. Ma'lum davlat muassasalaridagi lavozimlarda ishlashni xohlaganlar o'n yil ishlab berishi kerak edi. Rim askarlari legion deb atalgan katta harbiy qismlarga birlashgan edi. Rim legionlari asosan soni taxminan 500 kishi bo'lgan qurollangan piyodalardan iborat edi. Har bir legionni otliqlardan iborat askarlar guruhi qo'llab-quvvatlab turardi. Legionlar senturiyalar deb atalgan 80 kishidan iborat kichikroq guruhlariga bo'lingan. Harbiy tuzilish va jang mahorati Rim kuch-qudratining o'sishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Romul davridayoq 3000 kishilik piyoda va 300 ta otliq qo'shin tashkil etilgan edi. Serviy Tulliy zamonida erkak-aholi mulkiga ko'ra 6 razryadga bo'linib, jami 193 ta senturiydan iborat harbiy armiya barpo etiladi. Keyinchalik mil. avv. II asrda Gay Mariy islohotlariga ko'ra, legionning tuzilishiga o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, 3 ta manipuladan bitta kogorta tashkil etiladigan bo'ldi. Rim armiyasida bosh lashkarboshi vazifasini *konsullar* bajargan. Uning yordamchilari – *legatlar* deb nomlangan. *Harbiy tribunlar* legion komandirlari hisoblangan. Mamlakatda favqulodda vaziyatlar vaqtida armiyaga *diktator* boshchilik qilgan.

Rim tomonidan Italiyani bosib olishi. Rimning kuch-qudrati asta-sekin o'sib bordi, natijada barqaror bo'lgan legionlar Italiya yarimorolida nazoratni o'rnatish uchun kurash olib bordilar.

Rimda bosib olingan hududlarning turli qismlari uchun har-xil qonunlar va tartiblar mavjud edi. Qo'shni Tibr bo'yidagi lotinlar Rimning to'la huquqli fuqarolariga aylandilar. Rimdan uzoqda

joylashgan hududlardagi aholi saylov huquqidan tashqari boshqa barcha Rim fuqaroligi huquqlaridan foydalanishlari mumkin edi. Qolgan barcha guruhlar uchinchi toifaga mansub bo'lib, Rim ittifoqchilari hisoblanardi. Rim boshqa ittifoqchilarining ishiga ular Rim armiyasi uchun qo'shinlar to'plab berishi va boshqa davlatlar bilan do'stlik aloqalarini o'rnatish uchun harakat qilmagunlaricha aralashmagan. Yangi fuqarolar va ittifoqchilar Rimning rivojlanishi uchun hamkorlarga aylandilar.

Samniy urushlari. Rimliklarni samniy xalqlari bilan olib borgan urushlari uzoq davom etib, bu kurashlarda Rim qo'shinining qo'li baland keladi. Mil. avv. IV asr o'rtalarida samniy xalqlarining federatsiyasi tashkil topib, qo'shni xalqlarga zug'um o'tkaza boshladilar. Mil. avv. 343-yili samniylar Kampaniyaning yirik shaharlaridan biri bo'lgan Kapuyaga bostirib kiradilar. Mag'lubiyatga uchragan kapuyaliklar qo'shnilari Rim armiyasidan yordam so'raydi. Yangi yerlarga bo'lgan ishtiyoq rimliklarni samniylarga qarshi urush boshlashiga sabab bo'ladi. Birinchi samniy urushi mil. avv. 343-341-yillarda yuz berib, urush rimliklarni yorqin g'alabasi bilan nihoyasiga etadi. Natijada g'arbiy Kampaniya yerlari Rim respublikasi ixtiyoriga o'tdi. Kapuya va Svessa shaharlarida Rim garnizonlari joylashtiriladi. Ushbu voqealar Lotin shaharlari federatsiyasini noroziligiga olib keladi. Lotinlarni talabi bajarilmagach, ikki o'rtada urush kelib chiqadi. Bu urush tarixda 2-Lotin urushi nomini olgan (birinchi Lotin urushi mil. avv. V asr boshlarida bo'lib o'tgan). Mil. avv. 340-338-yillarda yuz bergan mazkur urushda harbiy harakatlar asosan Kampaniya hududida sodir bo'lgan. Svessa shahri yaqinida lotin va kampaniyaliklar alamli tarzda mag'lubiyatga uchradilar. Ushbu hududlar bilan cheklanmagan rimliklar endi Neapolning ichki ishlariga faol aralasha boshlaydi. Bu ziddiyat 2-Samniy urushini keltirib chiqaradi. Oldingisidan farqli ravishda urush uzoq davom etib, (mil av. 327-304 -yy) rimliklarni to'la g'alabasi bilan yakunlanadi. Oradan biroz vaqt o'tib, 3-Samniy urushlari kelib chiqadi (mil. avv. 298-290- yy). Mazkur urushda rimliklarga qarshi gallar, etrusklar va samniylar birgalikda jang olib bordilar. Biroq, Rim sarkardalarining yuksak layoqati tufayli samniylar ittifoqi yana mag'lubiyatga uchraydi. Uning oqibatida Rim O'rta Italiya hududlarini to'liq xo'jayiniga aylandi.

Samniy xalqlari bo'ysundirilganiga qaramay, gallar bosqini Rimga tinchlik bermasdi. Mil. avv. 285 -yili gallar yana Etruriyaga bostirib kirdilar va Arretsiy shahrini qamal qildilar. Mahalliy aholi rimliklardan yordam so'raydi. Dastlab, gallar g'alaba qozondi. Biroq, rimliklar vaqtdan foydalanib, gallar bosib olgan shimoliy-sharqiy viloyatlarga qo'shin tushirdi. Dushman mag'lub etilib, Adriatika bo'yida birinchi Rim mustamlakasi hisoblangan Sena Galliya koloniyasiga asos solindi. Mil. avv. 283- yili gallar ustidan Vadimon ko'li yonida uzil-kesil g'alaba qozonib, rimliklar Etruriya, Umbriya, Pitsenada o'z hukmronligini to'liq o'rnatdi.

Rim respublikasining ekspansiyasi endi janubiy Italiyaga qaratildi. Bu yerdagi yunon koloniyalari italiklarning apul, lukan va bruttiy qabilalari doimiy siquvi ostida hayot kechirar edilar. O'z o'rnida Yunon koloniyalari orasida ham birlik bo'lmagan. Ayniqsa, Furiya koloniyasi lukanlar siquvidan xavfsirab, Rimni yordamga chaqiradi. Rim respublikasi Furiyaga askarlarni yuborib lukanlarni u yerdan quvib yuboradi. So'ngra o'z garnizonini Furiyada qoldiradi. Shu tariqa Furiya janubiy Italiyaga kirib borishning ilk tayanch nuqtasiga aylandi. Natijada rimliklar Ioniya dengiziga chiqib, Tarent shahriga xavf soladi. Tarentliklar Rim kemalarini cho'ktrib yuborgach, ular o'rtasida urush boshlanadi. Tarent shahar-davlati Epir sarkardasi Pirrni o'rdamga chaqiradi. Mil. avv. 280 -yili Pirr 20 ming piyoda, 3 ming otliq va 20 ta fillar bilan Italiyaga kirib keladi. Rim respublikasi bilan uzoq urush olib boriladi. Dastlab omad Pirr tomonida bo'lib, u rimliklarni bir-necha janglarda mag'lubiyatga uchratadi. Ammo mil. avv. 275 -yil rimlik lashkarboshi Maniy Kuriy Dentat qo'shinlari Pirr armiyasini Maleventum shahri yonidagi jangda yengishga muvaffaq bo'ladi. Shundan so'ng Pirr Yunonistonga qaytib ketishga majbur bo'ladi. Keyinchalik Rim respublikasi Lukaniya va Bruttiyni egallaydi. Faqatgina yunon koloniyasi hisoblangan Regiy shahri uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdi. Mil. avv. 270 -yilga kelib, Regiy ham zabt etildi. Endi siyosiy maydonda etrusklarning Volsiniya shahri qolgan edi. Ammo u ham mil. avv. 265- yil rimliklar tomonidan bosib olindi. Natijada Rim respublikasi butun Italiya ustidan o'z nazoratini o'rnatdi.

Rim-Italiya ittifoqining boshqaruv tizimi unitar shaklda emas edi. Rim ittifoqni boshqaruvchi polis sifatida qolaverdi. Ayrim italik shaharlari ittifoq ichida yarim mustaqil bo'lib, ayrimlari o'z-o'zlarini

boshqarish huquqlariga ham ega edilar. Ularning o'ziga xos boshqaruv tizimi "munitsipiy" deb nomlangan. Ular o'z shaharlarida Rimdagi kabi imtiyozlarga ega edilar. Qisqacha qilib aytganda italiklarning tashqi siyosati Rim respublikasi nazorati ostida edi. Urush paytida esa ular Rim tomonida jang qilishlari kerak bo'lgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadimgi italiyada quldorlik tuzumining vujudga kelishi.
2. Italiyada ilk quldorlik jamiyati xususiyatlari.
3. Podsho hokimiyatining yemirilishi va Rim Respublikasining o'rnatilishi sabablari.
4. Rim armiyasining tuzilishining o'ziga xosligi.
5. Rim tomonidan Italiyaning birlashtirilishining ahamiyati.

Glossariy

Diktator (lot.) – Qadimgi Rimda urush xavfi yoki qo'zg'olonni bostirish kabi favqulodda voqea ro'y berganda Senatning qarori bilan tayinlanadigan to'la huquqli hukmdor. Uning vakolati 6 oydan oshmas edi.

Lotin Ittifoqi – mil. avv. VII asrda an'anaga ko'ra, tashkil topgan qadimgi Italiya 30 shahar (Latium) federatsiyasi. Mil. avv. VI asrda Lotin ittifoqida Rim shahri ustunlikka ega bo'lgan.

Liktorlar (lot.) – qadimgi Rim respublikasida oliy mansabdor shaxslarga hamrohlik qiladigan faxriy soqchilar.

Patritsiy (lot.) – qadimgi Rimda zodagon, aslzoda, oqsuyak. Butun hokimiyatga ega bo'lgan yerli boy va zodagonlar urug'ining a'zosi.

Tetrarx - qadimgi Rimda to'rt kishi birgalikda boshqargan davlatda to'rt hokimdan biri, tetrarxiya hukmdori.

Senat (lot.) – qadimgi Rimda respublika davrigacha urug' oqsoqollarining yig'ini. Respublika davrida Senat oliy hokimiyatning davlat organi, hukmron aslzodalar hokimiyati.

Mavzu: Mil. avv. III-II asrlarda Rim respublikasi.

Raja

1. Rim-Karfagen urushlari.
2. Miloddan avvalgi II-II asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi.
3. Rim respublikasining tashqi siyosati.
4. Rimda ichki siyosat va siyosiy kurashning keskinlashuvi.

Rim-Karfagen urushlari. Apennin yarim orolining janubini bo'ysundirgan Rim respublikasi o'zining chegaralarini Sitsiliya orolidan ajratib turuvchi Messeniya bo'g'ozigacha kengaytiradi. Bu yerda mavjud bo'lgan yunon koloniyalari mil. avv. IV-III asrlarga kelib gullab-yashnaganligi jangovor qo'shnilarining, eng avvalo, Rimning e'tiborini tortadi.

Mil. avv. III asrda, ayniqsa, Sirakuza kuchayib orolning katta qismini o'z ta'siriga bo'ysundiradi. Bu vaqtda Apennin yarim orolini Sitsiliyadan ajratib turadigan Messina ham rivojlangan edi. Yunon shaharlari avvaldan qudratli Karfagen bilan dushmanlik munosabatlarida bo'lgan. Finikiya koloniyalaridan biri bo'lgan Karfagen shimoliy Afrika qirg'og'idagi yarim orolda joylashgan edi. Karfagenliklar Sitsiliya orolining g'arbiy qismidagi Lilibey, Drepana, Panorm shaharlarida mustahkam o'rtnashib olib, u yerni yunonlar bilan kurashdagi ekspansiyaning tayanchiga aylantirishgan. Apennin yarim orolini egallagan Rim Sitsiliya ishlariga aralasha boshlaydi. Bu esa birinchi navbatda Karfagenning manfaatlariga zid edi. G'arbiy O'rtayer dengizidagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lgan Karfagen Sitsiliyani o'z ta'sir zonasi deb hisoblab, muntazam kuchsizlanayotgan yunon shaharlarini siqib chiqargan. Mil. avv. 264 - yilgacha Rim va Karfagen tinch munosabatlarda yashagan. Savdo va dengizda suzish bo'yicha o'zaro shartnomalar ikki o'rtada Polibiyning ma'lumotlariga ko'ra 3 marta tuzilgan. Mil. avv. 280- yildagi shartnoma Rim va Karfagen o'rtasida faqatgina savdo emas, balki siyosiy aloqalarga ham oid edi. Rim Apennin yarim orolini bo'ysundirish bilan band bo'lgan bir paytda Karfagen Shimoliy Afrikani egallagan, bu borada ularning manfaatlari to'qnashmagan. Biroq, rimning janubiy Italiyaga suqilib kirishi vaziyatni o'zgartirib

yuborgan. Kuchli davlatga aylangan Rim respublikasi Apennin yarim orolini birlashtirgandan so'ng qo'shni hududlarga, birinchi navbatda boy Sitsiliyaga da'vogarlik qila boshlaydi. Bu da'volar Rimning ekspansiyasidan tashvishga tushgan Karfagen bilan to'qnashuvga olib kelishi muqarrar edi.

Rim bilan Karfagen o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqargan yana bir omil savdo tarmoqlari va O'rtayer dengizida gegemonlik uchun kurash edi. Rimning joylashuv o'rni unga O'rtaer dengizi bo'yidagi boy yerlarda savdo qilish uchun qulay imkoniyat yaratardi. Rimlik savdogarlar quruqlik va dengiz orqali savdo qilganlar. Ular Rim vinosi va zaytun yog'ini boshqa hududlardagi turli xil oziq-ovqatlar, xomashyo materiallari va hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlaganlar. Biroq, boshqa kuchli va qudratli shaharlar, birinchi navbatda Karfagen Rimning O'rtayer dengiziga suqilib kirishi uchun to'sqinlik qilgan. Uning kuch-qudratini o'sishi tez orada Rim bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvga olib keldi.

Tajovuzkor harakatlarni birinchi bo'lib karfagenliklar boshladi. Mil. avv. 272-yilda Rim qo'shinlari Tarentni qamal qilayotgan bir paytda karfagenliklar harbiy eskadrasi Rim va Karfagen o'rtasidagi shartnomaga zid ravishda bandargohga kiradi va shaharni egallamoqchi bo'ladi. Lekin bu urinish muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Tarent zodagonlari shaharni rimliklarga topshirishni afzal qo'rishadi. Karfagenliklar kechirim so'rashga majbur bo'ladi, lekin Rim va Karfagen o'rtasidagi do'stona aloqalar buziladi. Har ikki taraf ochiq to'qnashuvga tayyorlana boshlaydi.

1-Puni urushi. Nihoyat mil. avv. 264-yilda ikki davlat o'rtasida urush boshlandi. Bu Puni urushlari sifatida mashhur bo'lgan urushning boshlanishi edi. Mil. avv. 264 va 146-yillar davomida ikki davlat o'rtasida uchta urushlar bo'lib o'tadi. Birinchisi Sitsiliya va g'arbiy O'rtayer dengizida hukmronlik uchun kurash bo'lib, 23 yil (mil. avv. 264-241-yy) davom etdi.

Messana va Sirakuza o'rtasidagi mahalliy urush Puni urushlarini boshlanib ketishi uchun bahona bo'ladi. Sitsiliya tomon harakatlangan rimliklar Messanani qamal qilayotgan Sirakuza va karfagenliklar qo'shinini tor-mor qiladi. Bir yildan so'ng ular Sirakuza devorlariga yetib borib uning tirani Gieronni tinchlik shartnomasini tuzishga majbur qiladi. Mil. avv. 262-yilda Rim qo'shinlari karfagenliklar tomonidan kuchli qal'aga aylantirilgan Akragant shahriga qarab

yuradilar. 6 oylik qamaldan so'ng Akragant qulab, Karfagen qo'shinlari orolning g'arbiga siqib chiqariladi. Lekin bu yutuqlar rimliklar uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lmadi. Chunki, rimliklar dengiz flotiga ega emas va bu sohada Karfagen bilan raqobatlasha olmas edilar. Karfagen kuchli flotga ega bo'lib, dengiz orqali Apeninning kam himoyalangan hududlariga reydlar o'tkazib turardi. Rim qisqa vaqt ichida barcha vositalarni ishga solib, mil. avv. 260-yilda 120 ta jangovar kemadan iborat harbiy flotga ega bo'ldi. Shu yilda Lipar orollari yaqinidagi birinchi to'qnashuvda karfagenliklar Rim floti ustidan yengil g'alaba qozondilar. G'alabadan ruhlangan Karfagen qo'mondonlari Mila yaqinida hal qiluvchi zarba berishga chog'lanadilar. Biroq, bu jang Karfagen flotining mag'lubiyati bilan tugaydi. Rimliklarga kemasozlar tomonidan o'ylab topilgan ilmoqlar va ko'priklarcha katta yordam beradi. Ular yordamida kema bog'lanib, rimlik legionerlar dushman kemasiga o'tib olardilar va uni egallardilar.

Rimliklar urush harakatlarini dushman hududi Afrikaga ko'chirishga erishdilar. Ko'p sonli shaharlar va manzilgohlarni bosib oladilar. Karfagen tinchlik sulhini so'raydi. Ammo Rim konsuli Atiliy Regul og'ir shartlarni qo'yadi. Karfagenliklar uni rad qilib himoyaga kuchli tayyorlanadilar. Armiyaga yangi yollanma qo'shin jalb qilinadi, barcha erkin fuqarolar safarbar qilinadi, qo'shinga boshliq etib spartalik mohir lashkarboshi Ksantip tayinlanadi. Afrikaga birinchi yurishda rimliklar yetarli tayyorgarlik ko'rmaganlari, g'alabaga to'liq ishonib qo'shin va flotning bir qimini chaqirib olganliklari uchun urushda muvaffaqiyatsizlik uchradilar.

Urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko'chdi va mil. avv. 255-242 - yillarda davom etadi. Bu urushlarda goh u taraf goh bu taraf g'alabalarga erishadi. Oxir oqibatda har ikki urushayotgan tomonlar holdan toyib, kuchlari zaiflashdi. Hal qiluvchi jang mil. avv. 241-yilda Sitsiliyaning g'arbidagi Egat orollari yonida bo'lib o'tdi. Karfagen floti batamom tor-mor qilindi. Karfagen tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo'ldi va Sitsiliyani qo'ldan boy berdi hamda 3200 'kumush talant (deyarli 84 tonna kumush) miqdorida tovon to'laydi. Rimliklar Karfagenning og'ir ahvolidan foydalanib, Korsika va Sardiniya orollarini qarshiliksiz bosib oladilar. Rim G'arbiy O'rtaer dengizidagi kuchli davlatga aylanadi.

Ikkinchi Puni urushi (mil. avv. 218-201 -yy). Karfagen 1-puni urushidan so'ng kuchsizlangan edi. Lekin, u tez orada o'zini tiklab olib, yana urushga tayyorlana boshlaydi. Harbiy harakatlarning tepasida 1- puni urushi qahramoni lashkarboshi va mohir diplomat Gamilkar Barka turardi. U urush harakatlarini dushman hududiga ko'chirib g'alaba qozonish mumkin deb, hisoblardi. Gamilkar Rimga Iberiya orqali hujum qilishni maqsad qiladi. U mil. avv. 237 -yiida Iberiyaga otlanadi. Gamilkar kuch va diplomatiya orqali yarim orolning katta qismini egallaydi. Shuningdek, u yerda kuchli yollanma qo'shin tuzib asosiy tayanch baza - yangi Karfagen (zamonaviy Kartaxena) shahriga asos soladi. Iberlar bilan jangda Gamilkar halok bo'lib o'rnini Gastrubal egallaydi. U ham iberlar bilan jangda halok bo'ladi. Karfagen qo'shinlari o'zining yo'l boshchisi sifatida Gamilkar o'g'illarining to'ng'ichi Gannibalni (mil. avv. 247-183 -yy) tanlaydilar. Gannibal yorqin harbiy strateg bo'lib, Karfagenning avvalgi mag'lubiyati uchun qasos olishni xohlar edi.

Gannibal Rimni bosib olish uchun 5000 piyoda askar, 9000 ming otliq, 60 fildan iborat armiya tuzadi. U har qanday hujum o'rniga, rimliklarni hayratda qoldirish uchun jasur va xavfli harakatlarni amalga oshirishga harakat qiladi. U o'zining armiyasini Ispaniyadan Fransiya va Alp tog'lari orqali uzoq yurishga boshchilik qildi. U qo'shinlarning yarmini va fillarining asosiy qismini yo'qotishiga qaramasdan, uning lashkarboshilik qobiliyati o'z samarasini berdi. O'n yildan ortiq vaqt davomida u o'z qo'shinlari bilan Italiya yarim orolining yuqori va quyi qismlariga yurishlar qildi. Gannibal o'zining eng buyuk g'alabasiga miloddan avvalgi 216-yilda Kanna jangida erishdi. O'sha yerda uning armiyasi rimliklar qo'shiniga katta talofot yetkazdi. Mazkur jangda Gannibal Rim qo'shinlarini qurshab olib, to'la tor-mor qildi. Italiyaning bir nechta yunon shaharlari, jumladan, Sirakuza va bir qancha qabilalar Gannibal tomoniga o'tdi. Lekin, rimliklar tez orada o'zlarini tiklab olib, yana kuchli qo'shin tuzadilar. Ular o'z qo'shinlarini qayta guruhlashtirdi va ko'plab ittifoqchilar yordamida qattiq qarshilik ko'rsatdi. Natijada Gannibal tomonidan Rimni bosib olinishiga xalaqit qildilar.

Rimning g'alabalari. Va nihoyat rimliklar Gannibalning jasurligiga mos keladigan harbiy lashkarboshini topdilar. Mohir yosh lashkarboshi Ssipion mil. avv. 210-yilda Ispaniyaga jo'natiladi. Mil. av 209-yilda u karfagenliklarning Ispaniyadagi asosiy tayanchi

bo'lgan shahar – yangi Karfagenni egallaydi. Ispaniyadan qaytib kelgan Ssipion Karfagenga hujum qilish rejasini tuzib chiqdi. Bu strategik reja Gannibalni o'z ona shahrini himoya qilish uchun chekinishga majbur qilishi zarur edi. Mil. avv. 204-yilda Ssipion boshchiligidagi harbiy kuchlar Afrikaga keladilar. Kutilganidek Karfagen hukmdorlari Gannibalni Italiyadan chaqirib oladilar. Ssipion mil. avv. 203-yilda buyuk tekisliklardagi jangda karfagenliklarning qo'shinini tor-mor qiladi. Keyingi mil. avv. 202- yilda rimliklar Karfagen yaqinidagi Zama qishlog'ida yengilmas Gannibal qo'shini bilan yana uchrashadilar. Rimliklarga ular bilan ittifoq tuzgan Numidiya podshosi Masinis yordam berib, o'zining ajoyib otliq qo'shinini taqdim qiladi. Gannibalning Rim qo'shinlari safini fillar xujumi bilan tarqatib yuborish rejasini ham ish bermaydi. O'z marralarini uzoq vaqtgacha qattiq himoya qiladilar. Biroq Numidiya otliqlari, ularning jangovor saflarini buzib yuboradi va rimliklar karfagenliklarni mag'lubiyatga uchratdilar.

Mil. avv. 201-yilda Rim va Karfagen o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Uning shartlariga ko'ra, Karfagen Afrikadan tashqari barcha koloniyalaridan mahrum bo'ldi. O'z jangovar fillari va harbiy flotidan (500 kema) ajraladi. Karfagen 50 yil davomida 10 ming talant to'lashi, Rimning ruxsatisiz o'zining afrikalik qo'shnilari bilan urush olib borishi ta'qiqlandi. Tinchlik shartnomasining bu og'ir shartlari Karfagenning harbiy-siyosiy qudratiga qattiq zarba beradi.

Ikkinchi puni urushidan so'ng Rim respublikasi ellin davlatlariga qarshi faol siyosat olib borishni boshlaydi. Mil. avv. II asrning birinchi yarmida Makedoniya, Salavkiylar podsholigi va Yunon shaharlar ittifoqi bilan to'qnashadi. Bir necha o'n yillar mobaynida rimliklar ellin sulolalari o'rtasidagi qarama-qarshilik va Yunon dunyosidagi ichki ijtimoiy kurashdan unumli foydalanib ellin davlatlari ichidan kuchli ittifoqchilar topadi, harbiy siyosiy ittifoqlar tuzadi. Rim bir davlat ketidan ikkinchisini bosib olib, o'zining ekspansiyasi ko'lamini kengaytiradi.

Rimliklarning Sharqdagi agressiv siyosatining sabab va maqsadlari o'sha davr Rim jamiyati tabiatidan kelib chiqar edi. Qulchilik munosabatlarining tez sur'atlarda o'sishi iqtisodiyotda chuqur o'zgarishlarga olib keldi. U tovar xo'jaligining rivojlanishi, qul mehnatidan foydalanish sohalarining kengayishi bilan belgilanadi. Yangi yerlar va qullarni egallashga bo'lgan intilish, shuningdek, sharq

mamlakatlarining tabiiy boyliklari va aholisini ekspluatatsiya qilish xohishidan kelib chiqdi. Rimning ellinistik dunyoga qarshi agressiyasi Bolqon yarim orolining shimoliy g'arbiy Illiriya sohillarini egallash bilan boshlanadi.

Rim-Karfagen qo'shinlari uchinchi va oxirgi marta to'qnashdi. Bu II puni urushidan 50 yil o'tgach sodir bo'ldi. Mil. avv. 149-yilda III puni urushi boshlandi. Karfagen o'tgan 50 yil ichida o'zining qulay geografik joylashuvi bilan o'z iqtisodiy qudratini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. U yana xalqaro vositachilik savdosining Shimoliy Afrikadagi yirik markaziga aylandi. Rimliklar o'zlarining eski raqibini Rim hududiga bostirib kirganini hech qachon unuta olmas edi. II puni urushidan so'ng, rimliklar Karfagenning xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib borar edilar. Karfagenning yana o'z kuch-qudratini qayta tiklayotgani Rimni bezovta qildi. Kuchayib borayotgan Rimning savdo-sudxo'rlik doiralari Karfagenni bosib olishni talab qildilar. Numidiya davlati Rim homiyligi ostida Karfagen bilan doimiy to'qnashuvlarni keltirib chiqardi. Karfagen Numidiyaga qarshi urushga kirdi va bu urushda yengildi. Rimliklar Karfagenga mil. avv. 201-yildagi shartnoma shartlaridan birini buzganlikni bahona qilib, mil. avv. 149-yilda Karfagenga qarshi urush e'lon qildilar.

Uchinchi Puni urushlari (mil. avv. 149-146 -yy) boshlanishi bilan Rim Karfagenni qamal qildi. Mil. avv. 146 -yilda shaharga o't qo'yildi va uning 50 000 ming aholisi qullik uchun sotib yuborildi. Uning hududi Rim provinsiyasiga aylantirildi. Rimning Puni urushlaridagi g'alabasi unga O'rtayer dengizida hukmronlik o'rnatishi uchun imkoniyat yaratdi. Rimliklar o'shandan keyin sharqiy hududlarni ham egallay boshladilar. Taxminan mil. avv. 70 -yilda Rimning hududi sharqda Anatoliyadan g'arbda Ispaniyagacha bo'lgan maydongacha kengaydi.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi

Mil. avv. III-II asrlar Rimning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi. Patriarxal qulchilik tizimi bu davrga kelib klassik qulchilik darajasiga yetdi. Rim jamiyati bo'lsa, butunlay qulchilik xarakteriga ega bo'ldi. Mil. avv. IV-III asrlarda patriarxal qulchilikdan klassik qulchilikka o'tish Janubiy Italiyadagi yunon koloniyah shaharlari va Sitsiliyada sodir bo'ldi.

Italiyada klassik qulchilikning rasmiylashtirish umumjahonda tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, keyinchalik qulchilikning rim-italiya formasi butun O'rtayer dengizi xalqlariga tarqaladi. Ko'plab g'arb olimlari (U. Uesterman, M. Findi, K. Xopkins) qulchilikning rivojlangan formasiga o'tishning asosiy sababi sifatida rimliklarning muvaffaqiyatli urushlarini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra muvaffaqiyatli harbiy harakatlar Italiyaga qullarning oqib kelishiga va qulchilikni hayotning turli sohalariga kirib kelishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, Rim jamiyatidagi ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar ham sabab bo'lganligini unutmazlik kerak. Yerning bir kishi qo'lida to'planishi, xususiy mulkning keng tarqalishi, hunarmandchilik, savdo-pul munosabatlarining rivojlanishi, tovar xo'jaligining paydo bo'lishi arzon ishchi kuchlarni talab qilardi. Patriitsylar va plebetslar o'rtasidagi kurash natijasida plebeylar ham yer ulushiga ega bo'lib, iqtisodiy qaramlikdan qutilgan edi. Endilikda katta yer maydonlari yoki xususiy mulklarda faqatgina butun huquqlardan va mol-mulkdan mahrum bo'lgan qullardan ishchi kuchi sifatida foydalanish mumkin edi.

Klassik qulchilikning asosiy xususiyatlari shunda ediki, klassik qulchilik xo'jaligida ishlab chiqarish qo'shimcha qiymat hosil qilishga qaratilgan edi. Bunda faqatgina ortiqcha maxsulot ishlab chiqaribgina qolmay, balki uni tovar sifatida sotishga intilish kuchli edi. Ko'proq qo'shimcha mahsulotga ega bo'lishga intilish qullarni ekspluatatsiya qilishni kuchayishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ichki xo'jalikni murakkablashtirib, iqtisodiyotda tadbirkorlikning boshlanishi edi.

Jamiyatda qullarning soni ham o'sadi. Qullar Rim-Italiya jamiyatining ko'p sonli tabaqasiga aylanadi. Qulchilik, ayniqsa qishloq xo'jaligi, tog'-kon ishlari, metallurgiya va qurilishda keng tarqalgan edi.

Mil. avv. II-I asrlarda Italiyada qishloq xo'jalik qulchilik asosida rivojlandi. Ayniqsa, uzumchilik, zatun yetishtirish va bog'dorchilik yaxshi rivojlandi. Yunoniston, Kichik Osiyo va Afrikadan uzum, zaytun va mevali daraxtlarning yangi navlari olib kelindi. Daraxtlarga ishlov berish texnikasi mukammallashdi. Mehnat qurollarining turlari ko'paydi. Bu esa faqatgina hosilning ko'payishiga emas, balki Italiya vinosi, yog'-moy va mevalarning sifatini ham ortishiga sabab bo'ldi.

Sifatli bug'doy navlari ekilib, hosildorlik o'sdi. Yerlarga ishlov berish, o'g'itlash va boshqa agrotexnika qoidalariga rioya qilina

boshlandi. Chorvachilikda ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Chorvachilik va parrandachilik o'sha vaqtda eng daromadli sohalarga aylandi. Qishloq xo'jaligining o'sishini asosiy sabablari qulchilikni keng tadbqiq qilinishi, tovar ishlab chiqarish xo'jaligining tashkil qilinishi, kichik xo'jaliklardan voz kechib, katta ekin maydonlarida xo'jalik yuritish edi. Qishloq xo'jaligida bu davrda asosiy ishlab chiqaruvchi quldorlar xo'jaligi edi. Qullarni mehnat qilishga majburlash uchun nazoratchilar va boshliqlar tayinlandi. Shu bilan birga chin dildan ishlagan qullar taqdirlanib, katta payok, yaxshi kiyim va hattoki uncha katta bo'lmagan mulklar (masalan, ikki juft qo'y, uy-ro'zg'or buyumlari) in'om etilgan. Bu mulk pekuli deb atalib, xo'jayin xohlagan vaqtda uni olib qo'yishi mumkin edi.

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi o'z navbatida hunarmandchilik buyumlariga bo'lgan talabning ham ortishiga olib keladi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markazi bo'lgan shaharlar bilan qishloqlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash jarayonini kuchaytiradi.

Hunarmandchilik. Italiyada hunarmandchilikning gullab-yashnashi mil. avv. II-I asrlarga to'g'ri keladi. Rim va boshqa shaharlarda kichik ustaxonalar (ergastriyalar)da 10-20 hunarmand ishlar edi. Qul mehnatidan keng foydalanila boshlandi. Hunarmandchilikda ozod etilgan qullar mehnati ham sezilarli o'rinni egalladi. Hunarmandchilikning rivojlanishi metall, tosh, yog'och, jun, teri, shisha va qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Sardiniya va Ispaniyada temir qazib chiqarish keng yo'lga qo'yildi. Tog'-kon va metall eritishda yangi texnik o'zgarishlar amalga oshirildi. Shaxtalar 150 m gacha chuqurlikda ishlana boshlandi.

Rimga mustamlakalardan, jumladan, Yunonistondan marmar, Misrdan granit olib kelinadi. Shu bilan birga, Italiyaning o'zida Shimoliy Etruriyadan marmar qazib olina boshlandi. Arzon, qulay, mustahkam qurilish materiallariga ehtiyoj katta bo'lgan. Mil. avv. II asrda rimliklar bu talablarni qondiradigan qurilish xomashyosi sifatida betonni kashf qildilar. Rimliklar pishirilgan g'isht ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'ydilar.

Rimliklar fuqarolik va injener me'morchiligini rivojlantirib bordilar. Rim suv quvurlari, ko'priklari, termalari, amfiteatrlari, portlar, Rimdagi ko'p qavatli uylar me'morchilik va qurilishning eng yaxshi yutuqlari asosida bunyod etiladi.

Mazkur davrda O'rtayer dengizi savdosi gullab-yashnadi. Rim, Puteola, Sirakuza eng yirik savdo markazlari bo'lib qoldi. Kemasozlik, dengizchilik rivojlandi. 200 tonnagacha yuk ortiladigan savdo kemalari paydo bo'ldi. Dengiz savdosi bilan, hatto, savdo qilish man etilgan *nobillar* ham shug'ullana boshladilar. Ular qonunni chetlab o'tib, dengiz savdosida vositachilar va o'zlarining ozod etilgan qullaridan foydalandilar.

Quruqlikdagi savdo ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shahar va qishloqlar o'rtasida mahsulot almashuv maxsus qurilgan shahar bozorlarida, viloyatlararo yarmarkalarda amalga oshirildi. Viloyatlar o'rtasida aloqalarning mustahkamlanishi Italiyada puxta qurilgan qurilish san'atining noyob yutuqlari bo'lgan yo'llarning qurilishiga sabab bo'ldi. Yo'llar tosh to'shalgan mustahkam to'g'ri chiziqda bunyod qilinib, avval Italiyaning barcha viloyatlarini, keyinchalik provinsiyalarni qamrab oldi. Rim shahridan o'tadigan eng yirik yo'llar Italiyaning barcha viloyatlari va undan tashqari hududlargacha cho'zilib ketdi. Rim forumida oltin suvi yuritilgan ustun qo'yilib, undan Italiyaning bosh yo'llarini masofasini hisoblash boshlandi. Shu davrdan boshlab "barcha yo'llar Rimga olib boradi" aforizmi xalq orasida keng ishlatila boshlandi.

Rim respublikasining tashqi siyosati. Bo'lib o'tgan voqealar senat hokimiyatining samarali boshqaruvi yo'qligi, xalq kengashi ahamiyatining o'sishi va ichki siyosatning beqarorligi, siyosiy arboblarning o'sib borayotgan roli, ularning ochiqdan-ochiq demagogiyasi kurashning zo'ravonlik usullarini qo'llashga tayyorligi yaqqol ko'rindi.

Aka-uka Grakslar va ularning eng faol tarafdorlarining o'limidan so'ng, populyarlarning zaiflashuvi vaqtinchalik edi. Rim jamiyatidagi qarama-qarshiliklar bartaraf qilinmagan edi. Begona hududlarda urush harakatlari olib borayotgan Rim qo'shinlariga qo'mondonlik qilayotgan, nobillar homiylik qilgan qo'mondonlarning muvaffaqiyatsizliklari norozilikni kuchaytirdi.

Rimning ichki siyosatidagi beqarorlik tashqi siyosiy masalada hukmron doiralar e'tiborini vaqtinchalik susaytirdi. Mil. avv. II asrning so'nggi 10 yilligida Rimning xalqaro ahvoli yanada keskinlashadi. Yaqin Sharqdagi eng kuchli ellin davlati hisoblangan Misr bilan Rim ittifoq tuzadi. Qudratli bo'lgan Salavkiylar davlati yemirilish davriga kirib, Sharqda parfiyaliklar bosimiga qarshi tura

olmay qoldi. Kichik Osiyoda Aristonik qo'zg'oloni bostirilganidan so'ng, vaziyat osoyishta edi. Ammo bu vaqtda Afrikada Rim hukmronligiga Numidiya podsholigi jiddiy xavf tug'dirayotgan edi.

Jumladan, Afrikada Numidiya podshosi Yugurta bilan urush olib borayotgan Rim qo'shinlari birin-ketin mag'lubiyatga uchradilar. Podsho Yugurta rimlik sarkardalarni sotib oldi va harbiy hiylalar bilan rimliklarni bir necha bor tor-mor qildi. Numidiya shaharlarida shu vaqtda bo'lgan italiyalik savdogar va sudxo'rlar qirg'in qilindi. Yugurta o'z siyosatida rimliklarni o'ziga dushman deb bilgan turli Shimoliy Afrika qabilalarining qo'llab-quvvatlashiga tayandi. Mil. avv. 109-yilda Numidiyadagi Sutule yaqinidagi jangda Yugurta rimliklarni tor-mor qildi. Rimliklar Numidiya hududidan chiqib ketish va Yugurta bilan shartnoma tuzish majburiyatini oldilar. Sutule yonidagi g'alaba Yugurtaning Shimoliy Afrika qabilalari oldida harbiy-siyosiy mavqeini kuchaytirdi. Ko'p sonli gugul qabilalari, Mavritaniya podshosi Bokx Yugurtaga yordam va'da qildi. Rimning Shimoliy Afrika mulklarini yo'qotish xavfi yaqqol ko'rindi. Yugurta rimlik harbiy qo'shin boshliqlari, Rimdagi ayrim senatorlarni katta pora evaziga sotib oldi. Sotilgan poraxo'r harbiy boshliqlar nomigagina urush harakatlarini olib bordilar.

Rimda xalq yig'ini Yugurta bilan rimliklar uchun sharmandali "tinchlik" shartnomasini tasdiqlamadi. Numidiyaga qarshi yana urush boshlandi. Qo'shin tartibga solindi. Tezda asosiy Numidiya shaharlari bosib olindi. Yugurta sahroga chekinib, partizan urushiga o'tdi. Urush cho'zilib ketdi. Bundan norozi bo'lgan xalq yig'ini senatning irodasiga qarshi qo'shinga qo'mondonlik qilish uchun o'z sarkardasi, o'zining dovyurakligi va harbiy qobiliyati bilan obro'-e'tibor qozongan "yangi kishi", dehqonning o'g'li, plebey 48 yoshli Gay Mariyni qo'mondon qilib tayinladi. Gay Mariy mil. avv. 107-yilda konsulligidan so'ng, yaxshi qurollangan qo'shin bilan mil. avv. 105-yilda Yugurta urushini tugatdi. Yugurta asirga olinib, Rimda qatl qilindi. Numidiya qaram davlatga aylantirilib, uning rasman hukmdori qilib Yugurtaning aqli zaif ukasi tayinlandi. U nafaqat Yugurta urushini (mil. avv. 111-105-yillar) tugalladi, balki Rimni shimoldan kimvr va tevton german qabilalari hujumidan himoya qildi.

Shimoliy Afrikadagi voqealar bilan bir vaqtda Rimning shimoliy chegaralarida german qabilalaridan bo'lgan kimvr va tevton qabilalarining bosqini boshlandi. Kimvrlar va tevtonlar dastlab

Yutlandiya yarim orolida yashar edilar. Mil. avv. II asr oxirida bu qabilalar o'z joylaridan ko'chdilar. Tevtonlar g'arbg-Galliya, kimvrlar janubga tomon yurdilar. Jangovar kimvr qabilalarining (150 ming kishi atrofida) mil. avv. 113-yillar atrofida Janubiy Germaniyaga kirib, Alp dovonlariga kelib, Italiyaning shimoliy-sharqiy chegaralariga xavf soldilar. Konsul Papirey Karbon Noreya shahri yonida kuchli qo'shin bilan kimvrlar bilan uchrashdi, lekin shafqatsiz tor-mor qilindi. Italiyaga yo'l ochiq edi, lekin kimvrlar Alpdan shimolga o'tib, Galliya hududiga bostirib kirdilar. Galliyada ham rimliklar mil. avv. 109-yilda yana yengildilar. Kimvrlarning gelvetlar, Galliyaning o'zida ularga qarindosh bo'lgan tevtionlar bilan birlashuvi rimliklar uchun xavfli vaziyatni yana murakkablashtirdi. Mil. avv. 107-yilda konsul boshchiligidagi Rim qo'shini Akvitaniyada pistirmaga tushib to'la yo'q qilindi. Ammo rimliklar mil. avv. 105-yilda Janubiy Galliyada kimvrlardan eng dahshatli mag'lubiyatga uchradilar. Jang maydonida Kanna halokatidan ham ko'proq 80 mingga yaqin legionerlar jasad qoldi. Kimvrlar o'z g'alabalaridan keyin himoyasiz Italiyaga emas, Ispaniyaga yurish qildilar.

Rimda ichki siyosat va siyosiy kurashning keskinlashuvi. Mil. avv. I asrda Italiyada ittifoqchilar urushi bo'lib o'tdi. Rimning italiyalik ittifoqchilari rimliklar bilan birga, harbiy xizmatning barcha majburiyatlarini o'tab, bundan hech qanday yengillik, foyda olmadilar. Italiya aholisining turli toifalari Rim fuqaroligiga ega bo'lishga harakat qildilar. Dehqonlar yerga egalik qilish kafolatlariga muhtoj edilar. Yersiz dehqonlar va qo'shinda harbiy xizmat muddatini o'tagan veteranlar yer ulushi olish, shahar plebsi esa, turli xayr-ehson, oziq-ovqat mahulotlarini tekin olish ilinjida edilar.

Respublikaning I asrlarida Rim davlat hokimiyati ittifoqchilarning ma'lum qismiga Rimga ko'chib o'tib, uning fuqarolari bo'lish huquqini berdi. Vaqt o'tishi bilan bunday imkoniyatlar cheklandi. Rimda Italiya aholisiga past nazar bilan qarash an'anasi kuchaydi.

Italiyadagi vaziyat juda keskin edi. Yetarlicha siyosiy tajribaga ega bo'lgan nobillarning ba'zi bir vakillari faqat o'z vaqtida o'tkazilgan islohotlar norozilikning oldini olishi mumkin deb, hisoblar edilar. Bu islohotlarni o'tkazish tashabbusi bilan mil. avv. 91-yilda tribun qilib saylangan optimat Kichik Liviy Druz chiqdi. U Rim fuqarolari va italiyaliklarni keng qatlamlariga suyangan holda senat obro'yini mustahkamlash, shu bilan bir vaqtda kuchayib ketayotgan

suvoriylarni zaiflashtirish maqsadini ko'zladi. U quyidagi qonun loyihalarini taklif qildi:

1. Barcha italiyaliklarga fuqarolik huquqini berish;
2. Kampaniya va Sitsiliyadagi hali taqsimlanmagan jamoa yerlariga Rim fuqarolari koloniyalarini tashkil qilish;
3. Senatorlarning sud komissiyasiga provinsiya noiblari su'istemollari to'g'risidagi ishlarni berish, shu bilan birga, senatni 300 suvoriy bilan to'ldirish;

4. Eng kambag'al fuqarolarga arzon non sotishni ko'paytirish.

Birinchi qonun loyihasi eng ko'p qarshilikka uchradi. Ittifoqchilar to'g'risidagi masala muhokama qilinadigan xalq kengashidan bir kun oldin Liviy Druz o'ldirildi.

Liviy Druznig o'ldirilganligi, uning qonun loyihasini rad etilganligi haqidagi xabar Rimga qarshi ittifoqchilarning urushini keltirib chiqardi (mil. avv. 91-88-yillar). Rim bu urushga bor kuchini to'pladi. Eng yaxshi sarkardalar Gay Mariy, Lutsiy Korneliy Sulla, Litsiniy Krass va hatto, ozod etilgan qullar ham qo'shinga safarbar qilindi. Urush davomida rimliklar yon berishga majbur bo'ldilar. Rim fuqaroligini barcha italiyaliklarga va Rimga sodiq qolgan etrusk va umbrlarga berish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Keyin esa, ikki oy davomida qurolini topshiradigan qozg'olonchi ittifoqchilarga ham fuqarolik va'da qilindi. Faqat shundan keyingina qozg'olonchilar o'rtasida ajralish boshlandi. Urushni oxirigacha davom ettirmoqchi bo'lgan mars va boshqa qabilalarning shahar va qishloqlari kultepaga aylantirildi. Urush quyidagi natijalar bilan tugadi:

- Rim rasmiy jihatdan ham jamoa davlat sifatida yashashni to'xtatdi;

- Ittifoqchi jamoalar mahalliy o'z-o'zini boshqaruvini saqlab qolgan yagona davlat tarkibiga kirgan shahar-munisipiylarga aylandi;

- Munisipiylar ichki qurilishda Rim tartiblarini o'zlashtira oldilar. O'z-o'zini boshqaruvning bosh organi xalq yig'ini saylagan sobiq magistrantlar, 100 dekurionlardan saylangan senat (kuriya) edi. Senat a'zolari odatda boy shaharliklar, o'rta yer egalari-quldorlar edi;

- Italiyani Rim fuqaroligi bilan yagona davlatga birlashuvidan birinchi navbatda, boy italiyaliklar foyda ko'rdilar. Jumladan, dekurionlar toifasi shu vaqtdan boshlab hukmron sinfning iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchli guruhi sifatida o'rin egallay boshladi;

- Italiya iqtisodiyotida quldorlik munosabatlari jamoalararo doiradan chiqib, yanada jadal rivojlana boshladi;

- Asosan yersizlikdan azob chekkan Italiya dehqonlari veteranlar sifatida provinsiya yerlarini egallash imkoniga ega bo'ldilar. Provinciylarda italiyalik savdogarlar, sudxo'rlar, ijarachilar hamda hunarmandlar keng faoliyat ko'rsata boshladilar. Eng kambag'al italiyaliklar legionerlar va davlat yordamini oladigan Rim yo'qsillari safini to'ldirdilar;

Rim fuqarolari sonini 400 mingdan 200 mln gacha o'sishi ijtimoiy-toifaviy ziddiyatlarni tugatmadi, balki yanada kuchaytirdi. Ittifoqchilar urushida rimliklarning g'alabasi juda qimmatga tushdi. Italiya shahar va qishloqlari vayron qilindi. Juda ko'p qurbonliklar berildi. Iqtisodiy tushkunlik boshlanib, pul qadrsizlandi. Iqtisodiyotdagi tushkunlik Rim jamiyatida ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashuvi bilan birga bordi. Tashqi siyosatda bu vaqtda jiddiy muammolar tug'ildi. Rim respublikasini og'ir vaziyatidan foydalangan Pont podshosi Mitridat VI Evpator Rimning Osiyodagi provinsiylariga bostirib kirdi. Mil. avv. 88-yilda Rim chuqur ichki yo'qotishlar va qonli tashqi urushlar davriga kirdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Puni urushlarining boshlanishiga olib kelgan asosiy omillar nimalardan iborat?

2. Puni urushidan so'ng O'rtayer dengizi havzasidagi vaziyatga qanday ta'sir qilgan?

3. Rimdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat og'irlashuviga nimalar sabab bo'lgan?

4. Rim va Karfagenning O'rtayer dengizi havzasidagi hukmronlik qilish maqsadida olib borgan kurashi va uning oqibatlari.

5. Karfagen davlati vujudga kelishi va uning ilk rivoji.

6. Karfagen - Rim munosabatlari, Puni urushlarining qisqacha mohiyati.

7. Rim-Karfagen urushlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy oqibatlari.

Glossariy

Italiklar- Apenin yarimorolida istiqomat qilgan qadimiy qabilalar

Puni-Rimliklar karfagenni shu nom bilan ataganlar

Samnit-Rimning qadimgi aholisi, Janubiy Italiyada yashagan aholi.

Strateg- strategiyani yaxshi biladigan mohir lashkarboshi

Qarzdorlik qulligi- qarzni vaqtida qaytarmagan erkin fuqarolarning qullarga aylantirish jarayoni

Mavzu: Rim respublikasi inqirozi va Ilk imperiya davri

Reja:

1. Rim respublikasining tushkunligi.
2. Sulla diktaturasining o'rnatilishi. Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni.
3. Pompeyning Sharq Yurishlari. I triumvirat.
4. II triumvirat. Respublikaning qulashi.
5. Yuliy Sezar diktaturasi.
6. Ilk Rim imperiyasi. Oktavian Avgust hukmronligi.
7. Milodiy I asrda Rim imperiyasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Rim respublikasining tushkunligi. Rim respublikasi o'z hududini kengaytirib borgan sari boshqaruvning respublika shakli shuncha beqaror bo'lib boraverdi. Oxir-oqibatda respublika shakli o'z o'rnini Rimda diktatorlar tomonidan boshqariladigan qudratli imperiyalarga bo'shatib berdi.

Boyluk va Rim chegaralarining kengayishi ko'plab muammolarni keltirib chiqardi. Eng jiddiy norozilik jamiyatning quyi tabaqalari orasida o'sib bordi va harbiy buyurtmalarda ham pasayish boshlandi. Bu muammolar respublikani larzaga kelishiga va yangi siyosiy tuzumni vujudga kelishiga olib keldi.

Rim rivojlangani sari boylar va kambag'allar orasidagi farq yana ham kengayib bordi. Rimning ko'plab yirik yer egalari farovon sharoitlarda yashashardi. Turli xil urushlar davomida egallangan xalqlarga mansub bo'lgan minglab kishilar shunday sharoitlarda

ishlashga majbur bo'lganlar. Mil. avv. 100-yilga kelib qulga aylantirilgan fuqarolar Rim aholisining 1/3 qismini tashkil qilar edi.

Mayda dehqonlar qullar mehnatidan foydalanadigan katta imkoniyatga ega bo'lgan kishilar bilan raqobatlashishga majbur bo'lardilar. Ularning katta qismi o'z yerlarini boy yer egalariqa sotdilar va uysiz, ishsizga aylanadilar. Katta qismi qishloq joylarda qolganlar va mavsumiy ishchilar sifatida ishlay boshladilar. Ba'zilari Rimga va boshqa shaharlarga ish qidirib ketadi. Ular Rim jamiyatining to'rtidan bir qismini tashkil qiladigan shahar kambag'allari toifasiga qo'shiladilar.

Ikki aka-ukalar Tiberiy va Gay Grakxlar Rim kambag'allariga yordam berish uchun harakat qildilar.

Qullarning dahshatli harakatlari va Ispaniyadagi harbiy muvaffaqiyatsizliklar Rim davlatining kuchsizlanganini ko'rsatdi. Nobiletetning nazoratsiz yakka hukmronligi erkin aholining katta qatlamini tashkil qilgan mayda yer egalariining xonavayron bo'lishi jamiyatda o'tkir norozilik kayfiyatini vujudga keltirib, davlat tuzumi va boshqaruvini sog'lomlashtirish, jamiyatdagi birlikni mustahkamlash, tashqi siyosatni kuchaytirish borasidagi islohatlar o'tkazishni talab qildi.

Dastlab xalq tribuni Tiberiy Simproniy Grakx tamonidan mil. avv. 133-yili qonun loyihasi tayyorlandi. Tiberiy Simproniy Grakx (mil. avv. 162-133 -yy) Rimning taniqli urug' nobilitetlaridan biri edi. Tiberiyning fikricha radikal islohatlar o'tkazish zarur bo'lib, ular Rim hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi tura oladigan jamiyatning-tayanch kuchini yaratishdan iborat edi. Tiberiyning bu intilishlari Rim nobilitetlari – mil. avv. 133-yilgacha konsul bo'lgan Appiy Klavdiy, Mutsiy Sevola, Lutsiniy Krasslar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Tiberiyning qarashlariga ko'ra, Rim hukmdorligining qulashini asosiy sababi mayda yer egalariining qashshoqlashuvi bo'lgan. Tiberiy bu jarayonni to'xtatish uchun agrar islohot o'tkazishni zarur deb topdi. Bundan oldin ham agrar islohot haqida bir qancha g'oyalar mavjud bo'lgan. Masalan, mil. avv. II asr o'rtalarida Mark Porsiy Katon agrar islohot o'tkazish taklifi bilan chiqqan edi. Mil. avv. 141-yilda Gay Liliy ma'suliyatli qonun loyihasini tayyorlagan ham edi. Ammo o'shanda agrar islohatga qarshi yirik yer egalari va quldorlardan iborat qarshilik kuchlari vujudga kelib, ularning ta'siri ostida Liliy yer islohati haqidagi

taklifini xalq yig'ilishiga kiritma olmadi. Bu harakati uchun nobilitet o'rtasida "Dono" degan laqabga sazovor bo'ldi.

Mil. avv. 134-yil dekabrda Tiberiy xalq tribuni vazifasini bajaruvchi lavozimiga ko'tarildi. Tez orada u agrar islohot haqidagi qonun loyihasini xalq muhokamasiga qo'ydi. Qonun loyihasida yer egaligining miqdorini cheklash, davlatdan fuqarolarning yerlarini ijaraga olish tizimini yo'lga qo'yishni belgilar edi. Ijaraga yer olish normasi shudgor qilinadigan 500 yugerni olish, agar dehqonning voyaga yetgan o'g'illari bo'lsa ular uchun ham 250 yugerdan ijaraga olish mumkin bo'ladigan bo'ldi. Bir oila 1000 yugerdan ko'p yer bilan shug'ullanishi mumkin emas edi. Agar yer qo'yilgan normadan ko'payib ketsa davlatga qaytarilishi nazarda tutildi. Tortib olingan yerlardan davlatning yangi yer fondlari shakllantirilib, ular ham o'z navbatida 30 yugerdan kichik uchastkalarga bo'linib, yersiz va kam yerli fuqarolarga bo'lib beriladi. Ushbu yer uchastkalarini olgan Rim fuqarolari uncha katta bo'lmagan davlat solig'ini to'lashi kerak bo'lgan, ushbu yerni sotish va birovga hadya qilish huquqiga ega bo'lmagan. Bu islohot yer uchastkalarini sotish va mayda yer egaligiga bo'linib ketishiga qarshi qaratilgan edi. Muhokamadan keyin qonun loyihasi xalq ovozigacha qo'yilishi kerak edi. Ammo yirik yer egasi, xalq tribunlaridan biri Mark Oktaviy o'zining veto huquqidan foydalanib, qonun loyihasiga qarshi chiqdi. Shunda Tiberiy Grakx o'z fikrini himoya qilib, xalq tribuni xalq manfaatlariga qarshi chiqishi mumkinmi dedi. Keyin Mark Oktaviy xalq muhokamasiga qo'yilib, u o'z lavozimidan ozod qilindi. Shundan keyin agrar islohot haqidagi qonun xalq yig'ilishida qabul qilindi. Bu qonunni amalga oshirish uchun uch kishidan iborat bo'lgan komissiya tuzildi. Komissiya tarkibi Tiberiy Grakx, uning ukasi Gay Grakx, Tiberiy Appiy Klavdiydan iborat bo'ldi. Ammo islohatlarning keyingi bosqichi katta qiyinchiliklarga uchradi. Chunki, qonunni hayotga tatbiq etish senatning ma'lum huquqlarini cheklar edi. Shundan keyin islohatlarga qarshi kuchli oppozitsiya vujudga keldi. Mil. avv. 132-yilda Tiberiy Grakx va uning yuzlab tarafdorlari o'ldirildi.

Yangi demokratik harakat va agrar islohot faoliyati Tiberiy Grakxning kichik ukasi Gay Grakx (mil. avv. 153-121-yy) nomi bilan bog'liq. O'z oldiga agrar islohot masalasini tugatish, Tiberiyning qotillarini jazolash vazifasini qo'yan. Gay Grakx Rim oligarxlari hokimiyatiga zarba berishga harakat boshladi. Chunki, Rim nobiliteti

va senatorlar demokratik harakatning asosiy qarshilari bo'ldilar. O'z dasturini amalga oshirish uchun Gay Grakx o'z atrofiga rimning turli aholi qatlamlarini jamladi. Gay Grakx yersizlarga yer ajratib berish masalasini davom qildirdi. U agrar komissiyaning ishini qayta tikladi va ularga sudlov huquqini berdi. Gay tribunligi davrida Italiyada bir qancha koloniyalarga asos solindi. Gay tushunardiki, faqat qishloq plebeylarining qo'llab-quvvatlashlari kamlik qilardi. U o'z tomoniga shahar aholisini ham og'dirishi kerak edi. Gay davlat xazinasidan juda past narxlarda yer uchastkalarini Rimning shahar aholisiga sota boshladi. Chunki u Rim aholisining qashshoq qatlamini yer bilan ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan edi. Aholi manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan yana bir islohot Osiyodagi provinsiyalardan soliq yig'ishga qaratilgan edi. Gay Grakxning yechimlariga ko'ra Osiyodagi aholidan hosiining 10/1 qismi hajmida soliq undirilgan. Qisqacha aytganda, Gay Grakx islohatlari ko'plab ijobiy xususiyatlarga ega bo'ldi. Ammo, bu islohatlar ham katta qarshilikka uchrab, o'z nihoyasiga yetmay qoldi. mil. avv. 121-yilda Gay Grakx ham o'ldirildi.

Sulla diktaturasining o'rnatilishi.

Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni. Mil. avv. 80-yil boshlarida Italiyada ittifoqchilik urushlari tugaganidan keyin ichki siyosiy beqarorlik holati mavjud bo'lib turli guruhlar o'rtasida ijtimoiy ziddiyatlar saqlanib qolgan edi. Buning sababi Rim fuqaroligiga yangi kishilarning qabul qilinganligi, xususan, italiklarga fuqarolik huquqlari taqdim qilinganligida edi. O'zining imtiyozlari va huquqlaridan xavfsiragan senat oligarxiyasi yangi fuqarolarni Xalq yig'inida siyosiy faolligini cheklashga intilgan. Ijtimoiy kurashlar, ayniqsa, mil. avv. 88 yilda xalq tribunligigiga saylangan Sulsipiy Rufning siyosiy faoliyati davrida avjiga chiqadi. U senat oligarxiyasiga zarba beradigan bir qancha qonun loyihalarini ilgari suradi. Bu esa senatda unga qarshi guruhning shakllanishiga olib keladi. Shu bilan bir vaqtda Pont podshosi Mitridat VI Sharqda Rimga qarshi urush boshlaydi. Mitridatga qarshi urushda qo'shinga qo'mondonlik qilish uchun ikki sarkardaning nomzodi ilgari suriladi. Bu nomzodlar senat tarafidan Korneliy Sulla xalq yig'inidan esa Gay Mariy edi. Xalq yig'ini Sullani chetlatib, Sharqqa Yurishga Gay Mariyni qo'mondon etib tayinladi. Biroq, sarkarda Sulla Rimga yurish

qiladi va jang bilan shaharni egallaydi. Rim birinchi bor rimlik qo'shinlar tomonidan jang bilan egallandi.

Sulla Rimda hokimiyatni egallaganidan so'ng, avvalo, Sulsipiy va uning tarafdorlari yo'q qilishga kirishadi. Ular qamaladi, halok bo'ladi yoki qochib ketadi. Gay Mariy Afrikaga yashirinishga majbur bo'ldi. Sulla oligarxiya hokimiyatini mutahkamlash maqsadida bir qancha islohotlar o'tkazadi. O'zining tarafdorlaridan 300 yangi a'zoni senat tarkibiga kiritdi. Xalq yig'ini va xalq tribunlari huquqlarini keskin kamaytirdi. Tribunlarning qonun loyihalari, avvalo, senatda obdon ko'rib chiqilishi haqida qonun qabul qilindi. Shu bilan birga xalq tribunlarining faoliyati senat nazoratiga olindi.

Mil. avv. 87-yilda Sulla o'z qo'shini bilan Sharqqa yurish boshlaydi. Fursatdan foydalanib Rimda to'ntarish sodir bo'lib, hokimiyatni Gay Mariy vassinna egallaydilar. Ular hokimiyat tepasiga kelganlaridan so'ng eski tartiblarni qayta tiklab, Sulla tarafdorlaridan o'ch olishni boshlaydilar. Dastlab Sulla tomonidan qabul qilingan qonunlar bekor qilinib, siyosiy islohotlar o'tkaziladi. Xalq tribunlari hokimiyati qayta tiklanib Xalq yig'inidagi avvalgi saylov tartibiga qaytiladi. Tez orada Mariy vafot etadi, Sinna bo'lsa ketma-ket 3 marta konsullikka saylanadi. Sinnaning qonunlari Rimning keng aholi qatlamlari ehtiyojlarini qondiradi. Sulla armiya qo'mondonligidan mahrum qilinib, o'rniga boshqa voris jo'natiladi, bu orada esa Sulla qo'shinlari bilan Sharqda qator muvaffaqiyatlarga erishib, Mitridat VI qo'shinlarini tor-mor qildi. Sulla mil. avv. 83-yilda o'z qo'shini bilan Janubiy Italiyaga kelib tushdi. Sullaga qarshi hukumat qo'shin to'playdi va unga qarshi chiqadi. Bu bilan fuqarolar urushida yangi davr boshlanadi. Bu urushda Sullaning harbiy tajribasi, Metell Piy, Litsiniy Krass va Gney Pompey kabi mohir sarkardalarining mavjudligi unga qo'l kelib, g'alabaga erishadi.

Sulla hokimiyatni bosib olgach, o'z mavqeini huquqiy rasmiylashtirdi. U senatga murojaat qilib, davlatda tartib o'rnatish uchun bir kishini favqulodda vakolatlar bilan ta'minlash zarurligini aytdi. Senat Sullaga noma'lum vaqtgacha diktatorlik vakolatini berdi. Qonunga ko'ra, Sulla qonunlar chiqarish va boshqaruvni tashkil etish uchun cheklanmagan vakolatlarga ega bo'ldi. Ilgari diktatura muddati 6 oygacha cheklab qo'yilar edi. Sulla esa, noma'lum vaqtgacha diktator etib tayinlandi.

Sulla hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng eng avvalo raqiblaridan shafqatsiz o'ch oldi, tarafdorlarini esa saxiylik bilan taqdirladi. U proskripsiya - raqiblari va ularga xayrixohlik qiluvchilarni ro'yxatini tuzishni buyuradi. Ularning ko'pi o'limga hukm qilinib, mol-mulkleri musodara qilinadi. Farzandleri va nevaralari siyosiy huquqlardan mahrum qilinadi. Buni natijasida minglab odamlar halok bo'ladi.

Sullaning islohotchilik faoliyati davlatning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi. U polis tizimining oxirgi qoldiqlarini yo'q qilib, yagona Italiya davlatini tuzishga kirishadi. Sullaning islohotleri senat hokimiyatini kuchaytirib, xalq yig'ini vakolatlarini cheklash edi. Senat tarkibi diktatorning tarafdorleri hisobidan 300 tadan 600 tagacha oshiriladi. U shuningdek, bir qancha lavozimlarda ham o'zgartirishni amalga oshirib, o'z hokimiyatini mustahkamlaydi.

Lekin tez orada ko'pchilik uchun kutilmagan holda Sulla mil. avv. 79-yilda cheklanmagan hokimiyatdan voz kechadi, mil. avv. 78-yil 60 yoshida vafot etadi. Lekin uni vafotidan so'ng, Rim yana urushlar girdobida qoladi. Rimning turli provinsiyalarida o'zaro urushlar avj oladi.

Ispaniyada turli kuchlar o'rtasidagi kurash avj olgan bir vaqtda Rim respublikasida qadimgi dunyo tarixidagi eng yirik Spartak rahbarligidagi qullar qo'zg'oloni yuz beradi (mil. avv. 74-71-yy). Mil. avv. 74 -yilda Kapuya shahridagi gladiatorlar maktabida 200 ta gladiator qochib ketish uchun til biriktiradi. Lekin, ulardan 78 tasigina shahardan chiqib, Vezuviy tog'lariga yashirinishni uddalaydi. Rim hukumati dastlab Spartak qo'zg'oloniga kuchli e'tibor qaratmaydi. Mil. avv. 73-yil qishiga kelib gladiatorlar safi yangi qochoqlar hisobiga 10 ming kishiga yetadi. Spartak jangchilari Kampaniya shaharlari va villalariga xujumlar uyushtirib mahalliy yer egalari qo'rquv soladi. Qo'zg'olonchilarning muvaffaqiyatlari rimliklarning ularga qarshi 3 ming kishilik qo'shin jo'natishiga majbur qiladi. Rimliklar Spartak qo'shinlarini Vezuviy tog'laridan siqib chiqarib, ularni qamal qiladi. Biroq, Spartak tol novdalaridan to'qilgan pillapoyalar yordamida tog'ni oshib o'tib, rim qo'shinini tor-mor qiladi. Mil. avv. 73- yil qishiga kelib, Spartak qo'shinining soni 70 ming kishiga yetadi. Unga qarshi Rimning har ikkala konsuli boshchiligidagi qo'shin jo'natiladi. Spartak bir necha bor rimliklar ustidan g'alaba qildi. Ayniqsa, Mutina shahri yaqinida Shimoliy

Italiya noibi ikki legion bilan Spartak qo'shiniga qarshi chiqadi, lekin u to'liq mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng qo'zg'olon butun mamlakatni qamrab oladi. Bu holat esa Rimni og'ir ahvolga solib qo'yadi.

Mil. avv. 72-yilda rimliklar qiyinchilik bilan 6 ta legion to'plashga erishadilar. Unga omon qolgan 2 ta legion ham qo'shilib, qo'shinga pretor boy quldor Mark Litsiniy Krass qo'mondonlik qiladi. U tez orada qo'shinda qat'iy intizom o'rnatadi. Spartak qo'shinlarida bo'lsa, erishilgan g'alabalardan ba'zi yo'l boshchilarning orasida ixtiloflar boshlanadi. Krass Spartak bilan ochiq jangga kirmasdan uni izma-iz ta'qib qiladi. Spartak Rimni chetlab o'tib, Italiyaning janubiga yurish qildi. Taxminlarga ko'ra, Spartak Sitsiliyaga o'tishga harakat qilgan. Spartakning Sitsiliyaga o'tishida kemalar bilan ta'minlashga va'da bergan dengiz qaroqchilari uni aldaydilar. Qullar qo'shini Bruttia viloyatida qamalib qoldi. Krass bu yerda 52, 5 km uzunlikdagi xandak qazishga buyruq berdi. Spartak qo'shinlari rimliklarning bu to'siqlarini buzib o'tib, Burundiziya qarab harakat qildilar. Senat qo'zg'olonni tezroq bostirish uchun Ispaniyadan Pompey va Makedoniyadan Mark Lukull boshchiligidagi qo'shnlarni chaqiradi. Bu orada Spartak qo'shinlaridan bir necha qismlar ajralib, kuchlari zaiflashadi. Krass qullar qo'shinini taqib ostiga olib, ularning orqasidan izma-iz bordi. Burundiziya yaqinida Krass va Spartak qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Jang juda shafqatsiz bo'lib, rimliklar g'alaba qildilar. Spartak va minglab qullar bu jangda qahramonlarcha halok bo'ldi. Uning o'limidan so'ng qo'shinlari bir necha qismga bo'linib ketadi. Krass va Pompey qo'zg'olonning so'nggi o'choqlarini ham bostirishga erishadilar.

Pompeyning Sharq yurishlari. I-triumvirat. Respublikaning ichidagi sarosimalarga qo'shimcha ravishda sodiq harbiy kuchlarning ham orasida ixtiloflar boshlandi. Respublika qanchalik beqaror bo'lgani sari, lashkarboshilar shunchalik hukmronlikni egallashga harakat qila boshladilar. Ular yersiz kambag'allarni ularga yer va'da qilib, xizmatga jalb qila boshladilar. Ular pul uchun urushardilar va faqat o'zlarining boshliqlarigagina bo'ysunar edilar, xolos. Shuningdek, respublikaga sodiq bo'lgan fuqaro-askarlarni ham almashtirdilar. O'zining shaxsiy armiyasiga ega bo'lgan lashkarboshilar endilikda hokimiyat uchun kurasha boshladilar. Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni bilan bir vaqtda Mitridat VI

bilan (mil. avv. 74-64-yy) yangi urush boshlandi. Dastlab, Rim qo'shinlariga tajribali sarkarda Lukull boshchilik qilib, bir qancha yutuqlarga erishdi. Lekin, Mitridat VI ni yenga olmadi. Shundan so'ng qo'mondonlik Gney Pompeyga topshiriladi.

Gney Pompey Sulla davrida tanilib, fuqarolar urushi davrida Sullani qo'llagan edi. Keyin esa, senat uni Spartakka qarshi Krass qo'shiniga yordamga yubordi. Mil. avv. 70-yil Pompey va Krass konsul etib saylandi. Pompey qo'shinlari rag'batlantirildi. Pompey Rim uchun katta ziyon keltirayotgan dengiz qaroqchilarini tugatib, Rimda katta obro'ga ega bo'ldi.

G'ayratli sarkarda Pont podshosini tor-mor qilib, Armanistonni vassal davlatga aylantirdi. Pompey Bosfor podsholigida Mitridat VI ga qarshi qo'zg'olon uyushtirib, uning o'zini o'ldirishga majbur qildi hamda Suriya va Yahudiyani istilo qildi. Kichik Osiyoda Rim hokimiyatini qayta tikladi. Pompeyning Sharq yurishi sharqiy ellin mamlakatlarini (Misrdan tashqari) Rimga bo'ysundirishni tugalladi.

Mil. avv. 60- yilga kelib, Pompey Osiyodan g'alaba bilan qaytadi, biroq Senat tomonidan uning bir qancha so'rovlari javobsiz qoldiriladi. U o'zining fidoyi askarlariga yer-mulk olib berishga erisha olmaydi.

Bunga birinchi sabab Pompey yurishdan qaytayotganida qo'shinini tarqatib yuborganligi bo'lsa, ikkinchisi Krass bor kuchi bilan uning imkoniyatlarini cheklayotgan edi. Shunda Sezar ular bilan birgalikda ish olib borishga, agar o'zi konsul bo'lsa, ularning istaklarini amalga oshirishga va'da beradi. O'rtada tuzilgan ittifoq mil. avv. 58-yilga kelib Sezarning yolg'iz qizi Juliyaning Pompeyga turmushga chiqishi bilan yanada mustahkamlanadi.

Mil. avv. 60 -yilda Yuliy Sezar rimlik boy Krass va mashhur sarkarda Pompey bilan kuchlarini birlashtirdi.

Ularning yordami bilan Yuliy Sezar mil. avv. 59-yilda konsullikka saylandi. Bu uch kishidan iborat guruh keyingi o'n yillik mobaynida Rimni **triumvirat** sifatida boshqardi. O'sha davrdagi dushmanlari tomonidan esa "Uch boshli ajdar" deb ataldi.

Sezar kuchli lashkarboshi va dono harbiy strateg edi. An'analarga amal qilgan holda u faqat bir yil konsullikda turdi. U o'zini Galliya (hozirgi Fransiya) gubernatori etib sayladi. Mil. avv. 58-50- yillarda u o'zining armiyasini butun Galliyani bosib olish uchun og'ir kurashga boshladi. Sezardan oldin ham bir qancha sarkardalar gallarni

qarshiligini sindirishga uringanlar, ammo, har safar ham buni uddasidan chiqilmagan. Sezar gallar qo'zg'olonlarini bartaraf eta oladi. Nafaqat bartaraf etadi, balki o'zi ham yangi hududlarni bosib olishni boshlaydi. U to'liq og'ir kechgan urushlarda erkakcha mardlik va mas'uliyat bilan dushmanlarni yengadi.

Galliya istilosi natijalari ulkan edi. Sezar 300 qabilani bo'ysundirdi. 800 shahar qamal qilib olindi. 1 mln. kishi asir olindi. Rimliklar qo'liga ulkan miqdorda o'lja tushdi: Rimda oltin qadoqlab sotildi va uning bahosi juda pastga tushib ketdi. Bularni hammasi Rimda Sezarning obro'-e'tiborini oshirib yubordi.

Sezarning Galliyadagi g'alabalari haqidagi xabar uni rimdagi eng e'tiborli kishiga aylantirdi. Sezarning g'alabalaridan cho'chigan Pompey uning siyosiy raqibiga aylandi. Mil. avv. 50-yilda Pompeyning urinishlari bilan senat Sezar o'z legionlarini tarqatib yuborib, vataniga qaytishi haqidagi qarorini chiqaradi.

Sezar senat irodasiga qarshi chiqdi. Mil. avv. 49-yil 10-yanvar tunida u o'z armiyasini olib, Italiyadagi Rubikon daryosini kechib o'tadi.

Qonunga ko'ra, bu daryodan o'tgan har qanday qurollangan qo'shin Rimning dushmani deb hisoblanar edi. Aytishlaricha, daryodan o'tish oldidan Sezar uzoq o'ylanib turib, "qur'a tashlandi" deb xitob qiladi va qo'shinga daryodan o'tishga buyruq beradi. Shimoliy Italiyaning shaharlari Sezar qo'shinlariga deyarli qarshilik ko'rsatmaydi.

U o'z armiyasi bilan shiddatli ravishda Rimga qarab yuradi, natijada Pompey qochib ketadi. Sezar armiyasi Pompeyning Yunoniston, Osiyo, Ispaniya va Misrdagi armiyasini yengadi. Mil. avv. 46-yilda Sezar Rimga qaytadi. Shu yili senat uni diktator etib sayladi.

Sezar 3 marta Pompey bilan muzokaralar olib borishga urindi. Lekin Pompey 17-martda o'ziga sodiq qo'shin va tarafdorlari to'planayotgan Yunonistonga jo'nab ketdi. Nozik diplomat Sezar ikki oy davomida hech qanday qon to'kmasdan butun Italiyani egalladi. U Rimga kirib, 5000 funt tilla va kumushdan iborat davlat xazinasini egallab oldi. Sezar Rimda ko'p turmay, Pompeyga sodiq yetti legion mavjud bo'lgan Ispaniyaga yurish qildi. Ispaniyada g'alaba qilib, Sezar Bolqon yarim oroliga o'tmoqchi edi. Ispaniyadagi Ilerda shaharchasi yonida Sezar dushman qo'shinlarini 2-avgust kuni tor-

mor qiladi. Shundan so'ng, ikki ispan provinsiyasi Sezar tomoniga o'tdi. Hal qiluvchi jang mil. avv. 48-yilda Yunonistondagi Farsal shahri yonida bo'lib o'tdi. Pompey qo'shinlari yengildi. Pompeyning o'zi esa, Misrga qochib ketdi va u yerda xoinona o'ldirildi.

Pompey o'ldirilgach, Sezar Misrdagi fuqarolar ishiga aralashib, Misr malikasi Kleopatrani qo'llab-quvvatlaydi va hokimiyatni unga olib beradi. Sezar Kichik Osiyoda ham qonli urushlar olib boradi. Pont podsholigini yengib, uni o'z ta'siriga oladi. Afrikada olib borilgan urushlar ham Sezar foydasiga hal bo'lgan.

Shu davrda Pompeyning ikki o'g'li Ispaniyada Sezarga qarshi katta kuch to'plamoqda edi. Sezar Pompey o'g'illari ustiga qarshi qo'shin tortib, ularni tor-mor keltiradi. Bu jang mil. avv. 45-yil Ispaniyaning Mund degan joyida bo'ladi. Ulardan biri jangda halok bo'ladi, ikkinchisi Shimoliy Ispaniya tog'lariga qochib ketadi. Shu bilan Rimdagi fuqarolar urushi nihoyasiga etadi. Fuqarolar urushidan keyin Rimda Sezarning mavqei yanada kuchayib ketadi.

Mil. avv. 44-yilda u butun umrga diktatorlikka tayinlandi. Endi Rim konsullari va senatorlari uning buyruqlarini so'zsiz bajarishlari lozim edi. Sezar imperator bo'lib olgach, saltanatini mustahkamlash uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan. U birinchi navbatda Rim qo'shinlarini kuchaytirgan. Rimda birinchi marta oltin pul – dinorni zarb etgan. Tanga pullarga uning rasmi tushirilgan. U o'z nomidan Yuliy taqvimini ham joriy qilgan. Rimda respublika tuzumi bekor qilinib, Sezarning yakka hokimligi joriy qilingan. Senat uning yakka hokimligini tan olishga majbur bo'lgan va faxrli oltin taxt – kursida o'tirishga ijozat bergan.

Sezar islohotlari. Sezar davlatni katta kuch-qudratga ega mutloq hukmdor sifatida boshqardi. Bu harakat haqiqatan unga cheksiz hokimiyat berdi, garchi uning haqiqiy kuchi uning legionlariga bog'liq bo'lsa-da, Diktator Sullaga o'xshamagan holda Sezar mag'lub bo'lgan dushmanlariga qarshi hech qanday jazo choralari olib bormadi. Sobiq dushmanlari uning hokimiyatiga qarshi bo'lgan paytda, Pompeyning armiyasidagi lashkarboshilar Sezarning xizmati ostiga beriladi. Sezar Rim va uning provinsiyalarini tubdan o'zgartirib yuborgan islohotlarni amalga oshirdi. U viloyatlardagi ko'plab kishilarga Rim fuqaroligini berdi. Shuningdek, Italiya va boshqa viloyatlardan ittifoqchilarni qo'shish orqali senat safini kengaytirdi. Rim anchagina gavjum shahar edi va Sezarning birinchi harakatlari shaharning xarobalarini

yo'qotishdan iborat bo'ldi. U xarobalarni yo'qotib, yangi jamoat binolarini qamrab olgan qayta qurishni amalga oshirishni rejalashtiradi.

U yersiz kishilar mol-mulkka ega bo'lishi mumkin bo'lgan koloniyalarni ochishni boshlaydi va askarlar maoshini ko'paytiradi.

Umuman olganda Gay Yuliy Sezarning diktatorlik davri ancha murakkab davrlardan biri bo'lgandi. Bu davrda bir qator unga dushman bo'lganlar turli xil sotqinliklar va ig'volari orqali mamlakat ahvolini tang holatga solishga urinsalarda, Sezar o'zining qa'tiyati va shijoati orqali bu qiyinchiliklarni yengishga intilgan.

Rimda Sezarning boshqaruvdagi ahamiyati oshib borgani sari, unga qarshi norozilik harakati ko'tarildi. Ko'plab aslzodalar va senatorlar Sezarning oshib borayotgan kuch-qudratidan, muvaffaqiyatlari va mashhurligidan tashvishlana boshlashdi. Shunday vaziyatda Sezarni chetlashtirib hukumatni Senatga qaytarishni o'z ichiga olgan fitna tuzib chiqildi. Rim aslzodalari, senat a'zolariga Sezarning tanho hokimligi kerak emas edi. Ular Rimda boshqariladigan respublikani saqlab qolish tarafdorlari edilar. Fitnachilarning rejasiga ko'ra, Sezarning o'ldirilishi bilan hukumat avvalgiday respublikachilarga qaytib, Sezar o'zgartirgan tartib-qoidalar yana o'z holiga qaytar edi. Shuning uchun ular Sezarni o'ldirish payiga tushadilar. Ko'pchilik senatorlar Mark Brut va Gay Kassiy boshchiligida unga fitna tayyorladilar. Mil. avv. 44- yil mart oyida Sezar Sharqqa harbiy yurish uyushtirishdan oldin Yupiter bayrami kuni senat majlisiga borganda mil. avv. 44-yil 15-martida Senat binosida pichoqlab o'ldiriladi.

Gay Yuliy Sezarni ba'zilar yakkahokim sifatida bilsalar, ayrimlar uchun Sezar Rimning asoschisi hisoblanadi. Umuman olganda, Sezar Rim tarixida jasur va aqli shaxs sifatida qoldi.

Imperiyaning boshlanishi. Sezarning o'limidan so'ng qaytadan fuqarolar urushi boshlandi va Rim Respublikasi qoldirgan barcha narsalar vayron bo'ldi. Sezar vafotidan keyin uning dushmanlari Rimda va viloyatlarda respublikani qayta tiklash uchun kurash boshlaganlar. Rim aholisining ko'pchiligi fitnachilarni qo'llab-quvvatlamagan. Aksincha, ularning Rimdan ko'chib ketishini talab qilganlar. Rim senatida ikki oqim paydo bo'lgan. Biri Sitseron boshliq respublikachilar bo'lsa, ikkinchisi Sezarning sobiq yordamchisi Antoniy boshliq sezarchilar oqimi edi. Mil. avv. 50-40-yillarda bu ikki

oqim tarafdorlari o'rtasida qattiq kurash davom etgan. Bu esa mamlakatda fuqarolar urushining avj olishiga sabab bo'lgan.

Sezarning uchta tarafdori fitnachilarni yo'qotish uchun birlashishdi. Sezarning 18 yoshli jiyani va asrandi o'g'li Oktavian tajribali lashkarboshi Mark Antoniy va kuchli siyosatchi Lepid bilan birlashdi. Mil. avv. 43- yilda ular Rimni egallashdi va keyingi o'n yil davomida Ikkinchi tirumvirat sifatida boshqarishdi.

4. II triumvirat. Respublikaning qulashi. Ittifoqchilar respublikachilarga qarshi kurashib, Sezarning qotillariga berilgan avfni bekor qilganlar. Mil. avv. 40-yillar oxirida Italiyada respublikachilar va sezarchilar o'rtasidagi kurash kuchayib ketgan. Rim, Italiya va uning g'arbiy viloyatlarida hokimiyat sezarchilar qo'liga o'tgan bo'lsa, qolgan viloyatlarda respublikachilar ustunlikka ega edilar. Mamlakat esa fuqarolar urushi girdobiga tortilgan.

Pompeyning o'g'li Sekot Pompey esa Sitsiliya, Sardiniya va Korsika orollarini bosib olgan. Uning floti Italiya qirg'oqlaridagi shaharlarni qamal qilib, Rimga oziq-ovqat keltirilishiga to'sqinlik qilgan. Mil. avv. 42 -yilda Makedoniya, Yunoniston, Kichik Osiyo va Suriya yerlarini bosib olgan Brut va Kassiyar sharq tomondan Rimga jiddiy xavf solganlar. Umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun Oktavian Antoniy bilan yarashib oladi. Shu yili Oktavian va Antoniy qo'shinlari dushman ustiga bostirib borib, Filipp shahri yaqinida bo'lgan jangda ularni tor-mor qilganlar. Kassiy o'z chodirida o'ldirilgan. Brut esa dushmanlariga asir tushishni xohlamay, o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'lgan. Filipp shahri yonidagi jangda respublikachilar qo'shini tor-mor etilgach, Rim saltanatining yarlari uch qismga taqsimlangan.

Antoniy O'rtayer dengizining sharqiy sohillaridagi boy va madaniy o'lkalarni olgan. Galliya, Illiriya va Ispaniya Oktavianga topshirilgan. Emiliy Lepidga esa Shimoliy Afrika taqdim etilgan. Italiya uchalasining boshqaruvida bo'lsa ham, u yerda asosan Oktavian hukmronlik qilgan. Uchlar ittifoqi uzoqqa cho'zilmagan. Toj-taxt ularni bir-biriga qarshi qilib qo'ygan.

Antoniy O'rtayer dengizining sharqida katta bir davlat tuzishni ko'zda tutib, Parfiya va Midiya ustiga yurish qilgan. Ammo jiddiy g'alabaga erisha olmagan. U Misr malikasi Kleopatra bilan ittifoq tuzib, Rimga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rgan, hatto u Misr malikasi Kleopatraga uylangan. Antoniyning bu hatti-harakati

Oktavianga yoqmagan. Oktavian Kleopatra va Antoniylga qarshi urush e'lon qilgan.

Har ikki tomon urushga tayyorlanganlar. Antoniy o'z flotini Yunonistonning g'arbidagi Aksiya burni yoniga olib kelib, dengiz jangiga shay bo'lib turgan. Oktavian floti va qo'shinlari ham shu yerga yetib keladi. Mil. avv. 31 -yilda Aksiya burni yonida shiddatli dengiz jangi bo'lib o'tgan. Dengiz jangida Oktavian floti porloq g'alabaga erishgan. Kleopatra bilan Antoniyning floti va qo'shinlari Iskandariyaga chekinishga majbur bo'lgan.

Mil. avv. 31-30-yillarda Oktavian qo'shinlari qishni Italiyada o'tkazganlar. Mil. avv. 30-yili Rim qo'shinlari qarshilikka uchramay, Suriyani ishg'ol qilib, Falastinga bostirib kirganlar. Shundan keyin Rim qo'shinlari Misrga qarab yurganlar. Antoniy ularning bu harakatini qaytarmoqchi bo'lgan. Ammo rimliklar istehkomlarni yorib o'tib, Misrga intilganlar. Shu vaqtda kimdir Antoniylga: Kleopatra o'zini o'zi o'ldirdi, degan xabarni yetkazgan. Antoniy o'zini qilich tig'iga tashlab, og'ir jarohatlangan. Jarohatlangan Antoniy o'zini Kleopatra yoniga olib borishni buyurgan. Ammo malika o'lmagan edi. Bu yerda Antoniy o'lgan. Kleopatra Rimga zanjirband holda borishdan o'limni afzal ko'rib, o'zini o'zi o'ldirgan. Shundan keyin Misr ham Rim viloyatiga aylantirilgan. Shu bilan Rim saltanatidagi fuqarolar urushi ham nihoyasiga etgan. Shu vaqtdan boshlab Oktavian g'oyat katta Rim saltanatining tanho hukmdoriga aylandi.

Oktavian Misrni istilo qilgach, mil. avv. 29-yilda Rimga qaytib kelgan va zafar bayramini o'tkazgan. Mil. avv. 27-yilda senat yig'ilishida imperator unvonini olgan. Rim davlatida mil. avv. 27-yil Prinsipiat tartibini o'rnatgan vaqtdir. Prinseps – "birinchi kishi" demakdir. U mamlakatni viloyatlarga bo'lib, u yerlarga o'ziga sodiq bo'lgan kishilardan noiblar tayinlagan. Shuningdek, senatni saqlagan holda davlat ishlarini o'z qo'lida tutib turgan.

Oktavian Avgust ichki siyosatda davlatni qayta yangilash yo'lidan bordi hamda o'z siyosiy faoliyatini boshlanishida xalqning suverinitetini himoya qildi, lekin davlatda yagona monarx edi.

Avgust senatorlar tarkibini 600 taga kamaytiradi, natijada senat tarkibida 2 ta senatorlar tabaqasi qoldi. Senatorlarga mulki senzi qilib 1 million sester o'rnatildi va senatorlarning otasi yoki bobosi senator bo'lishi shart etib belgilandi. Qolgan fuqarolar mulki senziga ega bo'lsa ham boshqa tabaqadan bo'lganligi sabab, senatdan chiqarildi.

Oxirgi mulk senzi 4000 sesterga tushirilgan edi. Beboniklar va senatorlarning bolalari birinchi magistr darajasigacha ko'tarilgan.

Oktavian Rim va Italiya shaharlarining aholisiga ko'p homiyliklar qilgan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlardagi aslzoda kishilarga ham Rim fuqarolik huquqi berilgan. Oktavian Avgust mamlakat hayotining nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy- iqtisodiy jabhalarga ham alohida e'tibor qaratgan.

Oktavian davlati quldorlik saltanati edi. U o'z faoliyati davomida ko'proq quldorlar manfaatini ko'zlab ish yuritgan. Shuning uchun qullarni asoratda saqlash va ular ustidan nazorat o'rnatishni kuchaytirgan. U tasodifan qul qilingan kishilarni ozod qilishga senat qarorini chiqartirgan.

Oktavian Rim va Italiya shaharlarining aholisiga ko'p homiyliklar qilgan. Shu davrdan boshlab butun Apennin yarim oroli Italiya deb atala boshlagan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlaridagi aslzoda kishilarga ham Rim fuqaroligi huquqi berilgan. Oktavian davrida qurilish, diniy va madaniy ishlarga ham alohida e'tibor berilgan. Rimda 82 ta ibodatxona qurilgan va tiklangan. Oktavian o'zining tashqi siyosatida Rim saltanati va zamonasining aslzodalari manfaatlarini ko'zlab ish yuritgan. U Italiyaning shimoli-sharqiy tomonidagi Italiya va Dunay daryosining boshlarida yashovchi qabilalarni o'ziga itoat ettirgan. Bu davrda Rim saltanatining yarlari Ispaniyadan Suriya va Misrgacha bo'lgan maydonlarni egallagan. Ammo joylardagi qabilalar Rimga qarshi ko'p marta qo'zg'olonlar ko'tarishgan. Biroq, bu harakatlar qattiqqo'llik bilan bostirilgan. Oktavian qo'shinlari mil. avv. 36-yilda Sekst Pompeyning Sitsiliya, Sardiniya va Korsikadagi orol davlatini tor-mor keltirgan. Oktavian hukmronligining oxirlariga kelib, Rim davlati asta-sekin zaiflashadi. Shimoldan german qabilalarining hujumi boshlangan. Endilikda Rimning istilochilik urushlariga qurbi etmay qolgan. U o'zini-o'zi arang mudofaa qilib turgan.

Milodiy 14-yilda Oktavian Rim shahri yaqinidagi Nole shaharchasida vafot etgan. Imperator vafotidan so'ng saltanatdagi ahvol yanada og'irlashib ketgan. Koloniya va viloyatlarda katta-katta qo'zg'olonlar boshlangan. Imperatorlikda da'vogar kishilar ko'payib, ular o'rtasida qonli kurash boshlangan.

Milodiy I asrda Rim imperiyasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Rim imperiyasida milodiy I asr davomida ikki sulola hokimiyatni boshqardi. Tiberiyning vorisi Germanikning o'g'li 24 yoshli Gay Sezar Kaligula (37-41-yy) hokimiyatni egalladi. Kaligula badjahl, axloqan buzuq, o'ta mag'rur, takabbur shaxs edi. Dastlab u senat bilan kelishgan holda ichki va tashqi siyosatni olib bordi, soliqlarni kamaytirdi. Bir necha oy ichida u isrofchilik bilan Tiberiydan qolgan xazinani turli tomosha, mo'l-ko'l sovg'alar berish bilan talon-taroj qildi. Kaligula o'zini "Janob" (Dominis) va "Xudo" deb e'lon qilib, omma oldida Yupiter qiyofasidagi kiyimlarda chiqdi. Bu aqlsiz imperatorning hukmronligi uch yil davom etib 41-yil yanvar oyida pretor tribuni Kassiy Xerey boshchiligidagi fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

Pretor qismlari Kaligulaning 50 yoshli tog'asi Tiberiy Klavdiy Neronni (41-54-yy) imperator deb e'lon qildilar. Klavdiy senat bilan munosabatni yaxshiladi. O'zining senatdan mustaqil bo'lgan ma'muriyatini tuzdi. Uning ma'muriyati bir necha muassasalardan tashkil topib, ularni ozod qilingan qullar boshqardilar. Klavdiy davrida boshqaruvni markazlashuvi va imperatorning shaxsiy hokimiyatini kuchayishi kuzatildi. Klavdiy hokimiyati qo'shin, turli tekin tomosha va xayr-sadaqa beriladigan Rim plebsi hamda provinsiyalarning zodagonlariga tayandi. Tashqi siyosatda urushlar o'rniga diplomatik vositalar qo'llanila boshlandi, faqat 43-yilda Britaniyaga harbiy ekspeditsiya uyushtirildi. Klavdiyning ikkinchi xotini 33 yoshli Agrippina 54-yilda uni zaharlab o'ldirdi va o'zini 17 yoshli o'g'li Neron Klavdiy Sezarni (54-68-yillar) taxtga chiqardi.

Neron Yuliy Klavdiylar sulolasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lib, axloqan buzuq, shafqatsiz kishi edi. Hukmronligi davrida o'z onasi Agrippinani (62-yil), ukasi Britanikni (55-yil), xotini Oktaviani (62-yil), ikkinchi xotini Poppeya Sabinani (65-yil) o'ldirdi. Neron senat bilan murosas qilishni istamadi. Pulga muhtoj bo'lgani uchun juda ko'p senatorlarni, zodagonlarni qatl etib, ularning mol-mulkini o'zlashtirib oldi. Uning davrida imperator saroyi xarajatlari haddan tashqari oshib ketdi. Neronning o'zi musiqa va qo'shiqchilik bilan shug'ullanib, sahnada o'ynar edi, Yunonistonga borib, shoirlar ko'rigida qatnashadi. Rimda 64-yilda juda katta yong'in bo'lib, u bir hafta davom etdi va shaharning 14 kvartaldan 10 tasi to'la yonib ketdi. Yong'inidan keyin Palatin va Eskvilin tepaliklari

o'rtasida 270 ga. maydonga Neron uchun hashamatli "oltin" saroy qurildi. Xalq ommasi o'rtasida Rimdagi yong'inni asosiy sababchisi Neron deb mish-mish tarqaldi. Neron yong'in aybdori sifatida rimdagi nasroniylar jamoasini ommaviy qatl qildi.

Imperatorning shafqatsizligi, uning zo'ravonligi zodagonlarni keskin noroziligini keltirib chiqardi. Unga qarshi fitna uyushtirildi (65-yil). Fitna fosh etildi va fitnachilar shafqatsiz jazolandi. Ularning ichida faylasuf-sitoik Lutsiy Anney Seneka, uning jiyani shoir Mark Anney Lukan va yozuvchi Gay Petroniy Arbitrlar bor edi. Siyosiy vaziyat keskinlashdi, Parfiya bilan Armaniston uchun uzoq davom etgan urush (66-yil) Rimning mag'lubiyati bilan tugadi.

Neron oxirgi 2 yil hukmronligi davrida davlat boshqaruvidan umuman chetlashdi. Britaniyada urush davom etib, 66-yilda Yahudiyada qo'zg'olon boshlandi. Neron hukmronligiga qarshi ommaviy norozilik kuchaydi. Galliya, Germaniya va Ispaniyada unga qarshi 68-yil bahorida legionlar qo'zg'olon ko'tardilar. Taxt vorisligiga 70 yoshli zodagon Serviy Sulpitsiy Gafba nomzodi qo'yildi. Neronni hech kim himoya qilmadi, hatto pretorian qismlari ham Galba tomoniga o'tdi. Neron yashirinishga urindi, lekin yashirina olmadi. Dushmanlar qo'liga tushmaslik uchun u o'zini qilichga tashladi. Neronning o'limi bilan Yuliy-Klavdiylar sulolasi hukmronligi nihoyasiga etdi.

Rim imperiyasining navbatdagi hukmdori qisqa vaqt 68-69-yillarda sarkarda Galba bo'ldi. Taxtga Italiya provinsiya zodagonlaridan kelib chiqqan o'z legionlariga tayanib Tit Flaviy Vespasian chiqdi (69-79-yy). U lashkarboshi sifatida Yahudiya urushi davrida tanildi. Vespasian yangi Flaviylar sulolasini boshlab berdi. Bu sulolaga yana ikki imperator Vespasianning o'g'illari Tit va Domitsianlar ham kirgan.

Vespasian uzoqni ko'ra biladigan aqlli hukmdor sifatida imperiyani iqtisodiy va moliyaviy kuchini nisbatan tez va samarali tikladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun 40 mlrd sestersiy kerak edi. Imperator tejab-tergashga kirishib, xarajatlarni qisqartirdi va yangi soliqlarni joriy qildi. Hatto u dafn uchun va Rim jamoa xo'jatonalariga ham soliq soldi. Imperator Rim fuqaroligi huquqini mo'l-ko'l tarqatdi hamda senatorlar va suvoriylar toifasini provinsiya zodagonlari, boyib ketgan ozod qilingan qullar bilan to'ldirdi. Flaviylar davridan boshlab imperatorlar provinsiya zodagonlariga

bevosita tayana boshladilar. Vespasian 70 yoshida 79-yil iyunida vafot etadi. Uning o'g'li Tit 79-81-yillar taxtga chiqib 42 yoshga yetmasdan bezgak kasalligidan o'ladi. Tit davrida mashhur Vezuviy vulqoni otilib, Pompey va Gerkulanum shaharlari kul ostida qoldi (79-yil). Flaviylarning so'nggi vakili Domitsian (81-96-yy) bo'lib, o'zining mutlaq hokimiyatini o'rnatishga harakat qildi va 45 yoshida fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Rim respublikasini inqirozga olib kelgan asosiy omillar nimalardan iborat?

2. Rimdagi fuqarolar urushi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qanday ta'sir qilgan?

3. Rimda Sulla diktaturasi nima uchun o'z maqsdlariga erisha olmadi?

4. Yuliy Sezarning islohotlari nima uchun aslzodalar tomonidan yaxshi kutib olinmadi?

5. Imperiyaning o'rnatilishi Rimning keyingi taqdirida qanday rol o'ynadi?

Glossariy

Diktator – cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdor, “diktatura” – lotincha “cheklanmagan hokimiyat” tushunchasini anglatadi.

Konsul – Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.

Legion – Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.

Respublika – «umumiy ish» ma'nosini anglatadi, tuzum nomi.

Ovatsiya – gulduros olqishlar.

Triumf – Qadimgi rimda urushdan g'alaba bilan qaytgan lashkarboshini tantana bilan kutib olish marosimi.

Triumvirat – Qadimgi Rimda uch siyosiy arboblarning ittifoqi.

Mavzu: Rim imperiyasining oltin davri

Reja:

1. Trayan davri
2. Adrian davri
3. Severlar sulolasi
4. Ijtimoiy iqtisodiy hayot.

Trayan davri. Qadimgi davrda boqiy shahar nomi bilan mashhur bo'lgan Rim imperiyasi mil. avv. I asrlarda o'z ravnaqini yuqori cho'qqisiga erishadi. Bu davr qadimshunoslar tomonidan Rimning "Oltin davri" deb tavsif etiladi. Bu davrda jahon madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan boqiy shahar o'zining yorqin madaniyat cho'qqisiga erishdi. Xususan, ijtimoiy -iqtisodiy va madaniy hayot o'sha davr nuqtai nazaridan yuqori barqarorlikni namoyon etadi. Aholining turmush darajasi, etnik birliklar o'rtasidagi aloqalar yaxshi yo'lga qo'yildi.

Domitsian o'limidan keyin senat 66 yoshli senator Mark Koksey Nervani (96-98-yy) imperator etib sayladi. Uning hukmronligi bilan II asrdan Rim imperiyasida Antoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Bu sulolani eng taniqli vakillaridan biri Mark Ufpiy Trayan bo'ldi.

Trayan g'ayritabiiy va jasoratli sarkarda bo'lgan. U hukmronligi davrida ko'plab bosqinchilik yurishlarni olib borgan. Trayan 98-yilda hokimiyat tepasiga keladi. Uning otasi Vespasian va Titus qo'l ostida yahudiylarga qarshi urushda o'zini ko'rsatgan va xizmatlari evaziga Suriyada strateg etib tayinlangan edi.

Yangi imperator davrida Rimga Sharqiy Yevropa va Dunayning shimolini o'z ichiga olgan Dakiya hududlari ham kirgan. Avval boshida Dakiya mustaqil bo'lib, rimliklar bu yerlarni bosib olishni ko'zlar edi. Dakiya mustaqil qirollik bo'lib, uni Desebal boshqarayotgan bo'lsa-da, ular rimdan doimo qo'rqib turar edi. Shu sababdan, rimliklarga oltin va kumushdan iborat qimmatbaho hadyalar yuborib turishgan. Oxir-oqibat bularning barchasiga oddiy xato nuqta qo'ydi. So'nggi flavian imperatori Domitsian davrida Desebal Dunaydan o'tib, Rim hududlariga bostirib kiradi. Qisqa to'qnashuv vaqtida ikkita Rim komandiri o'ldiriladi. Rim buni sharmandalik deb qabul qildi va daklarga qarshi urush e'lon qiladi. Rim o'ch olish niyatida bu ishni tekshirib ko'rishni Trayanga topshiradi. 101 va 106-

yillar ichida Trayan daklarga qarshi ikki marotaba harbiy yurish uyushtiradi va bunda rimliklarning qo'li baland keladi. Ushbu harbiy yurishlar madaniy jihatdan rimliklardan orqada qolgan varvarlarni yo'q qilish uchun ham amalga oshirilgan edi. Hozirgi kunda qadimgi dakiya joylashgan hududlar Ruminiya davlati hududlariga to'g'ri keladi.

Faqat, rimliklar g'alabani bayramona tarzda dabdabali nishonlashni yaxshi ko'rgan. Daklar ustidan g'alabadan so'ng Trayan boyliklarni urush harakatlari bo'lgan hududlar aholisiga bo'lib bergan. Bundan tashqari g'alaba sharafiga bir qator imoratlar bunyod etilgan. Mana shunday imoratlardan biri bu Trayan ustunidir. Uning balandligi 30 metrni tashkil etib, (u hozirgi kungacha saqlanib qolgan) yigirma qavatli, Karraradan keltirilgan ulkan marmarlardan qurilgan. Ustunning sirtida daklar bilan bo'lgan to'qnashuvlar aks etgan 155 ta manzara keltirilgan.

Trayan ustunining e'tiborli jihati shundaki, ustunning har bir joyiga alohida e'tibor qaratilib, tasvir tushirilmagan birorta bo'sh joyning o'zi yo'q. Tasvirlarning ichida Trayanning askarlariga nutq so'zlayotgani, askarlarning urushdan oldin o'zini poklash maqsadida xudolarga yovvoyi cho'chqa, qo'y va ho'kizlarni qurbonlik qilayotgani aks etgan. Yana bir joyda harbiy kemalar, qo'rg'onlar, askarlarning dushmanlarga artilleriyadan olovli o'q otayotgani va daklarning tanasini chopayotgani kabi tasvirlar tushirilgan. Minoraning ichki tomonida minoraning eng tepasiga olib chiqadigan, doimo havo aylanib turadigan aylanma zinapoya mavjud. Shuningdek, ichki xonalarda dahmalar ham joylashgan.

Trayanning ulkan zafarli harbiy yurish olib borish maqsadi bo'lgan. U Aleksandrdek buyuk bo'lishni xohlagan va Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'ziniki qilishni xohlagan. Imperatorning orzusiga Parfiya davlati to'siq bo'lib turardi. Trayanga urush boshlash uchun yaxshi bahona topildi. Parfiya podshosi Armanistonga suqilib kirishi bilan Rim sharqiy frontlarini yanada kuchaytiradi. 114-yilda Trayan va uning armiyasi sharqqa yurishini boshladi. Armaniston podshosi tezda taslim bo'ldi va Rimning provinsiyasiga aylanadi. Shuningdek, shimoliy Mesopotamiya va uning o'rta hududlariga (hozirgi Eronning shimoliy qismi) harbiy yurish uyushtiradi. 116-yilda Trayan yangi hududlarni bosib olish va Rim ta'sirini yanada kuchaytirishga kirishdi. Shu yili Fors qo'ltig'ining g'arbiy sohillariga yetib bordi. Uning

Aleksandr yo'lini bosib o'tishi qiyin ish edi. Shuningdek, Trayan tezroq g'alaba urushini olib bormasa, uning obro'siga putur etishi mumkin edi. Lekin uning uzoq sharqqa yurish qilishi katta tavakkalchilik edi. Harbiy yurishlar davomida, 117-yilda Trayan kasal bo'lib qoladi va Italiyaga qaytishga majbur bo'ldi. Avgust oyigacha janubiy Turkiya sohillariga yetib keldi. Trayan falaj bo'lib qoldi va natijada vafot etadi. U vafotidan oldin Suriya konsuli bo'lgan Adrianni taxt vorisi etib tayinlaydi hamda xotini Platina va jiyani Matidiyaga ham rasmiy tarzda meros qoldiradi. Adrian Trayanning xotini va jiyaniga yaxshi munosabatda bo'lgan. Bndan tashqari u Matidiyaning singlisi Sabinaga uylanadi.

Adrian davri. Trayanning vorisi Adrianni armiya tan olib, unga sadoqatlarini namoyon qiladi. Biroq pragmatik kuchlar bunga qarshi chiqadi. Adrian ularning qarshiligini yengib o'tadi. Adrian taxtga o'tirgandan so'ng, tinch siyosat olib borgan. Urushlarga katta e'tibor qaratmagan. U hukmronligi davomida imperiya hududi bo'ylab sayohatda bo'lgan, ya'ni mamlakatdagi vaziyatni o'rganib, nazorat qilib turgan.

Trayan kabi Adrianning kelib chiqish nasabi ham g'ayritabiiy bo'lgan. U rimlik ham, italiyalik ham bo'lmagan. Ammo ildizlari shu yerga kelib taqalar edi. U Seviliya yaqinidagi janubiy Ispaniyada yashovchi boy italyan oilasidan chiqqan edi. Ularning ajdodlari mil. av 3-2 asrlarda Rim istilolari vaqtida kelgan Rim kolonistlari bo'lgan. Ular bu yerda barcha pullarini qishloq xo'jaligi va mahalliy kumush qazib olishga sarflaydi.

Boylarlari evaziga rim zodagonlariga aylanadi. Adrianning nutqida mahalliy lahja belgilari sezilib turar edi. Tabiiyki, imperator bu narsadan hijolat chekkan. Shuning uchun uning o'z notig'i bo'lgan. Trayan mashhur harbiy qahramon bo'lishi bilan birga, birinchi "ispan"lardan chiqqan imperator ham hisoblanadi. Xuddi Sezar, Avgust va o'zidan oldingi imperatorlar kabi jangovar salohiyat egasi hisoblanib, u soqolini olib va sochini kalta qilib yurgan. Adrianning esa sochi mayin va jingalak bo'lib, o'zidan oldingilarga qaraganda sochi oddiy stilda bo'lgan. Ba'zan bu narsa uning an'analarni yaxshi bilmasligidan, oddiy askar bo'lganligidan deyiladi, lekin bu haqiqat emas. Dakiyada u o'z mahoratini ko'rsatib, ikki marta jasorat ko'rsatadi. U askarlar va boshqa toifadagi insonlar bilan tezda chiqisha olgan. Aytishlaricha, u og'ir, o'zgaruvchan, qattiq qo'l

xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan, hammaga nisbatan teng, ochiq siyosat olib borgan. U imperator bo'lishiga qaramasdan jang harakatlari vaqtida oddiy pishloq va tuzlangan cho'chqa go'shti yegan, Yumshoq to'shakda yotmagan hamda o'tkir ta'sirga ega spirtli ichimliklarni kam ichgan.

Adrian she'r yozgan, fleyta va lira kabi musiqa asboblari chala olgan, ammo u hammasidan ko'ra geometriya va haykaltaroshlikni yoqtirgan. Yoshligida Adrian Afinada tahsil olgan va "kichik yunon" deb laqab oladi. U har bir narsaga, jumladan, arxitektorlarga jiddiy e'tibor qaratgan. Venus nomiga qurdirgan ibodatxona uning hukmronligi boshlanishining birinchi belgisi hisoblanadi. U hamma ishni reja asosida olib borgan. Zamonasining mashhur arxitektori Apollador chizmalarni ko'rib, ustunlarning nomutanosibligini tanqid qilib, ma'qullamaganda uni o'limga duchor qilgan. Tanqid uni maqsadidan qaytara olmagan. U ko'plab inshootlarni qurilishida homiylik qilgan. Rimda imperator Avgust davrida Panteon qurib bitkaziladi. Agrippa tomonidan qayta rekonstruksiya olib borilgan Panteneonga Adrian homiylik qiladi. Bu ibodatxona barcha xudolar ibodatxonasi hisoblangan, chunki Rimga kelgan boshqa xalqlar ham u yerda ibodat qilishar edi. Rim arxitekturasining o'sishi betonning ixtiro qilinishi bilan ham bog'liqdir. Adrian qurilishda noan'anaviy uslublarni qo'llashga ruxsat bergan. Vatikandagi muqaddas kitob saqlanadigan Avliyo Petr cherkoviga asos bo'lgan bino bunga yorqin misoldir. Bugungi kunda qadimgi Rim inshootlaridan to'la holda saqlangani bu Panteondir. Shunday ekan, Rim arxitekturasida Adrianning beqiyos o'rni borligini ko'rishimiz mumkin.

Shaxsiy hayotida Adrian qadimgi yunonlarga taqlid qilib yashagan. Ayniqsa bu narsa uning oilaviy hayotida katta o'rin tutgan. Hukmronligining yettinchi yilida Adrian xotini Sabina bilan Turkiyaga boradi. Sayohat davomida yosh va chiroyli Antoniyani uchratadi. Antoniya keyingi yetti yil davomida u bilan birga yashaydi. U doimo Adrian bilan birga bo'lgan. Antoniya o'ttiz yoshda bo'lishiga qaramasdan o'zining sevgisini Adrian bilan bo'lisha olgan. Aleksandr va Pompey qabrlariga birgalikda tashrif buyuradilar.

Haqiqatda, Adrian ellinistik ta'sirdagi yirik hukmdor bo'lgan. Rim madaniyatida yunon madaniyatining ta'siri sezilib turgan. Agar, Gomerning Illiada va Odisseyasi bo'lmaganda Virgiliyni Eneidasi yaratilmagan bo'lar edi. Stoiklar falsafa maktabi bo'lmaganda,

Kaysero va Senekening falsafiy ishlari ulardan ilhomlanmagan bo'lardi. Epikursiz (Adrianning sevimli falsafasichisi) Lukritsiy bo'lmagan bo'larmidi. Haqiqatda ham, Rimning yarim aholisi(sharqiy qismi) yunon tilida so'zlashgan, lotin tili ularning birinchi tili hisoblanmagan. Adrian Yunon-Rim imperiyasiga mos shaxs edi. Undan boshqa bu taxtga munosib shaxs yo'q edi. Uning ellinizmga qiziqishlari jiddiy bo'lgan.

Adrianning hukmronligi boshlanishi bilan bir qator o'zgarishlar sodir bo'ladi. Omadsizliklar Rimning bosqinchilik siyosatini obro'sizlantirgan edi. Yangi boshqaruvda Senat bilan hamjihatlik o'rnatildi. Birinchi darajali ish bosqinchilik emas, mavjud chegaralarni yanada kuchaytirish bo'lib qoldi. 121-yilda Adrian Italiyadan Reyn chegarasiga qarab yo'l oldi. Bundan ko'zlangan maqsad Germaniyada kuchsizlanib qolgan (sakkiz) legionlarni kuchaytirish edi. Shimoliy chegaraga yetib kelgandan so'ng, Adrian bir yil davomida bu yerdagi Rim qal'alari, muhofaza va kuzatuv joylarini kuchaytiradi. Shuningdek, Dunay chegarasidagi legionlar ham jangovar holatga keltiriladi. 122-yilda eng shimoliy hudud Britaniyada shu kabi ishlar amalga oshirildi. Qisqa vaqt ichida Nyukaslda daryoning dengizga quyiladigan joyida o'z nomi bilan ataladigan ko'priklarni bunyod etadi.

Adrianning uzoqni ko'zlab siyosat olib borishi hali-hanuz barchani ajablantiradi. U uzunligi 118 kilometr (70 mil) bo'lgan, Shimoliy dengizdan Irland dengizigacha bo'lgan hududda 10 yil davomida chegara devorini qurish bo'yicha farmon chiqaradi. Bu qurilishni nazorat qilishni yangi tayinlangan Rim Britaniyasi boshlig'i Aliya Platoriya Nepiy (Aulus Platorius Nepos)ga topshiradi. Devorning uchdan ikki qismi toshdan qurilgan, faqat oxirgi (eng sharqiy) uchinchi qismi chim va to'sinlardan bunyod etilgan edi. Devorni qalinligi uzunligiga mutanosib tarzda qurilgan. Toshdan qurilgan qismining qalinligi 3 metr (10 qadam), balandligi 4. 2 metr (14 qadam) ni tashkil etadi. Chim va to'sinlardan iborat qismini qalinligi 6 metr (20 qadam)dir. Devorning shimoliy qismiga taxminan 20 qadam uzunlikdagi joyda V shaklidagi kengligi 8 metr (26 qadam), chuqurligi 3 metr (10 qadam)lik xandaq bilan parallel bo'lgan. Devorning tepa qismidagi yo'laklar temir panjara bilan himoyalangan. Har bir rim milida (taxminan 1. 5 km)da mustahkam darvoza va kuzatuv qo'rg'oni bo'lgan, ya'ni yarim kilometr masofada kuzatuv

minoralari bo'lgan. Devor ta'miri bilan shug'ullanadigan xizmatchilar 16 ta qal'ada mavjud bo'lgan. Adrianning qurdirgan devori rimliklar va varvarlarni ajratib turgan. Devor madaniyatdan orqada qolgan varvarlarning hujumlaridan himoyalaniish maqsadida kuchli himoya vazifasini o'tagan. Adrianning ajdodi Trayan Dunay daryosida to'g'on qurib, keyin Dakiya hududlariga o'tish uchun ulkan ko'priq qurdirgan (U hatto sharqda Dajla va Frot o'rtasida floti kechib o'tishi uchun daryolar o'rtasida kanal qazdirmoqchi bo'lgan). Shuningdek, Yuliy Sezarning Reyn daryosi ustidagi ko'prigi, Trayan ustunidagi daklarning ularga xizmat qilayotgan manzaralari, Rim kuchini qanchalar ekanligini ko'rsatadigan siyosiy maqsadni nazarda tutar edi. Adrianning devor qurilishidan ham shunday maqsad nazarda tutilgan bo'lsa ajab emas. U yerdagi qal'alar harbiy kuchlari shimolga hujum boshlashning nuqtasi sifatida kuchli va agressiv holatga keltirilgan. Devor to'siq vazifasini emas, aksincha yo'l vazifasini bajargan, ya'ni aloqalarda muhim rol o'ynaydigan yo'llarni bog'lashda asos bo'lgan. Rimda boshqaruv va hokimiyat qay tarzda ketishi aynan shu aloqa liniyalariga bog'liq bo'lgan. Adrian devorning shimoliy qismidagi qal'alarda ko'plab namunaviy ishlar olib borgan. Devor qurilayotgan vaqtda, Rim armiyasi va mahalliy britanlar bilan tinchlik masalasida bitim tuzadi.

Devor Rimga bir yo'la hammasi ustidan nazorat qilish imkonini berdi. Rim xohlagancha o'z siyosatini olib borgan. Keyinchalik Rim iqtisodiy zaiflashgandan so'ng devor o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Adrian yigirma bir yillik boshqaruvida uning yarmidan kam bo'lmagan qismini imperiya bo'ylab sayohatda o'tkazgan. 121 va 125-yillar oralig'ida imperator o'z devori bo'ylab Britaniyadan janubiy Ispaniyaga, Shimoliy Afrika, Suriya, Qora dengiz va Kichik Osiyoga sayohat qiladi. 128-132 -yillarda uni Yunoniston, Falastin va Misrda ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Seviliya, Karfagen, Palmira, Trabzon va Efesda ham bo'ladi. U har doim rafiqasi Sabina bilan birga sayohat qilgan, shuningdek u bilan birga otliq do'stlari, yuklarni olib yuruvchilar, soqchilar, qullar va kotiblari bo'lib, ular mahalliy hukmdorning saroyida yoki mahalliy zodagonlarning qasrida to'xtashgan. Ba'zan yo'l bo'ylarida chodir tikib o'sha yerda tunashgan.

Agar, Adrianni oldingi imperatorlar bilan xususan, Neron bilan solishtirsak, Neron Italiyani bir marta tark etgan, (Yunonistonga

borish uchun) xolos. Ammo hamma ham Adrianni “yaxshi imperator” sifatida ko‘rilmagan. Ayniqsa, Rimdan uzoq hududlarda u loqayd xarakterli “yomon imperator” bo‘lgan.

Adrianning sayohatlarida, Afina-bilimlarning qadimiy markazi, uning sevimli joyi sifatida namoyon bo‘ladi va Adrian bu yerga uch marta tashrif buyurgan. Uning boshqaruvga oid hujjatlarning birida “deyarli har bir shaharda u bir qancha imorat qurgan va xalq o‘yinlari tashkil qilgan” deb ma’lumot beriladi. Adrian Afinani katta kutubxona bilan ta’minlaydi, yangi forum va shonli marmar darvoza qurdiradi. Shaharning qadimiy markazi rimcha ruh oladi. Ammo Adrian boshqa yo‘l bilan o‘chmas iz qoldirgan. Ya’ni, Rim xudosi Yupiter bilan teng darajada bo‘lgan, yunonlarning bosh xudosi Zevsga atalgan ibodatxona bunga yorqin misoldir. Ushbu ibodatxonaning qurilishi mil. av VI asrda, klassik bosqichning boshlanishida qurila boshlangan bo‘lsa, milodiy 132-yilda Adrian tomonidan qurilish nihoyasiga yetkaziladi.

Klassik ibodatxonalar, imoratlar, monumentlar imperatorni tamg‘asi ostida ochilgan va nomi tushirilgan (jumladan, hozirgi Turkiya hududi Simernadagi saroy, Ispaniyada oilasiga atab Italik shaharchasi). Adrian imperiya shaharlarini ta’minlab turgan, unga atab shaharlarda muqaddas joylar va byustlar o‘rnatiladi. Bunday yodgorliklar uylardan, ibodatxonalardan topilgan. Afinada Dionis teatrida Adrianning haykali bo‘lgan. Garchi bu joylar Adrian ko‘magida bo‘lmasa ham ilg‘or fuqarolar unga xudo sifatida sig‘inishgan. Bu yo‘l bilan sadoqatlarini namoyish qilmoqchi va imperatorni e’tiboriga tushib mavqelarini oshirib olmoqchi ham bo‘lishgan. Ammo bu narsa hamma joyda ham sodir bo‘lmaydi. Buni imperatorning rasmi tushirilgan tangalardan bilib olish mumkin.

Adrian devori imperiyaning shimoliy qismlarini ham qamrab olganidan so‘ng, umumiy tillar va Yunon-rim sivilizatsiyasi vujudga kela boshladi. Imperiya hududidagi rimliklar lotin va yunon tilida so‘zlashishgan bo‘lsalar, tashqaridagilar “varvar” tilida gaplashishgan. Shu bilan birga, koloniyalarda rimliklar hayotiga taqlid qilish kuchaygan.

Jumladan, Britaniyada Takitas qaynotasi Agrikola davridagi britan zodagonlarining “rimlashgan” o‘g‘illarini tasvirlaydi. Uning hukmronligi davrida britaniyaliklar rimliklarning tilini o‘rganadi, toga kiyish, hammomlar qabul qilish, dabdabali ziyofatlar uyushtirishlarni

o'rnatib qilib oladilar. Sharqda rimliklar madaniyatiga taqlid qilishni, "yunonlashish" deb tushunishgan. Sharqiy o'lkalardagi zodagonlar ta'lim tizimida, yunon falsafasi, notiqlik, alifbosi, san'atdagi yutuqlaridan keng foydalanganlar.

Imperator Adrian qobiliyatli hukmdor va Rim ommasini manfaatlarini yahshi tushunar edi. U qadimiy aristokratik o'yinlarga qiziqqan va ularni ommaviy shaklga o'zgartirgan. Masalan, uning hukmronligi davrida Rimda qonli o'yinlar o'tkazilgan. Jumladan 119-yilning yanvarida, uning tug'ilgan kunini rimliklar yuzlab sher va arslonlarni o'ldirib nishonlaganini guvohi bo'lishgan. Bunday hashamat davlatga qimmatga tushar edi.

Sher va yo'lbarslar Suriya va Rimning sharqiy qismlaridan, yovvoyi to'ng'izlar Germaniya va Galliyadan, buqalar Yunonistondan, kiyiklar Shimoliy Afrikadan keltirilgan. O'z vaqtida imperator Trayanning Misrdan keltirilgan timsohlari Kolizeyda maxsus suv havzalarida boqib kelingan, keyin ularni gladiatorlar bilan urishtirganlar. Adrian davrida bu kabi tomoshalar, Rim tarixidagi boshqa davrlarga qaraganda eng ko'p o'tkazilgan.

Garchand Adrian davrida rivojlanish kuzatilsada, ijtimoiy tengsizlik yuqori darajada bo'lgan. Qullar erkin fuqarolarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etishgan. Yana bir tengsizlik chizig'i bu boylik bo'lgan. Uning davrida davlatda dehqonlar manfaati emas, balki yirik mulkdorlarni muhofaza qilish birlamchi bo'lgan.

Imperiya uzoq muddat tinchlikda yashashi, bu hamma davrlarda ham xavf-xatar va tahlika bo'lmagan degani emas. Rimda qonunlar isloh qilingan va soliqlar tartibga solinadi. Qonunni buzganlarga quyidagi jazolar, masalan, kaltaklash, qiynoq, qatl, xochga tortish, quvg'in qilish qo'llanilgan.

Qadimgi Rim respublikasida ikki yuz yil oldin o'rnatilgan qattiq qo'l ijtimoiy ierarxiya, Adrianning oltin davrida ham hech qanday o'zgarishlarga uchramadi. Imperiyada aholining ko'pchilik qismi savodsizligicha qolgan edi. Boy zodagonlarning shaxsiy kutubxonalari bo'lgan. Kutubxonada matnlarni ko'chirish uchun ba'zida qullardan kotib sifatida foydalanilgan. Qullarning ba'zilar millionlab kambag'al rim fuqarolariga qaraganda bilimdon va qobiliyatli bo'lishgan. Kayseroning kotibi Tiro shunaqa insonlardan biri bo'lib, u Rim senatorining yaqin do'sti sifatida, uning xonadonida alohida hurmat qozongan va oxir-oqibat erkin shaxsga aylangan.

Adrian hukmdorligining so'nggi yillari ancha tashvishli o'tgan. Antinius bilan birga 130-yilda Misrda sayohat qilayotganida, Antinius Nil daryosida cho'kib ketadi. Bu "sirli qayiq voqeasi" deb nomlanadi. Adrian uning sharafiga Antinopolis shahriga asos soladi va uni ilohiylashtirishni e'lon qiladi. Antiniusga butun imperiyada xudo sifatida sig'inishadi. Adrianning sayohatlari 132-yilda o'z nihoyasiga yetadi. Keyinchalik u vaqtini Rimdan 25 kilometr (15 mil) uzoqlikda joylashgan Tivoli bog'li koshonasida o'tkazadi. U yerda Adrian borgan joylarning nihoyatda katta bo'lgan xaritasi bo'lgan. Adrian o'limdan keyingi hayot qanaqa bo'lishi haqida qiziqqan va jannat hamda do'zah tasvirlari tushirilgan joylar ham bo'lgan. Shuningdek, majmuada yunon teatri, ustunlar, hammomlar, shaxsiy kutubxona va baliqlar boqiladigan hovuz ham bo'lgan. Koshonaning maydoni 100 gektar (250 akr) bo'lib, unga Britaniyadagi devorning qurilishidan kam xarajat ketmagan.

Adrian 138-yilda vafot etadi. Undan keyingi hukmdor Antoniy davrida tinchlik va barqarorlik saqlanib qolgan bo'lsa-da, Mark Avreliy, ya'ni soqolli faylasuf imperator davrida germanlar Rimning tinchligiga xavf tug'dira boshlaydi. U tinchlik va hokimiyatini xavfsizligini ta'minlashi uchun varvarlarning shimoldan bo'ladigan hujumlariga qarshi harakat olib borishiga to'g'ri kelgan. Uning o'g'li Kommodiyus Rim yollanma soqchilaridan ko'ra ko'ngilli va gladiatorlarga ishonch bildirgan, buni birgina otasining germanlarni hujumlarini qaytarishda ko'rish mumkin.

Adrian davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. U prinseps kengashini qayta tashkil qildi, kengash tarkibiga oliy amaldorlar, muassasa rahbarlari va yirik yuristlar jalb qilindi. Adrian boshqaruvga suvoriylar toifasini ko'plab vakillarini taklif qildi. U davlat pochtasini joriy qildi, provinsiya boshqaruvini qayta tuzib, noiblar faoliyati ustidan doimiy nazorat o'rnatdi.

Antoniylar sulolasini taniqli vakillaridan biri tarixga taxtdagi faylasuf nomi bilan kirgan Mark Avreliy edi. Mark Avreliy uchun davlat manfaatlari hamma narsadan yuqori bo'lib, imperiya taqdiri uchun o'z ma'suliyatini to'la anglab etgan edi. U senator va suvoriy toifalar bilan ahillikda ish olib bordi. Senat tarkibiga ko'pgina provinsiya zodagonlarini, ayniqsa kelib chiqishi Sharqdan va Afrikadan bo'lgan nufuzli kishilarni kiritdi. Mark Avreliy (161-yildan

180-yilgacha) 19 yil hukmronlik qildi, unga qarshi shu yillar davomida birorta ham fitna uyushtirilmadi. U 180-yilda 59 yoshida Vindobona (Vena) shahrida vafot etadi. Rimda imperator sharafiga kolonna bunyod etildi. Uning merosxo'ri 18 yoshli o'g'li Kommod (180-193-yy) imperator bo'ldi. Antoniylar sulolasining so'nggi vakili Kommod qo'pol, shafqatsiz va maishatparast hukmdor edi. Otasining o'limidan keyin Kommod kvad va markomann qabilalari bilan urushni tugatib, 180- yilda Rimga qaytdi. Davlat boshqaruvini o'zining ochko'z yaqinlariga topshirib, kayf-safoga berildi. Xotinini qatl etib, buzuqchilik yo'liga kirdi. Katta jismoniy kuchga ega bo'lgan imperator o'zini rimlik Gerkules deb e'lon qildi, omma oldiga arslon terisiga yopinib yelkasida to'qmoq bilan paydo bo'lar edi. Amfiteatr sahnasida gladiator sifatida chiqdi. Oxir-oqibatda es-hushini yo'qotib kalendarning barcha oylarini o'z nomiga o'zgartirdi, hatto Rimning nomini o'zgartirib uni "Kommod" shahri deb atashga buyruq berdi.

Kommodga qarshi 183-yilda fitna uyushtirildi, lekin u amalga oshmadi, shundan so'ng senatorlar toifasiga qarshi taqib va qatllar avj oldi. Pannoniya va Britaniyada norozilik harakatlari, daklar va mavrlar qo'zg'olonlari qo'shin tomonidan zo'rg'a bostirildi. 192-yilning oxirgi kunida fitna natijasida Kommod o'ldirildi.

Boshqaruv tizimi va apparati imperator qo'lida to'plana boshladi. Senat o'z siyosiy mavqeini yo'qotishi bilan uning tarkibi ham o'zgardi. Respublika davrida yuqori mavqega ega bo'lgan zodagon oilalari fuqarolar urushi va proskripsiyalarning qurboni bo'ldilar. Qolganlari esa kambag'allashib qoldi. Prinsipatning birinchi yillarida ularning o'rnini suvoriylar, munitsipiylardan chiqqan boy-zodagonlar egalladilar. Klavdiy davrida senat tarkibiga gall qabilasi ekvlarning romanlashgan zodagonlari uchun yo'l ochildi. Vespasian davrida senatga munitsipiylar koloniyalari va provinsiyalardan yangi kishilar kiritildi. Milodning I asr so'nggiga kelib chiqishi gallardan bo'lgan kishilar kiritildi. Keyingi 100 yillik boshida senat tarkibida Kichik Osiyo va Afrikadan kelgan senatorlar, ko'pgina yunonlar ham uchraydi. Qadimgi Rim nobilitetining vakillari senatda deyarli qolmadi va ular bilan birga senatdagi muxolifat kayfiyati ham yo'qoldi.

Prinsepslar hokimiyatini yana bir tayanchi suvoriylar edi. Ularning ijtimoiy tarkibi ham o'zgardi. Yangi suvoriylarning kelib chiqishi Italiya munitsipiylari va provinsiyalardan edi. Suvoriylarning

bo'lishi, provinsiya qishloq xo'jaligida yerdan unumli foydalanish va tovar xo'jaligini kirib kelishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Quldor xo'jaligi endilikda bozor bilan bog'landi. Qishloq xo'jaligida tovar munosabatlarining rivojlanishi latifundiyalarda hunarmandchilikni vujudga keltirdi. Latifundiyalar egalari kulolchilik, to'quvchilik, duradgorlik, oshpazlik kabi hunarmandchilik ustaxonalarini ochdilar. Ba'zi gall latifundiyalarida shaxtalardan temir rudasi qazib olinib, metall ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Milodning I asrlarida qishloq xo'jaligi bilan birga hunarmandchilik va savdo keng rivojlandi. Rim hunarmandchiligi uchun Ispaniyadagi qo'rg'oshin va mis konlari, Galliyaning temir va qalay konlari, Norika, Dalmatsiya, Klikiya va Kappadokiyaning boy temir konlari xomashyoni yetkazib berib turar edi. Ayniqsa temir rudasini qazib chiqarilishi keng yo'lga qo'yildi.

Temir rudasi Norika va Dalmatsiya, Galliya va Ispaniya, Kappadokiya va sharqda qazib chiqarildi. Barcha konlar imperatorning mulklari bo'lib, ko'pincha ijaraga berilar edi. Hunarmandchilikning rivojlanishi qul mehnatidan keng foydalanish imkoniyatini berdi. Agar o'tgan asrlarda hunarmandchilik ustaxonalarida ishlagan qullar soni 10 tagacha bo'lsa, milodning II asrida ularning soni 50 taga etdi.

Hunarmandchilik ustaxonasining kengayishi, mehnat taqsimotining o'sishi uning ixtisoslashuviga olib keldi. Ammo hunarmandchilikda erkin mehnat yetakchi rol o'ynar edi. Tog'-kon ishlarida, qurilish, tosh konlari, marmar konlarida qul mehnatidan keng foydalanilar edi. Ustaxonalarda eng og'ir mehnat qullar zimmasida bo'lgan. Hunarmandchilik taraqqiyoti oshpazlik, g'isht quyish kabi yangi sohalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Qurilishda betondan foydalanish keng tarqaldi. Milodning II asrida provinsiyalarda hunarmandchilik ayniqsa yuksaldi. Bir qancha provinsiyalar o'z mahsulotlarini boshqa provinsiyalarga, shuningdek, Italiyaga eksport qila boshladilar. Ayniqsa gall shaharlari nihoyatda rivojlandi. Gall hunarmandlarining kanop gazlamalari, jun yoping'ichlar va kulolchilik mahsulotlari g'arbiy provinsiyalar va Italiyada keng tarqaldi. Suriya shaharlari esa zarbof gazlamalar, zargarlik buyumlari, rangli shisha va gazlamalarni ishlab chiqaradigan asosiy markazlarga aylandilar.

Milodning II asrida hunarmandchilik markazlari yarim oroldan Shimoliy Italiyaga ko'chdi. Puteola, Kapuya, Arretsiya kabi an'anaviy hunarmandchilik markazlari tushkunlikka uchradi. Ularning o'rniga gall Norika va Dalmatsiyaning temir konlariga yaqin Milan, Akvileya va boshqa hunarmandchilik markazlari vujudga keldi. Ayniqsa Akvileya shahri metall buyumlar va qurol-yarog', shisha, zargarlik buyumlari, cherepitsa ishlab chiqaradigan yirik hunarmandchilik markaziga aylandi.

Milodning I-II asrlarida barcha provinsiyalarda savdo aloqalari keng rivojlandi. Italiya savdogarlari Ispaniya, Suriya, Dakiya, Misr, Mavritaniya va Britaniyaga kirib bordilar. Gall kema egalari, savdogarlari Italiya, Reyn viloyatlari va ispan provinsiyalari bilan faol savdo qildilar. Palmira savdogarlari Dakiya va Misrga kirib bordilar. Shaharlarda ko'plab savdo do'konlari va omborxonalar qurila boshlandi.

Milodning II asrida Rimda ulkan besh qavatli Trayan bozori qurildi. Savdo-sotiqning rivojlanishi provinsiyani mahsulot ishlab chiqarishini ixtisoslashuviga olib keldi. Ispaniya zaytun moyi va vino, Galliya vino, shisha idishlari, jun mahsulotlari, Misr g'alla, papirus, granit, shisha buyumlari, Suriya vino, zarbof gazlamalar va zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

Savdogarlar, hunarmandlar kollegiyalarga birlashdilar. Savdo taraqqiyoti sarroflik va sudxo'rlikni rivojlanishiga turtki bo'ldi. Tashqi savdo rimliklar uchun foydali edi. Rim imperiyasi Qora dengiz hududlari, Sharqiy Yevropa, Eron, O'rta Osiyo va Hindiston bilan muntazam savdo aloqalarini o'rnatdi.

Milodning II asrida sharqdan 3 savdo yo'li O'rtayer dengizi qirg'oqlariga borar edi. Petra-Transiordaniya- Damashq, Frot, Palmira, Damashq, O'rtayer dengizi, Hindiston- Arabiston- Iskandariya, Afrika provinsiylaridan Rim savdogarlari Efiopiya, Mavritaniya va hatto Markaziy Afrikagacha kirib bordilar.

Imperiya davrida yangi tanga "aureus" zarb qilina boshlandi. O'ng tomonida hukmdor imperator tasviri tushirilgan edi. Rim tilla tangasi yuqori baholanar edi. Ko'p tarqalgan Rim tangalaridan biri-kumush dinariy edi. Milodning I asrida u sof kumushdan, milodning II asrining oxiridan esa mis qo'shib, tarkibida 50% kumush bilan zarb qilina boshlandi. Mis tanga asosan mahalliy muomalada foydalanilar

edi. Mayda savdoda asosan mis tanga- sestertsiiy (4 ass) va dupandiiy (2 ass) ishlatilar edi.

Milodning I-II asrlarida Rim jamiyati quldorlik jamiyati edi. Uning asosiiy qatlamlari qullar va quldorlar bo'lib, ulardan tashqari mayda ishlab chiqaruvchilar, kichik chek yerlarning egalari yoki ijarachilar kichik hunarmandchilik ustaxonalari egalari, mayda savdogarlardan iborat edi.

Tabaqalar o'rtasida kuchli ijtimoiiy ziddiiyatlar mavjud edi. Jamiyatda asosiiy ishlab chiqaruvchi kuchlar qullar edi. Milodning I-II asrlarigacha quldorlik xo'jaliklarida qullarga bo'lgan ehtiyoj urushlar natijasida qondirilgan edi. Milodning II asrida istilochilik urushlarining nihoyasiga yetishi qullar oqimining Rimga kelishini keskin kamaytirdi. Lekin quldorlik xo'jaliklarida qul mehnatiga ehtiyoj juda kuchli edi. Bu hollar qullar narxining keskin o'sishiga olib keldi.

Qul mehnatini unumdorligidan manfaatdor quldorlar qullarning maishiiy sharoitini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Qishloq pomestiiylari va shaharlarda qul cho'rilar soni o'sib bordi, qullarga oila qurishga ruxsat berildi va ular rag'batlantirildi.

Qullikda tug'ilgan bolalar (ularni vernlar deb atashgan) biror bir hunarga o'rgatilgan bo'lib, qul bozorlarida yuqori baholanar edi. Qullarni oila qurishini rag'batlantirgan quldorlar qul oilasi uchun chek yer, mehnat quroli, kulba, kichikroq do'kon, bir necha qora mol ajratar edilar. Quldor tomonidan ajratilgan bunday mulk "pekuliyy" deb atalgan. Milodning I-II asrlarida pekuliyy keng tarqaldi. Quldor sovg'a qilgan yerini istalgan paytida tortib olishi mumkin edi. Qullarning huquqiiy holati ham o'zgardi. Imperator Adrian qullarni sababsiz o'ldirishni taqiqladi. Milodning II asrida yerni ijaraga berish va kolonat keng tarqaldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Rim imperiiyasining "Oltin davri" Trayan faoliyati.
2. Imperator Adrianning imperiyanii idora qilishi.
3. Rim imperiiyasining "Oltin davri"da tashqii siyosatning asosiiy yo'nalishlari ko'rsating.
4. Ijtimoiiy-iqtisodiiy o'sishning asosiiy sabablari.
5. Yer munosabatlaridagi o'zgarishlar.

Glossariy

Avgust – Qadimgi Rimda xudolarga qilingan murojaatlarda tilga olingan soʻz. Mil. avv. 27-yilda imperator Oktavianga Senat tomonidan Avgust, yaʼni “muqaddas” laqabi beriladi.

Prinsipat - Oktavian Avgust davrida vujudga kelgan siyosiy tuzum (mil. avv. 27 - milodning 14 -yillari). Hokimiyat senat qoʻlida boʻlib, uning himoyachisi prinseps hisoblangan.

Prinseps - (“princeps”-“birinchi”, “asosiy”): Rim respublikasi davrida senatorga birinchi bulib muzokara boshlash huquqini bergan va tenglar orasida birinchi degan maʼnoni anglatgan. Mil. avv. 27-yilda senat Oktavian Avgustga shu unvonni bergan.

Forum – Qadimgi Rimda shahar markazidagi xalq yigʻini maydoni. Forumlarda bozor maydoni, xalq yigʻilishlari uchun joy va eng asosiy ibodatxona boʻlgan. Qadimgi Rimning eng mahobatli maydonlaridan biri Troyan forumidir. Forum imperator Trayanning daklar ustidan qozongan gʻalabalari sharafiga qurilgan. Trayan forumida dam olish, ijod qilish uchun maxsus xonalar, kutubxona, gimnastika bilan shugʻullanish uchun maydonchalar, sport zallari boʻlgan. Markaziy bino tevaragida xiyobonlari, uzumzorlari, favvoralar va hovuzlar boʻlgan bogʻ barpo etilgan, yonida stadion ham boʻlgan.

Mavzu: Soʻnggi Rim imperiyasi

Reja:

1. Rim imperiyasi inqiroziga olib kelgan asosiy omillar.
2. Rim imperiyasidagi siyosiy inqiroz va davlat tizimining yemirilishi.
3. Dominant tizimining oʻrnatilishi va Diokletian islohatlari
4. Rim imperiyasining gʻarbiy va sharqiy imperiyalarga boʻlinishi, uning sabablari.
5. Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashi

Rim imperiyasi inqiroziga olib kelgan asosiy omillar. Milodiy uchinchi asrga kelib Rim koʻplab muammolar bilan toʻqnashdi. Ular mamlakatning ichkarisidan ham tashqarisidan ham kirib keldi. Faqat

tub iqtisodiy, harbiy va siyosiy islohotlar inqirozdan saqlab qolishi mumkindek ko'rinardi.

Ko'pchilik tarixchilar Mark Avreliy imperatorligi hukmronligining tugashi (mil. 160-181-yy) bilan Pax Romana (Oltin davr) nomi bilan mashhur bo'lgan ikki asrlilik tinchlik va gullab yashnash davri nihoyasiga yetadi, deb belgilashadi. Keyingi asrlarda hokimiyat tepasiga kelgan imperatorlarda ulkan imperiya va uning o'sib borayotgan muammolari bilan qanday shug'ullanish haqida g'oyalar kam yoki umuman bo'lmagan.

Rim iqtisodiyotining zaiflashuvi. Milodiy III asr davomida bir nechta omillar Rim iqtisodiyotining zaiflashuviga olib keladi. Imperiya tashqarisidagi dushman qabilalar va O'rtayer dengizidagi qaroqchilar savdo-sotiqqa putur yetkazdilar. O'zlarining cheklangan resurslarini sarflab bo'lib, yangi oltin va kumush manbalariga muhtojlik sezdilar. Daromadlarga ehtiyoji katta bo'lgan hukumat soliqlarni oshiradi. Endilikda tarkibida yana kumush kamroq bo'lgan tangalar zarb qilish boshlandi. Bunda qimmatbaho metallar bilan bir miqdorda ko'proq mablag' ishlashga umid qiladilar. Biroq tez orada iqtisodiyot pulni qadsizlanishidan jabr chekadi, narxlarning oshishi bilan pulning qiymati keskin tushib ketadi. Pulning qadsizlanishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Savdo-hunarmandchilik tushkunlikka uchradi.

Qishloq xo'jaligi oldida ham shunga o'xshash muammolar turar edi. Italiya va G'arbiy Yevropada hosil borgan sari siyraklashib borardi, chunki yerning zo'riqib ishlashi natijasida zamin o'zining hosildorligini yo'qotadi. Shuningdek, urush yillarida ko'plab dalalar payhon bo'ladi. Oxir-oqibatda jiddiy oziq-ovqat yetishmovchiligi va kasalliklar tarqala boshlaydi va aholi soni kamayadi. Yerga ijara haqi keskin oshdi. Bu kolonlarning xonavayron bo'lishiga olib keldi. Qarz majburiyati ortib boradi. Qullarning soni kamayib, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Provinsiyalarda quyi tabaqa vakillarining qo'zg'olonlari ko'tarildi. Jumladan, III asrning 50-yillarida Galliyada dehqonlar va qullar qo'zg'oloni, Shimoliy Afrikada dehqonlarning qurolli chiqishlari yuz berdi.

Harbiy va siyosiy sarosima. Milodiy III asrga kelib Rim harbiy kuchlarida ham tartibsizliklar hukm surar edi. Uzoq yillar mobaynida Rim askarlarining intizomi va sodiqligi kamayib bordi. Ular o'z

sodiqligini Rim uchun emas, balki o'zaro toj-u taxt uchun talashayotgan qo'mondonlariga bildirar edilar. Imperiya uchun oshib borayotgan tahdidlardan himoyalaniş uchun hukumat merkenariylar - xorijlik askarlarni pul evaziga yollay boshladilar. O'z navbatida rimliklarga qaraganda kam haq oladigan yollanma askarlar imperiyaga nisbatan sodiqlikni kamroq his qilardilar.

Sadoqatlilik hissi oxir-oqibatda fuqarolar orasida ham zaiflasha bordi. O'tmishda rimliklar o'z respublikalari uchun qattiq qayg'urardilar, o'z jonlarini ham fido qilardilar. Imperiyadagi so'nggi asrlardagi shart-sharoitlar fuqarolar uchun vatanparvarlik o'z ahamiyatini yo'qotilishiga olib keladi. Ular imperiya taqdiriga bee'tibor bo'lib qoladilar.

Imperiyanı qiyin ahvolga solib qo'ygan omillardan yana biri III asrning 70-80-yillarida german qabilalarining imperiyaga hujumlari bo'ldi. Dakiyani got, sarmat va markomannlar bosib oldi. Tinchlik tarafdori bo'lgan Mark Avreliy butun umri davomida varvar qabilalariga qarshi kurashishiga to'g'ri keladi. Biroq, undan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Kommod tanti, yengiltabat, asosiy vaqtini o'yinlar va gladiatorlar jangini tomosha qilishga sarflar edi. Bu esa otasi tomonidan erishilgan yutuqlarni ko'kka sovurilishiga sabab bo'ladi.

Rim imperiyasidagi siyosiy inqiroz va davlat tizimining emirilishi. Milodiy 193-yilda kelib chiqishi afrikalik bo'lgan Septimiy Sever Severlar sulolasiga asos soladi. U imperiya oltin davrdagidek gullab-yashnashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'radi. Ayniqsa, Sharqda ahvol og'irlashib, rimdagi qo'shinlar kuchsizlanib qolganidan foydalangan Parfiya podshosi Vologez IV rimning ittifoqchilari sanalgan Armaniston va Suriyaga hujum qilib, u yerlarni talaydi va Kichik Osiyoga tahdid soladi. Septimiy Sever Parfiyaga qarshi urush ochishga majbur bo'ladi va bu urushlar 4 yil davom etadi. U bu urushda g'alaba qozonadi va egallangan hududlarda Mesopotamiya provinsiyasini tuzadi.

Tashqi xavf-xatar bartaraf etilgach, Septimiy Sever ichki ahvolni o'nglashga harakat qiladi. U eng avvalo imperator hokimiyatini mustahkamlash maqsadida byurokratik apparatni va armiyani isloh qiladi. Shuningdek, ijro hokimiyatida ham bir qator o'zgartirishlarni amalga oshiradi. Biroq, ko'rilgan bu choralar yaqinlashib kelayotgan muqarrar tanazzulning oldini olish uchun yetarli bo'lmagan. Milodiy

211-yilda Septimiy Sever vafot etadi. Undan so'ng o'g'illari Karakalla va Getalar o'zaro toj-taxt talashib, imperiyaning ahvoli yanada og'irlashadi. Severlar sulolasining so'nggi vakili – Aleksandr Sever imperiyaning ichki siyosiy ahvolini mustahkamlash uchun ba'zi bir tadbirlarni amalga oshirgan. Biroq sharqda forslar, g'arbda esa german qabilalari Rim imperiyasi hududlariga hujum qilib, uni battar qiyin ahvolga solib qo'yadilar. Imperatorning onasi Mameyani germanlarni sahiy sovg'alar va katta pul mablag'i evaziga tinchlik o'rnatishga urinishi qo'shinda katta norozilik keltirib chiqaradi. Natijada Aleksandr Sever va onasi bosh ko'targan legionerlar tomonidan o'z chodirida o'ldiriladi. Severlar sulolasining so'nggi imperatori Aleksandr Sever 235-yil o'ldirilganidan so'ng Rim imperiyasi inqiroz botqog'iga botib qoladi. 235-yildan 285- yilgacha 29 ta imperatorlar taxtga keladi. Legionerlar birin-ketin tarixshunoslikda "askar imperatorlari" deb atalgan hukmdorlarni taxtga chiqardilar. Ular davlatni uzoq boshqara olmadilar.

Imperiya yana siyosiy beqarorlik, tartibsizliklar boshlandi. Davlat tizimining yemirilishi, ichki o'zaro nizolar, german qabilalari hujumi va III asrda sharqda tashkil topgan qudratli Sosoniylar davlati bilan uzoq muvaffaqiyatsiz olib borilgan urushlar Rim imperiyasining tushkunligiga sabab bo'ldi.

Dominant tizimining o'rnatilishi va Diokletian islohotlari. Milodiy 235-yilda navbatdagi imperator Aleksandr Sever o'ldirilishi bilan hokimiyat uchun turli da'vogarlar o'rtasida kurash boshlanib, bu siyosiy tushkunlik yarim asr davom etdi. Oddiy jangchilar ichidan ham imperatorlikka da'vogarlar chiqdi. Jangchi-imperatorlar bir-birlarini tez-tez almashtirdilar. Odatda ularning barchasi o'ldiriladi edi. 284-yil kuzida tarixda Diokletian nomi bilan kirgan illiriyalik 39 yoshli Diokl (284-305-yy) imperator deb e'lon qilindi. Diokletianing hukmronligi boshlanishi bilan Rim imperiyasining so'nggi davri yoki Dominat (284-476-yy) davri boshlandi. Ozod etilgan qulning o'g'li, tegishli ma'lumot olmagan, lekin aqlli va shafqatsiz bo'lgan imperator Gay Avreliy Valeriy Diokletian hukmronligi vaqtida "dominat" (latinchadan dominus- "janob", "xo'jayin") nomini olgan siyosiy tizimning asoslari yaratildi. Diokletian va uning vorislari davrida Rim davlatining cheklanmagan monarxiyaga o'tishi tugallandi.

Diokletian davlatni temir musht bilan boshqardi va shaxsiy erkinliklarni keskin chegaraladi. U imperiyaning mavqeini tikladi va

uning kuch-qudratini oshirdi. Diokletian Rim imperiyasi armiyasining sonini ikki marta oshirdi va mahsulotlarga doimiy narxlar o'rnatilishi orqali pulning qadrsizlanishini nazorat qilishga intildi. Bu paytga kelib past qiymatli tangalar zarb qilinishi natijasida pulning qadri nihoyatda tushib ketgan edi. U yangi to'liq qiymatli oltin va kumush tangalarni zarb qilishni buyuradi hamda ularni yagona standartga keltiradi. Shuningdek, soliq yig'ish ishlarini tartibga keltirib, davlat byudjetiga tushadigan daromadlarni ham tartibga soladi. U imperatorlik hokimiyatining obro'-e'tiborini tiklash maqsadida o'zini qadimgi Rim xudolaridan kelib chiqqanligini da'vo qildi va o'zida xudosiifat aura yaratish uchun puxta o'ylab chiqilgan marosimlarni tashkil qildi. Imperator hokimiyati ilohiylashtirilib, unga iloh sifatida sig'inish joriy qilindi. Unga ta'zim bajo keltirish, uning oldida tiz cho'kish, boshini yerga qo'yib yiqilish va kiyimi etagini ochish rasm bo'ldi.

Diokletian imperiya bitta hukmdor uchun juda katta va boshqarish murakkab deb, hisoblagan. Shu sabab u bir qator ma'muriy-hududiy islohotlar o'tkazadi. Jumladan, imperiyani yunon tilida so'zlashadigan Sharqqa (Yunoniston, Anatoliya, Suriya va Misr) va lotin tilida so'zlashadigan G'arbga (Italiya, Galliya, Buyuk Britaniya va Ispaniya)ga bo'ladi. U imperiyaning yarmini (sharq) o'zini boshqaruviga oladi va g'arb uchun o'ziga o'rinbosar tayinlaydi. O'z navbatida Diokletian hokimiyatni bo'lish bilan birga nazoratni o'z qo'lida ushlab turishga harakat qiladi. Unga tegishli bo'lgan imperiyaning Sharq qismi, katta shaharlarni va imperiyaning savdo markazlarini o'z ichiga olgan va G'arbga nisbatan boyroq bo'lgan. Mazkur davrda Italiya imperiya markazi sifatida imtiyozini to'la yo'qotdi.

Diokletian juda ko'p inshootlar qurdi. Saroylar, sirk, Rimda termalar, Illiriyadagi Salonika shahrida (hozirgi Bosniyadagi Split) ulkan saroy ansambli bunyod qilindi. Diokletianning eng oxirgi tadbirlaridan biri nasroniylilik dinini ta'qib qilganidir. 303-304-yillarda keksa va kasal Diokletian yordamchisi Galeriy tazyiqi ostida nasroniylarga qarshi o'zini 4 ediktini e'lon qildi. Rim imperiyasi g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'lindi.

Agar II asr boshlarida Trayan davri provinsiyalarining soni 45 ta bo'lsa, endilikda eski bepoyon provinsiyalarni bo'lish yo'li bilan ularning soni 108 taga etdi. Diokletian markazi Nikomediya bo'lgan imperiyaning sharqiy qismini boshqardi. Markazi Mediolon (Milan,

Shimoliy Italiya) bo'lgan imperiyaning g'arbiy qismini Maksimian boshqaruviga topshirdi. Diokletian va Maksiman "Avgust" unvonini ega bo'lib, o'zlariga yordamchi olib, ularga "Sezar" unvonini berdilar. Sezarlarni avgustlarning avlodi hisoblagan Diokletianning fikricha, bunday tartib imperiya birligini saqlashga yordam berishi, viloyatlarda hokimiyatning zo'ravonlik bilan tortib olinish imkoniyatiga yo'l qo'ymasligi va shuningdek, Rim davlat chegaralarini qo'riqlashni osonlashtirishi lozim bo'lgan. German qabilalarining Rim hududiga doimiy ravishda bostirib kirishi harbiy islohot o'tkazishga majbur qildi.

Qo'shinning soni ko'paytirildi. Endilikda yirik yer egalari koionlar va ozod etilgan qullardan jangchilar berishga majbur edilar. Harbiy xizmatga german qabilalarining qismlari-federatlar qabul qilina boshlandi. Bundan tashqari, qo'shinning tezkor harakat qilishini ta'minlash uchun qo'shin chegara qo'shinlari va harakatdagi qo'shinlarga bo'lindi. Chegara qo'shinlari imperiyaning mustahkamlangan qal'alari va chegaralarida joylashtirildi. Harakatdagi yoki zahiradagi qo'shin urush xavfi bo'lgan chegara hududiga yuborish uchun jangovor holatda saqlab turildi. Davlat hokimiyati narx-navo va ish haqining o'sishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatdi. Bir vaqtning o'zida soliq va pul islohotlari o'tkazildi va natijada ijtimoiy-iqtisodiy tushkunlik vaqtinchalik bartaraf etildi. III asr oxiri IV asr boshlarida o'tkazilgan ma'muriy-harbiy va iqtisodiy islohotlar ulkan Rim davlatining umrini yuz yildan ko'proq vaqtga uzaytirdi.

Diokletianning siyosati garchi Rim imperiyasining siyosiy tuzilmasini mustahkamlashga yordam bergan bo'lsa-da, ijtimoiy-siyosiy inqiroz bilan bog'liq ziddiyatlarni hal qila olmadi. Diokletian 305-yilda kasalligi tufayli hokimiyatdan ketishga majbur bo'ladi. Biroq, uning islohotlari ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Darhol fuqarolar urushi boshlanadi. Milodiy 311-yilgacha to'rt hukmdor hokimiyat uchun kurashadi. Ular orasida yosh shuhratparast qo'mondon, keyinchalik xristianlikni ta'qib qilishga chek qo'ygan Konstantin g'alaba qozonadi.

Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy imperiyalarga bo'linishi, uning sabablari. Milodiy 312-yilda Konstantin imperiyaning g'arbiy qismida boshqaruvni qo'lga oladi va Diokletianning ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini davom ettiradi.

Milodiy 324-yilga kelib Konstantin Sharqda ham boshqaruvni qo'lga oladi va shu tariqa yagona hukmdor degan tushunchani qayta tiklaydi.

Konstantin uzoqni ko'ra oladigan aqlli siyosatchi edi. U 200 yildan beri ta'qib etilayotgan xristianlik dinining kuch-qudrati davlat hokimiyatini mustahkamlashda muhim o'rin egallashini anglab etdi. Shu sababli, u 313-yil o'zining Milan edikti bilan xristianlik dinini boshqa dinlarga tenglashtirdi. Shu lahzadan boshlab xristian cherkovi imperator hokimiyatining ittifoqchisi va himoyachisiga aylandi.

Milodiy 330-yilga kelib imperiya uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan qadamni qo'ydi. U poytaxtni hozirgi Turkiyadagi yunon koloniyasi bo'lgan Vizantiya shahriga ko'chiradi. Yangi poytaxt Bosfor bo'g'ozida G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo va mudofaa uchun qulay bo'lgan strategik muhim nuqtada joylashgan edi.

Uning poytaxti Vizantiya bilan birga imperiyadagi qudrat markazi Rimdan sharqqa ko'chadi. Tez orada yangi poytaxt Rimdagi kabi yirik himoyalangan devorlar va imperiya binolari bilan to'ldiriladi. Oxir-oqibatda poytaxt yangi – Konstantinopol yoki Konstantin shahri degan nom oldi. Shaharga rasmiy ravishda nom 330 -yil 11-mayda berildi.

Shu tariqa Rim o'zining qadimgi o'tmishi, majusiy xudolari va sobiq imperatorlari shahri bo'lib qoldi. Konstantinopol yangi davrga asos soldi. Keng miqyosli qurilishlar boshlandi: bor yo'g'i olti yil davomida devorlar, forumlar, ippodrom va hattoki imperatorlik saroyi, shuningdek, faqat xristian senatorlar uchun mo'ljallangan yangi senat binosi qad ko'tardi. Bundan tashqari shahar Konstantin maqbarasi bilan ham faxrlanishi mumkin edi. Xristian cherkovlari haqida to'xtalganda ko'pchilik Avliyo Sofiya ibodatxonasining prototipi aynan Konstantin davrida qurilgan deb taxmin qilishadi. Biroq, Evseyiyning guvohliklariga qaramasdan, Konstantin nomini olgan shahar faqat xristianlardan iborat bo'lmagan. Imperator shahrini butun dunyodan olib kelingan xazinalar bilan to'ldirib, yangi imperiyaning ulkan ko'rgazma zaliga aylantiradi. Shuni ta'kidlash joizki, u poytaxtni Konstantinopolga ko'chirmadi, uni Rimda qoldirdi. Abadiy shaharda senatorlar davlat boshqaruvida ishtirok etishda davom etdilar. Konstantinopol Trir va Milan shahridagi imperiya markazlaridan biri hisoblanardi. Yagona farqi hukmdor unga bog'langanligida edi. Konstantin o'zining boshqaruvining so'nggi yetti yilining asosiy qismini shu shaharda o'tkazadi.

Dominat boshqaruv idoralari Konstantin taxt tepasida bo'lgan davrda tugallangan. Imperiyaning butun territoriyasida yagona ma'muriy taqsimot vujudga keldi. Fuqarolik hokimiyati harbiy hokimiyatdan ajratilib, hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan tortib olish imkoniyatiga barham berildi.

Milodiy 325 - 326 -yillarda shahar aholisi kuriallar istiqomat qilib turgan joyga birlashtirilgan. Milodiy 332 -yilida kolonlar uchun yangi farmon chiqariladi. Farmonga ko'ra kolonlar o'z yerini tashlab ketmasligi, shahar hunarmandlari esa qo'shin va ma'muriyatni mahsulot bilan ta'minlab turishga majbur bo'lgan. Rim va Konstantinopolga g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish savdogarlar zimmasiga yuklangan. Shahar kuriallari jamoat binolarini ta'mirlash va soliq to'lamaganlarning qarzini to'lashga majbur etilgan.

Harbiy islohot zodagonlarning hukmronlik mavqeini mustahkamlagan. Ular davlat ixtiyoridagi yerlarni emfitevs sifatida yoki yengil shartlar bilan sotib olib, yer-mulkklarini kengaytirganlar. Shuningdek, xristian cherkovi katta yer egasi bo'lib olgan. U barcha soliqlardan ozod etilgan.

Konstantin 237-yil 22-mayda vafot etadi. U birinchi imperator Avgustdan boshlab barcha imperatorlardan ko'ra ko'proq hokimiyat tepasida turadi. Vafotidan biroz oldin u e'tiqodining ramzi sifatida suvda cho'qintiriladi. Bundan keyin u qizil imperatorlik togasini umuman kiyim va xristian an'analarida qabul qilingan oq kiyimni kiyadi. Uni dafn qilish marosimida 13 yil avval Linitsiyni bosib olinishida ozod qilingan va unga ko'pincha hamrohlik qilgan Nikomediya yepiskopi qatnashadi.

Konstantin o'limidan so'ng uchta o'g'il qoldirdi. Ular o'zaro hokimiyatni bo'lib olishga kelishib olishdi, lekin bunga qanoat qilmasdan bir-biriga dushmanlik qilib, o'ldirish uchun harakat qila boshladilar. Shu tariqa Konstantin butun umr yaxshilashga harakat qilgan Rim imperiyasi yana yemirila boshlaydi. 50 yil o'tib ular imperiyani yana jarlikka yetaklaydilar. 364-yilda Valentinian I yangi sulolaga asos soladi. Uning davrida mamlakat yana g'arbiy va sharqiy imperiyalarga bo'lib idora qilinadi. G'arbda Valentinian I (364-375-yy), sharqda esa Valent (364-378-yy) imperator deb e'lon qilinadi. Aka-ukalar oldida qiyin vazifalar turar edi. Avvalgi imperatorlar tomonidan boshlangan islohotlar imperiyani qiyin ahvolga solib

qo'ygan edi. Undan tashqari mamlakatda diniy nizolar avj oladi. Imperiyadagi ichki tartibsizliklardan foydalangan Dunayning chap qirg'og'ida yashovchi varvarlar, birinchi navbatda vestgotlar Bolqon provinsiyalariga talonchilik yurishlarini uyushtiradilar. Undan tashqari 365- yilda Prokopiy qo'zg'oloni ko'tariladi. Shu tariqa markaziy hokimiyat kuchsizlanib, chegarada varvarlarning asosiy kuchlari to'plana boshlaydi. IV asrning 60-70-yillarida eng o'tkir muammo gotlar masalasi bo'lib qoladi. Xunlar va alanlar tomonidan o'z yerlaridan siqib chiqarilgan 200 mingga yaqin vestgotlar imperiya chegaralaridagi qishloqlarga kelib o'rnatishga ruxsat so'raydilar. Buning evaziga ular Rim qo'shinlarida xizmat qilib berishlari kerak edi. 376-yilda vestgotlar Frakiyaga kelib o'rnatadilar. Biroq, yuzaga kelgan oziq-ovqat muammosi, rim amaldorlarining ochko'zligi vestgotlarni Rim hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarishiga olib keladi. Vaziyat murakkablashganidan tashvishga tushgan Valent g'arbdan hukmdor Gratsianni yordamga chaqiradi. 378-yil 9-avgustda Frakiyadagi Adrianopol shahri yonida vestgotlar Rim qo'shinlariga kuchli zarba berdi. Imperator Valent jang maydonida qattiq yaralanib halok bo'ldi. Jangda qo'mondon bilan birga 35 ta tribun va 13 mingga yaqin askarlar halok bo'ladi. Adrianopoldagi jang rimliklarning o'zga yerliklardan, jumladan, Gannibaldan keyingi eng og'ir mag'lubiyati bo'ladi.

Imperiyaning g'arbiy yarmi taqdiridan tashvishga tushgan imperator Gratsian o'zining qo'shinlarini g'arbga olib chiqib ketadi. Dahshatli gotlar bilan kurashish uchun o'zining eng yaxshi qo'mondonlardan biri Feodosiyni Sharqqa imperator etib tayinlaydi.

Yangi imperator Rim armiyasini mustahkamlash uchun bir qancha chora-tadbirlarni ko'radi. Katta tanlov e'lon qilinib, barcha jangga yaroqli erkaklar askarlikka olinadi. Shu bilan birga Feodosiy gotlar aslzodalarni boshini aylantirib, ularni kelajakda imperiyaning hukmron tabaqasi safiga kiritish kabi va'dalarni berib, o'z tarafiga og'dirishni boshlaydi. Feodosiy shu va yana boshqa va'dalarni berib, ular bilan 382 -yil 3 -oktyabrda tinchlik shartnomasini imzolashga muvaffaq bo'ladi va gotlar imperiyaning federatlari sifatida tan olinadi. Ya'ni, ular imperiya fuqarolari hisoblanmay, Rimning mustaqil ittifoqchilari sanalgan. Ular avvaliga Meziya va Frakiyaga, so'ngra Illiriya viloyatiga joylashtiriladi.

Shu bilan Konstantinopolni bosib olinishidan saqlab qoldi. Feodosiy 394-yil tarixda so'nggi marta imperiyaning har ikkala qismini ham bir qo'lga to'pladi. U o'limi oldidan 395-yil boshida yangi sulolaga asos solishga qaror qildi. Uning ikki o'g'illari Arkadiy va Gonoriy Sharqiy va G'arbiy Rim imperiyalari hukmdorlariga aylanadi. O'sha vaqtda Arkadiy 17 yoshda, Gonoriy 10 yoshda bo'lishiga qaramasdan qaror qabul qilindi.

G'arbiy Rim imperiyasining qulashi. Imperator Feodosiy o'limidan oldin farzandlarining vasiysi sifatida uning qo'mondonlari orasidan sodiq va yetakchilari – Flaviy Stilixon bo'lishini e'lon qiladi. Biroq, Stilixon noodatiy rimlik edi. U vasiylik lavozimini egallaganidan bir necha yil o'tib qizini Gonoriyga turmushga beradi. Keyingi 13 yil davomida yosh imperator Gonoriyning o'rni egalladi. Stilixonning rasmiy unvoni **magister militum** – Rim armiyasi bosh qo'mondoni edi. Yosh imperator haqiqatda tojni saqlab qolish uchun Stilixonning qattiqqo'lligiga muhtoj edi. Yangi urush avj oldi: Alarix qo'zg'olon ko'tardi.

Alarix boshchiligidagi gotlar dastlab Sharqiy imperiyani avvalgi kelishuv shartlarini o'zgartirishga majbur qilishdi. Arkadiyni muzokaralar stoliga o'tkazish uchun Alarix kuch qo'llashga qaror qildi. Gotlar Bolgariyadagi tayanch punktdan Bolqon orqali Yunonistonga va undan keyin Adriatika sohillari bo'ylab xujum qilishga otlandilar. 402-yilda u o'z qo'shinlarini g'arbga yo'naltirib Italiyaga bostirib kiradi.

Stilixon bilan Alarix o'rtasida ikki marta to'qnashuv bo'lib o'tadi. Har ikki to'qnashuvda hech bir taraf jiddiy harbiy muvaffaqiyatga erishmaydi. Shu sabab kelishishga harakat qilishadi. Lekin bu kabi harbiy mojarolar Rimning ahvolini yomonlashishiga olib keladi. Shu orada Stilixon yanada og'irroq inqiroz bilan to'qnashadi. Bu imperiyaning shimoliy chegaralaridan kelgan varvarlarning yangi to'lqini bilan bog'liq edi.

Bu to'lqinga vandallar, alanlar (Qora dengiz bo'yida yashovchi ko'chmanchi qabilalar) va svevlar (german tilida gapiradigan va uzoq vaqt Venger pasttekisligida yashagan qabilalar) kirgan. Ular birgalikda Reyn orqali Germaniya, Galliya va Pireney orqali Ispaniyaga joylashishadi. Ular bostirib kelgan joylariga muqim o'mashib oladilar.

Stilixon dastlabki vaqtda vestgotlarning Italiyaga qilgan hujumini to'xtatib turdi. U hatto Britaniyadagi Rim legionlarini (407-yilda) chaqirib keltirdi, legionlarning bu vaqtida Italiyaning o'zida bo'lishi nihoyat darajada zarur edi. Biroq saroy ahli o'rtasidagi fitna natijasida Stilixon tez orada vazifasidan tushirildi va o'ldirildi. Vestgotlar qiroli Alarix endi qattiq qarshilikka uchramay, 409 -yilda Italiya territoriyasiga kirib bordi.

Keyingi yilda Alarix Rimni juda katta talon – taroj qiladi. Shu narsa xarakterliki, Alarix Rimni qullar yordami bilan oldi. Rimda va uning atrofida yashagan 40 mingga yaqin qul Alarix tomoniga o'tdi. Bulardan tashqari, Alarixni varvar-germanlardan iborat g'arbiy imperator armiyasining ko'pchilik qismi qo'llab-quvvatladi. Vestgotlar Rimni 410-yilning 24-avgustida bosib oldilar. Rimliklarning poytaxti bir necha kungacha talon-taroj qilindi. Rimdagi quldor zodagonlarning ko'plari o'ldirildi, asir olindi va qul qilib sotildi, rimliklarning bir qismi qo'rquvga tushib, Shimoliy Afrikaga va Bolqon yarim oroliga qarab qochdilar.

Alarix so'ngra Sitsiliyaga, u yerdan esa Shimoliy Afrikaga yurish qilmoqchi edi. Buning sababi Italiyada oziq-ovqat yo'qligi hamda qishloq xo'jaligi butunlay tushkunlikka uchragan edi, mahalliy aholining o'z g'allasi o'ziga yetmas edi. Lekin vestgotlarning Afrikaga yurish qilish mo'ljali amalga oshmadi. Alarix Shimoliy Afrikaga yurish qilmoqchi edi. Lekin vestgotlarning Afrikaga harbiy yurishi amalga oshmadi. 410-yili Alarix bezgak kasalligidan 40 yoshga yetmay vafot etadi.

Uzoq yillarga cho'zilgan urush va doimiy talon-tarojlik qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni keskin kamayib ketishiga, bu esa o'z navbatida daromadlarning pasayishiga olib keladi. Ispaniya va Galliya G'arbiy imperiyadan ajralib ketadi. Britaniyadagi legionlarga ham endilikda umid qilmay qo'yishdi. Bu kabi o'zgarishlar g'arb armiyasi kuchlarini qayta tiklash uchun daromad manbalarining keskin qisqarishiga olib keladi. Gonoriyning hukmronligi davrida (395–420-yy) armiya soni ham ikki barobar qisqarib ketadi. Imperator ulkan talofotlarning o'rmini yangi qo'shin bo'linmalarini tuzish orqali to'ldirgan bo'lsa ham ularning aksariyati yomon o'qitilgan, yordamchi va ikkinchi darajali otryadlar edi.

421-yili Gonoriy tomonidan tayinlangan hamroh hukmdor Konstansiy to'satdan kasal bo'lib, vafot etadi. Uning o'limidan so'ng

shafqatsiz va qonli hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Oxir-oqibat Konstansiyning 6 yoshli o'g'li Valentinian III nomi bilan imperator deb e'lon qilinadi. Hokimiyatning haqiqiy egasi Konstansiyning haqiqiy izdoshi Flaviy Aesiya edi. Imperiyada toj-taxt uchun kurashlar davom etayotgan bir paytda vandallar o'z kuchlarini tiklab olib, Tarif orqali Janubiy Ispaniyaga keladilar. Keyinchalik vandallar Shimoliy Afrika aholisining quyi tabaqalari orasida Rim hukumatining va katta quldorlarning e'tibori yo'qligidan foydalanib, bu keng hududni bosib oladilar. Shu tariqa 439-yilda Rim imperiyasi hududida ikkinchi varvar qirolligi vujudga keladi, bu davlatning poytaxti qadimgi Karfagen bo'ldi. Vandallar Rim zodagonlarining juda ko'p yerlarini ham musodara qildilar. Lekin ularning o'zlarida ham zodagonlar tezlik bilan tarkib topmoqda edi. Ushbu zodagonlar bosib olingan yerlar, olingan qullar va boshqa xil o'ljalar hisobiga boyib ketadi. Vandal zodagonlari Italiyaga qilingan bosqinchilik hujumlari natijasida, ayniqsa boyigan edi.

Vestgot, Vandal va Burgundiya qirolliklarining vujudga kelishi bilan G'arbiy Rim imperiyasining ahvoli nihoyat darajada mushkullashib qoldi. Shunday qilib, G'arbiy Rim imperiyasi o'sha vaqtdan boshlab haqiqatda birgina Italiyaning o'z hududi bilan cheklanib qoldi.

Bu vaqtda imperiyani imperator Valentinian III (425-455-yy) nomidan idora qilib turgan Aesiy varvarlarning birini ikkinchisiga qarshi ishga solib, imperiyani saqlab qolishga zo'r berib harakat qildi. Lekin uning bu urinishlari ham yetarli bo'lmadi. Chunki, Rimni yana bir katta xavf-xatar qamrab oladi.

V asr o'rtalarida imperiya uchun eng xavfli dushmanlardan biri xunlar bo'ldi. V asrning dastlabki yillarida xunn qabilalari g'ayratli va shijoatli qirol Attila (435-453-yy) qo'l ostida birlashdilar. Attilaning poytaxti Tissa qirg'og'i - hozirgi Vengriya hududida joylashgan edi. Shu joydan Attila Bolqon yarim oroliga, Kichik Osiyoga, Armanistonga va hatto Mesopotamiyaga yurishlar qildi. Attila olib borgan urushlar ochiqdan-ochiq bosqinchilik, talonchilik urushlari edi. Unga Vizantiya (Sharqiy Rim) imperatori katta xiroj to'lab turgan. Dunay yonida yashovchi ko'pgina slavyan qabilalari xunnlarga qaram edilar. 50-yillarning boshida Attila g'arbgga yurish qildi va 451-yili Galliyaga bostirib kirib, bu yerda ko'p shaharlarni bosib oldi hamda Galliyaning eng muhim strategik punkti bo'lgan

Orlean shahrigacha yetib bordi. Uzoq vaqt qamal qilingandan keyin Orlean xunlar tomonidan olindi, lekin Aesiy Attilaga qarshi varvarlar federatsiyasini tuzishga muvaffaq bo'ldi va Attilani Orleandan chiqib ketishga majbur qildi. Attila ko'p sonli lashkarlari bilan birgalikda yanada sharqqa - orqaga burilib (Sans shahri orqali) Trua shahri tomonga qarab yo'l oldi. Aesiy uning ketidan bordi. 451-yil 15-iyunda Trua shahri yaqinida (bu shaharga keyin Shampän deb nom berildi), Katalaun dalalari deb atalgan joyda «xalqlar jangi» bo'ldi. Rimliklarning federatlari: vestgotlar, burgundlar, franklar rimliklar tomonida turib urushdilar; Attila qo'l ostida esa, xunlarning o'zidan tashqari, ostgotlar va boshqa mayda-mayda sharqiy german qabilalari hamda qisman slavyanlar va janubi-sharqiy Yevropadagi turli sarmat qabilalari bor edi. Attila mag'lubiyatga uchradi.

Rimliklar g'alaba qozondilar, bu g'alaba ularning oxirgi g'alabasi edi. Lekin ular endi bu g'alaba samaralaridan foydalana olmas edilar. Ularning o'z ittifoqchilariga - varvarlarga bo'lgan qaramligi endi har qachongidan ham kuchayib ketgan edi. Vestgot va Burgundiya qirolliklari to'la mustaqillik oldilar. Attilaning o'zi esa kelasi, 452 - yilda Italiyaga yurish qildi, lekin Rimni olishdan voz kechdi, qimmatbaho in'omlar va xiroj olish bilan cheklanib qo'ya qoldi. 453 - yilda Attila zaharlab o'ldirildi. Uning naridan-beri tuzilgan, ko'p qabilali harbiy davlati tezda quladi. Xunlarning o'zlari esa mahalliy aholi bilan aralashib ketdi. Vizantiya manbalarida VII asrdan boshlab ular butunlay esga olinmadi.

Demak, endi xunlar «davlati» yo'q bo'lib ketganidan keyin Rim imperiyasining ahvoli yaxshilanishi kerak edi. Lekin uning resurslari butunlay tugab qolgan edi. Tashqi xavf kamaygandan keyin ichki qarama-qarshiliklar keskinlashib ketadi.

Attila o'lgandan keyin imperator saroyidagi (saroy Ravennada edi) fitnalar avj olib ketdi, natijada Aesiyning o'zi halok bo'ldi. Aesiy Rimning so'nggi davrdagi davlat arboblari ichida eng ko'zga ko'ringan kishi edi. Imperatorning buyrug'i bilan o'ldirilgan Aesiydan so'ng Valentinian III ning o'zi ham o'ldirildi.

Shundan keyin vandallar (455-y) hujum qilib, Rimni o'n to'rt kun taladilar, Vandallar Rimning eng nodir qadimgi yodgorliklarini ayovsiz buzib tashladilar. Shu sababli "vandalizm" degan so'z madaniyat yodgorliklarini vahshiyona vayron qilish timsoli bo'lib qoldi.

Bu hujum imperiyani uzil-kesil halok qildi. Italiyani taxtda o'tirgan imperatorlar nomidan yollanma varvar ko'ngilli qismlarining boshliqlari idora qildi. Shu ko'ngilli boshliqlaridan biri Odoakr (kichkinagina bir german qabilasi-skerlarning boshlig'i) 476-yilda Rimning oxirgi imperatori go'dak Romul Avgustulni taxtdan tushirib, imperatorlik nishonlarini Konstantinopolga, sharqiy imperatorga yubordi. Shunday qilib, G'arbiy Rim imperiyasi rasmiy jihatdan ham tamom bo'ldi. Uning qolgan-qutgan hududini 10 yildan keyin (486-yilda) frank qiroli Xlodvig bosib oldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Rim imperiyasi inqiroziga olib kelgan asosiy omillarni sanang.
2. Rim imperiyasida siyosiy inqiroz qachon boshlandi?
3. Diokletian islohotlarining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat edi?
4. Qadimgi Rim madaniyati qaysi sohada yunon madaniyatidan o'tib ketdi?
5. Qadimgi Rimga nasroniylik (xristianlik) dinining kirib kelishi va davlat diniga aylanishini sabablarini ayting

Glossariy

Varvarlar - Rimliklar madaniy taraqqiyotining ancha quyi pog'onasida turuvchi xalqlarni shunday nomlashgan.

Veteran – Rim imperiyasida harbiy xizmatdan bo'shagan katta yoshdagi jangchilar.

Senturiya – Qadimgi Rimda yuzliklardan tashkil topgan harbiy birlashmalar.

Senzor – Rimda mil. avv. 433-yilda tashkil topgan amaldorlik lavozimi senzorlik vazifasi senatorlar ro'yxatini tuzish, aholini ro'yxatga olish, har hil xizmat ishlari va fuqarolik ishlarni nazorat qilishgan iborat bo'lgan. Rim respublikasida sobiq konsullardan 5 yilda bir marta 18 oyga senturiya komitsiyalari tomonidan saylangan. Ular mulklari daromadni to'plash va boj to'plash huquqini sotganlar. Rim fuqarolarining axloq tozaligini nazorat qilganlar.

Panteon — Qadimgi Rimda “barcha xudolar ibodatxonasi” panteon deb atalgan. Rimdagi gumbazli binolar ko‘rinishining ajoyib namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I. E. S. Edwards The Cambridge ancient history Part I. Cambridge. 2008.
2. I. E. S. Edwards The Cambridge ancient history Part II. Cambridge. 2008.
3. I. Shaw The Oxford History of Ancient Egypt. Oxford. 2003.
4. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka. " World history: patterns of interaction". Oxford University Press. England, 1994.
5. SUSAN WISE BAUER. The History of the ANCIENT WORLD. WW Norton, 2007.
6. Fernand Braudel. A history of civilizations. Allen Lane the Penguin Press. 2007.
7. A brief history of ancient Greece : politics, society, and culture / by Sarah B. Pomeroy. New York • Oxford. Oxford university press, 2004
8. Simon Baker. Ancient Rome. The rise and fall of an empire. BBC Books; Reprint edition. 2007.
9. Victor Parker. A History of Greece, 1300 to 30 bc. WILEY Blackwell. 2014.
10. Антология источников по истории, культуре и религии Древней Греции. – СПб., 2000.
11. Бузескул В. П. Введение в историю Греции. Обзор источников и очерк разработки греческих историков XIX–начала XX в. / В. П. Бузескул. – СПб: Коло ИД, 2005
12. Бикерман Э. Хронология Древнего мира : Ближний Восток и античность / Э. Бикерман; пер. с англ. И. М. Стеблин-Каменского ; отв. ред. М. А. Дандамаев. – М: Наука, 1975.
13. Бузескул В. П. Введение в историю Греции. Обзор источников и очерк разработки греческих историков XIX–начала XX в. / В. П. Бузескул. – СПб.: Коло ИД, 2005
14. Вигасин А. А. История древнего востока. – Москва., 2006.
15. История Древней Греции. Под. ред. В. И. Кузищина. М., 2005.

16. История Древней Рима. Под. ред. В. И. Кузищина. М., 2005.
17. Источниковедение истории Древнего Востока. – М., 1984.
18. История Древнего Мира под ред. Дьяконова И. М. – М., 1982.
19. История Древнего Мира (3 книги). – М., 1982-1988.
20. История Древнего Мира. Курс лекции I, II, III Том. – М., 1983-1989.
21. Историография античной истории : учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности «история» / под ред. В. И. Кузищина. – М: Высшая школа, 1980.
22. Кузищин В. И. и др. История Древнего Мира. Метод. ук. – М., 1984.
23. Карпюк С. Г. Лекции по истории Древней Греции / С. Г. Карпюк. – М.: Ладомир, 1997
24. Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент, 2009.
25. Суриков И. Е. Древняя Греция: история и культура. М., 2005
26. Словарь античности / пер. с нем. В. И. Горбушина [и др.]; редкол. – М., 2006.
27. Суриков И. Е. Архаическая и классическая Греция: проблемы истории и источниковедения: учебное пособие / И. Е. Суриков. – М: КДУ, 2007.
28. Трухина Н. Н., Смышляев А. Л. Хрестоматия по истории Древней Греции для средней школы. – М., 2000.
29. Хрестоматия по истории Древнего мира: Эллинизм. Рим / Под ред. В. Г. Боруховича и др. – М., 1998.
30. Хрестоматия по истории Древней Греции. Под. Ред. Д. П. Каллистова. – М., 1964.
31. Хрестоматия по истории Древнего Рима. Под. Ред. С. Л. Утченко. – М., 1962.

MUNDARIJA

QADIMGI SHARQ	4
Mavzu: Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi	4
Mavzu: Qadimgi Misr	10
Mavzu: O'rta podsholik davrida Misr	21
Mavzu: Yangi va So'nggi podsholik davrida Misr	26
Mavzu: Qadimgi Mesopotamiya	38
Mavzu: Bobil podsholigi	45
Mavzu: Qadimgi Ossuriya	55
Mavzu: Qadimgi Kichik Osiyo	66
Mavzu: Qadimgi Frigiya va Lidiya davlatlari	76
Mavzu: Qadimgi Eron	87
Mavzu: Qadimgi Hindiston	100
Mavzu: Qadimgi Xitoy	115
QADIMGI YUNONISTON	126
Mavzu: Qadimgi Yunoniston tarixiga kirish	126
Mavzu: Krit-Miken sivilizatsiyasi rivojlanishi xususiyati	131
Mavzu: Miloddan avvalgi XI asr oxiri–VI asrlarda Yunoniston	142
Mavzu: Attika xo'jaligi, ijtimoiy-siyosiy hayoti va Yunon-fors urushlari	150
Mavzu: Mil. avv. V-IV asrlarda Yunoniston. Polis tizimining inqirozi	178
Mavzu: Aleksandr Makedonskiy imperiyasi va Ellinizmni Sharqqa yoyilishi. Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari	195
QADIMGI RIM	211
Mavzu: Qadimgi Rim tarixiga kirish	211
Mavzu: Qadimgi Italiya va Ilk Rim respublikasi	216
Mavzu: Mil. avv. III-II asrlarda Rim respublikasi	228
Mavzu: Rim respublikasi inqirozi va Ilk imperiya davri	241
Mavzu: Rim imperiyasining oltin davri	258
Mavzu: So'nggi Rim imperiyasi	273

**D. J. URAKOV, R. N. TURSUNOV
A. A. BIYKUZIYEV, B. B. XAYNAZAROV**

JAHON TARIXI

Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi

o'quv qo'llanma

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020

Muharrir: F. Xolsaidov

Texnik muharrir: Q. Mamiraliyev

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.

Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.

"Times New Roman" garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 19. Nashr bosma tabog'i 18,25.

Adadi 200 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.